


Joanna Ketlin Rouling



Garrı Potter

GARRI POTTER VA
ZOTI PAST SHAHZODA

JAHON ADABIYOTINING JAVOHIRLARI

Joanna Ketlin ROULING

GARRI POTTER

(ruschadan Dolimov Shokir tarjimai)

GARRI POTTER VA ZOTI

PAST SHAHZODA

(«Garri Potter» romanlar turkumining VI qismi)



“Ilm-ziyo-zakovat”

Toshkent – 2020

UDK: 321-465-1

KBK: 84(4Bbr)

R-79

Joanna Ketlin Rouling. «Garri Potter va Zoti past shahzoda» / roman / «Garri Potter» romanlar turkumining VI qismi / «Jahon adabiyotining javohirlari turkumi» –

T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2020. – 608 b.

Nashrga tayyorlovchi, Izoh va iqtiboslarni kirituvchi:

Ergashboy MATYOQUBOV.

HURMATLI KITOBXON!

Hurmatli kitobxonlar! «Garri Potter» romanlar turkumi ona tilimizga tarjima qilishdan maqsad, seyr-jodu yoki afsungarlikni targʻib qilish emas, aksincha yoshlarning yaxshilikka, adolatga, haqiqatga, mehr-muhabbatga boʻlgan ishonchini yanada mustahkamlashdir.

Sizlar «Garri Potter» romanlar turkumi «Garri Potter va Zoti past shahzoda» deb nomlanuvchi ushbu qismida yovuz kuch Voldemortning tobora yuksalib borayotganligiga guvoh boʻlasiz.

Bu xavfni bartaraf etish uchun Albus Dambldor va Garri Potter nimalar qilishadi?

Ular qilgan ishlar «Xogvars»ni halokatdan saqlab qola oladimi?

Garri Potter Voldemortni magʻlub eta olish sirini bila oladimi?

Professor Snegg qaysi tomonda: adolat tomonidami yoki jaholat?

Ushbu savollarga kitobni oʻqish davomida javob topasiz.

UDK: 321-465-1

KBK: 84(4Bbr)

ISBN: 978-9943-6325-9-2

© J.K.Rouling.

© “Ilm-ziyo-zakovat”, 2020-yil.

SO‘ZBOSHI

Hech kimga sir emaski, kitob mutolaasi barchaning, shu jumladan, yoshlarning qalbiga ezgulikka, yaxshilikka xizmat qilish tuyg‘usini singdiradi. Shuningdek, kitob mutolaasi orqali yoshlarimizning ongi rivojlanadi, mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Shunisi ham muhimki, badiiy kitoblar yoshlarimizni «XXI asrning dahshatli quroli – internet axboroti xuruji»dan himoyalash vazifasini ham to‘laqonli bajaradi. Shuning uchun o‘shib kelayotgan yosh avlodni kitoblar bilan ta‘minlash har qanday davlat va jamiyatning asosiy burch va vazifasidir.

Kitoblarning davlatimizning asosiy kuchi hisoblangan yoshlar hayotida qanchalik muhim o‘rin tutganini yurtimiz prezidenti **Shavkat Mirziyoyevning** 2017-yil 13-sentyabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarorida ham bevosita ko‘rishimiz mumkin. Ushbu farmoyishda yurtimiz adiblarining kitoblarini chop etish bilan birga jahon adabiyoti namoyandalari yotuk asarlarini saralash, tarjima qilish vazifalari alohida ko‘rsatilgan va bunday kitoblarning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi alohida ta‘kidlangan.

Shularga tayangan holda ingliz adibi **Joanna Ketlin Rouling** tomonidan yozilgan «**Garri Potter**» romanlar turkumi rus tilidagi tarjimasida (rus tiliga **Mariya Viktorovna Spivak** tarjima qilgan) podpolkovnik **Dolimov Shokir Zokirovich** tomonidan ona tilimizga tarjima qilingan. Qo‘lingizdagi ushbu kitob **Garri Potter**» romanlar turkumini oltinchi, ya‘ni «**Garri Potter va Zoti past shahzoda**» deb nomlanuvchi qismidir.

Siz «**Garri Potter**» romanlar turkumi asosida chop etilayotgan kitoblarni o‘qish orqali adolatning jaholat ustidan, ezgulikning yovuzlik ustidan, haqiqatning yolg‘on ustidan doimo tantana qilib kelganiga guvoh bo‘lasiz. Ushbu fikrimizning isboti sifatida asarning asosiy qahramonlari – **Albus Dambldor** va **Garri Potter** orasidagi quyidagi suhbatni keltiramiz («**Garri Potter va Falsafiy tosh**» kitobidan):

Garri Potter: – Nima uchun **Kvirrell** menga qo‘l tekki olmadi?

Albus Dambldor: – Onang seni himoya qilib, halok bo‘ldi. Bu dunyoda **Voldemort** va unga o‘xshaganlar tushunib yetmaydigan

shunday bir tushuncha borki, o'g'lim, u ham bo'lsa, muhabbat. Onangning senga bo'lgan muhabbati va ushbu muhabbat kuchi o'z izini qoldirishi mumkinligini u hech idrok eta olmaydi. Bu iz peshonangdagi chandiq ham emas, biror-bir ko'zga ko'rinadigan boshqa alomat ham emas... Onangning senga bo'lgan muhabbati juda kuchli bo'lgani uchun u vafotidan so'ng ham o'z muhabbati ila himoya qilib boradi seni. Vujudingga onangning muhabbati singib ketgan. Shu bois ham o'z jon-u tanini Volde-mort bilan baham ko'rib, yuragi nafrat, hasrat va g'azabga to'lib-toshgan Kvirrell senga qo'l tekkiza olmadi. Onaning farzandga bo'lgan mehr-muhabbatiga qarshi qo'l ko'tarish uning uchun, tom ma'noda, o'lim bilan barobar bo'ldi.

Demak, asar muallifi ham xuddi shunday fikrda, ya'ni bu asarda ta'riflangan voqealar (garchi ko'proq xayolot mahsuloti bo'lsa-da) tom ma'noda ezgulik va yovuzlik orasidagi ramziy kurashlardan iborat ekanligi va bu kurashlarda mehr-muhabbatning, adolatning, ezgulikning, haqiqatning doimo g'olib chiqishini tasvirlagan.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, bu asar rus tilidan, shunchaki so'zma-so'z tarjima qilinmadi. Balki asarni tarjima qilish va nashrga tayyorlash jarayonida imkoni boricha asarga sharqona, ya'ni milliy mentalitetimizga xos xususiyat berishga harakat qilindi. Shuningdek, asarda uchraydigan har xil afsonaviy va tarixiy obrazlar, ilmiy va badiiy atamalar, marosim nomlari bildiruvchi so'zlar va shu kabi izohlab so'z va jummalarga alohida iqtibos-u izohlar keltirildi (**ushbu iqtibos va izohlarning aksariyati asarning ingliz tilidagi nashrida ham va rus tilidagi tarjimasida ham yo'q**). Bu esa o'z navbatda kitobxonning so'z boyligining oshishiga va dunyoqarashining o'sishiga xizmat qiladi. Qolaversa, kitobxon badiiy asarni o'qish haro-barida ona tilimizning imlo qoidalarini o'rganishi va o'zida ko'nikma hosil qilib borishini ko'zda tutgan holda asarning mazkur nashri hozirgi o'zbek adabiy tilining imlo qoidalariga moslangan holda berildi.

Badiiy kitoblarning mutolaasi sizlarning orangizdan ham butun dunyoga tanilgan **Joanna Ketlin Rouling** kabi mashhur adib chiqishiga yordam beradi degan niyatdamiz!

Zero, yaxshi niyat – yarim davlat!

**Nashrga tayyorlovchi: «GOLD STAR EDUCATION» NTM
direktori – Matyakubov E. R.**

I BOB

YANGI VAZIR

Tun yaqinlashyapti. Buyuk Britaniya bosh vaziri o'z xizmat xonasida tanho o'zi, uzundan uzoq memorandumni¹ o'qib o'tiribdi-yu, olis davlat prezidentining qo'ng'iroq qilishini kutayotgani bois miyasi biron-bir ma'no uqmayapti. Ayni vaqtda u nihoyatda cho'zilib, charchatib yuborgan noxush hafta davomida ro'y bergan hodisalar bilan bog'liq, miyasida boshqa narsalarga joy qoldirmagan xotiralardan xalos bo'lishga urinmoqda.


– Qachon qo'ng'iroq qilishni lozim topar ekan, anavi jin urgur janob.

Fikrini memorandum mazmuniga jamlashga qanchalik harakat qilsa, ko'z o'ngida siyosiy muxolafat vakilining qabih basharasi shunchalik ayon gavdalanmoqda. U yaramas bugungi yangiliklarda paydo bo'lib, eslatish shartday, hafta davomida yuz bergan halokatlarni sanab o'tdi va bu ham kamlik qilganday, o'sha baxtsizliklarning bariga amaldagi hukumatning aybdorligini batafsil izohlab o'tdi.

Unday ayblovlar bilan bog'liq fikrning o'zi Bosh vazirning yurak urishini tezlatib yubordi.

«Yolg'on va nohaqlik! Qanday qilib hukumat shahar ko'prigining vayron bo'lishiga yo'l qo'ymay, bunday holatning oldini olishi mumkin edi? – o'zidan o'zi so'radi u. – Ko'prik saqlash tadbirlari oxirigacha moliyalashtirilmaganligiga oid fitna soluvchi shamalarini qarang-a?! Foydalanishga topshirilganiga o'n yil ham bo'lgani yo'g'-u hali! Eng sara mutaxassis-

Memorandum (lotincha: *memorandum* - eslashga arziydigan, eslash kerak bo'lgan narsa) - biror davlatning diplomatik yozishmalar orqali hal qilinadigan masalalar mohiyatini o'z nuqtai nazaridan batafsil bayon qilib yozgan diplomatik hujjat; 2) biror masala bo'yicha bildirishnoma, xizmat ma'lumotnomasi.



ekspertlarning¹ boshi qotib qoldi. Nega endi tuppa-tuzuk turgan ko'prik o'nlab avtomobillarni daryo tubiga yo'llagancha, dabdurustdan ikki bo'linib ketadi? Og'izdan og'izga o'tib ketgan so'nggi ikkita qotillik politsiyachilar soni yetishmayotgani sababli sodir etildi degani-chi?! U ham mayli, G'arbiy graflikda yuz berib, katta moddiy zarar keltirgan, odamlar orasida ko'plab talafot ila yakun topgan g'alati dovulni qay tarzda oldindan ko'ra bilish mumkin? Mahkamada faoliyat yuritayotgan kichik vazirlardan biri Gerbert Chortli aynan shu haftada tuturiqsiz gap aytgan bo'lsa, menda nima ayb? Oilasiga ko'proq vaqt ajratishi kerak edi emish».

Bosh vazir biroz o'yga toldi.

«Mamnun irjayishini yashirishga istar-istamas uringan bo'lsa-da, «Mamlakat aholisi orasida noxush kayfiyat qaror topdi», degani, afsuski, rost, – xayoldan o'tkazdi u. – Buni o'zim ham ko'rib turibman. Odamlarni odatdagidan ko'ra ko'proq g'am-g'ussa bosgan. Ob-havo ham kishi nafratini qo'zg'atadi. Iyul oyining qoq o'rtasida bunday sovuq tuman tushishi... Hamma narsa g'ayritabiyy, bari noto'g'ri...»

Memorandumning ikkinchi sahifasini varaqlab, yana qancha o'qish kerakligini ko'rgan Bosh vazir nihoyat taslim bo'lib, hujjatni chetga surdi.

«O'qib uqmagach, nima foyda?!».

U qo'l ko'tarib, kerishib oldi-da, xonaga g'amgin nigohla ko'z yugurtirdi. Tavaqalari ikki yoqqa surilib ochiladigan, yoz mavsumiga xos bo'lmagan g'ayritabiyy sovuq tufayli yopib qo'yilgan deraza bilan ajoyib marmar kamin² shundoq ham chiroyli xonaga yanada ko'rk bermoqda. Eti junjikib ketgan Bosh vazir o'rnidan turib, derazaga yaqin bordi-da, oynaga yopishib qolgan qalin tumanga qaradi. Xonaga orqa o'girib turar ekan, kimningdir asta yo'talib qo'yganini eshitdi.

¹ **Ekspert** (*fransuzcha*: expertise – tajribali; sinalgan) – qiyin yoki chigal masalani yechuvchi va hal qiluvchi uchun mutaxassis.

² **Kamin** (*nemischa*: Kamin; *valloncha*: kaminos – o'choq, pech) – devorga o'yib ishlangan, keng ochiq o'txonasi va tik no'risi bo'lgan, bevosita yoqilg'i alangasi bilan xonani isitadigan o'choq.

Muqaddam eshitgan, kim yo'talganini yaxshi anglagan Bosh vazir o'zining cho'chib ketgan aksiga qaragancha, serryib qoldi. Xonada hech kim yo'q.

– Kim u? – ikkilanib so'radi Bosh vazir, soxta dadil ovozda.

Savoliga javob eshitmaslikka umid qilishga jur'at etdi-yu, taassufki, oldindan tayyorlangan bayonotni o'qib eshittirayotgan amaldorday gapiradigan ovoz sohibining qat'iy yangragan uzuq-yuluq gapini eshitishga to'g'ri keldi. Ushbu ovoz boshiga kumush tusli parik tashlab olgan bo'lib, basharasi baqani eslatadigan kishi tasvirlangan kichik o'lchamli, biroz kir portret-dan chiqayotganini Bosh vazir ilk fursatda idrok etib bo'lgan.

Magllarning¹ Bosh vaziriga.

Shoshilinch uchrashuv uyushtirish lozim. Zudlik bilan javob berishingizni so'rayman.

Yaxshi tilaklar ila, Fuj.

Portretida tasvirlangan kishi Bosh vazirga savol nazarida qarab qoldi.

E-e-m... quloq soling... g'udulladi Bosh vazir, – hozir mavridi emas... O'ta muhim qo'ng'iroq kutypman... prezident...

Qo'ng'iroqni kechiktirish mumkin, gapni kesdi portret.

Aynan shunday javob eshitishdan cho'chigan Bosh vazirning yuragi orqaga tortib ketdi.

– Biroq bu qo'ng'iroq, chindan ham...

– Prezident qo'ng'iroq qilish kerakligini unutib, ertaga kechqurun eslaydi. Biz buni uyushtiramiz, ma'lum qildi portretida tasvirlangan kishi. – Iltimos qilaman, mister² Fujga зудlik bilan javob bering.

A-a... e-e-m... yaxshi, – bo'shashgan ovoz-la, po'ng'il-

¹ **Magl** – sehrgarlik qobiliyatlardan mahrum bo'lgan yoki sehrgarlar oilada tug'ilgan inson. Magllar ham o'zlarini tomirida bir tomchi ham sehrgarlik qoni bo'lmagan odamlar deb ta'riflashgan.

² **Mister** – Angliya va AQSHda: erkaklarga murojaat shakli.

ladi Bosh vazir. – Uchrashganim bo'lsin, Fuj bilan.

U galstugini to'g'rilab, yozuv stoliga yaqinlashdi. Endigina o'tirib, beparvo qiyofa yasashga uringan ediki, kaminning marmar tokchasi ostidagi bo'm-bo'sh o'choqda yashil tusli yorqin olov yarqiradi. Qo'rquvini bazo'r jilovlab olgan Bosh vazir olov tili orasida paydo bo'lgan allaqanday buraluvchan kanop¹ bir zumda to'ladan kelgan, basavlat kishiga aylanayotganini ko'rdi. Yana ikki soniya o'tgach, qo'liga sarg'ish yashil qozon shlyapa ushlab, uzun, yo'l-yo'l ridosining² yengidagi kulni qoqayotgan mehmon antiqiy kamin gilamchasiga oyoq qo'ydi.

– O, Bosh vazir janoblari, – xitob qildi Kornelius Fuj, qo'lini oldinga uzatgancha, mezbon tomon qat'iy odimlab. – Sizni yana ko'rib turganimdan bag'oyat xursandman.

Samimiy javob qaytara olmagan Bosh vazir indamaslikni afzal ko'rdi. Fujning tashrifidan xursand bo'lmadi. Chunki har zamonda qo'rqinchli tarzda paydo bo'ladigan ushbu shaxs navbatdagi noxushlikdan darak bergani keladi, xolos. Ustiga ustak, ko'zi kirtayib, oqargan sochi siyraklashgan, horg'in yuzi tashvish qiyofasi aks etgan Fujning sog'ligi yaxshi emasga o'xshaydi. Siyosatchining bunday ahvoli xushxabar alomati emasligini ko'pni ko'rgan Bosh vazir yaxshi biladi.

– Xo'sh, xizmat? – so'radi u, mehmonga qo'l berar ekan, yozuv stolining qarshisidagi qattiq kursiga imo qilib.

– Nimadan boshlashni bilmay ham qoldim, – g'udulladi, kursiga o'tirib, yashil tusli qozon shlyapasini tizzasiga qo'ygan Fuj. – Bunaqangi haftani hali ko'rmaganman...

– Sizda ham shu ahvolmi, deyman? – quruq qiziqdi Bosh vazir, boshqa birovning muammolarisiz ham tashvishi yetarlidan ortiq ekaniga shama qila olganiga umid qilib.

– Albatta, – javob berdi ko'zini horg'in ishqalab, suhbatdoshiga baqraygan Fuj. – Sizni qiynayotgan muammolar bizni ham tashvishga soladi, muhtaram Bosh vazir. O'sha Brokdeyl

¹ **Kanop** (*ruscha*), **kenaf** (*lotincha*) – poyasidan tola olinadigan, bir yillik baland o'tsimon o'simlik: uning tolasi.

² **Rido** – 1) yopinchiq; 2) maxsus kiyim.

ko'prigi... Bouns bilan Vansni o'ldirib ketishgani... G'arbiy grafikda ko'tarilgan dahshat haqida-yu, gapirmasa ham bo'la-veradi...

- Siz... e-e-m... sizlar... aytmoqchimanki, oralaringdan kimdir daxldormi... bo'lib o'tgan hodisalarga?

- Shunday, -- javob berdi Fuj, Bosh vazirga qat'iy nigoh-la qarab. - Gap nimada ekanini tushunib yetgansiz, degan umidda edim. Yoki adashyapmanmi?

- Men... esankiradi Bosh vazir.

Mana shuning uchun ham Fujning tashrifini yoqtirmaydi u. Bu qanaqasi axir? Bosh vazir-u u, har qalay. Nega endi u o'zini xuddi uyga berilgan vazifani bajarmay kelgan o'quvchiday his etishi kerak. Afsuski, ilk bor uchrashgandan buyon shu ahvol. Hayotining so'nggi soatigacha unutishi amrimahol bo'lgan o'sha uchrashuvni kecha o'tganday yaxshi eslaydi.

Endigina saylangan Bosh vazir o'shanda ham ushbu xonada tanho o'zi, ko'p yillik kurash va mashaqqatlardan so'ng qo'lga kiritilgan g'alabadan miriqayotgan edi. Daf'atan eshitilgan yo'tal o'shanda ham bugungiday cho'chitib yuborgan edi. Ortga o'girilib, anavi gapiradigan badbashaadan, qarangki, alla-qanday sehrgarlik vaziri tanishish uchun tashrif buyurmoqchi bo'lganini bilgan edi.

Tabiiyki, o'shanda u quti o'chib, esi biroz og'ib qolgan-day his etdi o'zini. Hazilakam gapmi, axir, uzoq davom etgan saylovoldi tadbirlari, targ'ibot-tashviqot ishlari, xususan, saylov-nung o'zi... Bularning bari har qanday kishini ruhan va jismonan zo'rqiqtirib toliqtiradi, albatta. Portret kutilmaganda tilga kirib, o'larcha qo'rqiqtirib yuborgani, qo'l siqishga oshiqqan sehrgarning kamun olovidan sakrab chiqqani oldida hech gap emas. Omona-tun topshirib qo'yishiga sal qolgan Bosh vazir tili kalimaga kelmay o'tuar ekan, Fuj, mamlakat hududida sehrgarlar elatining ko'plab vakillari azaldan yashab kelishi, ammo ular borasida qiyq'urish shart emasligi, negaki bu ishni Buyuk Britaniya Sehr-garlik vazirligi o'z zimmasiga olgan bo'lib, magllar deb atala-digan sehrgar bo'lmagan jamiyatdan sir tutishini tushuntirib berpanday bo'ldi. Shu bilan bir vaqtda, supurgidan foydalanish

qoidalariga amal qilinishidan tortib, ajdarlar sonini nazorat qilib borishgacha bo'lgan tadbirlarning sir tutilishini ta'minlash oson kechmasligini xushmuomalalik-la alohida ta'kidlab o'tdi.

Ajdarlar haqida eshitib, stolga qapishib olgancha, o'ziga kela olmay o'tirgan Bosh vazirning yelkasiga otalarcha urib qo'ygan Fuj qo'shib qo'ydi:

– Xavotir olmang, biz qayta ko'rishmasligimiz ham mumkin, agar sehrgarlar olamida biron-bir o'ta jiddiy, magllarning, ya'ni aytmoqchimanki, sehrgar bo'lmagan jamiyatning hayotiy faoliyati va farovonligiga nisbatan xavf tug'diradigan hodisalar yuz bermasa. Umuman aytganda biz «O'zing yaxshi yasha, qo'shningga ham tinchlik ber» tamoyiliga amal qilamiz. Ta'kidlab o'tishim joizki, o'zingizni eski Bosh vazirga nisbatan ancha vazmin tutmoqdasiz. U meni qarshi kuchlar tomonidan yuborilgan g'alamis sifatida ko'rib, derazadan uloqtirib yubormoqchi bo'lgan edi.

– Demak, siz... g'alamis emassiz? – umid-la so'radi, nihoyat nutqi tiklangan Bosh vazir.

Yo'q, – muloyim ohangda javob berdi Fuj. – O'ylaymanki, yo'q. Mana qarang.

Fuj Bosh vazirning yozuv stoli ustida turgan chashkasini og'maxonga aylantirdi. Sobiq chashkasi ilk nutqining matni bitilgan qog'oz burchagini kemirishga kirishganini ko'rgan Bosh vazir asta pichirlab so'radi:

– Biroq nima uchun... nima uchun menga hech kim hech nima demadi bu haqda?...

– Sehrgarlik vaziri o'zini magllarning faqat amaldagi Bosh vaziriga tanishtiradi, – dedi Fuj, sehrli tayoqchasini kissaga joylab. – Maxfiylikka amal qilish masalasiga jiddiy qaraymiz.

– Unday bo'lsa, – ma'ragan ovoz chiqardi Bosh vazir, – nima uchun eski Bosh vazir menga hech nima demadi?

Fuj xandon otdi.

– Muhtaram Bosh vazir janoblari, o'zingiz-chi, men haqimda biror-bir kishiga aytib bergan bo'larmidingiz?

Kulishdan to'xtamagan Fuj kamin cho'g'iga allaqanday kukun tashlab, gurullab yongan zumradrang olovga odimladi-da,


shitirilgan tovush chiqargancha ko'zdan g'oyib bo'ldi. Turgan joyida qoqilgan qoziqday qotib qolgan Bosh vazir, ushbu uchrashuv haqida hech qachon, hech kimga churq etmaslik borasida o'ziga o'zi so'z berdi. Aytgan taqdirda ham qaysi ahmoq ishonadi uning gapiga?

U ancha vaqtgacha o'ziga kela olmay yurdi. Dastlab, Fuj, chindan ham, saylovoldi kunlarida kechgan uyqusizlik tufayli ro'y bergan gallyutsinatsiya¹ ekaniga o'zini ishontirishga urindi. Noqulay xotiradan xalos bo'lishga uringancha, og'maxonni jiyaniga sovg'a qilib, baxtiyor ayladi. Shaxsiy kotibiga esa Fujning tashrifini ma'lum qilgan anavi badbasharaning portretini yechib, xonadan chiqarib tashlashni buyurdi. Biroq portretni yechib olishning iloji bo'lmadi. Bir necha duradgor, ikki nafar quruvchi, san'atshunos mutaxassis va g'aznachilik kansleri² harchand urinishmasin, devorga mahkamlangan la'nati portretni yecha olishmadi. Taqdirda tan bergan Bosh vazir badbasharaning tasvirini o'z holiga qo'yib, toki hukumat boshida bo'lar ekan, portret qayta tilga kirmasligiga umid bog'ladi. Biroq ont ichishga tayyorki, ba'zan u ko'z qiri ila badbasharaning esnagani, burnini qashlagani, bir-ikki bor kir matoni bo'm-bo'sh qoldirgancha, qayoqqadir g'oyib bo'lganini ko'rdi. Shunga qaramay, Bosh vazir, zarurat bo'lmasa, portret tomon qiyo boqmaslikka odatlandi. Agar g'alati holatni payqab qolsa ham uni ko'z aldanishi sifatida qabul qiladigan bo'ldi.

Oradan uch yil o'tgach, Bosh vazir bugungiday tanho o'zi o'tirgan oqshom mahalda portret yana tilga kirib, sehrgarlik vazirining qutulib bo'lmaydigan tashrifi haqida ma'lum qildi. Xayol o'tmay, ust kiyimi shalabbo Fuj kamin ichidan vahima ila sakrab chiqdi. Xona sohibi qadimiy kamin gilamchasini ho'l qilish shart emasligi haqida fikr bildirmoqchi bo'lib, endigina og'iz juftlagan ediki, Fuj, entikib-entikib Bosh vazir hayotda

¹ **Gallyutsinatsiya** (*lotincha:* hallucinatio - xom xayol; alahlash) - bosh miya faoliyatining buzilishi natijasida ko'rish, eshitish, sezish, hidlash a'zolarining chalg'ishi, yo'q narsa va hodisalarni bordek idrok etish.

² **Kansler** (*nemischa:* Kanzler) - ba'zi mamlatlarda oliy davlat lavozimi va shu lavozimdagi amaldor.



eshitmagan Azkaban qamoqxonasi, Siri Us Blek ismli allaqanday dahshatli mahbus, qandaydir «Xogvars» maktabi va Garri Potter ismli o'quvchi bola haqida, umuman aytganda, tushunarsiz bema'niliklar to'g'risida gapira ketdi.

– O'rta dengizning qoq o'rtasida joylashgan Azkabandan to'g'ri sizning huzuringizga kelyapman, – hansiradi o'shanda Fuj, qozon shlyapasiga to'lgan bir chelak suvni polga to'kib. – Qanday parvoz ekanini tasavvur qiling... Dementorlar¹ isyon ko'targan... – dedi u, o'zining gapidan o'zi seskanib. – Maxsus sarhadlardan tashqariga chiqmagan ular... Iloj qancha, to'g'ri shu yerga, huzuringizga kelishga to'g'ri keldi. O'sha Blek ko'plab magllarning yostig'ini quritgani bois dong'i ketgan qotil sanalib, «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» tarafdorlarining safiga qo'shilish ehtimoli bor... Aytganday siz, «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ning kimligini bilmaysiz-u, a?! – so'radi Fuj, Bosh vazirga umidsiz baqrayib. – O'tiring, o'tirib olsangiz-chi... Viskidan² iching... sizga bor gapni o'zim aytib beraman...

Ajoyib! Bosh vazirga o'z xizmat xonasida o'tirishga, hatto o'z viskisini ichishga ijozat berildi! Kayfiyati e'tirozli bo'lsa-da, Bosh vazir kreslosiga o'tirdi. Schrli tayyoqchasini chiqargan Fuj esa havoda qahraborang suyuqlik to'ldirilgan ikkita katta stakan yaratdi-da, bittasini hayratdan og'zi ochilgan Bosh vazirning qo'lga tutqazdi. So'ng kursini yaqinroq tortib, o'zi ham astoydil joylashib oldi.

Fuj bir soatdan ortiq gapirdi, ismlardan birini talaffuz etishdan qat'iy bosh tortib, pergament³ parchasiga yozdi-da, Bosh vazirning bo'sh qo'lga tutqazdi. Nihoyat, gapi tugagan Fuj

¹ **Dementor** – qadimiy rivoyat va afsonalarda aytilishicha, insonlar qalbiga qo'rquv va dahshat solib turadigan afsonaviy, ko'zga ko'rinmas maxluq. Bu maxluqlar, odatda, insonlarning mudhish xotiralaridan yuzaga kelgan. Shuning uchun asarda ularni haydash uchun quvnoq xotiralardan foydalanish tavsiya etilgan.

² **Viski** (inglizcha: whisky – obihayot) – o'tkir alkogolli ichimlik (hajmga ko'ra spirt miqdori 40-50 %). Asosan Angliya va AQShda tarqalgan.

³ **Pergament** (miloddan avvalgi II asrda xat yozish uchun xizmat qiladigan material tayyorlana boshlangan. Pergam shahri nomidan olingan) – 1) maxsus ishlov berilgan mol va cho'chqa terisidan doira, do'mbira, baraban va ba'zi mashina detallari uchun ishlatilgan; 2) sulfat kislotasi bilan ishlov berilgan qog'oz. Shaffof, yog' va suvni o'tkazmaydi.

o'rnidan turib ketishga taraddudlandi. Bosh vazir ham o'rnidan turdi.

– Demak, sizningcha... – dedi u, ko'zini qisib, pergament bo'lagiga qarar ekan, – Lord Vol...

– «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»! – baqirdi Fuj.

– Ma'zur tuting... ha, «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» hali tirik ekan-da?

– Dambldorning gapiga qaraganda, ha, tirik, – javob berdi Fuj, yo'l-yo'l ridoning iyagi ostidagi tugmasini qadab. – Faqat biz uni topa olmadik. Agar fikrim qiziqtiradigan bo'lsa, birov ko'mak bermas ekan, u hech qanday xavf solmaydi. Blek esa tashvish keltirishi mumkin. Demak, jamoatchilikni, ushbu jinoyatchi haqida voqif qilasiz, shundaymi? Juda soz. Xo'p, mayli. Umid qilamanki, endi ko'rishmaymiz. Xayrli tun.

Ammo ikkalasi yana ko'rishdi. Bir yil o'tar-o'tmas, Fuj, xuddi havodan to'qilganday paydo bo'lib, Kvidish¹ bo'yicha jahon chempionatida «to'qnashuv» ro'y bergani va ushbu mojaro-ga magllar ham «aralashib» qolgani haqida ma'lum qildi.

– Xavotirga o'rin yo'q, – dedi o'shanda Fuj. – «O'zingiz-Bilasiz-Kim»ga qarashli Ajal belgisi paydo bo'lgani, hali hech nimani anglatmaydi. Ishonchim komilki, bu yakka bir holat, xolos. Magllar bilan aloqa departamenti² esa jabrlangan magllar xotirasini o'zgartirish ishlarini shu fursatda yakuniga yetkazmoqda. Ha, aytganday, unutib qo'yishimga sal qoldi-ya, Uch sehrgar bellashuvini o'tkazish manfaatlarida xorijdan uchta ajdar va bitta sfinks³ keltirilgan. Bu oddiy tadbir, biroq vazirlikning

¹ **Kvidish** – supurgilarda uchib yuradigan o'n to'rt nafar sehrgar o'yinchi tomonidan, oltita tik o'rnatilgan halqali uzun tayoq va to'rtta uchar koptok vositasida o'ynaladigan o'yin.

² **Departament** (*fransuzcha*: departement – boshqarma, idora) – 1) Fransiyada va boshqa ayrim mamlakatlarda eng yirik ma'muriy-hududiy birlik; 2) ba'zi mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, mahkama, idora va vazirliklar yoki ular tarkibidagi bo'linmalarning nomi (**bu yerda shu ma'noda**); 3) ba'zi xalqaro tashkilotlarning bo'linma va shoxobchalari.

³ **Sfinks** – 1) yunon afsonalaridagi qanotli yarim ayol, yarim urg'ochi sher; Fiva yaqinidagi qoya ustida yashab, yo'lovchilarga topib bo'lmaydigan topishmoq aytib javob ololmagach, ularni yegan. Sfinks topishmog'i («Ertalab 4 oyoqlab, tushda 2 oyoqlab, kechqurun 3 oyoqlab yuradi?») ni Edip topgan (uning javobi: «inson bolalikda 4 oyoqlab,

Sehrli maxluqlar ustidan nazorat bo'limi amaldagi qoidalarga asosan, mamlakat hududiga o'ta xavfli maxluq olib kelingan har bir holat haqida sizni xabardor qilishimiz shart ekanini ta'kidlab, mendan o'z majburiyatimni bajarishni talab qilib turib oldi.

- Men... nima... ajdar? -- chiyilladi Bosh vazir.

- Ha, uchta, -- bosh iring'idi Fuj. -- Sfinks ham bor. Xo'p, mayli, omon bo'ling.

Bosh vazir ajdarlar-u sfinksdan battar narsa bo'lishi mumkin emasligiga juda umid qilgan edi. Afsuski, yanglishgan ekan. Oradan ikki yil o'tmay, Fuj yana kamindan sakrab chiqib, Azkaban mahbuslarining ommaviy ravishda qamoqdan qochgani haqida xabar berdi.

-- Ommaviy ravishda? -- xirillab so'radi Bosh vazir.

- Tashvish tortmang, buning qo'rqinchli yeri yo'q! -- bidirladi bir oyog'i bilan olovga kirgan Fuj. -- U ablahlarni tez orada qo'lga olamiz! Ma'lumingiz uchun xabar bergani keldim, xolos!

Bosh vazir «Yo'q, shoshmang!» deya qichqirmoqchi bo'ldi-yu, ulguradi. Yashil uchqun favvorasini sachratgan Fuj ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Matbuot-u muxoliflar nima demasin, Bosh vazir kalta-fahm emas. Ilk bor uchrashganda qayta ko'rishmaslikka ishon-tirgan, ammo tez-tez tashrif buyurib borgan Fujning yuzi tobora tashvishli qiyofa kasb etib borayotgani yaqqol ko'rinib turibdi. Garchi mag'llar hukumatining rahbari, o'z ta'biri ila aytganda, o'zga dunyoning Bosh vaziri haqidagi fikrdan o'zini o'zi tiyishga urinsa-da, yangi, yanada qayg'uli xabarlardan xavfsiramay qol-madi. Shuning uchun ham Fujning bugungi to'zg'igan, asabiy-lashgan va tashrifining sababini Bosh vazir bilmagani uchun biroz hayratlangan holatda paydo bo'lgani -- misli ko'rilmagan darajada og'ir kechgan haftaning eng mudhish hodisasi bo'ldi.

- Nega endi men... e-e-m... sehrgarlar olamida nima

ulg'ayganda 2 oyoqlab va keksayganda 3 oyoqlab yuradi»); shu javobdan so'ng Sfinks qoyadan o'zini tashlagan; 2) Qadimgi Misrda tanasi sherniki, kallasi odamniki (ba'zan hayvonniki) bo'lgan afsonaviy maxluq haykali.

bo'layotganini bilishim kerak? – achchiqlandi Bosh vazir. – Men o'z davlatimni boshqarmoqdaman. Sizlarsiz ham tashvishim boshdan oshib yotibdi...

Tashvishimiz umumiy, muhtaram Bosh vazir. – gapni bo'ldi Fuj. – Brokdeyl ko'prigining vayron bo'lish sababi ko'prikning eskirganida emas. Dovul ham aslida dovul emas. Qotilliklar mag'llar tomonidan sodir etilmagan. Gerbert Chortlining oilasi esa hozircha o'z boquvchisini ko'rmagani ma'qul. Ayni damda Chortlini Muqaddas Rezgi kasalxonasi g'alati jarohat va patologiyalar¹ institutiga olib o'tish choralari ko'rilmogda.

– Nimalar deyapsiz... tushuna olmayapman... nima?! – o'shqirdi Bosh vazir.

– Bosh vazir janoblari, – og'ir xo'rsindi Fuj, – afsus va nadomat-la ma'lum qilishim kerakki, u, ya'ni «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» hayotga qaytdi.

– Qaytdi? «Hayotga qaytdi», deganingizni qanday tushunish kerak?... Tirildimi? Ya'ni...

Bosh vazir xotirasiga zo'r berib, sehrgarlar elatining ko'plab mudhish jinoyatlar sodir etgan, o'n besh yil muqaddam g'oyib bo'lgan anavi dahshatli vakili haqidagi uch yil oldin o'tgan suhbatni bezovtalanib esladi.

– Ha, tirildi, – tasdiqladi Fuj. – Garchi... bilmadim... o'ldirib bo'lmaydigan shaxsga nisbatan bunday tushunchani... To'g'risini aytsam, ushbu masalalarni unchalik teran ang'lay olmayman, Dambldor esa tushuntirish bermayapti... Nima qilgan taqdirda ham uning tanasi bor, oyoqda yuradi, gapiradi, odam o'ldiradi... Shunday ekan, suhbatimiz mavzusiga bog'laydigan bo'lsak, yana tirildi desak ham bo'laveradi.

Bosh vazir nima deb javob berishni bilmay, voqiflik qiyofasiga ega bo'lishdek, azaliy istakka itoat qilgancha, muqaddam o'tgan suhbatlardan eslab qolgan ayrim ma'lumotlarga aniqliklar kiritib olishni xohladi.

¹ **Patologiya** (pato.. + *yunoncha*: logos – bilim, tushuncha) – organizmdagi kasallik jarayonlari va holatlarini, kasallikning paydo bo'lish sabablarini va oqibatini o'rganadigan fan va soha.

– Siri Us Blek-chi, anavi... e-e-m... «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» tarafdorlarining safiga qo'shildimi?

– Blek? – so'radi, xayoli qochgan Fuj, barmoqlari bilan qozon shlyapasining chetlarini chertib. – A-a, Sirius Blekni so'rayapsizmi? Yo'q, Merlin¹ soqoli. Blek o'ldi. Aniqlanishicha, Blek masalasida biroz... e-e-m... yanglishgan ekanmiz. Aybsiz ekan u. «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ning tarafdori ham bo'lmagan, ya'ni... – o'zini oqlagan ohangda qo'shimcha qildi Fuj, shlyapasining chetini yanada kuchli egib. – Barcha dalillar unga qarshi edi... ellik nafar guvoh tomonidan berilgan shohidlik... mayli, bularning endi ahamiyati yo'q. Blek o'ldi, aniqroq aytiladigan bo'lsa, o'ldirildi. Vazirlik binosida. Aytganday, ushbu holat yuzasidan tergov tadbirlari tayinlangan...

Bosh vazir suhbatdoshiga achinayotganini his etib o'zidan o'zi biroz hayratlandi-yu, biroq kaminma-kamin sakrab yurish havosini olmagan bo'lsa-da, u boshchilik qilayotgan vazirlik binosida qotillik, har qalay, bugungi kungacha sodir etilmaganidan g'ururlanib, irim qilgancha, barmog'i bilan yog'och stolni sezdirmay chertib qo'ydi.

– Xo'p, mayli. Blek masalasini chetga qo'ya turaylik. Gap shundaki, sehrgarlar olamida urush boshlandi. Tegishli chora-tadbirlar ko'rish lozim.

– Urush? – cho'chib ketdi Bosh vazir. – Bu mubolag'a, albatta, shundaymi?

– «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ning yanvar oyida Azkabandan ommaviy ravishda qochib ketgan malaylari o'z sohibiga qo'shilishdi, – shosha-pisha ma'lum qildi Fuj, qo'lidagi qozon shlyapasini nihoyatda tez aylantirib. – Endi ular ochiqdan ochiq chiqish qilishmoqda, misli ko'rilmagan dahshat boshlandi. Brokdeyl ko'prigi... muhtaram Bosh vazir, bu o'shaning ishi. Agar yon bermaydigan bo'lsam, magllarni ommaviy ravishda qira boshlashi ila do'q-po'pisa qilmoqda.

¹ **Merlin** o'rta asrda yaratilgan bir qancha afsonalarning qahramoni, Britaniyaning afsonaviy qiroli Arturning safdoshi bo'lib, karomatli va sehrgar hisoblangan. Xalq orasida tarqalgan ko'pgina karomatlarni shu odamga nisbat beriladi.

– O Xudo, odamlarning o‘limiga siz aybdor ekansiz-da! Men esa ko‘prik konstruksiyasining¹ zang bosgani, bir-biridan ajrab ketgan harorat choklari va yana allaqanday jin bilmas narsalar uchun o‘zimni o‘zim oqlashga majbur bo‘lib yuribman?! – e‘tiroz bildirdi Bosh vazir.

– Men aybdorman?! – taajjub-la e‘tiroz bildirdi Fuj. – Aytmoqchisizki, mening o‘rnimda bo‘lganingizda do‘q-po‘pisa-ga yon bergan bo‘lar edingiz, shundaymi?

– Ehtimol, yon bermagan bo‘lar edim, – dedi o‘rnidan turgancha, xona bo‘ylab u yoq bu yoq yura boshlagan Bosh vazir. – Biroq po‘pisa qilgan o‘sha shaxsni yovuzlik sodir etishiga yo‘l qo‘ymay, qo‘lga olish masalasida biror-bir ish tutgan bo‘lar edim!

– Fikringizcha, qo‘l qovushtirib o‘tiribman-da men, a? – qizishib ketdi Fuj. – Uni, malaylari bilan birgalikda, vazirlikning jamiki avrorlari² qidirishdi, hozir ham qidirishmoqda! Gap jamiki jahonning sehrgar elati orasidagi, o‘tgan zamonlarda bo‘lmagan eng qudratli afsungari, mana o‘ttiz yildirki, odil jazodan qochib qutulishga muvaffaq bo‘layotgan sehrgar to‘g‘risida bormoqda! Hamma balo shunda!

– Mabodo G‘arbiy graflikda³ bo‘lib o‘tgan dovulni ham o‘sha shaxsning qilmishi, demoqchi emasmisiz? – darg‘azab ohangda so‘radi Bosh vazir, har daqiqa o‘tgan sari qizishib.

Naqadar bemazagarchilik! Mana nihoyat, barcha baxtsizliklar sababi oydinlashdi. Biroq bularning barini keng omma e‘tiboriga havola etib bo‘lmaydi! Davlat hukumatining aybdorligidan ham besh battar-u bu!

– Hech qanday dovul bo‘lmagan, – asta ma‘lum qildi Fuj.

– Shoshmang, bir daqiqa! – o‘kirdi Bosh vazir, Fujga

¹ **Konstruksiya** (lotincha: constructio – to‘plash, yig‘ish; tuzilish, qurilish) – inshoot, mexanizm, asar va shu kabilarning tuzilishi, qismlarining o‘zaro joylashuvi; murakkab tuzilishli inshoot, mexanizm va shu kabilarning o‘zi.

² **Avror** – yovuz sehrgarlar va zulm qodulariga qarshi kurashishga ixtisoslashgan sehrgarlik darajasi va lavozimi.

³ **Graflik** – Angliya, Irlandiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari va boshqa ba‘zi davlatlarda yirik ma‘muriy-hududiy birlik.



shaxdam qadam-la yaqinlashib. – Ildizi bilan qo'porilgan daraxtlar, uchirib yuborilgan bino tomlari, mudhish jarohatlar...

– O'limdan zavqlanuvchilarning qilgan ishi bu, – dedi Fuj. – «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ning malaylari o'zlariga shunday nom bergan. Bundan tashqari... gigantlarning¹ izi ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

– Nimalarning izlari? – so'radi Bosh vazir, xuddi ko'rinmas devorga urilganday, yurishdan keskin to'xtab.

Fujning yuzi zahmat chekayotgan kishining qiyofasiday burishib ketdi.

– Ilgari u odamlar orasida vahima ko'tarish maqsadida, o'z jinoiy qilmishining alohida holatlariga gigantlarni ham sherik qilgan. Vazirlikning Yolg'on xabarlar tarqatish departamenti aslida nima bo'lganini ko'rgan magllarning xotirasini o'zgartirish borasida tinim bilmay kun-u tun mehnat qilmoqda. Hodisa joyiga xotira o'chiruvchilar yo'llangan. Somerset grafligiga esa Sehrli maxluqlar ustidan nazorat bo'limining jamiki avrorlari tashlangan. Ammo gigantlar bugungi kungacha topilmadi... dahshat.

– Yo'g'-e! – kesatdi Bosh vazir, darg'azab ohangda.

– Yashirmayman, vazirlik xodimlari orasida ruhiy tushkunlik qaror topgan, – iqror bo'ldi Fuj. – Bo'layotgan ishlarning bari... Buning ustiga, Amaliya Bounsni yo'qotganimiz...

– Kimni?

– Sehrli huquqni muhofaza qilish departamentining rahbari Amaliya Bounsni. Marhuma hech kim bas kela olmaydigan, nihoyatda kuchli afsungar ayol edi. Taxminlarga ko'ra, uni «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ning shaxsan o'zi o'ldirgan... Bechora ayol so'nggi kuchigacha jang qilgani yaqqol bilinib turibdi, – dedi Fuj, zo'riqib yo'talgancha, qozon shlyapasini tek qo'yib.

– Bu haqda gazetalarimizda yozishgan edi, – esladi Bosh vazir, g'azabini unutib. – Amaliya Bouns... Ha, to'g'ri, yolg'iz

¹ **Gigant** – qadimgi yunon tarixchilari Gomer va Vergiliy asarlarida uchraydigan afsonaviy dahshatli maxluq.

yashagan keksa ayol. Qandaydir... juda mudhish qotillik sodir etilgan, shundaymi? Bizning dunyomizda qattiq shov-shuv ko'tarilgan, politsiyaning boshi qotib qolgan edi o'shanda.

– Bu tabiiy. – og'ir xo'rsindi Fuj. – Uni ichkaridan qulflangan xonada o'ldirishgan. Biz-ku qotil kimligini juda yaxshi bilamiz, biroq voqifligimiz, qotilni qo'lga olishimizga yordam bermaydi-da... Emmelina Vans ham... U haqda eshitmagan bo'lishingiz mumkin...

– Nega endi eshitmas ekanman?! – xitob qildi Bosh vazir. Qotillik shu yaqin o'rtada, ko'cha muyulishida sodir etildi. Gazeta xodimlari uchun haqiqiy bayram bo'ldi: «Bosh vazirning burni ostida qonuniylik va jamoat tartibining oyoqosti qilinishi»...

– Bu ham kamlik qilganday, – davom etdi Fuj, Bosh vazirning gapiga deyarli quloq tutmay, – hamma joyda dementorlar g'ij-g'ij qaynamoqda! Odamlarga har tomondan hamla qilishmoqda.

Ilgarigi baxtiyor kezlarda Fujning ushbu gapi Bosh vazirga sog'lom odam o'zlashtirishi nihoyatda qiyin kechadigan, o'ta murakkab xitoy xat-savodiday tuyulgan bo'lar edi. Lekin bugungi kunga kelib ancha narsani tushunib yetadigan bo'lib qoldi.

– Dementorlar Azkabanni qo'riqlashadi, deb o'ylar edim yo unday emasmi? – asta so'radi u.

– Qo'riqlashar edi, – toliqqan ovozda javob berdi Fuj. – Endi yo'q. Ular qamoqxonani tark etib, «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» tomon o'tib ketishdi. To'g'risini aytsam, bunday holat biz uchun kutilmagan zarba bo'ldi.

– O'zingiz aytgan edingiz-u, o'sha maxluqlar odamlar qalbidan quvonch-u umidni so'rib, oziqlanadi, deb? – so'radi, vujudini dahshat qamragan Bosh vazir.

– Xuddi shunday. Buning ustiga, ular ko'payishmoqda. Atrofni tuman qoplaganining sababi ham aynan shunda.

Tizzasi bo'shashib ketgan Bosh vazir kreslolaridan biriga o'tirib qoldi. Shahar va qishloqlar bo'ylab suzgancha, saylovchilarini g'am-g'ussaga botirib, umidsizlik kayfiyatini uyg'ota-

digan ko'zga ko'rinmas maxluqlar haqidagi fikrdan hushini yo'qotib qo'yish darajasiga yetdi.

– Quloq soling, Fuj... biron chorasini ko'rsangiz-chi, axir! Sehrgarlik vaziri sifatida siz bunga majbursiz!

– Qadrli do'stim, shuncha ishdan so'ng nahotki men o'z o'nimni saqlab qolsam? Uch kun muqaddam lavozimdan chetlashtirilganman! Darg'azab sehrgarlar jamiyati ikki hafta davomida iste'foga chiqishimni talab qilib, turib oldi. Hokimiyat tepasida shuncha yil turar ekanman, ular biror marta bo'lsin, bunday yakdillikni namoyon etishmagan! – xitob qildi Fuj, kulishga mardonavor urinib.

Bosh vazir ma'lum vaqt tildan qolib, ahmoqona holatga keltirib qo'yilganiga achchiqlanmay, aksincha, ro'parasida o'tirgan kishiga biroz achingan bo'ldi.

– Hamdardman, – dedi u, nihoyat. – Sizga qanday yordam berishim mumkin?

– Minnatdorman, Bosh vazir janoblari, ammo menga endi yordam berib bo'lmaydi. Bugun menga huzuringizga kelib, so'nggi yangiliklardan sizni boxabar qilish va ayni vaqtda, yangi vazir bilan tanishtirib o'tish vazifasi topshirilgan. Allaqachon yetib kelishi kerak edi, biroq o'zingiz tushunasiz, hozir... shuncha hodisalar bo'lib o'tayotgan fursatda u juda band.

Fuj boshiga uzun jingalak parik tashlab olgan, pakana bo'yli, patqalamni qulog'iga tiqib, qashlayotgan badbasharaning portretiga qarab qo'ydi.

– Ha demay kelib qoladi, – dedi Fujning nigohini payqagan portret. – Damldorga xat bityapti, hozir tugatadi.

– Foydasi yo'q! – dedi Fuj, alamli ohangda. – O'tgan ikki hafta davomida kuniga ikkitadan xat yo'lladim. Damldor birortasiga bo'lsin javob yo'llamadi. Agar u bolani ko'ndirishga rozi bo'lganda edi, men hozir bo'lsa ham... mayli, balkim, Skrimjning omadi chopib qolar.

Fuj yuragi ezilgan holatda chuqur o'yga cho'mdi-yu, biroq kutilmaganda rasmiy ohangda tilga kirgan portret xayol surishiga xalal berdi:

– Magllarning Bosh vaziriga. Shoshilinch uchrashuv

uyushtirish lozim. Zudlik bilan javob berishingizni so'rayman. Sehrgarlik vaziri Rufus Skrimj.

– Ha, ha, yaxshi, – javob berdi xayoli qochgan Bosh vazir.

O'choqdagi olov yana yashil tus olib, baland ko'tarilgan bo'lsa ham cho'chimadi. Olov o'rtasida gir aylanayotgan sehrgar bir necha soniya o'tar-o'tmas, antiqiy kamin gilamchasiga qadam bosdi. Fuj o'rnidan turdi. Gilamcha ustida rost turib, atrofga alanglagancha, qora kiyimidagi kulni qoqayotgan yangi mehmondan ko'zini uzmagani Bosh vazir ham ma'lum fursat ikkilanib, oyoqqa turdi.

Rufus Skrimjning qa'ri sherga juda o'xshab ketishi Bosh vazirning xayoliga kelgan birinchi tuturiqsiz fikr bo'ldi. Skrimjning qalin malla-jigarrang sochi-yu baroq qoshiga oq oralagan. Sim gardishli ko'zoynagi ortida sarg'ish ko'zi ko'rinmoqda. Sezilar-sezilmas kalovlanib qadam bosish harakatida esa ravon nazokat ko'zga tashlanadi. Bir qarashdayoq ushbu kishi o'tkir aql sohibi va ayni vaqtda qahri qattiq ekani bilinib turibdi. Qaror topgan bugungi xavfli davrda sehrgarlar elati hokimiyat abzalini Skrimjga topshirganini Bosh vazir to'g'ri idrok etganday bo'ldi.

– Xush kelibsiz, – xushmuomala ko'rishdi Bosh vazir, qo'l uzatib.

Skrimj xonaga ko'z yugurtirgancha, bosh vazirning qo'lini qisqa siqib qo'ydi-da, sehrli tayoqchasini chiqarib, chiqish eshigi tomon odimladi.

– Fuj bor gapni aytib berdimi sizga? – so'radi u, tayoqchasi bilan qulf teshigiga urib qo'yib.

– E-e-m... Ha, – javob berdi qulfning shiqillaganini eshitgan Bosh vazir. – Agar qarshi bo'lmasangiz, eshik ochiq turishini afzal ko'raman.

– Men esa gapim bo'linmasligi, meni mo'ralab kuzatmasliklarini afzal ko'raman, – qisqa qildi Skrimj, sehrli tayoqchasini derazalarga o'qtab, pardalarni tor-tor ekan. – Juda yaxshi. Ishim ko'p, shu bois gapning po'skallasiga o'tib qo'ya qolaman. Avvalambor, sizni muhofaza qilish masalasini hal etishimiz darkor.

Bosh vazir qadini rost tutib oldi.

Rahmat, biroq muhofaza tadbirlariga oid e'tirozim...

Bizda bor, – gapni bo'ldi Skrimj. – Bosh vaziri Qaram qilish qarg'ishining ta'siri ostida bo'lsa, magllarning sho'ri qurishi muqarrar. Sizning yangi kotibingiz...

– Kinsli Kandalerni hech qachon ishdan bo'shatmayman, agar siz shunga shama qilmoqchi bo'lsangiz! – qizishib baqirdi Bosh vazir. – Uning ijrochilik saviyasi o'ta yuqori bo'lib, boshqalarga nisbatan ikki chandon tez va ko'p ish qiladi...

– To'g'ri, chunki u sehrgar, oliy toifali avror, jiddiy qiyofa ila ma'lum qildi Skrimj. – Sizni muhofaza qilish uchun tayinlangan.

– Shoshmang! – to'ralarcha xitob qildi Bosh vazir. – Siz men rahbarlik qilayotgan mahkamaga hech kimni tayinlay olmaysiz. Ushbu masalani shaxsan o'zim hal qilaman...

– Hozirgina Kandalardan mamnun edingiz, shekilli? gapni bo'ldi Skrimj.

– Ha... to'g'risini aytsam, shunday...

Demak, muammo yo'q, shundaymi? – so'radi Skrimj.

Men... agar ishi shunday bequsur davom etar ekan... po'ng'illadi Bosh vazir.

– Keyingi masala, – dedi Bosh vazirning gapiga e'tibor qilmagan Skrimj, – ya'ni yolg'on-yashiq gaplar bilan jamoatchilikni biroz o'ynatgan kichik vaziringiz Gerbert Chortli masalasi.

– Unga nima qildi? – so'radi Bosh vazir.

– Yomon ijro etilgan Qaram qilish qarg'ishining ta'sirida qolgan, – ma'lum qildi Skrimj. – Miyasiga jiddiy jarohat yetgan. Sizga nisbatan xavf tug'dirishi mumkin.

– Bechora tomoq qirib yurar edi, xolos! – zaif ohangda e'tiroz bildirdi Bosh vazir. – Biroz dam olsa... spirtli ichimlik miqdorini qisqartirsa... ehtimol, tuzalib...

Ayni vaqtda u Muqaddas Rzgi kasalxonasining tabiblari tomonidan tibbiy xulosali tekshiruvdan o'tkazilmoqda. Ulardan uch nafarini bo'g'ib o'ldirishga urinib ham ko'rdi, – dedi Skrimj. Hozircha uni magllardan yakka-latib qo'ygan ma'qul.

Men... biroq... u tuzalib ketadimi? – xavotir-la so'radi

Bosh vazir.

Kamin tomon yo'l olgan Skrimj yelka qisib qo'ydi.

Aytar gapim shu edi, – dedi u. – Ishlar holatidan sizni boxabar qilib boraman, Bosh vazir... agar band bo'lib, o'zim kela olmasam, huzuringizga Fujni yo'llayman. U vazirlikda maslahatchi sifatida qolishga rozilik berdi.

Fuj kulib boqishga urindi-yu, qiyofasi tishi og'riyotgan kishining yuziday soxta chiqdi. Skrimj olovga yashil tus beradigan kukun chiqarish uchun qo'lini kissasiga solgan ediki, vujudini umidsizlik qamragan Bosh vazir ikkala sehrgarga qarab, butun oqshom davomida aytmaslikka uringan gapini baqirib yubordi:

– Biroq sizlar... e Xudoyim... sehrgarsizlar-u! Sehr-jodu qo'llay olasiz! Nimaniki istasangiz, shuni qilishingiz mumkin-u!

Skrimj asta ortga o'girildi. Fuj ikkalasi bir-biriga hayratla qarab qo'ydi.

– Gap shundaki, muhtaram Bosh vazir janoblari, – bu safar samimiy kulib boqdi Fuj, – qarshi kurashayotgan tomon ham sehr-jodu qo'llay oladi.

Ikkala sehrgar yorqin yonayotgan yashil olovga birin-ketin kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

II BOB

BOSHI BERK TO'QUVCHILAR KO'CHASI

Bosh vazirning derazasiga yopishib qolgan muzday tuman mutlaqo boshqa joyda, xususan, chakalak o'sib, chiqindi bosgan ikki qirg'oq orasida bazo'r oqayotgan anhor ustida ham ko'tarilgan. Sal narida shamol tegirmonning bahaybat sinchi qorayib turibdi. Iflos suvning shaldirashiga e'tibor berilmasa, tevarak-atrofda hech qanday ovoz eshitilmaydi. Ushbu mudhish manzaraga, odatda, qovurilgan baliq bilan kartoshka saqlandigan eski xaltani umid-la hidlayotgan, tanasi cho'p-ustuxon tulkigina biroz jon bag'ishlamoqda.

Qo'qqisdan qars eshitilib, anhor bo'yida egniga qaytar-
ma qalpoqli plash tashlab olgan xushbichim qomatli odam paydo
bo'ldi. Ushbu g'alati holat tulkini turgan joyida dong qotirib
qo'ydi. Paydo bo'lgan kishi fikr-xayolini jamlab oldi, shekilli,
ma'lum fursat tek turgach, uzun plashi maysani shitirlatgancha
yengil qadam tashlab, qat'iy odimlay ketdi.

Yana qars yangrab, havoda boshqa bir kishi paydo
bo'ldi.

– Shoshmasang-chi!

Chakalak ichida yerga deyarli qapishib olgan tulkini
ushbu xirilloq chaqiriq battar hurkitdi. Jonivor bekingan joyidan
sakrab chiqib, sohildan nari, boshi oqqan tomon qochdi. Yashil
tusli yashin chaqnab, joni bir zumda uzilgan tulki yerga quladi.
Havoda paydo bo'lgan ikkinchi kishi yaqin kelib, botinkasining
uchi bilan hayvonning tanasini ontardi.

– Tulki ekan-u, – eshitildi qaytarma qalpoq ostidan ayol
kishining ovozi. – Avror, deb o'ylabman... Sissa, shoshma!

Taqib qilinayotgan shaxs yashil yashin chaqnagan to-
mon qiyo boqib qo'ydi-da, hozirgina tulki sakrab chiqqan qiya-
likka tirmashgancha yuqoriga ko'tarilib, yo'lini davom etdi.

– Sissa! Narsissa! Quloq solsang-chi!

Ikkinchi ayol birinchi ayolga yetib olib, qo'lidan ushladi.

– Ortga qayt, Bella! – dedi birinchi ayol, qo'lini tortib
olib.

– Gapimni eshitsang-chi, axir!

– Eshitdim. Bo'ldi, qarorim qat'iy, tek qo'y meni!

Narsissa anhor bilan tor tosh yo'lni ajratib, to'siq vazifa-
sini o'tayotgan eski panjaragacha ko'tarildi. Ikkinchi, Bella ismli
ayol ham unga yetishib, ikkalasi yonma-yon turgancha, puturdan
ketgan g'isht uylarning oxiri ko'rinmas qatoriga qarashdi.

– Shu yerda yashaydimi u? – so'radi Bella, xira yorish-
gan derazalar tomon jirkanch-la imo qilib. – Magllarning iflos
makonida-ya? Bu yerga birinchi bo'lib qadam bosgan biz bo'l-
sak...

Narsissa quloq solmay, zang bosgan panjaradagi raxna-
dan o'tib, ko'cha bo'ylab tez odimladi.

– Sissa, shoshma! – ergashdi, plashi shamolda hilpiragan Bella.

Narsissa uylar orasidan shiddat-la o'tib, hech narsasi bilan farq qilmaydigan qo'shni ko'chaga chiqdi. Ko'cha fonuslarining muayyan qismi singani bois ikkala ayol dam yorug'likka chiqib, dam qorong'ilikka kirib borishmoqda. Navbatdagi muyulishga yetganda, taqib qilib kelayotgan Bella Narsissaning qo'li-dan mahkam ushlab tortgancha, o'ziga yuzlashtirdi.

– Sissa, fikringdan qayt, iltimos, unga ishonib bo'lmaydi...

– Yovuz Lord ishonadi-yu?

– Yovuz Lord... nazarimda, yanglishyapti, – hansiradi Bella, qalpog'i ostida yaraqlayotgan ko'zi ila atrofga alanglab. – Nima qilgan taqdirda ham reja haqida hech kimga churq etmaslik buyurilgan. Qilayotgan ishing Yovuz Lordga nisbatan xoinlik...

– Qo'yib yubor, Bella! – g'azab-la, xitob qildi Narsissa, plashi ostidan sehrli tayoqchasini chiqargancha, hamrohining yuziga o'qtab.

– Sissa! Tug'ishgan singlingni-ya? kuldi Bella. – Jur'at eta olmaysan...

– Endi jur'at etaman! – o'shqirdi, jazavasi tutgan Narsissa, sehrli tayoqchasini xanjar kabi siltab.

Ko'zni qamashtiradigan yashin chaqnadi. Bella qo'li kuyganday opasini qo'yib yuborib, nari qochdi.

– Narsissa!

Biroq opa yo'lni davom etib, g'ishtli uylar labirintiga¹ kirib ketdi. Qo'lini ishqalagan Bella Narsissaning ketidan, endi masofa saqlab, ergashdi. Tahdid solayotgan bahaybat barmoq kabi ko'rinayotgan shamol tegirmon uylar orasida qad ko'targan. To'quvchilar ko'chasi, deya nomlanadigan boshi berk ko'chaga kirgan Narsissa tosh yotqizilgan yo'l bo'ylab poshna taqillatgancha, derazasiga taxta qoqilgan yoki oynalari singan imoratlar

¹ **Labirint** (yunoncha: labyrinth) – xonalari behad ko'p, yo'laklari odamni adashtiruvchi bino. Yunon mifologiyasida Krit oroli podshosi Minos me'mor va mehirkam mexanik Dedal labirint qurgan.

qatoridan o'tib, eng oxirgi uyga yaqinlashdi. Birinchi qavat dera-
zasiga tortilgan pardalar ortida xira yonayotgan chiroq ko'rin-
moqda.

Narsissa eshik taqillatdi. Tinmay po'ng'illayotgan Bella
opasini to'xtatib qolishga ulgurmadi. Tez-tez nafas olayotgan
ikkala ayol eshik ochilishini kutib ostonada tek qotdi. Yengil
esayotgan shabada iflos anhorning qo'lansa hidini olib kel-
moqda. Ko'p o'tmay, ichkarida birov ivirsib eshik qiya ochildi.
Hosil bo'lgan tirqishda sarg'ish yuzining ikki tomoniga o'rta-
sidan farq ochilgan uzun sochi osilib tushgan erkakning bir juft
qora ko'zi ko'rindi.

Rangpar, qorong'ida yorishayotganday oqarib ko'rina-
yotgan Narsissa boshidagi qalpog'ini orqaga tashladi. Beligacha
tushgan uzun oq-sariq sochi ayolning yuziga, suvdan chiqarilgan
kishi qiyofasini bermoqda.

– Narsissa! – xitob qildi uy sohibi, eshikni keng ochib.

Ichkaridan chiqqan yorug'lik ikkala ayolning yuzini
yoritdi.

– Kutilmagan dilkash yangilik!

– Severus, – zo'riqib pichirladi Narsissa, – sen bilan gap-
lashib olsam bo'ladimi? Bu juda muhim va shoshilinch.

– Albatta, bo'ladi, – dedi orqaga chekingan Severus
Narsissani ichkariga kiritib.

Taklifni kutmagan singil ham ostonaga hatlab o'tdi.

– Snegg, – dedi u, uy sohibining yonidan o'tar ekan,
qalpog'i yechilmagan boshini irg'igancha ko'rishgan bo'lib.

– Bellatriks, – javob qildi eshikni yopayotgan Snegg,
ingichka labini qiyshaytirgancha istehzoli kulib.

Xira yoritilgan kichkinagina mehmonxona shahar kasal-
xonasining devori qoplangan alohida xonasini esga soladi. Tok-
chalarga qora va jigarrang charm muqovali kitoblar zich taxlan-
gan. Shamli qandil hosil qilgan xira yorug'lik to'garagida taqiri
chiqqan divan, eskirib ketgan kreslo va liqildoq stolcha bir-biriga
yaqin turibdi. Uy qarovsiz, odam turmaydigan o'xshaydi.

Snegg imo ila Narsissaga divanga o'tirishni taklif qildi.
Plashini yechib chetga tashlagan ayol titrayotgan qo'lini tizza

ustida qovushtirib, oppoq barmoqlaridan ko'z uzmay o'tirdi. Qovog' yirik, qalin sochi qop-qora, iyagi baquvvat Bellatriks opasining aksi bo'lib, boshidagi qaytarma qalpoqni asta orqaga tashladi-da, nigohini uy sohibidan uzmay, Narsissaning orqa tomoniga o'tdi.

Xo'sh, xizmat? - gap boshladi Snegg, ayollar ro'parasidagi kresloga o'tirib.

- Biz... uyda boshqa hech kim yo'qmi? - asta so'radi Narsissa.

- Yo'q, albatta, agar Chuvalchangdumning shu yerdaligi inobatga olinmasa. Hayvon odam hisobiga o'tinaydi-yu, shunday emasmi?

Snegg sehrli tayoqchasini chiqarib, orqa tomondagi kitob javoniga o'qtadi. Shu zahoti yashirin yashik lang ochilib, tor zina, uning ustida esa bo'yi pakana, rangsiz mayin sochi to'zg'ib ketgan, tepakal odamcha ko'rindi.

Aftidan, uyga mehmon kelganidan xabar topgan ko'rinasan, a, Chuvalchangdum?

Zinada turib, tez-tez, uzuq-yuluq nafas olayotgan, burni uchli, mittigina ko'zi sersuv, noxush yuzida kazzoblik qiyofasi aks etgan, chap qo'li bilan xuddi kumush qo'lqop taqilgandek yaltirayotgan o'ng qo'lini tinmay tebratayotgan kishi bukehaygancha bir necha pog'ona pastga tushib, xonaga kirdi.

Narsissa! g'ichirladi u. Bellatriks! Bag'oyat xursand...

Istasangiz, Chuvalchangdum bizga ichimlik keltirgach, xonasiga daf bo'ladi, -- taklif qildi Snegg.

Ustiga nimadir sepilganday yuzi burishgan Chuvalchangdum ko'zini Sneggdan olib qochib, chiyillagancha e'tiroz bildirdi:

- Men sizga xizmatkor emasman!

- Rostdanmi? Men esa Yovuz Lord seni huzurimga yordam berishing uchun yo'llagan, deb o'ylabman.

- To'g'ri, yordam bergani... ichimlik uzatish-u uyingni tozalab, tartibga keltirish uchun emas.

- Qahramonona faoliyat bilan shug'ullanishni orzu

qilayotganingni bilmas ekanman, Chuvalchangdum, – tilyog‘lama ohangda javob berdi Snegg. – Buni uyushtirish qiyin emas. Yovuz Lord bilan gaplashib ko‘raman...

– O‘zim ham gaplasha olaman, kerak bo‘lsa!

– Albatta, – tishining oqini ko‘rsatdi Snegg, – ungacha esa bizga ichimlik olib kel. Aytaylik, elflar¹ tayyorlagan qo‘lbola vino keltir.

Parokanda holatga tushgan Chuvalchangdum baslashmoqchiday biroz tek turdi-yu, shartta burilib, ikkinchi yashirin eshik tomon yo‘l oldi. Ichkaridan eshikchalarning taraq-turuqi, shisha idishning jiringlagani eshilib, bir necha soniya o‘tgach, uchta qadah bilan, sirtini chang qoplagan bitta shisha terilgan patnisni ko‘tarib chiqib, liqildoq stolcha ustiga zarda ila qo‘ydi-da, kitob javoniga o‘xshagan yashirin eshikni qarsillatib yopgancha, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Snegg qonday qizil vinoni qadahlarga quyib, opa-singilga uzatdi. Narsissa bosh irg‘ib minnatdorlik izhor etgan bo‘lsa, Bellatriks uy sohibiga yeb qo‘yguday o‘grayishini qo‘ymadi. Uning qiyofasi Sneggni oz bo‘lsa ham xijolatga solmadi, aksincha, kulgisini qistadi.

– Yovuz Lord uchun, – e‘lon qildi qadah ko‘targan Snegg, vinoni oxirigacha simirib.

Opa-singil ham qadahlarni bo‘shatishdi. Snegg yana vino quydi.

– Severus, taklifsiz, bemavrid kelganimiz uchun ma‘zur tutasan-u, seni ko‘rishim kerak edi, – gap boshladi qadahni olayotgan Narsissa. – Faqat sen yordam bera olishing mumkin menga...

Snegg ayolni imo ila gapdan to‘xtatib, sehrli tayyoqchasini yana yashirin eshikka o‘qtadi. Narigi tomonda nimadir gum-

¹ Elf – qadimgi Skandinaviya afsonalarida: arvoh, pari kabi afsonaviy maxluq. Elflar (*nemischa: elf – alb* so‘zidan – *oq* ma‘nosini anglatadi) – german-skandinaviya va kelt folklorida (xalq og‘zaki ijodida) tilga olingan shehrgar xalq. Alvlar nomi bilan ham ma‘lum. Elflar tavsifi turli afsonalarda har xil keltirilgan bo‘lishiga qaramay, insonga do‘stona munosabat bildiradigan, nihoyatda go‘zal maxluqlar, o‘rmon ruhlari sifatida gavdalanirilgan.

burladi, chiyilladi, so'ng Chuvalchangdumning yuqoriga yugurgani eshitildi.

– UZR, – dedi Snegg. – Bilmadim nima maqsadda-yu, lekin Chuvalchangdum so'nggi vaqtda yashirincha quloq tutish odatini chiqarib olgan... Nima deyotgan eding, Narsissa?

Ayol entikib nafas chiqardi-da, gapini davom etdi:

– Severus, bu yerga kelishim mumkin emasligini yaxshi bilaman. Hech kimga hech narsa aytmaslikni buyurishgan menga, biroq...

– Shu bois ham tilingni tiyib o'tir! – o'shqirdi Bellatriks. – Ayniqsa, bu yerda!

– Ayniqsa, bu yerda? – istehzoli takrorladi Snegg. – Buni qanday tushunish kerak, Bellatriks?

– Sizga ishonchim yo'qday tushunish kerak, Snegg, – dedi Bellatriks. – Sababini yaxshi bilasiz!

Narsissa qandaydir g'alati, ko'z yoshisiz hiqillab, yuzini qo'li bilan to'sib oldi. Snegg qadahni stolcha ustiga qo'yib, kresloga o'tirdi va qo'lini tirsakqo'ygich ustiga yotqizgancha, Bellatriksning darg'azab yuziga kulib boqdi.

– Narsissa, o'ylashimcha, behuda munozaraga yo'l qo'ymaslik uchun dastlab, nimadir demoqchi bo'lgani Bellatriksning fikrini eshitib ko'rishga, shekilli. Gapiring, Bellatriks, – dedi Snegg. – Nima uchun menga ishonch bildirmaysiz?

– Buning yuzlab sabablari bor! – o'shqirdi divan ortidan chiqqan Bellatriks, qo'lidagi qadahni stolcha ustiga taraqlatib qo'yib. – Qaysi biridan boshlashni bilmay, boshim qotdi! Yovuz Lord qulaganidan keyin qayerda bo'lganingizni izohlab bering? Nima sababdan g'oyib bo'lgan sohibni qidirib topishga urinmadingiz? Dambldorning qo'yniga kirib olib, shuncha yil davomida nima ishlar bilan mashg'ul bo'ldingiz? Nima uchun afsonaviy toshga ega bo'lish masalasida sohibga xalal berdingiz? Nima uchun Yovuz Lordning huzuriga, u hayotga qaytishi bilan yetib kelmadingiz? Bir necha hafta muqaddam, biz bashorat shari uchun kurash olib borganimizda siz qayerda edingiz? Va nima uchun Snegg, Garri Potter besh yil ixtiyoringizda bo'la turib, hanuzgacha tirik?

Lunji qizarib, ko'kragi tez ko'tarilib tushayotgan ayol nafas rostlash uchun to'xtadi. Narsissa kaftini yuziga bosib olgancha, hamon qilt etmay o'tiribdi.

– Savollaringizga javob berishdan oldin, – kulib boqdi Snegg. – Ha, ha, Bellatriks, ajablanmang, javob beraman savollaringizga! Birovning orqasidan pichir-pichir qilishni o'larcha yoqtiradiganlarga gapimni yetkazishingiz, Yovuz Lordga xoinlik qilganim haqidagi qabih uydirmalarni ham oqizmay-tomizmay, birato'la aytib berishingiz mumkin! Faqat, o'z navbatida, men ham bir savol bilan murojaat qilmoqchiman. Siz, chindan ham, Yovuz Lordning aqli, ushbu savollarni menga berishga yetmagan, deb o'ylaysizmi? Aytaylik, javoblarim uni qanoatlantirmadi, nima deb o'ylaysiz, siz bilan biz hozir shu yerda bamaylixotir gaplashib o'tirgan bo'lar edikmi?

– Bilaman, u sizga ishonadi, – sarosimaga tushib qoldi Bellatriks. – Biroq...

– U qattiq yanglishyapti, demoqchisizmi? Uni allaqanday tarzda alday bildim, shundaymi? Elatimiz orasida eng buyuk sehrGAR va tengi yo'q legalimentor sanaladigan Yovuz Lordni yosh bolani aldaganday, laqqa tushirdim, shunday demoqchimisiz?

Bellatriks indamadi. Uning yuzida ilk bor xijolat soyasi ko'rindi. Ammo Snegg mavzuni cho'zib o'tirmadi. U qadahini qo'lga olib, vino ho'plagancha, gapini davom etdi:

– Yovuz Lord qulaganidan keyin qayerda bo'lganimni izohlab berishni so'ratingiz. Meni qayerga yo'llagan bo'lsa, o'sha yerda, ya'ni SehrGARlik va afsungARlik san'ati maktabi «Xogvars»da bo'ldim. Sohib Albus Dambldorning ketidan josuslik qilib yurishni buyurgan menga. LavoZimimni Yovuz Lordning ko'rsatmasiga binoan egallaganimdan xabaringiz bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

Bellatriks sezilar-sezilmas bosh irg'ib, endigina og'iz juftlagan ediki, Snegg gapini davom etdi:

– Nima sababdan g'oyib bo'lgan sohibni qidirib topishga urinmaganimni bilmoqchisiz. Eyveri, Gnusli, Karrouz, Uolk, Lyutsius, – Narsissa tomon bosh irg'idi Snegg. – Va boshqalar

nima sababdan qidirmagan bo'lsa, men ham shu sababdan qidirmadim. Sohibni o'ldi, deb o'ylaganman. O'z xatomdan oz bo'lsa ham faxrlanmayman-u, biroq bu haqiqat... agar sohib, o'z ishonchini yo'qotganlarni kechirmaganida, hozir uning tarafdorlari juda ozchilikni tashkil etgan bo'lar edi.

– Sohibning o'lganiga ishonmagan, uni deb ko'p yillar Azkabanda o'tirgan menday sadoqatli xizmatkori bo'lgan! – ehtiros-la e'tiroz bildirdi Bellatriks.

– Misli ko'rilmagan qahramonlik, – loqayd ohangda javob berdi Snegg. – Qamoqda o'tirib, biron-bir naf keltirmagan bo'lsangiz-da, hech shubha yo'qki, maqtovg'a sazovor sa'y-harakat...

– Maqtovg'a sazovor sa'y-harakat?! – chiyilladi aql-hushini yo'qota boshlagan Bellatriks. – Meni dementorlar qiynayotgan bir vaqtda, siz Damblorning qo'lga o'rgatilgan hayvoniday «Xogvars»da jon saqlab, qo'lingizni sovuq suvga ham urmay o'tirgansiz!

– Sal oshirib yubordingiz, – xotirjam e'tiroz bildirdi Snegg. – Damblor meni yovuz kuchdan himoya fani o'qituvchisi lavozimiga o'tkazmadi. Aftidan... jinoyatkorona faoliyatim yangilanib, eski qilg'imni boshlab qolishimdan cho'chigan ko'rinadi.

– Yovuz Lordni deb bir umr orzu qilgan lavozimingizni qurbon qilibsiz-da, a? – mazax ohangida so'radi Bellatriks. – Modomiki, sohibni o'ldiga chiqargan ekansiz, shuncha yil nima qildingiz u yerda? Damblorning ketidan behuda josuslik qilib yuraverdingizmi?

– Yo'q, vaholanki, ish joyimni tashlab ketmaganimdan xabar topgan Yovuz Lord nihoyatda xursand bo'ldi, – dedi Snegg. – Men unga Damblor haqidagi o'n olti yillik ma'lumotlarni taqdim etdim. Bu esa sohibga Azkaban dahshatlari haqidagi xotiralarga nisbatan ancha qimmatli tuhfa bo'ldi...

– Lekin siz o'sha yerda qolib...

– Ha, Bellatriks, qoldim o'sha yerda, – javob berdi Snegg, ilk bor jahl qilib. – Azkabanda o'tirishdan ko'ra yaxshi ishni afzal ko'rdim. Agar yodingizda bo'lsa, O'limdan zavqla-

nuvehilar ta'qib qilinib, birma-bir qo'lga olindi. Damblorning himoyasi tufayli qamoq jazosidan qutulib qoldim. Voqealar bir-biriga omadli ravishda to'g'ri kelib qoldi. Takror aytaman, Yovuz Lordning menga nisbatan hech qanday e'tirozi yo'q, sizga nima yoqmayapti, tushunmayapman?

Bellatriksning e'tiroz bildirmoqchi bo'lganini ko'rgan Snegg yanada baland ovozda davom etdi:

– Nima uchun falsafiy toshga ega bo'lish masalasida sohibga xalal berganim qiziqirdi, shekilli, sizni. Buni tushuntirish oson. Yovuz Lord menga ishonch bildirish mumkin yoki mumkin emasligini xuddi siz kabi bilmagan. Damblorning xonaki kuchukchasiga aylanib qolganimga shubha qilmagan. Sohib juda nochor ahvolda bo'lib, arzimas bir vositachining tanasiga joylashib olgan. O'zini sobiq tarafdoriga fosh etishga jur'at eta olmagan. Uni Damblorga yoki vazirlikka sotishimdan qo'rqqan. Menga ishonch bildirmaganidan juda afsusdaman. Uch yil oldin hayotga qaytgan bo'lar edi, agar o'shanda menga ochilganida. Mening ko'zimga esa toshga egalik qilmoqchi bo'lgan allaqanday landavur ko'ringan, xolos. Shu bois unga to's-qinlik qilish uchun qo'ldan kelgancha harakat qildim.

Bellatriksning basharasi, xuddi achchiq dori ichib olganday, burishib ketdi.

– Shunday bo'lsa-da, sohib hayotga qaytgan zahoti, aniqroq aytilsa, qo'lingizdagi Ajal belgisi ilk bor qizishi bilan safga qaytmadingiz...

– To'g'ri, men ikki soatdan keyin, Damblorning ko'rsatmasiga binoan qaytdim.

– Damblorning ko'rsatmasiga binoan?! – e'tiroz-la qichqirdi Bellatriks.

– O'zingiz o'ylab ko'ring! – dedi Snegg, yana qizishib. – Ikki soat, atigi ikki soat sabr qilib, «Xogvars»dagi josuslik faoliyatimni davom etish imkonini ta'minladim! O'zimni Yovuz Lordning huzuriga faqat Damblorning amri ila qaytayotgan ko'yga solar ekanman, hozir ham Damblor va Qaqnus ordeni haqidagi ma'lumotlarni yetkazib turishim mumkin! Fikr tarozisidan o'tkazib ko'ring, Bellatriks: Ajal belgisi kundan kunga yor-

qin tus olib borgan mahalda, men, boshqa O'limdan zavqlanuvchilar kabi Yovuz Lord ha demay hayotga qaytishini anglab yetganman. Nima qilish, qanday ish tutish kerakligini o'ylab ko'rishga, Karkarov kabi chora topib qutulib qolishga vaqtim bor edi, shunday emasmi? Gapimga ishonib, Yovuz Lord kech qolganim uchun dastlab achchiqlangan bo'lsa-da, ilgarigiday sodiq qolganimni anglab yetgach, nafratini shafqatga almash-tirdi, garchi atrofdagilar hozir ham meni Damblorning odami, deb bilishsa-da. Ha, Yovuz Lord men haqimda yomon fikrga borgan, biroq adashganini keyinchalik tushunib yetdi.

– Ammo qanday foydali ish qila bildingiz? – jahldor kulib qo'ydi Bellatriks. – Qanday qimmatli ma'lumotlarga ega bo'la oldingiz?

– O'sha ma'lumotlarning barini Yovuz Lordga yetkazganman, – dedi Snegg. – Agar lozim topsa, siz bilan o'rtoqlashadi...

– U men bilan hamma narsani o'rtoqlashadi! – shu zahoti tutaqib ketdi Bellatriks. – Meni eng sadoqatli, eng ishonchli...

– Shunaqa deng? – ikkilandi Snegg. – Haligacha-ya? Sehrgarlik vazirligidagi muvaffaqiyatsizlikdan keyin ham-a?

– Mening aybim yo'q bunda! – qizarib ketdi Bellatriks. – Ilgari Yovuz Lord ko'nglida saqlagan sirini ishonar edi menga... Agar Lyutsius...

– Bas qil... aybni erimning gardaniga yuklashga jur'at etma! – past va qo'rqinchli ovozda gapga aralashdi Narsissa, singlisiga o'qrayib.

– Kim va qay darajada aybdor ekanini aniqlashdan ma'ni yo'q endi, – yarashtirgan bo'ldi Snegg. – Bo'lar ish bo'ldi.

– Muhimi, sizning ishtirokingizsiz! – kesatib o'shqirdi Bellatriks. – Boshqalar o'zini xavf ostida qo'yganda, siz, odatdagiday, dumingizni ushlatmagansiz!

– Menga joyimda qolish buyurilgan, – sovuqqina javob berdi Snegg. – Balkim, siz Yovuz Lordni nohaq deb bilarsiz? Qaqnus ordeniga qarshi kurashda O'limdan zavqlanuvchilar tomoniga o'tib olganimni Damblor sezmagani bo'lar edi, deb o'ylarsiz? Ha, aytganday, xavf masalasida... Meni ma'zur tuting-

u, bilishimcha, siz olti nafar o'spiringa qarshi chiqqansiz, shekilli?

- Ularga Orden tarkibining teng yarmi qo'shilganini yaxshi bilasiz! -- deyarli qichqirdi Bellatriks. -- Yodimdan ko'tarilmasdan so'rab olay: Orden qarorgohi qayerda joylashganini haligacha aniqlay olmadingizmi?

- Sir saqlovchi emasman va shu bois qarorgoh manzilini ayta olmayman. Qaysi tilsim haqida gapirayotganim va u qanday ishlashini bilsangiz kerak? Orden haqida bergan ma'lumotlarim Yovuz Lordni to'la-to'kis qanoatlantirgan va aynan shu ma'lumotlar tufayligina, agar fahmlagan bo'lsangiz, albatta, Emmelina Vans qo'lga olinib, yo'q qilingan. Anavi Blekdan qutulishga ham erishilgan. Tan olish kerakki, bu masalada shaxsan sizning xizmatlaringiz ulkandir.

Snegg boshini yon tomon og'ib, Bellatriks sharafiga qadah ko'targan bo'ldi. Biroq ayol hovuridan tushmadi.

- Garri Potterga doir so'nggi savolimga javob bermadingiz, Snegg. Uni o'tgan besh yilning har qanday fursatida asfaldasofilarga yo'llashingiz mumkin edi, ammo bu ishga qo'l urmagansiz. Sabab?

- Bu masalani Yovuz Lord bilan muhokama qilib ko'rdingizmi? -- qiziqdi Snegg.

- U... so'nggi vaqtda biz... men sizdan so'rayapman, Snegg!

- Agar Garri Potterni o'ldirib yuborganimda Yovuz Lord uning qoniga ega bo'lmagan, hayotga qaytmagan va hozirgiday, yengilmas bo'lib olmagan bo'lar edi...

- Aytmoqchisizki, sohib boladan foydalanishini oldindan ko'ra bilgansiz? -- istehzoli kuldi Bellatriks.

- Yo'q, zig'irday bo'lsin, tasavvur qilmaganman. Yovuz Lord o'lgan, degan xayolga borganimni aytib o'tdim, shekilli, esingizda bo'lsa. Nima uchun Potterni hamon tirik yurgani Yovuz Lordni qayg'uga solmaganining sababini tushuntirib o'tishga urinmoqdaman, xolos...

- Xo'sh, nima uchun hamon tirik, u?

- Gapimga eshityapsizmi, eshitganingizni anglab yet-

yapsizmi o'zi? Dambldorning himoyasi tufayligina Azkabanga qamalmadim! Eng yoqimli o'quvchisining o'limi direktorni mendan yuz o'girishiga sabab bo'lishi xayolingizga kelmayaptimi? Biroq Potterni o'ldirmaslikning boshqa, yanada jiddiyroq sababi borki, ijozatingiz bilan eslatib o'taman. Potter «Xogvars» ostonasini xatlab o'tgan kuni olam turli mish-mish gapga to'lib bo'lgan: go'yo u eng buyuk yovuz sehrgar bo'lgani uchungina Yovuz Lord qo'llagan qarg'ish ta'siridan omon qolgan. O'sha davrda, elatimiz orasida, Potter, vaqti kelib hammani o'z atrofida birlashtiradigan siymoga aylanishiga doir g'oyalar ilgari surilgan. Tan olishim kerakki, bu narsa menga ham qiziq ko'ringan. Shu bois qasrga endigina kirib kelgan bolani bir yoqli qilishga oshiqmadim. Biroq ko'p o'tmay, u hech qanday favqulodda qobiliyatga ega emasligini tushunib yetdim. Har qanday mushkul vaziyatdan faqat ishi baroridan kelgani va yonidagi iste'dodli do'stlarining yordami bilangina chiqishga muvaffaq bo'lib keldi. Potter otasi kabi dimog'dor, manman bo'lishiga qaramay, aslida g'irt ahmoq, iste'dodsiz shaxs. Uni «Xogvars»da tahsil ko'rishga nomunosib topib, maktabdan quvib solishlari borasida ko'p urindim, ammo uni o'ldirish yoki ko'z o'ngimda o'lishiga yo'l qo'yish? Dambldorning huzurida-ya?! Agar bunday tavakkalchilikka qo'l urganimda, o'zimga o'zim dushmanlik qilgan bo'lar edim.

– Demak, Dambldor sizdan hech qachon shubha qilmaganiga ishonishimiz kerak, shundaymi? – so'radi Bellatriks. – Hali u asl maslagingizni idrok etmagan va sizga batamom ishonadi?

– O'z rolimni yaxshi o'ynayman, – javob berdi Snegg. – Dambldorning zaif tomonini angladingizmi? U odamlar haqida hamisha yaxshi fikrda bo'lishni afzal ko'radi. Kechagina O'limdan zavqlanuvchi bo'la turib, maktabga ish so'rab kelganimda, qilmishimdan afsuslanib, tavba qilayotganimni o'xshatib izhor etganimning o'zi Dambldor quloch ochib, qarshi olishi uchun kifoya bo'ldi, garchi, yovuz sehr bilan shug'ullanishga, yuqorida aytganimdek, ijozat bermagan bo'lsa-da. Dambldor davrimizning buyuk sehrgarlaridan biri bo'lgan... ha-ha, – dedi u, vishillab

qo'ygan Bellatriksga qarab. -- Yovuz Lordning o'zi buni tan oladi. Ammo ma'lum qilishdan mamnunmanki, Dambldorning qudrati asta barham topmoqda. Yovuz Lord bilan o'tgan duel uni sindirdi, og'ir jarohatlanib, endi ilgarigiday abjir bo'lmay qoldi. Lekin nima qilganda ham o'tgan yillar davomida Snegg Severusga ishonib kelgan. Bu esa, o'z navbatida, Yovuz Lordning ta'biri ila aytganda, katta qimnatga ega shaxs ekanimni anglatadi.

Bellatriks ishonqiramay qarashni qo'ymagan bo'lsa-da, Sneggni yana nima bilan ilib olishni bilmayotgani aniq ko'rinib qoldi.

- Ammo sen... nazarimda, yordam so'rab kelding, shekilli? -- Narsissaga murojaat qildi, fursatdan foydalangan Snegg.

- Ha. Severus, sen... - qayg'u to'la nigohini ko'tardi Narsissa. - Boshqa hech kim yo'q... Lyutsius qamoqda... Faqat sen yordam bera olasan...

Ayolning chirt yumib olgan kiprigi orasidan ikkita yirik tomchisi sizib chiqdi.

- Yovuz Lord menga bu haqda gapirishni man etgan, - davom etdi u, ko'zini ochmay. - Rejasidan birov xabar topishini istamaydi. Bu... qattiq sir tutilmoqda, lekin...

- Modomiki, man etgan ekan, aytna, - gapni bo'ldi Snegg. - Yovuz Lordning amri - qonundir.

Narsissa, birov ustiga muzday suv to'kkanday, qisqa oh urdi. Bellatriksning yuzi, uyga kelganidan buyon ilk bor mamnun qiyofa kasb etdi.

-- Ko'rdingmi? - muzaffariyat ohangida qichqirdi u, opasiga. - Hatto Snegg ham shunday deyapti: mumkin emasmi, tilingni tiy!

Snegg o'rnidan turib, deraza yoniga bordi. Pardani biroz surib, ko'chaga qaradi-da, shu zahoti yopib qo'ydi.

-- Rejadan xabarim bor, - past ovozda ma'lum qildi u, Narsissa tomon jiddiy qiyofa ila yuzlanib. - Yovuz Lord o'z niyati bilan o'rtoqlashadigan ozchilik odamlarning biri men bo'laman. Shunga qaramay, Narsissa, agar o'sha maxfiy rejadan boxabar bo'lmaganimda, hozir sen dahshatli xoinlikka yo'l qo'ygan bo'lar eding.

O'zim ham shunday, deb o'ylagan edim. Bor gapdan xabaring bo'lsa kerak, deb, - yengil tortdi Narsissa. - U senga shunchalik ishonadiki, Severus...

- Rejadan boxabarsiz? so'radi Bellatriks, quvonchi bir zumda e'tirozga aylanib. - Siz-a?

- Boxabarman, - tasdiqladi Snegg. - Qanday yordam to'g'risida gap boryapti o'zi, Narsissa? Agar Yovuz Lordni niyatidan qaytarish masalasini ko'tarmoqchi bo'lsang, befoy-daligini o'zing ham yaxshi bilasan.

- Severus, - pichirladi yuzidan shashqator yosh oqayot-gan Narsissa, - u mening o'g'lim, axir... yakka-yu yolg'iz bolam...

- Drako faxrlanishi kerak, - dedi Bellatriks loqayd ohangda. - Yovuz Lord unga ulkan ishonch bildirdi. Fikrimni bilmoqchi bo'lsangiz: Drako o'z burchini ado etishdan qutulib qolishga urinayotgani yo'q, aksincha, o'zini nimaga qodir ekani-ni namoyon etish imkonidan xursand yuribdi, bundan o'zini baxtiyor his etmoqda...

O'tinch to'la nigohini Sneggdan uzmagan Narsissa ho'ng'rab yubordi.

- U endigina o'n olti yoshga to'ldi, oldinda nimalar kutayotganini hali tasavvur qila olmaydi! Nima aybimiz uchun, Severus? Nega endi aynan bizning o'g'limiz? Ish nihoyatda xavf-li! Ishonchim komilki, Lyutsiusning xatosi uchun shu tariqa jazolamoqchi!

Snegg indamadi. Ho'ngrayotgan Narsissadan, uyat nar-saga orqa o'girganday, teskari o'girildi-yu, o'zini ayolning zorla-nishini eshitmagan ko'yg'a sola olmadi.

- Shuning uchun u Drakoni tanladimi, a? - fig'onini davom etdi Narsissa. - Lyutsiusni shu tariqa jazolash uchunmi?

- Agar Drako topshiriq ijrosini uddalasa, - dedi Snegg, nigohini ko'tarmay, - eng oliy mukofotga sazovor bo'ladi.

Lekin bola vazifa ijrosini uddalay olmaydi! - baqirdi ona. Qanday qilib, agar Yovuz Lordning o'zi...

Bellatriks oh urdi. Opasi had chegarasidan chiqib ketmoqda.

- Aytmoqchi edimki... hali hech kim... Severus... iltimos... sen Drakoning eng yaxshi ko'rgan o'qituvchisi... Lyutsiusning qarddon do'sti bo'lib ketgansan... o'tinaman sendan... Yovuz Lord seni hammadan ham ortiq qadrlaydi, senga katta ishonch bildiradi... balkim, u bilan o'zing gaplashib ko'rarsan?...

- U darajada miyamni yeganim yo'q hali, - ifodasiz ohangda javob berdi Snegg. - Yovuz Lordni fikridan qaytarib bo'lmaydi. Va u bekitmayman, chindan ham, Lyutsiusdan juda achchiqlangan. Eringning zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklangan edi. U esa bashoratni qo'lga kiritish o'rniga boshqalarga qo'shilib qo'lga tushib o'tiribdi. Ha, Narsissa, Yovuz Lord undan achchiqlangan, juda achchiqlangan.

- Demak, men haq ekanman, u Drakoni xun olish maqsadida tanlagan! - dedi Narsissa, nafasi bo'g'ilib. - Drakoning topshiriqni ijro etishini emas, ijro fursatida halok bo'lishini istaydi!...

Sneggning indamayotgani Narsissaning sabr kosasini to'ldirdi. Ayol shartta o'rnidan turdi-da, Snegg tomon odimlab, yoqasidan changalladi. Yaqin turar ekan, ko'z yoshi Sneggning ko'krigiga to'kildi.

- O'sha ishni o'zing qilishing mumkin! - bo'g'iq ovozda pichirladi Narsissa. - Drakoning o'rniga, Severus! Sen uddalaysan, bunga shubha yo'q. Va u seni munosib taqdirlab, ko'klarga ko'tarib yuboradi...

Snegg Narsissaning bilagidan ushlab, qo'lini nari oldi.

- O'ylashimcha, oxir-pirovardida u aynan mendan umid qiladi, - dedi Snegg, ayolning nam bo'lgan yuziga qarab. - Lekin oldin Drakoni sinab ko'rmoqchi. Tushunyapsanmi, agar misli ko'rilmagani holat yuz berib, Drako vazifa ijrosini uddalay olsa, men yana muayyan vaqt «Xogvars»da josus sifatida qolishim mumkin bo'ladi.

- Boshqacha aytganda, Drako halok bo'ladimi-yo'qmi, unga mutlaqo farqi yo'q.

- Yovuz Lord juda achchiqlandi, - dedi Snegg. - U bashoratni eshita olmadi. Uzriga sazovor bo'lish oson ish emas-

ligini juda yaxshi bilasan, Narsissa.

Ayol ingrab zorlanib, o'zini Sneggning oyog'iga tashladi.

– Bittagina bolam... Yolg'izgina o'g'lim...

– Faxrlanishing kerak! – aralashdi beshafqat Bellatriks.

– Agar o'zimning o'g'illarim bo'lganda, Yovuz Lordning xizmatida bo'lishganidan faxrlangan bo'lar edim!

Sochini mahkam changallagan Narsissa past ovozda na'ra tortdi. Snegg ayolning qo'lidan tutgancha oyoqqa turg'izib, divan tomon yetakladi. Qadahga vino quyib, ayolning qo'liga majbur tutqazdi.

– Bas qil, Narsissa, mana buni ichgin-da, gapimga quloq sol.

Ayol biroz tinchlangan bo'lib, titroq qo'li bilan qadahni labiga yaqinlashtirdi. Ichimlikning oz qismi ko'kragiga to'kildi.

– Drakoga yordam bera olsam kerak, – taxmin qildi Snegg.

Ayol qaddini rostlab, umidsiz nigohi, qog'ozday oqargan yuzini ko'tardi.

– Severus... o, Severus... sen unga yordam bera olasanmi? Ko'z-quloq bo'lib, kuzatib yurasanmi? Unga ziyon yetishiga yo'l qo'ymaysanmi?

– Urinib ko'raman, – va'da qildi Snegg.

Ayol keskin qo'ygan qadah stolcha ustidan sirpanib tushdi.

– Uni himoya qilish uchun yonida bo'lasanmi? – umidla so'radi Narsissa va Sneggning qarshisida tiz cho'kib, qo'lini ikkala qo'li bilan mahkam ushlagancha, labiga bosdi. – Rost aytyapsanmi, Severus? Buzilmas qasam ichishga rozilik berasanmi?

– Buzilmas qasam ichishga? – hayron bo'ldi, ohangi-yu yuz qiyofasidan biron ma'no uqib bo'lmaydigan Snegg.

– Uni eshitmagan ko'rinasan, Narsissa? – xandon otdi Bellatriks. – Urinib ko'radi u, albatta... Ko'rmayapsanmi, aravani quruq olib qochayotganini... Hech narsaga aralashmaslik istagi... Bu ham Yovuz Lordning amriga binoan, albatta!

Qora ko'zini Narsissaning yoshga to'la moviy ko'zidan uzmagan Snegg Bellatriks tomon qiyo ham boqmadi. Narsissa esa Sneggning qo'lini qo'yib yubormayapti.

– Albatta, ichaman Buzilmas qasamni, Narsissa, – asta javob berdi Snegg. -- Umid qilamanki, singling guvohlikka rozi bo'ladi.

Bellatriksning og'zi lang ochilib qoldi. Snegg ham tiz cho'kib Narsissaning qarshisiga o'tirdi. Ikkovlon Bellatriksning chanog'idan chiqib ketar darajada katta ochilgan ko'z o'ngida o'ng qo'llarini qovushtirdi.

– Sehrli tayoqchangizni chiqarishingiz kerak bo'ladi, Bellatriks, – sovuq ohangda eslatib qo'ydi Snegg.

Xayolini bazo'r yig'ib olgan Bellatriks qo'lga sehrli tayoqchasini oldi.

– Yaqinroq keling, – dedi Snegg.

Yaqin borgan Bellatriks sehrli tayoqchasining uchini qovushgan qo'llarga taqadi.

Narsissa gap boshladi:

-- Severus, Yovuz Lordning topshirig'ini bajarayotgan o'g'lim Drakoni e'tiborsiz qoldirmaslikka ont ichasanmi?

-- Ont ichaman, -- javob berdi Snegg.

Sehrli tayoqcha uchidan olmos tusli yorqin olovning ingichka tili otilib chiqib, ikkalasining qo'lga qizigan sim kabi chirmashdi.

– So'nggi imkoninggacha uni himoya qilishga ont ichasanmi? – davom etdi Narsissa.

– Ont ichaman, -- javob berdi Snegg.

Sehrli tayoqcha uchidan olovning yana bir tili otilib chiqib, birinchisiga qo'shilgancha, zanjir hosil qildi.

– Zarurat tug'lsa... agar Drako topshiriq ijrosini uddalay olmasligi ayon bo'lsa... Yovuz Lord tomonidan o'g'limning zimmasiga yuklangan topshiriq ijrosini oxiriga yetkazishga ont ichasanmi? – pichirladi Narsissa.

Snegg qo'lini biroz siltadi-yu, ajratib olmadi. Oraga sukunat cho'kdi. Ko'zi tangaday ochilgan, tayoqchasini ikkalasining kaftidan olmagan Bellatriks bo'layotgan hodisani hayrat-la

kuzatmoqda.

– Ont ichaman, – javob berdi Snegg.

Bellatriksning dong qolgan basharasi qizil tus kasb etib, xira yorishdi: uning sehrli tayoqchasi olovning uchinchi tilini chiqardi. Ushbu til ham oldin chiqqan tillarga qo‘shilib, Narsissa bilan Sneggning qovushib turgan qo‘llarini bir-biriga arqonday, olovli ilonday mahkam bog‘ladi.

III BOB

VASIYAT VA MEROS

Garri Potter o‘z xonasida, ko‘zoynagi yon tomon og‘ib, og‘zi ochiq holatda qattiq xurрак otmoqda. U deraza yonidagi kreslodagi oqshom qorong‘isining qalinlashib borishini kuzatib, deyarli to‘rt soat o‘tirdi va nihoyat lunjini muzday romga suyangancha uxlab qoldi. Og‘zidan chiqarayotgan nafasi deraza oynasida ko‘cha fonusining nuridan malla rang tovlanayotgan dog‘ hosil qilgan. Rangsiz yorug‘lik Garrining qalin qora sochi ostidagi yuzini o‘ngitib, za‘faron tus bergan.

Xona polida boyqush pati, olma qoldiqlari, qand jildlari sochilib, atrofda har xil buyumlar-u chiqindi qalashib yotibdi. Karavotdagi kiyimlar bilan afsun kitoblarining aralashmasi kattagina uyum hosil qilgan. Yozuv stoli ustidagi sham yorug‘ida esa gazeta to‘pi ko‘rinmoqda. Ulardan birining sahifasida bitilgan sarlavha aniq ajrab turibdi:

GARRI POTTER, CHINDAN HAM, MUMTOZ BOLAMI?

Sehrgarlik vazirligida kechgan nihoyatda noxush, sirli hodisa haqidagi mish-mish gaplar hali-beri bosilmaydigan ko‘rinadi. Ma‘lumki, «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ning daf‘atan paydo bo‘lishi bilan bog‘liq ushbu hodisa kundan kunga o‘z tasdig‘ini topib bormoqda.

– Bu masalani muhokama qilish bizga qat’iyan man etilgan. Shunday ekan, savolingizga javob bera olmayman, – dedi ismi noma’lum qolishini istagan, kecha oqshom Sehrgarlik vazirligidan nihoyatda hayajonlangan holatda qaytayotgan xotira o’chiruvchilardan biri.

Vaholanki, hukumatning yuqori lavozimlaridan birini egallagan tanishimiz, mulohaza yuritilayotgan hodisa hayratomuz Bashoratlar zali bilan bevosita bog’liq ekanini tasdiqlamoqda.

Vazirlikning matbuot xizmati bunday zalning mavjudligini rad etayotganiga qaramay, avom xalq orasida, bugungi kunda Azkaban qamog’ida yotgan O’limdan zavqlanuvchilar to’dasi allaqanday bashoratni o’g’irlab chiqish maqsadida vazirlik binosiga o’g’rincha kirganiga oid komil ishonch ruhidagi kayfiyat keng tarqalmoqda. O’sha bashorat mazmuni hozircha noma’lum, lekin u keng tarqalgan mish-mish gaplarga qaraganda chaqaloqligida O’ldirish qarg’ishi ta’siridan omon qolgan yagona inson – Garri Potterga taalluqli emish. Aftidan, Potterning o’zi ham vazirlikda yuz bergan hodisa ishtirokchisiga aylanib qolganga o’xshaydi. Ayrimlar, ushbu o’spirinni «mumtoz», deb atamoqda. Negaki ularning aytishicha, aynan Potter bashariyatni «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»dan xalos etishi lozim emish.

Bashoratning – agar u, chindan ham, mavjud bo’lsa -- hozir qayerdaligi noma’lumligicha qolmoqda, garchi (maqola-ning davomini 2-sahifaning 5-ustunida o’qing).

Ushbu gazeta yonida boshqa soni yotibdi. Uning birinchi sahifasini deyarli butunicha paxmoq sochi qalin o’sgan, yuzi biron-bir qiyofa kasb etmagan kishining oq-qora fotosurati egalagan. Fotosurat ostidagi sarlavha va quyidagi maqola parchasi aniq ko’rinmoqda:

FUJ VAZIRLIK LAVOZIMINI SKRIMJGA BO'SHATIB BERMOQDA

Yaqin kunlargacha Sehrli huquqni muhofaza qilish departamenti Avrorlar idorasining boshlig'i vazifasini o'tab kelgan Rufus Skrimj kecha Kornelius Fuj bo'shatgan sehrgarlik vaziri lavozimini egalladi. Lavozimga tayinlanganiga hali ikki soat bo'lmagan Skrimj bilan Oqil Sudning Oliy Qoziligiga qaytadan saylangan Albus Dambldor o'rtasida ixtilof yuzaga kelganiga qaramay, sehrgarlar jamiyati ushbu yangilikni zo'r g'ayrat-la qarshi oldi.

Ikkala mansabdor shaxsning rasmiy uchrashuvi o'tgani-ni Skrimj huzuridagi matbuot kotibiyati tasdiqladi, ammo ushbu uchrashuv davomida qanday masalalar muhokama etilganini izohlab o'tishni lozim topmadi. Ma'lumki, Albus Dambldor (maqolaning davomini 3-sahifaning 2-ustunida o'qing)

Chap tomonda yana bitta gazeta yotibdi. Uning sahifasida quyidagi maqola chop etilgan:

VAZIRLIK O'QUVCHILARNING MUTLAQ XAVFSIZLIGINI KAFOLATLAYDI

Yangi tayinlangan sehrgarlik vaziri Rufus Skrimj ushbu o'quv yilidan e'tiboran «Xogvars» o'quvchilarining xavfsizligi ta'minlanishiga omil bo'ladigan qat'iy chora-tadbirlar haqida xabar berdi.

– Vazirlik tomonidan sohaga oid ishlarning qat'iy rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, hujjat tafsilotlari bilan tushunarli sabablarga ko'ra o'rtoqlasha olmaymiz. – bayonot qildi Skrimj.

Vazirlikda faoliyat yuritadigan ishonchli odamlarimizdan biri tahririyat taxminini tasdiqlab, mulohaza yuritilayotgan xavfsizlik tadbirlari o'z ichiga himoya qarg'ishlari, tilsimlar, qarg'ishga qarshi qarg'ishlarning nihoyatda murakkab kompleksini mujassam etishi, shuningdek, avrorlarning faqat «Xogvars» muhofazasi bilangina mashg'ul bo'ladigan tezkor

guruhi tuzilishi ko'zda tutilayotganini ma'lum qildi.

Maktab o'quvchilarining xavfsizligiga doir vazirlik tomonidan egallangan qat'iy pozitsiya jamoatchilikni qanoatlantirmoqda, albatta. Chunonchi, missis¹ Avgusta Longbottomning bu borada bildirgan fikr-mulohazasidan iqtibos keltirsak, o'rinli bo'ladi: «Garri Potterning qadr-don do'sti bo'lib, iyun oyida u bilan yonma-yon turib, O'limdan zavqlanuvchilarga qarshi jang qilgan nabiram Nevill...»

Maqolaning qolgan qismiga ko'rkam boyqush o'tirgan qafas bostirilgan. Oppoq qush qahraborang ko'zi bilan xonaga viqor-la nazar solib chiqib, boshini dam-badam qattiq xurrak otayotgan sohibi tomon burgancha, tumshug'ini xafahol qarsillatib qo'ymoqda. Biroq tarashadek qotib uxlayotgan Garri hech nimani eshitmayapti.

Xona o'rtasida qopqog'i ochiq, agar ichida pala-partish yotgan eski ichki kiyim, bir juft qand, siyohdan bo'shagan bir nechta shishacha bilan singan patqalamlarni hisobga olmaganda, deyarli bo'sh sandiq turibdi. Uning yonida esa matni husnixat-la bitilgan binafsharang eslatma yotibdi.

Sehrgarlik vazirligining buyurtmasiga binoan

O'Z XONADONINGIZ VA QAVM-QARINDOSHLARINGIZNI YOVUZ KUHLAR SEHRI TA'SIRIDAN HIMOYA QILING

Bugungi kunda «O'limdan zavqlanuvchilar» deb nom olgan tashkilot sehrgarlar jamiyatiga tahdid solmoqda.

Quyida o'zingiz, oilangiz va istiqomat qilayotgan mas-kaningizni himoya qilishga omil bo'ladigan oddiy qoidalar keltirilgan.

- 1. Uyingizni qarovsiz qoldirmang.*
- 2. Sutkaning tungi mahalida ehtiyot bo'ling. Barcha ishlaringizni imkon qadar kam botguncha nihoyasiga yetkazing.*

¹ Missis - Angliya va AQShda: ayollarga murojaat shakli.

3. Uyingiz muhofazasining ishonchliligini tekshirib ko'ring. Oilangizning barcha a'zolari himoyalanişning shoshilinch choralari, xususan, sapchitish va dong qotirish qarg'ishlari, balog'atga yetmagan oila a'zolari esa bundan tashqari, ko'rinmaslik tilsimining ijrosini o'zlashtirib olishganiga ishonch hosil qiling.

4. Barcha qiyofalar damlamasini ichib, boshqa shaxs tusiga kirib olgan O'limdan zavqlanuvchini fosh etish usullarini puxta o'ylab, yaqinlaringiz bilan muvofiqlashtirib oling (2-sahifaga qarang).

5. Agar oila a'zolaringiz, hamkasblaringiz, tanishlaringiz yoki qo'shnilaringizdan hiror-biri o'zini g'alati tuta-yotgan bo'lsa, darhol Sehrli huquqni muhofaza qilish departamenti bilan bog'laning. Negaki bunday shaxs Qaram qilish qarg'ishi ta'sirida bo'lishi mumkin (4-sahifaga qarang).

6. Basharti turar joy binosi yoki boshqa turdagi bino ustida paydo bo'lgan Ajal belgisini ko'rib qolsangiz, u binoga aslo kirmang, zudlik bilan avrorlar idorasi bilan bog'laning.

7. Tasdiqlanmagan ma'humotlarga qaraganda, O'limdan zavqlanuvchilar infernallardan¹ foydalana boshlagan (10-sahifaga qarang).

Infernallar paydo bo'lgan va ular uchragan har qanday holat haqida kechiktirmay, vazirlikka xabar bering.

Uyqusida gapirayotgan Garrining lunji oynadan pastga sirpanib, ko'zoynagi battar og'gan bo'lsa ham uyg'onmadi. Tokchadagi, bir necha yil muqaddam Garrining o'zi tuzatgan uyg'otish soatining mili bir daqiqa kam yigirma uchni ko'rsatgancha, baland chiqillamoqda. Uning yonida ingichka, qing'ir-qiyshiq dastxat-la yozib to'ldirilgan, Garri bo'shashgan qo'li bilan bosib olgan pergament bo'lagi yotibdi. Maktub kelganiga uch kun bo'lgan, lekin u shu qadar ko'p o'qilganki, qog'ozning qalin o'rami tekislanib qolibdi.

¹ Infernallar – yovuz sehrgaming afsuni vositasida qayta tirilgan jonsiz murdalar.

Qadrdonim Garri!

Agar kelasi juma kuni kechki soat o'n birda «Odamovilar» xiyoboni, 4-uyga tashrif buyursam, umid qilamanki, seni noqulay ahvolga solib qo'ymayman. Seni yozgi ta'tilning oxirigacha Boshpanaga taklif qilishmoqda. Shu bois seni u yerga o'zim eltib qo'ymoqchiman.

Yo'l-yo'lakay bir ishni bitirish masalasida ko'maklashib yuborsang, bag'oyat minnatdor bo'lar edim, agar rozilik bersang, albatta. U nima ishligini barcha tafsilotlari bilan uchrashganimizda aytaman.

Javobingni ushbu maktubni yetkazgan boyqush orqali yo'llaganing ma'qul.

Juma kuni uchrashguncha.

Ehtirom ila, Albus Damblдор

Garri xatni o'qiyverib yod olib bo'ldi. Shunga qaramay, oqshom soat yettida «Odamovilar» xiyoboni kaftday, butunicha ko'rinadigan deraza yonidagi postni egallab, harakati ma'nisiz ekanini idrok etayotgan bo'lsa-da, xatdan deyarli ko'z uzmay o'tirdi. Iltimos qilinganday, Garri, xatni olib kelgan boyqushdan rozilik javobini yo'lladi. Endi Damblдорning paydo bo'lishini kutish qoldi, xolos.

Lekin Garri narsalarini yig'ishtirmadi. Dursllar xonadonida atigi ikki hafta bo'lib, tark etib ketish? Bunday holat aqlga to'g'ri kelmaydigan baxtga o'xshab, Garrini har xil shubhalar qiynadi.

«Ish o'ngidan kelmasligi aniq: yo javob xatim yetib bormaydi, yo Damblдорning rejasi o'zgarib, kela olmaydi yoki bu-larning bari ahmoqona hazil bo'lib chiqadi», – xayoldan o'tkazdi u.

Sandiqqa batartib joylangan bisotini yana chiqarishga asabi dosh bera olmasligini biladi va shu bois Xedvigni qafasga qamab qo'yish bilangina cheklandi.

Soatning daqiqa ko'rsatadigan mili o'n ikki raqamiga o'tib, deraza ortidagi ko'cha fonuslari baralla o'chdi.

Kutilmaganda qaror topgan qorong'ilik xavf alomati

bo'lganday Garri darhol uyg'ondi. Deraza oynasiga yopishgan lunjini uzib ajratib, ko'zoynagini to'g'riladi-da, burnini oynaga taqadi. Qisib olgan ko'zi bilan pastga, ko'chaga qarar ekan, bog' yo'lagida paydo bo'lgan novcha bo'yli, egniga uzun, shamolda hilpirayotgan rido kiygan kishini ko'rdi.

Garrini tok urganday bo'ldi. Kresloni ontarib yubor-gancha o'rnidan turib, polda sochilib yotgan narsalarini tera ket-di. Sandiq ichiga korjoma¹, ikkita afsun kitobi, bir paket chips uchib tushgan ediki, eshik qo'ng'irog'i yangradi.

– Qaysi eshak kelgan bo'lishi mumkin, yarim kechada?
– eshitildi Vernon amakining ovozi, birinchi qavatdagi meh-monxonadan.

Bir qo'lida mis teleskop², ikkinchisida krossovka ushla-gan Garri turgan joyida qotib qoldi. Dahshat, Damblarning tash-rifi haqida qarindoshlarini ogohlantirmabdi-ku! Asabiy kulgisini bazo'r tiygan Garri sandiq ustidan hatlab o'tib, xona eshigini ochishi bilan, pastdagi ovozlarni eshitdi:

– Xayrli tun. Siz mister Dursl bo'lsangiz kerak. Umid qilamanki, jiyaningiz xonadoningizga kirib o'tishim haqida sizni ogohlantirgan.

Garri katta qadam tashlagancha, zina bo'ylab pastga yugurdi-yu, oxiriga yetmay, taqa to'xtadi. Boy hayotiy tajriba amakidan nari turish kerakligini yaxshi o'rgatgan. Bo'sag'ada moviy ko'zi uzun burni ustidagi yarim oy shakliga ega shisha ko'zoynak ortidan yorqin nurday yarqirayotgan, ilmoqsimon qayrilma burni kam deganda ikki joyidan singanday ko'rina-yotgan, kumush tusli soch-soqoli belbog'ga qisib olguday dara-jada uzun, novcha bo'yli, ozg'in, egniga qora rang uzun safar ridosi, boshiga cho'qqidor shlyapa kiygan kishi turibdi. Qizg'ish-qo'ng'ir xalat kiygan, qora mo'ylovi kutilmagan mehmonning mo'ylovidan qolishmaydigan Vernon Dursl bir juft yovuz mitti ko'zi ila Damblarga baqraygancha qoqilgan qoziqday turibdi.

¹ Korjoma – ish kiyimi.

² Teleskop – (tele... va ...yomoncha: skopeo – qarayman) – osmon yoritqichlarini vizual, fotografik, fotoelektrik va spektral usullarda kuzatish uchun mo'ljallangan astronomik optik asbob.

– Taajjubingizga qaraganda, tashrifim haqida ogohlantirishni jiyaningiz Garri unutib qo‘ygan ko‘rinadi, – dedi Dambl-dor xushmuomala ohangda. – Shunga qaramay, keling tasavvur qilaylik, siz meni ichkariga taklif qildingiz. Bizning notinch davrimizda ko‘cha eshigini uzoq vaqt ochiq qoldirsak, oqil ish qilmagan bo‘lamiz.

U chaqqonlik-la ostonaga hatlab o‘tib, eshikni yopdi.

– Ancha bo‘ldi bu yerga kelmaganimga, – davom etdi Dambl-dor, qirg‘iy burni uzra Vernon amakiga qarab. – Agapan-tuslarning¹ o‘sim ketganini qarang-a!

Esi past kishiday qarab turgan Dursi indamadi, lekin chakkasidagi qon tomiri xavfli tezlik-la harakatlanayotganiga qaraganda, gapirish qobiliyati tez orada tiklanadi. Hozircha u yo Dambl-dorning haddan ortiq sehergarlik qiyofasidan esankirab qolgani, yo qarshisida qo‘rqoqlar toifasiga kirmaydigan kishi turganini yaxshi anglab yetgani bois bazo‘r nafas olmoqda.

– Ana Garri! Salom! -- ko‘rishdi Dambl-dor, yarim oy shaklli ko‘zoynagi uzra bolaga qarab. – Juda soz, juda soz.

Nihoyat Vernon amaki aql-hushini yig‘ib oldi. Kim bo‘lishidan qat‘i nazar, Garrini «juda soz» deb topar ekan, bunday kishi ushbu xonadonga kirishga munosib emas.

– Axloqan dag‘al kishiday ko‘rinmoqchi emasman-u... – qo‘pol ohangda gap boshladi u.

– Lekin ko‘rinib bo‘ldingiz, – qat‘iy ohangda fikrni yakunladi Dambl-dor. – Ta‘kidlab o‘tmoq joizki, birinchi marta emas. Qadrdonim, yaxshisi, jim turganingiz ma‘qul! Ana Petu-niya ham ko‘rinish berdi.

Chindan ham, oshxona ostonasida tungi ko‘ylagi ustiga xalat kiygan, qo‘liga rezina qo‘lqop taqqan, uyquga yotishdan oldin hamma yoqni artib chiqish odatini kanda qilmagan Petu-niya xola paydo bo‘ldi. Uning ot basharasini eslatadigan yuzi o‘ta kuchli ruhiy putur qiyofasini aks ettiradi.

Vernon amakining uyga kelgan kishini rafiqasiga tanish-tirish niyati yo‘qligini fahmlagan mehmon o‘zini tanitdi:

¹ Agapanthus – piyozdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik turi.

– Albus Dambldor. Biz yozishmalar orqali tanishmiz.

Bitta Qichqiriqnoman yozishma deb bo'lmaydi, albatta, biroq Petuniya xola mehmon ishlatgan ushbu so'z borasida bahslashmoqchi emasligi Garrining nazaridan chetda qolmadi.

– Bu esa o'g'lingiz Dudli bo'lsa kerak?

Yo'l-yo'l pijama kiygan Dudli oq-sariq sochli, og'zi lang ochilgan, havoda muxtor osilganday ko'ringan yirik boshini mehmonxona eshigidan chiqardi. Dambldor uy sohiblari biron nima deyishlarini kutib, biroz tek turdi-yu, sukunat uzoq cho'zilgach kulib boqdi.

– Meni mehmonxonaga taklif qildingiz, deya faraz qilishni taklif qilaman.

Dudli yo'ldan daf bo'lgach, Dambldor ichkariga kirdi. Hamon bir qo'lida mis teleskop, ikkinchisida krossovka ushlagan Garri zinadan irg'ib tushib, direktorning orqasidan ergashdi. Dambldor kamin yonidagi kresloga joylashgach, boshini aylantirgancha, katta qiziqish-la xonaga razm solib chiqdi.

– Ketar vaqtimiz bo'lmadimi... ser¹? – xavotir-la so'radi Garri.

– Ha, ha, albatta, – javob berdi Dambldor. – Faqat yo'lga chiqishdan oldin bir narsani muhokama qilib olmoqchiman. Bu ishni esa yopiq xonada amalga oshirgan ma'qul. Amaking bilan xolangning mehmondo'stligini birozgina suiiste'mol qilamiz, xolos.

– Shunaqa deng?

Xonaga Vernon Dursl otilib kirdi. Uning ketida esa cho'p-ustuxon tanasi ila semiz Dudlini bekitib olishga urinayotgan Petuniya xola ko'rindi.

– Ha, shunaqa, – xotirjam javob berdi Dambldor, sehrli tayoqchasini yashin tezligida chiqarib.

Garri Dambldorning ushbu harakatini ilg'ab olishga ulgurmad. Sehrli tayoqcha sal silkitilgan ediki, divan oldinga harakatlanib, uchala Durslning taqimiga urildi. Uchovlon yumshoq yostiqlar ustiga ag'anagach, yana silkitilgan tayoqcha

¹ Ser – Angliya va AQShda erkaklarga hurmat yuzasidan murojaat shakli.

divanni shiddat-la joyiga qaytardi.

– Shunday ekan, qulay joylashib o'tirishga nima yetsin,
– muloyim kulib boqdi Damblдор, tayoqchasini kissaga joylab.

Garri Damblдорning bitta panjasi eti burishganday kuyib, qorayganiga e'tibor qildi.

– Ser, qo'lingizga nima?... – so'radi bola.

– Hozir emas, Garri, iltimos, o'tir, – to'xtatdi Damblдор.

Ruhiy larzaga tuzib, tili kalimaga kelmay qolgan Dursllar tomon qaramaslikka uringan Garri ikkinchi kresloga joylashdi.

– Yo'ldan kelganim uchun biron-bir ichimlik taklif qilindi, degan umidda edim, – dedi Damblдор Vernon amakiga qarab. – Biroq sizdan bunday iltifot kutish ahmoqlikka yaqin nekbinlik ekanini anglamoqdaman.

Sehrli tayoqcha uchinchi bor silkitilgach, havoda sirtini chang qoplagan shisha bilan beshta qadah paydo bo'ldi. Shisha egilib, qadahlar to'q yashil suyuqlikka to'ldi-da, xonadagilar tomon uchib tarqaldi.

– «Uch supurgi» qahvaxonasining sohibasi Rosmerta xonim ixtiyoridagi eng sara, ko'p yillar davomida eman bochkalarda damlanib saqlangan musallas, – dedi Damblдор, qadahni ko'targancha, Garriga qarab.

Garri tez ho'plab, muqaddam tatib ko'rmagan ichimlikning ajoyib ta'miga baho berishga ulgurdi. Dursllar bir-biriga cho'chib qarab, o'zlarini qadahni ko'rmayotgan ko'yga solib olishdi. Lekin havoga muallaq osilgan qadahlar Dursllarning lunjlariga taqalmoqda. Garri, ushbu manzara Damblдорga xush kelayotganini sezmay qolmadi.

– Shunday qilib biz, – gap boshladi Damblдор, Garriga yuzlanib, – o'zing hal etib berishing kerak bo'lgan murakkab vaziyatga tushib qoldik. «Biz» bu – Qaqnus ordeni, albatta. Lekin dastlab, ijozating bilan, o'tgan hafta Siriusning vasiyatnomasini ochib o'qish marosimi o'tkazilgani va cho'qintirgan otang jamiki mol-mulkini senga qoldirganini ma'lum qilmoqchiman.

Vernon amakining qulog'i shu zahoti ding bo'ldi, ammo Garri u tomon qiyo ham boqmadi.

– A-a, ha, tushunarti, – deya oldi bola, xayoliga durustroq gap kelmay.

– Umuman aytganda, vasiyatining tushunib yetish qiyin kechadigan joyi yo‘q, – fikr bildirdi Damblдор. – Gringottsdagi hisob raqamingga yirikkina mablag‘ qo‘shilgan va Siriusning shaxsiy mulki sening ixtiyoringga o‘tgan. Yagona muammo shundan iboratki...

– Uning cho‘qintirgan otasi o‘ldimi? – divan tomondan eshitildi Vernon amakining baland ovozi.

Damblдор bilan Garri Vernon amaki tomon baravar yuzlandi. Musallas quyilgan qadah uning chakkasiga urilmoqda.

– O‘ldimi? Cho‘qintirgan otasi o‘ldimi? – takror so‘radi Vernon amaki, kafti bilan qadahni nari haydashga urinib.

– Ha, – tasdiqladi, nima uchun bu haqda qarindoshlariga aytmaganini Garridan so‘ramagan Damblдор va xuddi gapi bo‘linmaganday davom etdi: -- muammo shundan iboratki, Pinho-niylik maydonidagi 12-uy ham senga vasiyat qilingan.

– Sen-a, uy meros qilib oldingmi? – so‘radi, ko‘zini suqlik bilan qisib qaragan Vernon amaki.

Amakining savoli javobsiz qoldi.

– Orden qarorgohi bo‘lgancha qolaversin, – po‘ng‘illadi Garri. – Menga baribir. Foydalaninglar, menga hech narsa kerak emas.

Ajal tahdid qilsa ham yo‘sin qoplagan o‘sha jirkanch uyni zindonday ko‘rgan Sirius haqidagi xotiralar tinimsiz ta‘qib qiladigan Bleklar xonadoniga qaytishni Garri istamaydi.

– Oliyjanob qaror, albatta, – dedi Damblдор. – Shunga qaramay, biz uni tark etib chiqishga majbur bo‘ldik.

– Nega?

– Gap shundaki, – davom etdi Damblдор, boshiga qadah urilayotgan Vernon amakining g‘udullashiga e‘tibor qilmay, – an‘anaga ko‘ra, Bleklar avlodiga mansub o‘sha uy, mazkur xonadonning erkak nasabiga qarashli vakiliga qolishi lozim. Sirius xonadonning so‘nggi erkak vakili bo‘lgan. Uning ukasi Regulys Blek ancha ilgari halok bo‘lgan. Ikkalasining ham farzandi bo‘lmagan. Uy senga vasiyat qilingani vasiyatnomada aniq

bayon etilgan, biroq u tilsimlar bilan muhofaza qilingan bo'lib, faqat asilzot Blekkina uy sohibi bo'lishi mumkin.

Garri portreti dahlizga mahkamlangan, hamisha tupurib, ayyuhannos soladigan Siriusning onasini esladi.

– Ha, shunday bo'lishi ham mumkin, – po'ng'illadi bola.

– Ana shunaqa, – bosh irg'idi Damblдор. – Agar, chindan ham, muhofaza qo'llanilgan bo'lsa, uy, Siriusning bugungi kunda barhayot yurgan katta qarindoshlaridan biri, xususan, xolavachchasi Bellatriks Lestrangga nasib etishi ehtimoldan xoli emas.

Nima qilayotganini idrok etmagan Garri o'rmidan irg'ib turdi. Uning tizzasida yotgan teleskop bilan krossovka polga dumalab tushdi. Uy Siriusning qotili Bellatriks Lestrangga nasib qiladi?

– Yo'q, – pichirladi Garri.

– Biz ham istamaymiz uy o'sha ayolga o'tishini, – dedi Damblдор xotirjam ohangda. – Biroq ish juda murakkab. Misol uchun, uy Siriusga tegishli bo'lmay qolganidan keyin, biz qo'llagan muhofaza choralari o'z kuchini saqlab qolish-qolmasligini bilmaymiz. Har qanday fursatda ostonada Bellatriks paydo bo'lib qolsa-chi? Shu bois ushbu holatga aniqlik kiritilguncha, tabiiyki, biz u yerdan ko'chib chiqdik.

– Uy, chindan ham, meniki bo'lganini qanday bilish mumkin? – so'radi Garri.

– Buni tekshirish, xayriyatki, qiyin emas, – dedi Damblдор, qo'lidagi bo'sh qadahni yonidagi stolchaga qo'yib.

Lekin u hali biron nima qilishga ulgurmay, Vernon amakining baqirig'i eshitildi:

– Balkim, mana bularni daf qilarsiz, jin ursin?

Garri Dursllar tomon o'girildi. Uchalasi qo'li bilan boshini himoya qilishmoqda. Qadahlar esa ularning ustida, ichimlikni boshiga sachratgancha, havoda tebranmoqda.

– Ha-ya, ma'zur tuting, aybdorman, – dedi Damblдор, sehrli tayoqchasini ko'targancha, qadahlarni daf qilib. – Ichib ko'rganingizda odob saqlagan bo'lar edingiz.

Vernon amakining yuz qiyofasiga qarab, tilining uchida

har xil zaharli javoblar aylanayotganini uqib olish qiyin emas. Lekin cho'chqa ko'zini sehrli tayoqchadan uzmagani amakining jur'ati xotini bilan bolasiga yaqinroq o'tirib, divanga qapishib olishga yetdi, xolos.

Agar sen, chindan ham, uyni meros qilib olib, sohibiga aylangan bo'lsang, davom etdi Dambldor, hech narsa bo'lmaganday Garriga murojaat qilib, senga yana bir meros qolgan bo'lishi kerak, u ham bo'lsa...

Qariya sehrli tayoqchasini beshinchi bor siltadi. Qattiq qars tovushi yangrab, mehmonxonaning tuki paxmoq gilami ustida egniga iflos latta o'ralgan, burni cho'chqaning tumshug'ini eslatadigan, qulog'i ko'rshapalak qulog'i kabi katta, bir juft katta-katta ko'zidagi qonga to'la taram-taram qon tomirlari yaqqol ko'rinayotgan uy elfi paydo bo'ldi. Top-toza gilamida bunday qabohat paydo bo'lganini ko'rgan Petuniya xola quloqni qomatga keltirguday darajada chinqirdi. Dudli darhol yalang oyog'ini poldan uzib, anavi maxluq pijama ishtonining poylari orqali ichiga kirib olishidan hadiksiragancha, sal kam boshidan balandroq ko'tardi.

– Nima jin bu? – baland baqirdi Vernon amaki.

– ... Taraqqos, – nihoyat fikrini yakunladi Dambldor.

– Taraqqos bormaydi, bormaydi, bormaydi! – g'ichirlagan ovozda, deyarli Vernon amakiday baland valdiradi uy elfi, uzun oyog'ining g'adir-budur kaftini polga urgancha, katta qulog'ini asabiy tortib. – Taraqqos miss¹ Bellatriksga xizmat qiladi, ha-ha-ha, Taraqqos Bleklar xonadoniga xizmat qiladi, Taraqqos yangi sohibasining huzuriga boradi, haromi Potterning huzuriga bormaydi, bormaydi, bormaydi!

Ko'rib turibsanki, Garri, – dedi baland ovozda Dambldor, Taraqqosning «bormaydi»sini bosish uchun. – elf sening ixtiyoringga o'tishni istamayapti.

Tupurdim unga, – po'ng'illadi Garri, tirishib depsinayotgan Taraqqosga jirkanch nigoh-la qarab. – Qoshim uchib turgani yo'q.

¹ Miss – Angliya va AQShda: turmushga chiqmagan qizlarga murojaat shakli.

- Bormaydi, bormaydi, bomiyadi... - g'ichirladi Taraqqos.

- Bellatriks Lestrangning ixtiyoriga o'tib ketishini istaysanmi? So'nggi bir yil ichida Qaqnus ordeni qarorgohida yashagatiini bilib-a?

- Bormaydi, bormaydi, bormaydi... - tinchlanmadi elf.

Garri Damblorga qaradi. Taraqqosni Bellatriksga berib bo'lmasligi tushunarli, albatta, biroq... Siriusni sotgan eifning xo'jayini bo'lish? Bunday xayolning o'zi jirkanchli.

- Unga biron nima buyur, - dedi Damblor. - Agar u sening ixtiyoringga o'tgan bo'lsa, bo'ysunishga majbur. Bo'ysunmaydigan bo'lsa, qonuniy sohibasining huzuriga qo'ymaslik chorasini ko'rishga majbur bo'lamiz.

- Bormaydi, bormaydi, BORMAYDI! - baland o'kirdi Taraqqos.

Eifning qichqiriqlari uvullashga o'tgach, Garri beixtiyor do'q urdi:

- O'chir ovozingni, Taraqqos!

Ko'zi chaqchaygan elf og'zini liqilib qolganday ochib yopgancha, beixtiyor tomog'ini ushladi. Yutinish amalini bajara olmagan Taraqqos o'zini gilamga tashlab, unsiz bo'lsa ham javavaga tushgancha, oyoq-qo'lini polga ura ketdi. Petuniya xola yana ingradi.

- Xo'sh, masala oydinlashdi, - sevindi Damblor. - Sirius nima qilayotganini yaxshi bilgan. Sen endi Pinhoniylilik maydonidagi o'n ikkinchi uyning, shu jumladan, Taraqqosning qonuniy sohibisan Garri.

- U... men bilan yashashi shartmi? - so'radi Garri, oyog'i ostida to'lg'anib yotgan elfga qarab.

- Istamas ekansan, shart emas, - dedi Damblor. - Agar e'tiroz bildirmasang, uni «Xogvars» oshxonasiga yuborishni taklif qilaman. O'sha yerda bizning elflarimiz nazorati ostida bo'ladi.

- Shunday qilamiz, - rozi bo'ldi Garri, yengil tortib. - E-m-m... Taraqqos! «Xogvars»ga jo'nashing va boshqa elflar bilan birga oshxonada mehnat qilishingni istayman.

Belida yotib, oyoq-qo'li bilan havo tepayotgan Taraqqos Garriga ifoda etib bo'lmas nafrat-la qarab, qattiq qars tovushini chiqargancha, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

- Juda soz! - dedi Damblдор. - Gippogrif¹ Otburgut ham bor. Siriusning o'limidan so'ng jonivorni Xagrid boqmoqda. Endi u ham sening ixtiyoringda. Agar, o'sha jonivor masalasida boshqa rejang bo'lsa...

- Yo'q, - shu zahoti javob berdi Garri. - Xagrid bilan qolaversin. Shunday qilsak, o'ylaymanki, Otburgutga ham yaxshi bo'ladi.

- Ayniqsa, Xagrid rosa xursand bo'ladi, - kulib boqdi Damblдор. - Hayvoni bilan yana yuz ko'rishganidan zavqlanib yuribdi. Aytganday, xavfsizlik nuqtai nazaridan Otburgutning laqabini vaqtincha Tovuqqanot laqabiga almashtirishga qaror qildik, garchi vazirlikdagilar bu aynan o'sha, o'zlari o'limga hukm qilgan gippogrif ekanini fahmlashmasa-da. Xo'sh, Garri, buyumlaringni yig'ishtirib qo'ydingmi?

- E-m-m...

- Tashrifim masalasida shubha qildingmi deyman? - hayron bo'ldi Damblдор.

- Men hozir... birpasda... - ovoz ko'tardi Garri, polda yotgan teleskopi bilan krossovkasini qo'lga olib.

Bisotini yig'ishtirishga o'n daqiqadan sal ko'proq vaqt ketdi. Nihoyat Garri karavot ostida yotgan ko'rinmas plashni olib, rang-barang siyohli shishacha qopqog'ini burab yopib, sandiqqa soldi-da, ustidan qozonni joylab, qopqoqni bazo'r qulfladi. Shundan so'ng bir qo'li bilan sandiq tortib, ikkinchisiga Xedvig qamalgan qafasni ushlab, birinchi qavatga tushdi.

Dambldorni dahlizga chiqmabdi. Yana anavilarning oldiga, mehmonxonaga kirishga to'g'ri keladi.

U yerda deyarli jimjitlik. Damblдор nimanidir xirgoyi qilib, aftidan, o'zini nihoyatda yaxshi his etmoqda. Xonada qaror

¹ **Gippogrif** - G'arbiy Yevropa afsonalarida aytilishicha, tanasi sherga, qanoti burgut qanotiga o'xshash afsonaviy maxluq.

topgan vaziyat nimasi bilandir to'nglab qolgan qaynatma kremni yodga soladi.

- Professor, men tayyorman, - dedi qarindoshlari tomon qarashga botina olmagan Garri.

- Juda soz, - javob qildi Dambldor. - Bir gapni aytish qoldi, xolos, - dedi u, Dursllar tomon yuzlanib. - Sizlarga ma'lumki, bir yildan so'ng Garri balog'at yoshiga to'ladi...

- Yo'q, - e'tiroz bildirdi Petuniya xola, oqshom davomida ilk bor tilga kirib.

- Tushunmadim? - dedi Dambldor, muloyim ohangda.

- To'lmaydi. U Dudlikdan bir oyga kichik. Dudlik esa ikki yildan keyin o'n sakkiz yoshga to'ladi.

- Shunaqa deng, - muloyim ohangini qo'ymadi Dambldor. - Biroq sehrgarlar o'n yetti yoshda balog'at yoshga yetishadi.

- Tentaklar, - po'ng'illadi Vernon amaki.

- Davom etamiz, - dedi Dambldor Vernon amakiga e'tibor qilmay. - O'zingizga ma'lumki, yurtimizga mash'um nom taratgan Lord Voldemort qaytib kelgan. Sehrgarlar jamiyatida urush kechmoqda. Yovuz Lord Garrini o'ldirishga ko'p uringan. Hozir ham bolaning hayotiga nisbatan xavf tahdid qilmoqda. Ammo bugungi tahdid, uni o'n besh yil muqaddam ostoningizda, yonida ota-onasining o'limi bayon etilgan xat bilan qoldirib ketgan kunim yuzaga kelgan tahdiddan ancha jiddidir. Bolaga o'z bolangizga ko'rsatgan kabi mehr ko'rsatasiz, degan umidda edim, o'sha xatimda.

Dambldor biroz sukut saqladi. U bir maromda, xotirjam, achchiqlanmay gapirmoqda-yu, ohangi sovigani bilinmoqda. Nimanidir fahmlagan Dursllar bir-biriga yanada jips o'tirib olishgani Garriining e'tiboridan chetda qolmadi.

- Sizlar esa iltimosni bajarmadingiz. Garrini qarindoshday ko'rmadingiz. Uni mensimadingiz, bola bu uyda jabrjafodan boshqa hech qanday ro'shnolik ko'rmadi. Biroq adolat yuzasidan ta'kidlab o'tmoq joizki, yagona bir yaxshiligingizni dari tutmadingiz, u ham bo'lsa, Garriga, o'rtangizda o'tirgan badbaxt bolaga yomonlik qilganday zarar yetkaza olmadingiz.

Petuniya xola bilan Vernon amaki, oralarida Dudli emas yot begona bola o'tirib olganday keskin burilib qarashdi.

- Biz Dudlikka? E, nimalar deyapsiz?... - darg'azab ohangda gap boshladi Vernon amaki, biroqjimlik saqlashga imo qilayotgan Dambldorning ko'tarilgan barmog'ini ko'rib, unini o'chirdi.

- Toki Garri xonadoningizni o'z uyiday bilar ekan, o'n besh yil muqaddam men yaratgan sehrli muhofaza uning xavfsizligini ta'minlaydi. Garri bu yerda dilsiyohlikda, birovga kerak bo'lmay, baxtsiz o'sgan bo'lsa-da, unga istar-istamas joy berdingiz. Garri o'n yettiga to'lgan kuni, boshqacha qilib aytganda, er kishi bo'lib yetilgan fursat kelishi bilan, yuqorida aytilgan muhofaza barham topadi. Men sizlardan faqat bir narsani, Garriga, u o'n yetti yoshga to'lib olguncha yana bir bor uyingizga qaytishiga ruxsat berishingizni iltimos qilaman.

Dursllar damini chiqarishmadi. Dudli, unga nima yomonlik qilishganini anglab yetishga urinayotganday qosh chimirib olgan. Vernon amakining qiyofasidan, bo'g'ziga bir narsa qadalib qolganini uqib olish qiyin emas. Petuniya xolaning rangi esa g'alati qizargan.

Dambldor o'rnidan turib, uzun plashini to'g'riladi.

- Xo'sh, Garri... ketar vaqtimiz bo'ldi. Ko'rishguncha, - dedi u, Dursllarga murojaat qilib.

Uchala Durslning yuzida ko'rishish hech qachon nasib qilmaslik istagi yaqqol ifodalangan.

- Ko'rishguncha, - tez xayrlashdi Garri, Dambldorning ketidan ergashib.

Qariya sandiq bilan Xedvig qamalgan qafas yonida to'xtab qoldi.

- Bu bizga xalal beradi, - dedi u, sehrli tayoqchasini chiqarib. - Narsalaringni Boshpanaga yo'llayman. Lekin ko'rinmas plashingni o'zing bilan olganing ma'qul... har ehtimolga qarshi.

Garri sandiq ichidagi ahvolni Dambldorga ko'rsatmaslikka uringancha, ko'rinmas plashni bir amallab chiqardi-da, nimchasining kissasiga joyladi. Qariya sehrli tayoqchasini silta-

gan zahoti sandiq bilan qafas ko'zdan g'oyib bo'ldi. Sehrli tayoqcha yana bir siltangan ediki, chiqish eshigi lang ochildi. Eshik ortida tuman qoplagan sovuq zulmat ko'rindi.

- Qani, Garri, yo'ldan beqaror shamolday ozdiradigan tavakkal ortidan olg'a!

IV BOB

GORATSIY DIVANGARD

So'nggi hafta davomida Garri faqat Damblдор haqida qayg'ilib bilan o'tadigan uchrashuv sanasini kutib yurgan edi. Mana uchrashuv kuni yetib, bola xijolat. Ilgari ular asosan maktabda muloqot qilib, odatda, ikkalasini o'rtadagi yozuv stoli ajratgan. Oxirgi uchrashuv haqidagi xotiralar esa noqulaylik hissini biroz oshirib yubormoqda. O'shanda Garri ovozi boricha qichqirib, Damblдорning bir talay qimmatli buyumlarini chilparchin qilgan edi.

O'sha to'polon Damblдорni umuman tashvishga solmanganday ko'rindi.

- Sehrli tayoqchangni shay holatda ushlab yur, Garri, - xushchaqchaq kayfiyat-la buyurdi u.

- Maktab hududidan tashqari joyda sehr-jodu bilan shug'ullanish mumkin emas-u menga...

- Agar bizga hamla qilib qolishsa, - dedi Damblдор, - xayolingga kelgan har qanday qarg'ishga qarshi qarg'ishni qo'llashga ijozat beraman. Vaholanki, bugun sen hech narsadan xavfsiramasang ham bo'laveradi.

-Nima uchun, ser?

- Chunki men bilansan, - oddiygina javob berdi Damblдор. - Buning o'zi katta gap emasmi.

«Odamovilar» xiyobonining muyulishiga yetgan Damblдор keskin to'xtab, so'radi:

- Havoda g'oyib bo'lish bo'yicha imtihon topshirganing yo'qmi hali?

- Y □ q, bosh ir □ id Garri. - O'n yetti yoshdan topshiriladi-yu.

- To'g'ri aytasan, - dedi Damblдор. - Unday bo'lsa, qo'limni mahkam ushla. Chap qo'limni, agar e'tiroz bildirmasang. Sezgan bo'lsang kerak, o'ng qo'limning biroz mazasi qochgan.

Garri Damblдорning qo'lini ushladi.

- Juda soz, - dedi Damblдор. - Ketdik.

Garri kaftidan chiqib ketayotgan Damblдорning qo'lini mahkam ushladi. Atrof qorong'ilashib, har tomondan nimadir siqqancha nafas olishi qiyinlashdi, qovurg'asi, go'yo ko'krak qafasiga chambarak qoqilgandek og'ridi, ko'zi bilan qulog'i qandaydir bosimni his etdi, so'ng...

Bola tungi sovuq havodan chuqur nafas olib, yoshlangan ko'zini ochdi. O'zini tor rezina quvurdan siqib o'tkazilganday his etib, «Odamovilar» xiyoboni uzoqlarda qolib ketganini darhol fahmlamadi. Damblдор ikkalasi o'rtada harbiy yodgorlik bilan ikkita uzun kursi o'rnatilgan xilvat qishloq maydonida paydo bo'lishdi. Xayolini yig'ib olgan Garri hayotida ilk bor havoda g'oyib bo'lib, yana paydo bo'lganini idrok etdi.

- Ahvoling qalay? - qiziqdi Damblдор. - Bunga k □ - nikish kerak.

- Yaxshi, - qulog'ini ishqaladi Garri, «Odamovilar» xiyobonini bu tarzda-tark etishni istamagani bilinib. - Lekin rostini aytsam, menga supurgi afzal ekan.

Kulib boqqan Damblдор yoqasini zichroq tortdi.

- Bu tomon yuramiz, - dedi u, bo'sh mehmonxona bilan allaqanday imoratlar oldidan o'tgancha, tez odimlab.

Qishloq cherkovining soat millari tun yarmiga yetganini ko'rsatmoqda.

- Ayt-chi menga, Garri, chandig'ing og'rib turibdimi? - kutilmaganda so'rab qoldi Damblдор.

- Yo'q, - dedi Garri, peshanasidagi yashin zigzagi¹ shaklidagi chandiqni g'ayriixtiyoriy ravishda uqalab. - O'zim

¹ **Zigzag** - yashin harakatiga o'xshash egri-burki shakl.

ham hayronman. Modomiki, Voldemortning qudrati oshib borar ekan, chandiq ham tinchlik bermaydi, deb o'ylagan edim.

– Men esa aksincha xayolga borganman, – dedi bolaning javobidan mamnun bo'lgan Damblдор. – Mulohazalari-yu hissiyotlariga singib kirishdek zo'r imkonning borligini tushunib yetgan Lord Voldemort, aftidan, okklumensiya¹ vositasida sendan saqlanishga ahd qilgan ko'rinadi.

– To'g'ri qiladi, – po'ng'illadi Garri.

Tungi alahsirashlar-u Voldemortning ongiga singib kirish jarayonlarini bola sog'inmagan.

Ikkovlon muyulish ortiga o'tib, telefon budkasi bilan avtobus bekati yonidan o'tdi.

– Professor... – ko'z qiri ila Damblдорga qaradi Garri.

– Ha, Garri.

– Biz... qayerdamiz o'zi?

– Badli Babberton, deya nomlanadigan ajoyib qishloqchada.

– Nima qilamiz bu yerda?

– Ha-ya, senga aytmadim-u, hali, a! – xitob qildi Damblдор. – Bir xil yangilikni har yili e'lon qilaverib, bu yil nechanchi marta ma'lum qilayotganimni o'zim ham bilmay qoldim. Qisqasi, maktabimiz yana o'qituvchisiz qoldi. Bu yerga sobiq hamkasbimni nafaqani qo'yib, «Xogvars»ga ishga qaytishga ko'ndirgani keldik.

– Mening qanday nafim tegadi sizga, ser?

– Asqatishing shubhasiz, – mubham javob berdi Damblдор. – Endi chapga burilamiz, Garri.

Ikkovlon zich qurilgan uylar qatori orasidagi tikka ko'tarilgan tor ko'cha bo'ylab odimlay ketdi. Biron joyda chiroq ko'rinmaydi. Ikki haftadan buyon «Odamovilar» xiyobonini qamrab yotgan qalin tuman shu yerda ham bor. Dementorlarni g'ayriixtiyoriy ravishda eslagan Garri atrofga xavfsiragancha alanglab, kissasidagi sehrli tayoqchasini mahkam tutib oldi.

– Professor, to'g'ri hamkasbingiz uyida paydo bo'lsak,

¹ Okklumensiya – boshqalarning fikrini o'qish qobiliyati yoki sehr.

nima qilardi?

– Eshikni buzib kirganday ish tutgan bo‘lar edik, – tushuntirish berdi Dambldor. – Odob-la muomala qoidalari mezbonga, agar u istamasa, mehmonni qabul qilmaslik huquqi berilishini taqozo etadi. Sehrgarlar yashaydigan aksariyat maskanlar esa bundan tashqari, kutilmaganda bostirib kirilishidan muhofaza qilingan. Masalan «Xogvars»...

– Qasrda ham uning hududida ham havoda paydo bo‘lib bo‘lmaydi, – burro bildiruv berdi Garri. Germiona Grenjer aytib bergan menga.

– To‘g‘ri aytibdi. Yana chapga burilamiz.

Ortda qolgan cherkov soati tungi o‘n ikki bo‘lganini anglatib, bong urdi. Garri nima uchun Dambldor birovning uyiga tun yarmida mehmonga borishni odob qoidalariga zid, deb bilmasligini so‘ramoqchi bo‘ldi-yu, suhbat me‘yoriy ohangda bora-yotganidan foydalanib, muhimroq masalalarni muhokama qilishni afzal ko‘rdi.

– Ser, «Bashorat-u karomat gazetasi»da Fujning ishdan bo‘shatishganini o‘qidim...

– Chindan ham, shunday bo‘ldi, – javob berdi Dambldor, tikka yuqoriga ko‘tarilgan ko‘chaga burilib. – Uning o‘rniga, avrorlar mahkamasining rahbari Rufus Skrimj tayinlanganini bilishingga ham shubha yo‘q.

– Nima deb o‘ylaysiz, yaxshi odammi u?

– Qiziq savol, albatta, – dedi Dambldor. – U ko‘p narsalarga qodir. Shak-shubha yo‘qki, Korneliusga nisbatan qat‘iyroq va g‘ayratliroq shaxs.

– Ha, ammo men boshqa narsani nazarda tutgan edim...

– Nimani nazarda tutayotganingni bilaman. Rufus – muayyan faoliyat sohibi. Deyarli bir umr yovuz kuchga qarshi kurashib kelgan bo‘lib, Lord Voldemortning nimalarga qodir ekanini yaxshi biladi.

Garri o‘zi so‘rashga jur‘at etmadi-yu, lekin Dambldorning o‘zi Skrimj bilan, «Bashorat-u karomat gazetasi»da bayon etilgan kelishmovchiligi haqida biron nima deyishini kutdi. Biroq Dambldor bu mavzuni ochmadi.

– Bouns xonim haqidagi xabarni ham o'qidim, ser.

– Ha, – xotirjam bosh irg'idi Dambldor. – Mudhish yo'qotish bo'ldi. Misli ko'rilmagan afsungar ayol edi. Bu yoqqa – yuqoriga -- ko'tarilishimiz kerak, menimcha... voy, – majruh qo'li bilan imo qildi u.

– Professor, qo'lingizga nima qil...

– Hozir tushuntirgani vaqt yo'q, – dedi Dambldor. – Kishini dahshatga soladigan hodisani chalakam-chatti qilib aytib berishni istamayman.

Dambldor Garrining og'ziga urmoqchi emasligi, boshqa savollar bo'lsa, bemalol berishi mumkinligini anglatgancha, kulib boqdi.

– Ser... menga vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan, O'limdan zavqlanuvchilarga qarshi qo'llanilishi lozim bo'lgan xavfsizlik choralari o'ldirish uchun o'ldirish uchun...

– Men ham oldim, o'sha varaqani, – kulib qaradi Dambldor. – Biron-bir foydali ma'lumot oldingmi undan?

– Ko'p emas.

– O'zim ham shunday xayolga borgan edim. Misol uchun, mendan qanaqangi murabboni xush ko'rishimni so'ramadim va bu bilan qallob emas, chindan ham, professor Dambldor ekanimga ishonch hosil qilmadim.

– Men... – duduqlandi Garri, uni koyishyaptimi, yo'qmi, tushunmay.

– Aytganday, bilib qo'yganing ma'qul, malina murabboni xush ko'raman. Tabiiyki, qiyofamga kirishdan oldin har qanday O'limdan zavqlanuvchi menga nima yoqish-yoqmasligini bilib olishga urinadi.

– E-m-m... albatta, – bosh irg'idi Garri. – Lekin varaqada allaqanday infernallar tilga olingan. Kim o'zi ular? Shu yeri tushunarsiz bo'ldi.

– Murdalar, – javob berdi Dambldor, pinagi buzilmay. – Harakati yovuz sehrgar qo'llagan jodu ta'siri ostida kechadigan o'liklar. Ular paydo bo'lishmaganiga ancha bo'lgan, xususan, Voldemort o'tgan safar o'z hukmini surib yurgan davrdan buyon ko'rinish berishmagan edi. O'shanda shunchalik ko'p odam o'l-

dirgan ediki, hammasini bir yerga jamlasa, butun boshli qo'shin tuzsa bo'ladi. Ana bizga kerakli uy, Garri, bu yoqqa...

Ular mo'jazgina bog'ga ega batartib uychaga yaqin borishdi. Garri Damblorning infernallar to'g'risidagi gapidan shu qadar ta'sirlanib ketgan ediki, hech narsaga e'tibor qilmay, bog' eshikchasi ro'parasida keskin to'xtagan Damblorga urilib ketgachgina, xayolini yig'ib oldi.

– O Xudoyim! O'zing asra, ey Parvardigor!

Damblorning nigohiga e'tibor qilgan Garrining yuragi orqaga tortib ketdi. Kirish eshigi bittagina oshiq-moshiqda qiyshiq osilgan.

Damblor ko'chaning u boshidan bu boshiga tez qarab chiqdi. Atrofda hech kim ko'rinmadi.

– Garri, sehrli tayoqchangni qo'lingga olib, orqamdan yur, – past ovozda buyurdi Damblor.

U bog' eshikchasini ochib, so'z aytmay, batartib yo'lakcha bo'ylab shiddat-la odimlay ketdi. Garri undan qolishmadi. Sehrli tayoqchasini shay tutgan Damblor kirish eshigini asta ochdi.

– Lyumos.

Qariyaning sehrli tayoqchasi yorishib, tor yo'lak va chap tomonda ochiq qolgan eshik ko'rindi. Sehrli tayoqchasini baland ushlagan Damblor mehmonxonaga kirdi. Garri uning ketidan izma-iz yurdi.

Ikkalasining ko'z oldida mutlaq xonavayronlik manzarasi ochildi. Oyoq ostida polga o'rnatiladigan, korpusi¹ darz ketib, siferblati² pachaq bo'lgan, tebrangichi, tushirib yuborilgan shamshiray nari dumalab ketgan ulkan soat yotibdi. Yon tomoniga ontarilgan pianinoning klavishlari atrofga sochilgan. Piano yonida ostin-ustun qilingan chilchiroq sehrli tayoqcha nuridan tovlanmoqda. Tit-piti chiqarilgan yostiqlardan pat oqib tushgan. Shisha va chinni parchalari yon-atrofga qo'yilgan upaday ko'rin-

¹ **Korpus** (lotincha: corpus - tana, jism, modda; bir butun narsa) – 1) mexanizm, apparat va shu kabilarning tayanchini yoki qobig'ini tashkil etuvchi qismi.

² **Siferblat** (nemischa: Zifferblatt - raqamlarni o'zaro ajratib turuvchi bo'lakcha) soatlardagi daqiqalarni ajratib turuvchi qism yoki soat strekasi.

moqda. Damblodor sehrli tayoqchasini baland ko'tarib, xona devorini yoritdi. Devor gulqog'ozlariga allaqanday yelimshiq, to'q qizil suyuqlik sachragan. Garri asta oh urdi.

– Mudhish manzara, – dedi, Garriga yuzlangan Damblodor g'amgin ohangda. – Qandaydir dahshatli hodisa yuz bergan ko'rinadi bu yerda.

U xona o'rtasida to'xtab, oyoq ostida yotgan bo'laklarga diqqat-la razm soldi. Damblodorning ortidan yurgan Garri ishdan chiqarilgan pianino yoki ontarilgan divan ortidan dahshatli narsa chiqadiganday, atrofga cho'chib qarab bordi, lekin murda hech qayerda ko'rinmadi.

– Balkim, mushtlashuv yakuniga yetgach... uni o'zlari bilan olib ketishgandir? – po'ng'illab taxmin qildi Garri, devor o'rtasigacha sachragan qon qatralariga qarab, jarohatning qanchalik og'ir bo'lgani haqida o'ylamaslikka urinib.

– O'xshamaydi, – o'ychan pichirladi Damblodor, yon-boshlab yotgan yumshoq kresloga diqqat-la nazar solib.

– Aytmoqchisizki...

– Qayerdadir shu yerdami? Ha.

Damblodor shartta egildi-da, sehrli tayoqchasining uchini kreslo o'rindig'iga sanchib yubordi. Kreslo shu zahoti chirilladi.

– Xayrli oqshom, Goratsiy, – ko'rishdi qaddini rostlagan Damblodor.

Taajjubdan Garrining og'zi lang ochildi. Kreslo o'rnida mittigina sersuv ko'zi bilan Damblodorga jahldor qarab, qornini uqalagancha, embrion¹ holatida yotgan, misli ko'rilmagan darajada semiz, yaltirbosh qariya paydo bo'ldi.

– Teshib qo'yishingga sal qoldi-yu, – qiynalib burildi u. – Jonimni og'ritding.

Egnidagi nafarmon tusli shoyi pijamasi ustidan kiyilgan to'q qizil baxmal nimchasining sayqal berilgan tugmasi kabi cholning toz boshi, turtib chiqqan ko'zi va cho'tka mo'ylovi ham

¹ **Embrion** (*yumoncha*: embryon - pusht, homila; kurtak) – odam, hayvon yoki o'simlikning ilk rivojlanish davridagi holati; pusht, kurtak; gumona (bachadondagi); kurtak (urug'dagi).

sehrli tayoqcha shu'lasida yaltiramoqda.

– Xo'sh, nimam bilan oshkor etib qo'ydim o'zimni? – vaysash ohangida qiziqdi uy sohibi, qorinining quyi qismini uqalashni davom etgancha, o'rnidan inqillab turar ekan. Choling bo'yi Damblorning iyagiga bazo'r yetdi, yuzi esa hozirgina kresloga o'xshab olgan kishi uchun yetarlicha xotirjam qiyofada edi.

– Qadrdonim Goratsiy, – biroz istehzoli ohangda javob berdi Damblor, – agar, chindan ham, bu yerga O'limdan zavqlanuvchilar tashrif buyurishganida, uy uzra Ajal belgisi muallaq osilib turgan bo'lar edi.

Goratsiy o'zining lo'ppi kafti bilan peshanasiga urib qo'ydi.

– Ajal belgisi, – po'ng'illadi u. – O'zim ham shunday deb o'ylagan edim. Nimadir, albatta... xo'p mayli. Baribir, bunga vaqtim yetmas edi. Qoplamam ustida ishni tugatmay, sizlar kirib keldingiz.

Qariya og'ir xo'rsinib qo'ydi.

– Uyni o'z holiga keltirishga yordamlashib yuboraymi? – so'radi Damblor.

– Agar malol kelmasa, – dedi Goratsiy.

Biri novcha, ozg'in, ikkinchisi pastak, semiz sehrgarlar bir-biriga bel bilan suyangancha, sehrli tayoqchalarini baravariga siltadi.

Mebel parchalari shu zahoti joy-joyiga tarqab uchdi, bezaklar va xona intereriga¹ oid buyumlar havoda qaytadan paydo bo'ldi, to'kilgan pat yostiq jildlariga tiqilib to'ldi, yirilgan kitoblar tokchalarga hali yetib bormay o'z holiga qaytdi, yaltirayotgan kumush ramkalariga qattiq shikast yetgan fotosuratlarining boy kolleksiyasi² xona bo'ylab uchib o'tib, yozuv stoli ustiga butun holatda qaytdi, teshik, raxna va bo'rtiqlar shuvalib,

¹ **Interer** – 1) bino va inshootlarning ichki qiyofasi, badiiy bezalgan va jihozlangan ko'rinishi; 2) binoning ichki qismi tasvirlangan rasm.

² **Kolleksiya** (lotincha: collectio – to'plash, yig'ish) – bir xil, bir turdagi ayrim narsalarning (masalan, tanga, marka, kitob va shu kabilarning) tartibga solingan to'plami. **Kolleksioner** – kolleksiya to'plovchi.

tortilib, devor tozalandi.

– Aytganday, qanaqa qon bu? – so‘radi Damblodor, polga o‘rnatiladigan soat tiklanib, qattiq ura boshlaganidan baland ovozda gapirishga majbur bo‘lib.

– Devorga sachraganmi? Ajdar qoni, – javoban qichqirdi Goratsiy. – So‘nggi shishasi edi. Bugungi kunda narxi osmonda ekanini hisobga olsak... yoki uni takror ishlatsa bo‘laveradimi?

Qariya bufet¹ tomon og‘ir qadam tashlab, kichkinagina billur shishani qo‘lga oldi-da, yorug‘lik tomon yo‘naltirdi.

– Hm-m. Loyqalanibdi.

Goratsiy shishachani joyiga qo‘yib, og‘ir xo‘rsingach Garriga e‘tibor qildi.

– O‘ho‘, – dedi u, katta ochilgan ko‘zini Garrining peshanasidagi chandiqa qaratib. – Eh-ha!

– Bu – Garri Potter, – dedi yaqinroq kelgan Damblodor, chol bilan yigitchani bir-biriga tanishtirib. – Garri, tanishib qo‘y, qadrdon do‘stim va hamkasbim Goratsiy Divangard.

Divangard Damblodorga diqqat-la razm soldi.

– Shu bilan eritmoqchi bo‘libsana-da, meni, a? Baribir, javobim o‘sha, Albus: «Yo‘q».

Garrini yelkasi bilan turtib o‘tgan Goratsiy, vasvasaga berilmaslikka qat‘iy ahd qilgan kishi qiyofasini yasab, nari qochdi.

– Balkim, loaqal, yoshlik davrimiz, yaxshi o‘tmishimizni eslab, qittay-qittay urarmiz, a? – taklif qildi Damblodor.

Divangard turgan joyida jur‘atsiz qotdi.

– Faqat bir ho‘plandan, – iltifotsiz roz bo‘ldi u.

Damblodor kulib, Garriga, o‘tirishi uchun imo qildi. Bola yaqindagina Divangard o‘xshab olgan, yana o‘t qalangan kamin yonida turgan kresloga joylashdi.

Yonida moychiroq yonayotgan kresloga o‘tirar ekan,

¹ **Bufet** (fransuzcha: buffet - stol) - 1) idish-tovoq, meva-cheva, ichimlik va shu kabilar saqlanadigan maxsus javon (shkaf); 2) katta oshxona va restoranlar, muayyan korxonalar qoshida tashkil etiladigan, yengil-yelpi ovqatlanish uchun mo‘ljallangan do‘kon; tamaddixona.

Dambldor Garrining ko'rinarli joyda bo'lishiga urinmoqda.

Dekanter¹ va qadahlar bilan biroz ovora bo'lgan uy sohibi, mehmonlarga yuzlanib, tabiiyki, nigohi Garrining nigohi bilan to'qnash keldi va ko'zini kuydirib olishdan qo'rqqanday, pishqirgancha bolaga teskari qaradi.

– Marhamat, – dedi u, taklifsiz o'tirib olgan Dambldorga ichimlik uzatib.

Shundan so'ng tiklangan divanning yumshoq yostig'iga o'zini tashlab, kalta oyog'i polga yetmay, qovoq osgancha, indamay o'tirdi.

– Hol-ahvoling qalay, qadrdonim Goratsiy? – muloyim ohangda so'radi Dambldor.

– O'rtamiyona, – javob berdi Divangard. – O'pkamning mazasi yo'q, nafasim qisyapti. Bod² ham qiynab yubordi, nihoyatda toliqdim bazo'r yuryapman. Katta xolamning haqi qoldimi? Qaridim, axir!

– Holbuki bizning tashrifimizga hozirlik ko'rish uchun ancha uringan ko'rinasan, garchi bunga atigi uch daqiqa vaqt sarflagan bo'lsang-da, – ta'kidlab qo'ydi Dambldor.

– Ikki daqiqa, – aniqlik kiritdi Divangard, g'azab bilan g'urur uyg'unlashgan ohangda. – Hammomda yuvinayotganim bois sehr signalizatsiyasini³ eshitmay qolibman. Biroq asl holat aslligicha qoladi, Albus, men qari, toliqqan kishiman. Hayotimning qolgan qismini tinch va oz bo'lsa ham qulay sharoitda o'tkazishni istayman.

«Ha, nimasi yo'qligini bilmayman-u, qulay sharoitdan mahrum emasligi aniq», – xayoldan o'tkazdi Garri, xonaga yana bir bor nazar solib. Havosi dim, biroz ivirsigan bo'lsa ham

¹ **Dekanter** (inglizcha: Decanter) – vinoni dekantatsiya qilib (ya'ni cho'kindidan ajratib) uzatish uchun mo'ljallangan maxsus shisha grafın.

² **Bod** (forscha: shish) – bo'g'im og'rig'i (artralgiya), muskul og'rig'i (mialgiya), quymich nervi kasalligi (ishias), pleksit, podagra, radikulit, revmatizm kabi kasalliklarning xalq orasida tarqalgan nomi.

³ **Signalizatsiya** (fransuzcha: signalisation – belgilarni masofaga uzatish) – signallar sistemasi na signal beruvchi asboblari, qurilmalar majmui.

xonada mavjud shart-sharoitni noqulay deb bo'lmaydi. Kreslolar ham oyoq tagliklari ham kitoblar, turli ichimliklar, shokolad qutilari-yu yumshoq yostiqlar muhayyo. Agar uy sohibini ko'rmaganida, Garri bu yerda allaqanday boy va juda injiq kampir yashaydi, degan xulosaga borgan bo'lar edi.

-- Mendan ancha yoshsan-u, a, Goratsiy? -- so'radi Damblдор.

-- Sening ham tinchgina dam olish vaqting yetdi, -- beandisha javob berdi Divangard, krijovnikni¹ eslatadigan ko'zini Damblдорning jarohatlangan qo'lga olib o'tib. -- Ko'rdingmi, harakating ham tezkor kechmaydigan bo'lib qolibdi.

-- Mutlaqo haqsan, -- dedi Damblдор, yengini siltagan-cha, kuyib qorayib, Garrini seskantirgan barmoqlarini yashirib. -- Harakatlarim ilgarigiga qaraganda sustlashib qolgan, biroq masalaga boshqa tomondan yondashadigan bo'lsak...

Damblдор, keksalikning o'z gashti bor, demoqchi bo'lganday, ikkala qo'lini ikki tomon uzatdi. Garri Damblдорning sog' qo'lidagi muqaddam taqmagani, kattagina qora toshi, aftidan, o'rtasidan darz ketgan yirikkina tilla uzukka e'tibor qildi. Peshanasida ingichkagina ajin paydo bo'lgan Divangardning nigohi ham uzukka qadaldi.

-- Xo'sh, Goratsiy, mana bu ehtiyot choralar... O'limdan zavqlanuvchilarga qarshi ko'rilgan edimi yoki menga? -- so'radi Damblдор.

-- O'limdan zavqlanuvchilarga bechorahol keksa nogiron nimaga kerak bo'lishi mumkin? -- dag'dag'a qildi Divangard.

-- Deylik, ushbu qariyaning ko'p qirrali iste'dodidan odamlarga zulm o'tkazish, qiynoqqa solish va qotillik manfaatlarida samarali foydalanish uchun, -- xotirjam javob berdi Damblдор. -- Aytmogchisanki, ular shu kungacha hali biron marta bo'lsin, seni o'z saflariga yollashga urinishmagan?

Divangard Damblдорga jangovar qiyofa ila qarab, po'ng'illadi:

-- Ularning bunday imkoniyatlari bo'lmagan. Mana bir

¹ Krijovnik -- toshyorardoshlar oilasiga mansub ko'p yillik buta, rezavor meva ekini.

yildirki, bir joyda bir haftadan ortiq o'tirganim yo'q. Mag'llar bir uyidan boshqasiga ko'chib yuribman. Mana bu uyning egalari hozir Kanar orollarida¹ dam olishmoqda. Shunday qulay joyni tark etishni istamayman. Bu ishlar juda oson kechadi, agar qanday amalga oshirilishini bilsang, albatta. Sneakskop o'rmda qo'llashadigan ahmoqona signalizatsiyalarini oddiy afsun vositasida ishdan chiqarib, pianinoni qo'shnilarga sezdirmay olib kirish kifoya.

– Ajoyib! – zavqlandi Damblдор. – Biroq qari, toliqqan, hayotining qolgan qismini tinch va oz bo'lsa ham qulay sharoitda o'tkazishga orzumand bo'lib yurgan kishi uchun juda holdan toliqtiradigan sa'y-harakat. Agar «Xogvars»ga qaytishga rozilik bersang...

– G'ayratingni asrab, kuchingni behuda sarf etma, Albus! Maktabing qanchalik zo'r ekanini tavsiflab o'tirmasang ham bo'laveradi. Men badarg'a bo'lgan odamday yashayotgan bo'lsam-da, Dolores Ambrij haqida eshitdim! O'qituvchi bilan ham shunday muomala qilinadimi?!

– Professor Ambrij kentavrlar² bilan chiqishmay qoldi, – dedi Damblдор. – Ishonchim komilki, Goratsiy, sen «Taqiqlangan o'rmon» qa'riga kirib, kentavrlarning shundoq ham dar-g'azab podasini iflos zoti pastlar, deya haqorat qilmagan bo'lar eding.

– Voy ahmoq! Shunaqa qildimi?! Esi past ayol! Hech qachon jinim yoqtirmagan o'sha shallaqini.

Garri kulgisini tiya olmadi. Damblдор bilan Divangard hayron bo'lib, bolaga qarashdi.

Ma'zur tuting, shunchaki... men ham yoqtirmayman uni, bor gap shu, – tez tushuntirish berdi Garri.

Damblдор kutilmaganda o'midan turdi.

– Ketyapsizmi? – umid-la so'radi Divangard.

– Yo'q, hammomga xonaga kirmoqchi edim, – javob

¹ Kanar orollari – Atlantika okeanida, Ispaniya hududida.

² Kentavr – qadimgi yunon afsonalarida chorvador va cho'ponlar, poda va yaylovlar, yo'l, yo'lovchilar, savdogarlar va savdo homiysi sifatida tasvirlangan afsonaviy obraz.

berdi Dambldor.

– A-a, – dedi, aftidan, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgan Divangard. – Dahliz bo‘ylab chap qo‘lda, ikkinchi eshik.

Dambldor chiqqan eshik yopilgach, xonaga sukunat cho‘kdi. Nima bilan mashg‘ul bo‘lishni bilmagan Divangard o‘r-nidan turib, Garriga ko‘z qiri ila qarab qo‘ydi. So‘ng kamin yoni-da olovga teskari qarab turdi-da, o‘zining keng orqasini isitishga kirishdi.

– Seni bu yoqqa nima maqsadda boshlab kelishganini bilmaydi, deb o‘ylama, – dedi qariya.

Garri javob bermay, Divangarga qaradi. Qariya esa ser-suv ko‘zini bolaning peshanasidagi yashin zigzagi shaklidagi chandiqlan yuziga olib o‘tdi.

– Otangga o‘xshar ekansan.

– Ha, hamma shunday deydi, – javob berdi Garri.

– Faqat ko‘zing...

– Onamning ko‘zi, bilaman.

Garri ko‘zi haqida shu qadar ko‘p eshitganki, bu gap ko‘ngliga ura boshladi.

– Hm! Shunaqa. Juda soz. O‘qituvchiga o‘zi yoqtirib qolgan o‘quvchilarni ajratib olish mumkin emas, albatta. Lekin u... Oyingni, Lili Evansni nazarda tutyapman, – tushuntirish berdi Divangard, Garrining savol nazaridagi nigohiga javoban. -- Nihoyatda iste‘dodli o‘quvchilarimdan biri bo‘lgan. Jonli, ajoyib qiz! Unga hamisha: «Sen mening fakultetimda tahsil ko‘rishing kerak», – der edim. Tabiiyki, bunga javoban qo‘rslik eshit-ganman.

-- Sizning fakultetingiz qaysi biri bo‘lgan?

-- «Slizerin» fakultetining mudiri bo‘lganman, – javob berdi Divangard va Garrining yuzidagi o‘zgarishni ko‘rib, yo‘-g‘on barmog‘i bilan tahdid qildi: – Hoy! Hoy! Xayolingga ham keltirma! Qarang-a, labini cho‘chchaytirib olganini! Sen ham oyingday «Griffindor»da o‘qiysan-u, to‘g‘rimi? Odatda, bunday holat oila tarkibida kechadi, biroq istisno hollar ham yuz berib boradi. Sirius Blek haqida eshitganmisan? Eshitgan bo‘lsang ke-rak... Ikki yilcha oldin gazetalarda yozishgan edi... Yaqinda o‘ldi,

u...

Garrining ichidagi bor narsani allaqanday ko'rinmas qo'l tugib qo'ydi.

- Mayli, hozir buning ahamiyati yo'q. Muhimi, otang ikkalasi qalin do'st bo'lishgan. Nima demoqchiman: Bleklar sulolasi mening fakultetimda o'qishgan, Sirius esa «Griffin-dor»ga tushdi! Shunday iste'dodli bola-ya, fojia! Menga, uning ukasi Regulyus nasib qildi, men esa oilaning jamini o'qitmoqchi edim...

Divangard mukkasidan ketgan, biroq baxtiga qarshi kim oshdi savdosida yutqazib qo'ygan kolleksionerday kuyinib gapirmoqda. Xotiralarga berilgan qariya nigohsiz ko'zi ila qayoqqadir oldinga qarab qoldi. Faqat vaqti-vaqti bilan orqasi bir tekis isishi uchun erinchoq burilib bormoqda.

- Oying magllar oilasida tug'ilgan afsungar qizlardan bo'lgan... Ilk bor eshitganimda ishonmagan edim. Shunday qobiliyati ila asilzoda afsungar bo'lishi kerak-ku.

- Mening eng yaqin do'stim ham magllar oilasida tug'ilgan va ayni vaqtda tengqurlarimiz orasida eng ibratli o'quvchi qiz sanaladi, - ta'kidlab qo'ydi Garri.

- Ha, shunaqasi ham bo'lar ekan... Juda g'alati, a? - chtiyotsiz fikr bildirdi Divangard.

- Unchalik g'alati emas, - quruqqina javob berdi Garri.

- Faqat magl fobiyasida¹ ayblama meni! - xitob qildi qoshi ko'tarilgan Divangard. - Oying men yoqtirib qolgan o'quvchilardan biri bo'lganini aytnadimmi? Yana ham magllar oilasida tug'ilganlardan Dirk Kressuell degan nihoyatda iste'dodli o'quvchim ham bor edi. Hozir u Goblinlar² bilan aloqa departamentining rahbari. Gringottsning ichki ishlariga oid foydali ma'lumotlar berib boryapti menga!

¹ **Fobiya** (*yunoncha*: phobos - qo'rquv) - o'zlashma qo'shma so'zlarning asosan ikkinchi qismi; biron kishi yoki narsani yomon ko'ruvchi, unga qarshi kishi; biron narsani yoqtirmaslik, undan qo'rqish kabi ma'nolarni bildiradi.

² **Goblinlar** (*fransuzcha*) - G'arbiy Yevropa mifologiyasiga ko'ra, yer osti g'orlarda yashovchi va quyosh nuridan qo'rqadigan, qisman inson tanasiga o'xshash tanaga ega bo'lgan afsonaviy maxluqlar.

Mamnun irjaygan Goratsiy poshnasida tebranib, son-sanoqsiz fotosuratlar terilgan bufet tomon imo qildi.

– Ularning hammasi mening o‘quvchilarim, har biri shaxsan dastxat qo‘yib berigan. Qara, ho‘ anavi «Bashorat-u karomat gazetasi»ning bosh muharriri Barnabas Bergaber. Hamisha jiddiy hodisalarga oid mulohazamga qiziqish bildirib yuradi. Mana bunisi Kanal Ambroziy «Rohat-luqum» qandolat do‘konida ishlaydi. Har tug‘ilgan kunimga bir savat sovg‘a yo‘llaydi. Chunki men uni birinchi ish beruvchisi Sitseron Xerkiss bilan tanishtirib qo‘ygan edim. Bo‘yningni biroz cho‘zsang, uning orqasida turgan «Graalxedlik garpiyalar»¹ kvidish jamoasining sardori Gvenog Jonsni ko‘rasan. O‘ta dovyurak qiz! Garpiyalar bilan bu qadar yaqindan tanish ekanimdan odamlar hayron bo‘lishadi! Istagan vaqtimda bepul chipta!

Aftidan, ushbu fikrning o‘zi Divangardni cheksiz quvon-tirmoqda.

– Ularning bari sizni qayerdan qidirish, sovg‘alarni qayoqqa yuborishni bilishadimi? – hayron bo‘ldi Garri.

«Modomiki, Divangard sal kam har kuni savat-savat sovg‘a olar, unga chiptalar yuborilar, fikr-mulohazalariga qiziqish bildirib, maslahatini olgani huzuriga mehmonlar kelar ekan, qiziq, nega shuncha vaqtdan buyon O‘limdan zavqlanuvchilar uni topa olishmadi?», – xayoldan o‘tkazdi Garri.

Divangardning yuzidagi tabassum, xuddi devordagi qon qatralari kabi bir onda barham topdi.

– Yo‘q, albatta, – po‘ng‘illadi u. – Bir yildan buyon hech kim bilan muomala qilmayman.

Divangardni o‘zi aytgan gap larzaga keltirgan ko‘rinadi, ma‘lum vaqt indamay qoldi.

– Nima qilgan taqdirda ham, bugungi zamonimizda bekinib yurgan afzal, – dedi u yelka qisib. – Damblдор gapiraveradi... «Xogvars»ga qaytish Qaqnus ordeni a‘zosi ekaning

¹ **Garpiya** tropik o‘rmonlarda yashaydigan qarchig‘aylar oilasiga mansub yirik yirtqich qush. Afsonalarda ayol boshli yirtqich qush qiyofasidagi dovul ilohasi sifatida tavsiflanadigan dovul qushi.

haqida ommaga e'lon qilish bilan barobardir! Ularning bari, hech shubha yo'qki, mard kishilar, albatta. Biroq... ularning o'lim bilan yakun topgan foiz hisobidagi soni ko'nglimga yoqmayapti.

G'orda yashashga majbur bo'lgan Sirius kalamush yeb kun ko'rganini eslar ekan, Garrining mana bu injiq Divangardga hamdard bo'lishi qiyin kechmoqda.

– «Xogvars»da o'qituvchilik qilish uchun Orden a'zosi bo'lish shart emas, – dedi u, istehzosini yaxshi bekita olmay. – Maktab o'qituvchilari ko'p emas va ularning hech qaysi birini hali o'ldirishgani yo'q, Kvirrellni hisobga olmasak, albatta. U o'zi aybdor – Voldemortga ishlagan edi.

Divangard dahshatli ismni eshitib, qo'rqib ketadiganlar toifasiga mansub ekaniga Garrining ishonchi komil edi. Kutganday bo'lib chiqdi: seskanib ketgan baqaloq qariya e'tiroz ohangida oh urdi. Biroq Garri unga e'tibor qilmay, fikrini davom etdi:

– Umuman aytganda, Damblдор direktor ekan, maktab o'qituvchilari hammadan yaxshi himoyalangan. Voldemort faqat Damblдordan qo'rqishini o'zingiz yaxshi bilasiz.

Divangard, aftidan, eshitganini obdan o'ylab ko'rdi, shekilli, ovoz chiqarmay, allaqanday bo'shliqqa qarab turdi.

– Ha, to'g'ri aytasan, – istar-istamas po'ng'illadi u. – «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» Damblдordan hamisha nari qochib yurgan... Yana shuni aytmoqchimanki, men O'limdan zavqlanuvchilar safiga qo'shilmadim va shu bois «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» meni o'z do'sti, deb bilmasligi shubhasiz... Demak, Albusning yonida bo'lish xavfsizroq degin... Quvlik qilmayman, Ameliya Bounsning o'limi, chindan ham, men uchun ruhiy larza bo'ldi... Vazirlikda shuncha tanish-bilishi bo'la turib ham u...

Xonaga qaytib kirgan Damblдorni ko'rgan Divangard, u ham uyiga kelganini unutib qo'ygandek, seskanib ketdi.

– Ha, keldingmi, – dedi u Damblдorga. – Nima balo, qorning og'rib qoldimi?

– Magllarning jurnallariga mahliyo bo'lib qolibman, – javob berdi Damblдор. – To'qish ishlarida qo'llaniladigan jimjimador bezaklarni nihoyatda yoqtiraman. Garri, Goratsiyning

mehmondo'stligini haddan ortiq suiiste'mol qilib yubordik, shekilli. Ketar vaqtimiz bo'ldi.

Garri armon qilmay, o'rnidan irg'ib turdi.

– Birpasda-ya? – birmuncha ma'yuslandi Divangard.

– Ha, vaqt bo'ldi. Sa'y-harakatim zoyeligini ko'rish qobiliyatim yaxshi rivojlangan.

– Zoyeligini? – tutildi Divangard.

Qariya biroz hayajonlana boshladi. Damblidor safar plashining tugmalarini qadayotgani, Garri nimchasining zanjir-simon yopqichini tortayotganiga kuzatib turar ekan, yo'g'on bosh barmoqlarini taraddud-la aylantira boshladi.

– Taklifim seni qiziqtirmagani juda achinarli holat, albatta, qadrdonim Goratsiy, – dedi Damblidor, sog' qo'lini uzatib xayrlashar ekan. – «Xogvars»ga qaytsang, juda xursand bo'lar edik. Agar mehmon sifatida tashrif buyurmoqchi bo'lsang, marhamat. Eng yangi muhofaza choralari ko'rilganidan qat'i nazar, munosib ravishda kutib olamiz.

– Ha... nima ham der edim... juda yaxshi, albatta... oldin aytganimdek... – tutildi Divangard.

– Unday bo'lsa, xayr, – yakunladi Damblidor.

– Xayr, – dedi Garri.

Ikkovlon chiqish eshigiga yetgan ediki, Divangard qich-qirdi:

– Xo'p, yaxshi, yaxshi, roziman!

Damblidor mehmonxona ostonasida hansirayotgan kek-sa do'sti tomon o'girildi.

– Umringning qolgan qismini tinch va oz bo'lsa ham qulay sharoitda o'tkazish istagini unutishga rozimisan?

– Ha, ha, – sabrsiz bosh irg'idi Divangard. – Aqlimni yeb qo'yayotgan bo'lsam ham mayli, roziman.

– Juda soz! – yashnab ketdi Damblidor. – Unday bo'lsa, Goratsiy, birinchi sentabr kuni uchrashishga umid qilaman.

– Ha, albatta, – po'ng'illadi Divangard.

Bog' yo'lakchasida ketayotgan Garri bilan Damblidor-ning qulog'iga yana qichqiriq chalindi:

– Maoshim oshirilishini talab qilaman!

Dambldor qisqa xandon otib qo'ydi. Bog' eshikchasi yopilgach, ikkovlon qorong'ilik va pag'a-pag'a bo'lib buralayotgan tuman aro tepalikdan pastga tusha boshladi.

– Barakalla, Garri, – maqtadi Dambldor.

Arziguli ish qilganim yo'g'-u, – hayron bo'ldi Garri.

Aksincha, sen juda katta ish qilding, «Xogvars»ga qaytadigan bo'lsa, qanday naf ko'rishini Goratsiyga isbotlab berding. Yoqdimi senga u?

– E-m-m...

Garri bu savolga bir ma'noda javob bera olmadi. Divan-gard o'zi yoqimli qariya bo'lgani bilan, haddan ortiq shuhrat-parastday ko'rindi. Aksini ishontirishga ming urinmasin, mag'llar oilasida tug'ilgan sehrgarlarga nisbatan noxolis munosabatga ega. Xayriyatki, bularning barini ifoda etishdan Dambldorning o'zi xalos etdi.

– Goratsiy xotirjam hayot kechirishni, shu jumladan, ma'lum bir sohada muvaffaqiyat qozongan va hokimiyat abzalini qo'lga kiritgan mashhur shaxslar bilan shaxsan tanish bo'lishni juda xush ko'radi, – dedi u. – O'sha shaxslarga gap o'tkaza olishi unga huzur baxsh etadi. Taxt egallashga o'zi hech qachon intilmagan. Taxt ortida o'tirishni ma'qul ko'radi. Chunki ibora ila aytiladigan bo'lsa, taxt ortida bemalol oyoq uzatib o'tirish mumkin. «Xogvars»da u hamisha muayyan maqsadga intiluvchan, aqlli, iste'dodli yoki biron-bir jihati ila maftun qila biladigan o'quvchilarni yoqtirib, umumiy ommadan ajratib borgan. Ta'kidlab o'tmoq joizki, uning kelgusida mashhur bo'lib ketadigan o'quvchilarni bexato ko'ra bilish qobiliyati g'ayritabiiy rivojlangan. Goratsiy o'ziga xos favoritlar¹ klubini yaratib, foydali tanishlar o'ttirish masalasida, ularga yordam bergan va tabiiyki, bundan o'zi ham naf ko'rib kelgan. Ushbu naf qanday shaklga ega bo'lishining, aytaylik, bepul keladigan bir quti ananas sukat² bo'lsin yoki Goblinlar bilan aloqa departamentiga ishga olinishi uchun o'z odamini tavsiya etish imkoni bo'lsin, ahamiyati yo'q.

¹ **Favorit** – yetakchi bo'lishga imkoniyati ko'proq bo'lgan kishi.

² **Sukat** – shakarlangan meva yoki meva po'stlog'i.

Garrining tasavvurida indamay to'r to'qib, kattagina, shirali chivinni o'ziga yaqinroq keltirish uchun vaqti-vaqti bilan ip tortayotgan yirik semiz o'rgimchak gavdalandi.

- Men bu gaplarning barini senda Goratsiyga nisbatan qarshi kayfiyat uyg'otish uchun emas, bilib qo'yishing uchun aytmoqdaman, - davom etdi Damblдор. - Ha, aytganday, endi uni professor Divangard deya chaqirishing kerak bo'ladi. Hech shubha yo'qki, u seni o'z kolleksiyasiga eng qimmatli shaxs sifatida kiritishga urinadi. Axir, sen kimsan - Omon qolgan yoki nima deb atashadi hozir seni, Mumtoz bolaning shaxsan o'zi san-u!

Garrining eti tuman ta'siridan emas, bir necha hafta muqaddam o'ziga xos mudhish ohangda eshitilgan bashorat mazmunidagi so'zlarni eslaganidan uvushib ketdi.

... ulardan biri, ikkinchisining qo'lidan ajal topadi, ikkalasidan faqat biri jangdan omon chiqadi...

- Nazarimda, yetadi, - dedi Damblдор cherkov qarshisida to'xtab. - Iltimos, qo'limni ushlab ol.

Bu safar Garri havoda g'oyib bo'lishga ruhan hozirlanib oldi. Lekin shunday bo'lsa-da, jarayon unga huzur baxsh etnadi. Bosim ta'siri o'tib, yana erkin nafas ola boshlagach, Damblдор ikkalasi qalbini quvontiradigan ikkita joydan biri Boshpana yaqinida paydo bo'lganini anglab, o'zini ancha yengil his etdi. U yerda Ron... missis Uesli va uning jamiki mazali taomlari bor.

-- Agar e'tirozing bo'lmasa, Garri, - dedi Damblдор, hovli eshigidan o'tishar ekan. -- Xayrlashishimizdan oldin sen bilan xoli qolib gaplashib olmoqchi edim. Balkim, mana bu yerga kirib olarmiz?

Damblдор Ueslilar oilasining puturdan ketgan supurgi saqlash saroychasi tomon imo qildi. Biroz hayron bo'lgan Garri Damblдорning ketidan borib, g'ijirlab ochilgan eshik orqali ostona hatlab ichkariga kirdi. Saroychaning o'Ichami Dursllarning bufetidan kichikroq. Damblдор sehrli tayoqchasini yoqib, Garriga kulib boqdi.

- Mavzuni cho'zib yuborganimdan xafa bo'lmaysan degan umiddaman-u, vazirlikda ro'y bergan fojidan so'ng

o'zingni idora qila olganing bilan men nafaqat mamnunman, balki, sen bilan faxrlanaman ham. Ishonchim komilki, Sirius ham sen bilan faxrlangan bo'lar edi.

Yutinib qo'ygan Garri gapirish qobiliyatini yo'qotib qo'ygandek bo'ldi. Vernon amakining: «Uning cho'qintirgan otasi o'ldimi?» – deya bergan savolini eshitish yuragiga og'ir botgan edi. Dambldorning Siriusni yo'l-yo'lakay esga olgani esa yanada kuchli og'riq beryapti.

– Bir-biringizni durustroq bilib olishga imkon bermagan taqdir ikkalangizni siylamadi, – gap boshladi Dambldor muloyim ovozda. – Hech shubha yo'qki, ikkalangizning munosabatingiz uzoq va yaxshi davom etgan bo'lar edi.

Garri Dambldorning shlyapasida o'rimalab yurgan o'rgimchakdan ko'zini uzmay, bosh iring'idi. Uning ayni damdagi holatini, ichidan nimalar o'tayotganini, aftidan, Dambldor yaxshi biladi. Qariyadan xat kelguncha Garri deyarli ovqatlanmay qo'yib, deraza ortidagi tumanga ma'nisiz qaragancha uzoq kunlar yotgani, qalbida dementorlarga duch kelganda yuz beradiganday butun vujudni muzlatgan tubsiz bo'shliq hosil bo'lganini fahmlagan bo'lsa ham, ajab emas.

– U endi hech qachon xat yo'llamasligini tasavvur qilish juda qiyin, – dedi nihoyat Garri, past ovozda.

Kutilmaganda ko'zi achishgan bola kiprik qoqdi. U o'z iqroridan uyaldi, cho'qintirgan otasi Garrini qadrdon otasiday ardoqlaganini, bu yorug' olamda yana bir yaqin inson borligini qisqa vaqt bo'lsa ham bilib yashash bolaning shuuriga ilqlik baxsh etgan edi... Endi esa boyqush pochta hec qanday quvonch keltirmaydi...

– Sirius senga muqaddam hech kim ko'rsatmagan mehr ko'rsata oldi, – davom etdi Dambldor. – O'rni qoplanmaydigan yo'qotish bu, albatta.

– Lekin Dursllarning uyida o'tirar ekanman, hammadan hekinib olish... ruhan sinib, taslim bo'lish mumkin emasligini angladim, – gapni bo'ldi ovozi biroz dadillashgan Garri, – Sirius unday holatga tushishimni istamagan bo'lar edi, shunday emasmi? Umuman aytganda, umr shu qadar qisqa ekanki... Bouns

xonim, Emmelina Vansni olaylik... navbatdagi qurbon men bo'lishim mumkin-u. Shunday bo'lganda ham, o'zim bilan imkon qadar ko'proq O'limdan zavqlanuvchi-yu Voldemortning o'zini olib ketishga urinib ko'raman, – kurashga shay ohangda yakunladi bola, Damblorning sehrli tayoqcha shu'lasida yarqirayotgan moviy ko'ziga tik qarab.

-- Ota-onasining munosib o'g'li va Sirius cho'qintirgan bola lafzidan chiqqan so'zlar! – dedi Damblor, ma'qullagancha Garrining yelkasiga urib qo'yib. – Agar ustingga o'rgimchaklar to'kilib ketmaganida, oldingda shlyapamni yechgan bo'lar edim. Endi Garri, bugungi kunning muhim mavzusiga o'tamiz. To'g'ri tushungan bo'lsam, so'nggi ikki hafta davomida sen «Bashorat-u karomat gazetasi»da chop etilgan maqolalarni diqqat bilan kuzatib borgansan, shundaymi?

– Ha, shunday, – dedi yurak urishi tezlashgan Garri.

– Unday bo'lsa, ayrim ma'lumotlar oshkor bo'lgani, aniqroq aytiladigan bo'lsa, Bashoratlar zalida bo'lib o'tgan hodisalar keng omma e'tiboriga havola etilgani ham nazaringdan chetda qolmagan, albatta.

– Ha, – dedi Garri. – Endi hamma shuni biladiki, men...

– Yo'q, bilmaydi, – e'tiroz bildirdi Damblor. – Bu yorug' olamda o'sha bashoratda nima deyilganidan voqif bo'lgan faqat ikki kishi yashaydi, xolos. O'sha ikkala kishi hozir mana bu sassiq, o'rgimchaklar o'ziga makon qilib olgan saroychada turibdi. Biroq ko'pchilik, chindan ham, O'limdan zavqlanuvchilar Lord Voldemortning amriga binoan bashorat sharini o'g'irlab chiqishmoqchi bo'lgani va o'sha bashorat aynan senga taalluqli ekanini fahmlagan. Qani endi, ayt-chi, bashorat mazmunini bilishingni birovga aytdingmi?

-- Yo'q, aytganim yo'q, – javob berdi Garri.

-- Favqulodda to'g'ri qaror, – maqtadi Damblor. -- Do'stlaring mister Ron Uesli va miss Germiona Grenjerga istisno tariqasida aytib berishing mumkin. Ha, ha, – bosh irg'idi qariya Garrining hayron bo'lganini ko'rib. – Fikrimcha, ular bashorat mazmunidan boxabar bo'lishlari kerak. Bunday muhim ma'lumotni ikkalasidan sir tutish adolatdan emas.

– Men ularni...

– ... tashvishga qo'yib, cho'chitib yuborishni istamagan bo'lar eding, shundaymi? – bolaning fikrini yakunladi Dambldor, g'ayrioddiy ko'zoynagi uzra Garriga sinchkovlik-la qarab. – Yoki o'zing ham tashvishga tushganing-u cho'chib ketganingga iqror bo'lishdanmi? Do'stlaring senga kerak, Garri. To'g'ri aytding, Sirius tarki dunyo kayfiyatida yurishingni istamagan bo'lar edi.

Garri indamadi. Dambldor javob kutmagan, shekilli, davom etdi:

– Umuman aytganda, birinchi masala bilan bog'liq ikkinchi masala ham bor. Fikrimcha, bu yil shaxsan o'zim sen bilan yakka tartibda mashg'ulot o'tishim kerak.

– Men bilan? Yakka tartibda?

– Ha. Sening ta'lim olishingda faol ishtirok etishim lozim bo'lgan vaqt yetgan ko'rinadi.

– Nimalarni o'rgatmoqchisiz menga?

– Shunchaki, u bu narsalarni, – beg'am ohangda javob berdi Dambldor.

Garri biron-bir tushuntirish eshitishga umid qildi-yu, Dambldordan bu masalada sado chiqmadi. Shunda Garri tashvishga solayotgan boshqa savolni berdi:

– Sizning darsingizga qatnaydigan bo'lsam, demak, Snegning okklumensiyasiga kirmay qo'yaveraman, shundaymi?

– Professor Snegning, Garri... Yo'q, qatnamaysan.

– Xayriyat, – yengil tortib, oh urdi Garri. – Chunki bu...

– Muvaffaqiyatsizlik bo'ldi, desang to'g'ri bo'ladi, – bosh iring'idi Dambldor.

– Bundan chiqdi, o'sha professor bilan endi kamdan kam yuz ko'rishadigan bo'libmiz! – mamnun bo'ldi Garri. – Chunki men uning fanidan MOSDning¹ zaruriy saviyasiga ega bo'lish uchun «Oliy» baho olmagan bo'lsam – olmaganligimni esa aniq bilaman – sehrli damlamalar tayyorlash fani mashg'ulotlariga

¹ MOSD – mutlaqo oddiy sehrgarlik darajasi

qatnash xavfi menga tahdid solmaydi.

– Magllarda jo‘jani kuzda sanash qabul qilingan, biz sehrarlarda esa boyqushlar xat yetkazganidan keyin sanaladi, – hikmat qildi Dambldor, qandaydir sirli qat‘iy ohangda. – Xatlar esa – ta‘kidlab o‘tmoq joizki – aynan bugun yetkaziladi. Faqat sal kechroq. Endi Garri, xayrlashishdan oldin yana ikkita muhim masalani muhokama qilib olaylik. Birinchidan, sendan iltimos, mana shu damdan e‘tiboran ko‘rinmas plashing hatto «Xogvars» hududida ham hamisha yoningda bo‘lsin. Har ehtimolga qarshi, tushunyapsanmi?

Garri bosh irg‘ib qo‘ydi.

– Ikkinchidan, Boshpanada bo‘lar ekansan, bu maskan Sehrarlik vazirligi taqdim eta biladigan jamiki ehtiyot choralari ila muhofaza qilingan bo‘ladi. Molli bilan Artur uchun bu holat biroz noqulaylik tug‘diradi, albatta. Misol uchun, ularning jamiki pochta jo‘natmalari tekshiruvdan o‘tadi. Biroq ular ushbu masalada e‘tiroz bildirishmadi. Negaki ular birinchi navbatda sening xavfsizliging masalasida jon kuydirishadi. Shunday ekan, Garri, ushbu oilaning parvarishida bo‘la turib, hayotingni xavf ostiga qo‘yadigan ishga qo‘l ursang, oqibatsizlik qilgan bo‘lasan.

– Tushundim, – tez javob berdi Garri.

– Juda soz, – saroycha eshigini turtib ochib, hovliga chiqdi Dambldor. – Oshxona chirog‘i yoniq. Ozib, eting borib ustuxonga taqalgani borasida vahima ko‘tarish uchun Molliga imkon beraylik.

KERAGIDAN ORTIQ XLORKA¹

Garri bilan Damblodor Boshpanaga orqa eshik tomondan yaqin borishdi. Atrofdagi odatdagiday, rezina etiklar-u zang bosgan qozonlar sochilib yotibdi. Uyqusiragan tovuqlarning yaqin o'rtadagi tovuqxonadan ahyon-ahyon qaqalab qo'yishi quloqqa chalinmoqda. Damblodor eshikni uch marta taqillatdi. Biroz o'tib oshxona derazasida kimningdir sharpasi ko'rindi.

– Kim u? – eshitildi missis Ueslining asabiy ovozi. – Javob bering!

– Bu men, Damblodor. Garri ikkalamiz keldik.

Eshik lang ochilib, ostonada past bo'yli, egniga eski yashil xalat kiygan, girdig'umgina ayol ko'rindi.

– Garri, yoqimtoyginam! Albus, o'larcha cho'chitib yubordingiz, tong mahaldan erta kelmaymiz, degan edingiz-u!

– Omadimiz chopdi, – dedi Damblodor, Garrini ichkariga o'tkazib. – Divangard men o'ylagandan ko'ra gapga osongina ko'nadiganlardan ekan. Garrining sharofati ila, albatta. A-a, Nimfadora, salom!

Garri atrofga alangladi. Chindan ham, vaqt allamahall bo'lganiga qaramay, missis Uesli oshxonada yolg'iz emas. Stol ortida katta krujkani ikkala kafti bilan quchib olgan, rangpar yuzi yurakcha shaklidagi, sochi kulrang qo'ng'ir tusli yosh afsungar ayol o'tiribdi.

– Xayrli oqshom, professor, – ko'rishdi u juvon. – Salom, Garri.

– Salom, Boms, – javob berdi bola.

Boms toliqqan, tobi yo'qday ko'rinib, tabassumi yasama chiqdi. Sochiga odatiy pushti tus bermagani bois qandaydir o'ngigan ko'rindi.

– Men boray, Molli, – shosha-pisha o'rnidan turdi u, yelkasiga plash tashlab. – Choy uchun ham, hamdardlik uchun

¹ Xlorka – eritilgan yoki kukunsimon xlorli ohak.

ham rahmat.

– Agar men tufayli ketayotgan bo'lsang, tashvish tortma, -- dedi Damblidor muloyim ohangda. – Bu yerda uzoq qolmayman. Skrimj bilan muhokama qilinadigan shoshilinch ishim bor.

– Yo'q-yo'q, chindan ham, ketishim kerak, – javob berdi Boms, ko'zini Damblidordan olib qochib. -- Yaxshi qolinglar...

– Qadrdomim, balkim, dam olish kuni kechki ovqatga kelarsan? Rem bilan O'ynoqko'z ham kelishadi.

– Yo'q, Molli, chindan ham, kela olmayman... rahmat... hammaga xayrli tun.

Boms Garri bilan Damblidorning yonidan lip etib o'tdida, hovliga chiqib, ostonadan bir necha qadam nari uzoqlashgach, joyida bir aylanganicha, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Missis Ueslining tashvishli qiyofasi Garrining nazaridan chetda qolmadi.

– Xo'sh, Garri, demak, «Xogvars»da uchrashguncha. Omon bo'l, -- xayrlashdi Damblidor. – Sen ham yaxshi qol, Molli.

Missis Uesliga ta'zim qilib, hovliga chiqqan Damblidor ham Boms g'oyib bo'lgan joyga borib havoda daf g'oyib bo'ldi. Missis Uesli chiqish eshigini yopib, Garrini yelkasidan quchib olgancha, chiroq ostidagi yorug' to'garak tomon yetakladi.

– Rondan farq qilmaysan-a, – xo'rsindi missis Uesli, Garriga boshdan oyoq razm solib. -- Birov ikkalangizga bo'y cho'zish tilsimini qo'llaganga o'xshaydi. O'rtog'ingning bo'yi ham so'nggi kiyimini olganimizga nisbatan to'rt dyuymcha¹ o'sib ketdi. Ovqatlanasanmi, Garri?

– Ha, -- dedi qorni ochgan Garri.

– O'tir, yoqimtoyinginam, hozir biron-bir yegulik tayyorlab beraman.

Garri o'tirishi bilan, tizzasiga to'q sariq mo'ynasi paxmoq, yuzi yassi mushuk sakrab chiqdi-da, xirillagancha, katta yostiqa o'xshab yotib oldi.

– Germiona ham shu yerdami? -- quvonch-la so'radi Garri, Maymoqoyoqning qulog'ini qashlab.

¹ Dyuym – 25,4 millimetr yoki 2,54 santimetrga teng bo'lgan uzunlik o'lchovi birligi.

– O'tgan kuni keldi, – javob berdi, sehrli tayyoqchasini katta temir kastryulga tekkizgan missis Uesli. – Hozir, turgan gapki, hammasi yettinchi tushini ko'rib yotibdi. Ertalab kelsang kerak, deb o'ylagan edik.

Kastryul plita ustiga taraqlab tushishi bilan qaynoq suvga to'ldi.

– Xo'sh, mana tayyor...

Missis Uesli tayyoqchasini yana bir bor tekkizgan kastryul havoga ko'tarilib, Garri tomon uchdi-da, og'a boshladi. Missis Uesli esa abjirlik bilan chuqur likoplardan birini yetkazib, qaynoqqina quyuq piyoz sho'rvaga to'ldirdi.

– Non ketadimi, yoqimtoyginam?

– Rahmat, missis Uesli, bir bo'lak bersangiz yetadi.

Missis Uesli sehrli tayyoqchasini yelka uzra ortga o'qtadi. Kattagina non bo'lagi bilan pichoq stol ustiga uchib keldi. Pichoq nonni chiroyli bo'lakchalarga kesib, kastryul o'z joyiga qayt-gach, missis Uesli Garrining ro'parasiga o'tirdi.

– Goratsiy Divangardni «Xogvars»ga qaytishga ko'ndira olibsan-da?

Og'ziga issiq sho'rva olgan Garri gapira olmay, bosh irg'ib qo'ydi.

– U bir vaqtlar Artur ikkalamizni o'qitgan, – esladi missis Uesli. – «Xogvars»da uzoq yillar o'qituvchilik qilgan. Adashmasam, ishni Dambldor bilan bir vaqtda boshlagan. U senga yoqdimi?

Non kavshayotgan Garri yelka qisib, boshini mubham siltab qo'ydi.

– Nima demoqchi ekaningni tushunib turibman, – dedi missis Uesli, dono qiyofa yasagancha, bosh irg'ib. – Divangard – agar istasa –jozibador bo'la oladi, ammo Artur uni hech qachon xush ko'rmagan. Vazirlik tomon tosh otsang, albatta, Divangard yoqtirgan bitiruvchilardan birining boshiga tushadi. Hamisha ularga ortiqcha erk berib, ra'yiga qarab ish tutgan. Arturni esa nazariga ilmagan. Uzoqqa bora olmaydi, deb o'ylagan bo'lsa kerak-da. Divangard ham yanglishishi mumkinligiga bir isbot, xolos, bu. Ron senga yozgan-yozmaganini bilmadim-u, Artur

yaqinda yuqori pog'onaga mansub lavozimga tayinlandi!

Ayol bu bilan anchadan buyon maqtanmoqchi ekani yaq-qol sezilmoqda. Garri og'zidagi sho'rvani shosha-pisha yutib yuborib, tomog'ini kuydirib oldi.

– Zo'r-u!

– Qadrdonim, – iyib ketdi missis Uesli, Garrining ko'zidan otilib chiqqan yoshni noto'g'ri anglab, – Rufus Skrimj bugungi kunda qaror topgan vaziyatga qarshi kurash uchun bir nechta yangi departamentlar yaratdi. Artur Soxta tumorlarni fosh etib, musodara qilish bo'limi boshlig'i etib tayinlandi. Bu ancha katta lavozim. Endi uning bo'ysunuvida o'n kishi ishlaydi!

– Nima bilan shug'ul...?

– «O'zing-Bilasan-Kim»ning dastidan shunaqangi vahi-ma ko'tarildiki, qo'yaverasan. Qisqasi, hamma joyda go'yo undan va O'limdan zavqlanuvchilardan saqlaydigan har xil bema'ni narsalar sotila boshlandi. Nima haqida gapirayot-ganimni tushunayotgan bo'lsang kerak: aslida bubotuber¹ fasodi-dan tayyorlangan, turli saqlash damlamalari yoki qo'llanil-ganidan so'ng kishi qulog'i shalpaygancha osilib qoladigan himoya tilsimlaridan foydalanishga oid yo'riqnomalar... Asosan bunday korchalonlik bilan Mundugnus Fletcherga o'xshagan qallob, umrida biror kun bo'lsin, halol mehnat qilmagan, odam-larning boshiga tashvish tushgan fursatdan foydalanib, mol-dunyo orttirishga intiladigan kaslar shug'ullanadi. Biroq ba'zan soxta narsalar orasida juda xavfli buyumlar ham duch kelmoqda. Kuni kecha Artur bir yashik sneaskop musodara qildi. Ularga qarg'ish qo'llanilgan bo'lib, O'limdan zavqlanuvchilar tomoni-dan tayyorlanganiga hech qanday shubha qilmasa ham bo'la-veradi. Shunday ekan, bu ish nihoyatda jiddiy ahamiyatga ega. Arturga hamisha ta'kidlab kelaman: o't oldirish svechalari², tosterlar³ va shu kabi magllar buyumini qo'msash g'irt ahmoq-likdan o'zga narsa emas, deb.

¹ Bubotuber – zaharli yiringli afsonaviy o'simlik.

² Svecha – texnikalarni o't oldirish uchun moslangan murvat.

³ Toster – nondan suxari tayyorlaydigan elektr asbobi.

Missis Uesli o'z nutqini, huddi Garri o't oldirish svechalarini qo'msab yashash dono ishdir, deya bahslashmoqchi bo'lganday juda jiddiy qiyofa ila yakunladi.

– Mister Uesli hali ham ishdami? - so'radi Garri.

Ishda. Tun yarmida qaytishni va'da qilgan... Allaqachon qaytishi kerak edi.

Missis Uesli o'girilib, kiyim savatidagi bir uyum choyshab ustida qiyshiq turgan soatga qarab qo'ydi. Ushbu soat oila a'zolarining soniga mos ravishda to'qqizta tilla milga ega bo'lib, odatda, mehmonxonada osig'liq turadi. Biroq, aftidan, missis Uesli uni o'zi bilan olib yuradigan odat chiqargan ko'rinadi. Hozir millarning bari «12» raqami o'rnidagi «*Halokat yoqasida*» yozuvi bitilgan joyga to'plangan.

– «O'zing-Bilasan-Kim» hayotga qaytgan kundan buyon shu ahvol, – soxta beparvolik-la tushuntirish berdi missis Uesli.

Endi nafaqat oilamiz, hamma halokat yoqasida bo'lsa kerak... bunday soatga ega yana biror kishini bilmayman-ki, tekshirib ko'rsam... O! – kutilmaganda xitob qildi u, soatga imo qilib.

Mister Ueslini anglatgan mil «*Yo'lga chiqdi*» yozuviga sakrab o'tdi.

– Hozir yetib keladi, – ma'lum qildi missis Uesli.

Chindan ham, bir soniya o'tib, eshik taqilladi. Missis Uesli o'rnidan irg'ib turib, eshik tomon oshiqdi. Dastani ushlar ekan, lunjini eshikka bosib, asta so'radi:

– Artur, senmi?

– Ha, men, – eshitildi mister Ueslining horg'in ovozi. – Ammo, Molli, azizam, o'rnimda O'limdan zavqlanuvchi bo'lsa, u ham shunday javob bergan bo'lar edi. So'ra!

– Qo'ysang-chi...

– Molli!

– Yaxshi, yaxshi... ko'ngildagi orzuimg?

– Qanday qilib samolyot yerga qulab tushmay osmonda parvoz qilishini bilish.

Missis Uesli bosh irg'ib, dastani buradi, ammo uni mister Uesli narigi tomondan mahkam ushlab olgan, shekilli, eshik ochilmadi.

– Molli! Endi men so‘rashim kerak! – dedi mister Uesli talab ohangida.

– Bas qilsang-chi, Artur. Bularning bari g‘irt ahmoqlikdan o‘zga narsa emas.

– Yolg‘iz qolganimizda seni nima deb chaqirishimni yoqtirasan?

Fonus xira yoritayotganiga qaramay, missis Ueslining kuchli qizarib ketgani ko‘rindi. Garrining o‘zi ham bo‘ynidan qulog‘igacha qizib ketganini his etib, qoshiqni likopga qattiq urgancha, shosha-pisha sho‘rva yutishga kirishib ketdi.

– Molli bo‘g‘irsoq, -- pichirladi tamom bo‘lgan missis Uesli eshik tirqishiga.

– To‘g‘ri, – dedi mister Uesli. – Ana endi ochishing mumkin.

Uyga missis Ueslining ozg‘in, malla sochi siyrak, muguz ko‘zoynak taqqan, egnidagi safar plashini chang qoplagan eri kiritdi.

– Hech tushunmayman, nimaga kerak shu maynabozchilik! – xitob qildi rangi haligacha qip-qizil missis Uesli plash yechayotgan criga yordam berar ekan. – Axir, O‘limdan zavqlanuvchilar qiyofangga kirib olishdan oldin seni qiynab, o‘smoqchilab bilib olishadi-yu.

– Bilaman, azizam, lekin vazirlik tomonidan shunday tartib joriy etilgan. Men esa ijrochilik bobida hammaga ibrat bo‘lishim kerak. Mazali hid kelyapti? Piyozli sho‘rvami?

Mister Uesli umid-la, stol tomon o‘girildi.

– Garri! Biz seni ertalab kelasani, deb o‘ylagan edik!

Ikkalasi qo‘l siqishib ko‘rishishgach, mister Uesli o‘zini Garrining yonidagi bo‘sh kursiga tashladi.

– Rahmat, Molli, – dedi u, xotini uzatgan sho‘rvani olar ekan. – Tun qiyin boshlandi. Tasavvur qilyapsanmi, allaqanday ahmoqning miyasiga metamorf¹-medal sotish fikri kelib qolibdi. Bo‘yningga osib olsang bas, kimning qiyofasiga kirishni istasang, kiraverasan. Yuz ming qiyofa, atigi o‘n galleon uchun.

¹ **Metamorf** boshqa ko‘rinishga o‘tish, boshqa tusga kirish, aylanish.

– Aslida-chi, nima ekan u? – so‘radi missis Uesli.

– Odamlar allaqanday jirkanch malla tusga kirib qolishmoqda. Bir juft badbaxtning tanasini esa paypaslagichga o‘xshash uzun-uzun so‘gal qoplabdi. Xuddi Muqaddas Rezgi kasalxonasi tabiblari kun bo‘yi bekor o‘tirganday!

– Egizaklarimizning qilmishiga o‘xshab ketar ekan, – taxmin qildi missis Uesli ikkilanib. – Ishonching komilmi?...

– Komil, albatta! – xitob qildi mister Uesli. – Odamlar umidsizlikka yuz tutib, nima bilan himoyalaniшни bilmay qolgan bunday og‘ir kunlarda bolalarimiz bunday ish bilan shug‘ullanmaydi!

– Demak, o‘sha metamorf-medallar tufayli kechikibsan-da, a?

– Yo‘q. «Fil va qasr»da nihoyatda noxush sapchima qar-g‘ish qo‘llanilibdi, degan mish-mish gaplar yetib keldi bizga. Xayriyatki, yetib borgunimizcha sehr-joduga barham berish bo‘linmasi ishni hal qilib bo‘lgan ekan...

Garri og‘zini kafti ila yopgancha, asta esnab qo‘ydi.

– Kirib yot, yoqimtoyginam, – dedi ziyrak missis Uesli.

– Fred bilan Jorjning xonasini tayyorlab qo‘yganman, u to‘la-to‘kis sening ixtiyoringda.

– Ular-chi? Qayerda ular? – so‘radi Garri.

– Diagon xiyobonida. Ikkalasi shunchalik bandki, do‘kon ustidagi xonadonda tunashadi, – tushuntirish berdi missis Uesli. – Ta‘kidlab o‘tish joizki, dastlab bunga qarshi chiqdim. Biroq ikkalasi juda ishbilarmon chiqib qolishgan ko‘rinadi! Yur, bolaginam, sandig‘ing xonangda.

– Xayrli tun, mister Uesli, – tilak bildirdi Garri, o‘rnidan turib.

Bolaning tizzasida yotgan Maymoqoyoq polga yengil sakrab tushdi-da, xonadan chiqib ketdi.

– Xayrli tun, Garri, – javob berdi mister Uesli.

Oshxonani tark etayotgan Garri mister Ueslining kiyim savatidagi soatga qarab qo‘yanini payqadi. Soat millari boz «Halokat yoqasida» yozuvi bitilgan joyga yig‘ilgan.

Egizaklarning xonasi ikkinchi qavatda. Missis Uesli

sehrli tayoqchasini karavot yonidagi fonusga o'qtagan ediki, xona kishiga xush keladigan tilla tus berib yorishdi. Deraza yaqinidagi yozuv stoli ustiga kattagina vaza qo'yilgan bo'lib, ichiga solingan gul hidi xonaga urib ketgan porox hidini bosa olmabdi. Polning aksariyat qismini muhrlangan qutilar egallagan. Ular orasida Garrining sandig'i ham bor. Bir so'z bilan aytganda xona muvaqqat omborni eslatmoqda.

Sohibini ko'rib, quvongan Xedvig gursullab qo'ydi-da, derazadan tashqariga uchib chiqdi. Aftidan, Garrining kelishini kutib o'tirgan boyqush nihoyat ovga chiqib ketgan ko'rinadi. U xonani tark etayotgan missis Uesliga xayrli tun tilab, pijamasini kiyib olgach, karavotlardan biriga joylashdi-da, qo'li bilan paypaslab ko'rpa orasidan sariq tusli yopishqoq shirinlik – qayl qildirish chanog'ini topib oldi. Hirlinglab qo'ygan Garri yonboshlab, shu zahoti uyquga ketdi.

Uning nazarida, hech qancha vaqt o'tmay, eshik zambarak tovushiday baland gumburlab ochilganidan uyg'onib ketdi. Irg'ib tushgan Garri yotgan o'miga o'tirib oldi. Pardalar keskin ochilib, quyosh nuri qamashtirgan ko'zi og'ridi. Bir kafti bilan ko'zini to'sib, ikkinchi qo'li bilan ko'zoynagini qidirdi.

– Nima bo'ldi?... – so'radi u uyqusirab.

– Yetib kelganingdan xabarimiz ham yo'q ekan! – quvonch-la qichqirdi kimdir, Garrining boshiga bir tushirib.

– Nima qilyapsan, Ron, urma uni! – koyib berdi qiz ovozi.

Garri paypaslab topgan ko'zoynagini nihoyat taqdi. Ammo yorug'likning kuchliligidan ko'zoynak kor bermadi. Ko'zini pirpiratayotgan Garrining ustida uzun ko'lanka tebrarmoqda va ko'p o'tmay, Ron Ueslining qiyofasi o'z shakliga ega bo'ldi.

– Ishlar qalay? – so'radi Ron, quvonch-la irjayib.

– Hozirgidan yaxshi bo'lmaydi, – dedi Garri, boshini ishqalagancha o'zini yostiqqa tashlab. – O'zingning ishlaring-chi?

– Yomon emas, – javob berdi, qutilardan birini yaqinroq tortib, ustiga o'tirib olgan Ron. – Sen ham shu yerda ekaningni

hozirgina oyim aytdi. Qachon paydo bo'lding?

– Tungi soat birda

– Xo'sh, anavi mag'llar qalay, ko'p qiynashmadimi seni? so'radi karavotning bir chetiga joylashgan Germiona.

– Odatdagidan ko'p emas, – dedi Garri. – Ular men bilan deyarli gaplashishmadi. Shunisi ham ma'qul. Sen-chi, Germiona, qalaysan?

– Menmi? Men yaxshiman, – dedi Germiona, kasallik alomatini qidirayotganday Garriga sinchkovlik-la nazar solib.

Gap nimada ekanini Garri darhol fahmladi va Siriusning o'limi va boshqa baxtsizliklarni muhokama qilishga zig'irday bo'lsin istagi bo'lmagani bois mavzu ochilishining oldini oldi.

– Soat necha bo'ldi? Nonushtani o'tkazib yubormadimmi, ishqilib?

– Xavotir olma, hozir oyim patnis ko'tarib keladi. Uning nazarida, dahshatli ocharchilik hukm surayotgan yurtdan kelgan-san, – dedi Ron, ko'zini yuqoriga ko'tarib. – Gapir, nimalar bo'ldi?

– Aytarli hech nima bo'lgani yo'q. Qarindoshlarimning uyidan chiqmay o'tirdim.

– Qo'ysang-chi! – qichqirdi Ron. – Dambldor ikkalangiz qayergadir boribsizlar-u!

– Hech qanday qiziq joyi bo'lmadi. U mendan Goratsiy Divangard ismli allaqanday keksa o'qituvchini maktabga qaytishga ko'ndirish masalasida yordamlashib yuborishni iltimos qildi.

– Shu, xolosmi, – dedi hafsalasi pir bo'lgan Ron. – Biz esa...

– ... ha, shunga o'xshash biron-bir ish qilgan bo'lsang kerak, degan xayolga borgan edik, – Ronga yeb qo'ygudek o'qraydi Germiona.

– Rostdanmi? – istehzoli kulib qo'ydi Garri.

– Ha-da... modomiki, Ambrij bo'lmas ekan, bizga yovuz kuchdan himoya fanining yangi o'qituvchisi kerak bo'ladi. A... e-m-m... turqi qanaqa ekan, uning?

– Nimasi bilandir morj¹ o'xshab ketadi. Ilgari «Slizerin»ning mudiri bo'lgan ekan, – dedi Garri. – Nima gap o'zi, Germiona?

Qiz Garriga har qanday fursatda allaqanday dahshatli kasallik alomati paydo bo'lishini kutayotganday qarab, arang kulmoqda.

– Hech nima! Demak... e-m-m... Divangard, yaxshi o'qituvchi, shundaymi?

– Qayerdan bilay, – yelka qisdi Garri. – Ambrijdan battar bo'lishi mumkin emas-u, to'g'rimi?

– Men esa Ambrijdan battar odamni tanjyman, – eshitildi ostona tomondan ovoz.

Xonaga Ronning yuzi shishgan singlisi kirib keldi.

– Salom, Garri, – ko'rishdi qiz.

– Senga nima qildi? – so'radi Ron.

– Adoyi tamom qiladi u meni, – dedi, o'zini Garrining karavotiga tashlagan Jinna ma'noli ohangda.

– Yana nima hunar ko'rsatdi? – qiziqdi Germiona, hamdardlik ohangida.

– Uch yoshli bola bilan gaplashganday muomala qiladi men bilan!

– Tushunarli, – ovozini pasaytirdi Germiona. – Biram o'ziga bino qo'yganki.

Missis Uesli haqida bunday ohangda gapirishayotganidan Garri larzaga keldi.

– Hoy, xonimlar, besh soniya bo'lsa ham o'sha haqda gaplashmay tura olasizmi? – jahl qildi Ron.

– Ha, albatta, himoya qilaver uni, – o'shqirdi Jinna. – Uni ko'rsang, huzur qilasan-u, sen.

Nahotki bunday gaplar Ronning onasi haqida bo'lsa? Garri nimanidir fahmlamayotganini his etib, so'rab bilishga ahd

¹ **Morj** (*lotincha*: *Odobenus rosmarus*) kurakoyoqlilar (*lotincha*: *Pinnipedia*) guruhiga mansub morjlar oilasining (*Odobenidae*) bugungi kundagi yagona turi sanaladigan sutemizuvchi dengiz hayvoni. Yetilgan morj o'zining yaqqol ko'rinadigan qoziq tishi ila farq qiladi. Tinch okeanda yashaydigan yetilgan erkagining vazni 1700 kilogrammga yetishi mumkin.

qildi:

– Kim haqida gapiryapti?...

Savolga javob lang ochilgan eshikdan kirib keldi. Garri adyolni jag'igacha shu qadar katta kuch bilan tortdiki, karavotida o'tirgan Jinna bilan Germiona polga qulab tushdi.

Xona ostonasida husni ko'zni qamashtiradigan qiz paydo bo'lib, shu zahoti o'lik sukunat qaror topdi. Qo'liga yegulik terilgan patnis ushlagan qiz novcha bo'yli, qomati raso bo'lib, uzun oqish sochi kumush tusda tovlanmoqda.

– Gag'g'i! Ko'g'ishmaganimizga ham ancha bo'ldi! – dedi, Garri tomon yugurgan sohibjamol, ko'krakdan chiqqan ovozi ila.

Uning ortida domangir qiyofa kasb etgan missis Uesli ko'rindi.

– Patnisni ko'tarib, ovora bo'libsan. O'zim keltirar edim!

– Ovog'asi yo'q, – javob berdi Flyor Delakyor.

U patnisni Garrining tizzasiga qo'yib, ikkala lunjidan o'pa ketdi. Garrining lab tekkan har bir joyi cho'g'day qizidi.

– U bilan yana ko'g'ishishni juda og'zu qilgan edim. Gag'g'i, singlim Gabg'iel esingdami? U yug'gan yo'lida G'ag'-g'i Potteg' to'g'g'isida gapig'adi. Seni ko'g'sa, bagoyat baxtiyog' bo'ladi.

– A-a! U ham shu yerdami? – bazo'r so'radi Garri.

– Yo'q, yo'q, – dedi Flyor, qo'ng'iroqday jarangdor ovozda kulib. – Men kelasi yoz faslini nazag'da tutmoqdaman, biz... iye, aftidan, sen hali bexabag' ko'g'inasan.


U yirik moviy ko'zini keng ochib, o'pka-gina ila missis Uesli tomon qarab qo'ydi.

– Aytishga ulguranimiz yo'q hali, – po'ng'illadi missis Uesli.

Garri tomon burilayotgan Flyorning orqaga tashlangan sochi missis Ueslining yuziga urildi.

– Bill ikkalamiz tug'mush qug'moqchimiz! – ma'lum qildi Flyor.

Garri ko'z qiri ila missis Uesli, Germiona va Jinna bir-biriga qarab qo'ymaslikka urinayotganini ko'rdi.



– A-a, – ifodasiz ovoz chiqardi u. – Juda soz. E-m-m... tabriklayman!

Flyor birdan engashib, Garrini yana o'pib qo'ydi.

– Bill hozig' juda band, ko'p ishlayapti. Men esa Gg'ingottsga ingliz tilimni yaxshilash uchungina yarim stavkaga¹ ishga kig'dim. Shu bois u meni bu yeg'ga, oilasi bilan yaqindan tanishtig'ish uchun ikki-uch kunga olib keldi. Kelganingdan juda xug'sandman. Bu yeg'da qiladigan ish yo'q, agag' ovqat tayyog'lash va jo'ja boqishga ishqiboz bo'lmasang, albatta! Xo'p... mayli, yoqimli ishtaha, Gag'g'i.

Flyor xirom aylab burilgancha, xonani tark etib, eshikni asta yopib qo'ydi.

Missis Uesli «hm»ga o'xshash ovoz chiqarib qo'ydi.

– Oyim uni o'larcha yomon ko'radi, – asta pichirladi Jinna.

– Hech ham unday emas, – keskin e'tiroz bildirdi missis Uesli pichirlab. – Shunchaki, unashtirish masalasida ikkalasi biroz shoshma-shosharlikka yo'l qo'yishgan, shu, xolos!

– Ikkalasi tanishishgan kundan e'tiboran butun boshli yil o'tdi, -- dedi es-hushini yo'qotgan Ron, yopiq eshikka qarab.

– Bu juda qisqa muddat! Tushunaman, albatta, zamon beqaror! «O'zingiz-Bilasiz-Kim» hayotga qaytgan, har qanday fursatda halok bo'lish mumkinligini odamlar bilishadi va shu bois ilgari yetti o'lchab, bir kesilgan bo'lsa, endi shoshqaloqlik bilan qaror qabul qilishadi. Oldingi safar ham shunday bo'lgan, odamlar ketini o'ylamay turmush qurishgan...

– Shu jumladan, dadam ikkalangiz, – quvlik-la ta'kidlab o'tdi Jinna.

– Xo'sh, nima qilibdi? Dadang ikkalamiz bir-birimiz uchun yaratilganmiz. Shunday ekan, nimani kutib o'tirishimiz kerak edi? – javob berdi missis Uesli. – Bill bilan Flyor-chi... e-m-m... bir-biriga mos keladimi? Akang oddiy ishchi kishi, u-

¹ *Stavka (ruscha)* – 1) oliy bosh qo'mondon qarorgohi (urush davrida); 2) qurolli kuchlar rahbariyatining oliy organi (urush davrida); 3) soliq, ish haqi va boshqa turli xil to'lovlar miqdori, me'yori; 4) bir oylik ish soati yoki kuni (bu yerda **shu ma'noda**).

chi...

– Qo'g'irchoq, – ma'qullagancha bosh irg'idi Jinna. – Faqat bizning Billimiz siz aytgancha sodda emas. Afsun ta'siriga barham berish xodimi bo'lib ishlaydi, axir, u shundaymi? Demak, tavakkalchilik, yaltir-yultir narsalarga ishqiboz bo'ladi... Shu bois ham o'zining Flyorka-Xlorkasiga xushtor bo'lib qolgan.

Garri bilan Germiona xandon otib yuborishdi.

– Jinna, bas qil unga bunday laqab qo'yishni. Mayli, boray. Garri, quymoq sovib qolmasin.

Missis Uesli tashvishli qiyofa ila xonani tark etdi. Ron haligacha boshiga urilgan kishi holatida, qulog'iga kirib ketgan suvni chiqarishga urinayotgan itday bosh silkitib o'tiribdi.

– Haligacha ko'nika olmadingmi, unga? Uylaringda yashayotgan bo'lsa ham-a? – hayron bo'ldi Garri.

– Umuman aytganda ko'nikdim-u, ammo mana bunday, kutilmaganda tashlanib qolsa...

– Sharmandalikdan o'zga narsa emas! – g'azab-la xitob qildi Germiona.

U Rondan imkon qadar nari chekinib, narigi devorga taqalgach, qo'lini ko'ksida qovushtirib, Ronga qaradi.

– Uni bir umr shu uyda yashashini istaysanmi? – akasiga ko'zini chaqchaytirdi Jinna.

Ron yelkasini mubham qisib qo'ydi.


– Marhamat! – dedi Jinna. – Lekin oyim, baribir, bunga chek qo'yadi.

– Qanday qilib? – qiziqdi Garri.

– U hamisha kechki ovqatga Bomsni taklif qilyapti. Maqsad ayon – Bill Nimfadoraga e'tibor qilsin. Umuman aytganda, o'zim ham Bomsni afzal ko'rgan bo'lar edim.

– Hozir, yugurib keladi-da, e'tibor qiladi! – istehzo qildi Ron. – Yonida Flyor turganda sog'lom aqlga ega biron-bir yigit Bomsga e'tibor qilmaydi. Boms ham yomon emas, albatta, agar sochi bilan burnini mazax qilishni bas qilsa. Ammo...

– Boms anavi Xlorkadan ming chandon yoqimli, – dedi Jinna.



– Va ming chandon aqlli, – ma’qulladi Germiona. – Avror-u, axir, u!

– Flyor ham ahmoq emas, – dedi Garri. – U Uch sehrgar bellashuvida ishtirok etgan.

– Bunisi ham o’sha tomon yo’l oldi! – qo’lini umidsiz siltadi Germiona.

– Seni «Gag’g’i» deb chaqirgani yoqsa kerak-da, a? – chaqib oldi Jinna.

– Yo’q, – o’zini oqlay ketdi Garri, gapga aralashganiga pushaymon qilib. – Aytmoqchi edim-ki, Xlorka... ya’ni Flyor...

– Qisqasi, men Bomsni afzal ko’raman, – gapni bo’ldi Jinna. – U bilan kun quvnoq o’tadi, har qalay.

– So’nggi vaqtda unchalik quvnoq emas, – e’tiroz bildirdi Ron. – Qachon qarama... qisqasi, Dilgir Mirtldan farqi qolmayapti.

– Adolatdan emas bu, – koyib berdi Germiona. – Boms hali o’ziga kela olgani yo’q... o’zing yaxshi bilasan... u xolavachchasi bo’lgan edi!

Garrining yuragi orqaga tortib ketdi. Mana, marhamat, Siriusga ham navbat yetdi. Qo’liga sanchqi olgan Garri suhbatda ishtirok etishni istamay, og’ziga quymoq to’ldirdi.

– Boms bilan Sirius bir-birini durustroq tanishmas edi ham! – qichqirdi Ron. – Sirius deyarli bir umr Azkabanda o’tirgan. Ungacha esa oilalari yuz ko’rishmagan...

– Ahamiyati yo’q, – gapni kesdi Germiona. – Siriusning o’limida o’zini aybdor bilmoqda, u!

– Qayerdan olding bunday gapni? – beixtiyor so’radi Garri.

– U Bellatriks Lestrang bilan jang qilayotgan edi, esingdami? Fikricha, agar o’sha urg’ochi ilonni o’zi o’ldira bilganida, Sirius o’lmagan bo’lar ekan.

– Bema’nilik, – dedi Ron.

– Omon qolgan kishilarni hamisha aybdorlik hissi qiyaydi, – hikmat qildi Germiona. – Lyupin u bilan bu haqda gaplashib ko’rishga uringanidan xabarim bor, ammo Boms hali-gacha ezilib yuribdi. Metamorfizm masalasida ham qiyinchilik

sezmoqda.

– Nima masalasida? – tushunmadi Ron.

– U endi o‘z qiyofasini ilgarigidek o‘zgartira olmaydi, – tushuntirish berdi Germiona. – Shok tufayli bo‘lsa kerak.

– Shunaqasi ham bo‘lishi mumkinligini bilmas ekanman, – hayron bo‘ldi Garri.

– Men ham, – bosh iring‘idi Germiona, – lekin, aftidan, kishi ruhan siqilgan holatda...

Eshik ochilib, missis Ueslining boshi ko‘rindi.

– Jinna, tezroq pastga tushib, tushlik tayyorlashga yordamlashib yubor, – pichirladi u.

– Gaplashib o‘tiribman-u! – e‘tiroz bildirdi Jinna.

– Tez bo‘l, – ovoz ko‘tardi missis Uesli, ko‘zdan g‘oyib bo‘lib.

– Xlorka bilan yolg‘iz qolishni istamaydi! – vaysadi Jinna.

Qiz uzun malla rang sochini orqaga tashladi-da, qo‘lini baletchasiga ikki tomon uzatib, Flyorga taqlid qilgancha, viqor-la suza ketdi.

– Siz, barnolar ham, uzoq qolib ketmang, – dedi u, ostonaga yetib.

Oraga tushgan sukunatdan foydalangan Garri nonushtani oxiriga yetkazishga ahd qildi. Karton qutilarga razm solayotgan Germiona Garriga o‘g‘rincha qarab-qarab bordi. Ron patnisdagi tostlardan¹ birini olib, kavshagancha, g‘amgin nigohini eshikdan uzmay o‘tirdi.

– Mana bu nima? – so‘radi birozdan so‘ng Germiona, qo‘liga mitti teleskopga o‘xshash buyumni olib.

– Bilmadim, – yelka qisdi Ron. – Modomiki, Fred bilan Jorj uni olib ketishmagan ekan, demak, oxirigacha yetkazilmagan. Ehtiyot bo‘lgan ma’qul.

– Oyingning aytishicha, ularning ishlari yomon emas ekan, – esladi Garri. – Ikkalasi juda ishbilarmon chiqib qolishgan ko‘rinadi, dedi.

¹ Tost ingichka bo‘laklarga bo‘lingan, bulka non shaklida paketlarda sotilgan non.

– Aniq ta’rif bera olmabdi. Ikkalasi galleonlarda cho’-
milib yurishibdi! Ularning do’konini ko’radigan kunni kutib,
ko’zim to’rt bo’ldi! Biz hali Diagon xiyoboniga borganimiz yo’q.
Oyimning fikricha, bizga qo’shimcha himoyachi kerak emish.
Dadam juda band. Tezroq kela qolsa edi, o’sha kun.

– Persi-chi? – qiziqdi Garri, Ronning uchinchi akasi oila
a’zolari bilan muloqot qilmaganini eslab. – Ota-onang bilan
yarashib oldimi?

– Yo’q, – bosh siltadi Ron.

– Dadang Voldemort masalasida haq bo’lib chiqqanini
bildi-yu...

– Damblorning ta’biricha, odamlar haqiqatni emas
xatoni oson kechirishar ekan, – dedi Germiona. – Bu gapni
oyingga aytganini eshitgan edim, Ron.

– Damblorga xos bejamdor so’zlar, – fikr bildirdi Ron.

– Men bilan yakka tartibda mashg’ulot o’tmoqchi u, –
gap orasida aytib o’tdi Garri.

Ron tiqilib qoldi. Germiona esa oh urdi.

– Va sen kamtarona indamay o’tiribsan! – xitob qildi
Ron.

– Hozirgina esimga tushdi, – ro’yi rost iqror bo’ldi Garri.

– Buni u kecha kechasi, supurgilaring saqlanadigan omborda
aytdi menga.

– Voy-bu!... Damblor bilan yakka tartibdagi mash-
g’ulot! Zo’r-u! – g’udulladi hayajonlanib ketgan Ron. – Qiziq,
nega u?...

Ronning gapi og’zida qolib, Germiona ikkalasi bir-biriga
qarab qo’ydi. Garri qo’lidagi pichoq bilan sanchqini patnisga
qo’ydi. Ko’rpada xotirjam o’tirgan bo’lishiga qaramay, yuragi
quturib ketganday ura boshladi. Damblor ikkalasiga aytib be-
rishni maslahat bergan edi... shunday ekan, nega hozir emas?
Garri quyoshda yaltirab turgan sanchqiga termilgancha, gap
boshladi:

– Menga nimani o’rgatmoqchi ekanini aniq bilmayman-
u, lekin, o’ylashimcha...

Do’stlari jim bo’ldi. Garrining nazarida, ikkalasi toshday

qotib qolgan. Shunday bo'lsa ham Garri sanchqiga termilgancha, gapini davom etdi:

– Vazirlikdan o'g'irlab chiqishga urinishgan bashorat tufayli bo'lsa kerak.

– O'sha bashorat nima haqida ekanini hech kim bilmaydi-yu, – shosha-pisha gap qistirdi Germiona. – Shar singan.

– «Bashorat-u karomat gazetasi»da yozilishicha... – fikr bildirmoqchi bo'ldi Ron, biroq Germiona pishillab, tek o'tirishni imo qildi.

– «Bashorat-u karomat gazetasi»da to'g'ri yozilgan, – dedi Garri, nigohini sanchqidan uzishga o'zini majbur qilib.

Germiona cho'chib, Ron esa qiziqib qaradi.

– Singan shisha shar, o'sha bashoratning yagona yozuvi bo'lmagan. Uning matnini Damblordan to'la-to'kis eshitdim. Bashorat unga bayon etilgan. U esa menga aytib berdi. Damblorning gapiga qaraganda, – chuqur xo'rsindi Garri, – Voldemortni asfalasofilinga yo'llashi kerak bo'lgan odam men bo'laman... Har qalay, bashoratda, ikkalamizdan faqat birimiz omon qolishimiz aytilgan.

Uchovlon muayyan vaqt bir-biriga termilgancha, jim qoldi. So'ng dahshatli gumburlash yangrab, Germiona tutun orasida ko'rinmay qoldi.

– Germiona! – baralla qichqirdi bolalar.

Nonushta keltirilgan patnis polga jaranglab tushdi.

Tutun tarqab, qo'lida teleskop ushlagan, ko'zining osti to'q qizargan Germiona paydo bo'ldi.

– Biroz siqib yuboribman, u esa... zarb berdi! – xirillagancha baqirdi Germiona.

Chindan ham, teleskop ichidan uchiga mittigina musht mahkamlangan prujina chiqib turibdi.

Ron, xandon otib yubormaslik uchun bor kuchini ishga soldi.

– Xavotir olma, – dedi u. – Oyim mayda jarohat tuzatish ishlarini eshib...

– Bo'pti, bo'pti, hozir buning ahamiyati yo'q! – betoqat bo'ldi qiz yana karavotga o'tirib. – Garri, o Xudoyim, Garri...

Vazirlikda o'tgan hodisadan keyin o'ylabmiz-ki... senga aytishni istamagan edik, albatta... Lyutsius Malfoyning og'zidan o'sha bashorat sen va Voldemort haqida ekani chiqib ketgan edi. Biz ham o'xshash xayolga borgan edik... Garri, Garri...

Qiz Garriga uzoq termilib turdi.

– Qo'rqyapsanmi? – so'radi nihoyat u.

– Ilgarigiday emas, – javob berdi Garri. – Endigina eshitganimda, ha, qattiq qo'rqgan edim... hozir esa oxiri borib ikkalamiz yakkama-yakka olishishimiz kerakligini hamisha bilganday his etyapman o'zimni...

– Damldorning o'zi hamroh bo'lishga otlana ekan, bashorat haqida senga o'zi aytib bermoqchi yoki biron nima ko'rsatmoqchi, degan xayolga borgan edik, – zavqla, ma'lum qildi Ron. – Umuman olganda, haq bo'lib chiqibmiz-da, a? Agar kunning bitganiga ishonchi komil bo'lganida, vaqtini behuda ketkazib, senga dars bermas edi... Demak, uning nazarida yana bir bor omon qolish imkonining bor!

– To'ppa-to'g'ri, – ma'qulladi qiz. – Qiziq, nimalarni o'rgatmoqchi ekan senga, a? Eng oliy himoya sehri... qarg'ishga qarshi qudratli qarg'ishlar... suqiga qarshi suqilar ijrosini o'rgat-sa kerak...

Hech narsani eshitmayotgan Garrining vujudini allaqanday iliqlik qamrab oldi. Yo'q, quyosh nurining tafti emas bu, albatta. Yuragidagi mahkam bog'langan g'ashlik tuguni asta-sekin bo'shashib bormoqda. Ming bekitishmasin, Ron bilan Germiona qattiq cho'chishganini juda yaxshi fahmlab turibdi. Biroq ular moxov yoki aqli noqisdan nari qochgan kabi tisarilmay, aksincha, dalda berishga urinishmoqda. Bu esa har narsadan qimmatdir.

– ... muhimi, chap berish nayrangi afsunini puxta o'zlashtirib olishing kerak, – fikrini yakunladi Germiona. – Sen-u Ron ikkalamizdan farqli o'laroq, bu yil nima bilan band bo'lishingni bilasan. Qiziq, imtihon natijalari qachon kelar ekan, a?

– Yaqin kunlarda kelib qolsa kerak, bir oy o'tdi-yu, – dedi Ron.

– Shoshmang, – kutilmaganda, maktab direktori bilan

kecha o'tgan suhbatni kutilmaganda esladi Garri. – Dambldor aytganday bo'ldi, imtihon natijalari bugun kelishini!

– Bugun? – chiyilladi o'rnidan irg'ib turgan Germiona.

– Bugun? Nega sen shuncha vaqtdan buyon... e Xudo... aytish kerak edi... Borib qaray-chi, pochta keldimikan...

O'n daqiqa o'tgach, Garri kiyinib qo'lida patnis bilan pastga tushdi. Oshxona stoli ortida yuzi pandaga o'xshab qolgan, o'tirgan o'rnida sapchib-sapchib qo'yayotgan Germionani ko'r-di. Sehrli tayoqchasi bilan muolaja qilayotgan missis Uesli esa ushbu o'xshashlikka barham berish uchun qo'ldan kelgancha urinmoqda.

– Bo'lmayapti, – dedi tashvishga tushgan missis Uesli «Tabibga yordam» deya nomlangan ma'lumotnoma mazmunidagi qo'llanmaning «Ko'kariq, tilinish va shilinishlar» bo'limini varaqlab. – Ilgari kor qilar edi-yu. Hech nimani tushunmayapman...

– Ko'kariqning qaytmasligi Fred bilan Jorjga kulgili tuyulsa kerak-da, – fikr bildirdi Jinna.

– Lekin qaytishi shart! – chirilladi Germiona. – Shu ahvolda qolmayman-u, axir!

– Qolmaysan qizim, tashvish tortma, – ovuntirgan bo'ldi missis Uesli. – Chorasini topamiz.

– Billning aytishicha, Fg'ed bilan Jog'j juda hazilkash yigitlag' ekan! – betashvish kulib boqdi Flyor.

– Nimasini aytasan, kulaverib ichaging uziladi, – o'sh-qirib berdi o'rnidan turib, oshxonaning u boshidan bu boshiga yura boshlagan Germiona.

– Missis Uesli, ertalab boyqush kelmaganiga ishonchingiz komilmi?

– Ishonchim komil, qizginam. Ko'rgan bo'lar edim, – vazmin ohangda javob berdi missis Uesli. – Soat endi to'qqiz bo'ldi, vaqt bor hali.

– Qadimiy runalardan¹ yiqilganimni aniq bilaman, – o‘zi bilan o‘zi gaplasha boshladi Germiona. – Bir narsani mutlaqo noto‘g‘ri tarjima qilgan edim. Yovuz kuchdan himoya fanining amaliy qismi ham yaxshi o‘tmagan. Bir narsani boshqa narsaga aylantirish fanidan o‘tgan imtihonni yaxshi topshirdim, degan fikrda edim. Endi bo‘lsa...

– Germiona, birpas uningni o‘chirib tursang, nima qiladi? – irillab berdi Ron. – Bo‘lsa bo‘lmasa o‘n bitta «oliy» olgan...

– Gapirma, gapirma, gapirma! – jazava qildi Germiona.

– Bilaman, barcha imtihonlardan yiqilganimni aniq bilaman!

– Kishi, rostdan ham, barcha imtihonlardan yiqilsa, nima bo‘ladi? – hammadan barobar so‘radi Garri.

Savolga yana Germiona javob berdi:

– Buni o‘quv yili oxirida professor Makgonagalldan so‘rab bilgan edim. Kelgusi hayotingni fakultet mudiri bilan muhokama qilishga to‘g‘ri kelar ekan.

Garrining qorni uvushib, nonushtaga ko‘p ovqat yeb yuborganiga afsus qildi.

– «Belstek»da bunday ishlag‘ boshqacha kechadi, – ta‘kidlab o‘tishni lozim topdi Flyor. – Nazag‘imda, sizning maktabingizdan ko‘g‘a yaxshig‘oq. Bizda imtihonlag‘ olti yillik o‘qishdan so‘ng qabul qilinadi. Bundan tashqag‘i...

Qo‘lini oshxona derazasi orqali osmonga uzatgan Germionaning g‘ayritabiiy qichqirig‘i Flyorning gapini bosib yubordi. Falakda uchta nuqta qorayib ko‘rinib, har lahza o‘tgan sari yiriklashmoqda.

– Boyqushlar, – xirilladi Ron, Germionaning yoniga sakrab kelib.

– Uchta, – aniqlik kiritdi Garri, ularga qo‘shilib.

– Har birimizga bittadan, – hovliqib pichirladi Ron bilan Garrining tirsagidan mahkam changallab olgan Germiona. – Voy oyijon... voy oyijon... voy oyi...

¹ **Runa** – german xalqlarining qadimiy yozuvi. Daniya, Shvetsiya va Norvegiya xalqlari I-II asrlardan XII asrgacha, X-XIII asrlarda Islandiya va Grenlandiya. Daniyaning Dalarna viloyati xalqlari esa XIX asrgacha foydalangan.

Malla rang ko'rkam boyqushlar Boshpana ustida pastlab, uyga olib keladigan yo'lak uzra parvoz qilishmoqda. Har biri tumshug'ida bittadan katta xatjild qisib olgan.

– Voy oyijon, – boz chinqirdi Germiona.

Missis Uesli bolalarni nari surib, oshxona derazasining tavaqalarini ochdi. Uchta boyqush oshxonaga ketma-ket kirib, bir tekis qatorga saf tortishdi-da, o'ng panjalarini barobar ko'tarib olishdi.

Pochta boyqushlariga yaqin borgan Garri o'rtadagi xat uning nomiga yo'llanganini anglab, titrayotgan qo'li bilan xatjild ipini qush panjasidan yechib bo'shatishga kirishdi. Chap tomonida turgan Ron ham xat yechdi. Dag'-dag' qaltirayotgan Germiona esa sho'rlik qushning ham tanasini titratib yubormoqda.

Hamma jim. Garri xatni bir amallab yechib oldi. Xatjildni tez ochib, ichidagi pergamentni chiqardi.

«Xogvars»

Mutlaqo oddiy sehrgarlik darajasining zaruriy saviyasiga ega bo'lish uchun topshirilgan imtihon natijalari

O'tadigan baholar:

Oliy (O);
Kutilmagan holat (K);
Yaxshi (Ya).

O'tmaydigan baholar:

Yomon (Yo);
Dahshat (D);
Troll (T).

GARRI JEYMS POTTERGA BELGILANGAN BAHOLAR:

Astronomiya fanidan – Ya;
Sehrli hayvonlarni parvarish qilish fanidan – K;
Afsun o'qish fanidan – K;

Yovuz kuchdan himoya fanidan – O;
Bashorat fanidan – Yo;
Gerbologiya fanidan – K;
Sehrgarlik tarixi fanidan – D;
Sehrli damlamalar tayyorlash fanidan – K;
Bir narsani boshqa narsaga aylantirish fanidan – K.

Xatni bir necha bor takror o'qib chiqqan Garrining nafas olish jarayoni har safar yengillashib boraverdi. Hammasi joyida! Bashorat va tarix imtihonlaridan yiqilishini shundoq ham bilar edi. Imtihon o'rtasida hushdan ketib qolganidan keyin, nima ham bo'lar edi. Qolganlarini esa talab darajasida topshiribdi! Garri barmog'ini baholar ustida yurgizdi. Bir narsani boshqa narsaga aylantirish, gerbologiya¹, sehrli damlamalar tayyorlash fanlaridan «kutilmagan holat» va eng zo'ri yovuz kuchdan himoya fanidan «oliy»!

U atrofqa qaradi. Germiona orqa o'girib olgancha, boshini xam qilib olgan. Ron esa turgan joyida yashnamoqda.

– Bashorat bilan tarixdan yiqilibmiz, ammo kimga ham kerak o'sha fanlar! – baxtiyor ovoz-la ma'lum qildi u. – Qani, almashtiraylik-chi...

Garri Ronning baholarini ko'rib chiqib, «oliy» baho topa olmadi.

– Yovuz kuchdan himoya fanidan o'zingni zo'r namoyon etishingni bilar edim, – Garrining yelkasiga urib qo'ydi Ron. – Zo'r yigitlarmiz, a?

– Zo'rsiz! – g'urur-la o'g'lining sochini siypaladi missis Uesli. – Yettita o'tadigan baho. Fred va Jorjga belgilangan baholarning umumiy yig'indisidan ham yuqori!

– Germiona? – asta chaqirdi Jinna, Germionaning o'giri-
lib qaramayotganini ko'rib. – Senda-chi?

– Yomon emas... – asta javob berdi Germiona.

– Qo'ysang-chi, – dedi yaqin borgan Ron, Germionaning

¹ **Gerbologiya** – o'simliklarning turlarini o'rganadigan fan. Odatda bu fanda shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan o'simliklar o'rganiladi.

qo'lidagi pergamentni changallagancha tortib olib. – To'ppa-to'g'ri... o'nta «oliy» va yovuz kuchdan himoya fanidan bitta «kutilmagan holat». Umid qilamanki, ko'ngling o'ksigani yo'q.

Germiona indamay, boshini siltadi. Garri kulib qo'ydi.

– Bo'ldi, MOSDdan qutuldik. Oldimizda endi SMJA!¹! – irjaydi Ron. Oyi, Garridan sosiska ortib qolmadimi, mabodo?

Baholarini yana bir bor ko'rib chiqqan Garri o'yga cho'mdi. Bundan yaxshi natijaga umid qilmagan, albatta. Faqat bir narsaga achinadi kishi, u ham bo'lsa, avror kasbini egallash orzusi bilan xayrlashishga to'g'ri kelishi. Sحرli damlamalar tayyorlash fanidan zaruriy saviyadagi baho olishga erishmadi. Bunday baho olishga umid ham qilmagan, albatta, biroq qorayib turgan mana bu kichkinagina «K»ga qarab, ichida nimadir uzilayotgan bo'ldi.

Qiziq, yaxshigina avror bo'lib yetishishi mumkinligi haqida u ilk bor O'limdan zavqlanuvchidan eshitgan edi. Biroq bu g'oya miyaga o'rnashib qolib, boshqa kasblar ko'zga ko'rinmadi. Bundan tashqari, bir oy muqaddam bashoratni eshitib, avrorlik kasbi shunchaki kasb emas qismati ekaniga to'la-to'kis ishonch hosil qilgan edi.

... ulardan biri, ikkinchisining qo'lidan ajal topadi, ikkalasidan faqat biri jangdan omon chiqadi...

Voldemortni topib o'ldirishni yagona maqsad, deb bilgan yuqori malakali sehrgarlar safida bo'lmay turib, peshanaga yozilgan qismatni qanday qilib munosib kutib olish mumkin, axir?

¹ SMJA – sehrgarlik mahoratining jiddiy attestatsiyasi.

VI BOB

DRAKONING SIRI

Keyingi bir necha haftani Garri Boshpanadan chiqmay o'tkazdi. Kunduz kuni bolalar juftliklarga bo'linib: Garri bilan Germiona, odatda, Ron bilan Jinnaga qarshi kvidish o'ynashdi. Germionaning harakatlari nihoyatda dag'al, Jinnaning o'yini esa yuksak mahorat-la kechdi. Shunday ekan, kuchlar teng bo'ldi. Oqshom mahali esa Garri missis Ueslining eplab-seplab tayyorlagan ovqati bilan ovora bo'lib, nimaki uzatilsa, uch porsiyadan tushirdi.

Ta'tilni yaxshi o'tyapti desa ham bo'lar edi, agar «Bashorat-u karomat gazetasi»da odamlar yo'qolib borayotgani, sababi noma'lum halokatlar va odam o'limi bilan yakun topgan turli hodisalar haqida har kuni xabar berib turilmaganida. Ba'zan bunday yangiliklarni, hali matbuotda e'lon qilinmay turib, Bill bilan mister Uesli olib kelishadi. Garri o'n olti yoshga to'lgan kun ham Rem Lyupin topib kelgan shum xabar tufayli rasvo bo'ldi.

Egnidagi qo'ng'ir kiyimi batamom putur ketgan Lyupin ozib-to'zib, sochi siyraklashib, ilgorigidan ham battar badqovoq bo'lib qolgan.

– Dementorlar tomonidan yana bir nechta hamla uyushtirilibdi, – dedi u, Garrining tug'ilgan kuniga atalib tayyorlangan tort bo'lagini domangir bo'lgan missis Ueslining qo'lidan olar ekan. – Shimoldagi allaqanday faqirona, tomi ustida Ajal belgisi ko'ringan uydan esa Igor Karkarovning murdasi topilibdi... Rostini aytsam, taajjubdaman. O'limdan zavqlanuvchilardan yuz o'giranidan keyin bir sal kam yil yashashga muvaffaq bo'ldi u. Siriusning ukasi Regulyus esa bunday qilmishidan ikki kun o'tarotmas omonatini topshirgan edi.

– Ha, nimasini aytasan, – qovoq soldi missis Uesli. – Balki, boshqa mavzuga o'tarmiz...

– Floran Forteskyu haqida eshitdingmi, Rem? – so'radi Bill, Flyorning qo'lidan qo'yarga qo'ymay uzatilayotgan vinoni

olib. – Uning...

– Diagon xiyobonida muzqaymoqxonasi bor, – gapga aralashdi noxushlikni his etgan Garri. – U meni bepul mehmon qilgan edi... Nima qilibdi unga?

– Do'konining holatiga qaraganda, olib ketishgan ko'rinadi.

– Qaysi gunohi uchun? – ovoz ko'tardi Ron.

Missis Uesli Billga yeb qo'ygudek o'qraydi.

– Kim biladi deysan? Biror-bir yomonlik qilgandir-da, ularga. Dilkash odam edi.

– Ha, aytganday, Diagon xiyoboni, – dedi mister Uesli.

– Aftidan, Ollivander ham gum bo'lgan ko'rinadi.

– Sehrli tayoqchalar ustasi-ya? – hayajonlanib ketdi Jinna.

– Xuddi o'sha. Do'kon bo'm-bo'sh. Jang alomati yo'q. O'zi bekinib olganmi yoki o'g'irlab ketishganmi – tushunib bo'lmaydi.

– Endi qayerdan sotib olamiz... tayoqchalarni?

– Boshqa ustalar ham bor, – javob berdi Lyupin. – Lekin Ollivander eng mohir usta. Agar dushman uni majburan o'z manfaatlariga ishlatadigan bo'lsa, ahvolimizga maymunlar yig'laydigan bo'ldi.

Noxush choyxo'rlik o'tgach, «Xogvars»dan zaruriy darsliklar ro'yxati ilova qilingan xatlar, Garriga esa bundan tashqari, xushxabar ham keldi: u kvidish jamoasining sardori etib tayinlanibdi.

– Sinfboshilarga beriladigan imtiyozlar endi senga ham havola etiladi! – quvonch-la qichqirdi Germiona. – Atayin ajratilgan hammom va hokazo!

– Qara, Charlida ham shunaqasi bo'lgan, – dedi Ron, sardorlik yengbog'ini asta silab. – Aqldan ozdiradigan gap bo'ldi-da, Garri! Endi sen mening sardorim bo'lding, agar jamoaga qaytarib olsang, albatta, xa-xa-xa...

– Diagon xiyoboniga boradigan vaqt yetdi. Ortiq cho'zib bo'lmaydi, – og'ir xo'rsindi missis Uesli. – Kelinglar, yaxshisi, shanba kuni borib kelaylik, agar dadangiz ishga bormasa, albatta.

Usiz men biron qadam bosmayman, o'sha xiyobonga.

– Oyi, nahotki siz «Jimjimador va siyoh dog'i» kitob do'konida «O'zingiz-Bilasiz-Kim» pistirma uyushtirib o'tiradi, deb o'ylasangiz? – hirlingladi Ron.

– Forteskyu bilan Ollivander hordiq chiqargani sihatgohga ketgan, deb o'ylaysanmi? – shu zahoti tutaqib ketdi missis Uesli. – Agar ushbu mavzuni hazil deb hisoblasang, uyda tek o'tir. O'zim borib, kerakli narsalaringni olib qaytaman...

– Hech ham-da! Sizlar bilan boraman. Fred bilan Jorjning do'konini o'z ko'zim bilan ko'rmoqchiman!

– Unday bo'lsa, yigitcha, zudlik bilan ong-la ulg'ayishni tavsiya etaman, – darg'azab o'shqirdi missis Uesli, barcha millari xuddi bir-biriga yopishib qolganday, «*Halokat yoqasida*» ko'rsatkichida to'plangan soatini yuvilgan sochiqlar taxi ustiga qo'yar ekan. – Aks holda, bizga hamroh bo'lishga hali yoshlik qilar ekansiz, degan xayolga borishim va bunday ahdim sizning «Xogvars»ga qaytishingiz masalasiga ham daxl qilib qolishi mumkin.

Ko'zi katta ochilgan Ron Garriga baqrayib qoldi. Onasi esa choyshab taxlangan savatni shartta ko'tardi-da, ustidagi soatni tebratgancha, oshxonadan shiddat-la chiqib ketdi.

– Ana xolos... hazillashib ham bo'lmaydi-ya...

Endi Ron Voldemort to'g'risidagi har xil bema'ni fikrlarini gapirmaslik, missis Uesli bilan ortiq aytishmaslikka harakat qilib yurdi. Shunga qaramay, shanba kuni nonushta vaqtida missis Ueslining asabiylashayotgani yaqqol bilindi. Jinna bilan Germionani u qadar quvontirmay, Flyor bilan uyda qolgan Bill, Garriga stol uzra pul to'la hamyon uzatdi.

– Menga-chi? – talab ohangida so'radi Ron, ko'zi qimidan chiqib ketguday bo'lib.

– O'zining puli bu, to'nka, – javob berdi Bill. – Garri ortiqcha vaqt sarflamasligi uchun scyfidan olib keldim. Hozir kishi o'z pulini olishi uchun kam deganda besh soat vaqt sarflaydi. Goblinlar xavfsizlik masalasida favqulodda choralar ko'rishmoqda. Ular hatto... ikki kun muqaddam Ark Filpotga rost gapi-

rish indikatorini¹ suqib ko'rishdi... qisqasi, hozir mana shunday ish tutgan ma'qul, ishonavering.

– Rahmat, Bill, – dedi Garri, hamyonini kissasiga solib.

– Big'am mehgi'bonki, akangiz, – suykaldi xurullagan Flyor, Billning burnini silab qo'yib.

Uning ortida o'tirgan Jinna ko'ngli aynib, bo'tqa solingan likopga qayt qilayotgan kishining harakatlariga taqlid qildi. Ron esa bo'g'ziga bodroq tiqilgan Garrining yelkasiga ura ketdi.

Havo aynib, osmonni bulut qoplagani bois plash kiyishga to'g'ri keldi. Hovlida vazirlik tomonidan atayin yuborilgan mashina kutmoqda. Bir vaqtlar ham xuddi shunaqa mashinalardan biri kelgan edi. Bolalar ortiqcha shovqin solmay, Boshpanadan nari ketishdi. Bill bilan Flyor esa oshxona derazasidan qo'l siltab qolishdi.

– Dadamga mashina berishgani yaxshi bo'ldi, – dedi Ron, orqa kursida Garri, Germiona va Jinna bilan bemalol o'tirgancha yaslanib joylashar ekan.

– Bunday dabdabaga ko'nikishni xayolingga ham keltirma, – yelka uzra o'girilib ogohlantirdi, vazirlik haydovchining yonida, ikki o'rinli divan o'lehamigacha cho'zilgan old o'ringidagi xotini bilan o'tirgan mister Uesli. – Garri uchungina berildi. U hozir o'ta muhim obyekt sanaladi. «Teshik qozon»da esa bizni qo'shimcha qo'riqlash xizmati kutmoqda.

Avrorlar batalonining shaxsiy tarkibi kuzatuvi ostida yurishni faraz qilib ko'rgan Garrining kulgisi kelmadi. U o'zi bilan ko'rinmas plashini olgan. Nazarida, shuning o'zi Damblorni qanoatlantirar ekan, demak, vazirlikka ham ushbu chora yetarli bo'lishi kerak edi. Umuman aytganda, ehtimol, ular Garrining ko'rinmas plashi borligini bilishmas ham... Oradan hech qancha vaqt o'tmay, mashina harakat tezligini pasaytirib, Charingkrossrouddagi «Teshik qozon» mayxonasining ro'parasida to'xtadi.

– Yetib keldik, – e'lon qildi ilk bor ovoz bergan haydov-

¹ Indikator (lotincha: indicator – ko'rsatkich) tekshirish (kuzatish) obyekti bo'lgan narsani yoki biror jarayonning borishini nazorat qiluvchi, kuzatib (qarab) boruvchi asbob, moslama.

chi. – Menga sizlarni kutib o'tirish buyurilgan. Qancha vaqtdan keyin qaytishlaringni taxminan bo'lsa ham ayta olasizmi?

– Chamamda, ikki soatdan keyin, – javob berdi mister Uesli. – Ana, qo'riqlash xizmati ham shu yerda, ishlarimiz soz!

Mashina oynasidan mister Uesli qaragan tomon o'girilgan Garri sevinib ketdi. «Teshik qozon» eshigi yonida birorta avror yo'q. Mayxona ostonasida «Xogvars»ning bahaybat, paxmoq soqolli qorovuli, o'zining krot¹ po'stinini qo'ymagan, Rubeus Xagrid turibdi.

Yonidan hayrat-la qarab o'tayotgan magllarni pisand qilmayotgan Xagrid ham Garrini ko'rib sevindi.

– Zo'rsan! – baland ovozda xitob qildi u, Garrini quchoqlagancha, umurtqa suyagini sindirib qo'yishiga sal qolib. – O'tbur... yo'g'-e, Tovuqqanot... ko'rganingda edi, Garri, ochiq havoda yurganidan baxtiyorligini...

– Uning baxtiyorligidan men ham xursandman, – dedi Garri, og'rigan qovurg'asini uqalab. – «Qo'riqlash xizmati» aslida sen ekaningni bilmabmiz!

– Xuddi shunday, men. Bir zamonlar bo'lganim kabi. Aslida vazirlik avrorlar bo'linmasini safarbar etmoqchi bo'ldi, lekin Dambldor qo'riqlash masalasini yakka o'zim uddalay olishimni bilib, vazirlik qarorini bekor qildirdi, – ma'lum qildi gerdaygan Xagrid, bosh barmoqlarini po'stinining yon kissalariga suqib. – Xo'sh, jildikmi?... Molli, Artur, yo'l boshlang...

«Teshik qozon» bunchalik kimsasiz, huvullab qolishi mumkinligini Garri tasavvur ham qilmagan edi. Mayxonaning hozir-u nozirilaridan birortasi yo'q. Faqat bir kishi, u ham bo'lsa, muassasa sohibi, yuzini ajin qamragan tishsiz Tom bor, xolos. Qariya boshini ko'tarib, kirib kelganlarga umid-la qaradi-yu, og'iz juftlashga ulgurmay, Xagridning rad javobini eshitdi:

– O'tirgani vaqt yo'q, Tom. O'zing tushunasan, «Xogvars» ishlari.

¹ **Krot** – yer ostida yashovchi, hasharo'xo'r sutemizuvchi hayvon. **Krot po'stin** – shu hayvon terisidan tikilgan po'stin.

Boshini ma'yus irg'ib qo'ygan Tom bokal¹ artishga kiritish ketdi. Garri, Germiona, Xagrid va barcha Ueslilar bar orqali mayxonaning chiqindi baklari turgan torgina, havosi nisbatan sovuq orqa hovlisiga chiqishdi. Xagrid qo'lidagi pushti soyaboni bilan tegishli g'ishtlarni urib chiqqach, devorda tosh ko'chaga olib chiqadigan arka² ochildi. Ular arkadan o'tiboq, atrofga alanglagancha, tek turib qolishdi.

Diagon xiyoboni juda o'zgarib ketgan. Sehrli damlamlarning tarkibiy qismlari, afsun kitoblari, turli-tuman qozonlar terilgan rangli vitrinalarga³ binafsharang mudhish plakatlar yelimlanib to'silibdi. Bular asosan vazirlik tomonidan yozda tarqatilgan xavfsizlik qoidalariga oid varaqalarning haddan ortiq kattalashtirilgan nusxalari.

Ba'zan qochoq O'limdan zavqlanuvchilarning oq-qora fotosuratlari uchramoqda. Dorixonaning devorida Bellatriks Lestrangning surati irshaymoqda. Ayrim do'konlar, misol uchun, Floran Forteskyuning muzqaymoqxonasi yopiq bo'lib, derazalariga taxta qoqilgan. Ko'chaning narigi betida allaqanday faqirona savdo rastalari zich o'rnatilgan. Birinchisi «Jimjimador va siyoh dog'i» kitob do'koni bo'lib, ustidagi kir, yo'l-yo'l ayvonga «*Maxluqqa aylanadigan odamlar, dementorlar va infernallardan asraydigan qudratli tumorlar*» yozuvi bitilgan karton qog'oz osib qo'yilgan.

Pakana bo'yli, o'tgan-ketganlarga bir siqim kumush tumor siltayotgan, zohiriy ko'rinishidan allaqanday shubhali shaxs Jinnaga baqraygancha missis Uesliga tavsiya qildi:

– Bittasini qizingizga olib bering, xonim. Bundan chiroyli bo'yinni asramasangiz bo'lmaydi.

Navbatchilikda bo'lganimda bormi, – dedi mister Uesli, sotuvchiga yeb qo'ygudek qarab, – seni hoziroq...

¹ **Bokal** (*yimoncha*: bankalis – idish) – suyuq ichimliklar ichishga mo'ljallangan cho'zinchoq shisha yoki billur idish, qadah.

² **Arka** – darvoza, ravoq.

³ **Vitrina** (*fransuzcha*: vitrine – deraza oynasi) – savdo korxonalarida, do'konlarda, suratxonalarda mollar, eksponatlar va shu kabilarning namunalarini qo'yish uchun maxsus jihozlangan oynavaad quti.

– To‘g‘ri, hech kimni hibsga olish kerak emas hozir, juda shoshib turibmiz, – dedi missis Uesli, qo‘lidagi ro‘yxatga qarab. – Fikrimcha, ishni Malkin xonimning huzuriga tashrifdan boshlash kerak. Germionaga yangi parad¹ korjoma tiktirish kerak, Ronning oyog‘i ham korjomasi ostidan chiqib qolgan... Garri-ning ham bo‘yi cho‘zilgan... Ketdik, tezroq yuringlar...

– Molli, biz nima qilamiz u yerga borib? Uchovlon Xagrid bilan borsin. Ikkalamiz «Jimjimador va siyoh dog‘i»ga kirib, darslik xarid qilaylik, – taklif qildi mister Uesli. – Shunda ishimiz tezroq bitadi.

Missis Uesli, xarid ishlarini tezroq tugatish istagi bilan bolalarni nazorat ostidan chiqarishdan hadiksirash tuyg‘usi orasida ikki bo‘linganday tashvishli ohangda g‘udulladi:

– Bilmadim, bilmadim. Sen nima deb o‘ylaysan, Xagrid? – so‘radi u davangirdan.

– Xavotir olma, Molli, – dedi Xagrid, kattaligi chiqindi tashlash qutisining qopqog‘iday keladigan kaftini betashvish siltab. – Jin ham urmaydi ularni.

Missis Uesli biroz ikkilanib turdi-da, oxiri ikki guruhga bo‘linishga rozi bo‘lib, eri va Jinna bilan birga «Jimjimador va siyoh dog‘i» tomon yo‘l oldi. Garri, Ron, Germiona esa Xagrid-ning ketidan Malkin xonimning do‘koni tomon ergashdi.

O‘tkinchi odamlarning yuz qiyofalari missis Ueslining qiyofasiday tashvishli va allaqanday ta‘qibli ko‘rinmoqda. Na tanish-bilishi bilan birpas gaplashish uchun to‘xtagan odam va na yolg‘iz o‘zi sayr qilib, bir do‘konni tomosha qilgach, boshqasiga kirayotgan odam ko‘rinadi. Kichik guruhlar tarkibida faqat ish bilan yurgan odamlar bir-biriga jips yaqinlashib, Garrining yonidan vizillab o‘tmoqda.

Malkin xonimning do‘koni yonida to‘xtagan Xagrid egilib, derazadan ichkariga qaradi.

– Hammamiz kiradigan bo‘lsak, sig‘maymiz, – taxmin

¹ **Parad** (fransuzcha: parade – to‘xtash, yetib kelish joyi; lotincha: paro – tayyor qilaman, tayyorlayman) – 1) qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini tekshirish maqsadida o‘tkaziladigan tantanali ko‘rik; 2) sportchilar, maktab o‘quvchilari kabilarning tantanali yurish ko‘rigi (bu yerda shu ma’noda).

qildi u. - Men, yaxshisi, shu yerda qolib, qo'riqchilik qilay. Bo'ladimi?

Garri, Ron va Germiona ichkariga kirdi. Do'kon dastlab kimsasizdek ko'rindi, lekin eshik yopilishi bilan ko'k va yashil tangachalar ila yaltirab ko'rinayotgan parad korjomalar osilgan ilgich ortidan tanish ovoz eshitildi.

- ... balki, e'tibor qilmay qo'ygandirsan oyi, men endi yosh bola emasman, o'zingga kerakli narsani o'zim xarid qila olaman.

Kimdir til taqillatgani so'ng tanish ayolning ovozi eshitildi:

- Qo'ysang-chi yoqimtoyginam, hech kim seni yosh bola degani yo'q. Oying to'g'ri aytyapti, hozir ko'chada yolg'iz yuradigan zamon emas...

- Siz, yaxshisi, to'g'nog'ichingizni qayoqqa o'qtayotganingizga qarang!

Ilgich ortidan cho'zinchoq yuzi rangpar, oq-sariq sochli, egniga chiroyli to'q yashil korjoma kiygan, yengi-yu etaklariga to'g'nog'ichlar qadalgan yigitcha chiqib keldi. U ko'zgu qarshisiga borib, o'z aksini diqqat bilan o'rgana boshladi va bir necha soniya o'tgachgina, Garri, Ron va Germionaning ko'zgudagi aksiga e'tibor berib, ko'zini qisib oldi.

- Agar sassiq hid sezsangiz, oyi, hayron bo'lmang, do'konga maglvachcha kirib kelibdi, - vishilladi Drako Malfoy.

- Mening do'konimda bunday so'zlarni ishlatmaslikni iltimos qilaman! - ilgich ortidan irg'ib chiqdi Malkin xonim, qo'lga chevar metri bilan sehrli tayoqcha ushlab. - Sehrli tayoqchalarni ham chiqarmaslikni talab qilaman! tez qo'shimcha qildi u, Garri bilan Ronning Malfoyga tayoqcha o'qtaganini ko'rib.

- Qo'ysangiz-chi nima qilyapsiz, bunga arzimaydi u... - pichirladi orqada turgan Germiona.

- Ha, albatta, ja qo'rqib ketdim, - tishining oqini ko'rsatdi Malfoy, pisand qilmay, - go'yo ular maktab tashqarisida sehr qo'llashga jur'at eta olishadi. Aytganday, Grenjer, ko'zingni kim ko'kartirdi? Ismi-yu manzilini aytsang, men unga

bir dasta gul yo'llagan bo'larmidim.

– Qani, bas qiling-chi! – darg'azab ohangda ovoz ko'tardi Malkin xonim, ortga qaragancha, madad kutib. – Xonim... o'zingiz ayting, iltimos...

– Tayoqchangizni yig'ishtiring, – buyurdi kiyimlar ortidan chiqib kelgan Narsissa Malfoy, Garri bilan Ronga o'qrayib. – Agar o'g'linga yana bir bor yomonlik qiladigan bo'lsangiz, o'sha amalingiz bu yorug' dunyoda qilgan so'nggi ishingiz bo'ladi, so'zimga ishonavering.

– Rostdanmi? – dedi, bir qadam oldinga tashlagan Garri, ayolning kibr-havoli bo'lishiga qaramay, singlisining yuziga o'xshab ketayotgan silliq, rangpar yuzidan ko'zini uzmay. – Bizni daf qilishlari uchun O'limdan zavqlanuvchi do'stlaringizni chaqirasizmi?

Malkin xonim chiyilladi.

– Iltimos, bir-biringizga bunday ayblov yog'dirmang... oxiri baxayr bo'lmaydi... tayoqchalarangizni yashiring, iltimos, – o'tindi u, yuragini changallab.

Garri tayoqcha yashirishni xayoliga ham keltirmadi. Narsissa Malfoy esa murdor irshaydi.

– Ha, Garri Potter... sen Damblorning erkatoyisan, albatta, shuning uchun ham o'zingni haddan ortiq katta olib yurasan. Bekor qilasan. Damblдор yoningda bo'lmay qoladigan fursat kelib qolishi mumkin.

Garri masxara qilganday boshini aylantirib, atrofga qarab chiqdi.

– Voy, aytganday, Damblдор qani? Ko'rinmaydi-yu?! Fursatdan foydalanib urinib ko'rmaysizmi? So'tak cringizga sherik qilib, qo'shni kamera topib berishar edimi!

Malfoy g'azab-la Garri tomon tashlandi-yu, haddan ortiq uzun etagini bosib olib, qoqilib tushgancha, Ronni xaxolatib kuldirdi.

– Onam bilan bunday ohangda gaplashma, Potter! – akilladi u, oyoqqa turishga urinib.

– Tinchlan, Drako, – to'xtatdi Narsissa, oppoq ingichka barmoqlarini o'g'lining yelkasiga qo'yib. – Ishonchim komilki,

Lyutsius ikkalamiz qo'shni bo'lgunimizcha, Potter Siriusning huzuriga yo'l olishga ulguradi.

Garri tayoqchasini balandroq ko'tardi.

– Unday qilma! – o'tindi Germiona, Garrining qo'lini mahkam ushlagancha, pastga tortar ekan. – O'ylab ish qil... quruq malomatga qolib ketasan.

Dag'-dag' titrayotgan Malkin xonim birpas depsinib turdi-da, oxiri o'zini hech nima ro'y bermayotgan kabi tutib, aftidan, shunday ish tutsa, chindan ham, hech nima ro'y bermasligiga umid qilgan, shekilli, Garriga yeb qo'ygudek o'qrayib turgan Malfoyga cngashdi.

– Nazarimda, yoqimtoyginam, chap yengingni yana biroz qisqartirsak bo'ladi, qani...

– A-a! – dodladi Malfoy, ayolning qo'liga urib. – Qayoqqa sanchyapsiz? Qaramaysizmi?! Bo'ldi, oyi... buni xarid qilish fikridan qaytdim...

U egnidagi korjomani yechdi-da, Malkin xonimning oyog'i ostiga uloqtirdi.

– Qanaqangi ifloslik haqida gapirganingni tushundim, Drako. Ta'kidlab o'tishim joizki, qaroring to'g'ri, – ma'qulladi Narsissa, Germionaga nafrat-la qarab. – Yur, yaxshisi, «Rishle lash-lushlari»ga boramiz.

Ona-bola do'konni viqor-la tark etar ekan, Malfoy Ronni qattiqroq turtib o'tishga urindi.

– Sal oshirib yubordingiz! – ovoz ko'tardi Malkin xonim, korjomani yerdan olgancha, qo'lidagi sehrli tayoqchani changyutkich kabi ishga solib.

Garri bilan Ron o'zlariga yangi korjoma tanlashga kirishib ketdi. Parishonxotir Malkin xonim esa Germionaga ham o'g'il bolalarning kiyimini taklif qilib, bolalar kiyim xarid qilishgach, ularni chiqish eshigigacha kuzatar ekan, tezroq jo'natib qutulishga oshiqayotganini yashira olmadi.

– Bo'ldimi? – zavq-la qarshi oldi ularni Xagrid.

– Deyarli, – dedi Garri. – Anavi ona-bola Malfoylarni ko'rdingmi?

– Ko'rdim, – xotirjam javob berdi Xagrid. – Xavotir

olma, Garri! Diagon xiyobonida qiliq ko'rsatgani ularning haddi sig'maydi.

Garri, Ron va Germiona bir-biriga ma'noli qarab, Xagridning bu qadar qulay gumrohligini biroz tarqatishmoqchi bo'lishdi-yu, Jinna bilan birga mister va missis Ueslilar kelib qolishgani bois ulgurishmadi. Ularning har biri kitob solingan og'ir paketlarni qorniga bosib olishgan.

– Hamma sog'mi? Korjoma xarid qildingizmi? – so'radi mister Uesli. – Juda soz. Endi, Fred bilan Jorjning do'koniga boramiz. Yo'l-yo'lakay dorixonada va «Ukkiko'zning Boyqushlar Imperiyasi» do'koniga kirib o'tamiz... jipsroq yuring, jipsroq. Tarqalib ketmang...

Modomiki, sehrli damlamalar tayyorlash fani o'tmishda qolib ketgan ekan, Garri bilan Ron dorixonada hech nima xarid qilishmadi, lekin «Ukkiko'zning Boyqushlar Imperiyasi» do'konida Xedvig bilan Cho'chrinstel uchun bir yashikdan boyqush quvonchi yemini xarid qilishdi. Shundan so'ng «Ueslilarning ajoyib ultrafokuslari» kulgili mollar do'konini qidira ketishdi.

– Vaqtimiz juda oz, – dedi har daqiqa soatiga qarab borgan missis Uesli. – Tez aylanib chiqamiz-da, mashinaga qaytamiz. Yaqin qoldik, shekilli... to'qson ikkinchi uy... to'qson to'rtinchi...

– Voy-bo'y! – xitob qildi Ron, yerga qoqilgan qoziq kabi turgan joyida qotib.

Vazirlik e'lonlari yopishtirib tashlangan zerikarli do'kon devori orasida egizaklarning kulgili mollar do'koni keskin ajrab, derazasi kishi ko'zini qamashtirib yuboradigan mushakbozlik kabi yarqirab ko'rinmoqda. Ko'chadagi odamlar g'ayriixtiyoriy ravishda qarab o'tib, ulardan ayrimlari hayratdan dong qotishmoqda. Chap vitrina aylanayotgan, pirillayotgan, sakrayotgan, yaltirab qichqirayotgan mollarning kishi ko'zini yoshlantirib yuboradigan cheksiz soni ila mahliyo qilsa, o'ng tomondagi vitrina-

ni vazirlik plakati kabi binafsharang, ammo matni neon¹-sariq harflar vositasida bitilgan plakat to'sgan:

*«O'zingiz-Bilasiz-Kim»dan nahotki qo'rqaysiz?
Undan qo'rqinchliroq narsa – ichburug'dir, bilarsiz?
Ongda dahshat-u umidsizlik avj olsa, ey darig',
Millat mag'lubiyatga uchrar, rang olar sariq!*

Kulib yuborgan Garri ingrash ovozini eshitib, o'girildi. Ko'zi shishadan farq qilmay qolgan missis Uesli past ovozda takrorlamoqda:

– «Ichburug'», «Ichburug'», «Ichburug'». Endi ularni o'ldirib ketishadi!

– Qo'ysangiz-chi! – e'tiroz bildirdi Ron Garriday quvonib. – Rosa boplashibdi!

Garri ikkalasi do'konga birinchi bo'lib kirishdi. Ichkarida olma tushgani joy yo'q. Peshtaxta oldiga yaqinlasha olmagan Garri atrofga qaradi. Tokchalarga terilgan qutilar shiflgacha yetgan. Egizaklar, badniyat gazaklarni yaratish ishlarini o'tgan yili «Xogvars»da oxiriga yetkazgan edi. Tokchada faqat bitta ezilgan yashik qolganini ko'rgan Garri, burundan qon chiqarish yong'oqholvasining bozori chaqqon ekan, degan xulosaga bordi. Yashik yonida soxta sehrli tayoqchalar solingan tunuka bankalar terilgan bo'lib, ularning eng arzoni, siltanganda rezina jo'ja yoki trusikka aylanib qolsa, eng qimmatli sho'rlik sehgarning gardaniga qarata zarb berar ekan. Tunuka bankalardan keyin gapga to'n kiydiradigan, imloviy xatolarni tuzatib boradigan o'ziyozar patqalam qutilari terilgan. Xaloyiq orasida ozgina oraliq joy hosil bo'lishi bilan, Garri peshtaxta oldiga suqilib kirdi. U yerda yog'ochdan yo'nib yasalgan odamcha qatl taxtasupasi ustidagi: «Qayta tiklanuvchan dor – sehrli, afsus qilmaysan!» yozuvi bitilgan qutiga o'rnatilgan haqiqiy dor tomon yurib bormoqda.

¹ Neon (lotincha) – Mendeleyev davriy sistemasining 0 (nolinch) guruhiga mansub kimyoviy element; havo tarkibida bo'ladigan rangsiz va hidsiz gaz (elektrlampochkalari, signal, reklama va shu kabilarni yoritish asboblari to'ldirish uchun ishlatiladi).

Taxminan o'n yoshli bolalar guruhi, ushbu odamcha harakatini hayrat-la tomosha qilmoqda.

Germiona bir iloj qilib peshtaxtadan sal naridagi katta shisha vitrina yoniga yetib borishga muvaffaq bo'lib, qaroqchilar kemasida turgan barno yigit bilan baxtiyorligidan es-hushini yo'qotib qolish darajasiga yetgan qizning tasviri tushirilgan yorqin rasmlı qutidagi yo'riqnomani ovoz chiqarib o'qimoqda:

«Qizlarning o'ngdan kelgan patentli¹ orzusi... Atigi bittagina oddiy tilsim o'qisangiz bas, o'ta sifatli, reallikning yuqori darajasiga ega, o'rtacha davomiylikdagi maktab darsiga mos kelib, kishi holatidagi o'zgarish deyarli bilinmaydigan o'ttiz daqiqali orzular og'ushiga kirib ketasiz. Ikkilamchi ta'siri: kishi yuzi hiron-bir qiyofa kasb etmay qolib, og'zidan biroz so'lak oqadi. Yosh bo'yicha cheklanishlar joriy etilgan, xususan: 16 yoshga to'lmagan bolalarga sotilmaydi».

– Axir, bu, – dedi Germiona, Garriga murojaat qilib, – sehr-joduning eng yuksak darajasi-yu!

– Aynan shu gaping uchun Germiona, bir qutisi senga bepul hadya etiladi, – eshitildi erkak kishining ovozi orqa tomondan.

Ikkalasining orqasida egniga to'q qizg'ish-binafsha korjoma kiyib, malla sochini alohida ajralib qolgan, yuzi baxtiyorlikdan yashnayotgan Fred ko'rindi.

– Ishlar qalay, Garri? – qo'l siqishib ko'rishishdi u. – Germiona, ko'zingga nima qildi?

– Nima qilar edi, anavi urishqoq teleskoplaring-da, – xo'rsindi Germiona.

– Jin ursin, unutibman-u, – peshanasiga urdi Fred, kissasini titkilab. – Ma, mana buni surt... bir soatga qolmay o'tib ketadi, – allaqanday tyubik² chiqarib, Germionaga uzatdi u. – Jorj

¹ **Patent** (lotincha: patens, patentis – aniq, ochiq) 1) ixtirochiga davlat patent idorasi tomonidan beriladigan, uning o'z ixtirosiga muallifligi va mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat. 2) savdo-sotiq yoki biror kasb-hunar bilan shug'ullanish uchun ruxsat berilganligi haqidagi hujjat.

² **Tyubik** – pasta, yelim, bo'yoq, moy kabi narsalar solib qo'yiladigan yumshoq metallardan yoki plastmassadan qilingan idish.

ikkalamiz o'z ixtirolarimizni dastlab o'zimizda sinab ko'ramiz. Shunday ekan, yonimizda g'urra qaytargich olib yurmasak bo'lmaydi.

– Xavfsizmi, ishqilib? – asabiy so'radi Germiona, sariq rang quyuq kremga to'la tyubikning qopqog'ini chiyotkorona ochib.

Xavfsiz, – tinchlantirdi Fred. – Yur, Garri, sen uchun alohida ekskursiya uyushtiraman.

U Garrini do'konning orqa tomoniga, ijrosi qarta va arqonlar vositasida amalga oshiriladigan fokuslar tasvirlangan stend mahkamlangan burchakka boshlab ketdi. Germiona jarohati bilan ovora bo'lgancha qoldi.

– Sehr ishlatilmaydigan fokuslar! – dedi Fred, quvonch-la stendga ishora qilib. – Maglizm masalasida tomi ketgan dadamday ishqibozlar uchun. Ko'p pul keltirmasa-da, daromadi barqaror. Yangilik-da, har qalay... Ana, Jorj ham shu yerda ekan...

– Ekskursiyami, deyman? – Garrining qo'lini kuch-la siqib, ko'rishishdi Fredning egiz ukasi. – Yur ichkariga, Garri, haqiqiy pul qanday qilinishini ko'rasan... Biron narsani ilib ketar ekansan, o'zingdan ko'r! – baqirdi u allaqanday bolachaga.

Bolacha darhol «Yeyishli Ajal belgilari – har qanday kishining ko'nglini behuzur qilib tashlaydi!» yozuvi bitilgan quti ichidan qo'lini tortdi.

Jorj stend yonidagi pardani tortib, qorong'iroq, xilvat-roq, tokchaga terilgan mollarning qadoqlari nisbatan kamtarinroq xonaga olib kiradigan eshikni ochdi.

– Yaqindan buyon jiddiyroq mahsulot ishlab chiqarishga kirishdik, – tushuntirish berishga kirishdi Fred. – Ish sal g'altiroq boshlandi...

– Garri, aytsam ishonmaysan, ko'pchilik, hatto vazirlikning aksariyat xodimlari ham Sapchitish qarg'ishini uddalay olmas ekan, – dedi Jorj. – Sababi ayon: ularning sendek ustoz bo'lmagan, – qo'shimcha qildi u.

– Ha... Shunda biz qarg'ish sapchitish shlyapalari kulgili chiqadi, degan xayolga bordik. G'oya shundan iboratki, sheri-

gingdan suqi qarg'ishini o'zingga yo'llashni so'raysan-da, keyin nima bo'lishini tomosha qilasan. Vazirlik esa jamiki shaxsiy tarkib uchun birato'la besh yuzta xarid qilsa bo'ladimi! Buyurtma ketidan yanada katta buyurtma tushyapti!

– Biz mahsulot scriyasining¹ ko'lamini kengaytirib, endi qarg'ish sapchitish qo'lqoplari-yu plashlarini ishlab chiqdik...

– Oqibati mudhish qarg'ishlarga qarshi kor bermasa-da, o'rta qudratli qarg'ishlardan himoya qilishi kafolatlangan.

– Umuman aytganda, yovuz kuchdan himoya masalasi bilan jiddiyroq shug'ullanishga ahd qildik. Axir, bu bitmas daromad-ku, -- davom etdi ruhlanib ketgan Jorj. -- Zo'r ish! Mana, qara, oniy zulmat kukuni. Perudan import qilamiz. Vaziyat zudlik bilan g'oyib bo'lishni taqozo etgan fursatda juda qulay narsa.

– Chalg'itish bombachalari esa tokchada uzoq turmaydi, -- davom etdi Fred, zohiriy ko'rinishidan klaksonni² eslatayotgan, chindan ham, qayoqqadir juftak rostlashga urinayotgan qora rang chiroyli jihozlarga imo qilib. -- Sezdirmay tashlab qo'ysang bo'ldi. Ko'zga ko'rinmas burchaklarga kirib ketishadi-da, turgan joyida chiyillay boshlashadi. Birovning e'tiborini chalg'itish maqsadida qo'llaniladigan ajoyib vosita.

– Zo'r-u! -- hayratlandi Garri.

– Ma, ol, senga, -- dedi Fred, bombochalardan bir juftini tutib olgancha, Garriga uloqtirib.

Shu payt parda ochilib, sochi qisqa olingan, egniga binafsha korjoma kiygan afsungar qizning boshi ko'rindi.

– Mister Uesli va mister Uesli. Xaridorlardan biri g'alat qozon so'rayapti, -- ma'lum qildi qiz.

Egizaklarga nisbatan «Mister Uesli» murojaati Garriga

¹ **Seriya** (lotincha: series – qator) 1) bir xil, o'xshash yoki umumiy belgi, xususiyatlari jihatidan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan narsalar guruhi (kitob, broshyura va shu kabilari); 2) qimmatbaho qog'ozlar, hujjatlar va shu kabilarning harf yoki raqamlar bilan guruhlanib belgilangan razryadi, kategoriyasi; 3) davomli kinofilmlarning har bir mustaqil bo'lagi.

² **Klakson** – tovushli signal uzatish qurilmasi va xususan signalning o'zi. Bu atama, ushbu qurilmalarni 1908-yildan e'tiboran ishlab chiqara boshlagan Klaxon Signals Ltd firmasi nomi bilan ommalashib ketdi. Klakson atamasining o'zi esa yunon tilidan olingan bo'lib, «g'uvullash» ma'nosini anglatadigan so'zdan hosil bo'lgan.

g'ayrioddiy eshitildi, biroq ular ushbu murojaatni tabiiydek qabul qilishdi.

– Rahmat Veriti, hozir chiqaman, – javob berdi Jorj, – Garri, istagan narsangni tanla, xo'pmi? Sen uchun bepul.

– Nimalar deyapsiz, men unday qila olmayman! – ovoz ko'tardi Garri, chalg'itish bombachalarining haqini to'lash uchun hamyonini chiqarib.

– Bu yerda sen biron nut bo'lsin, haq to'lamaysan, – qat'iy ohangda ma'lum qildi Fred, Garrining puliga qo'l siltab.

– Biroq...

– Ishimiz sarmoyasini kim berganini sira unutganimiz yo'q, – jiddiy ohangda davom etdi Jorj. – Yoqtirgan narsangni olaver. Faqat uni qayerdan olganing haqidagi savolga to'g'ri javob bersang bo'ldi.

Jorj xaridorlar masalasida sotuvchilarga yordam bergani chiqib ketdi, Fred esa Garrini asosiy zalga yetakladi. Germiona bilan Jinna hanuzgacha «Qizlarning o'ngdan kelgan patentli orzusi...»ga termilib turishibdi.

– Xonimlar, bizning «Afsonaviy fusunkor qiz»imizni hali ko'rganingiz yo'qmi? – qiziqdi Fred. – Unday bo'lsa, ortimdan yuring.

Hayajonlanib ketgan bir gala qiz deraza yaqinida qator terilgan yorqin pushti bankachalar atrofida hirlinglashmoqda. Germiona bilan Jinna har ehtimolga qarshi sal narida to'xtashdi.

– Diqqat qiling, iltimos! – g'urur-la e'lon qildi Fred. – Sevgi damlamasining anvoi navlari!

Jinna ishonqiramay qoshini ko'tardi.

– Ta'sir ham qiladi, degin?

– Ta'sir qilganda qandoq! Yigitning vazniga bog'liq holda yigirma to'rt soatgacha...

– Qizning jozibadorligiga bog'liq holda ham, – gapni bo'ldi, Fredning yonida kutilmaganda paydo bo'lgan Jorj. – Biroq biz ushbu damlamani tug'ishgan singlimizga sotmaymiz, – jiddiy qiyofa kasb etdi u. – Shundoq ham uning atrofida to'rt-beshtasi o'ralashib yuribdi...

– Ronning behayo bo'hton gapi, – xotirjam javob berdi

Jinna, biroz engashgancha tokchadagi pushti rang mitti idishlardan birini olib. – Mana bu nima?

– Husnbuzarlarni o'n soniya ichida kafolatli yo'qotish vositasi, – dedi Fred. – Teri qoplamasidagi chipqondan tortib, husnbuzargacha barcha qusurlarni yo'q qilib yuboradi, lekin mavzudan chalg'imagaylik. Sen allaqanday Din Tomas ismli shaxs bilan uchrashayotganing rostmi?

– Rost, – bosh iring'idi Jinna. – Ta'kidlab o'tish joizki, so'nggi bor ko'rganimda u to'rt yoki besh emas bir nusxada edi. Mana bular-chi?

U pushti va och binafsha tusli momiqqina sharchalar dumalab chiyillayotgan qafasga barmoq o'qtadi.

– Pigmey sharchalari, mitti momiqlar. Boqib ko'paytirishga ulgurmayapmiz, – tushuntirish berdi Jorj. – Maykl Kornerga nima qildi, o'ldimi?

– Tashladim uni. G'irt ahmoq ekan, – yelka qisdi Jinna, barmog'ini qafas chiviqdari orasiga suqib, sharchalarni o'ziga chorlar ekan. – Yoqimtoyligini!

– Rost aytasan, ajoyib mavjudotlar, singlisining gapini ma'qulladi Jorj. – Yigitlaringni haddan ortiq tez almashtirib yubormayapsanmi, a, o'zingga shunday tuyulmayaptimi?

Jinna ikkala qo'lini shartta biqiniga tiradi-da, missis Ueslidan zig'irday bo'lsin, farq qilmay qolib, akasiga yuzlandi. Nima uchun Jorj qo'rqqanidan bukhayib qolmadi, Garri hayron.


– Ishing bo'lmasin. Sendan esa - darg'azab o'shqirdi Jinna, qo'liga katta-kichik qutilarni ushlagancha, Jorjning yoniga yaqinlashgan Ronga o'qrayib. – Men haqimda bo'lar-bo'lmas mish-mish gap tarqatishni bas qilsang, cheksiz minnatdor bo'lar edim!

– Uch galleon to'qqiz sklat-u bir nut Ron, – hisoblab chiqdi Fred, bir quchoq qutilarga ko'z qirini tashlab. – To'la!

– Axir, men, sizga uka bo'laman-u! – e'tiroz bildirdi Ron.

– Bular esa bizning molimiz bo'ladi, – dedi Fred. – Mayli, bir nut o'tib beraman.

– Lekin menda uch galleon to'qqiz sklat pulim yo'q!



– Unday bo'lsa, hammasini joyiga qaytarib qo'y, – talab qildi Fred. – Qara, tokchalarni adashtirib yuborma, tag'in.

Ron qutilarning ba'zilarini qo'lidan atayin tushirib yuborib, barmog'i bilan Fredga uyatsiz qiliq ko'rsatdi va o'chakishganday, shu fursatda missis Uesli kelib qoldi.

– Yana bir marta ko'rsam, qo'lingni shunday sehrlab qo'yamanki, barmoqlaringni bir-biridan ajrata olmay qolasan, uqdingmi? – o'shqirib berdi u.

– Oyi, pigmey sharchalaridan olib bering, iltimos? o'tinib so'radi Jinna.

– Nima olib beray? – hushyor tortib so'radi missis Uesli.

– Yoqimtoyligini qarang, – barmoq o'qtab ko'rsatdi Jinna.

Pigmey sharchalarini ko'rish uchun qafas yoniga yaqin borgan missis Uesli gavdasi bilan to'sgan derazani ochib qo'ydi. Ayni shu paytda, ko'chada yolg'iz o'zi, qayoqqadir shoshib ketayotgan Drako Malfoy Garri, Ron va Germionaga ko'rindi. Egizaklarning do'koniga yelka uzra qarab qo'ygan Malfoy, soniya o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Iye, oyijonimiz qayerda qoldi? – qoshini chimirdi Garri.

– Aftidan, qochib qolgan ko'rinadi, – fikr bildirdi Ron.

– Sabab? – so'radi Germiona.

Garri o'yga toldi. Narsissa Malfoy o'z o'g'lini yolg'iz qo'yib yuborishiga ishonish qiyin, demak, o'g'li buning chorasini topish uchun ancha uringan.

Malfoyni yaxshi bilgan Garri, ushbu holatdan shubhalanib, atrofga o'g'rincha qarab chiqdi. Missis Uesli bilan Jinna pigmey sharchalari bilan ovora. Mister Uesli magllarning bilinmas belgi qo'yilgan qartalarini zo'r ishtiyoq-la tomosha qilmoqda. Fred bilan Jorj xaridorlarga xizmat ko'rsatmoqda. Vitrina-ning narigi tomonida turgan Xagrid ko'chadan o'tgan-ketgan odamlarni diqqat bilan kuzatmoqda.

– Yaqinroq keling, tez, – dedi Garri, yuk xaltasidan ko'rinmas plashini chiqarib.

– Voy, Garri... bilmadim, – dedi Germiona, missis Uesli

tomon qarab qo'yib.

– Tezroq! – darg'azab pichirladi Ron.

Germiona biroz ikkilanib turdi-da, sharttaplash ostiga kirdi. Hamma o'zi bilan o'zi shu qadar ovoraki, uchovlon bir zumda ko'zdan g'oyib bo'lganini hech kim payqamadi. Garri, Ron Germiona chiqish eshigi tomon bir iloj qilib o'tib olishdi-yu, ko'chaga chiqqach, Malfoyni ko'rishmadi.

– Anavi tomon ketayotgan edi, – asta pichirladi Garri, Xagridga eshittirmay. – Ketdik.

Uchovlon, Malfoy kirishi mumkin bo'lgan do'konlar ichiga vitrinalar orqali qaragancha, ko'cha bo'ylab lo'killab ketdi.

– Ana u! – pichirladi, old tomon qo'l o'qtagan Germiona.
– Chapga burildi. O'sha, shekilli.

– O'sha, – pichirlab tasdiqladi Ron.

Atrofga alanglagan Malfoy Digar xiyobon muyulishiga o'tdi.

– Tezroq, ko'zdan yo'qotib qo'yamiz, – shoshtirdi Garri.

– Shoshma, oyoqlarimiz ko'rinib qolyapti! – dedi Germiona.

Ko'rinmasplash hilpirab, bolalarning boldirini ochib yubormoqda. Ko'rinmasplash endi ularga torlik qilmoqda.

– Hozir buning ahamiyati yo'q, – qo'l siltadi Garri. – Tezroq!

Yovuz sehr vakillari qirilib ketgan, shekilli, ularning panohi bo'lmish Digar xiyobon ham huvullab qolibdi. Uchovlon yurgan yo'lida do'konlarning derazalariga qarab, hech zog'ni ko'rmadi. «Sababi ayon. Bunday qaltis zamonda o'xshash mol-larni, har qalay, ochiq-oydin xarid qilish – keti o'ylanmay qilingan ish sanaladi» xayoldan o'tkazdi Garri.

– Voy qo'lim, – Germiona Garrining qo'lini qattiq chimdilab, xayolini joyiga keltirdi.

– Jim! Qara! Ana u! – pichirladi qiz, Garrining qulog'iga.

Digar xiyobon do'konlari orasida Garriga yaxshi tanish bo'lgan «Borjin va D'Avilo» do'koni bor. Bir vaqtlar Garri niho-

yatda mudhish mollar sotiladigan ushbu do'konga g'ayriixtiyoriy ravishda kirib qolgan edi. Ichkarida, bosh suyaklar bilan qadimiy ko'zalar terilgan vitrinalar orasida Drako Malfoy ko'chaga orqa o'girib turibdi. O'sha kuni Garri ota-bola Malfoylardan bekinib, ichiga kirib olgan yirik javon ortidagi Malfoy deyarli ko'rinmaydi. U qo'lini kuchli siltagancha, peshtaxta yonidagi bukchaygan, sochi yog'li, yuzi g'azab bilan qo'rquv uyg'unlashgan qiyofali kishiga allanima tushuntirishga urinmoqda.

– Nimalar haqida gapirayotganini eshitsak edi! – xo'r-sindi Germiona.

– Muammo bo'lishi mumkin emas! – hayajon-la javob berdi Ron. – Hozir... ha, jin ursin...

Ronning yonida boyagi qutilardan bir nechitasi qolgan bo'lib, ularning eng kattasini ochar ekan, bir-ikkita mayda qutilarni tushirib yubordi.

– Mana, qarang, pinhonquloq! – dedi u.

– Ajoyib! – suyundi Germiona.

– Tovush o'tkazmaslik afsuni qo'llanilmagan, degan umiddaman, – dedi Ron, tanarang uzun arqonni yozib, bir uchini do'kon eshigining ostidagi tirqishga yo'llar ekan. Yo'q, qo'llanilmagan, – quvonch-la xitob qildi u. – Marhamat, eshiting!

Uchovlon boshini arqonga tutdi. Undan, radioqabul qilgichdan eshitilayotgan kabi Malfoyning ovozi baland, aniq eshitildi.

– ... sozlay olasizmi, yo'qmi?

– Balkim, – javob berdi Borjin, ishtiyoqsiz ovozda. – Ko'zdan kechirib chiqishim kerak. Do'konga olib kela olasizmi, uni?

– Yo'q, – qisqa qildi Malfoy. – Joyidan qo'zg'atish mumkin emas. Muhimi, uni qanday sozlash kerakligini tushuntirib bersangiz bo'ldi.

– Biroq ko'rmay turib, bunday ishni bajarib bo'lmaydi, – labini yaladi asabiylashgan Borjin. – Kafolat berib bo'lmaydi.

– Shunday deng? – dedi, istehzoli kulgan Malfoy, katta javon ortida ko'rinmay qolgan, Borjin tomon engashib. – Mabodo mana bu ishonchingizga ishonch qo'shmaydimi?

Garri, Ron va Germiona ichkarida nima bo'layotganini ko'rishga urinib ko'rishdi-yu, qattiq qo'rqib ketgan do'kon sohibining yuzidan boshqa narsani ilg'ay olishmadi.

– Og'zingizdan gullab qo'yadigan bo'lsangiz, qattiq pushaymon qilasiz. Oilamizning do'sti Fenrir Uolkni taniysizmi? Mushtarak ishimiz bilan vijdonan shug'ullanayotganingizni kuzatib borish maqsadida vaqti-vaqti bilan do'koningizga tashrif buyurib boradi.

– Bunga hojat yo'q...

– Buni men hal qilaman, – dedi Malfoy. – Ketadigan vaqtim bo'ldi. Yodingizdan chiqmasin, mana bunisini ko'z qorachig'iday asrashingiz shart. U menga kerak bo'ladi.

– Hozir olib ketasizmi?

– Esingizni yeb qo'ydingizmi? Qanday qilib ko'chada ko'tarib yuraman uni? Muhimi, sotib yubormang.

– Yo'q, albatta... ser.

Borjin bir vaqtlar Lyutsius Malfoyga ta'zim qilganday Drako Malfoyga ham chuqur ta'zim bajo ayladi.

Birovga churq etmang, Borjin, tushundingizmi? – tayinladi Malfoy. – Hatto onamga ham.

– Albatta, albatta, – po'ng'illadi Borjin, yana bir bor ta'zim qilib.

Chiqish eshigining qo'ng'irog'i qattiq jiringlab, ostona-da o'z ishidan mamnun Malfoy paydo bo'ldi. U Garri, Ron va Germionaning yonidan shu qadar yaqin o'tdiki, ko'rinmas plashning etagi hilpirab ketdi. Yuzidagi riyokorona tabassum xavotirga aylanib, toshday qotgan Borjin esa peshtaxta yonida qilt etmay qoldi.

– Nimalar haqida gapirishdi ular? – pichirladi Ron, pinhonquloqni yig'ishtirar ekan.

– Biror narsa tushunmadim, javob berdi o'yg'a tolgan Garri. – Malfoy nimanidir ta'mirlamoqchi... va nimanidir shu yerda qoldirishga ahd qildi... «Mana bunisini», – deya nimani ko'rsatdi u, ko'rmadingizmi?

– Ko'rinmadi. Javon ortida edi u... – dedi Ron.

– Gap bunday, bolalar, shu yerda qilt etmay turing, –

pichirladi Germiona.

– Nima qilmoqchisan?... – deyarli barobar so‘rashdi bolalar.

Germiona kutilmaganda plash ostidan shartta chiqib, vitrina qarshisida sochini tuzatgancha, do‘konning kirish eshigi tomon qat’iy odimladi. Eshik qo‘ng‘irog‘i jiringlashi bilan Ron pinhonquloqni tez yozib, eshik tomon yo‘llagancha, bir uchini Garriga uzatdi.

– Salom! Havoning yomonligini qarang, – dadil gap boshladi Germiona do‘kon sotuvchisiga murojaat qilib.

Germiona qandaydir quvnoq qo‘shiqni xirgoyi qilgancha, do‘kon ichida sayr qilib, buyumlarni tomosha qilishga kirishdi.

– Mana bu shoda sotiladimi? – so‘radi u, shisha vitrina yaqinida sekinlab.

– Bir yarim ming galleoningiz bo‘lsa, sotiladi, – sovuq ohangda javob berdi Borjin.

– O!... E-m-m... yo‘q, menda uncha pul yo‘q, – dedi Germiona, yo‘lini davom etib. Mana bu... ajoyib bosh suyagichi?

– O‘n olti galleon.

– Bu ham sotiladimi? Unga birov buyurtma bermadimi?

Borjin ko‘zini qisib qaradi. Nihoyat Garri qizning ko‘zlagan maqsadini fahmlab, qo‘rqib ketdi. Qiz ham siri ochilganini tushunib yetdi, shekilli, quvlikni yig‘ishtirib, muddaoga o‘tdi.

– Gap shundaki, m-m-m... hozirgina dargohingizni tark etgan yigitcha, Drako Malfoy, mening do‘stim bo‘ladi. Uning tug‘ilgan kuniga sovg‘a tanlamoqchiman. Balkim, u o‘ziga biron nima uchun buyurtma bergandir? Shu bois o‘sha narsani men ham xarid qilmasligim uchun... o‘ho‘...

Garrining fikricha, ushbu vaj ishonarli chiqmadi, aftidan, Borjin ham shunday xulosaga kelgan ko‘rinadi.

– Yo‘qoling, – qisqa qildi do‘kon sohibi. Eshitdingizmi, tez yo‘qoling ko‘zimdan.

Takrorlashga hojat bo‘lmadi. Germiona chiqish eshigi tomon oshiqdi. Borjin qiz ketidan odimlab, eshikni qarsillatib

yopgancha «Yopiq» yozuvi bitilgan taxtachani osib qo'ydi.

– Ha, tekshirib ko'rish kerak edi, albatta, – dedi Ron, Germionaning ustiga plash tashlab. – Biroq... tomdan tarasha tushganday...

Ron bilan Germiona yurgan yo'lida gap talashib, egizaklarning kulgili mollar do'koniga yaqin qolgandagina jim bo'lishga majbur bo'lishdi. Ko'chada, xavotir olib uchalasini qidiryotgan missis Uesli bilan Xagrid ko'rindi. Uchovlon ichkariga bildirmay kirib olgach, Garri ko'rinmas plashni yechdi-da, yuk xaltasiga sezdirmay yashirib qo'ydi. So'ng Ron va Germiona bilan birgalikda missis Ueslini do'konning orqa tomonida bo'lishgani, ehtimol, xaloyiq orasida yaxshi qidirishmaganiga ishontirishga kirishib ketdi.

VII BOB

DIVAN-KLUB

Ta'tilning so'nggi haftasi davomida Garrining fikr-xayolini faqat Malfoy haqidagi o'ylar egalladi. Digar xiyobonda nima ish qildi u? Do'kondan mamnun bo'lib chiqishiga nima sabab bo'ldi? Bunday holat sergak bo'lishga undamay qo'ymaydi, albatta. Chunki Malfoyni quvontirgan har qanday narsa juda xavfli narsa ekanligiga shubha yo'q. Alam qilgan joyi shundaki, Ron bilan Germiona uning xavfsirashiga sherik bo'lishmaypti. Har qalay, Malfoyga oid suhbatlar, Garrining nazarida, ikkalasini qiziqitirmay qo'ygan ko'rinadi.

Bolalar egizaklarning xonasiga yig'ilib olishgan. Germiona deraza tokchasiga joylashib, oyog'ini karton qutiga qo'yib olgancha «Davom etuvchilar uchun qadimiy runalar tarjimai»ni o'qib o'tiribdi.

– To'g'ri, Garri, Malfoyning xatti-harakati shubhali kechdi, – dedi u, boshini kitobdan istar-istamas ko'tarib, – ammo biz bu borada ming xayolga borish mumkinligiga doir umumiy fikrga keldik, shekilli-yu.

– Ehtimol, uning Nurafshon qo‘li buzilib qolgandir, o‘ychan fikr bildirdi supurgisining egilgan govronlarini to‘g‘rilashga urinayotgan Ron. – Esingizdami, ajin bosgan shunaqangi o‘yinchog‘i bor edi?

– «Yodingizdan chiqmasin, mana bunisini ko‘z qorachig‘iday asrashingiz shart» degan gapi-chi? – so‘radi Garri, bir million birinchi marta. – Nazarimda, Borjinning ixtiyorida ishdan chiqqan buyumning jufti bor. Malfoyga esa ikkalasi kerak.

– Shunday deb o‘ylaysanmi? – loqayd g‘udulladi Ron, supurgisining dastasidan qurib qolgan loy bo‘lagini ko‘chirib.

– Ha, o‘ylayman, – tasdiqladi Garri, so‘ng Ron ham, Germiona ham indamaganini ko‘rib, qo‘shimcha qildi: – Malfoyning otasi Azkabanga qamalgan. Agar u otasi uchun o‘ch olish payida yurgan bo‘lsa-chi?

– O‘ch oladi? – taajjub-la ko‘z pirpiratdi Ron boshini ko‘tarib. – Malfoy-ya? Qanday qilib?

– Bilmayman! – ovoz ko‘tardi Garri. – Lekin bir baloni boshlagani aniq va, menimcha, jiddiy e‘tibor qilish kerak bunga. Uning otasi O‘limdan zavqlanuvchi, shunday ekan...

Kutilmaganda miyasiga dahshatli fikr kelgan Garrining gapi og‘zida qolib, Germionaning orqa tomoniga, derazaga baqraygancha tek qotdi.

– Garri? – tashvishlandi Germiona. – Senga nima qildi?

– Yana chandig‘ingga og‘riq kirdimi? – xavotirlandi Ron.

– U o‘zi O‘limdan zavqlanuvchi, – dedi Garri past ovozda. – Otasining izidan borib, o‘rnini egallagan.

Biroz kechgan sukunatdan so‘ng Ron xandon otib yubordi.

– Malfoy-ya? Garri, axir, u endigina o‘n olti yoshga to‘ldi-yu! – e‘tiroz bildirdi u. – «O‘zing-Bilasan-Kim» o‘z safiga yosh bolani qabul qilgan, deb o‘ylaysanmi?

– Ehtimoli o‘ta past taxmin bu, Garri, – gapni kesdi Germiona. – Nega endi sen shunday xayolga?...

Chunki Malkin xonim uning yengini shinarib qo‘ymoqchi bo‘lganida, Malfoy, hali ayolning qo‘li yetmay turib,

o'kirgancha qo'lini tortib oldi. Chap qo'lini. O'sha qo'lining teri qoplamasiga Ajal belgisi tasvirlangan.

Ron bilan Germiona bir-biriga qarab qo'yishdi.

– Nima desam ekan... – cho'zdi Ron, bunday taxminiy sharh unga yetarli bo'lmaganini anglatib.

– O'shanda, Garri, menimcha, u do'kondan tezroq chiqib ketmoqchi bo'ldi, – dedi Germiona.

– Borjinga nimani ko'rsatganini biz ko'rmadik, – gapida turib oldi Garri. – Lekin qariya rostakamiga cho'chib ketganiga hammamiz guvoh bo'ldik. Qo'lga tasvirlangan Ajal belgisini ko'rsatgani aniq. Malfoy Borjinga kim bilan muomala qilayotganini anglatib qo'ydi. Borjinning shu zahoti mulozamat qila boshlaganini o'zingiz ko'rdingiz!

Ron bilan Germiona yana bir-biriga boz qarab qo'yishdi.

– Men u qadar amin bo'lganim yo'q, Garri, – fikr bildirdi Germiona.

– Men ham «O'zing-Bilasan-Kim» uni o'z safiga qabul qilgan, deb o'ylamayman... – dedi Ron.

O'zining haq ekaniga ishonchi komil bo'lgan Garri kir kvidish kiyimini shartta changalladi-da, zarda qilgancha, xonadan chiqib ketdi. Kir yuvish, narsalarni yig'ishtirib, safarga hozirlash ishlarini so'nggi fursatga qoldirmaslikni missis Uesli anchadan buyon ta'kidlab kelmoqda. Zinadan tushar ekan, qo'li-da bir to'p endigina dazmol bosilgan kiyim ko'tarib kelayotgan Jinnaga ro'baru bo'ldi.

– Oshxonaga kirishga oshiqmaganing ma'qul. U yerda keragidan ortiq Xlorka bor.

– Ehtiyot-la kirib, bosib olmaslikka harakat qilaman, – kulib boqdi Garri.

Chindan ham, Flyor to'rida kerilib o'tirgancha, Bill ikkalasining bo'lajak to'yi haqida gapirib, jag'i tinmayapti. Labini qimtib olgan missis Uesli esa o'zini o'zi mustaqil va tez tozalayotgan Bryussel karamini tomosha qilib o'tiribdi.

– Bill ikkalamiz kelinga ikki nafag' dugona yetadi, degan qag'og'ga keldik. O'ylaymanki, Gabg'iel bilan Jinna ikkalasi juda chig'oyli ko'g'inadi. Ikkalasiga oqish tilla tusli ko'ylak

olib beg'moqchiman. Jinnaning sochiga pushti g'ang o'tig'masa kerak.

– A, Garri! – baland ovozda xitob qildi missis Uesli, Flyorning monologini bo'lib. – Kelganing yaxshi bo'ldi! Ertaga temir yo'l vokzaliga qanday borishimizni aytib bermoqchi edim senga. Vazirlik biz uchun yana mashina ajratadigan bo'ldi. Vokzalda esa avrorlar qo'riqchilik xizmatini o'taydi...

– Boms ham bo'ladingi? – so'radi Garri, missis Uesliga kvidish formasini uzatib.

– Menimcha, yo'q. Arturning gapiga qaraganda, u boshqa joyda navbatchilik qiladi.

– O'ziga mutlaqo qag'amay qo'yibdi, o'sha Boms, – fikr bildirdi Flyor, choy qoshig'ining tashqi tomoniga qaragancha, o'z husniga mahliyo bo'lib. – Bekog' qiladi, agag' figg'imni bilmoqchi bo'lsangiz...

– Ha, azizam, rahmat, – kesatdi missis Uesli, Flyorning gapini bo'lib. – Garri, sen borib, narsalaringni yig'ishtir. Bu ishni bugun qilib qo'ygan ma'qul, har safargiday, aynan yo'lga chiqish paytida ivirsimaslik uchun.

Chindan ham, certasiga ertalab, yo'lga chiqish jarayoni odatdagidan silliq kechdi. Vazirlik mashinalari Boshpanaga yaqin kelganda hamma hovliga chiqishga ulgurgan edi. Sandiqlar tayyor, Maymoqoyoq savatga, Xedvig, Cho'chrinstel va Jinnaning Arnold laqabli pigmey sharchasi o'z qafaslariga qamalgan.

– Orevuar, Gag'g'i, – o'pib xayrlashdi Flyor.

Ron ham o'pich olish uchun oldinga intildi-yu, Jinnaning atayin uzatilgan oyog'iga chalinib, Flyorning oyog'i ostida cho'zilib qoldi. Aft-angori loy bo'lgan bechora Ron rosa jahli chiqib, rangi qip-qizargancha, hech kim bilan xayrlashmay, mashinaga kirib ketdi.

Kings-kross vokzalida ularni sevinib turgan Xagrid emas magllarning qora kostyumini kiyib olgan ikki nafar soqolli badqovoq avror qarshi olib, mashinalar to'xtashi bilan ikki yonga turishdi-da, jamoani vokzal binosiga indamay kuzatib borishdi.

– Tez o'ting, – shoshirdi missis Uesli, qo'riqchilik xizmatining og'irligidan biroz xijolat bo'lib. – Garri, sen birinchi

bo'lib, anavi amaki bilan...

Missis Uesli avrorlardan biriga savol nazari bilan qaradi. Avror bosh irg'ib, Garrini tirsagidan tutdi-da, to'qqizinchi va o'ninchi platformalar¹ orasidagi to'siq tomon yetakladi.

– Rahmat, o'zim mustaqil yura olaman, – achchiqlandi Garri, qo'lini tortib.

U ming'aymas hamrohini nazar-pisand qilmay, arava-sini tikka temir to'siqqa qarata itarib ketdi. Ikki soniya o'tar-o'tmas pag'a-pag'a dud burqsitib chiqarayotgan to'q qizil «Xog-vars-Ekspress» yonidagi odam to'la to'qqiz butun to'rtdan uchinchi platformaga chiqdi. Yana bir necha soniyadan so'ng unga Germiona bilan barcha Ueslilar kelib qo'shildi.

Garri haligacha badqovoq avrorini pisand qilmay, Ron bilan Germionaga imo ila bo'sh kupe² qidirishni taklif qildi.

– Hozir biz sen bilan bora olmaymiz, Garri, – ma'zur ohangida rad etdi Germiona. – Ron ikkalamiz sinfboshilar vagoniga borishimiz, so'ng poyezd yo'laklarida biroz navbatchilik qilishimiz kerak.

– Ha-ya, unutib qo'yibman-u, – po'ng'illadi Garri.

– Atigi bir necha daqiqa qolibdi, tezlashing, – shoshirdi missis Uesli. – Xo'p, mayli, Ron, yaxshi o'qigin...

– Mister Uesli, ikki og'iz gapim bor edi sizga, – dedi kutilmaganda Garri.

– Ha, albatta, – hayron bo'ldi mister Uesli, Garri bilan bir chetga chiqib.

Garri o'ylab-o'ylab, o'z shubhasini birovga aytadigan bo'lsa ham aynan mister Uesliga aytish kerak, degan xulosaga keldi. Birinchidan, u vazirlikda ishlaydi va zarur bo'lsa, qo'shimcha tergov harakatlarini amalga oshirishi mumkin. Ikkinchidan esa bildirgan fikri uchun so'kib bermasa kerak.

Missis Uesli bilan badqovoq avror ko'z qiri ila qarab

¹ **Platforma** (*fransuzcha*: plate-forme – tekis, yassi shakl; maydoncha) – temir yo'l stansiyalarida yo'lovchilarning poyezdga chiqish yoki tushishi, yuk tushirish yoki ortish uchun temir yo'lga nisbatan balandroq qilib ishlangan uzun sahn, maydoncha.

² **Kupe** (*fransuzcha*: coupe – couper – qirqmoq, bo'lmoq) – vagonning bir necha passajir uchun ajratilgan alohida bo'lmasi.

qolishdi.

– Diagon xiyoboniga borganimizda... – gap boshladi Garri, biroq mister Uesli yuzini burishtirib, Garrining nima demoqchi ekanini fahmlagan bo'ldi.

– Aftidan, Ron va Germiona uchalangiz go'yo do'konda bo'lgansiz-u, aslida qayerga borib qaytganingizni bilib olaman, shekilli, a?

– Siz qayerdan bila?...

– Garri, unutma, qarshingda Fred bilan Jorjni katta qilgan odam turibdi.

– A... ha... Biz do'konda bo'lmaganmiz, o'shanda.

– Juda soz. Endi qilgan qilmishlaringni ayt.

– Biz... Ko'rinmas plash ostida Drako Malfoyning ketidan yurib, qilgan ishini poyladik.

– Bunga biron-bir sabab bor edimi yoki ko'ngil tusab qolgani shu bo'ldimi?

– Malfoy bir baloni boshlaganday ko'rindi, nazarimda, – dedi Garri, mister Ueslining domangir va ayni vaqtda istehzoli qiyofasiga e'tibor qilmay. – Onasidan ajrab, qochib qoldi. Men buning sababini bilishga ahd qildim.

– Ha, albatta, – samimiy xo'rsindi mister Uesli. – Xo'sh, tagiga yetdingmi?

– U «Borjin va D'Avilo»ga kirib, do'kon sohibini allanimani ta'mirdan chiqarishga majbur qildi, – javob berdi Garri. – Bundan tashqari, Borjin nimanidir Malfoy uchun saqlashi kerak ekan. Aftidan, jufti ishdan chiqqan buyumga o'xshaydi. Ha, yana bir gap... – chuqur xo'rsindi Garri, – Malkin xonim ushlamoqchi bo'lgan fursatda, Malfoy chap qo'lini keskin tortib olganini ko'rgan edik. Nazarimda, o'sha qo'lida Ajal belgisining tasviri bor. Fikrimcha, u otasining o'rniga O'limdan zavqlanuvchi bo'lib olgan.

– Garri, – dedi mister Uesli, biroz esankirab turgach, – «O'zing-Bilasan-Kim» o'n olti yoshli bolani o'z safiga qo'shib olishiga sal shubha qilaman...

– «O'zingiz-Bilasiz-Kim» o'z safiga kimni qabul qilishiyu kimni qabul qilmasligini siz qayerdan bilasiz? – darg'azab

ovoz ko'tardi Garri. – Ma'zur tuting, mister Uesli, nahotki tergov o'tkazish uchun sabab ko'rmayotgan bo'lsangiz? Nimaningdir ta'mirdan chiqarilishi Malfoy uchun juda zarur. Ushbu maqsadga erishish uchun u hatto Borjinga tahdid solishga ham tayyor edi. Demak, gap, allaqanday xavfli buyum ustida bormoqda, shunday emasmi?

– To'g'risini aytadigan bo'lsam, Garri, bunga ishonchim komil emas, – asta ma'lum qildi mister Uesli. – Lyutsius Malfoyni hibsga olganimizda, uyini astoydil tintuv qilib, shubhali ko'ringan borki narsalarni musodara qilganmiz.

– Demak, nimanidir o'tkazib yuborgansiz, – o'jarlik-la, e'tiroz bildirdi Garri.

– Ehtimol, – dedi mister Uesli.

Biroq Garriga mister Ueslining ushbu so'zi bahslashishni istamagan ohangda eshitilganday tuyuldi.

Hushtak eshitildi. Hamma poyezdga joylashgan, eshiklar yopilmoqda.

– Ketar vaqting bo'ldi, – xavotirlandi mister Uesli.

– Garri, tezroq, – qichqirdi missis Uesli.

Garri poyezdga qarab yugurdi. Mister Uesli sandiq ortishga unga yordamlashdi.

– Bolaginam, Rojdestvo¹ bayramiga Damblдор bilan birga qaytasan. Buning barcha tafsilotlarini kelishib qo'yganmiz u bilan. Shunday ekan, ko'p o'tmay, yana sog'-salomat yuz ko'rishamiz, – dedi missis Uesli, Garri yopgan eshik darchasi orqali. – Xayolingni yig'ib, ehtiyot bo'lib yur, xo'pmi? Ha, keyin... – shosha-pisha davom etdi u, poyezd tezlik olar ekan, – esli bola bo'l... Har qanday ishlarga aralashib yurma... – qichqirdi u, poyezd bilan teng yugurgancha.

Poyezd muyulish ortiga o'tib, missis Uesli ko'zdan g'o'yib bo'lguncha Garri qo'l siltab bordi. Shundan so'ng atrofga alanglab, qolganlarni qidirdi. Ron bilan Germiona o'z

¹ **Rojdestvo** (ruscha: Rojdestvo – tug'ilish) – Iso alayhissalomning tug'ilgan kuni munosabati bilan joriy etilgan bayram. Xristian dinining asosiy bayramlaridan biri. Iso tug'ilgan kun sharafiga cherkov joriy etgan. 25-dekabrda (ayrın mamlakatlarda Yuliy taqvimi bo'yicha, koshqalarida Grigoriy taqvimi bo'yicha) nishonlanadi.

maskanlariga ketgan, sal narida Jinna dugonalari bilan vay-sayapti. Garri sandig'ini tortgancha, qiz tomon odimladi.

Hammaning e'tibori unda. Ba'zilar hatto yuzini kupe eshigining oynasiga bosib olgancha, ochiqdan ochiq do'layib qarashmoqda. «Bashorat-u karomat gazetasi»da chop etilganidan so'ng atrofda lang ochiq og'izlar, baqraygan ko'zlar soni yanada ortishini Garri bilar edi, albatta. Biroq bari bir haddan ortiq e'tibor uning joniga tekkan.

– Kupe qidiramizmi? – so'radi u, Jinaning yelkasiga qo'l tekkizib.

– Sen bilan bora olmayman, Garri, – to'g'risini aytdi Jinna. – Dinni topishni va'da qilgan edim. Uchrashguncha!

– Tushundim, – dedi Garri.

Yoz davomida birga bo'lishlariga ko'nikib qolgani uchun bo'lsa kerak, Jinaning uzun malla rang sochini tebratib uzoqlashayotganini ko'rish, negadir Garriga yoqmadi. Garri atrofga alangladi. Hamma joyda hayrat-la tikilib turgan qizlar.

– Salom, Garri! – eshitildi erqa tomondan tanish ovoz.

– A. Nevill! – yengil tortdi Garri, qizlar orasidan ehtiyot-korona o'tib kelayotgan kulchayuzli o'rtog'ini ko'rib.

Uning ortidan uzun sochli, yirik ko'zi xira rang qiz ham kelmoqda.

– Salom, Garri, – ko'rishdi qiz.

– Luna, salom, ishlaring yaxshimi? – so'radi Garri.

Qiz ko'ksiga bosib olgan jurnal muqovasida, uning ichida bir juft bepul arvohkulyar borligi ma'lum qilingan.

– Demak, «Haqiqatgo'y» jurnalining ishlari ham yomon emas? – so'radi Garri.

Garri faqat mana shu jurnalagina bergan mashhur intervyusidan¹ so'ng unga hurmat-la qaraydigan bo'lib qolgan edi.

– Juda zo'r! – ma'lum qildi Luna hayratlanib. – Adadi borgan sari oshib bormoqda!

¹ **Intervyu** (inglizcha: uchrashuv) – jurnalistning bir yoki bir nechi shaxs bilan dolzarb masalalar yuzasidan suhbat.

– Keling, biron-bir kupega joylashaylik, -- taklif qildi Garri.

Uchovlon diqqat bilan razm solayotgan ming'aymas xaloyiqning kuzatuv ostida poyezd bo'ylab odimlay ketdi. Niho-yat bo'sh kupe topilganidan quvongan Garri darhol ichkariga kirib joylashdi.

– Senga hamroh bo'lganimiz uchun ular bizga ham baqrayishmoqda, – dedi Nevill, Luna bilan o'zini ko'rsatib.

– Sizlar ham vazirlikda bo'lganingiz uchun baqrayishmoqda ular, – dedi Garri, sandig'ini yuk tokchasiga joylab, – o'qigan bo'lsangiz kerak, «Bashorat-u karomat gazetasi» sarguzashtimiz to'g'risida yuz bor yozdi.

– O'qidim. O'sha to's-to'polon dastidan buvim rosa achchiqlanib, so'ksa kerak, degan xayolga borgan edim, – dedi ko'zi katta ochilgan Nevill. – U esa, aksincha, suyundi. Aytishi-cha, otamning munosib o'g'li bo'lib o'sayotgan emishman. Mana, hatto yangi tayoqcha ham olib berdi!

Nevill kissasidan sehrli tayoqchasini chiqarib Garriga ko'rsatdi.

– Olcha va yakkashox ot tuki, – maqtandi u, Ollivander sotgan so'nggi tayoqchalardan biri bo'lsa kerak. Chunki ertasi kuni u g'oyib bo'ldi... Hoy, Trevor, qayoqqa? Qani, ortga qaytchi!

Nevill ozod bo'lishga yana bir bor urinib ko'rgan qurbagasi ortidan kursi ostiga sho'ng'idi.

– Garri, DA jamiyati bu yil ham faoliyat ko'rsatadimi? -- qiziqdi Luna, jurnal o'rtasiga yopishtirilgan arvohkulyarni ajratib.

– Ambrij yo'q ekan, jamiyat faoliyatining ham ma'nisi yo'q, -- javob berdi Garri, kursiga joylashib.

Kursi ostidan chiqayotgan Nevill boshini urib oldi.

– Menga esa mashg'ulotlaring yoqar edi, – dedi u, yuzi xafagarchilik qiyofasini kasb etib. -- Sen menga juda ko'p narsalarni o'rgata olding!

– Menga ham yoqar edi, – vazmin ohangda fikr bildirdi Luna. – Bu hatto, qaysidir ma'noda do'stlikka ham o'xshab ketar

edi.

Lunaning og'zidan ko'pchilik xijolat tortib qoladigan gaplar tez-tez chiqib turadi. Garri hozir ham xijolat bo'lib, qizga rahmi keldi-yu, javob berishga ulgurmay qoldi. Kupe eshigining ortida pichir-pichir va hiring-hiring ovoz eshitildi. Eshik oynasi orqali u yerda to'rtinchi sinfda tahsil ko'radigan qizlar turgani ko'rinmoqda.

– Sen ayt!

– O'zing ayt!

– Xo'p, mayli, men aytaman!

O'ziga haddan ortiq ishongan, qora ko'zi katta ochilgan, iyagi biroz oldinga chiqqan, qora sochi uzun qiz eshikni shartta ochdi.

– Salom, Garri! Men Romildaman. Romilda Veyn, – baland ovozda ishonch-la c'lon qildi u. – Kupemizga o'tmay-sanmi? Sen bular bilan o'tirishga majbur emassan, – bejama pichirlab qo'shimcha qildi u. Trevor qidirayotgan Nevillning kursi ostidan chiqib turgan yo'g'on dumbasi va bepul arvohkulyarni taqib olib, aqlidan ozgan rangli boyqushga o'xshab qolgan Lunaga imo qilib.

– Bular mening qadrdon do'stlarim, – sovuq ohangda javob berdi Garri.

– O-o! – o'sal bo'ldi Romilda. – Shunaqami! Unda mayli.

Qiz eshikni surib yopgancha, kupeni tark etdi.

– Hamma negadir sening do'stlaring odamshavanda bo'lishi shart ekaniga komil ishonch-la qaraydi, – xijolatda qol-dirar darajada dangal ta'kidlab qo'ydi Luna.

– Hayotda uchratgan eng yaxshi do'stlarim sizlar, – oddiygina javob qildi Garri. – Ularning hech qaysi biri o'sha kuni vazirlikda bo'lishmagan, yonimda turib jang qilishmagan.

– Ha, bu gaping ko'ngilni ko'taradi, – dedi yashnab ketgan Luna.

Qiz arvohkulyarni peshanasiga ko'tarib, «Haqiqatgo'y» mutolaasiga kirishib ketdi.

– Biroq u bilan biz emas sen yuzma-yuz turding, dedi.

sochiga allanima ilashgan Nevill Trevorni tutgancha, kursi ostidan chiqib. – Bilasanmi, buvim sen haqingda nima dedi? «Butun boshli Sehrgarlik vazirligi mardlik bobida Garri Potterning yolg'iz o'ziga bas kela olmaydi». Uning nevarasi bo'lishing uchun bor narsasidan voz kechishi aniq...

Xijolat bo'lgan Garri o'ng'aysiz kulib boqib, mavzuni almashtirgancha, intihon natijalari haqida gap boshladi. Nevill o'z baholarini sanay ketib, «yaxshi» bahoga ega bo'lgan holatda bir narsani boshqa narsaga aylantirish fani bo'yicha ta'limotni davom etish va SMJA imtihonini topshirish borasida ovoz chiqarib, o'y surdi. Garri Nevillga qarab turgani bilan do'stining gapi qulog'iga kirmadi.

Nevillning Voldemortdan chekkan aziyati Garrining ko'rgan zulmidan kam emas, lekin Garrining o'rnida bo'lishi mumkinligini tasavvur ham qila olmaydi. Vaholanki, o'sha bashorat ikkalasiga ham daxl qilgan. Lekin Voldemort o'ziga ma'lum sababdan negadir Garrini tanlagan.

Aksincha yo'l tutganda, peshanada yashin zigzagi shaklidagi chandiqqa ega bo'lish ham bashorat yuklamasi ham Nevillning qismatiga yozilgan bo'lar edi... yoki yo'qmi? Nevillning onasi Lili kabi ish tutib, o'z hayotini o'g'li uchun fido qilgan bo'larmidi? Fido qilgan bo'lar edi, albatta... lekin u Voldemort bilan Nevillning o'rtasiga tura olmaganda-chi? Hech qanday Mumtoz bola bo'lmas edimi? Nevill bilan Garrining o'rnida bo'sh bo'lar edimi? Chandiqsiz peshanasini missis Uesli emas o'z onasi o'pib qo'ygan bo'lar edimi?

– Ahvoling yaxshimi, Garri? – so'radi Nevill. – Qandaydir g'alati ko'rinyapsan.

Garri seskanib tushdi.

– Ma'zur tutasan, men...

– G'ubor parvonasi ta'sir o'tkazdimi, deyman? – achinganda so'radi Luna, rangli ko'zoynak orqali qarab.

– Nima parvonasi? – tushunmadi Garri.

– G'ubor parvonasi... Shunaqa jon zod bor, ko'zga ko'rinmaydi, – tushuntirgan bo'ldi qiz. – Quloq orqali miyaga kirib oladi-da, kishi xayollarini loyqalatib boradi. Yaqinda bittasi

ko'zimga ko'ringandek bo'ldi, – dedi u, qo'lini havoda, xuddi kapalak haydagandek siltab.

Nevill bilan Garri bir-biriga qarab qo'yishdi-yu, kvidish to'g'risida gap boshlashdi.

Bugungi ob-havo ham yoz bo'yi kechgandek, beqaror. Deraza ortidagi tuman orasida quyosh onda-sonda ko'rinish bermoqda. Ayni mana shunday fursatlardan birida kupega Ron bilan Germiona kirib keldi.

– Qachon yegulik tashiy boshlashar ekan, a? Ochdan o'lyapman, – ingradi Ron, qornini uqalagancha, o'zini Garrining yoniga tashlab. – O, jamoa jam-u, a, Nevill! Salom, Luna. Bilasanmi nima, – yuzlandi u Garriga. – Malfoy o'z majburiyatlariga tupurib, hamtovoqlari bilan kupeda bermalol o'tiribdi! Yonidan o'tib, ko'rib qoldik.

Garri hushyor tortdi. O'tgan o'quv yili davomida Malfoy o'zining sinfboshilik mavqeini zavq-la suiiste'mol qilib yurgan edi, endi esa bunday imkoniyatdan bosh tortyapti, qiziq, nimaga?

– Nima bilan mashg'ul edi, o'sha paytda? – so'radi Garri.

– Odatdagi ishi bilan, garchi unga xos bo'lmasa-da, – qoshini uchirdi Ron, uyatsiz qiliq ko'rsatib. – Umuman aytganda, ha... o'ziga xos, – yana qiliq ko'rsatdi u. – Lekin nima uchun birinchi sinf o'quvchilarini qo'rqitgani chiqmadi, hayronman?

– Bilmadim, – tahlil qilishga kirishdi Garri.

Bularning bari Malfoyning yanada jiddiyroq ishi borligidan dalolat beradi.

– Balkim, unga nazorat bo'linmasida bo'lish ko'proq yoqqandir? – taxmin qildi Germiona. – Sinfboshilik majburiyati esa endi zerikarli ishday tuyilayotgan bo'lsa kerak.

– Ishonib bo'lmaydi, – dedi Garri. – Nazarimda, Malfoy...

U o'z fikrini aytishga ulgurmay eshik yana ochilib, uchinchi sinfda o'qiydigan qizcha halloslab kirdi.

– Mana buni menga Nevill Longbottom va... – nigohi Garrining nigohi bilan to'qnash kelgan qizchaning ovozi o'zgarib, rangi qizardi, – Garri Potterga yetkazish tayinlandi, – dedi u,

binafsharang tasma bilan bog'langan ikkita pergament o'ramini uzatib.

Jo'natmani topshirgan qizcha, ostonada qoqilgancha kupeni tark etdi. Garri bilan Nevill hayron.

– Nima u? – talab ohangida so'radi Ron.

– Taklifnoma, – dedi Garri, pergament o'ramini ochib.

Garri, men «B» kupesidaman. Agar huzurimga kelib, o'rtamiyona tushligimni birga baham ko'rsang, o'zimni nihoyatda baxtiyor his etgan bo'lar edim.

Ehtirom ila, professor G. Ye. F. Divangard

– Professor Divangard deganlari kim bo'ldi? – so'radi Nevill qo'lidagi taklifnomaga hayrat-la qarab.

– Ishga yangi olingan o'qituvchi, – tushuntirish berdi Garri. – Tushunishimcha, bormasak bo'lmaydi.

– Sen-ku tushunarli, men-chi, men nimaga kerak bo'lib qoldim unga? – tanbeh olishdan xavfsirayotgan kabi asabiy so'radi Nevill.

– Tasavvur ham qila olmayman, – dedi Garri, garchi bu borada taxmini bo'lsa-da, yolg'on aralashtirib. – Menga qara, balkim, ustimizga ko'rinmas plash tashlab borarmiz, – kutilmagan taklif qildi u. – Yo'l-yo'lakay Malfoydan xabar olib, ko'zlagan niyatidan voqif bo'lib olamiz, a?

Afsuski, ushbu g'oyani amalga oshirishning iloji bo'lmadi. Yegulik tashiladigan aravani kutayotgan o'quvchilar va-gon yo'lagida sandiroqlab yurgani bois ularning orasidan sezdir-may o'tishning iloji yo'q. Gustox nigohlardan qochib qutula ol-masligini anglab, dili siyoh bo'lgan Garri plashini yuk xalta-siga joylagancha, uf tortib qo'ydi. Hozir unga ko'pdan ko'p nigohlar qadalgan. Ba'zilar uni ko'rish uchun kupedan otilib ham chiq-moqda. Faqat Chu Chengina Garrini ko'rib, bekinib oldi. Uning kupesidan o'tayotgan Garri oyna orqali ichkariga qarab, dugo-nasi Marietta bilan namoyishkorona berilib suhbatlasha-yotga-nini ko'rdi. Garchi Marietta yuziga upa-elikni ayamay suvagan bo'lsa-da, g'ayrioddiy husnbuzarlari yaqqol ko'rin-moqda. Garri

istehzoli kulib qo'yib, yo'lini davom etdi.

«B» kupesining eshigiga yaqin kelgan Garri bilan Nevill faqat ikkovlon taklif qilinmagani ayon bo'ldi. Shunday bo'lsa ham Divangardning quloch yozib, kutib olishiga qaraganda, Garri kupega tashrif buyurganlar orasida eng faxriy mehmonga o'xshaydi.

— O! Garri, bolaginam!

O'rnidan irg'ib turgan Divangardning duxobaga o'ralgan katta qorni kupeda qolgan bo'shliqni to'ldirdi-qo'ydi. Uning yaltiroq toz boshi, kumush tusli mo'ylovi va nimchasidagi tilla tugmalar quyosh nurida yaltiramoqda.

— Seni yana ko'rganimdan xursandman! Nihoyatda xursandman! — xitob qildi Divangard. — Xo'sh, bu yigit esa, tushunishimcha, mister Longbottom, shundaymi?

Nevill qo'rqa-pisa bosh irg'idi. Divangard eshik yaqinidagi ikkita bo'sh o'ringa imo qildi. Ikkovlon bir-biriga yuzlanib o'tirgach, Garri, yana kimlar taklif qilinganini ko'rish uchun kupega ko'z yugurtirib chiqdi. Durkun, yonoqlari keng, ko'zi g'ilay habash slizerinchi tengqurini tanidi. Ikki nafar notanish yettinchi sinf o'quvchisi va burchakda, Divangardning yonida o'tirgan Jinnani ko'rdi. Bechora qiz atrofga alanglab, bu yerga nima sababdan kelib qolganini anglamay o'tiribdi.

— Tanishmisizlar? — so'radi Divangard Garri bilan Nevillga murojaat qilib. — Bleyz Zabini, u ham sizlar kabi oltinchi sinfda tahsil ko'radi...

Griffindorchilar bilan slizerinchilar azaldan bir-birini yoqtirmagani bois Zabini ham, Garri bilan Nevill ham tanishuvni pisand qilmadi.

— Bu yigit Kormak Maklaggen, ehtimol, uchrashgandirsiz? Shundaymi? — so'radi Divangard.

Sochi dag'al, jussali Maklaggen ko'rishgan bo'lib, qo'l siltab qo'ydi. Garri bilan Nevill ham bosh irg'ib qo'yishdi.

— Markus Belbi, bilmadim, ehtimol, sizlar?... — davom etdi Divangard.

Cho'chib o'tirgan ozg'in Belbi tishining oqini bazo'r ko'rsata oldi.

... mana bu husnli qiz esa sizlarni anchadan buyon tanishini ma'lum qildi! – tanishtirishni nihoyasiga yetkazdi Divangard.

Uning ortida o'tirgan Jinna bashara yasab qo'ydi.

– Juda soz! Nihoyat, sizlar bilan yaqindan tanishish imkonini tug'ildi. Ajoyib! – xurulladi Divangard, astoydil joy-lashib. – Marhamat, bittadan bo'xcha olib, ochinglar. Safarga yegulik tayyorlab oldim. Poyezdda, agar xotiram pand bermasa, faqat qizilmiya tayoqchalar sotiladi, xolos. Unday ovqat esa keksa kishining oshqozoniga to'g'ri kelmaydi... Yaxna qirg'ovul go'shtidan ketadimi, Belbi?

Seskanib ketgan Belbi qo'liga bir bo'lak go'sht oldi.

– Yosh Markusga uning amakisi Damoklini o'qitish sharafiga muyassar bo'lganimni endigina aytib turgan edim, dedi Divangard, non solingan savatchani Garri bilan Nevillga uzatar ekan. – Mashhur sehrgar, xizmatiga yarasha Merlin ordeni bilan taqdirlangan... Tez-tez ko'rishib turasanmi, Markus?

Og'zi to'la go'sht Belbi javob berishga shoshilib, tiqilib qoldi.

– Anapneo, dedi Divangard, rangi qizarib ketgan Belbiga tayoqchasini xotirjam o'qtab.

– Yo'q... – javob berdi ko'zi yoshlanib ketgan Markus, bemalol nafas ola boshlagach. – Kam uchrashamiz.

– Bu tabiiy, albatta, Axir, u juda band-ku, shundaymi? – so'radi Divangard, Belbiga sinovchan qarab. – Mashaqqatli mehnat qilmaganda ayiqtovon¹ damlamasini ixtiro qila olinas edi, axir!

– Ha, shunday... – po'ng'illadi Belbi, yangi savollar berilishidan xavfsiragani uchun bo'lsa kerak, ovqatlanishni bas qilib. – Biroq dadam ikkalasi unchalik chiqisha olishmagani bois biz, umuman aytganda, bir-birimizni yaxshi tanimaymiz...

Uning gapi javobsiz qoldi. Divangard sovuq kulib qo'yib, endi Maklaggenga murojaat qildi.

– Endi sen haqingda, Kormak. Tog'ang Tiberiy bilan tez-

¹ Ayiqtovon – zaharli, sariq gulli, asosan, ko'p yillik o'simlik.

tez uchrashib turishingni tasodifan bilib qoldim. Unda ikkalangiz ponadum, ya'ni cho'chqa tusiga kiradigan jin ovida, aftidan, Norfolkda tushgan ajoyib fotosuratlarining bor ekan.

– Ha, g'aroyib sarguzasht bo'lgan edi, – javob berdi Maklaggen. – Biz bilan Berti Xiggs va Rufus Skrimj ham borishgan. To'g'ri, o'sha vaqtda u sehrgarlik vaziri bo'lmagan...

– Sen hali Berti bilan Rufusni ham taniysanmi? – yashnab ketdi Divangard, somsa terilgan patnisni mehmonlarga va Belbini negadir quruq qoldirgan tarzda uzatib. – Qani, ayt-chi menga...

Garrining shubhasi to'g'ri bo'lib chiqdi. Divangard Jinnadan tashqari hammani mashhur, nufuzli kishilar bilan aloqador bo'lgani sabab, taklif qilgan. Maklaggendan so'ng savolga tutilgan Bleyz Zabinining onasi, ma'lum bo'lishicha, sohibjamolligi ila mashhur bo'lib, Garrining fahmicha, yetti marta turmush qurgan va har bir eri meros sifatida bir dunyo oltin qoldirgancha, sirli ravishda o'lib boravergan. Navbat Nevillga yetib kelgach, suhbat o'n daqiqacha, lekin biroz noqulay davom etdi. Nevillning mashhur avrorlar sifatida tanilgan ota-onasini Bellatriks Lestrang o'zining bir juft malaylari bilan birga aqldan ozib qolishguncha qiynoqqa solingani mehmonlarga ma'lum qilindi. Suhbat nihoyasida, Garrining fahmicha, Divangard Nevill borasida bir to'xtamga kelmadi. Aftidan, Nevill o'z ota-onasining iste'dodini meros olgan-olmaganini Divangard hali anglab yetmagan.

– Ana endi, – mavsumning dovrug'i ketgan kishisini tanishtirmoqchi bo'lgan konferanse kabi o'tirgan joyida salmoq bilan biroz tipirchiladi Divangard. – Garri Potter! Xo'sh, nimadan boshlaymiz? Yoz faslidagi ilk uchrashuvimizda, tafsilotlar bilan yuzaki tanishib chiqishgagina muvaffaq bo'lgan edim!

U ma'lum vaqt Garriga yirikkina, yog'ligina qirg'ovulni tomosha qilayotganday nazar solib turdi-da, xitob qildi:

– Mumtoz! Endi seni shunday deb atashadimi?!

Garri indamadi. Belbi, Maklaggen va Zabini dong qotgancha, Garriga baqrayib o'tirishibdi.

– Har yili har gumon... -- davom etdi, Garridan ko'zini

uzmagan Divangard. -- Esimda, o'sha... m-m-m... mash'um tunda... Lili... bilan Jeyms... sen esa omon qolding... o'shanda ham sening g'ayrioddiy qobiliyating haqida mish-mish gaplar tarqagan edi...

Zabini asta tomoq qirib, aftidan, istehzoli qoyil ekanligini ifoda etmoqchi bo'ldi. Shu zahoti, Divangardning ortidan qiz bolaning darg'azab ovoz eshitildi:

-- Ha, albatta, Zabini, g'ayrioddiy qobiliyat ko'proq senda shakllangan, u ham bo'lsa... qiliq ko'rsatish!

- Ajabo! -- ko'ngilchanlik-la qaqilladi Divangard, qorni ortida deyarli ko'rinmay, Zabiniga yeb qo'yguday o'qrayib o'tirgan Jinna tomon o'girilib. -- Ehtiyot bo'ling, Bleyz! Kupesining yonidan o'tayotganimda ushbu yosh ledi tilsimni shoshilmay, qoyil-maqom bajarganini ko'rganingizda edi! O'rningizda bo'lsam, unga gap qaytarishga jur'at etmagan bo'lar edim!

Zabini javoban o'qrayib qo'ydi.

-- Endi asosiy mavzuga o'tsak, -- dedi Divangard, yana Garriga yuzlanib. -- Yoz davomida tarqagan anavi bir-biridan vahimali mish-mish gaplar. Tabiiyki, kishi nimaga ishonishni bilmay qoldi, «Bashorat-u karomat gazetasi» yanglishishga moyil... Ammo bu masalada biron-bir shubha yo'q: shuncha guvoh! Vazirlikda qandaydir o'ta mudhish hodisa bo'lib o'tgani aniq va sen, o'sha hodisada markaziy o'rin tutgansan!

Garriga surbetlik-la aldashdan boshqa chora qolmadi, shu bois u bosh irg'idi-yu, indamay qo'ya qoldi. Unga qarab o'tirgan Divangard yashnab ketdi.

-- Kamtarinligini qarang! Dambldor seni juda yaxshi ko'rishining hech ham ajablanarli yeri yo'q... Demak, sen, chindan ham o'sha yerda bo'lgansan, shundaymi? Qolgan gaplar-chi? Aytaylik, anavi shov-shuv yangiliklar. Qaysi biri rost-u, qaysi biri yolg'on, hech kim bilmaydi. Misol uchun, afsonaviy bashorat haqidagi gaplar...

-- Bashoratni eshitish nasib qilmadi bizga, -- bidirladi Nevill, yorongul kabi qizarib ketib.

-- To'g'ri, -- tasdiqladi Jinna, -- Nevill ikkalamiz ham o'sha yerda bo'lganmiz. Mumtozlik borasidagi gap-so'zlar «Ba-

shorat-u karomat»ning navbatdagi uydirmasi.

- Shunaqa deng? - katta qiziqish-la, ko'z yugurtirdi Divangard.

Jinna bilan Nevill uning kulimsiragan nigohini mutlaqo beparvo qarshi oldi.

- Ha... nima ham der edik... «Bashorat-u karomat gazetasi» mubolag'a qilib yuborgan holatlar tez-tez uchrab turadi, - fikr bildirdi Divangard, hafsalasi biroz pir bo'lib. - Muhtarama Gvenogning bir gapi... Jons Gvenog, «Graalxedlik garpiyalar» sardorini nazarda tutyapman, albatta, hech esimdan chiqmaydi...

Divangard cheksiz xotiralarga berilib ketdi. Garrining fahmlashicha Nevill bilan Jinna uni ishontira olmadi va bashorat mavzusi hali davom etadi.

Vaqt o'tib bormoqda. Divangard esa gapiga qaraganda, bari «Divan-klub»ga a'zo bo'lganidan o'zini baxtiyor bilgan, bugungi kunda esa dongdor bo'lib ketgan sobiq o'quvchilari haqida gapirib, jag'i tinmadi. Garri chiqib ketmoqchi bo'ldi-yu, mezbonni xafa qilishni istamadi. Nihoyat, poyezd navbatdagi tuman to'siqni yorib o'tib, qizil shafaq tomon yo'l olgach, ko'zi qamashgan Divangard atrofga alangladi.

- Qadrdonlarim, ko'p o'tmay qosh qorayadi! Chiroq yoqilganini payqamay qolibman! Kiyim alishtiradigan vaqtingiz bo'ldi, chog'i! Maklaggen, yodingdan chiqmasin, seni ponadumlar haqidagi kitob kutmoqda! Garri, Bleyz, sizlar ham huzurimga kelib turing, marhamat. Sizga ham taalluqli bu gap, miss, - dedi u, Jinnaga ko'z qisib. - Xo'p, mayli, bora qolinglar endi!

Zabini Garrining yonidan itarib-surib o'tar ekan, vahshi-yona qarab o'tdi. Garri ham shu taqlidda, foiz qo'shib o'qrayib qo'ydi-da, Jinna bilan Nevill hamrohligida nim qorong'i yo'lak bo'ylab Zabinining ketidan yo'l oldi.

- Xayriyat-e, gapi tugadi-ya, -po'ng'illadi Nevill. - Sal g'alatiroq kishi ekanmi?

- Shunaqaroq, - ma'qulladi Zabinidan ko'zini uzmagani Garri. - Jinna, sen qanday o'ralashib qolding unga?

- Anavi xufflpuffchi tentak Zakkerayes Smit esingizdami, DA a'zosi? - javob berdi Jinna. - O'shani sehrlab qo'y-

ganimni ko'rib qoldi. Vazirlikda nima bo'lganini so'rayverib, hid qildi. Jonimga tekkach, oxiri suqi qo'llab yubordim. Shu payt Divangard kirib qoldi. Tamom bo'ldim, jarima soladi deb o'ylagan edim, u esa tushlikka taklif qilib o'tiribdi! Tomi joyida, deb kim aytadi endi uni, shundan keyin?

– Go'zal onaning bolasi bo'lganing uchun taklif qilinganingdan ko'ra, shunisi yaxshi, – fikr bildirdi Garri, ko'zini qisib olgancha, Zabini tomon qarab. – Yoki nufuzli tog'aning jiyani...

Xayoliga bir fikr kelgan Garri jim bo'lib qoldi. Xavfli, albatta, lekin ish bitadigan bo'lsa... Zabini hozir oltinchi sinfda o'qiydigan slizerinchilar kupesiga qaytadi, u yerda esa Malfoy o'tiribdi. Sinfdozlaridan tashqari, yana kimdir uning gapini tinglayotganini xayoliga ham keltirmaydi... Agar Zabinining ketidan sezdirib kirib olsa, ko'p narsalarni oydinlashtirib olishi mumkin! Tashqarida kimsasiz manzara ko'rina boshlanganiga qaraganda, manzilga yetishga oz qoldi. Taxminan yarim soat o'tib Xogsmiyod stansiyasi keladi. Ammo, modomiki, Garrining shubhalariga hech kim bovar qilmas ekan, kerakli dalillarni o'zi qidirishi kerak bo'ladi...

– Uchrashguncha, – shivirladi Garri, ko'rinmas plashini ustiga tashlab.

– Yana nimani?... – og'iz juftladi Nevill.

– Keyin!

Garri shovqinsiz yurishga uringancha, Bleyzning ketidan quva ketdi. Umuman aytganda, poyezd shunday taraq-turiq qilmoqdaki, bunday chtiyotkorlik chorasi ortiqcha.

Hamma kiyim almashtirish bilan ovora, yo'lak bo'm-bo'sh. Garri Zabini bilan deyarli izma-iz borayotgan bo'lsa-da, kupega birga kirishga ulgurmay, bekilib qolmasligi uchun, eshikni oyog'i bilan tutib qolishga to'g'ri keldi.

– Nima bo'lyapti o'zi? – darg'azab vaysadi Zabini, eshikni, dastasidan tutib, Garrining oyog'iga zarb bergancha, siltab.

Garri kuch bilan turtib, eshikni ochdi. Eshik dastasini mahkam ushlab olgan Zabini Gregori Goylning tizzasiga qulab

tushdi. Kupeda tartibsizlik qaror topgan fursatdan foydalangan Garri Zabinining bo'sh kursisiga chiqib, u yerdan yuk tokchasiga sakrab chiqdi. Xayriyatki, Zabini bilan Goyl ikkalasi so'kishib qolib, hammaning e'tibori ularga chalg'idi. Fursatdan foydalangan Garriplash ostidan chiqib qolgan oyog'ini tez tortib oldi. Biroq Malfoy, uning krossovkasini ko'rib qolganday bo'ldi. Goyl sochi to'zg'ib ketgan Zabinini ustidan nari turtib, joyiga o'tqizib qo'ydi-da, eshikni yopdi. Vinsent Krabbe hajviy komikslarini¹ o'qishda davom etdi, murdor irjayib o'tirgan Malfoy esa boshini Pansi Parkinsonning tizzasiga qo'yib, ikkita kursini egallagancha, cho'zilib oldi. Noqulay holatda kulala bo'lib yotgan Garri usti to'liq yopilganiga ishonch hosil qilgach, Malfoyning silliq oq sariq sochini mag'rurlanib to'zg'itayotgan Pansining irshayanini ko'rdi. Aftidan, hamma uning o'rnida bo'lishini orzu qiladi, degan xayolga boradigan ko'rinadi u. Shiftidan osilib tushgan fonuslar tebrangancha, kupeni ravshan yoritayotgani bois ostida o'tirgan Krabbening qo'lidagi komiksdan bitilgan har bir so'z Garriga aniq ko'rinmoqda.

– Xo'sh, Zabini, – gap boshladi Malfoy. – Sendan nima kerak bo'lib qolibdi anavi Divangardga.

– Unga nufuzli tanish-bilishlari bor, ishini bitirib bera-digan dongdor odamlar kerakka o'xshaydi, – javob berdi Zabini, Goylga o'qrayishini qo'ymay.

Malfoyni, aftidan, ushbu xabar quvontirmadi.

– Yana kimlarni taklif qilibdi? -- talab ohangida so'radi u.

– Griffindorchi Maklaggenni, javob berdi Zabini.

– Ha, albatta, uning tog'asi vazirlikda katta lavozimni egallaydi, – ma'lum qildi Malfoy.

– «Ravenklo»dan allaqanday Belbini...

– Badbashara-yu u! – xitob qili Pansi.

– ... Longbottomni, Potterni va anavi qizaloq Ueslini.

Malfoy kutilmaganda Pansining qo'lini itarib, yotgan joyiga o'tirib oldi.

¹ Komiks - kulgi, hajv va yumorga boy rasmlar (karikatura).

– Longbottomni? – hayron bo‘ldi u.
– O‘sha yerga kirib borgan ekan, – sovuqqina yelka qisib
qo‘ydi Zabini.

– Divangardni nimasi bilan qiziqtirib qolibdi, u? –
so‘radi Malfoy.

Zabini yana yelka qisdi.

– Potter, qimmatli Potter! Mumtoz bolani yana bir bor
ko‘rmay bo‘ladimi! – kinoya qildi Malfoy, tishining oqini ko‘r-
satib. – Uesli-chi? U qiz nima karomat ko‘rsatibdi?

– Bolalarga yoqadi u, – xirilladi Pansi, Malfoyga o‘g‘rin-
cha qarab, – hatto senga ham Bleyz. Hammaga ma‘lum-u,
qizlarni yaxshi farqlay bilishing!

– Tengri yo‘q sohibjamol bo‘lib ketmaydimi, – sovuq
ohangda javob berdi Zabini. – Qo‘limni ham tekkizmas edim,
o‘sha sotqinvachchaga.

Pansi javobdan mamnun bo‘ldi. Malfoy boshini yana
qizning tizzasiga qo‘yib, sochini silashga izn bergan bo‘ldi.

– Divangardning didi buzuqligi yomon bo‘libdi, xulosa
qildi Malfoy. – Balkim, qarilik tufayli namoyon bo‘layotgan aqli
zaiflikdir bu? Attang. Dadam uni o‘z davrining mohir sehg-
laridan biri bo‘lgan, der edi hamisha. Aytganday, dadam bilan
doim quyuq so‘rashadi, u. Men ham poyezddaligimni bilmagan
bo‘lsa kerak, aks holda...

– Taklifiga umid bog‘lamay qo‘yaver, – fikr bildirdi
Zabini. – Kupesiga kirishim bilan Nottning otasi haqida so‘radi.
Tushunishimcha, ular ilgari qalin do‘st bo‘lishgan. Vazirlikda
qo‘lga olinganini aytganimdan so‘ng hafsalasi pir bo‘lib, Nottni
chaqirmadi. Shunday ekan, Divangard O‘limdan zavqlanuvchilar
bilan o‘ralashib yurishiga shubha qilaman.

Malfoy qattiq achchiqlandi-yu, bir amallab g‘amnok
mazaxlagan bo‘ldi:

– U nima istashi kimni qiziqtiradi? Jo‘yali mulohaza
yuritiladigan bo‘lsa, kim bo‘lib qolibdi o‘zi u? – dedi zo‘r-zo‘raki
esnab. – Arzimagan bir o‘qituvchi. Ehtimol, kelasi yil maktabga
qaytmasman ham! Pishirib yeymanmi o‘shanda, allaqanday se-
mirib, yog‘ bosgan cholning muhabbatini. Kuni allaqachon

bitgan uning!

– Qanaqasiga endi kelasi yil maktabga qaytmas ekansan?
– soch silashni bas qilib, e’tiroz-la ovoz ko’tardi Pansi.

– Vaziyat tubdan o’zgarib ketishi mumkin, – irjaydi Malfoy. – Balkim, meni... m-m-m... nisbatan muhim, sharaflı ishlar kutayotgandir.

Yuk tokchasida yotgan Garrining yurak urishi tezlashib ketdi. Bu gapni eshitgan Ron bilan Germiona nima deyishgan bo’lar edi? Krabbe bilan Goyl Malfoyga baqrayib qolishdi. Aftidan, ikkalasi, Malfoyning nisbatan muhim, sharaflı ishlaridan xabari yo’q ko’rinadi. Hatto Zabinining kalondimog’ yuzi ham qiziqsinish qiyofasini kasb etdi. Hech narsani fahmlamagan Pansi esa yana Malfoyning sochini silashga kirishdi.

– Sen... Uni nazarda tutyapsanmi? – so’radi Zabini.

– Oyim maktabni tamomlashimni xohlaydi, – yelka qisib qo’ydi Malfoy. – Fikrimcha, bugungi kunda ma’lumotlilik kishi uchun unchalik katta ahamiyatga ega emas. Aytmoqchimanki... Agar Yovuz Lord hokimiyatga keladigan bo’lsa, odamlardan MOSDni so’raydimi, u? Yo’q, albatta... Unga kim, qachon va qanday xizmat qilganini so’raydi, hamisha sodiq qolganining isbot-dalilini talab qiladi...

– O’ylaysanki, sen uning manfaati yo’lida biron-bir karomat ko’rsata olasan, shundaymi? pastga urdi Zabini. – O’n olti yoshingda, oliy ma’lumotga ega bo’lmay turib, a?

– Aytyapman-u senga, qanday ma’lumotga egaligim uni qiziqtirmasligi mumkin, deb. Balkim, ma’lumot talab etilmaydigan ishim kerak bo’lib qolar unga, – dedi Malfoy, ovozini pasaytirib.

Krabbe bilan Goyl bir juft ajdar tusli tosh ilonday og’zini lang ochgancha o’tirishibdi. To’lqinlanib ketgan Pansi esa Malfoyga izzat-ikromga to’lib-toshgan nigoh-la qarab qoldi.

– Ana, «Xogvars» ham ko’rinib qoldi, – dedi Malfoy, odamlarga ko’rsatgan ta’siridan huzur qilgancha, deraza ortidagi qorong’ilikka imo qilib. – Kiyim almashtiradigan vaqt bo’ldi.

Malfoyni diqqat-la kuzatib yotgan Garri o’z sandig’ini changallagan Goyl, uni ham pastga tortayotganini sezmedi. Qo’-

pol Goyldan boshiga qattiq zarba yegan Garri og'riqdan beixtiyor ingrab yubordi. Qoshini chimirgan Malfoy shu zahoti yuk tokchasiga razm soldi.

Ko'zi og'riqning zo'ridan yoshlanib, boshi g'urra bo'lgan Garri Malfoydan qo'rqmaydi, lekin slizerinchilar uni fosh etishlarini istamaydi. U astagina harakat qilib, sehrli tayoqchasini qo'lga oldi-da, hamlaga hozirlandi. Aftidan, Malfoy, uning ingraganini xayolda eshitilgan deb o'yladi, shekilli, Elrond qatori korjomasini bosh orqali kiyib, sandig'ini yopdi, poyezd tezligi pastlab, siltana boshlaganda qalin matodan tayyorlangan safar plashining yoqasini qadadi.

Yo'lak odamga to'ldi.

«Narsalarimni platformaga olib chiqishga Ron bilan Germionaning aqli yetar», xayoldan o'tkazdi Garri, bu yerdan hali-beri chiqib keta olmasligini anglab.

Poyezd so'nggi bor siltanib, nihoyat to'xtadi. Eshikni kuch-la chetga surgan Goyl tirsagi bilan ikkinchi sinf o'quvchilarini nari itargancha, chiqish tomon o'ziga yo'l ochdi. Krabbe bilan Zabini uning ketidan ergashdi.

– Sen boraver, – buyurdi Malfoy, umid-la qo'l uzatib turgan Pansiga, – narsalarimni yana bir bor ko'zdan kechirib chiqishim kerak.

Pansi chiqib ketgach, kupeda Malfoy bilan Garri tanho qolishdi. Kupe yonidan o'tayotgan o'quvchilar to'dasi qorong'i platformaga tushib ketishmoqda. Yo'lakdagilar ichkarini ko'rmasligi uchun Malfoy eshik pardasini tushirib qo'ydi-da, engashib, sandig'ini ochdi.

Yuragi gursullab urayotgan Garri ko'zini katta ochib qarab yotibdi. Pansiga ko'rsatishni istamagan narsasi nima ekan o'zi? Balki, ta'mirdan chiqarilishi kerak bo'lgan o'sha buyumdur?

– Petrifikus Totalus!

Kutilmaganda sehrli tayoqchasini o'qtab, to'liq Tanabint afsunini qo'llab yuborgan Malfoy Garrini harakatsizlantirib qo'ydi. Garri yuk tokchasidan asta sirpanib, Malfoyning oyog'i ostiga gursullab tushdi. Ko'rinmas plash ochilib polda, barmo-

g'ini ham qimirlata olmay, beo'xshov akashak bo'lgancha, Malfoyga qarab yotgan Garri ko'rindi.

O'zim ham shunday deb o'ylagan edim, – muzaffariyat-la irjaydi Malfoy. – Sandiq yeganingni eshitdim. Zabini qaytganda havoda oq narsa ko'ringanday bo'ldi, – dedi u, Garrining krossovkasiga qarab. – Eshikni ushlab qolgan sen ekansanda?

Malfoy biroz o'ylanib turdi.

– Umuman aytganda, Potter, biron-bir arzigulik gap eshita olganing yo'q. Modomiki, qo'linga tushgan ekansan...

Malfoy oyog'ini Garrining yuziga bosib, kuchi boricha ezdi. Garri burni sinib, atrofga qon sachraganini his etdi.

– Bu dadam uchun. Endi esa...

U Garrining ostidan ko'rinmas plashni tortib chiqarib, ustiga tashladi.

– Poyezd Londonga yetib borguncha birov seni topa olishiga shubha qilaman, – dedi Malfoy ovozi pasaytirib. – Ko'rishguncha, Potter... balkim, ko'rishmasimiz ham.

Malfoy Garrining barmoqlarini ezishni unutmay, kupeni tark etdi.

VIII BOB

SNEGGNING XURSANDCHILIGI

Ezib sindirilgan burnidan issiq, yelimshak qon oqayotganini his etayotgan Garri vagon yo'lagidan o'tayotgan odamlar ovozi va dupur-dupur qadam tovushini eshitgancha, ko'rinmas plashi ostida qilt eta olmay yotibdi.

«Poyezd Londonga qaytishidan oldin, kimdir kupelarni tekshirib chiqishi kerak-ku», – umid-la xayoldan o'tkazdi Garri.

Ammo kimdir kirib, yana bosib olguncha uni birov ko'rmasligi, ovozi eshitilmasligini anglab, yuragi orqaga tortib ketdi.

Ochiq qolgan og'zi qonga to'lib borayotgan Garri kosa-siga onarib qo'yilgan nochor toshbaqaga o'xshab yotgancha.

Malfoydan nafratlanib, bunday ahmoqona ahvolga o'z aybi bilan tushgani uchun o'zini o'zi koyimoqda. Uzoqda eshitilgan so'ngi qadam tovushi ham tindi. Hamma qorong'i platformaga tushib, sandiq tortgancha, baland gaplashib yuribdi.

Ron bilan Germiona uni allaqachon tushib ketgan bo'lsa kerak, degan xayolga borishgani aniq. Faqat «Xogvars»da, griffindorchilar stoli atrofida o'tirib, u yoq bu yoqqa alanglashgach, Garrining yo'qligini fahmlashadi-yu, kech bo'ladi. O'sha paytga kelib, Garri, Londonga qaytish yo'lining qariyb yarmiga yetib qoladi.

Garri ingrashga urinib ko'rdi-yu, bo'lmadi. So'ng ayrimlar, misol uchun Dambldor, sehr-joduni ovoz chiqarmay bajarishini eslab, qo'lidan chiqib ketgan sehrli tayoqchasini xayolan chaqirishga urinib ko'rdi: «Assio tayoqcha!», «Assio tayoqcha!». Afsuski, bu ham kor bermadi.

Qulog'iga ko'l bo'yidagi daraxt barglarining shitirlashi, boyqushning gursullagani eshitilganday bo'ldi-yu, lekin o'sha tovushlar orasida biror-bir kishining: «Garri Potter qani?» – deya cho'chib bergan savoli eshitilmadi. Garri bunday umidvorlik uchun o'zini yomon ko'rib ketdi. Testrallarga qo'shilgan aravalar qatori gumbur-gumbur qilib, maktabga yaqin borganiyu, ulardan birida astoydil joylashib olgan Malfoy, qanday qilib Potterni bir yoqli qilganini aytib bergancha, hamtovoqlarini, ichagi og'riguday darajada kuldirib ketayotganini tasavvur qilib, ilojsiz qolganidan xo'rliki keldi.

Poyezd daf'atan siltanib, Garrini yonboshiga ag'aratdi. Endi u shiftga emas kursi ostidagi chang qoplagan polga qarab yotibdi. Zirillayotgan pol poyezd motori ishga tushirilganidan dalolat bermoqda. «Xogvars-Ekspress» ortki yo'nalishga yo'l oldi, Garri hanuzgacha poyezdda ekani hech kimning hayoliga ham kelgani yo'q...

Kimdir kutilmaganda uning ustidagi ko'rinmas plashni ochdi.

- Salom, Garri, – eshitildi tanish ovoz.

Qizil yashin chaqnab, Garrining tanasi bo'shashdi. Endi u sal bo'lsa ham munosib holatni egallab oldi: yotgan o'miga

o'tirib, pachoqlangan yuzidagi qonni kaftining orqasi bilan artgach, boshini ko'tarib, qo'lida ko'rinmas plashni ushlab turgan Bomsqa qaradi.

– Tezroq, – dedi qiz. Tur o'rningdan, sakrab tushishga ulguramiz.

Poyezd chiqarayotgan pag'a-pag'a bug'dan kupe oynasi terchilashga ulgurgan.

Boms vagon eshigini ochib, platformaga sakradi. Qizning ortidan shoshib ergashgan Garri ham sakrab, biroz qoqilgancha yerga tushgach, oyoqda tik qolib, poyezdning muyulish ortiga o'tib ketganini ko'rishga ulgurdi.

Tunning sovuq havosi og'riqdan lo'qillayotgan burniga xush yoqdi. So'z aytmay qarab turgan Boms qo'lidagi ko'rinmas plashni Garriga uzatdi. Bunday noqulay holatda topilganini o'ylayotgan Garrining zardasi battar qaynamoqda.

– Kim? – so'radi Boms.

– Drako Malfoy, – keskin ohangda javob berdi Garri. – Rahmat...

– Arzimaydi, dedi yuzi jiddiy qiyofa kasb etgancha qolgan Boms.

Garchi Garri qorong'ida yaxshi ko'rmayotgan bo'lsa-da, qizning yuzi, yoz boshida ko'ringanday, rangparligini saqlab qolganini his etdi.

– Istasang, burningni to'g'rilab, o'z holatiga keltirib qo'yishim mumkin. Faqat birpas tek tursang bo'ldi.

Garri davolanish bobida maktab feldsheri¹ Pomfri xonimga ko'proq ishonch bildirishi bois qizning taklifiga shubha ila qaradi. Biroq bu haqda gapirishni noo'rin bilib, ko'zini chirt yumgancha, tek qotdi.

– Episkey, dedi Boms.

Garri dastlab qizib ketgan, so'ng muzday bo'lib qolgan burnini ushlab ko'rdi.

– Katta rahmat, – minnatdorlik bildirdi u, burni joyiga

¹ Feldsher (*nemischa*: Feldshege - jarroh; harbiy qism sartaroshi) o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot xodimi, shifokor yordamechisi.

tushganiga ishonch hosil qilgach.

– Plashingni tashlab ol, piyoda boramiz, – dedi biror marta bo'lsin, iljaymagan Boms, tayoqcha siltab.

Tayoqcha uchidan kumush tusli, to'rt oyoqli yirik jonzod uchib chiqib, shu zahoti qorong'ilikda g'oyib bo'ldi.

– Himoyachingmi? – so'radi Garri, ustiga plashini tashlar ekan, Damblodor ham xuddi shu tariqa xabar yo'llaganini eslab.

– Ha. Qasrdagilar xavotir bo'lmasligi uchun sen men bilan ekaning haqida xabar berib qo'ygan ma'qul.

Ikkovlon maktabga olib boradigan yo'l bo'ylab odimlay ketdi.

– Qanday topib olding meni? – qiziqdi Garri.

– Poyezddan chiqmaganingni fahmlagach, plashing borligini esladim. Demak, bekinishga majbur bo'lgansan. Shundan so'ng kupelardan birining pardasi tortib qo'yilganini ko'rib, tekshirib chiqishga ahd qildim.

– Bu yerda nima qilib yurgan eding, o'zi?

– Maktab muhofazasini kuchaytirish uchun Xogsmyodga yo'llanganman.

– Yakka o'zingnimi yoki?...

– Shagmarsh, Dikars va Davlishni ham.

– O'tgan yili Damblodor bilan jang qilmoqchi bo'lgan Davlishmi?

– Xuddi o'sha.

Ikkalasi aravalar qoldirgan yangi iz bo'ylab yo'l olishdi. Garri ko'z qiri bilan onda-sonda Bomsga qarab bordi. O'tgan yili u juda qiziquvchan bo'lib, ba'zan jonga tegar, juda ko'p kular, hazil-mutoyiba qilar edi. Endi esa keskin ulg'ayib, jiddiylashib qolganday go'yo. Vazirlikda o'tgan hodisa tufaylimi? Garri Germionaning taklifini, xususan, Boms bilan gaplashib, Siriusning o'limida u aybdor emasligini aytib, ko'nglini ko'tarish kerakligini esga oldi. Biroq Garri, ushbu mavzuda gap ochishga jur'at eta olmadi. Siriusning o'limida o'zini ayblasa ayblar-u, lekin Bomsni ham boshqa birovni ham ayblagani yo'q. Faqat Sirius to'g'risidagi mavzuni zaruratsiz ochishni yoqtirmaydi, xolos.

Binobarin, ular sukut saqlab ketishmoqda. Havo sovuq, atrof jim-jit, faqat Bomsning egnidagi plash etagi yerda sudralib, shitirlamoqda.

Ilgari maktabga aravada borgan Garri «Xogvars»ning bu qadar uzoqligini tasavvur qilmagan ekan. Nihoyat, uzoqda darg'illama cho'yan darvozaning ikki yonida qad ko'targan tosh ustunlarning tepa qismini bezab turadigan qanotli to'ng'izlarning haykallari ko'rindi. Sovqotib, qorni ochqagan Garri yangi, kam-gap Bomsdan tezroq qutulmoqchi bo'lib, darvozani ochish uchun qo'l uzatdi. Darvoza qulf.

– Alloomora! – dedi u, sehrli tayoqchasini osma qulfga o'qtab.

Afsun negadir kor bermadi.

– Unday afsun bilan ochilmaydi, – dedi Boms. – Dambldorning o'zi sehlragan.

– Panjaradan oshib o'tishim mumkin, – dedi Garri atrofga alanglab.

– O'ta olmaysan, – javob berdi Boms, ifodasiz ohangda.

– Panjara ham sehlragan. Yoz davomida xavfsizlik choralari yuz chandon oshirilgan.

Boms Garrining ko'ziga atayin yordam berishni istamayotgan odamday ko'rinib, jahli chiqa boshladi.

– Demak, tong otguncha shu yerda o'tiraman, – po'n-g'illadi u.

– Seni olib ketgani kelishyapti. Ana qara, – imo qildi Boms.

Uzoqda, qasr bo'sag'asida kichkinagina olovcha dadil miltillagancha, birov odimlab kelayotgani ko'rindi. Garri xursand bo'lib, Argus Filehdan cho'chishni xayoliga ham keltirmadi. Maktab nazoratchisi Garrini kech qolgani uchun koyishi, shundan so'ng bosh barmoqni girada siqish jazosi muntazam qo'llab borilsa, o'quvchilar tabiatida kechikmaslik ko'nikmasi shakllanishiga omil bo'lishi haqida hansirab vaysashi turgan gap, albatta. Lekin buning ahamiyati yo'q endi. Fonus o'n futga¹

¹ Fut – ingliz uzunlik o'lchovi. Bir fut 12 dyuymga yoki 30,479 santimetrga teng.

yaqin kelganida Garri egnidagi ko'rinmas plashni yechib, uni olib ketgani Filch emas uzun yog'li sochi orasida yorishib ko'rinayotgan qirg'iy burunli la'nati Severus Snegg kelganini ko'rdi.

– Xo'sh, – zaharxanda qildi Snegg, sehrli tayoqchasini chiqargancha, qulfga tekkizib.

Yirik zanjir nari o'rmlab, darvoza ochildi.

– Tashrif buyurib, bizga ehtirom ko'rsatganing yaxshi bo'libdi, Potter. Maktab kiyimi odamlar e'tiborini g'ayrioddiy qiyofangdan chalg'itadi, degan xayolga borganga o'xshaysan, shekilli?

– Kiyimimni alishtira oladigan holatda emas edim, men... – tushuntirish bermoqchi bo'ldi Garri, ammo Snegg uning gapiga quloq tutmadi.

Kutishga hojat yo'q, Nimfadora. Potter men bilan ekan, unga... e-m-m... jin ham urmaydi.

– Xabarimni Xagridga yo'llagan edim, – qoshini chimirdi Boms.

Xagrid ham bizning yosh do'stimiz Potter kabi ziyo-fatga kechikyapti. Shu bois xabaring menga yetdi. Ha, aytgandek, – qo'shimcha qildi Snegg, biroz chekingancha, Garrini ichkariga kiritib. – Yangi Himoyachingni ko'rdim.

U darvozani qarsillatgancha yopib, tayoqchasini yana ishga soldi. Zanjir o'rmlab kelib, darvoza zulfini o'rab oldi.

– Nazarimda, ilgari Himoyaching yaxshiroq edi. – ichiqoraligini yashirmay irjaydi Snegg. – Yangisi qandaydir nimjon ekan.

Snegg qasr tomon o'girilar ekan, qo'lidagi fonusi Bomsning g'azab va hayajon uyg'unlashib ketgan yuzini yoritdi. Garri Snegg bilan yonma-yon yurib, qasr tomon odimladi va keskin ortga burilib, qichqirdi:

– Uchrashguncha, Boms! Rahmat... qilgan yaxshiliging uchun.

– Uchrashguncha, Garri, -- xayrlashdi qiz.

Snegg bir-ikki daqiqa indamay yurdi. Garri undan shunchalik nafratlanyaptiki, nima uchun Snegg buni his etmaganiga taajjublandi. Bu kasni ilk bor uchratgan fursatdan yomon ko'rib

qolgan. Siriusga bo'lgan munosabati esa odam sifatida ko'rmay qo'yishga sabab bo'ldi. Dambldor nima desa desin-u, Garri butun yoz davomida atroflicha o'ylab ko'rib, Siriusning boshini Snegg yedi, degan xulosaga bordi. Uning zaharday pichinglari, jamiki Qaqnus Ordeni Voldemortga qarshi kurash olib borayotgan bir vaqtda Sirius o'z uyida pisib o'tirgani haqidagi ta'nalari inson taqdirini hal etar darajada ta'sir o'tkazdi. Oqibatda, o'rtoqlariga yordam qo'lini uzatgancha, vazirlikka yetib kelgan Sirius halok bo'ldi. Bunday xulosa Garriga bor aybni Sneggning gardaniga yuklashga ma'nau huquq berib, tabiiyki, qaysidir ma'noda xursand ham qildi. Shunisi aniqki, agar bu yorug' olamda Siriusning o'lib ketganiga zig'irday bo'lsin achinmaydigan odam bo'lsa, o'sha odam ayni vaqtda zulmatda, Garrining yonida odimlab bormoqda.

– Fikrimcha, kech qolganing uchun «Griffindor»dan ellik ball ayirish kerak, – sukunatni buzdi Snegg. – Va yana yigirma ballni maktabga magllar kiyimida kelganing uchun. Semestr boshida biron-bir fakultet buncha ball yo'qotganini hech eslay olmayman. Xalq hali pudingni¹ ko'rishga ulgurgani yo'q. Shubha yo'qki, bu bilan sen rekord qo'yishga muvaffaq bo'lding, Potter.

Garrining g'azabi rosa qaynadi, biroq... nima sababdan kechikkaniga iqrar bo'lgandan ko'ra, poyezdda falaj holatda qolib, Londonga qaytgani ma'qul edi.

– Odatdagidek, maktabga shov-shuv ko'targancha paydo bo'lishni ko'zlagansan-da? Ha, tushunaman, – davom etdi Snegg, – uchar avtomobil topilmagach, ziyofatga shu holatda kirib borishga ahd qilgansan.

Garri, garchi ko'krak qafasi yorilib ketishidan jiddiy xavfsirayotgan bo'lsa-da, bor kuchini javob qaytarib yubormaslikka jamladi. U bir narsani aniq biladi: Snegg guvohlarsiz maza qilib xo'rlab olish uchun atayin o'zi chiqqan.

Nihoyat ikkalasi qasrning ulkan eman eshigiga yetib

¹ **Puding** (inglizcha) inglizlar sevib iste'mol qiladigan, tuxum, shakar, sut va un qorishmasidan tayyorlanadigan pishiriq.

keldi. Eshik lang ochilib, poliga tosh yotqizilgan keng vestibyl¹ ko'rindi. Katta Zalidan o'quvchilarning qizg'in suhbatlari, qahqaha, idish-tovoq jaranglari eshitilmoqda. Garrining miyasiga ko'rinmas plashini ustiga tashlab, griffindorchilar stoliga hech kimga sez-dirmay yetib borish xayoli keldi-yu, ammo Snegg uning fikrini o'qib olganday, man etdi:

- Plashni hayolingga ham keltirma, Potter. Ahvolingni hamma ko'rishi kerak. Sen, axir, o'zing shuni xohlagansan.

Garri turgan joyida shartta burildi-da, Katta Zalga shax-dam qadam tashladi: nima bo'lsa bo'lar, manavi Sneggdan tezroq qutulsa bo'lgani. Odatdagidek, uzun stollar uzra, minglab sham-lar havoda muallaq osilgan bo'lib, taralayotgan shu'ladan dastur-xonga terilgan idishlar chiroyli yaltirab ko'rinmoqda. Biroq bularning bari tez odimlab borayotgan Garrining ko'ziga yori-shayotgan bitta dog'day ko'rinmoqda. U shunchalik tez yur-yapdiki, xuffpuffchilar tanib qolguncha yonlaridan o'tib ketish-ga ulgurdi. Tanib, oyoqqa qalqib turishganda esa Garri Ron bilan Germionani qidirib topib, kursilar orasidan o'qday uchib o'tgan-cha, ikkalasining orasiga suqilib kirdi.

- Qayerda sanqib... jin ursin, yuzingga nima qildi? so'radi Ron, ko'zini, atrofda baqrayib qolganlarning ko'ziday katta ochib.

Yuzimga nima qilibdi? – tushunmadi Garri.

Garri qoshig'ini changallab, ko'zini qisib olgancha, o'zining qiyshiq aksiga qaradi.

Aftangoring qonga belanib ketibdi! - baqirdi Ger-miona. Qani, buril-chi... qiz sehrli tayoqchasini qo'lga olib, ko'targancha afsum o'qidi:

- Terjeno!

Garrining egnidagi qurishgan qon g'oyib bo'ldi.

- Rahmat. – minnatdorlik bildiradi Garri, tozalangan yuzini paypaslab. Burnim-chi, joyidami?

¹ Vestibyl (*lotincha*: vestibulum – uyga kiraverishdagi maydoncha, dahliz) - kino, teatr, metro va shu kabi boshqa jamoat inshootlarining ichkari qismiga kirish joyidagi katta, keng sahla, maydon.

– Joyida. Unga nima qilgan edi? – xavotirlandi Germiona. – Garri, tinchlikmi o‘zi, nima bo‘ldi? Seni yo‘qotib qo‘yib, aqldan ozib qolay dedik!

– Keyin, keyin aytib beraman, – dedi Garri, Jinna, Nevill, Din va Simusning diqqat bilan quloq tutib o‘tirgani va hatto «Griffindor» fakultetining arvohi «Deyarli Boshsiz Nik»ning yaqinroq suzib kelganini ko‘rib.

– Lekin... – e‘tiroz bildirdi Germiona.

– Hozir emas, – qat‘iy va ma‘nodor ohangda rad etdi Garri.

«Hamma qahramonlik namoyon etilgan, bir juft O‘limdan zavqlanuvchi va kam deganda birorta dementor bilan bog‘liq allaqanday murakkab vaziyatdan chiqq olganim haqida o‘ylagani ma‘qul, – xayoldan o‘tkazdi Garri. – Malfoy o‘z qahramonligi haqida jar solishni kechga qoldirmaydi, albatta, biroq o‘sha mish-mish gaplar aksariyat griffindorchilarga hali yetib kelmaganiga umid bog‘lasa bo‘ladi-yu».

Garri Ronning likopidan bir juft tovuq soni bilan bir siqim fri¹ usulida qovurilgan kartoshkani tortib oldi-yu, og‘ziga solishga ulgurmasdi. Dasturxonga uzatilgan taomlar g‘oyib bo‘ldi. Endi ularning o‘rniga turli-tuman shirinliklar paydo bo‘ldi. Ron shu zahoti shokoladli pechenega qo‘l uzatdi.

– Nima bo‘lgan taqdirda ham saralash taomilini o‘tkazib yubording, – dedi Germiona.

– Saralovchi shlyapa biron-bir qiziq ma‘lumot berdimi? – qiziqdi Garri, quyuq shinnili tort bo‘lagini olib.

– Yo‘q, o‘sha hammom, o‘sha tos... g‘aninga qarshi kurash uchun birlashishni nasihat qildi.

– Damldor-chi, Voldemort haqida biron nima dedimi? – so‘radi Garri.

– Hozircha yo‘q. U asosiy nutqini hamma ovqatlanib bo‘lganidan so‘ng o‘qiydi. Oz qoldi, – dedi Germiona.

– Snegg Xagridning ziyofatga kechikkanini aytgan edi...

¹ Fri (*ruscha*) – qattiq qizdirilgan yog‘da kartoshka bo‘lakchalarini to‘atrofi qizarguncha qovurish orqali tayyorlanadigan taom.

– ma'lum qildi Garri.

– Sneggni uchratdingmi? Qayerda? – so'radi Ron, es-hushini yo'qotar darajada pechene g'ajib.

– Bexos ro'baru kelib qoldim, – muhmal javob berdi Garri.

– Xagrid atigi ikki-uch daqiqaga kechikdi, xolos, – ma'lum qildi Germiona. – Ana u senga qo'l siltayapti.

Garri «Mo'tabar Stol» tomon o'girilib, chindan ham, qo'l siltayotgan, o'zini, misol uchun, «Griffindor» fakultetining mudiri professor Makgonagall kabi vazmin, obro' saqlab tutishni hech o'rgana olmagan Xagrid tomon kulib boqdi. Boshining qoq uchi Xagridning tirsagidan sal ko'tarilgan professor Makgonagall bahaybat qo'shnisining xulqidan mamnun emasligi bilinib turibdi. Xagridning bu yonida o'tirgan bashorat fani o'qituvchisi professor Sibilla Trelanini ko'rgan Garri biroz ajablandi. Ushbu o'qituvchi minorada joylashgan xonasini kamdan kam hollarda tark etadi, o'quv yili boshlanishi munosabati bilan uyushtiriladigan bunday ziyofatlarda esa uni hech qachon ko'rmagan. Yirik ko'zoynagi orqali ko'zi aqlga to'g'ri kelmaydigan darajada katta ko'rinadigan ushbu sohibkaromat ayol yelkasiga qavat-qavat sholro'mol tashlab, bo'yniga bir dunyo yaltiroq marjon shodalarni osib olgancha, odatdagidek, bema'ni qiyofa kasb etib olgan. Garri doimo Trelanini lo'ttivoz, deb bilgan. Ayniqsa, aynan shu ayolning bashorati oilasining boshiga ko'p kulfat keltirganini o'tgan o'quv yili yakunida bilgach, undan shu qadar qattiq g'azablanganki, ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q. Xayriyatki, bu yil u bashorat fanidan qutuldi. Professor Trelani o'zining mayoq¹ mash'alasiday keladigan ko'zini Garriga qaratdi. Garri shu zahoti teskari o'girilib, Malfoyni ko'rdi. Hech shubha yo'qki, Malfoy Garrini bir yoqli qilganini aytib bermoqda. Slizerinchilar kulgidan o'lar holatga kelib, o'zlarini tuta olmay qarsak chalishmoqda. Garri nigohini tez tortga olib o'tdi.

¹ **Mayoq** (ruscha: *mayak*) – kemalarga yo'l ko'rsatish uchun dengiz qirg'og'i yoki orollarga qurilgan va signal vositalari bilan jihozlangan minora ko'rinishidagi navigatsiya qurilmasi.

Uning ichi o't olganday qizimoqda. Malfoy bilan tanho qolib, gaplashib olish uchun hozir u har narsasini berishga tayyor.

– Professor Divangardga nima kerak ekan o'zi? – so'radi Germiona.

– Vazirlikda aslida nima bo'lganini bilmoqchi bo'lgan ekan, – javob berdi Garri.

– Buning tagiga yetishni yolg'iz ugina istayotgani yo'q, – pishqirib qo'ydi Germiona. Poyezdda savolga ko'mib tashlashdi bizni, a, Ron?

– Ha, – tasdiqladi Ron, – chindan ham, mumtoz ekaningga hamma ishonch hosil qilmoqchi.

– Hatto biz arvoqlar orasida ham ushbu masala muhokama qilinmoqda, – ma'lum qildi «Deyarli Boshsiz Nik», qat-qat burmali yoqasi ustida bazo'r ilinib turgan boshini Garrining ustida ishonch-la egib. – Ular meni Garri Potter masalasi bo'yi-cha o'ziga xos ekspert deb bilishadi. Chunki ikkalamiz do'st ekanimiz arvoqlar olamida ma'lum. Biroq savol yog'dirib, seni mushkul ahvolga solishdan mutlaqo uzoqdaman. «Sir saqlay bilishimni Garri Potter juda yaxshi biladi. O'lsam o'lamanki, uning ishonchiga xiyonat qilmayman», – dedim ularga.

– Dahshatli tahdid! – ta'kidlab qo'ydi Ron. – Ayniqsa, sen shundoq ham o'lganing inobatga olinadigan bo'lsa.

– Hazillaring hamisha o'tmas bolta kabi yoqimli, – xafa bo'ldi «Deyarli Boshsiz Nik», kursi uzra ko'tarilgancha, griffindorchilar stolining narigi boshi tomon uchib.

Shu paytda Damblдор o'rnidan turdi. Kulgi va suhbatlar tinib, Katta Zalda suv sepganday sukunat qaror topdi.

– Xayrli oqshom, do'stlar! – gap boshladi Damblдор, qo'lini ikki tomon, butun zalni quchib olmoqchi bo'lganday, uzatib.

– Qo'liga nima qildi?! – oh urdi Germiona.

Damblдорning o'ng qo'li qorayib ketganini faqat Germiona emas hamma payqagan ko'rinadi. Katta Zalda pichir-pichir boshlandi. Nima gapligini fahmlagan Damblдор tilla tusli binafsharang yengini siltab majruh qo'lini bekitgancha, kulib boqdi.

– Arzimagan jarohat, e'tibor qilmang, – dedi u, beparvo ohangda. – Xo'sh, endi... Yangi kelganlarga xush kelibsiz, eski qadrdonlarga yana yuz ko'rishganimizdan xursandmiz deya qarshi olamiz! Oldinda hammamizni sehrli bilimlardan voqif qiladigan yangi o'quv yili kutmoqda...

– Yozda ham qo'li shunaqa edi, – shivirladi Garri Germionaga. – O'zi yoki, loaqal, Pomfri xonim davolagan bo'lsa kerak, deb o'ylagan edim.

– Jonsizday ko'rinadi, – dahshat ohangida fikr bildirdi Germiona. – Qadimiy qarg'ishlar ta'sirida yuzaga kelgan jarohatlar shunaqa bo'ladi, davolab bo'lmaydi... Yana shunday zahar turlari borki, ularga qarshi ziddi-zahar hali o'ylab topilmagan...

– ... maktabimiz nazoratchisi mister Filch «Ueslilarning ajoyib ultrafokuslari» kulgili mollar do'konidan xarid qilingan har qanday mol batamom man etilganini sizlarga yetkazib qo'yishni mendan alohida iltimos qildi... Kvidish jamoalariga yozilish istagini bildirganlar o'z fakultetlarining mudirlariga murojaat qilishlari mumkin. Bu gap o'yin sharhlovchilariga ham tegishli. Biz sharhlovchilar tanlovini ham e'lon qilganmiz... Bundan tashqari, yangi o'qituvchimiz professor Divangardni sizlarga katta quvonch-la tanishtirib o'tmoqchiman.

Tanasi yo'g'on, kal boshida sham shu'lasi aks etayotgan professor Divangard o'rnidan turib, nimchasi tarang tortilgan qorni bilan stol ustida ko'lanka hosil qildi.

– Mening eski hamkasbim, o'zining oldingi, sehrli damlamalar tayyorlash fani o'qituvchisi lavozimi egallashga rozilik berdi, – davom etdi Damblдор.

– Sehrli damlamalar?

– Damlamalar tayyorlash?

Katta Zalda aks-sado ko'tarildi. O'quvchilar hozirgina, o'z qulog'i bilan eshitgan e'longa bovar qilishmadi.

– Sehrli damlamalar tayyorlash? – baravar takrorlashdi Ron bilan Germiona, Garriga yuzlanib. – Axir, sen o'zing aytgan eding-ku...

– Yovuz kuchdan himoya fani o'qituvchisi lavozimini esa, – ovoz ko'tarishga majbur bo'ldi Damblдор, zaldagi shov-

qinni bosish uchun, – professor Snegg egallaydi.

– Yo‘q! – baland baqirdi Garri, hammaning e‘tiborini o‘ziga qaratib.

Biroq o‘qituvchilar stoli tomon e‘tiroz-la o‘qrayib o‘tirgan Garriga hozir buning ahamiyati yo‘q. Demak, Snegg, baribir, erishibdi-da, zoriqib kutgan maqsadiga? Qanday qilib? Nima uchun? Ko‘p yillardan buyon Dambldor unga yetarlicha ishonch bildirmaydi, deya e‘tirof etilar edi. Endi-chi... kutilmaganda?...

– Axir... Garri, o‘zing aytgan eding-ku, Divangard yovuz kuchdan himoya fanidan dars beradi, deb! – xitob qildi Germiona.

– Men shunday xayolga borgan edim! – javob berdi Garri.

Garri xotirasini talvasalagancha titkilab, bu masalada Dambldor biron nima degani, umuman aytganda, Divangard qaysi fandan dars berishini tilga olganini eslay olmadi.

Dambldorning o‘ng tomonida o‘tirgan Snegg, ismini eshitib, o‘rnida qolgancha, slizerinchilarning gulduros qarsaklarini bosish uchun qo‘lini erinchoqlik-la sal ko‘tarib qo‘ydi. Garri nafratlanadigan ushbu basharada tantana qiyofasini ko‘rdi.

– Har yomonning bir yaxshiligi bo‘ladi, – yirtqich ohang-la, vishilladi u. – Kelasi o‘quv yilida Snegg bo‘lmaydi.

– Nega endi bo‘lmas ekan? – tushunmadi Ron.

– Bu lavozim qarg‘ish-la, sehrlab qo‘yilgan. Xagridning gapi esingdami:

«Falokatga olib boradigan bo‘lmag‘ur ish bo‘lganidan keyin, bunday lavozimga nomzod topishning o‘zi bo‘ladimi? Ushbu lavozim sehrlab qo‘yilgan degan fikr ham yo‘q emas. Chindan ham, agar jo‘yaliroq mulohaza yuritilsa, kim taniydi, o‘sha lavozimda bir yildan ortiq ishlagan o‘qituvchini?» – degan edi. Kvirrell o‘ldi. Shaxsan men, ulardan yana biri asfalasofilinga ravona bo‘lishiga qarshi emasman.

– Garri! – o‘pka-gina qildi Germiona.

– Balkim, u vaqt o‘tib, boz sehrli damlamalar bilan shug‘ullanar, – jo‘yali e‘tiroz bildirdi Ron. – Anavi nusxa, Divangard, bu yerda uzoq ushlanib qolishni istamas, a? Xmuri ista-

madi-yu.

Dambldor tomoq qirib qo'ydi. Katta Zalda faqat Garri, Ron va Germionagina gaplashib o'tirgani yo'q. Sneggning ezgu orzusi nihoyat ushalgani haqidagi xabar hammani hayratga soldi. Jamiki Katta Zal hayajon-la g'o'ng'illamoqda. Ammo Dambldor bunday holatni sezmaganday tutmoqda o'zini. U maktab hayotida ro'y bergan fantastik o'zgarishlar haqida boshqa biron so'z aytmadi, mutlaq sukunat cho'kishini bir necha soniya kutib, so'zini davom etdi:

– Endi boshqa masalaga o'tamiz. O'ylaymanki, Lord Voldemort va uning tarafdorlari bosh ko'tarib, shiddat-la kuch to'playotgani sizga yaxshi ma'lum.

Zaldagi sukunat go'yo kamonning tarang tortilgan ipi kabi jaranglab ketdi. Garri nigohini Malfoyga olib o'tib, e'tiborini Dambldorga qaratishni loyiq topmagan Malfoy sehrli tayoqcha vositasida sanchqini havoda muallaq tutib turganini ko'rdi.

– Yuzaga kelgan bugungi vaziyat naqadar xavfli ekani, xavfsizlikni ta'minlash masalasi qanchalik jiddiy ahamiyat kasb etayotgani, bu borada faqat o'zimiz, ya'ni o'quvchilar-u o'qituvchilar qayg'urishimiz kerakligini ifoda etgani so'z topish qiyin. Yoz faslida qasrimizning sehrli muhofazasi yangi, yanada qudratli tilsimlar vositasida qo'shimcha kuchaytirildi. Shunga qaramay, hammaniz tartib saqlashimiz, zig'irday bo'lsin, beg'amlikka yo'l qo'ymasligimiz kerak. Qanchalik tuturiqsiz ko'rinasin, o'qituvchilar tomonidan berilgan ko'rsatmalarga, xususan, uyquga yotish mahalidan so'ng yotoqxonadan tashqariga chiqmaslik ko'rsatmasiga so'zsiz amal qilishingizni talab qilaman. Yana bir iltimosim bor: agar siz «Xogvars»da yoki uning tashqarisida biron-bir g'ayrioddiy, shubhali holatni sezib qolsangiz, zudlik bilan o'qituvchilarga xabar bering. Men sizning aql-farosatingizga to'liq ishonaman va umid qilamanki, ogoh va hushyor bo'lasiz.

Dambldor moviy ko'zini Katta Zalda o'tirganlarning yuzlaridan yugurtirib o'tib, kulib boqdi.

– Lekin hozir har biringizni iliqqina, momiqqina ko'rpa kutmoqda. Demakki, asosiy vazifangiz – ertangi kun uchun

to'yib uxlashdir. Shunday ekan, keling, bir-birimizga xayrli tun tilaylik. Omon bo'ling!

Kursilar g'ichirlab, o'quvchilar Katta Zalni tark eta boshlashdi. Sindirilgan burni haqida gap tashlashi muqarrar bo'lgan Malfoy va uning og'ziga qarab yuradiganlarga ro'baru kelishni istamagan Garri xaloyiq ichiga singib ketishga shoshilmadi. U – go'yo poyafzal ipini bog'layotgan bo'lib – engash-gancha griffindorchilarni oldinga o'tkazdi. Mas'uliyatni chuqur his etadigan Germiona birinchi sinf o'quvchilari tomon oshiqdi, Ron esa Garrini kutib qoldi. Odam qatorining eng oxirida zalidan chiqish eshigi tomon yo'l olishar ekan, hech kim eshitmayotganiga ishonch hosil qilgan Ron asta so'radi:

– Burningga nima qilgan edi, o'zi?

Garri bor gapni aytib berdi. Ron kulib ham qo'ymadi. Bu esa, o'z navbatida, ikkalasi, chindan ham, qalin do'st ekanidan dalolat beradi.

– Malfoy bashara yasab, burnini ko'rsatayotganiga e'tibor bergan edim, – fikr bildirdi Ron.

Ahamiyati yo'q, – dedi Garri, ma'yus ohangda. – Pinhon eshitib turganimni fahmlab yetguncha aytgan gapini eshit...

Garri Ronning dahshatga tushib, hayajonlanishini kutgan edi-yu, to'pori Ron hatto hayron ham bo'lmadi.

– Qo'ysang-chi, u Parkinsonning oldida quruqlangan, xolos, – xulosa chiqardi Ron. – Malfoy kim bo'lib qolibdiki, «O'zing-Bilasan-Kim» unga topshiriq bersa?

– Voldemortga «Xogvars»da o'z odamiga ega bo'lish shart emasligiga ishonching komilmi? Bunaqasi bir bo'lgan edi...

– O'shaning ismini talaffuz etmasang, yaxshi bo'lar edi, Garri, – eshitildi orqadan gurullagan ovoz.

– Damblдор talaffuz etishdan qo'rqmaydi, – dedi o'girilib, Xagridni ko'rgan Garri.

– Ha, endi u Damblдор-da, – sirli ohangda javob qaytardi Xagrid, – yaxshisi, nega kech qolganingni ayt, Garri. Men juda xavotirlandim.

– Poyezdda biroz ushlanib qoldim, – qisqa tushuntirgan bo'ldi Garri. – Sen-chi, nega kechikding.

– Gurpning holidan xabar olib keldim, – ma’lum qildi baxtiyor bashara yasagan Xagrid. – Soatga qarash xayolimga ham kelmabdi. Endi uning tog’da yangi uyi bor, Dambldor yaratib berdi. Ko’rkam, katta g’or. Ukam o’sha yerda «Taqiqlangan o’rmon»ga nisbatan o’zini ancha yaxshi his etmoqda. Maza qilib suhbatlashdik...

– Rostdanmi? – hayron bo’ldi Garri, Ronning ko’ziga qaramaslikka urinib.

Xagridning Gurp ismli o’gay ukasining asosiy iste’dodi o’rmon daraxtlarini ildizi bilan qo’porib yurishdan iborat. Garri so’nggi bor uchrashganda, o’sha gigantning so’z boyligi atigi beshta so’zdan tashkil topgan bo’lib, ulardan ikkitasini noto’g’ri talaffuz etgan edi.

– Rost, rost, u juda tez rivojlanmoqda, – g’urur-la ma’lum qildi Xagrid. – Ishonmasangiz kerak. Uni o’zimga yordamchi sifatida ishga olsammikan, deb yuribman.

Istehzoli xurullab qo’ygan Ron o’zini aksa urgan ko’yga soldi. Bu vaqtda uchovlon eman eshikka yetib qoldi.

– Xo’p, mayli, ertaga ko’rishguncha! – xayrlashdi Xagrid. – Ertaroq kelsangiz, Otbur... Tovuqqanot bilan ko’rishasiz.

Xagrid qo’lini ko’tarib, bolalar bilan quvnoq xayrlashdida, eshikni ochib, zulmat qa’riga kirib ketdi.

Garri bilan Ron bir-biriga qarab qo’ydi.

– Sehrli hayvonlarni parvarish qilish fanini davom etmoqchi emassan-u, to’g’rimi? – so’radi Garri, Ronning ham kayfiyati buzilganini ko’rib.

– Sen-chi? – so’radi Ron, bosh siltab.

Garri ham bosh siltadi.

– Germiona-chi, u ham davom etmoqchi emas-u, a? – so’radi Ron.

Garri, eng yaxshi ko’rgan o’quvchilari xiyonat qilganidan xabar topgan Xagrid nima deyishi haqida o’ylashni ham istamay, boshini yana siltab qo’ydi.

IX BOB

ZOTI PAST SHAHZODA

Ertasiga ertalab Garri va Ron nonushtagacha Germiona bilan umumiy mehmonxonada uchrashishdi. Fikri qo'llab-quvvatlanishiga umid bog'lagan Garri slizerinchilar kupesida pinhona eshitgan gap-so'zlarni Germionaga aytib berdi.

– Parkinsonning oldida quruqlangani ayon-ku, to'g'rimi? gapga aralashdi Ron, Germiona og'iz juftlashga ulgurmay.

– Hm-m. -- muhamm ovoz chiqardi Germiona, – aniq bir nima deyish qiyin... Malfoy tabiatan kekkayib yurishi ma'lum, albatta... Biroq safsatabozlik uchun bu juda jiddiy mavzu...

Xuddi shunday, – dedi Garri, ammo fikrini oxiriga yetkazishni lozim topmadi.

Ko'pchilik Garriga baqrayib, uchovining suhbatini surbetlarcha eshitishga urinmoqda, ba'zilar esa og'zini kafti bilan to'sib, shivir-shivir qilmoqda. Garri, Ron va Germiona portret ortidagi navbatga turishdi.

– Barmoq o'qtab ko'rsatish odobdan emas, – o'shqirib berdi Ron, mitti bo'yli birinchi sinf o'quvchisiga.

Katichasini yuziga parda qilgancha, o'rtog'i bilan Garri haqida asta suhbatlashib borayotgan bolacha xijolatdan qip-qizarib, o'zini tuynukka otdi.

– Oltinchi sinfda o'qish yoqadi menga! – dedi Ron hirlinglab. – Chunki bu yil bekorchilik qilish uchun ham vaqt ajratiladi.

– Bekorchilik uchun emas Ron, mustaqil ish uchun, -- dedi nasihatomuz ohangda Germiona, yo'lakka chiqqach.

Ila, faqat bugun emas, – gap qaytardi Ron. – Bugun kayf qilamiz.

Germiona qo'lini uzatgancha, to'siq orqali o'tishga uringan to'rtinchi sinf o'quvchisini yelkasidan tutdi.

– To'xta-ani, qani! – buyurdi u, bolaning qo'lidagi rangli lappakni tortib olib. – Nima bu? Vishillaydigan «tuk arilar»? Man etilgan, bu yoqqa uzat.

Bola qovog'ini solgancha, Germionaga irillayotgan arini berib, qo'ltig'i ostiga sho'ng'idi-da, o'rtog'i bilan birga nari qochdi. Ularning ko'zdan g'oyib bo'lishini kutgan Ron, arini o'ziga tortdi:

– Juda yaxshi bo'ldi. Anchadan buyon shunaqasini qidirib yurgan edim.

Baland eshitilgan hiring-hiring Germionaning e'tirozini bosib yubordi. Aftidan, Ronning gapi, ularni quvib o'tayotgan Lavanda Braunning kulgisini qistagan ko'rinadi. Qiz Ronga qarab oldinda borar ekan, kulgisini to'xtata olmadi. Ron esa o'zidan o'zi mamnun bo'lgancha, qoldi.

Katta Zalning moviy shifti baland deraza panjaralari orqali ko'rinayotgan osmon kvadratlari kabi bulut qiyofasining yarim shaffof chiziqlaridan naqsh olgan.

Uchovlon bo'tqa bilan bekonli tuxumga qo'l uzatdi. Ovqatlanishar ekan, Garri bilan Ron kecha Xagrid bilan o'tgan suhbatni Germionaga aytib berishdi.

– Nahotki u sehrli hayvonlar parvarishi bilan shug'ullanishni davom etishimizga umid qilayotgan bo'lsa, – dedi Germiona g'amgin ohangda. – Demoqchimanki biz... qanday qilib yumshoqroq aytsam ekan... bu boradagi ishtiyoqinizni biron-bir ko'rinishda namoyon etmadik, shekilli?

– Haq gap, – fikr bildirdi Ron, oq-sarig'i aralashtirilmay qovurilgan tuxumni butunicha og'ziga tiqib. – Xagridni hurmat qilganimiz uchungina, uning darsida boshqalardan ko'proq tirishgan edik. U esa bunday holatni, o'sha ahmoqona fanini yaxshi ko'rganimizdan deb topgan. Nima deb o'ylaysiz, kimga kerak, uning fanidan SMJA?

Javobga ehtiyoj bo'lmagani bois Garri bilan Germiona indamay qo'ya qolishdi. Ularning jamiki tengqurlari sehrli hayvonlarni parvarish qilish fanidan qutulganiga xursand bo'lishlarini yaxshi bilishadi. Bolalar imkon qadar Xagridning ko'ziga qaramaslikka urinib o'tirishibdi. O'n daqiqa o'tib, o'rnidan turgan Xagrid bolalarga sevinch-la qo'l siltar ekan, uchovlon og'ir xo'rsinib, javob berdi.

Nonushta o'tgach, griffindorchilar o'tirgan joyida qolib,

professor Makgonagallni kutishdi. Bu yil mashg'ulotlar jadvalini tarqatish, odatdagidan qiyinroq kechdi. Negaki har bir o'quvchini, u yoki bu fan ta'limotini davom etishi uchun MOSDning zaruriy saviyasiga ega bo'lganini tekshirib chiqish zarur.

Germiona afsun o'qish, yovuz kuchdan himoya, bir narsani boshqa narsaga aylantirish, gerbologiya, numerologiya¹, qadimiy runalar va sehrli damlamalar tayyorlash fanlarini o'zlashtirishni davom etish borasida ruxsatnoma olishi bilan vaqt yo'qotmay, qadimiy runalar darsiga yugurib ketdi. Nevill masalasi ancha qiyin kechdi. Toki professor Makgonagall uning arizasi bilan MOSDning zaruriy saviyasiga ega bo'lish uchun topshirgan imtihonining natijalarini taqqoslab chiqar ekan, bola bechoraning kulcha yuzidan hayajon arimadi.

Gerbologiya, juda soz, – dedi professor Makgonagall.

Professor Sarsabil xonim «oliy» bahongiz bilan sizni bajonidil qabul qiladi. «Kutilmagan holat» bahosi bilan yovuz kuchdan himoya fanini ham davom etsangiz bo'ladi. Xo'sh, endi, bir narsani boshqa narsaga aylantirish faniga kelsak... taassufki, «qoniqarli» baho kamlik qiladi. Bu borada SMJA talablari yuqori bo'lib, ish hajmini uddalay olishingizga ishonchim komil emas.

Nevill boshini xam qilib oldi. Professor Makgonagall o'zining kvadrat ko'zoynagi orqali bolaga diqqat bilan nazar soldi.

– Umuman aytganda, sizga nima keragi bor o'sha fan? Nazarimda, u hech qachon sizni quvontirmagan.

Baxtsiz qiyofa kasb etgan Nevill «Buvim juda xohlagan edi»ga o'xshash allanima deb g'o'ng'illadi.

– Buvingizga siz-la faxrlanish vaqti allaqachon yetgan, – pishqirib qo'ydi professor Makgonagall. – Ayniqsa, vazirlikda yuz bergan hodisadan so'ng.

Rangi qip-qizil tus olgan Nevill tortingancha, ko'zini pirpiratdi. Chunki professor Makgonagall uni hech qachon

¹ **Numerologiya** (inglizcha: arifmantika) «Sehrli sonlar»ning tirik organizmlar, shuningdek, insonlar hayotidagi o'rni va ta'sirini o'rganadigan fan. Bu fan ko'proq mistik-fantastika sohasida qo'llaniladi.

maqtamagan.

– Ma’zur tuting, Longbottom, biroq kursimni davom etishga izn bera olmayin sizga. Qarang, afsun o’qish fanidan «kutilmagan holat» bahosiga erishibsiz. O’z kuchingizni o’sha yerda sinab ko’rsangiz bo’lmaydimi?

– Buvimning fikricha, u juda oson yo’l emish, – ming’irladi Nevill.

– Bekor gap, – dedi professor Makgonagall, qat’iy ohangda. – Afsun o’qish fanini o’zlashtirasiz. Avgustaga ikki enli xat bitib, kishi SMJA imtihonini topshira bilmagani uchun-gina fanni befoyda, deb hisoblash mumkin emasligini eslatib o’taman.

Nevillning yuzi quvonchli taajjub-la yashnadi. Professor Makgonagall sezilar-sezilmas kulib boqib, sehrli tayoqchasini toza blankaga urib qo’ydi-da, endi rasmiylashtirilgan shaklda Nevillga uzatdi.

Shundan so’ng fakultet mudiri Parvatti Patilning yoniga keldi. Qiz birinchi navbatda, bashorat fani o’qituvchisi ko’rkam-kentavr Firensni so’radi.

– Professor Trelani ikkalasi xizmat majburiyatlarini bo’lib olishdi, – ma’lum qildi, ushbu fanni juda yomon ko’rishi hammaga ma’lum bo’lgan professor Makgonagall. – Oltinchi sinf professor Trelaniga tegdi.

Besh daqiqadan so’ng hafsalasi pir bo’lgan Parvatti bashorat faniga yo’l oldi.

– Xo’sh, endi Potter, Potter...

Professor Makgonagall Garriga yuzlangancha, yozuvlarni qiyoslab chiqdi.

– Afsun o’qish, yovuz kuchdan himoya, gerbologiya, bir narsani boshqa narsaga aylantirish... juda soz. Ta’kidlab o’tish joizki, Potter, fanim bo’yicha erishgan natijalaringizdan juda mamnunman, juda. Ammo nima uchun siz sehrli damlamalar tayyorlash fanini davom etish borasida ariza bermadingiz? Bilishimcha, siz avrorlik kasbini tanlagansiz, shunday emasmi?

– Xuddi shunday, professor, biroq o’zingiz aytgan edingiz-u, buning uchun imtihonni «oliy» bahoga topshirish ke-

rak deb, – taajjublandi Garri.

– Masalaga professor Sneggning talabiga binoan yondashiladigan bo'lsa, to'g'ri. Professor Divangard esa «kutilmagan holat» bahosiga erishgan o'quvchilarni bajonidil qabul qiladi. Xo'sh, shunday ekan, sehrli damlamalar tayyorlashning sir-asrorlarini o'zlashtirishni davom etish istagini bildirasiz, shundaymi, Potter?

– Davom etaman, professor, – javob berdi Garri. – Ammo men na darslik xarid qilganman va na damlama tayyorlash uchun tarkibiy qismlarni. Hech narsam yo'q, buning uchun...

– Ishonchim komilki, professor Divangard fanni o'zlashtirish uchun zaruriy narsalarning barini sizga berib turadi, – fikr bildirdi professor Makgonagall. – Juda soz, unday bo'lsa, Potter, mana sizga mashg'ulotlar jadvali, ushlang. Ha, aytganday... «Griffindor» kvidish jamoasiga yigirma nafarcha yosh iste'dodlar yozilishga ulgurdi. Saralash sinovlarini o'zingizga qulay vaqtda o'tkazishingiz uchun, ularning ro'yxatini sal kechroq beraman sizga.

Yana bir necha daqiqadan so'ng Ron ham Garri o'zlashtiradigan fanlar uchun ruxsatnomaga ega bo'lib, ikkalasi Katta Zalni tark etdi.

– Qara, – dedi Ron, qo'lidagi mashg'ulotlar jadvaliga zavq-la qarab, – hozir bo'sh ekanmiz... tanaffusdan keyin ham... va hatto tushlik o'tgandan keyin ham... mazza!

Ikkovlon deyarli kimsasiz umumiy mehmonxonaga qaytdi. U yerda yettinchi sinf o'quvchilarining bir necha nafari o'tirishibdi. Ular orasida Garrining birinchi sinfdan buyon kvidish bo'yicha jamoadoshi Ketti Bell ham bor.

– Sen bunga munosib ekanligingni bilar edim, barakalla! qichqirdi u, Garrining ko'ragidagi sardorlik nishoniga imo qilib. – Saralash sinovini qachon o'tkazmoqchisan?

– Bema'ni gapni qo'ysang-chi, – qo'l siltadi Garri. – Nimaga kerak senga o'sha sinovlar? Besh yildan buyon ko'rib kelaman o'yiningni...

– Bir nima deyish qiyin, – ogoh qilgan bo'ldi Ketti. – Mendan yuz chandon zo'r o'ynaydigan ham topilib qolishi

mumkin. Jamoa sardori eski o'yinchilarni qoldirgani yoki qadrdon do'stlarini qabul qilgani sababli ko'plab yaxshi jamoalar tarqab ketgan holatlar ham bo'lgan...

Umidsizlikka yuz tutgan Ron to'rtinchi sinf o'quvchisidan musodara qilingan vishillaydigan «tuk ari»ni o'ynashga kirishdi. Ari irillagancha havoga ko'tarilib, vaqti-vaqti bilan gobeleng¹ hamla qilgancha, mehmonxonani gir aylana ketdi. Sariq ko'zini aridan uzmay o'tirgan Maymoqoyoq, ari har gal yaqin kelganda pishillab qo'ydi.

Bir soat o'tgach, Garri bilan Ron quyosh nuri yoritgan umumiy mehmonxonani istar-istamas tark etib, to'rt qavat pastda joylashgan yovuz kuchdan himoya xonasiga tushishdi. Qo'liga bir-biridan og'ir kitoblarning bir dunyosini ushlab, yuzi tashvishli qiyofa kasb etgan Germiona, kirish eshigi oldida hosil bo'lgan navbatda turibdi.

– Runalar bo'yicha shuncha vazifa berishdiki, qo'ya-verasiz, – g'udulladi u, Garri bilan Ron yaqin kelishgach. – Uzunligi o'n ikki dyuym keladigan insho, ikkita matn tarjimai, chorshanbagacha esa mana buni o'qib chiqish kerak!

– Dahshat, – dedi Ron, esnab.

– Hozir Snegg ham bir olam vazifa beradi.

Shu paytda xona eshigi lang ochilib, ostonada bo'zargan, rangpar yuziga qop-qora yog'li sochi xuddi parda kabi osilib tushgan Snegg ko'rindi. Hamma jim bo'ldi.

– Kiringlar, buyurdi Snegg.

Garri ichkariga kirib, atrofga razm soldi. Ushbu xona endi, chindan ham, Sneggning tabiatiga mos holatga keltirilgan. Derazalariga parda tortilib, sham yoqilgan sinf ancha qorong'ilashgan. Devorga aziyat chekayotgan odamlar, ularning dahshatli jarohatlari, oyoq-qo'li va tanasining boshqa qismlari qayishib-mayishib ketgani tasvirlangan rasmlar osilgan. Indamay joy egallayotgan o'quvchilar, dahshatli rasmlarni qo'rquv-latomosha qilishmoqda.

¹ Gobelen – 1) devorga osib qo'yiladigan suratli gilam (bu yerda shu ma'noda);
2) dekorativ gazlama.

Eshikni yopgach, o'z stoli yoniga yetgan Snegg sinfga yuzlangancha g'ijini b g'udulladi:

– Darsliklaringizni chiqaring deganim yo'q.

Germiona «Yuzsiz bilan yuzma-yuz» kitobini yuk xaltasiga tez joyladi-da, stol ostiga surib qo'ydi.

– Sizlarga aytar gapim bor, diqqat-la quloq tutishingizni talab qilaman, – e'lon qildi o'quvchilarga ko'z yugurtirib chiqqan Snegg, nigohini Garrida biroz to'xtatib. – Shu bugungacha, mening fanimdan sizlarga, bilishimcha, besh nafar har xil o'qituvchi dars o'tgan.

«Bilishimcha, emish... Ularning o'rmini egallash niyatida kalxat singari kuzatib yurgan o'zing emasming?» – nafrat-la xayoldan o'tkazdi Garri.

– Tabiiyki, ularning har biri o'z uslubi-yu afzalliklariga amal qilgan. Bunday chalkashlikda qanday qilib sizlar MOSDning zaruriy saviyasiga ega bo'lish ballarini qirishtirib oldilaring, hayronman. Bundan buyon ham talab darajasida o'qishni davom eta olsalaring, meni yanada hayratda qoldirgan bo'lasiz. Chunki SMJA nihoyatda jiddiy, chuqur bilimga ega bo'lishni taqozo etadi.

Ovozini pasaytirgan Snegg sinf xonasi bo'ylab u yoq bu yoq yura boshladi. Hamma bo'ynini qayirgancha, uning ketidan kuzatib o'tiribdi.

– Son-sanoqsiz, o'zgaruvchan ko'rinishda turlicha namoyon bo'ladigan yovuzlik kuchi abadiydir, – davom etdi Snegg. – Bunday kuch ko'p boshli bo'lib, birini chopib tashlasang, o'rniga har safar yangi, yanada ayyor, oldingisidan-da dahshatli bosh o'sib chiqaveradi. Unday dushman aslo tutqich bermaydi, qiyofasini hamisha o'zgartirib, uni batamom yo'q qilib yuborishning iloji bo'lmaydi...

Garri o'qituvchidan ko'zini uzmay o'tiribdi. Hmm... Yovuzlik kuchini xavfli dushman sifatida e'tirof etish boshqa, ular haqida mana bunday, mehr-muhabbat-la gapirish boshqa.

– Binobarin, – balandroq gapira boshladi Snegg, – o'zingizni o'zingiz himoya qilar ekansiz, topqirlik va uddaburonlik masalasida raqibdan qolishmasligingiz shart. Mana bu rasm-

lar (yurgan joyida barmog'ini devorga o'qtagancha, jon talvasasida qichqirayotgan ayol tasvirini ko'rsatib), aytaylik, Qiynoqqa solish qarg'ishining ta'siri yoki (barmog'ini yuzi biron-bir qiyofa kasb etmay, devorga suyanib turgan kishi tasviriga olib o'tdi) dementorning bo'sasi, yoxud (qo'lini yerdagi qon bo'tqasi tasviriga o'qtadi Snegg) infernal hamlasi haqida yetarlicha aniq tasavvur beradi.

– Demak, infernallar paydo bo'lgani rost ekan-da? – ingichka ovozda so'radi Parvatti Patil. – Ulardan foydalanishi mumkinmi, u?

– Yovuz Lord infernallar xizmatidan o'tgan gal foydalanagan, – javob berdi Snegg. – Demak, kelgusida ham foydalanishi mumkin, buni tushunib yetishlaring kerak. Endi esa... (devor yonidan o'z yozuv stoli tomon o'quvchilar nigohini orqasida hilpirayotgan korjomasiga qadatib shahd-la yura ketdi u) bilishimcha, afsunni ichki ovoz-la qo'llash usulidan xabaringiz yo'q. Qanday afzalliklarga ega bunday afsunlar?

Germionaning qo'li shu zahoti yuqoriga otildi. Snegg xonaga shoshilmay ko'z yugurtirib chiqib, boshqa hech kim qo'l ko'tarmaganiga ishonch hosil qilgach, qisqa qildi.

– Juda yaxshi. Miss Grenjer? – ijozat berdi u.

– Raqib siz ko'zlagan niyatdan bexabar qoladi, – dedi Germiona. – Bunday holat esa, o'z navbatida, bir necha soniya ichida ustunlikka erishish imkonini beradi.

– «6-sinf uchun mo'ljallangan afsunlarning standart kitobi»dan so'zma-so'z yod olinib berilgan javob (basharasini jirkangancha burishtirdi Snegg, burchakda o'tirgan Malfoyning kulgisini qistab). Biroq tan olish kerakki, mazmunan to'g'ri. Darhaqiqat, agar sehr san'atini, qo'llaniladigan afsunni baqirmasdan, indamay ijro etgan tarzda o'zlashtira olsangiz, siz qo'llagan sehr-jodu raqib uchun ma'lum ma'noda tasodiflik elementiga ega bo'ladi. Tabiiyki, bunga hamma ham qodir emas. Chunki afsunni bu tarzda ijro etish uchun kishidan o'z irodasi va fikr-xayolini bir yerga, o'ziga xos tarzda jamlash talab etiladi. Bunday qobiliyatdan esa ayrimlar, – dedi u, Garriga xunuk qarab, – mutlaqo mahruandir.

Toki Snegg ko'zini olib qochmas ekan, g'azab-la do'layib o'tirishga ahd qilgan Garri, okklumensiyani o'zlashtirish borasida o'tgan yili sharmandalarcha o'tgan mashg'ulotlarga shama qilinganini yaxshi tushundi.

– Hozir hammangiz juftlarga bo'linasiz, – davom etdi Snegg. Biringiz indamay afsun qo'llaysiz, ikkinchingiz esa uni qaytarishga urinib ko'rasiz. Mashqqa kirishing.

Garri o'tgan yili sinfdoshlarining kam deganda yarmiga (xususan, DA a'zolarining bariga) Sapchitish qarg'ishini o'rgatib qo'yganini Snegg bilmaydi, albatta, ammo ushbu qarg'ish ijrosini hali hech kim ovoz chiqarmay bajarishga urinib ko'rgani yo'q. Hozir ham ko'pchilik g'irromlik qilib, afsunni pichirlab talaffuz etmoqda.

Tabiiyki, o'n daqiqa o'tar-o'tmas, Germiona Nevill yo'l-lagan Paxta oyoq qarg'ishini miq etmay qaytardi.

«Uning mahorati uchun boshqa har qanday o'qituvchi «Griffindor»ga kam deganda yigirma ball bergan bo'lar edi», – ma'yuslik-la xayoldan o'tkazdi Garri.

O'quvchilar orasida yirik uchar kalamushday shiddat-la u yog'dan, bu yoqqa daydib yurgan Snegg, odatdagidek, Germionaning yutug'ini umuman pisand qilmay, topshiriqni qanday uddalay olayotganini ko'rish uchun Garri bilan Ronning yonida to'xtadi.

Afsunni bexos baqirib yubormaslik uchun labini mahkam qimtib olgan Ron, yuzi lavlagiday qizarib kuchangancha, Garrini sehlashga urinmoqda.

– Juda achinarli manzara, Uesli, – dedi Snegg, biroz kuzatib turib, – amal qanday bajarilishini qarab, o'rganing....

Snegg qo'lidagi sehrli tayoqchasini Garriga yashin tezligida o'qtadi. Garri esa shu zahoti, g'ayriixtiyoriy ravishda, ichki ovoz qo'llash kerakligini mutlaqo unutib, o'kirdi:

Protego!

To'sish tilsimi shu qadar kuchli chiqdiki, Snegg muvozanatni yo'qotib, stol ustiga quladi. Hamma ular tomon o'girildi.

– Ichki ovoz-la mashq qilishni amr etganim yodingizdami, Potter? – darg'azab holatda oyoqqa turdi Snegg.

-- Ha, – g'udulladi Garri.

-- Ha, ser, – tuzatish kiritdi Snegg.

-- Menga «ser», deya murojaat etishingiz shart emas, professor.

Garri o'ylamay gapirib qo'ydi. Ayrimlar, shu jumladan, Germiona ham oh urdi. Snegging ortida turgan Ron, Din, Simus esa holatni ma'qullagancha, hiringlab qo'yishdi.

-- Jazo. Shanba kuni oqshomda xonamga kelasiz, – tishi orasidan vishilladi Snegg. -- Menga nisbatan surbetlik qilishga hech kimga, u ming Mumtoz bo'lib ketgan taqdirda ham, yo'l qo'ymayman, Potter....

-- Boplading, Garri! – maqtadi xandon otayotgan Ron, dars tugab, Snegging xonasidan xavfsiz masofaga uzoqlashgach.

-- Hech ham boplagani yo'q, – e'tiroz bildirdi Germiona, Ronga o'qrayib. -- Bu nima qilganing, Garri?

-- U menga qarshi qarg'ish qo'llamoqchi bo'ldi, agar fahmlagan bo'lsang, – g'ijirladi Garri. -- Okklumensiya darslarida to'yganman uning qarg'ishlariga! O'z tajribalari uchun biron-bir boshqa dengiz cho'chqasini topib olsin! Ushbu fandan dars berishga nega ruxsat berishdi o'zi unga? Eshitdingizmi, yovuzlik kuchi haqida qanchalik huzur-la gapirganini? «Qiyofasini hamisha o'zgartirib borib, batamom yo'q qilishning iloji bo'lmaydi»...

-- O'sha so'zlarni xuddi sendan eshitganday bo'ldim, – xotirjam kulib boqdi Germiona.

-- Mendan? – hayron bo'ldi Garri.

-- Ha, sendan. Voldemortning qarshisida turish qanday bo'lishini tavsiflaganingni esladim. O'shanda sen: «O'ntacha qarg'ishni yod olib, uning basharasiga qarata qo'llash bilan ish bitadi, ish xuddi darsdagi kabi kechadi deb o'ylaysizmi? Aslo yo'q. Uning ko'ziga qarar ekansiz, faqat bir narsani, u ham bo'lsa, sizni muqarrar o'limdan yo ziyraklik, yo mardlik, yo... bilmadim nima saqlab qolishi mumkinligini o'ylaysiz, xolos!» -- degan eding. Seningcha, Snegg ham bugun o'sha gapingni takrorlamadimi? Yo ziyraklik, yo mardlikka da'vat etmadimi?

Garri Germionaning xotirasi kuchliligi, xuddi «Afsunlarning standart kitobi»dan iqtibos keltirganday, o'tgan yilgi tavsifini so'zma-so'z takrorlaganidan lol bo'lib, baslashmay qo'ya qoldi.

– Garri! Hoy, Garri!

Garri o'girilib, qo'lida pergament o'ramini ushlab olgan, o'tgan yili «Griffindor» kvidish jamoasining «Urrib qaytaruvchi»laridan biri sifatida o'ynagan Jek Sloperning hansirab kelayotganini ko'rdi.

– Mana bu senga, ushla, – dedi bofa. – Menga qara, aytishlaricha, sen jamoaning yangi Sardori emishsan. Saralash sinovlari qachon o'tkaziladi?

– Hozircha, bir nima deya olmayman, – javob berdi Garri, agar Sloper jamoa tarkibida qoladigan bo'lsa, o'zini omadi yurishgan deb bilishi mumkinligi haqida o'ylanib qolib. – O'zim xabar beraman.

– Juda soz. Klashi dam olish kuni o'tkazilsa kerak, deb o'ylagan edim, – taxmin qildi Sloper.

Biroq pergamentdagi dastxatni tanigan Garri endi uning gapini eshitmadi. Sloper fikrini tugatmay, Garri qog'oz o'ramini ochgancha, Ron va Germiona bilan birgalikda nari ketdi.

Qadrdonim Garri,

Mashg'ulotimizni shanba kuni boshlashni istar edim. Iltimos, kechqurun soat sakkizda xonamga kel. Umid qilamanki, maktabdagi birinchi kuning yaxshi o'tdi.

Ehtirom ila,

Albus Dambldor

P. S. Nordon obakidandonni¹ juda xush ko'raman.

– Nima? Nordon obakidandon? – tushunmadi, Garrining yelkasi uzra xat o'qigan Ron, hayron bo'lib.

– Dambldorning xonasiga kirish eshigini qo'riqlaydigan

¹ **Obakidandon** (*forscha*: suyuq, suvli+tish) – shakar qiyomidan tayyorlangan shirinlik turi.

Ajdar tusli tosh ilon haykali uchun parol bu, - past ovozda tushuntirish berdi Garri. – Xa-xa-xa! Buni eshitgan Sneggning qo'ltig'idan tarvuzi tushib ketadi... tayinlagan jazosini keyinga qoldirishiga to'g'ri keladi!

Garriga nimadan dars berilishi mumkinligi haqida uchovlon butun tanaffus davomida taxmin qilib yurdi. Ronning fikriga ko'ra, Dambldor Garriga O'limdan zavqlanuvchilarga no-ma'lum bo'lgan dahshatli qarg'ishlar ijrosini o'rgatadi. Germiona bunday taxminga e'tiroz bildirib, unday mashg'ulotlar qonunga xilof ekanini ta'kidlab o'tdi. Qizning fikricha, Dambldor Garriga oliy sehrning himoya afsunlarini o'rgatishi mumkin ekan. Tanaffus o'tgach, Germiona numerologiya darsiga yo'l oldi. Garri bilan Ron esa umumiy mehmonxonaga qaytib, Snegg bergan nihoyatda murakkab uyga vazifa ijrosiga istar-istamas kirishdi. Germiona qaytib kelganda bolalar haligacha o'sha vazifa ustida bosh qotirib o'tirishgan edi. Qiz kelgach, ishlar ancha yurishib ketdi. Endigina uddalashgan ediki, qo'ng'iroq zarbasi eshitilib uchovlon, yaqin vaqtgacha Sneggning makoni sanalgan yerosti yo'lagidagi sinf xonasi – qo'sh soatli sehrli damlamalar tayyorlash darsiga yo'l oldi.

Yo'lakda turgan odamlar soniga ko'ra, ushbu fanni atigi o'n ikki nafarcha o'quvchi o'zlashtirishi ma'lum bo'ldi. Krabbe bilan Goyl, aftidan, o'tish balliga ega bo'la olishmagan, lekin to'rt nafar slizerinechi, shu jumladan, Malfoy ham mutlaqo oddiy sehrgarlik darajasining zaruriy saviyasiga ega bo'lish uchun imtihon topshira olishgan ko'rinadi. Ulardan tashqari, eshik yonida to'rt nafar ravenklochi o'quvchi va haddan ortiq mutakabbirligi uchun Garri unchalik ko'rmaydigan xufflpuffchi bola Erni Makmillan turibdi.

– Garri, – viqor-la qo'l uzatdi Erni, – yovuz kuchdan himoya darsida oldingga bora olmadim. Dars yaxshi o'tdi. biroq fikrimcha himoya afsunlari, DAning nima ekanini biladiganlar uchun eski qo'shiqdir. Ha, aytganday, Ron, Germiona, qalaysizlar?

Ikkovlon og'iz juftlagan ediki, xona eshigi lang ochilib, dastlab katta qorin, uning ortidan Divangardning o'zi ko'rindi.

Professor qalin mo'ylovini qayirgancha kulib, Garri bilan Zabini sevingancha qarshi oldi.

Xonani g'ayrioddiy hid va rang-barang bug' qamragan. Ichida allaqanday suyuqlik qaynayotgan qozonlar yonidan o'tgan Garri, Ron va Germiona qiziqsinib hidlab ko'rishdi.

Slizerinchilar alohida stolni egallashdi, «Ravenklo» o'quvchilari ham shunday ish tutishdi, o'ziga haddan ortiq jalb etadigan hid taratayotgan tillarang qozon yaqinidagi stolni Garri, Ron va Germiona Erni bilan birga egallashdi. Ushbu hid Garri-ning tasavvurida quyuq shinnili tort, supurgining yangi sopi va Boshpanani esga soladigan allaqanday xushbo'y gullarni gavdalantirdi. Qozondagi muattar suyuqlikdan qonib ichkisi kelgan Garri chuqur nafas olib, tanasi rohatlangancha Ronga qarab jilmaydi, Ron ham javoban erinchoqlik-la irjaydi.

– Xo'sh, – ovoz chiqardi, yirik tanasi rang-barang bug' pag'alari orasida xira ko'ringan Divangard, – tarozi, damlamaning tarkibiy qismlari... va «Oliy damlamachilik» darsligini chiqaramiz. Ha, yana...

– Ser, – dedi Garri, qo'l ko'tarib.

– Garri, nima demoqchisan, o'g'lim? – e'tibor qildi professor.

– Menda na darslik, na tarozi bor. Sehrli damlamalar tayyorlash faniga taalluqli hech narsam yo'q... Ronda ham... Bilasizmi, faningizni davom etishdan xabarimiz yo'q edi...

Ha-ya, professor Makgonagall aytgan edi... Xijolat bo'lma, bolaginam, tashvish tortma. Bugungi damlamaning tarkibiy qismlarini ombordan olishingiz mumkin, ishonchim komilki, u yerda tarozi ham topiladi, eskirgan darsliklar ham bor. Dastlabki mashg'ulotga shu kifoya. «Jimjimador va siyoh dog'i» kitob do'koniga buyurtma-xat yo'llang, yangisini olasiz...

Divangard burchakda turgan katta javonni kovlashtirib, Vozliyanus Senning ikkita nihoyatda titilib ketgan «Oliy damlamachilik» kitobi va bir juft xira tortgan tarozi chiqarib, Garri bilan Ronga uzatdi.

– Ko'rib turganingizdek, damlamalarning bir necha turini sizga namoyish etish uchun oldindan tayyorlab qo'ydim, –

dars boshladi Divangard, ko'ragini, egnidagi nimchasining tugmalari uzilib ketar darajada kerib. -- Ta'lim kursi yakunida, ushbu damlamalarni tayyorlash jarayonining sir-asrorlarini to'la-to'kis o'zlashtirib olishingiz kerak. Hayotingizda hech qachon qaynatmagan bo'lsangiz-da, siz, bu damlamalar haqida eshitgan bo'lishingiz kerak. Kim biladi, mana bu qaysi damlama?

Divangard slizerinchilar stoli yaqinidagi qozonga imo qildi. O'rnidan biroz ko'tarilgan Garri qozonda oddiy suv qaynayotganini ko'rdi.

Germiona havosi olingan harakat-la qo'lini yuqoriga ko'tardi. U birinchi bo'lib qo'l ko'targani bois Divangard kaftini qiz tomon uzatdi.

– Ushbu rangsiz, hidsiz suyuqlik kishini istig'for keltirishga majbur qiladigan Iqror bo'lish damlamasidir, – dedi Germiona.

– Juda soz! A'lo! -- sevinib ketdi Divangard. - Endi bunisi, – davom etdi u, «Ravenklo» stoli yonidagi qozonga imo qilib. – Bu ham yetarlicha tanish damlama... o'rni kelganda aytishim joizki, vazirlik tomonidan yaqinda berilgan ko'rsatmalarda tilga olib o'tilgan... Kim?...

Germiona yana hammadan oldin qo'lini ko'tardi.

– Barcha qiyofalar damlamasi, – ma'lum qildi qiz.

Garri ham ikkinchi qozonda miltillab qaynayotgan yelimshak suyuqlikni tanidi. Biroq to'g'ri javob uchun shuhrat toji, odatdagiday, Germionaga nasib qilganidan dilsiyoh bo'lmadi. Axir, uchinchi sinfda o'qib yurishganda, ushbu damlamani aynan Germiona tayyorlay bilgan-u, har qalay.

– Juda soz! A'lo! Endi bu qozondagi... Ha, qadrdonim? -- hayratlandi Divangard, Germiona yana qo'l ko'targanini ko'rib.

– Bu – amortensiya damlamasi!

– Juda to'g'ri. So'rashning o'zi ahmoqlik, lekin har qalay, – dedi Divangard, Germionaning bilimidan hayratlanib kelib. – Qanday ta'sirga ega, u?

– Amortensiya – dunyoda eng kuchli sevgi damlamasi sanaladi! – javob berdi Germiona.

– Aynan! Bilishimcha, siz uni sadafrangda yaltirab turishidan tanidingiz, shundaymi?

– Yuqoriga o‘ziga xos spiral shaklida ko‘tarilayotgan bug‘idan ham, – ko‘tarinki ruh-la, qo‘shimcha qildi Germiona. -- Shuningdek, ushbu damlama har xil odamlar uchun, kimga ko‘proq nima yoqishiga bog‘liq holda, turlicha hidga ega. Chunonchi men yangi o‘rilgan maysa bilan yangi pergament hidini his etmoqdaman va...

Qiz sezilarsiz darajada qizarib, fikrini yakunlamadi.

– Ismingizni bilsam bo‘ladimi, azizam? – so‘radi Divangard, qizning uyalib ketganiga e‘tibor qilmay.

– Germiona Grenjer, ser.

– Grenjer? Grenjer? Mabodo Siz, «Damlamachilarning g‘ayrioddiy jamiyati»ga asos solgan Gektor Dagvort-Grenjer-ning qarindoshi emasmisiz?

– Ehtimoldan yiroq bu, ser. Men magllar oilasida tug‘ilgan sehrgarlar toifasiga mansubman.

Garri Malfoyning Nott tomon engashib pichirlagani va ikkalasi jirkanch hirlinglashganini ko‘rdi. Qizning javobini eshitgan Divangard esa xijolat bo‘lmadi, aksincha, yuzi yashnab, nigohini Germionaning yonida o‘tirgan Garriga olib o‘tdi.

– «Mening eng yaqin do‘stim ham magllar oilasida tug‘ilganlardan va ayni vaqtda, tengqurlarimiz orasida eng ibratli o‘quvchi qiz sanaladi», – degan eding. O‘ylashimcha, Garri, sen aytgan o‘quvchi qiz, aynan shu qizaloq bo‘ladi, shundaymi?

– Xuddi shunday, ser, – tasdiqladi Garri.

– Xo‘sh... unday bo‘lsa «Griffindor»ga yigirma ball, miss Grenjer, ifodali ohangda qaror qildi Divangard.

Malfoyning turqi, xuddi Germiona uning basharasiga yana bir musht solganday qiyofa kasb etdi. Yashnab ketgan Germiona esa Garri tomon burilib, pichirladi:

– Sen, chindan ham, meni tengqurlar orasida eng ibratli o‘quvchi qiz, deb aytdingmi? O, Garri!

– Ha, nima qilibdi? anglab bo‘lmas g‘ijingancha, pichirladi Ron. Sen, chindan ham, eng ibratli qizsan. Men ham shunday degan bo‘lar edim, agar mendan so‘rashganda!

Germiona kulib boqdi-da, o'qituvchining gapini eshitish kerak bo'lgani uchun imo ila «jim» degan bo'ldi.

– Tabiiyki, amortensiya inson qalbida chin muhabbat uyg'otmaydi. Chunki muhabbat sun'iy ravishda shakllanmaydi. Ushbu damlama otashin zavqni yuzaga keltirib, kishini savdoyi qilib qo'yishi mumkin. Bu, har qalay, ayni vaqtda, ushbu xonada mavjud eng xavfli, o'ta kuchli ta'sirga ega modda... Ha, ha – noxush bosh irg'idi Divangard, shubha ila lab burgan Malfoy bilan Nottga qarab – mening ko'rganimni siz ham ko'rib ulgursangiz, zavq kuchiga bepisand qaramaydigan bo'lib qolasiz... Yaxshisi, – o'z fikrini o'zi bo'ldi Divangard, – ishga kirishaylik.

– Lekin, ser, siz hali anavi qozonda nima borligini aytmadigiz, – dedi Erni Makmillan, o'qituvchining stoli yonidagi qora qozonchaga imo qilib.

Ushbu qozonchada eritilgan oltinni eslatayotgan tilla tusli suyuqlik shaloplab qaynamoqda. Uning yirik qatralari yerga to'kilmay, suvdan sakrab chiqqan oltin baliqchalar singari bilqillamoqda.

– Ha-ya! – xitob qildi Divangard. – Bunisi qolib ketibdi-yu!

O'qituvchi ushbu qozonni unutmagani, shunchaki, sipogarchilik uchun u haqda eslatib o'tishlarini sun'iy ravishda kutganini Garri fahmladi.

– Xo'sh, xonimlar va janoblar, ushbu qozonda juda ajib damlama qaynamoqda. Baxt-u tole deb nomlanadi... va anglashimcha, miss Grenjer, – dedi Divangard baland ovozda oh urgan Germiona tomon o'girilib. – Bu qanaqangi damlama ekanini yaxshi bilasiz, shundaymi?

– Suyuq omad, – hayajon-la, g'o'ldiradi Germiona. – Omad keltirish damlamasi!

Sinfda o'tirganlarning bari belini to'g'rilab oldi. Hatto ensasidagi oq sariq silliq sochi Garriga ko'rinayotgan Malfoyning ham diqqat-e'tibori butunicha o'qituvchiga qaratilgan.

– To'g'ri, juda to'g'ri! «Griffindor»ga yana o'n ball. Ha, baxt-u tole... Juda alomat damlama, – g'udulladi Divangard. – Uni tayyorlash jarayoni o'ta murakkab kechib, har qanday

arziyas xato nihoyatda qimmatga tushadi. Lekin uni, mana bunday holatda, to'g'ri tayyorlay olsangiz, iste'mol qilgach, har qanday ishingiz muvaffaqiyat-la yakun topishini his etasiz... har qalay, ichimlikning ta'sir qilish muddati o'tguncha.

– Nima uchun odamlar, ushbu damlamani muntazam ichib yurmaydi, ser? – so'radi, hayajonidan ko'zi chaqnab ketgan Terri But.

– Agar u tez-tez iste'mol qilib borilsa, kishining mulohazasizligini, beboklikligini va nihoyatda xavfli manmanlikni qo'zg'atib yuboradi, – javob berdi Divangard. – Har narsaning ozi yaxshi, degan gapni eshitgansiz, albatta, shundaymi? Ushbu damlamaning katta dozasi o'ta zaharlidir. Agar har zamon-bir zamonda oz-ozdan ichilsa...

– O'zingiz ichgan holatlar bo'lganmi, ser? – katta qiziqish-la, so'radi Maykl Korner.

– Ikki marta, – javob berdi Divangard. – Birinchi bor yigirma to'rt yoshimda, ikkinchi bor ellik yetti yoshimda. Nohush vaqtida ikki osh qoshiqdan. Ikki bag'oyat baxtiyor kun...

Qariya o'z xotiralariga berilgancha, allaqanday bo'shliqqa tikilib qoldi. O'ynayaptimi, yo'qmi, tushunib bo'lmaydi. xayolan tahlil qildi Garri, lekin ta'sirchan chiqyapti.

– Aynan mana shu damlama, – davom etdi Divangard, osmondan yerga tushib, – bugungi mashg'ulotimizning asosiy sovrini bo'ladi.

Oraga jimlik cho'kdi. Har bir tovush, har bir qulqullash o'n barobar kuchayib ketganday bo'ldi.

– Bir shishacha baxt-u tole damlamasi, – e'lon qildi Divangard kissasidan chiqargan tiqinli shishachani baland ko'tarib.

– O'n ikki soatli ta'sirga ega damlama. Tong sahardan qosh qorayguncha omad sizga yor bo'ladi... Ammo ogohlantirib qo'yish joizki, uni tashkillashtirilgan, jumladan, sport musobaqalari, imtihon, saylov kabi tadbirlar ishtirokchisiga iste'mol qilish man etiladi. Sovrindorimiz, bugun qo'lga kiritadigan ushbu o'ljasidan o'z hayotining, bir zumda eng omadli kunga aylanib qoladigan oddiy kunlaridan birida foydalana olishi mumkin! Xo'sh – bardam davom etdi Divangard – g'ayrioddiy sovrinimni qanday

qilib qo'lga kiritish mumkin? Dastlab, «Oliy damlamachilik»ning o'ninchi sahifasini ochamiz. Ixtiyoringizda bir soatdan sal ko'proq vaqt bo'lib, bu muddat tirik qoldiradigan ajal qultumini tayyorlashga yetadi. Bunday murakkab damlamani muqaddam, tayyorlamagansiz, bilaman. Binobarin, sizdan favqulodda natija ham kutmayman. Biroq kim boshqalardan yaxshi tayyorlasa baxt-u tole sovrindori bo'ladi. Ishga kirishing!

G'imir-g'imir boshlandi. Hamma o'z qozonini oldiga tortib, tarozi-yu qadoqtoshlarini darang-durung qilganicha ish boshladi. Birov churq etmayapti. Xonada qaror topgan vaziyat jismonan his etilmoqda. Garri Malfoyning «Oliy damlamachilik»ni zo'r berib varaqlayotganini ko'rdi. Aftidan, unga, omadli kun juda zarurga o'xshaydi. Garri ham Divangard bergan titilib ketgan darslikni tez ochdi.

Kitobni ochdi-yu, g'azabi qaynadi. Darslikning oldingi sohibi kitob sahifalarini boshdan oyoq har xil izohlarga to'ldirib yuboribdi. Sahifa hoshiyalarining asosiy matndan farqi qolmagan. Qanday tarkibiy qismlar kerakligini anglab yetish uchun, Garriga kitob ustiga engashib qarashga to'g'ri keldi. Shu yerda ham darslikning ilgari sohibi nimanidir o'chirib, nimalarnidir qo'shib yozgan. Javondan kerakli narsalarni olib, joyiga qaytar ekan, Malfoyning valeriana¹ ildizini ajal quvayotganday tez to'g'rayotganini ko'rdi.

Hamma bir-biriga qarab-qarab qo'ymoqda. Damlamachilikning salbiy va ayni vaqtda ijobiy jihati shundan iboratki, kishi o'z ishini boshqalardan yashira olmaydi. O'n daqiqa o'tar-o'tmas, xonani ko'kimtir bug' qamradi. Germiona, odatdagiday, ilg'orlik qilmoqda. U tayyorlayotgan damlama darslikda bayon etilgan benazir oraliq holatni kasb etib, «qorag'at rangidagi bir jinsli suyuqlik»ka aylanib ulgurgan.

Valeriana ildizini to'g'rayotgan Garri kitob ustiga engashdi. Darslik matni, oldingi sohibi yozgan qing'ir-qiyshiq

¹ **Valeriana** (lotincha: *valeriana* yoki *Valeria* – shu o'simlik kelib chiqqan joy nomi) pushirang gulli, ildizidan shifobaxsh damlama tayyorlanadigan ko'p yillik o't o'simlik. **Valeryanka** – valeriana o'simligining ildizidan efir yoki spirida tayyorlangan, asabni tinchlantirish uchun iste'mol qilinadigan dori.

dastxat ostida bazo'r ko'rinayotgani jahlini chiqarmoqda. Chunonchi, o'sha tentakka shirali loviyani maydalab to'g'rash ko'rsatmasi yoqmay, ustidan: «*Kumush xanjarning yassi tomoni bilan ezilsa, to'g'raganga nisbatan ko'proq shira chiqadi*», – deb yozibdi.

– Ser, siz mening buvam Kabbalaks Malfoyni tanigan bo'lsangiz kerak, a?

Garri boshini kitobdan ko'tarib, Malfoyga qaradi. Shu fursatda Divangard uning yonidan o'tayotgan ekan.

Ha, tanigan edim, – javob berdi Divangard Malfoy tomon qiyoy boqmay, nari ketib. – O'limini eshitib, garchi bevaqt deyish qiyin bo'lsa ham, qayg'urgan edim. Uning yoshida ajdarga xos qora chechakka chalinish...

Istehzoli kulib qo'ygan Garri qozoniga qaradi. Malfoy, aftidan, Snegg zamonida odatlangan kabi alohida e'tibor, so'zsiz homiylikka ega bo'lishga umid qilgan. Biroq endi baxt-u tolegaga ega bo'lish uchun Malfoy o'z qobiliyatini namoyon etishga majburga o'xshaydi.

Shirali loviyani to'g'rash u qadar oson ish emas ekan.

– Kumush pichog'ingni olib tursam, maylimi? – so'radi Garri Germionadan.

Yo'riqnomaga ko'ra, allaqachon binafsha tus olishi kerak bo'lgan damlama to'q qizil rangini saqlab qolayotgan damlamasidan ko'zini uzmagani betoqat Germiona bosh iring'ib qo'ydi.

Garri loviyani pichoqning yassi yuzasi bilan ezar ekan, shu zahoti ko'p miqdorda chiqqan shirani ko'rib, hayron bo'ldi. Bir qarashda qurib qolganday ko'ringan ushbu loviya ichida shuncha shira bo'lishini aqliga sig'dira olmadi. Garri shirani qozonga quyishi bilan damlama yo'riqnomada tavsiflanganday binafsha tus oldi.

Darslikning oldingi sohibiga bo'lgan e'tirozi shu zahoti barham topgan Garri ko'zini qisib olganicha, keyingi ko'rsatmani diqqat-la o'qishga kirishdi. Kitob muallifi damlamani soat mili harakatiga teskari yo'nalishda, toki u suvday shaffof bo'lib qolguncha aralashtirib borishni tavsiya etgan bo'lsa, sobiq sohibi soat mili harakatiga teskari har yetti marta aralashtirgach, bir

marta mil harakati bo'ylab aylantirib qo'yishni maslahat bergan. Agar shu yerda ham haq bo'lib chiqsa-chi u?

Garri damlamani soat mili harakatiga teskari yo'nalishda aralashtirar ekan, nafasini to'xtatdi-da, qoshiqni soat mili harakati bo'ylab bir bor aylantirdi. Natija o'zini uzoq kuttirmadi: damlama shu zahoti och pushti tus oldi.

- Qanday qilding? – talab ohangida so'radi, sochi bug'dan tikka bo'lib, damlamasining rangi o'zgarmaganidan yuzi qizarib ketgan Germiona.

- Bir marta soat mili harakati bo'ylab aylantirib qo'ydim...

- Yo'q, yo'q, kitobda «teskari», deb aytilgan! – e'tiroz-la gapni bo'ldi Germiona.

Garri yelka qisib qo'ydi-da, bilganidan qolmadi. Soat mili harakatiga teskari har yetti marta aralashtirgach, bir marta mil harakati bo'ylab...

Qozonidagi qaynatma suyulgan qizilmiyani eslatayotgan Ron past ovozda tinimsiz so'kinmoqda. Garri atrofga nazar solib chiqdi. Hech kimning damlamasi, uning damlamasi kabi tiniq emas. U nihoyatda suyunib ketdi. Damlama tayyorlash darslarida hali bunday holatga tushmagan.

- Vaqt bo'ldi! – e'lon qildi Divangard. – Marhamat qilib, damlama aralashtirishni bas qiling!

Divangard stollar orasidan indamay, asta-sekin yurib, o'quvchilar bajargan har bir ish natijasiga diqqat-la nazar solib bordi. Qozonlardan birini aralashtirib, birini hidlab ko'rdi va nihoyat, Garri, Ron, Germiona va Ernining stoliga yetdi. Ronning qozonidagi yelimshak suyuqlikni ko'rib, gangigancha kulib boqdi. Ernining ko'k yashil suyuqligi ustida biroz to'xtalib o'tdi. Germionaning damlamasini ma'qullagan bo'lib, bosh irg'idi, lekin Garrining qozoniga qarashi bilan yuzi hayrat qiyofasini kasb etdi.

- SOF G'ALABA! – qichqirdi Divangard, yerosti xonasini boshiga ko'tarib. – Ajoyib, ajoyib! O, Xudo! Garri, aftidan, onangning iste'dodini meros qilib olgan ko'rinasan. Lili ham damlama tayyorlash bo'yicha mohir usta bo'lgan! Xo'sh... mana

va'da qilingan baxt-u tole damlamasi! Foydali ishga ishlat!

Tilla tusli suyuqlikka to'la shishachani ichki kissasiga yashirgan Garri slizerinchilarning quturib ketganini ko'rib xursand bo'lsa, Germionaning xafa bo'lganini ko'rib, o'zini biroz noqulay his etdi. Ron esa esini yo'qotib qo'yganday ko'rinmoqda.

– Qanday uddalading? – pichirlab so'radi u, yerosti xonasidan chiqish eshigi yaqinida.

– Omadim chopgan ko'rinadi, – javob berdi Garri, Malfoyning yaqinroq yurishga urinayotganini ko'rib.

Griffindorchilar stoli ortiga o'tirib, suhbatning xavfsizligiga ishonch hosil qilgan Garri do'stlariga bor gapni aytib berdi. U gapirar ekan, Germionaning yuzi tarashaday qotib bordi.

– Bizga eshittirmay, ichingda aytgan fikringga ko'ra, firibgarlik qilgan ko'rinaman, shundaymi? – so'radi Garri ma'yus ohangda.

– Tom ma'noda sen qilgan firibgarlik bo'lmagan-u, – quruqqina javob qildi Germiona.

– U boshqa yo'riqnoma talablarini bajargan, xolos, – gapga aralashdi og'ir xo'rsinib Ron. – Oqibati ayanchli yakun topishi ham mumkin edi. Shunga qaramay tavakkal qildi va Garri tutgan yo'l o'zini oqladi. O'sha darslikni Divangard menga uzatishi ham mumkin edi, biroq menga gard tegmagan, top-toza kitob nasib qildi. Ellik ikkinchi sahifasiga kimdir qayt qilib yuborganini hisobga olmaganda, albatta...

– Shoshmang, – eshitildi Garrining chap qulog'i ustida kimningdir ovozi.

Kutilmaganda Divangardning xonasidagi gul bo'yini esga soladigan hid taratgan qiz tomon burilgan Garri ustiga engashib olgan Jinnani ko'rdi.

– Men to'g'ri eshitdimmi? Kitob sahifalariga kimdir yozgan yo'riqnoma deyildimi? Shundaymi, Garri?

Jinnaning darg'azab, hayajonli nigohini ko'rgan Garri, gap nima haqida borayotganini darhol fahmladi.

– Xavotir olma, – tinchlantirgan bo'ldi u qizni. – Reddning kundaligi emas u. Sahifalariga kimdir o'z bilganini yozgan

eskirib ketgan oddiy kitob, xolos.

– Lekin sen u yerda bitilgan yo‘riqqa amal qilgansan, shundaymi? – so‘radi Jinna.

– Shunchaki, sahifaning bo‘sh joyiga yozib qoldirilgan tavsiyalardan foydalandim Jinna, oddiy tavsiyalardan...

– Jinna haq, – shu zahoti sergak tortdi Germiona. – Buni, chindan ham, tekshirib ko‘rish kerak. Qandaydir g‘alati tavsiyalarga o‘xshaydi... Tag‘in kim bilsin?...

Germionaga Garrining yuk xaltasidan «Oliy damlamachilik»ni chiqarib, sehrli tayoqchasini qo‘liga oldi.

– Hoy, nima qilyapsan? – e‘tiroz-la qichqirdi Garri.

– Spetsial revelio, – afsun qo‘lladi Germiona, sehrli tayoqchasini kitob muqovasiga urib.

Hech nima yuz bermadi. Eski kitob stol ustida qanday yotgan bo‘lsa, shunday qoldi.

– Bo‘ldimi? – jahl qildi Garri. – Yoki boshimiz uzra sapchib, do‘mbaloq oshishini kutasanmi?

– Xavfsizga o‘xshaydi, – g‘udulladi Germiona, kitobday shubhali nigohini uzmay. – Aytmoqchimanki, aftidan, chindan ham, bu oddiy darslik, shekilli.

– Juda soz, – dedi Garri. – Demak, uni qaytarib olsam bo‘laveradi?

Garri stol ustida yotgan kitobni olmoqchi bo‘ldi-yu, qo‘lidan sirpanib chiqqan darslik yerga tushib, ochildi.

Endi kitobga hech kim qiyo boqmad. Uni olish uchun egilgan Garri orqa forzatsga¹ bitilgan qisqa yozuvni ko‘rib qoldi. Ushbu yozuv ham hozir Garrining sandig‘idagi paypoq ichiga ishonchli bekitib qo‘yilgan baxt-u tole damlamasini qo‘lga kiritishga yordam bergan kitob sahifalaridagi yozuv kabi mayda dastxat-la yozilgan:

«Darslik sohibi – Zoti past Shahzoda».

¹ **Forzats** – kitob varaqlarini muqova bilan biriktirib turadigan qog‘oz yoki mato.

X BOB

MISTER MONSTER

Hafta oxirigacha Garri zoti past Shahzodaning Vozliyanus Senn tomonidan berilgan o'gitlaridan farq qiladigan tavsiyalariga amal qilib bordi. Sehrli damlamalar tayyorlash fanining to'rtinchi darsiga kelganda Divangard ham bu qadar iste'dodli o'quvchisi bo'lmaganini tan oldi, lekin bu Ron bilan Germionani mutlaqo sevintirmadi. Garri ularga foydalanishlari uchun o'z darsligini taklif etib ham ko'rdi, biroq ikkalasi Shahzodaning qing'ir-qiyshiq dastxatini tushunmadi, dars vaqtida Garridan so'rab bilish esa atrofdagi odamlar orasida shubha tug'diradi. Germiona o'jarlik-la «rasmiy talqin»ga amal qilib, salbiy natijaga erishgan sari, darg'azab bo'lib boraverdi.

O'sha Shahzodaning kimligi masalasida Garri ba'zan o'ylanib qoladi. Uyga berilgan vazifalarning hajmi katta bo'lgani bois o'zining «Oliy damlamachilik» darsligini oxirigacha o'qib chiqqani vaqt topa olmayapti, lekin kitobning sobiq sohibi izoh qoldirmagan sog' sahifa yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun yetarli darajada varaqlab chiqdi. Mavjud izohlarning bari ham damlamachilikka taalluqli emas. Ba'zan qarg'ish qo'llashning, aftidan, Shahzodaning o'zi ixtiro qilgan uslublari ham uchrab turadi.

Shanba kuni oqshom mahalda Garri bilan Ron umumiy mehmonxonada mavhum Shahzodani muhokama qilib o'tirishar ekan, kutilmaganda kirib kelgan Germionaning domangir ovozi eshitilib qoldi:

– Yoki o'sha qizning o'zi to'qib yozgan. Negaki ushbu dastxat qiz bolaning dastxatiga o'xshaydi.

– Zoti past Shahzoda-yu u, – e'tiroz bildirdi Garri. – Qaysi zamonda qiz bola Malika emas Shahzoda, degan nom olgan?!

Germiona javob topa olmay, qovoq uyib olgancha, teskari ushlab o'qishga urinayotgan Ronning qo'lidan o'zining «Moddiy tusga barham berish tamoyillari» mavzusida yozgan

inshosini tortib oldi.

Soatga qarab qo'ygan Garri puturi ketgan «Oliy damlamachilik» kitobini yuk xaltasiga joyladi.

– Beshta kam sakkiz. Vaqt bo'ldi. Damblarning huzuriga kechikmay tag'in.

Germiona shu zahoti boshini ko'tarib, eshitilardi nafas chiqardi.

– O-o-o! Omad yor bo'lsin! Biz seni kutib o'tiramiz. Qiziq, nimalarni o'rgatar ekan senga, a?!

– Omad! – tilak bildirdi Ron ham.

Ikkalasi Garrini portret to'sgan tuynukkacha nigoh-lakuzatib qo'ydi.

Qasr yo'laklari kimsasiz. Garriga faqat bir bor, muyulish ortidan chiqib qolgan professor Trelanidan bekinish uchun haykal ortiga o'tib olishga to'g'ri keldi.

– Ikki qarg'a – mojaro, – g'udulladi yaqin kelgan sohibkaromat ayol, qo'lidagi kir qarta dastasini aralashtirib. – Yetti qarg'a – yomonlik alomati. O'n qarg'a – zo'ravonlik. Valet qarg'a – qora sochli yosh yigit, notinch, tergovchiga nisbatan adovat ruhida...

Ayol kutilmaganda haykal qarshisida to'xtab qoldi.

Bema'nilik, – darg'azab ohangda g'udulladi Trelani. qartani g'ayrat-lak aralashtirib.

Garri egilgan holatda bekingan joyida oshpazlik xeresining¹ hidini sezib, yo'lini davom etgan professorning uzoqlashishini kutdi. Sohibkaromat ayol nari ketgach yettinchi qavatga, yo'lak devoriga orqa o'girib turgan ajdar tusidagi tosh haykal yoniga oshiqdi.

– Nordon obakidandon, dedi Garri.

Haykal chetga sakrab o'tib, ortidagi tosh surilgach, harakatchan aylana zina ko'rindi. Garri oyoq qo'yishi bilan zina aylangancha, yuqoriga ko'tarilib, Damblarning xizmat xonasiga olib kiradigan mis bolg'ali katta eman eshik qarshisida to'xtadi.

¹ Xeres -- kuchli uzum vinosining bir navi.

Garri eshik taqillatdi.

– Kiring, – eshitildi Dambldorning ovozi.

– Xayrli kech, ser, – salomlashdi Garri, xona ostonasini xatlab o'tib.

– A, Garri, xayrli kech, – tabassum-la qarshi oldi Dambldor. – O'tir. Umid qilamanki, maktabdagi birinchi o'quv haftasi ko'ngildagiday o'tdi?

– Ha, ser, rahmat, – javob berdi Garri.

– Vaqtni behuda o'tkazmay, mehnat jazosiga tortilishga ham ulgurding?

– E-e-m-m... -- noqulay holatda ming'irladi Garri.

Umuman aytganda, Dambldorning nigohi u qadar qat'iy ham emas edi.

– Professor Snegg bilan kelishib qo'ydim, jazoni keyingi haftada o'tasan.

– Tushunarli, – bosh irladi Garri.

Hozir uni nisbatan muhimroq masala, u ham bo'lsa, nima bilan mashg'ul bo'lishlari o'ylantirib, bu borada oz bo'lsin, shama kutmoqda. Dumaloq xona jihozlari o'zining odatiy joyida turibdi. Ingichka oyoqli stollar ustida terilgan kumush tusli nafis asboblari tinchgina pishillagancha, bug' pag'alarini chiqarmoqda. Maktabning sobiq direktorlari o'z portretlarida mizg'ishmoqda. Eshik yonidagi tilla qo'noqda ziynatli qush Yangus Garriga jonli nigoh-la termilib o'tiribdi. Xulosa qilib aytganda, Dambldor xonani duel mashqlari uchun tayyorlaganga o'xshamaydi.

– Shunday qilib, Garri, – dedi Dambldor ishga kirishish ohangida, – ishonchim komilki, boshqa so'z topilmagani bois dars deb nomlangan mashg'ulotimiz uchun nimalarni rejalashtirganimni bilishni juda istamoqdasan?

– Ha, ser.

– Unday bo'lsa, quloq sol, gap boshladi Dambldor. – Nima sababdan bundan o'n besh yil muqaddam Lord Voldemort seni o'ldirmoqchi bo'lganidan xabar topganingdan so'ng senga ayrim ma'lumotlarni yetkazish vaqti yetganini angladim.

Oraga biroz sukunat cho'kdi.

– O'tgan o'quv yili oxirida menga bor gapni aytdim

degan edingiz, shekilli? – gina qilishdan o‘zini tiya olmadi Garri.
– Ser, – qo‘shib qo‘ydi darhol u.

– Chindan ham, – xotirjam ma’qulladi Damblдор. – Bilganimni aytganman. Biroq shu bugundan e’tiboran sen bilan men mavjud dalil-isbotlarning inkor etib bo‘lmas zaminini tark etib, xotiralarning bilqillama botqog‘i, dadil taxminlar tafsiloti sari yo‘lga chiqamiz. Pishloq qozon yaratish vaqti yetganiga to‘liq ishonch hosil qilgan Xamfri Ikots singari, o‘ta achinarli xatolar-dan bundan buyon men ham kafolatlanganim yo‘q.

– Ammo siz, o‘zingizni haq deb bilasiz, shundaymi?

– Albatta, lekin... har qanday xom sut emgan banda kabi men ham xatoga yo‘l qo‘yishim mumkinligini, esingda bo‘lsa, isbotlab berdim. Modomiki, men – ma’zur tutasan-u – bosh-qalarga nisbatan ancha aqlli sanalar ekanman, men tomondan yo‘l qo‘yilgan xatolar nisbatan jiddiy oqibatlariga olib kelishi muqarrar.

– Ser, – asta gap boshladi Garri, – siz aytmoqchi bo‘lgan gaplarning bashoratga aloqasi bormi? Omon qolishga yordam beradimi menga?

– Bor, bevosita aloqasi bor, – xotirjam javob berdi Damblдор, xuddi Garri ertangi ob-havoni so‘raganday. – Va, fikrimcha, omon qolishingga hech shubhasiz yordam beradi.

Damblдор o‘rnidan turib, yozuv stolini aylanib o‘tdi-da, eshik tomon odimladi. Garri esa kursida aylanib, direktorning harakatini qiziqish-la kuzatib o‘tirdi. Direktor javon ustida engashib, qo‘lida uncha chuqur bo‘lmagan, chetlariga qadimgi runa yozuvlari ajib o‘yma naqsh shaklida yuritilgan tosh chig‘anoqni ushlagancha, qaddini rosladi. Shundan so‘ng yozuv stoliga qaytib, xotira idishini Garrining oldiga qo‘ydi.

– Nimadandir xavotirlanayotgan ko‘rinasan?

Fikr-mulohaza va xotiralar saqlanadigan ushbu chig‘anoq nafaqat foydali, balki, xavfli buyum ham ekanini o‘zining ilgarigi tajribasidan yaxshi biladigan Garri chindan ham damblxotiraga xavfsirab qarab qo‘ydi. Idish ichiga singib kirgan Garri, o‘tgan gal haddan ortiq ko‘p narsalardan voqif bo‘lib chiqqan edi.

– Bu gal safarga men bilan birga chiqasan... va bu galgi safarning g'ayrioddiy jihati shundan iboratki, yo'lga mening ijozatim bilan chiqasan, -- kulib boqdi Damblдор.

– Qayoqqa, ser?

– Bob Ogdenning xotirasiga, – javob berdi Damblдор, kissasidan kumush tusli substansiya¹ solingan billur shishacha chiqarib.

Kim u?

– Sehrli huquqni muhofaza qilish departamentining sobiq rahbari. U yaqinda vafot etdi, lekin o'limidan oldin men u bilan suhbatlashib, xotirasini so'rab olishga ulgurib qolganman. Xizmat majburiyati bilan bir joyga tashrif buyurishi kerak bo'lgan fursatda, biz unga hamroh bo'lamiz... Bir daqiqa, Garri...

Jarohatlangan qo'li og'riyotgani bilinayotgan Damblдор shisha idishcha tiqinini hech ocha olmayapti.

– Ijozat bersangiz, ser...

E'tibor qilma, Garri...

Damblдор sehrli tayoqchasini shishachaga yo'llashi bilan tiqin o'tilib chiqdi.

– Qo'lingizga nima qilganini aytib bermadingiz... ser, – hazarli hamdardlik-la yana qiziqdi Garri, qorayib ketgan barmoqlarga qarab.

– Yo'q Garri, hozir mavridi emas. Bizni Bob Ogden kutmoqda.

Damblдор shishacha ichidagi moddani damblxotiraga quydi. Na gaz, na suyuqlik bo'lgan modda xira miltillagancha, idish ichida aylandi.

– Marhamat, -- iltifot-la dedi Damblдор, qo'lini chig'anoq tomon uzatib.

Chuqur nafas olgan Garri engashib, yuzini kumush tusli moddaga botirdi. Xona larzaga kelib, Garrini nimadir oldinga itqitib yuborganday bo'ldi. Oyog'i yerdan uzilib, gir aylana-yotgan qorong'ilik ichra pastga tushdi... Kutilmagan yorug'lik Garrining ko'zini qamashtirdi. Yorqin quyosh nuriga ko'nikish-

¹ Substansiya – obyektiv reallik, o'z-o'zidan mavjud bo'lgan xilqat.

ga ulgurmay, yonida Damblдор ham ko'rindi.

Ikkovlon ikki tomonida qalin butazor o'sgan so'qmoqda paydo bo'ldi. Yoz osmoni bo'tako'zning moviy tusiday yarqiramoqda. Taxminan o'n fut narida past bo'yli, ko'zini xolga o'xshatib qo'ygan darajada qalin shishali ko'zoynak taqqan baquv-vat yigit yo'lning chap tomonidagi butalar orasiga tiklangan xodaga yuzlanib, unga qoqilgan yog'och ko'rsatkichdagi yozuv-ni o'qimoqda. Bu yigit Ogden ekanini Garri darhol fahmladi. Birinchidan, atrofda boshqa hech kim yo'q, ikkinchidan esa egniga kiygan kiyimi bilan har qanday kishini hayratda qoldiradi. Magl qiyofasiga kirish borasida tajribasi boy bo'lmagan sehrgar aynan mana shunday kiyinadi. Modadan qolgan yo'l-yo'l suzish kiyimi ustidan getr¹ bilan syurtuk² kiyib olgan Ogden ishbilar-monday qayoqqadir tez odimlagani bois, uning egnidagi kiyimni obdan o'rganib chiqishga Garri ulgurmadi.

Damblдор bilan Garri yigit ortidan yo'l olishdi. Garri ham yog'och ko'rsatkichdagi yozuvga qarab o'tdi. Ortki yo'nalishni ko'rsatayotgan millardan biriga «Katta Viselton, 5 milya» yozuvi bitilgan. Ogden yo'l olgan yo'nalishga qaragan milga esa «Kichik Viselton, 1 milya» so'zlari yozilgan.

Tevarak-atrofda butazor, moviy osmon va biroz chayqalib ketayotgan yigit sharpasidan boshqa hech nima ko'rinmaydi. Yo'l chapga burilib, tikka pastga tushdi. Kutilmaganda, Dambl-dor va Garriga butun boshli vodi y kaftday ochilib, unda: ikkita tepalik orasida joylashgan Kichik Viselton qishlog'i, baland cherkov bilan qabriston ko'rindi. Vodiyning narigi boshida ko'tarilgan tepalik ustidagi qalin o'sgan keng maysazor o'rtasida esa ko'rkam imorat savlat to'kib turibdi.

Yo'l shu qadar tik tushganki, Ogden yurgan yo'lida beixtiyor lo'killab bormoqda. Garri qadamini katta-katta tashlab borayotgan Damblдорning ortidan ergashdi. Kichik Viseltonga tushishlarini anglagan Garri, o'tgan safar Divangardning uyiga tashrif buyurishganda hayron bo'lganday, manzilga bu qadar olis

¹ Getr - to'piqdan boldirgacha bekitib turadigan issiq oyoq kiyimi yoki qo'ng'.

² Syurtuk - erkaklarning uzun belburna kamzuli.

nuqtadan yo'l olish sababini tushunmay boshi qotdi. Xayol o'tmay yanglishgani, ular qishloq tomon yo'l olishmaganini fahmladi. Yo'l o'ngga burilgach, muyulish ortidagi butalar orasida ko'ringan syurtukni ilg'ab olishga ulgurdi.

Ikkovlon Ogdenning ketidan bormoqda. Ortda qolgan yo'lakdan ancha tor, iflos, o'nqir-cho'nqir so'qmoq nisbatan baland o'sgan butalar orasidan allaqanday qorong'i daraxtzor tomon cho'zilib tushgan. Daraxtzorga yetgan Damblдор bilan Garri keskin to'xtab, qo'liga sehrli tayoqchasini ushlagan Ogdenning orqasida to'xtashdi.

Kun serquyosh bo'lganiga qaramay, qadimiy, yirik tanali baland daraxtlar qandaydir sovuq, quyuq ko'lanka hosil qilgani bois sal narida turgan kulbani Garri darhol ilg'ay olmadi.

«Uy qurish uchun g'alati joy tanlanibdi», -- xayoldan o'tkazdi u.

Balkim, qishloq manzarasi va yorug'likni to'sib qo'ygan daraxtlarning kesilmagani g'alatidir. Bu uyda birov yashashi ham dargumon. Kulba devorini yo'sin qoplagan, tomini yopgan sopol to'kilib, ayrim to'sinlari ochilib qolgan. Kulbaning tevarak atrofini bo'yi tutun qoraytirib yuborgan derazalargacha yetgan qichitqi o't qamragan. Garri xulosasi to'g'riligiga endigina amin bo'lgan ediki, derazalardan biri qarsillab ochilib, tutunmi u, bug'mi, pag'a-pag'a otilib chiqdi. Aftidan, ichkarida kimdir nimadir tayyorlamoqda.

Garrining nazarida, Ogden xavfsirab, asta-sekin olg'a ilgariladi. Qalin soyaga kirgach, boz to'xtab, ilon qoqilgan eshikka baqrayib qoldi.

Kutilmaganda nimadir shitirlab, qarsilladi va yaqin oradagi daraxtdan to'g'ri Ogdenning oyog'i ostiga juldur kiyimli kishi do'p etib sakrab tushdi. Ortga tisarilayotib, syurtugining etagini bosib olgan Ogden muvozanatini yo'qotib, yuz tuban qulashiga oz qoldi.

– Seni bu yerga hech kim chaqirmagan.

Og'iz bo'shlig'ida bir nechta tishi yo'q kishining paxmoq sochi shu qadar kirki, tanasining rangini farqlab olish qiyin. Mittigina qora ko'zi har tomon qaramoqda. Kulgili tuyulishi

mumkin-u, lekin qiyofasi har qanday kishini hayiqtiradi. Shu bois Garri Ogdenni gap boshlashdan oldin yana bir necha qadam ortga tisarilgani uchun qo'rqq deb topmadi.

– E-e-m-m... Xayrli tong. Men Sehrgarlik vazirli-gidanman...

– Seni bu yerga hech kim chaqirmagan.

– E-e-m-m... Ma'zur tuting... Sizni tushunmadim, – asabiy ohangda g'udulladi Ogden.

Garri Ogdenni biroz ovsarroq kishiday qabul qildi. Bir qo'lida sehrli tayoqcha, ikkinchi qo'lida qonga belangan pichoq siltab gapirayotgan anavi kishi o'z fikrini yetarlicha aniq va tushunarli bayon etdi-yu.

– Sen esa Garri, tushungan bo'lsang kerak, – dedi Damblдор past ovozda.

– Albatta, – hayron bo'lgancha javob berdi Garri. – Nima uchun Ogden?...

Shu payt Garrining nigohi eshikka qoqilgan ilon o'ligiga tushib, fikri ravshanlashib ketdi.

– U serpentargo tilida gapiryapti...

– To'g'ri, – bosh irg'idi Damblдор, kulib boqib.

Juldir kiyimli kishi Ogdenga pichog'i va sehrli tayoq-chasi bilan hamla qila boshladi.

– Quloq soling, – gap boshladi Ogden, lekin kech...

Gumburlagan tovush eshilib, yerga qulagan Ogden burnini changalladi. Barmoqlari orasidan jirkanch sariq suyuqlik sizib chiqdi.

– MORFIN! – baland ovozda qichqirdi kimdir.

Kulbadan allaqanday qariya yugurib chiqdi. U eshikni shu qadar qattiq yopdiki, taxtaga qoqilgan ilon tebranib, dumini ayanchli siltab qo'ydi. Qariyaning bo'yi, daraxtdan sakrab tushgan kishining bo'yidan ancha past, tanasi noto'g'ri bo'lib, yelkasi haddan ortiq keng, qo'li juda uzun o'sib shakllangan. Yaqirayotgan jigarrang ko'zi, qisqa olingan dag'al sochi va ajin qoplagan yuzi bilan uyg'unlashgan ushbu tana qariyani yoshi ancha-ga borgan maymunga o'xshatib qo'ygan. Qo'lida pichoq ushlab, yerda yotgan Ogdenga juda xunuk kulib qarayotgan kishining

yonida keskin to'xtagan qariya Ogdenga murojaat qilib so,

– Vazirlikdanmi?

– Xuddi shunday! – badjahl ohangda javob berdi Ogden, yuzini paypaslab. – Siz esa tushunishimcha, mister Monstersiz, shundaymi?

– Shunday, – javob berdi mister Monster. – Basharangga yecbsan-da?

– Yedim, – jerkib berdi Ogden.

– Kelishing haqida oldindan xabardor qilishing kerak edi, tushunarlimi? – tajovuzkorona ma'lum qildi Monster. – Bu xususiy yer. Modomiki, tomdan tarasha tushganday kelgan ekan-san, o'g'lim o'zini himoya qilgan.

– Kimdan himoyalaniishi kerak, u? – so'radi Ogden, oyoqqa turib.

– Qiziquvchan tumshuqlar, jonga tegar kaslar, magllar va har xil ifloslardan.

Ogden hanuzgacha ko'p miqdorda sariq fasod oqayotgan burniga sehrli tayoqchasini o'qtadi. Mister Monster esa tishi orasidan vishillagancha, Morfinga murojaat qildi:

– Uyga kir. Gap qaytarma.

Bu safar Garri serpentargo tilini darhol ajratib, gap nima haqda ketayotgani, Ogden esa bu vaqtda faqat noxush eshitilayotgan g'alati vishillashni eshitayotganini angladi. Morfin e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi-yu, otasining tahdidli nigohini ko'rib, fikridan qaytdi va beso'naqay qadam tashlagancha, uy tomon ravona bo'lib, eshikni ichkaridan qarsillab yopdi. Sho'rlik ilon dumini yana ma'yusgina likillatib qo'ydi.

– O'g'lingizmi u, mister Monster? – so'radi Ogden, syurtukini fasod qoldiqlaridan tozalab. – Ismi Morfin ekan, shundaymi?

Ha, Morfin, – loqayd javob berdi qariya va daf'atan tajovuzkor ohangda so'radi: – o'zing asl zotlardanmisan?

– Ishingiz bo'lmasin, – sovuq javob qildi Ogden.

Bunday javobni eshitgan Garri, Ogdenga hurmat-la qaraydigan bo'ldi.

Monster esa, aftidan, Ogdenning gapini boshqacha qabul

qilgan ko'rinadi. U ko'zini qisgancha, Ogdenga qarab, haqoratomuz ohangda g'udulladi:

– Bilsang agar, pastda – qishloqda – men bunday burunlarning ko'pini ko'rganman.

– Hayron bo'ladigan joyi yo'q, agar o'g'lingiz u yerga tez-tez tushib turgan bo'lsa, bo'sh kelmadi Ogden. – Suhbatni uyga kirib davom etsak bo'ladimi?

– Mening uyimdami?

– Ha, mister Monster. Aytdim-u, men bu yerga Morfin sababli tashrif buyurdim, deb. Biz boyqush yo'llagan edik...

– Ovora bo'libsang, -- gapni kesdi Monster, -- xat-savodim yo'q mening.

– Unday bo'lsa tashrifim borasida oldindan ogohlantirmaganimiz yuzasidan aytgan shikoyatingiz o'rinsiz, – zaharli ohangda ta'kidladi Ogden. – Bugun tunda yo'l qo'yilgan jiddiy qonunbuzarlikka oydinlik kiritish maqsadida keldim...

– Yaxshi, YaXShi! – o'kirdi Monster. – Kir, jin urgan kulbamga, agar senga shu kerak bo'lsa!

Kulba, aftidan, kichik o'lehamli uchta xonadan tashkil topgan bo'lib, bir vaqtning o'zida ham oshxona, ham mehmonxona vazifasini o'taydigan asosiy xonada ichkari xonalarga olib kiradigan yana ikkita eshik ko'rindi. Buruqsayotgan kamin ro'parasidagi nihoyatda kir kresloda Morfin o'tiribdi. U yo'g'on barmoqlari orasiga siqib olgan tirik qora ilonni aylantirib, serpentargo tilida xirgoyi qilmoqda:

*Viss-viss-viss qora iloncha,
Morfinga bo'ysun sudralgancha,
Yo'qsa qoqilasang tashqi eshikka,
Po'st tashlaysang, qiynalib ancha.*

Xona burchagidagi ochiq deraza yonida shovqin eshiting, u yerda ham kimdir borligi bilindi. Garri egniga kirligidan rangi devor rangidan farq qilmay qolgan yirtiq ko'ylak kiygan qizni ko'rdi. Qiz tutundan qoraygan o'choq yonida, tokchaga terilgan qing'ir-qiyshiq idishlar-u tovalar bilan ovora. Boshiga

yopishtirib taralgan silliq sochi xira bo'lib, rangpar yuzi horg'in qiyofa kasb etgan. Qizning ko'zi ham ukasining ko'zi kabi har tomon qaragan. Garchi, erkaklarga nisbatan batartibroq ko'rinsa-da, Garri, hali bu qadar so'lg'in qizni ko'rmagan.

– Qizim, Meropa, – istar-istamas tanishtirgan bo'ldi Monster. Ogdenning savol ma'nosidagi nazariga javob bergan bo'lib.

– Xayrli tong, – salomlashdi Ogden.

Qiz javob bermay, otasiga qo'rqa-pisa qarab qo'ydi-da, idish-tovoq bilan ovora bo'lishni davom etdi.

– Maqsadga o'tamiz, mister Monster, – gap boshladi Ogden. – O'tgan tunda o'g'lingiz Morfin mag'lning ko'z o'ngida qarg'ish qo'llaganini gumon qilishga barcha asoslarimiz bor...

QARS!

Meropa qo'lidagi idishni tushirib yubordi.

– KO'TAR! – qichqirdi Monster. – Aha, aha, zoti past iflos maglday qo'ling bilan ko'tar! Tayoqcha nimaga berilgan senga, befahm AHMOQ?

Qo'ysangiz-chi, mister Monster! – ovoz ko'tardi Ogden.

Hijolatdan yuzi qizarib, qo'lga olgan idishni yana tushirib yuborgan Meropa kissasidan tayoqchasini chiqarib, idishga yo'lladi-da, bazo'r eshitilgan ovozda afsun qo'lladi. Yerdan ko'tarilgan idish ro'paradagi devor tomon uchib urilgancha, ikki bo'linib tushdi.

Morfin qirqirab kuldi. Monster esa battar o'kirdi:

– Tuzat, noshud qiz, o'z holatiga qaytar idishni, ahmoq!

Meropa qoqilib-surilib singan idish tomon odimladi. Qiz tayoqchasini ko'tarishga ulgurmay, Ogden baland ovozda afsun qo'lladi:

– Reparo!

Idish shu zahoti o'z holatiga qaytdi.

Monster, aftidan, Ogdenga o'shqirib bermoqchi bo'ldi-yu, fikridan qaytui, chog'i, tishining oqini ko'rsatib, qiziga murojaat qildi:

– Vazirlikdan mehribon amaki kelib, omading chopdi, a?

Modomiki, uning shvaxlarga qarshiligi yo'q ekan, ehtimol, seni sotib yuborarmiz unga, a?...

Hech kimga c'tibor qilmagan, Ogdenga ham minnatdorlik bildirmagan Meropa qaltiroq qo'li bilan idishni yerdan olib, tokchadagi o'rniga qo'ydi-da, kir deraza bilan o'choq orasidagi devorga suyanib, xuddi unga singib, yo'q bo'lib ketishni bir umr orzu qilganday, tek turib qoldi.

– Mister Monster, – yana gap boshladi Ogden. – Yuqorida aytganimdek, tashrifimning boisi...

– Buni yaxshi eshitdim! – gapni keskin bo'ldi Monster. – Nima qilibdi? Osmon uzilib, yerga tushibdimi? Morfin maglning adabini berib, boplabdi. Xo'sh, endi nima qilmoqchisiz?

– Morfin sehrgarlar olamining qonunini buzdi, – dedi Ogden qat'iy ohangda.

– Morfin sehrgarlar olamining qonunini buzdi, – masxaraomuz takrorladi Monster.

Morfin o'tirgan joyida hiringlab qo'ydi.

– Maglning bolasiga saboq beribdi, – davom etdi Monster. – Shu ham endi g'ayriqonuniy ish bo'ldimi?

– Ha, – bosh irg'idi Ogden, ichki cho'ntagidan perga-mentning kichik o'ramini chiqarib. – O'sha qilmishi g'ayri-qonuniy xatti-harakat sanaladi.

– Bunisi nima bo'ldi endi, hukmmi? – darg'azab ohangda so'radi Monster.

– Bu – ish ko'rilishi uchun vazirlikka chaqiruv qog'ozi.

– Chaqiruv qog'ozi? Sen kim bo'lib qolibsani o'zi menday kishining o'g'limni chaqirtirgani?

– Men, Sehrgarlik huquqini muhofaza qilish departamentining rahbariman, – tushuntirish berdi Ogden.

– Biz-chi, biz? Demak biz, hech kim emas, shunchaki, yerdan otilib chiqqan qo'ziqorin, shundaymi? – o'kira ketdi Monster, Ogden tomon odimlagancha, sarg'ayib ketgan kir tirnog'ini uning ko'kragiga niqtab. – Vazirlik nimaki buyursa, indamay bajarishimiz kerak bo'lgan, orqa oyoqda irg'ib yuradigan, past tabaqaga mansub kaslarmiz, shundaymi? Sen o'zi tasavvur qilyapsanmi, kim bilan gaplashayotganingni, haromi

maglvachcha?

– Bilishimcha, mister Monster bilan, – dedi oʻzini vazmin tutayotgan Ogden.

– AYNAN! – oʻkirdi Monster, oʻrta barmogʻini koʻrsatib.

Garri dastlab buni beadab qiliq sifatida qabul qildi, lekin durustroq razm solgach, Monster Ogdenga qora koʻzli xunuk uzukni koʻrsatayotganini fahmladi.

– Koʻrdingmi? Koʻrdingmi? Buni nima ekanini bilasanmi, sen oʻzi? Tarixini bilasanmi? Bu uzuk sulolamizda bir necha asrlardan buyon saqlanadi! Mana, qayerdan kelib chiqqan bizning avlodimiz! Barchamiz aslzoda sehrgarlarmiz! Bu uzuk uchun menga qancha pul berishmoqchi boʻlganini tasavvur qilasanmi? Toshiga qara, unda Peverellar gerbi tasvirlangan!

– Yoʻq, tasavvur qila olmayman, – yelka qisdi Ogden, uzuk burnidan bir dyuym narida oʻtib ketganidan koʻzini pirpiratib. – Biroq buning mutlaqo ahamiyati yoʻq, mister Monster. Oʻgʻlingiz qonun...

Oʻkirib yuborgan Monster kutilmagan qiziga tashlanib, qoʻlini farzandining boʻgʻziga uzatdi. Garri, shoʻrlik qiz boʻgʻizlanadi, degan xayolga bordi. Mister Monster Meropani boʻynidagi tilla zanjiridan mahkam ushlagancha, Ogdenning yoniga tortdi.

– Mana buni koʻrdingmi? – oʻshqirdi u, qizning boʻynidagi ogʻir tilla medalyonni siltab.

Meropa dahshatdan xirillay boshladi.

– Koʻrdim, koʻrdim, – tez ishontirdi Ogden.

– Bu – shaxsan Slizerinning oʻziga tegishli boʻlgan! – baqirdi Monster, – Salazar Slizerinning shaxsan oʻziga! Biz uning eng soʻnggi avlodi boʻlamiz! Bunga nima deysan?

– Mister Monster, qizingiz! – xavotir-la xitob qildi Ogden.

Otasining changalidan xalos boʻlgan Meropa boʻynini uqalab, ogʻzi bilan nafas olgancha, oʻz burchagi tomon ravona boʻldi.

– Xoʻsh? – muzaffariyat ohangida qichqirdi Monster,

inkor etib bo'lmaydigan mutlaq dalil keltirganday. – Endi tushundingmi? Shunday ekan, biz bilan oyoq ostidagi loyga qaraganday muomala qilish kerak emas! Aslzotlarning ko'pdan ko'p avlodi va hammasi sehrgar bo'lgan. Sen haqingda esa bunday deb bo'lmaydi, dedi u, Ogdenning oyog'i ostiga tupurib.

Morfin yana hirlingladi. Boshini xam qilgancha, burchakka indamay siqilib olgan Meropaning yuzini to'zib ketgan sochi to'sdi.

– Mister Monster, ishonchim komilki, mulohaza yuritilayotgan ishga na sizning na mening ajdodlarimiz, zig'irday bo'lsin, daxl qilmaydi. Men bu yerga Morfin kecha tunda maglga hamla qilgani sababli keldim. Bizda mavjud ma'lumotlarga qaraganda, – dedi u, nigohini pergamentga olib o'tib. – Morfin maglga nisbatan qarg'ish qo'llab, xuruji kuchli og'riq-la kechadigan eshak yemi kasalligini qo'zg'atgan.

Morfin yana hirlingladi.

– Tek o'tir, o'g'lim, – dedi Monster serpentargo tilida.

– Xo'p, shunday bo'ldi ham deylik, – kibrlandi Monster, o'g'li jim bo'lgach. – Bilishimcha, sizlar o'sha maglning yuzini ham xotirasini ham tozalagansizlar?

– Gap bunda emas, mister Monster, – javob berdi Ogden. – Himoyasiz maglga asosli sababsiz amalga oshirilgan hamla bo'lgan bu...

– Bu yerga kirib kelganingda maglvachchalarni xush ko'radiganlardan ekaningni fahmladim, – murdor irjaydi Monster, yana Ogdenning oyog'i ostiga tupurib.

– Bunday ohangdagi suhbat yaxshilikka olib kelmaydi, – qat'iy ohangda ma'lum qildi Ogden. – O'g'lingizning xulqi ham vijdon azobidan aziyat chekmayotganini ko'rsatmoqda, – dedi u, yana pergamentga qarab. – Morfin o'n to'rtinchi sentabr kuni vazirlikka hozir bo'lib, magllarning ko'z o'ngida sehr-jodu qo'llaganlik, unga jismonan va ma'nan ziyon yetkazganlik...

Ogden kutilmaganda jim bo'lib qoldi. Ko'chada ot tuyog'ining baland taqir-tuquri bilan kimningdir quvnoq ovozi eshitildi. Aftidan, qishloqqa olib boradigan yo'l Monsterning kulbasi yaqinidan o'tadigan ko'rinadi. Ko'zini katta ochgan

Monster diqqat-la quloq tutib, tek qotdi. Morfin och nigoh-la vishillab, boshini ovoz eshitilayotgan tomon burdi. Meropa ham boshini ko'tardi. Qizning rangi battar oqargani Garrining e'tiboridan chetda qolmadi.

– Voy Xudoyim-ey, qanaqangi qashshoq kulba ekan bu?! – xuddi xona o'rtasida turganday, yangradi tashqaridagi qizning jarangdor ovozi. – Tom, nahotki otang ushbu kapani buzib tashlashni buyura olmasa?

– Bizga qarashli emas bu yer, – javob berdi yosh yigit. – Bizga qarashli hudud yo'lning narigi tomonidan boshlanadi. Bu kulba esa qariya Monster bilan uning bolalariga qarashli. Ta'kidlab o'tmoq joizki, o'g'li g'irt jinni bo'lib, tomi anchagina siljib qolgan. Qishloqliklarning u haqda aytib beradigan gapini eshitasang bo'lar ekan...

Qiz quvnoq kuldi. Tuyoq tovushi tobora baland eshitilmoqda. Morfin kreslodan turishga urindi.

– Qimirlamay o'tir, – ogohlantirdi otasi serpentargo tilida vishillab.

– Tom, – yaqindan eshitildi qizning ovozi, – balkim, yanglishayotgandirman, lekin eshikka birov ilon qoqib qo'ygan ko'rinadi.

Qiz bilan yigit kulba ro'parasida turgan ko'rinadi.

– Ey, Xudo, to'g'ri aytasan! – dedi yigit. – O'g'lining qilgan ishi bo'lsa kerak. Aytyapman-ku, tomi joyida emas, deb. Qarama u yoqqa, Sesiliya, azizam.

Tuyoq tovushi uzoqlashdi.

– «Azizam», – vishilladi Morfin serpentargo tilida, singlisiga olayib. – Uni «Azizam» dedi. Demak senga uylanmaydi.

Meropa bo'rday oqarib ketdi. Garrining nazarida qiz hozir hushini yo'qotadigan ko'rindi.

– Nima deding, – gapga aralashdi Monster vishillab, dam o'g'li, dam qiziga ko'z yugurtirib. – Nima deding, Morfin?

– Anavi maglga termilgani-termilgan, – ichiqoralik-la, chaqimchilik qildi Morfin, qo'rquvdan daraxtday qotib qolgan singlisiga olayib. – Bu yerdan o'tadigan bo'lsa, bog'ga chiqib, baqraygancha turib qoladi. Kecha tunda esa...

Meropa o'tinch to'la nigohini ukasiga qaratdi, Morfin esa shafqat qilmay, davom etdi:

– ... uning o'tishini kutib, derazadan qulab tushishiga sal qoldi.

Derazadan? Maglga? – past ovozda vishilladi Monster.

Monsterlar Ogdenni mutlaqo unutib yuborishgan. Departament rahbari esa tushunarsiz vishillashlar-u xirillashlarning yangi tug'yonini taajjub va hazar-la kuzatmoqda.

– Shu gap rostmi? -- xunuk ovoz-la, so'radi Monster, qizi tomon ikki qadam tashlab. -- Mening qizim... Salazar Slizerin avlodi... iflos qonli maglni sevib qolgan?

So'z aytish qobiliyatini yo'qotgan Meropa boshini umidsiz tebratib, devorga qapishib oldi.

– Lekin men uning adabini berib qo'ydim, ota! – hiringladi Morfin. -- Uyimiz yonidan o'tishini poyladim. Basharasidagi husnbuzarlari bilan endi birov uni barno deya olmaydi, to'g'rimi, Meropa?

– Voy sen yaramas, shvax qiz-ey, voy sen iflos xoin-ey! -- o'kirdi o'zini idora qila olmagan Monster, qizining bo'g'zidan changallab olib.

– YO'Q! – hayqirib yubordi Garri.

– Relashio! – qichqirdi sehrli tayoqchasini ko'targan Ogden.

Qizidan nari uchgan Monster kursiga qoqilib, yerga yiqildi. Kreslodan o'kirgancha oyoqqa qalqigan Morfin qonga belangan pichog'ini siltab, atrofga qarg'ish yashinlarini otib, Ogdenga tashlandi.

Ogdenga esa endi jon saqlashdan boshqa chora qolmadi. Damblдор Garriga imo qilib, uning ortidan borish kerakligini ko'rsatdi. Garri Dambldorga ergashdi. Meropa kulbada qichqirgancha qoldi.

Boshini qo'li bilan to'sib, so'qmoq bo'ylab asosiy yo'l tomon yugurgan Ogden, qora sochli barno yigit minib olgan yaltiroq to'riq otga borib urildi. Yigit va uning yonidagi kulrang ot mingan suluv qiz xandon otishdi. Boshdan oyoq changga botgan Ogden otning yonboshidan itarilib, syurtukini hilpirat-

gancha, boshi oqqan tomon yugura ketdi.

– O‘ylaymanki, bugunga yetadi, Garri, – dedi Dambldor Garrining qo‘ltig‘idan tutgancha, o‘ziga tortib.

Ikkovlon qop-qorong‘i vaznsizlikda uchib, xayol o‘t-may, Dambldorning xizmat xonasiga qo‘ndi. Qorong‘i tushibdi. Dambldor tayoqchasini siltab, sham yoqdi.

– Anavi qizga nima qildi keyin? – shu zahoti so‘radi Garri. – Meropamidi ismi?

– Unga hech narsa qilgani yo‘q, – javob berdi Dambldor, yozuv stoli ortiga o‘tar ekan, imo ila Garriga ham o‘tirishni taklif qilib. – Ogden havoda g‘oyib bo‘lib, vazirlikka qaytda va o‘n besh daqiqa o‘tar-o‘tmas, madad kuchi bilan paydo bo‘ldi. Ota-bola uzoq qarshilik ko‘rsatganiga qaramay, yengildi. Shundan so‘ng Oqil sud ikkalasini qamoq jazosiga hukm qilib, Azkabanga yo‘lladi. Magllarga bir necha bor hamla qilgan Morfin uch yilga, Ogdendan tashqari, vazirlikning bir necha xodimini jarohatlagan Mervolon olti oyga qamaldi.

– Mervolon? – hayrat-la takrorladi Garri.

– Xuddi shunday, – kulib boqdi Dambldor. – Ushbu ism e‘tiboringdan chetda qolmaganidan xursandman.

– Ya‘ni o‘sha chol...

– Voldemortning bobosi, – bosh irg‘idi Dambldor. – Mervolon, uning o‘g‘li Morfin va qizi Meropa Monsterlar sulo-lasining so‘nggi vakillari bo‘lgan. Ushbu sulola misli ko‘ril-magan shafqatsizlik hamda, xolavachchalar-u amnavachchalar orasidagi quda-andalik an‘anasi saqlanib qolgani oqibatidagi bir qator ruhiy kasalliklar-la mashhur bo‘lgan. Boylikka ro‘kach qo‘yilib, sog‘lom aql bo‘lmagan holat uyg‘unligi, mazkur sulo-laga qarashli boyliklar Mervolongacha yashagan bir necha avlod tomonidan yeb bitilishi bilan yakun topgan. Oqibatda, o‘zing guvoh bo‘lganday, Mervolon ahmoqona tabiat, haddan ortiq takabburlik, o‘ziga o‘zi qo‘ygan bino-yu o‘z ajdodlariga tegishli bo‘lib, o‘g‘liday ardoqlagan, qizidan ustun ko‘rgan bir juft qim-matbaho buyumga ega bo‘lgancha, batamom qashshoq bo‘lib qolgan.

– Demak, Meropa, – yaqinroq surildi Garri, Dambldorga

diqqat-la razm solib. – Meropa... ser, demak u... Voldemortning onasi bo'lgan?

– Ha, – bosh irg'idi Damblдор. – Otasiga ham ko'zimiz tushdi. Qiziq, uning kimligini fahmladingmi?

– Anavi ot mingan, Morfin adabini bergan magl yigitmi?

– Barakalla, ha, o'sha yigit! – yashnab ketdi Damblдор. – Monsterlar kulbasi yonidan ot minib o'tish odatiga ega o'sha barno yigit – katta Tom Reddl. Meropa aynan o'sha yigitni qattiq sevib qolgan.

– Va ular oila qurishgan?! – ishonqiramay so'radi Garri, bir-biriga mos kelmaydigan bundan-da battar juft bo'lishi mumkinligini tasavvur qila olmay.

– Meropa afsungar bo'lganini unutgan ko'rinasan, – dedi Damblдор. – U o'zining sehrgarlik qobiliyatini zolim otasi oldida manfaatli namoyon eta olgani dargumon. Biroq Mervolon bilan Morfin Azkabanga qamalgach, o'n sakkiz yillik umri davomida ilk bor o'zini erkin his eta olgan va ayonki, o'z mahoratidan baxtsiz kechgan hayotini o'zgartirish maqsadida foydalanishga ahd qilgan. Magl dugonasini unutib, o'zini sevishga Tom Reddl-ni qanday majbur qilganini fahmlayapsanmi?

– Qaram qilish qarg'ishi? – taxmin qildi Garri. – Sevgi damlamasi amortensiya?

– Shaxsan men, sevgi damlamasi qo'llanilgan, degan fikrdaman. Ishonchim komilki, Meropa bu yo'lni nisbatan romantik yo'l, deb topgan. Negaki jazirama issiqda kulba yonidan o'tayotgan Tom Reddl-ni bir qultum suv ichishga ko'ndirish qiyin bo'lmagan. Nima qilganda ham ikkalamiz hozirgina shohid bo'lgan hodisadan bir necha oy o'tgach, Kichik Viselton qishlog'i aholisi misli ko'rilmagani hodisa, u ham bo'lsa, skvayrning¹ o'g'li qashshoq qiz Meropa bilan qochib ketganini qizg'in muho-kama qilgan. Qancha g'iybat, qancha mish-mish gap bo'lganini tasavvur qila olasanmi? Biroq qishloq ahlining taajjubini Mervolonning ruhiy larzasi bilan qiyoslab bo'lmaydi. Azkabandan

¹ Skvayr – ingliz yer mulkdorining familiyasiga qo'shib talaffuz etiladigan eskvayr unvonining qisqartma shakli.

qaytgan qariya uyda itoatkor qizini, dasturxonda esa issiqqina tushlikni ko'rishga umidvor bo'lgan. Buning o'rniga esa stol ustida qalinligi bir dyuymga yetgan chang bilan qizi qoldirib ketgan xatga ro'baru bo'lgan. Bilishimcha, o'sha vaqtdan buyon qizining ismini tilga olmagan, uning borligini unutgan. Meropa-ning sotqinligi, aftidan, uning o'limini tezlatgan. Lekin o'ziga yegulik topa olmaganini ham rad etib bo'lmaydi. Azkabandan qaytgach, juda zaiflashib, Morfinning qamoqdan qaytish kuniga yetib bormagan.

Meropachi... o'ldimi? Chunki Voldemort yetimxonada tarbiyalan, shunday emasmi?

- Ha, - dedi Damblдор, - to'g'ri, biz faqat faraz sohasiga murojaat qilishimiz mumkin. xolos, lekin voqeaning keyingi rivojini fahmlab yetish u qadar qiyin kechmaydi. Gap shundaki, yashirin to'ydan bir necha oy o'tgach, Tom Reddl uyga xotinsiz qaytdi. U «aldangani», «tuzoqqa ilingani» haqida mish-mish tarqatdi. Menimcha, u ma'lum vaqt sehr-jodu ta'sirida bo'lganini bilgan, biroq taxmin qilish mumkinki, aqldan ozgan kishi sifatida e'tirof etilmasligi uchun boshdan kechirgan hodisalarni ochiqdan ochiq aytib berishga jur'at etmagan. Odamlar Meropa o'zini homilador bo'lib qolgan ko'yga solib, yigitni aldagan va shu sabab, Tom Reddl unga uylanishga majbur bo'lgan, degan mazmunda xulosa chiqargan.

- Axir, u, chindan ham, homilador bo'lib, ko'z yorgan-u.

- To'g'ri, to'ydan bir yil o'tib, Tom Reddl esa uni homilador holatda tashlab ketgan.

Nima sababdan? Sevgi damlamasi ta'sir qilmay qo'yganmi?

- Taxmin qilishdan boshqa choramiz yo'q, - javob berdi Damblдор. - Nazarimda, Meropa erini shu qadar qattiq sevganki, sehr-jodu vositasida uni qullik tutqunida saqlashni davom eta olmay, damlama qo'llashdan voz kechgan. Erini haddan ortiq sevgan Meropa ikkalasining o'rtasida haqiqiy muhabbat paydo bo'lishiga komil ishonch bildirgan. Yoki bola tufayli tashlab ketmaydi degan xayolga borgan. Nima qilganda ham bechora

ayol chuqur yanglishgan. Reddl uni tashlab ketdi, qayta uchra-shishga sabab qidirmadi, farzandining taqdiri bilan mutlaqo qiziqmadi.

Deraza ortidagi osmon ko'kintir qora tus olibdi. Xona-dagi fonuslar yanada yorqin nur taratayotgan go'yo.

– Bugunga yetadi, Garri, – dedi Damblдор xayolini yig'ib olgach.

– Ha, ser, – bosh irg'idi Garri, o'rnidan turib. – Ser, Voldemortning o'tmishini bilish shunchalik muhimmi? – so'radi u, ketishga oshiqmay.

– Juda muhim, – javob berdi Damblдор.

– Bashoratga daxli bormi?

– Bevosita.

– Tushunarli, – dedi Garri, garchi tushunib yetmagan bo'lsa-da, biroz tinchlanib.

U xonani tark etish uchun burildi-yu, yana nimadir esiga tushib, yana o'girildi.

– Ser, Ron bilan Germionaga aytib bersam bo'ladimi?

Damblдор biroz o'ylanib, javob berdi:

– Ha. O'ylashimcha, mister Uesli bilan miss Grenjer, ularga ishonish mumkinligini isbot qilishdi. Faqat Garri, ulardan iltimos qil, boshqa hech kimga aytishmasin. Lord Voldemortning sir-asrorlari menga ma'lum ekani haqida mish-mish gap tarqalishini hech istamayman.

– Ron bilan Germionadan tashqari hech kim bilmaydi, – ishontirdi Garri.

Chiqish eshigiga deyarli yetib borgan Garri ingichka oyoqli stollardan birining ustidagi nafis kumush asboblar orasida xunuk qora tosh ko'zi darz ketgan tilla uzukni ko'rib qoldi.

– Ser, mana bu uzuk... – baqrayib qolganicha ming'irladi u.

– Ha? – javob berdi o'yga tolgan Damblдор.

– Professor Divangardning uyiga tashrif buyurganimizda qo'lingizda ko'rgan edim.

– To'g'ri, – tan oldi Damblдор.

– Axir, bu... ser... bu uzuk Mervolon Ogdenga ko'rsatgan

uzuk-ku?!

– O'sha, – bosh irg'idi Dambldor.

– Qanday qilib?... U doimo sizda bo'lgan edimi?

– Yo'q, u yaqinda tegdi menga. Seni xolangning uyidan olib ketishdan atigi bir necha kun oldin.

Qo'lingizni ham taxminan o'sha kunlarda jarohatlab olgansiz, shundaymi, ser?

– Taxminan o'sha kunlari.

Garri so'rashga jur'at eta olmay, qotib qoldi. Dambldor esa unga kulib boqdi.

– Ser, qanday qilib?...

– Kech bo'ldi, Garri! Kelasi safar aytib beraman. Hozircha esa xayrli tun.

– Xayrli tun, ser.

XI BOB

GERMIONANING YORDAMI

Germiona haq bo'lib chiqdi: oltinchi sinf o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan mashg'ulotlar jadvalidagi bo'sh vaqt, Ron orzu qilgan baxtiyor bekorchilik uchun emas, misli ko'rilmagan hajmda beriladigan uy vazifalarini bajarish uchun ajratilgan ekan. Bolalar har kuni, xuddi navbatdagi imtihonga tayyorgarlik ko'rayotganday uyga berilgan vazifalar bilan shug'ullanishmoqda. Umuman aytganda, endi fanlar o'zlashtiruvini ham bunday ishga jiddiy yondashishni taqozo etmoqda. Garri bir narsani boshqa narsaga aylantirish fani mashg'ulotlarida berilayotgan tushuntirishlarning yarminigina anglab yetmoqda, xolos. Hatto Germiona ham ba'zan professor Makgonagalldan, ushbu tushuntirishlarni takrorlab o'tishni iltimos qilib bormoqda. Biroq ajablanarlisi shundaki, zoti past Shahzodaning sharofati ila Garrining eng yaxshi ko'rgan fani kutilmaganda sehrli damlamalarni tayyorlash fani bo'lib qoldi. Bundan esa Germionaning doman-girligi battar qo'zg'amoqda.

Ichki ovoz-la qo'llaniladigan afsunlar ijrosini endi nafaqat Snegg, balki, Flitvik bilan Makgonagall ham talab qilmoqda. Binobarin, endi hamma, aslida sehrni past ovoz chiqarib qo'llayotgan bo'lsa-da, xuddi ichi qotib qolgan kabi kuchanib yuribdi. Bunday zo'riqishlardan kishi chalg'ib, biroz dam olgisi keladi, albatta, va shu bois qasrdan chiqib, ekinzor o'rtasidagi issiqxonaga borish yoqimli tuyuladi. Garchi gerbologiya mashg'ulotlarida xavfli o'simliklar o'zlashtirilayotgan bo'lsa-da, orqa tomondan zaharli sakkizmo'ylov o'rmlab kelguncha, yurakdan suhbatlashib olish man etilmaydi.

Sanab o'tilgan jamiki mashaqqatlar sabab Garri, Ron va Germiona Xagridning holidan xabar olgani vaqt topa olishmayapti. Xagrid ham o'qituvchilar bilan birga ovqatlangani kelmay qo'ygan. Qasr yo'laklari yoki hovlida uchovi bilan to'qnash kelib qolganda esa sirli ravishda kar bo'lib qolmoqda.

Shanba kuni Xagridning Katta Zaldagi bo'sh kreslosiga qarab qo'ygan Germiona fikr bildirib qoldi:

Bor gapni kulbasiga borib tushuntirib berishimiz kerak.

– Saralash sinovlari o'tadi-yu bizda! – xitob qildi Ron.
– Bundan tashqari, Flitvik uchun Aguamenti! Umuman aytganda, nimani tushuntirishimiz kerak unga, o'zi? Ahmoqona fanini yomon ko'rib kelganimiznimi?

– Unday bo'lmagan! – e'tiroz bildirdi Germiona.

– Kechirasan-u, o'zing uchun gapiraver. Men drakllarni hali unutganimcha yo'q, – norozi ohangda kesatdi Ron. – Yana qanday baxtsizliklardan qutulganimizni Xudo biladi, senga aytsam. Befahm ukasini maqtaganini eshitganing yo'q. Agar uning fanini o'zlashtirishni davom etganimizda, hozir o'sha ukasiga botinka ipini bog'lashni o'rgatib yurgan bo'lar edik.

– Xagrid biz bilan gaplashmay qo'ygani, shaxsan menga juda og'ir botyapti, – tan oldi Germiona.

– Kvidishdan so'ng boramiz uning oldiga, – va'da qildi Garri.

Garchi Ron kabi Gurpsiz o'tayotgan hayot nisbatan yengil kechayotganini tan olayotgan bo'lsa-da, Garri ham

Xagridni sog'ingan.

– Juda ko'p odam yozilgan, – dedi Garri. – Sinov tadbirlari uzoq cho'zilishi mumkin. Kvidishga bu qadar ommaviy qiziqish qayerdan paydo bo'ldi, hech tushunmayman.

– Qo'ysang-chi, Garri, – darg'azab qo'l siltadi Germiona. – Kvidishga emas, senga! Sen o'zing hali bu qadar qiziqish uyg'otgan emassan, ayniqsa, romantik qiziqish.

Ron og'zidagi seld balig'iga tiqilib qoldi. Germiona unga g'azab-la o'qrayib qo'ydi-da, Garri tomon o'girilib, davom etdi:

– Rost gapirganing, ya'ni Voldemort, chindan ham, qaytib kelgani va so'nggi ikki yil davomida u bilan bir emas, ikki marta yakkama-yakka jang qilganing, ikkala jangda ham u seni yenga olmaganini endi hamma biladi. Endi sen Mumtozsan. Rostini ayt, nahotki xalq senga mahliyo bo'lganini sezmayotgan bo'lsang?

Shiftni bulut qamrab olganiga qaramay, Garrining vujudi kutilmaganda qizib ketdi.

– Bundan tashqari, – davom etdi qiz, – vazirlik seni ta'qib qilgani, aqldan ozgan yolg'onchi qilib ko'rsatgani, anavi mudhish ayol seni o'z qoning-la yozishga majbur qilgani-yu qiyinchiliklarga taslim bo'lmay, bularning bariga bardosh bera olganing, qo'lingdagi chandiq buning isboti ekani...

– Vazirlikdagi miyalar mening tanamda ham chandiq qoldirgan, mana qara, – dedi Ron, yengini shimargancha, bilagini ko'rsatib.

– ... yoz davomida bo'ying yana bir futga o'sgani ham qo'shimcha omil bo'ldi, – gapini tugatdi Germiona, Ronga e'tibor qilmay.

– Mening bo'yim, Garrining bo'yidan balandroq, – ta'kidlab o'tishni lozim topdi negadir Ron.

Katta Zalga boyqush pochtasi keldi. Jaladan yopirilib kirgan boyqushlar hammaning ustiga suv sachratdi. So'nggi vaqtda juda ko'p xat kelmoqda. Ota-onalar xavotir olib, bolalarining xavfsizli ishonchligidan xabarlashishmoqda, o'zlari-ning hol-ahvoli ham yaxshi ekanidan darak berishmoqda. Se-

mestr boshlanganidan buyon Garri hali birorta xat olgani yo'q. Xat yo'llaydigan yagona qarindoshi halok bo'lgan. Lyupindan xat olish umidi hali o'zini oqlagani yo'q. Binobarin, kulrang aralash jigarrang qush galasi orasida qorday oppoq Xedvigni ko'rib, biroz hayron bo'ldi. Tumshug'iga to'g'ri burchakli jo'natma qisib olgan boyqush Garrining ro'parasida qo'ndi. Bir necha soniya o'tib, Ronning oldida ham xuddi shunday jo'natma ushlagan qush hansirab qolgan Cho'chrinstelni ezib qo'ygancha, paydo bo'ldi.

- Ha! – xitob qildi Garri, «Jimjimador va siyoh dog'i» kitob do'konidan hozirgina yo'llangan jo'natmani ochgancha, «Oliy damlamachilik»ning yangigina nusxasini chiqarib.

- Juda soz! – suyundi Germiona. -- Rasvo qilib bo'yalgan anavi juldur kitobingni oxiri qaytarib beradigan bo'lding.

- Aqlingni yedingmi? - e'tiroz bildirdi Garri. - Uni o'zimga olib qolaman. Mana, qara, nima o'ylab topganimni...

U yuk xaltasidan puturi ketgan «Oliy damlamachilik»ni chiqarib, sehrli tayoqchasini muqovaga tekkizdi.

- Diffindo! – dedi Garri.

Kitobning muqovasi uzilib ajraldi. Garri yangi kitob bilan ham xuddi shunday muomala qilgach, ikkala muqovaning o'rnini almashtirdi.

- Reparo! – dedi u.

Shu tariqa, Shahzodaning kitobi yangi muqova vositasida niqoblandi. Do'kondan yo'llangan yangi kitob esa juldur qiyofa kasb etdi.

- Divangardga eski kitob o'rniga yangi kitob beraman. Nimasi yomon buni? Naq to'qqiz galleon turadi-ya!

Germionaning g'azabi qaynab, labini jahl-la qimtib olgan holati uzoqqa cho'zilmadi. Yana bir boyqush uchib kelib, unga «Bashorat-u karomat gazetasi»ning yangi sonini tutqazdi. Qiz gazetani tez yozib, birinchi sahifaga ko'z yugurtirib chiqdi.

- Hech kim halok bo'lmabdimi, tanishlarimiz orasidan? – yasama loqayd ohangda so'radi Ron.

Ushbu savolni Ron har safar, Germiona gazetasining birinchi sahifasini ochishi bilan beradigan odat chiqargan.

– Yo‘q, lekin dementorlar tomonidan amalga oshirilgan yangi hamlalar qayd etilgan, – javob berdi Germiona. – Hibsga olinganlar ham bor.

– Zo‘r-u! Kim ekan ular? – so‘radi Bellatriks Lestrangni darhol xayoldan o‘tkazgan Garri.

– Sten Qo‘riqchi, – javob berdi Germiona.

– Nima? – hayron bo‘ldi Garri.

– *«Ko‘pchilikka tanish «Tungi ritsar» transport vositasining chiptachisi Qo‘riqchi Stenli O‘limdan zavqlanuvchilar toifasiga mansubligida gumon qilinib, hibsga olindi. Klepxemdagi uyida jamoatchilik yo‘li bilan daf‘atan o‘tkazilgan tekshiruvdan so‘ng yoshi 21 ga to‘lgan mister Qo‘riqchi kecha tunda qamoqqa olindi...»*

– Sten Qo‘riqchi – O‘limdan zavqlanuvchi? – shubha ohangida takrorladi Garri, uch yil oldin tanishgan, yuzini husnbuzar bosgan yigitni eslab. – Bo‘lishi mumkin emas!

– Qaram qilish qarg‘ishi bilan ta‘sir o‘tkazilgan bo‘lishi mumkin, – o‘rinli ta‘kidlab qo‘ydi Ron. – Falokat oyoq ostida.

– Ehtimoldan yiroq, – g‘udulladi Germiona, ko‘zini maqoladan uzmay. – Bu yerda yozilishicha, pabda, O‘limdan zavqlanuvchilarning rejalari haqida vaysab o‘tirganini kimdir eshitib, bergan xabariga asosan hibsga olingan.

Germiona tashvishli nigohini Ron bilan Garriga qaratdi.

– Qaram qilish qarg‘ishi ta‘siri ostida, ularning sirlari haqida vaysab o‘tira olishiga shubha qilaman, – fikr bildirdi qiz.

– Aslida bilgan narsalaridan ko‘ra, ko‘proq voqifligini namoyon etib, maqtanmoqchi bo‘lgan, xolos, u, – dedi Ron. – Sehrgarlik vaziri bo‘laman deb, veylani ilintirmoqchi bo‘lgan o‘sha emasmi?

– O‘sha, – tasdiqladi Garri. – Qayeri bilan o‘ylashyapti vazirlik xodimlari, bilmayman! Nahotki Stenni jiddiy raqibday qabul qilayotgan bo‘lishsa?

– Qo‘l qovushtirib, bekor o‘tirishmaganini ko‘rsatib qo‘yishmoqchi, shekilli, – qoshini chimirdi Germiona. – Hozir hamma sarosimada... Egizak opa-singil Parvattilarni uyga olib ketishmoqchi, bilasizlarmi? Eloiza Moshkarni esa olib ketishdi.

Otasi kecha kechqurun kelgan edi.

– Nima?! – xitob qildi Ron, Germionaga baqrayib. – Bugungi kunda «Xogvars» har kimning uyiga nisbatan eng xavfsiz joy-yu! Maktabni avrorlar qo'riqlayotgan, bir olam himoya afsunlari qo'llanilgan bo'lsa. Va nihoyat, shaxsan Damblorning o'zi shu yerda!

– Damblдор har doim ham joyida emas, – dedi past ovozda Germiona, gazeta uzra o'qituvchilar stoli tomon qarab. – E'tibor qilmadingizmi? O'tgan hafta davomida Xagrid necha kun ko'rinmagan bo'lsa, Damblдор ham shuncha kun bo'lmadi.

Garri bilan Ron o'qituvchilar stoli tomon burildi. Direktorning o'rni, chindan ham, bo'sh. Shundagina Garri Dambldorni o'tgan hafta o'tkazilgan mashg'ulotdan buyon ko'rmagani haqida o'ylanib qoldi.

– Menimcha, u maktabda emas. Orden ishlari bilan qayerlardadir yurgan bo'lsa kerak, – eshitilar-eshtilmas davom etdi Germiona. – Ya'ni aytmoqchimanki, vaziyat, chindan ham, juda jiddiyga o'xshaydi, shunday emasmi?

Garri bilan Ron javob berishmadi, lekin uchovlon ayni bir narsa haqida o'ylanib qolgani aniq. Kecha dahshatli hodisa ro'y berdi. Xanna Abbotni gerbologiya darsidan chaqirib, onasi o'ldirilgani haqida xabar berishdi. O'shandan buyon Xannani hech kim ko'rgani yo'q.

Besh daqiqa o'tib hovliga chiqqan Garri, Ron va Germiona tuman qoplagan sovuq havoda o'yingoh tomon yo'l olishdi. Yo'lda ularga nimalarnidir pichirlab muhokama qilayotgan Lavanda Braun bilan Patil Parvatti uchradi. Modomiki, Patilning ota-onasi olib ketishmoqchi ekan, buning hayron bo'ladigan joyi yo'q, albatta. Biroq Ronni ko'rgan Parvatti kutilmaganda tirsagi bilan Lavandani turtib qo'yganini Garri taajjub-la ko'rib qoldi. Lavanda o'girilib, Ronga ko'z qamashtirguday tabassum hadya etdi. Ko'zi pirpirab ketgan Ron hayron bo'lib, javoban irjaydida, g'ayrioddiy qadam tashlagancha, yo'lini davom etdi. Garri xandon otib yubormaslik uchun o'zini ba'zo'r tiyib oldi: Malfoy uning burnini sindirganda, Ron kulmadi-yu. Biroq Germionaning yuzi qandaydir sovuq qiyofa kasb etib, o'yingohga yetib

borguncha miq eunadi. Yetib borgach esa Ronga omad tilamay, bo'sh joy qidirib, namoyishgoh tomon yo'l oldi.

Saralash sinovlari Garri taxmin qilganday, tushlikka qadar cho'zildi. «Griffindor»ning deyarli yarmi, xususan, maktabning puturi ketgan supurgilarida uchmoqchi bo'lgan birinchi sinf o'quvchilaridan tortib, bo'yi qolgan da'vogarlardan baland cho'zilgan, boshqalarni vajohati ila bir chetga o'tib turishga majbur qilgan yettinchi sinf o'quvchilarigacha omad sinagani hozir bo'lgan. Ular orasida Garri «Xogvars-ekspress»da tanishgan dag'al sochli baquvvat yigit ham bor. U xaloyiq orasidan ishonch-la surilib chiqib, Garriga qo'l uzatdi:

Biz poyezdda, qariya Divangardning qabulida uchrashganmiz. Kormak Maklaggen, «Qo'riqchi».

«Bunday «Qo'riqchi» qilt etmay turganda ham o'z tanasi ila uchala halqani to'sib olishi mumkin», xayoldan o'tkazdi Garri.

– O'tgan yilgi sinovda ishtirok etganing yo'q, shundaymi? – so'radi u, Maklaggenning kvadratday keladigan qomatiga diqqat-la razm solib.

– To'g'ri, chunki o'sha kunlari kasalxonada edim, – javob berdi iyagini mag'rur ko'targan Maklaggen. – Bahs bog'lab, toksifeyk tuxumlarining bir funtini yeb bitirgan edim.

– Tushunarli... yaxshi... – dedi Garri, o'yingohning Germiona tomoniga imo qilib. – Hozircha anavi yerda kutib tur.

Maklaggenning yuzida domangirlik alomati ko'rindi. Modomiki, ikkalasi qariya Divangard xush ko'rgan o'quvchilar sirasiga kirar ekan, demak, o'zaro munosabat ham shunga yarasha bo'lishini kutgan, aftidan.

Garri ishni asosiy ko'nikmalar sinovidan boshlashga ahd qildi. Binobarin, barcha musobaqa ishtirokchilaridan, har biri o'n kishidan tashkil topgan guruhlariga bo'linib, maydon uzra bir bor uchib o'tishni talab qildi. Ushbu qaror o'zini oqladi. Birinchi sinf o'quvchilaridan iborat dastlabki o'nlik muqaddam uchmagani ayon bo'ldi. Faqat bir nafargina bolakay bir necha soniya havoda ucha oldi. U ham bo'lsa, o'zidan o'zi hayratlanib, to'g'ri halqa xodasiga borib urildi.

Ikkinchi o'nlik tarkibiga, ushbu yorug' olamning o'n nafar eng ovsar qizlari yig'ilgan ko'rinadi. Garri hushtak chalgan fursatda, o'novlon tentak bir-biriga mahkam tarmasha boshladi. Ular orasida Romilda Veyn ham bor. Garri ahmoq qizlarga maydonni tez tark etishni buyurdi. Maydondan chiqib ketgan qizlar namoyishgohga joylashib olishdi-da, endi qolganlarni mazax qilishga kirishdi.

Maydon markazida to'plangan uchinchi o'nlik qilt eta olmagan bo'lsa, to'rtinchi o'nlik supurgisiz kelgan. Beshinchi o'nlik esa xufflpuffchilar ekani ma'lum bo'ldi.

– «Griffindor» fakultetiga mansub bo'lmaganlar, iltimos, hoziroq o'yingohni tark eting! – qichqirdi, g'azabdan qutura boshlagan Garri.

Bir daqiqali tanaffusdan so'ng ikki nafar mitti ravenklochi kulgidan xurullagancha, maydondan chiqib ketdi.

Ikki soat o'tdi. Ko'p shikoyat va janjallardan so'ng Garri uch nafar «Ovchi», xususan, a'lo natija ko'rsatib, jamoaga qaytgan Ketti Bell, «Tajovuzkor» to'plarga mohirona chap berib, haqiqiy topilma sanalgan Demelza Robins va Jinna Ueslini saralab olishga muvaffaq bo'ldi. Janjal ko'tarilishiga olib kelgan sabablardan biri «Kometa-260» rusumli supurgining singani va ayrimlarning tishi sinib to'kilgani bo'ldi. Jinna har qanday raqobatchidan bir bosh baland kelib, jami o'n yettita gol urdi. Garri jamoaning yangi tarkibidan mamnun bo'ldi-yu, shikoyatchilar bilan o'tgan bema'ni baqir-chaqirdan ovozi xirillab qoldi. Endi «Urrib qaytaruvchi»likka da'vogarlarni saralab olish darkor.

– Bu mening qat'iy qarorim! – o'kirdi u. – «Qo'riqchi» saralab olishga xalal berar ekansan, sehr lab qo'yaman.

«Urrib qaytaruvchi»likka da'vogarlarning birortasi ham Jorj bilan Fredga teng kela olmadi. Shunday bo'lsa-da, Garri ulardan qanoatlandi. Bo'yi past bo'lsa ham yelkasi keng uchinchi sinf o'quvchisi Jimmi Piks «Tajovuzkor»ni shunday qaytardiki, Garrining ensasida kaptarning tuxumiday keladigan shish paydo bo'ldi. Richi Proustak bir qarashda nimjon ko'ringani bilan, kishini hayratga solar darajada aniq urar ekan. «Urrib qaytaruvchi»lar namoyishgohga, «Qo'riqchi» saralash sinovini tomo-

sha qilish uchun Ketti, Demilza va Jinaning yoniga borib o'tirishdi.

Garri ushbu tanlovni atayin sinov tadbirlarining oxiriga qoldirib, xalq tarqalishi, qizg'in bahslashuvlar bosilishiga umid qildi. Taassufki, rad etilgan da'vogarlar hech qayerga tarqalmadi, aksincha, endigina nonushta qilib bo'lgan dangasalar o'yingohda to'plangan xaloyiqqa kelib qo'shilib, tomoshabinlar soni yanada oshdi. Muxlislar bo'lindi. Muayyan da'vogarga kimlardir qichqirib, dalda bersa, boshqa birovlar hushtak chalib, norozilik bildirishdi. Garri Ronga tashvish-la qarab qo'ydi. Ron juda asabiy o'yinchi. O'tgan yilgi final o'yinida erishilgan g'alabadan so'ng o'ziga kelib qolganiga Garri umid bog'lagan, ammo yanglishgan ko'rinadi. Hozir Ronning yuzi xira yashil tus olgan.

Dastlabki da'vogarlardan birortasi ketma-ket ikkitadan ortiq to'p to'sa olmadi. Kormak Maklaggen Garrini asabiy-lashishga majbur qilib to'rtta to'p to'sa oldi, so'nggi beshinchi to'p uloqtirilganda esa negadir u o'zini to'p yo'nalishiga teskari tomon tashladi. Tomoshabinlar kulib, uvlab yuborishdi. Maklaggen jag'ini mahkam qisib olgancha, yerga qo'ndi.

«Sof g'alaba-11» rusumli supurgisini egarlayotgan Ron hushdan ketar holatga kelib qolgan.

– Omad yor bo'lsin! -- qichqirdi kimdir namoyishgohdan.

Garri Germionani ko'rish ilinjida qichqiriq eshitilgan tomon qaradi, lekin ma'lum bo'lishicha, qichqirgan Germiona emas, Lavanda bo'lib chiqdi. Qiz qichqirishga qichqirdi-yu, shu zahoti yuzini kafti bilan bekitib oldi. Garri ham bajonidil shunday qilgan bo'lar edi-yu, mumkin emas. Jamoa sardori mardonavor, betaraf bo'lishi kerak ekan, Ronning sinovdan o'tishini tomosha qilishga o'zini majbur qildi.

Umuman aytganda, xavotirga o'rin bo'lmadi. Ron ketma-ket ikkita, uchta, to'rtta va nihoyat beshta to'pni to'sishga muvaffaq bo'ldi. Garri xaloyiq qichqirig'iga jo'r bo'lib ketishdan o'zini bazo'r tiydi va Maklaggenga: «Ma'zur tutasan-u, Ron sendan ustun keldi», -- deyishga ahd qildi.

Garri sevinib, endi burilgan ediki, Maklaggenning

g'azabdan qizarib ketgan basharasiga ro'baru keldi. Cho'chib ketgan Garri biroz orqaga tisarildi.

– Uning singilchasi atayin qildi! – darg'azab o'kirdi, chakka tomiri Vernon amakining tomiri kabi o'ynab ketgan Maklaggen. – Akasiga o'z o'yini bilan yordam berdi.

– Bema'ni gap, – sovuq e'tiroz bildirdi Garri. – To'plar-dan birini o'tkazib yuborishiga sal qoldi, o'zing ko'rding.

Maklaggen tahdid-la Garri tomon qadam tashladi. Garri esa bu safar orqaga tisarilmadi.

– Menga yana bitta imkon ber, – talab qildi Maklaggen.

– Bermayman, – dedi Garri. – Imkonning bor edi, yutqazding. Ron beshala to'pni to'sa oldi. «Qo'riqchi» u bo'ladi. Bu ham halol, ham adolatli qaror bo'ladi. Yo'limdan qoch.

Maklaggen qo'l ko'tarmoqchi bo'ldi-yu, shashtidan qaytib, la'natlar o'qigancha, nari ketdi.

Garri o'zining yangi jamoasi tomon yuzlandi. Hamma unga kulib boqmoqda.

– Yashanglar, – xirillab maqtadi Garri. – Zo'r o'yin ko'rsatdingiz!...

– Zo'r to'sding, Ron!

Endi bu ovoz, chindan ham, Germionaga tegishli edi. U namoyishgoh tomondan yugurib kelmoqda. Lavanda Braun domangir qiyofa yasagancha, Parvattining qo'lidan ushlab, nari ketdi. Ronning bo'yi, favqulodda g'ururlanib ketganidan biroz cho'zilganday bo'lib, dam jamoaga, dam Germionaga kulib boqmoqda.

Garri ilk mashg'ulotni kelasi payshanbaga tayinlagach, qolganlar bilan xayrlashdi-da, Ron va Germiona uchalasi Xagridning kulbasi tomon yo'l oldi. Sovuq havo biroz chekinib, bulutlar orasidan xira quyosh ko'rindi. Qorni o'larcha ochiqqan Garri Xagridning kulbasida biron-bir yegulik topilishiga umid bog'ladi.

– To'rtinchi to'pni o'tkazib yuborishinga sal qoldi, – dedi sevinchi ichiga sig'magan Ron. – Demelza qanday hiyla qo'llaganini ko'rdingizni?

– Ha, sen, chindan ham, juda zo'r o'ynading, – maqtadi,

hayratdan ko'zi katta ochilgan Germiona.

– Maklaggandan durustroq, har qalay, – o'xshatib bo'lmas g'urur-la maqtandi Ron. – Beshinchi to'pni to'sish fursatida Bosh gangitish afsuni qo'llanilgan singari teskari tomon tashlandi, ko'rdingizmi?

Germionaning yuzi qip-qizarib ketganini payqagan Garri biroz taajjublandi. Bugungi jasoratini tavsiflab ketayotgan Ron esa Germionaning holatiga e'tibor qilmadi.

Xagridning kulbasi yonida kulrang tusli gippogrif bog'lab qo'yilgan. Yaqinlashayotgan odamlarni ko'rgan Otburgut o'zining yirik boshini bolalar tomon burib, ustaraday o'tkir tumshug'ini shaqillatdi.

– Dahshat, – asabiy g'udulladi Germiona. – Vajohati ja qo'rqinchli-da.

– Qo'ysang-chi, o'zing uchgansan-u unda, – tinchlantirdi Ron.

Garri oldinga chiqib, ko'zini pirpiratmay, hayvonning ko'ziga tik qaragancha, chuqur ta'zim qildi. Bir necha soniya o'tgach, Otburgut ham tiz cho'kdi.

– Ahvoling qalay, sohibingni sog'inyapsanmi? – past ovozda so'radi, gippogrifga yaqin borgan Garri, pat qoplagan boshini silab. – Xagrid bilan zerikmayapsanmi?

– Hoy! – baland eshitildi kimningdir ovozi.

Kulba ortidan yirik gulli fartukni oldiga tashlab olib, qo'liga bir qop kartoshka ushlagan Xagrid chiqdi. Uning orqasidan So'yloqtish laqabli yirik nemis iti paydo bo'lib, akillagancha, oldinga tashlandi.

– Qoching uning oldidan, hozir u barmog'ingizni... A-a, sizlarmi!

So'yloqtish Ron bilan Germionaning qulog'ini yalashga urinib, sakray boshladi. Xagrid esa bir necha soniya o'qrayib turdi-da, shartta teskari o'girilib, kulbasiga kirib ketgancha, eshikni ichkaridan bekitib oldi.

– Bu qanaqasi bo'ldi! – xitob qildi lol qolgan Germiona.

– Xavotir olma, – dedi Garri.

U eshik oldiga borib, qattiq taqillatdi.

– Och, Xagrid, gaplashib olishimiz kerak, – baqirdi Garri.

Ichkaridan sado chiqmadi.

– Och dedim, aks holda eshigingni portlatib yuboraman! – ogohlantirdi Garri, sehrli tayoqchasini chiqarib.

– Garri! – qichqirdi Germiona. – Sen, rostdan ham...

– Rostdan! – javob berdi Garri. -- Nari turing.

Garri so'z aytishga ulgurmadi. Eshik kutilganday lang ochilib, ostonada darg'azab Xagrid ko'rindi. Uning fartugi gulli bo'lishiga qaramay, vajohati qo'rqinchli ko'rinmoqda.

– Men o'qituvchiman, Potter! – o'kirdi Xagrid, Garriga qarab. – O'qituvchiman, tushunarlimi? Shunday ekan, eshigimni portlatishga jur'at eta olmaysan!

– Ma'zur tuting, ser, – javob berdi Garri, tayoqchasini kissasiga joylar ekan, so'nggi so'zni ifodali talaffuz etib.

Xagrid esankirab qoldi.

– Qachondan buyon sen menga «ser» deya murojaat qiladigan bo'lib qolding?

– Sen-chi? Qachondan buyon meni «Potter» deya chaqiradigan bo'lib qolding?

– Ha, ja zo'r mot qilding, – g'udulladi ortga tisarilgan Xagrid, bolalarni ichkariga kiritib.

Germiona Garrining ortidan qo'rqa-pisa ichkariga kirdi.

– Xo'sh? – dedi Xagrid, vaysaqi ohangda. – Nima qildi? Menga rahmingiz kelib qoldimi? Mana bu yerda zerikib o'lib qoladi, degan xayolga bordingizmi?

Garri, Ron va Germiona ulkan yog'och stol atrofidagi kreslolariga joylashib o'tirishdi.

So'yloqtish boshini Garrining tizzasiga qo'yib, so'lak oqizgancha, korjomasining etagini rasvo qildi.

– Yo'q, – javob berdi Garri. – Shunchaki ko'rgani keldik.

– Seni sog'indik! -- jarangdor ovozda shirin xitob qildi Germiona.

– Sog'indik, deng? – pishqirib qo'ydi Xagrid. – A-a! Ha, albatta.

U ulkan mis choynakka choy damlar ekan, allanima

g'udullagancha, u yoq bu yoq yurib, ivirsidi. Nihoyat, stol ustiga har biri chelakday keladigan uchta krujkada qizil yog'och tusli choy va toshday qattiq keks¹ solingan likopni qarsillatib qo'ydi. Qorni o'larcha ochqagan Garri suyunib ketib, shu zahoti kekslardan biriga tashlandi. Xagrid o'zining bahaybat kreslosiga o'tirib, kartoshkani shu qadar jahl-la tozalashga kirishdiki, go'yo sabzavotning ushbu bechora turi uning oldida kechirib bo'lmas gunoh ish qilib qo'yganday.

– Xagrid, – asta gap boshladi Germiona, – biz, chindan ham, sening faning bo'yicha mashg'ulotlarni davom etmoqchi edik...

Xagrid yana pishqirib qo'ydi.

– Gapim rost, – ishontirishga urindi Germiona. – Faqat mashg'ulotlar jadvaliga hech sig'dira olmadik...

– Ha-ya, – kesatdi Xagrid.

Shu fursatda nimadir shalop etdi. Uchovlon tovush chiqqan tomon o'girilishi bilan Germiona past ovozda chiyilladi, Ron esa o'rnidan irg'ib turib, stolning narigi tomoniga, burchakda turgan bochkadan uzoqroq joyga qochib o'tdi. Bolalar e'tibor qilmagan ushbu bochka oq tusli, har birining uzunligi bir fut keladigan allaqanday qurtga to'la.

– Nima u, Xagrid? – so'radi, qo'lidagi keksni joyiga qo'yib, hazarini bazo'r yashira olgan Garri.

– Oddiy yirik qurt, – g'udulladi Xagrid.

– Kelgusida qanday maxluq bo'lib o'sadi ular? – so'radi Ron.

– O'sishga ulgurmaydi. Men ularni Aragogga yem sifatida beryapman, – vaysadi Xagrid va kutilmaganda ovozi boricha ho'ng'rab yubordi.

– Xagrid! – xitob qildi Germiona.

Qiz o'rnidan turib, bochkaga yaqinlashmaslik uchun stolning uzun tomonidan aylanib o'tdi-da, Xagridning yoniga yugurib borib, qo'lini davangirning titrayotgan yelkasiga qo'ydi.

¹ **Keks** (inglizcha) – sut, yog' qo'shib oshirilgan xamirdan ko'pincha mayiz qo'shib pishirilgan shirinlik (odatda, kulcha yoki pirog shaklida bo'ladi).

- Nima gap, tinchlikmi? – so‘radi qiz.

Bir juft qora qo‘ng‘izday keladigan ko‘zidan jilg‘a kabi oqayotgan yoshini fartugi bilan yopib, yutinib yig‘layotgan Xagrid piqilladi:

- Aragogning... kuni bitgan ko‘rinadi... Yozda tobi qochib, haligacha tuzalmayapti... bilmadim nima bo‘ladi... Agar u... agar u... biz u bilan bir umr...

Esankirab qolgan Germiona Xagridning yelkasiga qoqar ekan, nima deyishni bilmay qoldi. Garri Germionaning holatini yaxshi tushundi. Ushbu davangir do‘sti ajdar bolasiga yumshoq o‘yinchiq ayiqchani sovg‘a qilish, nishi dahshat soladigan ulkan chayonlarni erkalab o‘tirish, yovvoyi gigantni mehr-la tarbiyalashga moyil-ku, axir. Hozir esa gap Xagridning bemulohaza muhabbati, xususan, «Taqiqlangan o‘rmon»da yashaydigan, Garri bilan Ron to‘rt yil muqaddam yem bo‘lmasdan oldin bazo‘r qochib qutulgan, odam tilida gapira oladigan Aragog laqabli yirik o‘rgimchak to‘g‘risida bormoqda.

- Biz... qanday yordam bera olamiz? – so‘radi Germiona, Ronning e‘tirozli qiyofa ila bosh siltayotganiga e‘tibor qilmay.

- Yordam bera olishingizga ko‘zim yetmaydi, – piqilladi Xagrid, yig‘isini to‘xtatishga urinib. – Bilasanmi, uning qabilasi... Aragogning oilasi... u kasal bo‘lib qolgandan buyon... qandaydir g‘alati... notinch bo‘lib qolgan...

- Ha, biz buni sezdik, – past ovozda g‘udullab gap qistirdi Ron.

- ... shunday ekan, mendan boshqa odam ularga yaqin bormagani ma‘qul. – dedi Xagrid, burnini fartugiga qattiq qoqib. – Nima qilganda ham rahmat, Germiona... minnatdorman, boshini ko‘tardi u.

Shundan so‘ng o‘zaro munosabat ancha yumshadi. Garchi na Garri, na Ron o‘ta xavfli o‘rgimchakni yirik qurt berib boqishga shayligini biron-bir tarzda ifodalagan bo‘lsa-da, Xagrid, aftidan, ularni yordam qo‘lini uzatgan hisobladi, shekilli, yana o‘z holatiga qaytdi.

- Mashg‘ulot jadvalida mening fanim uchun joy topilmasligini shundoq ham bilar edim, – vaysadi u, bolalarga yana

choy quyib. – Vaqt chig'iridan foydalansangiz...

– Buning iloji yo'q, – dedi Germiona. – Vazirlikning unday soatlar zaxirasini o'zimiz pachoq qilib, tugatgan edik. Bu haqda «Bashorat-u karomat gazetasi»da xabar berilgan, agar o'qigan bo'lsang.

– Unday bo'lsa, mayli, – dedi Xagrid. – Baribir, fanni durust o'zlashtira olmas edingiz... ma'zur sanaysiz... o'zingiz tushunasiz... Hozir fikr-xayolim Aragogda... Ehtimol, professor Gniller-Plank mendan yaxshiroqdir, degan xayolga ham bordim.

Shu yerga kelganda, Xagridning o'rniga qolib, qiziqarli dars o'tgan professor Gniller-Plank nihoyatda yomon o'qituvchi bo'lgani haqida uchovlon bir ovozdan yolg'on gapira ketdi. Oxir-pirovardida Xagrid Garri, Ron va Germiona kulbani tark etar ekan, quvnoq kayfiyatda qoldi. Eshik yopilgach, bolalar kimsasiz qorong'i hovli bo'ylab tez odimlay ketishdi.

– Ochimdan o'lyapman, – dedi Garri. – Qotgan keks yeyman deb, tishimni sindirib olishimga sal qoldi. Buning ustiga bugun Sneggnning huzuriga borib, mehnat jazosini o'tashim kerak. Shunday ekan, tez ovqatlanib olmasam bo'lmaydi.


Uchovlon qasrga kirib, Katta Zal ostonasida Kormak Maklaggenga ro'baru bo'ldi. U eshik kesakisiga urilib, ikkinchi urinishdagina, ichkariga kira oldi. Ron ichiqoralik-la xandon otib, mensimagancha, Maklaggenning ortidan zalga kirib ketdi, Garri esa Germionaning bilagidan ushlab, olib qoldi.

– Ha, – shu zahoti qo'rslik qildi Germiona, qo'rqqan oldin musht ko'taradi qabilida ish tutib.

– Nazarimda, – dedi Garri past ovozda, – kimdir, chindan ham, unga nisbatan Gangitish afsunini qo'llagan ko'rinadi va adashmasam, sen uning ro'parasida bo'lgansan.

– Bo'pti, bo'pti, – pichirladi Germiona, yana qizarib. – Men qo'lladim o'sha afsunni. Agar sen Ron bilan Jinna haqida aytgan gapini eshitganingda edi! Umuman aytganda, tabiatan maraz bola u! O'zing ko'rding-ku, qabul qilinmaganidan qoni qaynaganini. Jamoaga bunday o'yinchi kerak emas.

To'g'ri, kerak emas, – ma'qulladi Garri. Ammo u qanday kas bo'lishidan qat'i nazar, qilgan ishing adolatdan emas.



Germiona. Axir, sen sinfboshisan-u!

– Jim, – pichirladi Germiona.

Garri irjayib qo'ydi.

– Nima haqda pichirlashyapsiz? – so'radi iziga qaytgan Ron, ikkalasiga shubhali qarab.

– O'zimiz, shunchaki, – baralla javob berishdi Garri bilan Germiona, Ronning ketidan ergashtirib.

Katta Zalni egallagan rostbif¹ hidi Garrining ishtahasini qitiqladi. Ammo taassufki, uchovlon griffindorchilar stoli tomon uch qadam bosishga ulgurmay, yo'lni professor Divangardning qorni to'sib qo'ydi.

– Garri, Garri, seni qidirib yuribman! – ko'ngilchan guvulladi u, qalin mo'ylovining uchini burab. – Ovqatlanib olishga ulgurmasingdan oldin uchratmoqchi edim. Mening kamtarin xonamda o'tadigan bugungi kechki ovqatga qanday qaraysan? Yig'ilmoqchimiz. Ko'pchilik emas, atigi bir nechta yulduzcha! Maklaggen, Zabini, mastona qiz Melinda Bobbin, bilmayman, taniysanmi sen Bobbinlarni yoki yo'q? Qisqasi, uning oilasi dori-xonalarning nihoyatda yirik tarmog'ini tasarruf etadi... va umid qilamanki, missis Grenjer ham o'z ishtiroki ila dilimizni xushnud aylaydi.

Divangard Germionaga sezilar sezilmas ta'zim bajo ayladi, Ron tomon esa go'yo u yo'qday, qiyo ham boqmadi.

– Bora olmayman, professor, – rad etdi Garri, o'ylanib ham o'tirmay. – Meni bugun professor Snegg kutadi. Uning huzurida mehnat jazosini o'tashim kerak.

– Obbo! – umidsiz xitob qildi Divangard. – Kelishingga juda umidvor edim. Iloj qancha, Severus bilan gaplashib, vaziyatni uqtirib o'tishga to'g'ri keladi. Mehnat jazosini keyingga qoldirishga urinib ko'raman. Xo'sh, Garri, missis Grenjer, ko'rishguncha!

Professor chiqish eshigi tomon shiddat-la odimlab ketdi.

¹ **Rostbif** (*inglizcha*) qovurilgan mol go'shti. Inglizlarning tansiq taomlaridan biri. Bu taom, odatda, molning biqin go'shtidan tayyorlanib, ochiq olovda panjarali maxsus moslamada pishiriladi.

– Sneggni ko'ndira olishiga ko'zim yetmaydi, – dedi Garri, Divangard nari ketgach. – Jazo shundoq ham keyinga qoldirilgan. Snegg Dambldor uchun ko'ngan, biroq boshqa birovning gapini sariq chaqaga olmaydi.

– Borsang, yaxshi bo'lar edi, – zorlandi Germiona. – Yolg'iz o'zim nima qilaman u yerda?

Garri gap Maklagenda ekanini darhol fahmladi.

– Yolg'iz bo'lmaysan, – norozi ohangda g'udulladi e'tiborsiz qolganidan alam qilgan Ron. Jinna ham taklif qilingan bo'lishi kerak.

Kechki ovqatdan so'ng uchovlon griffindorchilarning umumiy mehmonxonasiga kirdi. U yerda yig'ilgan odam ko'pligidan olma tushgani joy yo'q. Shunday bo'lsa-da, ular bo'sh stol topishga muvaffaq bo'lishdi. Divangard bilan o'tgan uchra-shuvdan so'ng kayfiyati buzilgan Ron qo'lini ko'ksida qovush-tirib olib, qovoq solgancha, shiftga qarab o'tirdi. Germiona esa kimdir kresloda qoldirib ketgan «Bashorat-u karomat gazetasini»ning kechki sonini qo'lga oldi.

– Biron bir yangilik bormi? – qiziqdi Garri.

– Aytarli yangilik yo'q, – dedi Germiona gazetani yozib, diqqat bilan o'rganib chiqqach. – Voy, Ron, qara, dadang... Tashvish tortma, tinchlik, – ishontirdi qiz, Ronning xavotir-la bosh burganini ko'rib. – Bu yerda yozilishicha, u Malfoylarning uyida bo'libdi:

«Ushbu tadbir O'limdan zavqlanuvchining uyida o'tkazilgan ikkinchi tintuv bo'lib, o'tgan galgi kabi hech qanday natija bermadi. Soxta tumorlarni fosh etib, musodara qilish bo'limi boshlig'i Artur Ueslining gapiga qaraganda, uning bo'linmasi alohida bir shaxsdan olingan xabarga ko'ra shunday ish tutgan».

– To'g'ri, men berganman o'sha xabarni! – dedi Garri. – Malfoy va u ta'mirdan chiqarmoqchi bo'lgan buyum haqida aytib bergan edim vokzalda! Buyum uyidan chiqmagan ekan, demak, o'zi bilan «Xogvars»ga olib kelgan.

– Qanday qilib, Garri? – hayratdan gazetani chetga otdi Germiona. – Bu yerga kirayotganimizda hammamizni tintuv

qilishgan, esingdan chiqdimi?

– Rostdanmi? hayron bo‘ldi Garri. – Meni tintishmadi.

– Ha, aytganday, sen kechikib kelgan eding-ku, a... Vestibylga kirib kelganimizda Filch har birimizni boshdan oyoq sir sezgiri bilan paypaslab chiqdi. Aytmoqchimanki, har qanday shubhali buyum fosh etilgan bo‘lar edi. Shuni aniq bilamanki, Krabbe olib kelgan quritilgan bosh musodara qilingan. Demak, Malfoy, o‘zi bilan hech narsa olib kelmagan!

Garri e‘tiroz bildirish uchun so‘z topa olmay, gangi-gancha Jinnaning pigmey sharchasi Arnold bilan o‘ynashib o‘tirganini tomosha qildi.

– Demak, unga onasi yoki boshqa birov boyqush pochta-si orqali jo‘natgan, – taxmin qildi u nihoyat.

– Boyqushlar ham tekshirilmoqda, – javob berdi Germiona. – Filchning gapiga bovar qiladigan bo‘lsak, sir sezgir-larini qo‘li yetgan joylarga tiqib chiqqan, u.

Boshqa so‘z topa olmagan Garri taslim bo‘ldi. Aftidan, Malfoy, chindan ham, maktabga biron-bir xavfli buyum olib kira olmagan. Garri madad izlab Ronga qaradi, u esa hamon qo‘lini ko‘ksiga qovushtirib olgancha, Lavanda Braunga qarab o‘tiribdi.

– Sen-chi, tasavvur qila olasanmi, qanday qilib Malfoy?... – so‘radi Garri.

– Tinch qo‘y meni, – dedi Ron.

– Quloq sol, – jahl qildi nihoyat Garri. – Divangard men bilan Germionani o‘zining ahmoqona yig‘ilishiga taklif qilgan bo‘lsa, bunga men aybdor emasman! Biz mutlaqo istamaymiz, o‘sha xonaga borishni, tushundingmi?

– Xo‘p, mayli. Modomiki, men hech qayerga taklif qilin-magan ekanman, borib yotay, – dedi Ron, o‘rnidan turib.

U o‘g‘il bolalar yotoqxonasi tomon qat‘iy odimlab ketdi. Garri bilan Germiona, uning ortidan esankiragancha qarab qolishdi.

– Garri? Senga xabar bor.

Garrining yonida kutilmaganda jamoaning yangi ovchisi Demelza Robins paydo bo‘ldi.

– Professor Divangarddanmi? – umid-la, so‘radi Garri,

o'tirgan joyida qaddini rostlab.

-- Yo'q... professor Sneggdan.

Garrining yuragi tushib ketdi.

-- Bugun oqshom soat sakkiz yarimda... e-e-e... yigirma beshta yig'ilishga taklif qilingan bo'lsang ham uning xizmat xonasiga borib, mehnat jazosini o'tashing kerak ekan. Shuni ham yetkazib qo'yishni talab qildiki, damlama tayyorlashda qo'llaniladigan flobber chuvalchaglari orasidan sasib qolganlarini ajratib chiqar ekansan... va buning uchun himoya qo'lqopini o'zing bilan olib borishing shart emas ekan.

– Tushundim, – ma'yus bosh irg'idi Garri. – Katta rahmat, Demelza.

XII BOB

KUMUSH VA OPALLAR

Qani Dambldor? Nima bilan band u? So'nggi bir necha hafta ichida Garri direktorni ikki marta uzoqdan ko'rdi, xolos. Aftidan, Germiona haqqa o'xshaydi: Dambldor maktabda kamdan kam bo'ladi. Garri bilan yakka tartibda o'tkazmoqchi bo'lgan mashg'ulotlari nima bo'ladi? Dastlab o'sha mashg'ulotlar anavi bashorat bilan bog'liq, deb tinchlantirgan edi, endi o'tkazmay ham qo'ydi...

Oktabr oyining o'rtasiga kelib, bu yil ilk bor o'tkaziladigan Xogsmyod sayli tayinlandi. Garri xavfsizlik nuqtai nazaridan, ushbu tadbir umuman man etib qo'yilishi mumkinligidan cho'chidi. Binobarin, sayl o'tkazilishini eshitib, sevindi. Bir necha soatga bo'lsin, maktab hududidan tashqariga chiqish yoqimli-da!

Sayr yog'ingarchiliksiz o'tadigan ko'rinadi. Erta uyg'ongan Garri «Oliy damlamachilik» darsligini biroz varaqlab chiqishga ahd qildi. Yotgan o'rnida kamdan kam holatlarda kitob o'qiydi. Ronning adolatli ta'kidiga ko'ra, kishining bunday xulq-atvori odobdan sanalmaydi, agar u ushbu masalada tomi ketgan

Germiona bo'lmasa, albatta. Biroq Garri zoti past Shahzodaning «Oliy damlamachilik» kitobini faqat darslik sifatidagina ko'r-maydi. Uni qancha ko'p o'qir ekan, nafaqat Divangardning hayratli hurmatiga sazovor bo'lish bilan yakun topgan damlama tayyorlashga oid turli-tuman qimmatli maslahatlar, balki, sahifa hoshiyasiga bitilib, ustidan chiziqli tortilgan yoki tuzatish kiritilgan matnlarga qaraganda, zoti past Shahzodaning o'zi ixtiro qilgan ko'plab afsun va tilsimlar manbasi ekanini ham idrok etib bormoqda.

Garri ulardan bir nechtasini amalga oshirib, juda qiziq natijalarga erishgan. Xususan, u Krabbe misolida oyoq tirmog'ini tez o'stirish, hech narsani tushunmagan Argus Filch misolida esa tilni tanglayga yopishtirib qo'yish suqilarini sinab ko'rdi. Lekin ushbu tilsimlardan eng foydalisi Maffliato tilsimi ekan. Maffliato qo'llanilsa, birov pinhon eshitib qolishidan xavfsiramay, sinfda bema'lol gaplashib o'tirsa bo'laveradi. Negaki bu paytda atrof-dagi odamlar qulog'iga muham g'udullash eshitiladi, xolos. Faqat Germionagina bunday ko'ngilxushlikni ma'qullamay, Maffliato ostida suhbatlashishdan bosh tortdi.

Garri ko'rpaga o'tirib, kitobni yorug'ga qaratdi. Ko'plab jumlar o'chirilib, ularga tuzatishlar kiritilganiga qaraganda, navbatdagi afsunni qo'llashga oid yo'riqnoma ustida Shahzoda ancha ter to'kkan ko'rinadi. Sahifaning yuqori burchagiga mayda dastxat bilan Levitana (ich. ov.), deb yozilgan.

Bir tomonda deraza oynasiga kuchli shamol bilan yomg'ir aralash qor urilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomonda Nevillning baland tortayotgan xurragi eshitilmoqda. Garri qavs ichiga olingan ich. ov. qisqartmasi ustida o'ylanib, «ichki ovoz-la qo'llaniladigan afsun» bo'lsa kerak, degan qarorga keldi. Buning uddasidan chiqa olmasa kerak, negaki o'xshash afsunlar ijrosi unga hamisha qiyin bo'lib, yovuz kuchdan himoya fanida Snegg Garrining peshanasiga taqillatib o'tishni hech unutmaydi. Boshqa tomondan esa Shahzoda o'zini iste'dodli pedagog sifatida namoyon etib kelmoqda...

Bo'shliqqa o'qtagan tayoqchasini biroz yuqoriga ko'targan Garri xayolan talaffuz etdi: «Levitana».

– A-A-A-A-A-A-A!

Yorqin yashin chaqnashi bilan xonada qiy-chuv ko'tarildi. Ronning baqirib hammani uyg'otib yubordi. Qo'rqib ketgan Garri qo'lidagi «Oliy damlamachilik»ni bir chetga uloqtirdi. Ron oyog'i osmondan kelib, xuddi ko'zga ko'rinmas ilgak vositasida to'pig'idan osib qo'yilganday, havoda muallaq osilgan.

Din bilan Simus kulmoqdan dod solishmoqda, quti o'chib, karavotidan qulab tushgan Nevill esa bir amallab oyoqqa turishga urinmoqda.

– Kechir meni, Ron! qichqirdi Garri. Biroz sabr qil... men... hozir...

Sarosimaga tushgan Garri atrofni paypasladi. Nihoyat, darslikni topib, kerakli sahifani qidirib topdi. Afsun ostiga tiqishtirib yozilgan so'zlardan birini bazo'r o'qiy oldi. So'z afsunga qarshi afsun bo'lishiga umid qilgancha, irodasi va fikr-xayolini bir yerga jamlab, ichida talaffuz etdi: «Liberatana!»

Yana bir yashin chaqnab, Ron ko'rpaga qopday gumburlab tushdi.

– Kechir, Ron! – yana g'udulladi Garri.

Din bilan Simus qorin ushlab yotgancha kulishmoqda.

– Uyg'otmoqchi bo'lsang, keyingi safar uyg'otish soati-ni ishga solib qo'y, norozi holda po'ng'illadi Ron.

Biroz vaqt o'tib, sovuqqa chiqishdan oldin missis Ueslining mehnat mahsuli bo'lmish sviterlarning bir nechtasini ustma-ust kiyib, o'zlari bilan plash, sharf va qo'lqop olishdi. Ruhiy larzasi asta barham topgan Ronga Garrining yangi afsuni shunchalik qiziq tuyuldi, nonushtaga yig'ilishlari bilan, Germionaga bugun tong sahar bo'lib o'tgan hodisani oqizmay-tomizmay aytib berdi.

– ... so'ng yana yashin chaqnab, ko'rpamga gumburlab tushdim! – irjaydi Ron, og'ziga sosiska to'ldirib.

Quvnoq hikoya davomida Germiona biron marta bo'lsin, kulib qo'ymadi. Ronning so'zini nihoyasiga yetkazgach, Garri tomon sovuq nigoh-la o'girildi.

– O'sha afsun mabodo anavi mashhur darsligingdan emasmi?

– Nega sen hamisha u yoki bu ishning eng yomon jihatlarini qidirasan, a? – qovoq soldi Garri.

– O'sha darsligingdanmi, axir? – qo'ymadi Germiona.

– Ha, o'sha darsligimdan... Nima qilibdi?

– Demak, o'zingga noma'lum, qo'lda yozilgan afsunni shartta qo'llab, bundan nima chiqishini tomosha qilishga ahd qilgansan, shundaymi? – achchiqlandi qiz.

– Qo'lda yozilganmi-yo'qmi: nima farqi bor? – e'tiroz bildirdi Garri, savolning ikkinchi qismidan qochib.

– Chunki o'sha afsun Sehrgarlik vazirligi tomonidan ma'qul deb topilmagani aniq, – javob berdi Germiona. – Bundan tashqari, nazarimda, – qo'shimcha qildi u, Garri bilan Ron ikkalasi ko'zini tepaga qaratganini ko'rib, – sizlarning o'sha Shahzodangiz dabdurstgina ablahga o'xshaydi.

Garri bilan Ron shu zahoti vishillab qo'yishdi.

– Hazil edi bu, Germiona! – xitob qildi Ron, ketchupning¹ bir shishasini sosiska ustiga ag'darib. Oddiy hazil, vassalom.

– Odamni oyog'ini osmondan keltirib, to'pig'idan osish-a? Bunday hazillarni ixtiro qilishga kim o'z vaqti va kuchini sarf etishi mumkin? – e'tiroz bildirdi Germiona.

– Masalan, Fred bilan Jorj, – yelka qisdi Ron. – Ikkalasining tabiatiga xos hazillar sirasiga kiradi bu. Yoki...

– Mening dadam, – dedi Garri, otasini esga olib.

– Nima? – baravariga burilib qarashdi Ron bilan Germiona.

– Ushbu afsunni qo'llagani esimga tushdi. Men... menga Lyupin aytib bergan edi, – tushuntirish bergan bo'ldi Garri.

Garrining ushbu tushuntirishi, haqiqatdan, ancha yiroq. Aslida Garri bunday afsun otasi tomonidan Snegg Severusga qarshi qo'llanilganini o'z ko'zi bilan ko'rgan, lekin dambaxotira vositasida qilgan o'sha safari haqida Ron bilan Germionaga aytib

¹ **Ketchup** (inglizcha yoki ispancha) – pomidorni qayta ishlash va unga turli ziravorlar qo'shish orqali tayyorlanadigan quyuc qizil qayla (go'shtli va baliqli ovqatlarni xushxo'r qilish uchun ishlatiladi).

bermagan. Hozir esa uning miyasiga ajoyib fikr keldi: ittifoqo, o'sha zoti past Shahzoda?...

– Ehtimol, dadang ham sarf etgandir vatini¹, – dedi Germiona. – Faqat u o'zi yolg'iz bo'lmagan. Yodingdan chiqqan bo'lsa, eslatib o'tay: ushbu afsundan birato'la ko'pchilik foydalanганиni hamamiz birga, o'z ko'zimiz bilan ko'rganmiz. Ular uxlab yotgan himoyasiz odamlarni yer uzra ko'tarib, havoda muallaq osilgancha, uchishga majbur qilishgan.

Kvidish bo'yicha jahon chempionatidagi O'limdan zavqlanuvchilarning qilmishini esga olgan Garri yuragi tushib ketgancha Germionaga baqrayib qoldi.

– U boshqa gap! Ular afsundan yovuz niyatda foydalanishgan, – qat'iy ohangda ma'lum qildi Ron, Garriga tarafdor bo'lishga ahd qilgan holda qo'lidagi sosiskani qizga o'qtab. Garri bilan otasi esa shunchaki hazillashgan. Sen Shahzodani yomon ko'rib qolgansan, Germiona. Chunki u damlamachilik ishini sendan yaxshi biladi...

-- Naqadar bema'nilik! qizarib ketdi Germiona. – Modomiki, notanish afsun nima maqsadda qo'llanilishini bilmas ekansan, undan foydalanish mas'uliyatsizlikdan o'zga narsa emas deb o'ylayman. Keyin uni Shahzoda deb atashni bas qil, xuddi bu uning nasliy unvoniday. Ishonchim komilki, bu ham ahmoqona laqabdan o'zga narsa emas. Umuman aytganda esa, fikrimcha, o'sha nusxa yaxshi odam bo'lmagan.

– Qayerdan olasan bunday gaplarni, tushunmayman! – jahl qildi Garri. – Haqiqiy O'limdan zavqlanuvchi hech qachon zoti past ekani bilan maqtanmaydi, shunday emasmi?

Gapini oxiriga yetkazmagan Garri o'z otasining asilzoda sehrgar ekanini esga olib, ushbu fikrni miyasidan darhol chiqarib tashladi. Bu haqda keyin, bafurja o'ylab ko'radi.

– O'limdan zavqlanuvchilarning bari asilzoda bo'lishi mumkin emas. Chunki bu dunyoda sehrgarlar oz, – o'jarlik-la, e'tiroz bildirdi qiz. – Aslida aksariyatining ajdodi zoti past bo'lib, o'zlarini asilzoda sifatida ko'rsatishadi, xolos. Magllar oilasida

¹ Vatini – astar bilan avra orasiga qo'yiladigan sermomiqlik mato.

tug'ilganlardan nafratlanishadi, sen bilan Ronni esa o'z saflariga jon deb qabul qilishgan bo'lar edi.

– Meni-ya? Hayotda qabul qilishmaydi! – ovoz ko'tardi Ron, sosiska sanchilgan sanchqini Germionaga siltab.

Sosiska sanchqidan uchib chiqib, narigi stolda ovqatlanib o'tirgan Erni Makmillanning boshiga borib tegdi.

– O'limdan zavqlanuvchilarning ta'biri ila aytganda, jamiki oilam sotqin sanalib, mag'llar oilasida tug'ilgan sehrugarlar bilan teng ko'riladi! – fikrini yakunladi Ron.

– Meni esa ular quchoq ochib qarshi olishlari muqarrar, – istehzo-la ta'kidlab qo'ydi Garri. – Juda qalin do'st bo'lar edik, agar meni har qadamda asfalasofilinga yo'llashga urinishlarini inobatga olmaganda.

Ron xandon otdi, hatto Germiona ham miyig'ida kulib qo'ydi.

– Hoy, Garri, senga mana buni berib qo'yishni iltimos qilishdi, – eshitildi Jinnaning ovozi.

Qiz yaqin kelib, tanish dastxat-la yozilgan pergament o'ramini uzatdi.

Rahmat, Jinna... Bu Damblдор bilan o'tadigan navbatdagi mashg'ulot haqida, – sevinch-la ma'lum qildi, pergament o'ramini yozib, o'zini yengil his etgan Garri Ron bilan Germionaga.

Jinna biz bilan Xogsmyodga bormaysanmi? – taklif qildi u.

– Din bilan boraman... Ehtimol, o'sha yerda uchrashar-miz, – dedi qiz, qo'lini siltagancha xayrlashib.

Filch, odatdagiday, Xogsmyodga chiqib ketayotganlarni ijozat berilganlar ro'yxatiga ko'ra tekshirmoqda. Har bir o'quv-chi sir sezgiri vositasida uch bor tekshirilayotgani bois tadbir uzoq cho'zildi.

– Biron nima olib chiqib ketyapmizmi, yo'qmi farqi nima, – e'tiroz bildirdi Ron, ingichka uzun sezgirga ko'z qiri ila qarab. – Olib kirilayotgan narsani tekshirish kerak!

Aqllilik qilgani uchun sezgir Ronning biqiniga ikki marta niqtab yuborildi. Shamol esib, yomg'ir aralash qor yog'a-

yotgan ko'chaga chiqishgach, Ron ancha vaqt og'riqdan basharasini burishtirib, biqinini ushlab yurdi.

Xogsmyodgacha bosib o'tilgan yo'l bolalarga quvonch bag'ishlamadi. Garri yuzini sharf bilan to'sib olgan bo'lishiga qaramay, ochiq qolgan qismi ko'p o'tmay uvushib, og'riq seza boshladi. Maktab o'quvchilarining galasi muzday shamoldan saqlanish maqsadida sal kam ikki bukilgancha bazo'r odimlab bormoqda.

«Issiqqina umumiy mehmonxonada qolgan ming marta afzal edi», - xayoldan o'tkazdi Garri.

Xogsmyodga yetgach, Zonkoning kulgili mollar do'koni mixlab qo'yilganini Xudodan yo'llangan nishona sifatida qabul qildi. Xayriyatki, «Rohat luqum» do'koni ochiq ekan. Ron qalin qo'lqop taqqan qo'lini ko'tarib, o'sha tomonni ko'rsatdi. Garri bilan Germiona qoqilib-surilib, uning ortidan odamga to'lib-toshgan do'konga kirishdi.

– Xudoga shukur! – oh urdi Ron, shirinlik hidi anqib turgan iliq havodan chuqur nafas olib.

– Garri, o'g'lim! – eshitildi orqa tomondan ovoz.

– Obbo, – g'udulladi Garri.


Bolalar o'girilib, boshiga kattagina mo'yna telpak kiygan, egnidagi palto ham o'xshash mo'ynadan tikilgan professor Divangardni ko'rishdi. U qo'lga shakarlangan ananas sharbati to'ldirilgan kattagina sumka ushlab, qorni bilan do'konning deyarli yarmini egallab olgan.

– Uchta yig'ilishimni o'tkazib yubording, – o'pka-gina qildi Divangard, Garrining ko'ksiga mehr-la niqtab – Bu ishing yaramaydi, o'g'lim. Yig'ilishlarda ishtirok etishingni qat'iy talab qilaman. Kechalarimiz yomon o'tmaydi-yu, shunday emasmi, miss Grenjer?

– Yomon emas, – ilojisiz javob berdi Germiona. – Chin-dan ham, qabulingizda o'tgan oqshomlar...

– Ana, eshitdingmi, Garri? Xo'sh, sababi nima, kelmay yurishingni? -- talab ohangida so'radi Divangard.

– Birinchidan, professor, mening kvidish mashqlarim bor, – javob berdi Garri.



U har safar Divangardning binafsharang tasmaga o'ralgan taklifnomasini olganda, jamoa a'zolariga mashq tayinlaydi. Shunday qilsa, Ron o'zini haqsiz qolganday his etmay, odatda, Maklaggen bilan Zabini ishtirokidagi suhbatga toqat qilishga majbur bo'lgan Germionaning aftini tasavvur qilib, miriqib kulishadi.

– Demak, shuncha sa'y-harakatlardan so'ng birinchi o'yinda, albatta, g'alaba qozonasani! – kuldi Divangard. – Lekin hordiq hali hech kimga zarar qilmagan. Dushanba kuniga qanday qaraysan? Bunday havoda mashq qilmassan, axir?!...

– Ilojim yo'q, professor. Dushanba kuni men... e-e-e... professor Dambldorning huzuriga kirishim kerak.

– Yana omadim yurishmadi! – fojiali ovoz ko'tardi Divangard. – Xo'p, mayli, Garri, lekin bilib qo'y, bir umr qochib yura olmaysan, baribir!

U qo'lini podsholarga xos tarzda siltab lapanglagancha, do'konni tark etdi. Divangard suhbat davomida vitrinaga qo'yilgan anavi suvarak shodasiga qanchalik e'tibor qilgan bo'lsa, Ronga ham shunchalik e'tibor qildi.

– Ishongim kelmaydi! Sen yana qutulib qolding! – boshini sarak-sarak chayqadi Germiona. – Bilmoqchi bo'lsang, o'sha yig'ilishlar, chindan ham, yomon o'tmaydi... ba'zan qiziqarli bo'ladi...

Qiz Ronning yuzi kasb etayotgan qiyofani ko'rib, gapni aylantirdi:

– Voy, qarang, noyob qand patqalamlari! Anchaga yetadi-yu, a?

Germiona mavzuni almashtirganidan xursand bo'lgan Garri qand patqalamining yangi turiga qiziqish bildirgan bo'ldi. Biroq Ron qovog'ini solib, Germionaning «Endi qayoqqa boramiz?» – degan savoliga sovuqqina yelka qisib qo'ydi.

– «Uch supurgi»ga boraylik, – taklif qildi Garri. – U yer issiqroq, har qalay.

Uchovlon yuzini sharf bilan o'rab, do'kondan chiqdi. «Rohat luqum»ning mazali issig'idan so'ng bolalarning yuzini badanni teshib o'tayotgan sovuq ustara kabi kesmoqda. Ko'cha-

da odam kam, hech kim vaysab olish uchun to'xtamagan, hamma o'z ishi-tashvishi bilan yelib-yugurib yuribdi. Faqat katta yoshli ikki kishigina «Uch supurgi» yaqinida to'xtagan. Ulardan biri novcha bo'yli ozg'in kishi. Garri yomg'ir qatralari qoplagan ko'zoynagi orqali ko'zini qisib qarab, Xogsmyod qishlog'idagi «Axta cho'chqa kallasi» qovoqxonasining barmenini¹ tanidi. Bolalar yaqin borganda barmen plashga yaxshilab o'ranib, nari ketdi. Uning suhbatdoshi esa qo'lida nimadir aylantirgancha, turgan joyida qoldi.

– Mundugnus! – tanidi uni Garri bir fut qolganda.

Malla sochi uzun, baquvvat pakana seskanib ketib, puturi ketgan chemodanini qo'lidan tushirib yubordi. Chemodan ochilib, ichidan butun boshli lombard to'kilib, atrofga sochilib ketdi.

– Iye, Garri, o'zingmi, salom, – soxta xotirjamlik-la so'rashdi Mundugnus Fletcher. – Mayli, sovuqda ortiq ushlab turmay seni.

Mundugnus tez g'oyib bo'lishga oshiqib, yer paypaslagancha buyum tera boshladi.

– Savdo-sotiqmi deyman? – qiziqdi Garri, Mundugnusning temir-tersagiga qarab.

– Tirikchilikning aybi yo'q, – javob berdi Mundugnus.

– Shoshma, – dedi yerdan allaqanday kumush buyum olgan Ron. – Tanish narsa-yu bu.

– Ber bu yoqqa! Rahmat! – qichqirdi Mundugnus, Ronning qo'lidan tortib olgan qadahni chemodanga tiqib. – Qisqasi, ko'rishguncha... VOY!

Garri Mundugnusning bo'g'zidan olib, pab devoriga taqadi. Uni bir qo'li bilan mahkam tutar ekan, ikkinchi qo'lga sehrli tayoqchasini oldi.

– Garri! – chirilladi Germiona.

– Bularning barini Siriusning uyidan o'marib chiqqan-san, – tishi orasidan vishilladi Garri. – Qadahda Bleklar xona-

¹ **Barmen** (inglizcha: barmen – bar egasi; barda ishlovchi) – bar egasi; bar xizmatchisi, bufetchi.

donining gerbi tasvirlangan.

Garri yuzini Mundugnusning basharasiga yaqin keltirib, spirtli ichimlik va eski tamakining qo'lansa hidi ila nafas olishga majbur bo'lmoqda.

– Men... yo'q... nima? – bo'g'ilib qoldi Mundugnus yuzi qizarib.

– Nima qildim?! – g'azablandi Garri. – Siriusning o'lganini eshitishing bilan, uyiga yugurib, bor narsasini o'marib chiqdingmi?

– Men... yo'q...

– Joyiga qaytar hammasini! – vishilladi Garri.

– Garri, unday qilma, – qichqirdi Germiona, Mundugnusning ko'karib borayotganini ko'rib.

Shu payt nimadir gumburlab, Garrining qo'li Mundugnusning bo'g'zidan sapchib ketdi. O'g'ri og'zi bilan nafas olib, so'lagini yutgancha, qo'lidan chiqib ketgan chemodanini oldi-da, PAQ – havoda g'oyib bo'ldi.

– QAYT ORQANGA, O'G'RI! – boloxonali so'kingancha, Mundugnusni qidirib, turgan joyida aylandi Garri.

– Foydasi yo'q, Garri, – eshitildi qayerdandir paydo bo'lgan Boms. – Mundugnus Londonga yetib borgan bo'lsa kerak, baqirishdan foyda yo'q, – dedi sochini qor ho'l qilgan qiz.

U Siriusning narsalarini o'g'irlabdi! ovoz ko'tardi Garri. – O'g'irlabdi!

– Shunday bo'lgan taqdirda ham, – dedi Boms, bunday yangilikdan mutlaqo hayratlanmay. – Sovuqda turmay, ichkariga kiring.

Boms bolalarni «Uch supurgi»ga kiritdi.

– U Siriusning narsalarini o'g'irlabdi! – yana qichqirdi Garri.

– Ko'rdik, Garri, faqat qichqirma, iltimos, – pichirladi Germiona. – Odamlar qarab turibdi. O'tir, men ichgani biron nima olib kelaman.

Germiona uch shisha huzur-lazzat ichimligi bilan qaytdi, Garri esa hech tinchlana olmadi.

– Nahotki Orden a'zolari Mundugnusni tiyib qo'ya

olmasa?! – past ovozda, lekin g‘azab-la so‘radi u. – Qarorgoh poliga burab qotirilmagan borki narsalar o‘g‘irlab chiqilishini nahotki to‘xtata olishmasa?!

– Jim! – umidsiz pichirladi Germiona, biroq eshitib qolmaganiga ishonch hosil qilish uchun atrofga alanglab.

Sal naridagi stollardan birining ortida Garriga katta qiziqish-la baqraygan ikki nafar duoxon, ulardan sal narida Zabini o‘tiribdi.

– Sening o‘mingda bo‘lganimda men ham e‘tiroz bildirgan bo‘lar edim, albatta, – davom etdi Germiona. – Axir, umuman olganda, endi u narsalar seniki-yu.

Garri huzur-lazzat ichimligining ilk ho‘plamiga tiqilib qolishiga sal qoldi. Pinhoniylilik maydonidagi 12-uy endi uning uyi ekanini unutib ham qo‘ygan ekan.

– Ha, mening narsalarim! – xitob qildi Garri. – Shuning uchun ham u meni ko‘rib quvonib ketmadi! Shoshmay tursin, bor gapni Damblordga aytib beraman! Mundagnus undan juda qo‘rqadi.

– Yaxshi fikr, – pichirladi Germiona, Garrining tinchlanayotganini ko‘rib. – Ron, nimaga bu qadar tikilib qolding?

– Hech narsaga, – javob berdi Ron, shu zahoti bar rastasini qo‘yib.

Lobar badan Rosmerta xonim Ronga anchadan buyon yoqishini bilgan Garri, do‘sti ushbu barmen ayolni tomosha qilib o‘tirganini fahmladi.

– Tushunishimcha, «Hech narsa» deganing Ogden Oldning kuydiradigan viskisi bo‘lsa kerak, a? – zaharli pichirladi Germiona.

G‘urur-la sukut saqlagan Ron, ushbu kinoyaga e‘tibor qilmay, qo‘lidagi shishasini so‘rib qo‘ydi. Garrining xayoli esa o‘sha kumush qadahlardan nafratlanib yashagan Siriusga ketdi. Barmoqlari bilan stol chertib o‘tirgan Germionaning nigohi Ron bilan bar rastasi orasida yugurdi.

– Balkim bugunga yetar, qaytamizmi? – taklif qildi qiz, Garri shishani bo‘shatib, stolga qo‘yishi bilan.

Bolalar bosh iring‘ishdi. Safar ko‘ngildagiday o‘tmadi.

Ob-havo esa battarlashib bormoqda. Uchovlon yaxshilab o'ranib, qo'lqop taqib, Ketti Bell va uning dugonasi ortidan ko'chaga chiqib, Daroz ko'chaning muzlagan loyini tepalagancha, maktab tomon yo'l oldi. Garri ba'zan Jinna haqida ham o'ylab bordi. Ular uchrashishmadi. Ayonki, Din ikkalasi Pudgafut xonimning sevishganlar go'shasi sanaladigan choyxonasida o'tiribdi. Qovoq solib olgan Garri, boshini xam qilib, qor uyumini qattiq bosgancha, qadamini tezlatdi.

Shamol Ketti va unga hamroh bo'lgan dugonasining ovozi olib kelmoqda. Ko'zini qisib, qizlarning xira sharpasini ko'rgan Garri, ikkalasining suhbatini g'ayrioddiy baland ohangda kechayotganiga e'tibor qilmadi. Aftidan, qizlar, Kettining qo'lidagi mahkam siqib olingan buyum haqida bahslashmoqda.

– Bunga daxling yo'q, Lin! – eshitdi Garri.

Yo'l yon tomon burildi. Qalin yog'ayotgan qor Garri-ning ko'zoynagiga yopishib qolmoqda. U qo'lini ko'tarib, qo'lqopi bilan ko'zoynagini tozalashga urindi. Shu paytda Lin Kettining qo'lidagi buyumni ushlab tortdi, Ketti esa qarshilik ko'rsatib, qo'lidagi narsani tushirib yubordi.

Shu zahoti Ketti qo'lini uchib ketmoqchi bo'lganday ikki tomon yengil uzatib, havoda muallaq osilib qoldi. Bunda qiz to'pig'idan osilgan Ronday kulgili ko'rinmadi. Manzara qandaydir g'alati, noto'g'ri ko'rinmoqda... Garri, Ron, Germiona va Lin ko'zi yumuq, sochini dag'al shamol o'ynatayotgan, yuzi biron-bir qiyofa kasb etmagan, yerdan olti futcha ko'tarilgan Kettiga baqraygancha qotib qolishdi.

Ketti ko'zini ochib, kutilmaganda dahshatli qichqirdi. Aftidan, uning ko'ziga ko'ringan yoki tanasi his etgan narsa aytib bo'lmas darajada qattiq og'riq bergan ko'rinadi, tinimsiz ingray boshladi. Dugonasining qichqirig'iga jo'r bo'lgan Lin Kettining to'pig'idan ushlab, yerga tushirishga urindi. Garri, Ron va Germiona ham yordamga oshiqib, Kettining oyog'idan mahkam tutib, pastga tortishdi. Yerga qulab tushayotgan qizni Garri bilan Ron ikkalasi ushlab qolishga ulgurdi. Og'riq azobidan kuchli to'lg'anayotgan Kettini bolalar bazo'r ushlab, yerga yotqizishdi. Hech kimni tanimayotgan qiz tipirchilab, ovozi boricha qich-

qirmoqda.

Garri, atrofga boqib, hech kimni ko'rmadi.

– Shu yerda qoling! – shamoldan baland ovozda baqirdi u. – Men yordam chaqirib kelaman!

U maktab tomon yugurdi. Bunaqa holatni Garri hali ko'rmagan va shu bois Kettiga nima qilgan bo'lishi mumkinligini hech idrok eta olmayapti. Muyulish ortiga o'tiboq, orqa oyog'iga turib olgan allaqanday ayiqqa qattiq urildi.

– Xagrid! – xirilladi, zarba kuchidan butalar orasiga kirib ketgan Garri.

– Garri! – eshitildi qunduz po'stin kiygan, qosh-ko'zida qor pag'alari to'plangan Xagridning xitobi. – Gurpning yonidan kelyapman. U erishgan muvaffaqiyatni bilsang edi...

– Xagrid, anavi yerda bir qizga nimadir qildi... Bilmayman, unga yo qarg'ish qo'llanildi, yo boshqa narsa...

– Nima? – engashdi, shamol shovqinida hech narsa eshitmagan Xagrid.

– QARG'ISH! – qichqirdi Garri.

– Qarg'ish qo'llanildi? Kimga? Rongami? Germionagami?

– Yo'q, yo'q, Ketti Bellga... Yur men bilan...

Ikkovlon yugurib, ko'p o'tmay, Kettining ustida yig'ilgan bolalar yoniga yetib bordi. Ketti haligacha yerda to'lg'anib, qichqirmoqda. Ron, Germiona va Lin qizni tinchlantirishga urinishmoqda.

– Nari turing! – qichqirdi Xagrid. – Qani, ko'ray-chi!

– Bilmayman nima qilganini, lekin unga nimadir qilgan! – ho'ngradi Lin.

Xagrid bir-ikki soniya Kettiga qarab turdi-da, qizni shartda qo'ltiqlab, qasr tomon yelday uchib ketdi. Xayol o'tmay shamolning kuchli guvullashi Kettining qichqiriqlarini bosib yubordi.

– Isming Linmi? – qizning yelkasidan quchib, tinchlantirishga urindi Germiona.

Lin bosh irg'idi.

– Kutilmaganda ro'y berdimi bu yo?... – so'radi Ger-

miona.

– O‘ram yirtilganda, – ho‘ngradi Lin, yerda yotgan jigarrang qog‘ozni ko‘rsatib.

Ho‘l qog‘ozning yirtiq joyidan yashil tusli nur ko‘rindi. Ron engashib, buyumga qo‘lini uzatdi.

– Tegma! – ovoz ko‘tardi Garri, Ronning bilagidan tortib.

Garri tizzasiga cho‘kib, opalning¹ qog‘ozga o‘ralgan chiroyli shodasini ko‘rdi.

– Tanish buyum. Uni ilgari ko‘rganman, dedi u, bezakka qarab. – «Borjin va D‘Avilo» do‘konida. Ancha bo‘ldi. Unga qarg‘ish qo‘llanilgani, o‘zining o‘n ikki nafar magl sohibini o‘ldirgani yorlig‘iga yozilgan edi. Aftidan, Ketti qo‘l tekkizgan ko‘rinadi.

Garri dag‘-dag‘ titrayotgan Linga yuzlandi.

– Shodani qayerdan oldi u? – so‘radi u qizdan.

– Aynan shu masala ustida bahslashib qolgan edik! «Uch supurgi» hojatxonasidan olib chiqdi uni. «Xogvars»dagi odamlardan biriga sovg‘a ekani, tayinlangan kishiga topshirish kerakligini aytdi, lekin u qandaydir boshqacha, o‘ziga o‘xshamagan holatda chiqdi u yerdan... Dahshat, dahshat, Qaram qilish qarg‘ishi ta‘siri ostida bo‘lgani aniq... darhol tushunib yetmabman!...

Lin battar o‘kirdi. Germiona uni yupatishga urinib, yelkasiga urib-urib o‘tirdi.

– Kim berganini aytmadimi? – so‘radi u Lindan.

– Yo‘q... aytishni umuman istamadi... Shunda, men uni miyasini yeb qo‘ygan jinniga chiqarib, shubhali buyumni maktabga olib kirish mumkin emasligini aytdim... Gapimga quloq solmadi... buyumni qo‘lidan tortib olishga urindim... kutilmaganda...

Fikrini oxiriga yetkaza olmagan Lin ingrab yubordi.

¹ **Opal** (*sanskritcha*: upal – qimmatbaho tosh) tarkibida suv saqlaydigan kolloidli kremniy oksididan iborat mineral, globulyar (sharcha) tuzilishga ega. Issiq vulkanogen suvlardagi cho‘kindilar va nurash zonasida suv ta‘siridagi qatlamlar hamda karbonat kislotaning ajralishida kristallanish natijasida hosil bo‘ladi.

Yuringlar, yaxshisi, maktabga qaytib, Kettining holidan xabar olaylik, – dedi Germiona, qizni mahkam quchib. Ketdik...

Garri biroz o'ylanib, bo'ynidagi sharfni shartta yechdida, cho'chib ketgan Ronning qichqirganiga e'tibor qilmay, shodani asta o'rab, ko'tardi.

– Pomfri xonimga ko'rsatish kerak, – tushuntirish berdi u.

Ron ikkalasi Germiona bilan Linning izidan borar ekan, Garri xayoliga kelgan fikrni zo'r berib o'ylab yurdi va maktab hududiga kirib borishi bilan, o'zini tiyib tura olmay, bayon etdi:

– Shodaning xususiyatini Malfoy yaxshi biladi. To'rt yil muqaddam shoda «Borjin va D'Avilo» rastasida yotgan. Malfoy uni astoydil ko'zdan kechirib chiqqanini shaxsan o'zim, otaboladan bekinib qarab turganman. Ortidan kuzatib borganimizda, aynan shuni xarid qilgan u! Shodaning xususiyatidan foydalanishga ahd qilgan!

Bilmadim... Garri, – shubhalandi Ron. – «Borjin va D'Avilo»ga ko'pchilik kiradi... Anavi qiz esa shodani Ketti hojatxonadan olib chiqqanini aytdi, shundaymi?

– To'g'ri, Ketti ushbu buyum bilan hojatxonadan chiqqanini aytdi. Lekin bu shodani aynan o'sha yerdan olganini aniq anglatmaydi!

Makgonagall! dedi Ron.

Garri boshini ko'tarib, qasr tomon qaradi. Chindan ham, ayvondan tushgan professor Makgonagall yomg'ir aralash qor ostida bolalar tomon yugurib kelmoqda.

– Xagridning aytishicha, sizlar Ketti Bellga nima qilganini ko'rgan ekansiz... Iltimos, zudlik bilan xizmat xonamga kiring! Qo'lingizdagi nima, Potter?

– Ketti qo'l tekizgan buyum, – javob berdi Garri.

O Xudo! oh urdi professor Makgonagall, Garrining qo'lidan shodani olib. – Yo'q, yo'q, ular men bilan, – dedi u, sir sezgirini siltagancha, vestibul orqali kalovlanib kelayotgan Filehni ko'rib. – Mana bu shodani zudlik bilan professor Sneggning ixtiyoriga yetkazing. Faqat ehtiyot bo'ling, unga qo'l

tekkiza ko'rmang, sharfdan chiqarib yubormang.

To'rtovlon professor Makgonagallning izidan ko'tarilib, xizmat xonasiga kirdi. Oynalariga qor yopishgan derazalar zirillamoqda, kaminda olov yonayotganiga qaramay, xona sovuq. Professor Makgonagall eshikni yopib, yozuv stoli tomon shiddat-la odimladi-da, yetib borishi bilan Garri, Ron, Germiona va hanuzgacha yig'isini to'xtata olmayotgan Linga yuzlandi.

– Xo'sh, gapiring, – qat'iy ohangda gap boshladi u, – nima bo'ldi?

Lin yig'lab, tutilib-to'xtalib, Ketti «Uch supurgi» hojat-xonasidan qo'lda sirli o'ram bilan chiqqani, bunda uning yuzi g'alati qiyofa kasb etib qolgani, notanish kishidan olingan buyumni qasrga olib kirish masalasi yuzasidan ikkalasi bahslashib qolishgani, ushbu bahs buyum talashish bilan yakun topib, o'ram qog'ozi yirtilib ketganini bazo'r aytib bera oldi. Shu yerga kelganda Lin kuchli hayajonlanib, ortiq so'z ayta olmadi.

– Yaxshi, Lin, – dedi professor Makgonagall shafqat ohangida, – kasalxonaga borib, Pomfri xonimdan tinchlantirish dorisini so'rang.

Lin chiqib ketishi bilan professor Makgonagall Garri, Ron va Germiona tomon yuzlandi.

– Ketti shodaga qo'l tekkizibdi. Xo'sh, keyin nima bo'ldi?

Havoga ko'tarildi, – birinchi bo'lib javob berdi Garri. – So'ng qichqirib, yerga quladi. Professor, ijozat bersangiz, professor Damblorga uchramoqchi edim.

– Direktor dushanbagacha bo'lmaydi, Potter, – hayron bo'lgancha javob berdi professor Makgonagall.

– Bo'lmaydi? – e'tiroz ohangida so'radi Garri.

– Ha, Potter, bo'lmaydi! – dedi professor Makgonagall, dakki berilgan ohangda. – Agar ushbu mudhish hodisaga taalluqli gapingiz bo'lsa, shubha qilmay, menga ham aytib berishingiz mumkin.

Garri Makgonagall bilan ochiqchasiga gaplashishni istamay, bir-ikki soniya ikkilanib turdi. Damblor kishini biroz sir bostirib qo'ysa-da, bildirilgan har qanday, haqiqatdan yiroq

bo'lsa ham farazga, xotirjam munosabat bildiradi. Modomiki, hozir gap hayot va mamot to'g'risida borar ekan, kulgili bo'lib ko'rinish bema'nilikdir.

– Professor, nazarimda, o'sha shodani Kettiga Drako Malfoy bergan.

Uning bir yonida turgan Ron xijolat-la burun qashib, ikkinchi yonida turgan Germiona esa xuddi Garridan tezroq uzoqlashmoqchi bo'lganday, biroz qo'zg'alib qo'ydi.

– Bu juda jiddiy ayblov, Potter, – dedi hayratdan biroz sukut saqlagan professor Makgonagall. – Isboting bormi?

– Yo'q, lekin... – dedi Garri va Malfoyning izidan «Borjin va D'Avilo» do'konigacha uchovlon poylab borib, eshitgan suhbatini aytib berdi.

– Malfoy ta'mirdan chiqarish uchun «Borjin va D'Avilo»ga biron nima ko'tarib keldimi? – eshitganlariga aniqlik kiritish maqsadida so'radi professor Makgonagall, Garri hikoyasini yakunlagach.

– Yo'q, professor. O'shanda u Borjingga yonida bo'lmagan allaqanday buyumni qanday qilib ta'mirdan chiqarish mumkinligini so'radi. Muhimi bu emas. O'sha kuni u nimadir xarid qildi va o'ylashimcha, o'sha buyum bugungi opal shodasi bo'lgan...

– Malfoy do'kondan bugungi o'ramga o'xshash narsa olib chiqqanini ko'rdingizmi?

– Yo'q, professor. Malfoy Borjingga xarid qilingan buyumni do'konda saqlashni amr etdi...

– Ammo, Garri, – gapni bo'ldi Germiona, – Borjin Malfoydan xarid qilingan molni olib ketishini istash-istamasligini so'radi. Malfoy esa rad javobini berdi.

– Chunki qo'l tekkizishni istamagan, buning nimasi tushunarli emas? – jerkib berdi Garri.

– Umuman aytganda u: «Esingizni yeb qo'ydingizmi? Qanday qilib ko'chada ko'tarib yuraman uni?», – degan edi, – aniqlik kiritdi Germiona.

– Shoda bilan u, chindan ham, ahmoqday ko'ringan bo'lar edi, – ta'kidlab qo'ydi Ron.

– Ron, – toliqqan ohangda e'tiroz bildirdi Germiona, – shodani, qo'l tegib ketmasligi uchun o'rab, plash ostida olib yurish mumkin. Fikrimcha, Malfoy «Borjin va D'Avilo»da qoldirgan buyum yo qattiq shovqin soladigan, yo o'lchami had-dan ortiq katta bo'lib, ko'chadagi odamlarning e'tiborini o'ziga jalb etadigan buyum bo'lgan... Bundan tashqari, men do'konga kirib, Borjindan shoda narxini so'ragan edim. Malfoy nimani saqlab qolishni iltimos qilganini so'rab bilmoqchi bo'ldim. Do'konga kirganimda o'sha shodani ko'rganman. Borjin menga opal shodasining narxini aytdi, lekin sotilgani haqida og'iz ochmadi...

To'g'ri, lekin sening harakatlaring shunday kechdiki, besh soniya o'tar-o'tmas Borjin asl maqsadingni fahmlab, gap-lashishni ham istamay, quvib soldi, e'tiroz bildirdi Garri. Umuman aytganda, Malfoy o'sha shodaga yuz bor odam jo'na-tishi mumkin edi.

– Bo'ldi, bas! darg'azab ohangda ovoz ko'tardi profes-sor Makgonagall, Germionaning e'tiroz bildirish uchun og'iz juftlaganini ko'rib. – Potter, fikringizni ochiq-oydin bayon etga-ningizni qadrlayman, albatta. Lekin mister Malfoyni shoda sotiladigan do'konga kirib chiqqani uchungina ayblay olmaymiz. U yerga Malfoydan tashqari yuzlab kishilar tashrif buyurishgan...

– Men ham shunday fikrdaman, – g'udulladi Ron.

– Nima qilganda ham xavfsizlikning bunday choralari ko'rilgan ekan, birov shodani joriy etilgan qat'iy nazoratni chet-lab o'tib maktab hududiga olib kira olmaydi.

– Biroq... – e'tiroz uchun og'iz juftladi Garri.

– Muhimi shundaki, – so'nggi dalilni bayon etdi profes-sor Makgonagall, – mister Malfoy bugun Xogsmiyodga chiqma-gan.

Og'zi lang ochilgan Garri havo shari kabi shishib qoldi.

– Siz qayerdan bilasiz, professor? – bazo'r so'ray oldi u.

– Juda yaxshi bilaman. Chunki bugun u men tayinlangan mehnat jazosini o'tagan. Malfoy bir narsani boshqa narsaga aylantirish bo'yicha uyga berilgan vazifani ikkinchi bor bajar-may keldi. Shunday ekan, o'z shubhangizni men bilan o'rtoq-lashganingiz uchun rahmat sizga, Potter, – dedi u, chiqish eshigi

tomon qat'iy odimlab. – Kasalxonaga borib, Kettining holidan xabar olishim kerak. Hammangizga xayrli kech.

Professor eshikni ochdi. Bolalarga indamay chiqib ketishdan boshqa chora qolmadi.

Garri Makgonagallga tarafdor bo'lgani uchun do'stlaridan xafa bo'ldi, albatta. Shunday bo'lsa-da, umumiy mehmonxona tomon yo'l olgancha, zinadan ko'tarilib, bo'lib o'tgan hodi-sani muhokama qilishar ekan, suhbatga aralashmay tura olmadi.

– Nima deb o'ylaysiz, opal shodasi kimga topshirilishi kerak edi? – so'radi Ron.

– Kim biladi deysan, – javob berdi Germiona. – Nima qilganda ham uning omadi chopdi. O'ramni ochib, shodani qo'liga olishi muqarrar edi.

– U har qanday kishiga topshirilishi mumkin edi, – fikr bildirdi Garri. – Birinchi navbatda Dambldorga. O'limdan zavqlanuvchilar undan qutulishni orzu qilishadi. Binobarin, u asosiy nishon sanaladi. Yoki Divangardga. Dambldorning gapiga qaraganda Voldemort uni o'z safida ko'rishni juda istagan. Divangard Dambldor tomonga o'tganini eshitgach, suyunib ketganiga shubha qilaman. Yoxud...

– Senga, – taxminni tashvish-la, davom etdi Germiona.

– Yo'q, menga emas, – bosh chayqadi Garri. – Agar menga topshirilishi lozim bo'lganida, Kettiga orqa o'girilib qarash kifoya edi. Biz uning ketidan «Uch supurgi»dan chiqiboq, izma-iz bordik. Filchning tekshiruvi inobatga olinadigan bo'lsa, sovg'a menga «Xogvars»dan tashqarida topshirilgani oqil ish bo'lar edi. Qiziq, nima uchun Malfoy o'ramni qasrga olib kelishni buyurdi ekan?

– Garri, Malfoy bugun Xogsmyodga chiqmagan! – eslatib o'tdi jahl-la deysingan Germiona.

– Demak, u o'z qabih ishini vositachi orqali amalga oshirgan, – ishonch-la fikr bildirdi Garri. – Krabbe yoki Goyl... Agar jo'yali mulohaza yuritiladigan bo'lsa, boshqa O'limdan zavqlanuvchi orqali. Endi uning Krabbe bilan Goyldan ko'ra durustroq do'stlari bor-u, axir.

Ron bilan Germiona bir-biriga: «bahslashishdan foyda

yo‘q», deganday, ma‘noli qarab qo‘yishdi.

– Simplokarpus, – dedi baland ovozda Germiona, «Se-miz Xola»ning ro‘parasiga kelib.

Portret ochilib, bolalarni umumiy mehmonxonaga o‘t-kazdi. Bu yerda odam ko‘p bo‘lib, namiqqan kiyim hidi gupul-lamoqda. Ob-havo sovuq bo‘lgani bois ko‘pchilik Xogsmiyoddan erta qaytgan. Hech kim hech nimani muhokama qilayotgani yo‘q. Aftidan, Ketti haqidagi yangilik bu yerga hali yetib kelmagan.

– Umuman aytganda, tajovuz xom rejalashtirilibdi, – fikr bildirib qoldi Ron, kamin oldidagi kresloda isinib o‘tirgan birin-chi sinf bolasini kreslodan turtib turg‘izgancha, yalpayib o‘tirib. – Qarg‘ish qasrga kirishga ham ulgurmagan. Qisqasi, ijrosi mut-laqo ishonchsiz tuzilgan reja.

– To‘g‘ri aytasan, – javob berdi Germiona, Ronni tepib turg‘izgancha, bolachani joyiga o‘tqizib. – Reja puxta o‘ylab chiqilmagan.

– Qachon Malfoy ishni puxta bajarib qo‘yibdiki, endi bajarsa? – gap qistirdi Garri.

Ron ham Germiona ham indamay qo‘ya qolishdi.

XIII BOB

NOMA‘LUM REDDL

Ertasi kuni Ketti Muqaddas Rezgi kasalxonasi – g‘alati jarohat va patologiyalar institutiga yuborildi. U qandaydir dah-shatli qarg‘ish ta‘siriga duchor bo‘lgani haqidagi yangilik butun maktabga tarqaldi. Bunda, turli-tuman mish-mish gaplar yurib, tajovuz obyekti aslida Ketti bo‘lmagani aftidan, Garri, Ron va Germionadan tashqari, hech kim bilmaydi.

– Malfoy ham xabardor, albatta, – eslatib o‘tdi Garri Ron bilan Germionaga.

Ikkalasini shu zahoti karlik va gunglikning navbatdagi xuruji tutib qoldi. Bunday taktikani ular, Garri Malfoyni O‘lim-dan zavqlanuvchilarga mansublik nazariyasini ilgari surishni

boshlashi bilan qo'llab borish maqsadida tanlashgan.

Dambldor o'zining sirli safaridan o'z vaqtida qaytishi va dushanba kuni o'tkaziladigan mashg'ulotga ulgurish-ulgurmasligini Garri bilmaydi. Mashg'ulot keyinga qoldirilgani haqida xabar olmagan Garri kechki soat sakkizda direktorning eshigini taqillatib, kirishga ijozat oldi. G'ayriodatiy horg'in ko'ringan Dambldorning qo'li hamon ko'mirday qop-qora. Shunday bo'lsa-da, u Garri bilan kulib so'rashib, imo ila kresloni ko'rsatdi. Shiftga kumush tusli nur taratayotgan damblxotira allaqachon stol ustida turibdi.

– Bilishimcha, vaqtning jo'shqin o'tib, Ketti bilan bog'liq hodisa shohidi bo'lgansan? – so'radi Dambldor.

– Shunday, ser. Ahvoli qalay uning?

– Hali sog'ayib ketgani yo'q, lekin omadi bor ekan. Aftidan, uning qo'li shodaga, qo'lqopidagi bilinar-bilinmas teshik orqali sal tegib ketgan. Agar bo'yniga taqib olganida yoki qo'lqopsiz ushlaganida til tortmay o'lar edi. Xayriyatki, professor Snegg qarg'ish ta'siri keng tus olishiga yo'l qo'ymaslik chorasini ko'ra bilibdi.

– Nega endi Snegg, Pomfri xonim emas? – jahl qildi Garri.

– Voy yaramas-ey, -- po'ng'illadi portretlardan biri.

Hozirgina lunjini tirsagiga tirab uxlayotgan Siriusning katta bobosi Piniy Nigelliy Blek boshini ko'tardi.

– Mening davrimda o'quvchilarga maktabda ishlariga taalluqli savol berilishiga ijozat berilmas edi, -- ta'kidlab qo'ydi Piniy Nigelliy.

– Ha, ha, minnatdorman sizdan, Piniy, -- bosh irg'ib, tinchlantirgan bo'ldi Dambldor. – Garri, gap shundaki, professor Snegg yovuz kuchlar sehrini Pomfri xonimga nisbatan yaxshiroq biladi. Bundan tashqari, Muqaddas Rezgi kasalxonasining ma'muriyati Kettining ahvoli haqida meni har soatda xabardor qilib bormoqda. Umid qilamanki, vaqt o'tib u to'la-to'kis tuzalib ketadi.

– Dam olish kunlari qayerda edingiz, ser? – so'radi Garri, garchi quyushqondan chiqib ketayotganini his etayotgan

bo'lsa-da.

Piniy ham shunday fikrda, shekilli, achchig'i kelib, pishqirib qo'ydi.

– Bu masalani hozircha muhokama qilmaslikni afzal ko'rgan bo'lar edim, -- javob berdi Damblдор. – Lekin kezi kelib, hammasini aytib beraman.

-- Aytib berasiz? -- hayratlandi Garri.

– O'ylashimcha, shunday, – dedi, ichki cho'ntagidan xotira solingan shishacha chiqarib, tiqinini sehrli tayoqcha vositasida ochgan Damblдор.

– Ser, – gap boshladi Garri, jur'atsiz ohangda, – Xogsmiyodda Mundugnusni uchratdim.

– Ha, Mundugnus mulkingni o'zi bilgancha tasarruf etayotganidan xabarim bor, – qoshini chimirdi Damblдор. – «Uch supurgi» qahvaxonasi yaqinidagi uchrashuvlaringizdan buyon bekinib yuribdi. Bilishimcha, mendan hayiqyapti. Tashvish tortmasang ham bo'laveradi. Siriusning narsalarini endi tega olmaydi u.

– Zoti past maraz Bleklar xonadonining bisotini o'marib yuribdi, deng?! – so'radi g'azabi qaynab ketgan Piniy Nigelliy.

Sobiq direktor shu zahoti o'z portretini tark etib, aftidan, Pinhoniylilik maydoni 12-uydagi portretidan xabar olgani yo'l oldi.

– Professor, -- dedi Garri birozdan so'ng, – Ketti bilan bog'liq hodisadan keyin nimani muhokama qilganimizni professor Makgonagall aytib berdimi sizga? Drako Malfoyni nazarda tutmoqdaman.

– Ha, Minerva shubhalaring haqida aytib berdi menga, – tasdiqladi Damblдор.

-- Siz qanday fikrdasiz?

-- Daxldor shaxslarga nisbatan tegishli chora ko'raman, -- dedi Damblдор. – Lekin hozir, Garri, bugungi mashg'ulotimiz ko'proq qiziqtiradi meni.

Garri biroz xafa bo'ldi: ushbu mashg'ulotlar shunchalik muhim ekan, nega ikkala mashg'ulot orasidagi tanaffus bu qadar uzoq cho'zildi? Drako Malfoyni vaqtincha unutib, damblxotiraga

yangi xotira quyayotgan direktorning harakatini kuzatib o'tirdi. Damblдор uzun ingichka barmoqlari bilan damblxotirani aylantira boshladi.

– Lord Voldemortning tarjimai holini o'rganish jarayonida Tom Reddl ismli barno magl o'zining afsungar xotini Mero-pani tashlab, ota-onasining uyiga qaytganini unutganing yo'q, albatta. Meropa Londonda yolg'iz o'zi qoldi. Yuragi ostida esa kelajakda Lord Voldemort bo'lib yetishadigan homilani olib yurgan edi.

– Uning Londonda bo'lganini qayerdan bilasiz, ser?

– Anavi mash'um shoda sotilgan do'kon asoschilaridan biri Karaktakus D'Avilloning falakning g'alati gardishi ila bergan shohidligidan, – savolga javob berdi Damblдор.

U xuddi oltin qidiruvchisi kabi Garrining ko'z o'ngida muqaddam bajargandek, damblxotira ichidagi xotiralarni aralashtirib, aylantirdi. Kumush tusli substansiyadan arvoq kabi sadafrang, lekin tanasi arvoqga nisbatan zichroq pakana qariya o'sib chiqib, damblxotira uzra aylana boshladi.

– O'sha buyum qo'limizga juda g'alati tarzda tushib qolgan. Uzoq yillar muqaddam Rojdestvo arafasida yosh bir afsungar ayol olib keldi, – tilga kirdi qariya. – Pulga zoriqib qolgan ekan. Egnidagi juldur kiyimidan ko'rinib turgan edi ayanchli ahvoli. Homilador, ko'z yorishiga hech qancha vaqt qolmagan. Gapiga qaraganda, medalyon shaxsan Slizerinning o'ziga tegishli emish. O'xshash gaplarni ko'p eshitganmiz: «Voy, bu buyum shaxsan Merlinning buyumi, eng yaxshi ko'rgan choynagi» va hokazo. Nazar solib qarasam, medalyonda, chindan ham, Slizerinning tamg'asi bor! Bir nechta oddiy afsunlar qo'llanilganidan so'ng qo'limdagi buyum bebaho ekanini angladim! Tentak ayol esa o'z xazinasining asl bahosini bilmay, o'n galleon olganidan boshi osmonga yetdi. Do'konimiz tarixida eng zo'r bitim bo'lgan edi, o'sha ish!

Damblдор damblxotirani kuchli siltadi. Karaktakus D'Avillo kumush tusli bo'tqada erib ketdi.

– Atigi o'n galleon berdimi?! – e'tiroz-la so'radi Garri.

– Karaktakus D'Avillo oliyjanoblighi bilan nom chiqar-

magan, – xotirjam izohlab o‘tdi Dambldor. – Shunday qilib, ko‘z yorishiga oz vaqt qolgan Meropa Londonda bo‘lgani, Slizerin avlodining xonadoniga tegishli medalyonini sotishga majbur bo‘lgan darajada pulga zoriqqanidan mana voqif ham bo‘ldik.

– Ammo Meropa sehrgar bo‘lgan-u! – ovoz ko‘tardi Garri. – Yegulik va shunga o‘xshash boshqa narsalarga sehr vositasida ega bo‘la olishi mumkin edi!

– Xuddi shunday, – dedi Dambldor. – Fikrimcha, bu mening taxminim, albatta, garchi haq ekanimga ishonchim komil bo‘lsa-da, Meropa, eri tashlab ketgach, sehr-jodudan yuz o‘girgan. Endi u afsungar bo‘lishni istamay qolgan. Yana shuni ham rad etib bo‘lmaydiki, javobsiz muhabbat va umidsizlik tufayli Meropaning sehrgarlik qobiliyati barham topgan. Shunaqasi ham bo‘lib turadi. Nima qilgan taqdirda ham hozir o‘zing shohid bo‘lasan, Meropa hatto o‘z hayotini saqlab qolish uchun, sehrli tayoqchasini qo‘lga olmagan ham.

– O‘g‘li uchun ham-a?

Dambldorning qoshi ko‘tarilib ketdi.

– Nazarimda, Lord Voldemortga iching achishdi, shekilli?

– Yo‘q, – tez javob berdi Garri, – lekin oyimdan farqli o‘laroq, Meropada vaziyatdan chiqish yo‘llari sal ko‘proq bo‘lgan.

– Oyingda ham imkon bo‘lgan, – dedi Dambldor muloyim ohangda. – Meropa Reddl esa o‘g‘li yangi tug‘ilgan chaqaloq bo‘lishiga qaramay, o‘limni afzal ko‘rgan. Lekin Garri, uni qattiq qoralama. Uzoq cho‘zilgan azob-uqubat ayolning irodasini bukib, sindirib yuborgan. Buning ustiga u sening onang kabi mardlik, jasurlik kabi fazilatlariga ega bo‘lmagan. Endi, agar e‘tiroz bildirmasang, yo‘lga chiqsak...

– Bugun qayoqqa boramiz? – qiziqdi Garri, Dambldorning yoniga kelib turgach.

– Bu safar mening xotiralarimda sayohat qilamiz. Umid qilamanki, sen ularni yetarlicha aniq va saboqli deb topasan. Olg‘a, Garri...

Garri damblxotira ustida engashib, yuzini xotiralarning

salqin yuzasiga tekkizdi-da, har doimgidek, zulmat qa'riga cho'kib ketdi. Bir necha soniya o'tgach, oyog'i yerga tegdi. Ko'zini ochib, Damblдор ikkalasi eski Londonning gavjum ko'chasida turganini fahmladi.

– Ana men, – dedi Damblдор, ko'chani sut ortilgan aravani tortib ketayotgan ot oldidan kesib o'tayotgan novcha bo'yli kishini sevingancha ko'rsatib.

Soch-soqoli qo'ng'ir, egniga pishib yetilgan olxo'ri rangidagi duxoba kostyum kiygan yosh Damblдор ko'chaning bu tomoniga o'tib, ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb etgancha, tosh bosilgan ko'cha bo'ylab odimlay ketdi.

– Ko'rinishingiz chakki emas, ser, – baho berdi Garri.

Damblдор mamnun irshayib qo'ydi.

Ikkovlon yosh Damblдорning ortidan ergashib, ko'p o'tmay to'g'ri burchak shaklida qad ko'targan bo'lib, baland panjara bilan o'ralgan binoni ko'rdi, cho'yan darvozadan o'tib, hech narsasi yo'q hovliga kirdi. Yosh Damblдор ayvonga ko'tarilib, kirish eshigini bir marta taqillatdi. Xiyol o'tmay eshikni oldiga fartuk taqqan ko'rimsizgina qiz ochdi.

– Xayrli kun, – ko'rishdi yosh Damblдор. – Missiz Koul bilan uchrashuv tayinlangan menga. Bilishimcha, u ushbu muassasa mudiri.

– Ha, c-m-m-m... hozir, – javob berdi Damblдорga baq-raygancha esankirab qolgan qiz, – MISSIS KOUL! – qichqirdi u yelka uzra.

Garri javob tariqasida berilgan qichqiriqni eshitdi.

– Ichkariga kiring, – taklif qildi qiz, – missiz Koul hozir chiqadi.

Yosh Damblдор poliga oq-qora sopol bostirilgan vestibulga kirdi. Bu joy faqirona bo'lsa ham juda ozoda. Kexsa Damblдор bilan Garri ham ichkariga kirishdi. Chiqish eshigi yopilishiga ulgurmay ichkaridan juda ozg'in, yuzi tashvishli qiyofa kasb etgan ayol chiqdi. Yosh Damblдор tomon odimlab, fartuk taqqan boshqa ayolga ko'rsatmalar berayotgan ushbu ayol darg'azab emas-u, lekin juda qiynalغان kishiga o'xshab ko'rinqmoqda.

– ... yuqoriga, Martaga yod¹ chiqarib ber. Billi Stabbs yarasini yana sidirib olibdi, Erik Uolli esa choyshabni rasvo qilibdi. Dardi kamlik qilayotganday bechoraning badaniga suv-chechak ham toshibdi.

O'zi bilan o'zi gaplashayotgan kabi kelayotgan ayol yosh Damblordga yuzlanib, ostonada odam emas zirotani ko'rib qolganday, serryangacha taqqa to'xtab qoldi.

– Xayrli kun, – salomlashdi yosh Damblord, og'zi lang ochilib qolgan missis Koulga qo'l uzatib. – Ismim Albus Damblord. Sizga xat yo'llab, uchrashishni iltimos qilgan edim. Siz esa lutfan bugungi sanani taklif qilgan edingiz.

Ko'zini pirpiratib xayolini yig'ib olgan missis Koul, yosh Damblord gallyutsinatsiya emasligiga ishonch hosil qildi, shekilli, nimjon ovoz-la javob berdi:

– Ha... ha... shunday... unday bo'lsa, xonamga kirganimiz ma'qul. Ha... ha...

Mudira Damblordni yetaklab ham xizmat xonasi, ham mehmonxona vazifasini o'taydigan kichik xonaga olib kirdi.

– Yo'llagan xatimdan sizga ma'lumki, – gap boshladi Damblord, – Tom Reddning kelajagi masalasida suhbatlashgani keldim.

– Siz bolakayga qarindosh bo'lasizmi?

– Yo'q, men o'qituvchiman. Tomga men ishlaydigan maktabda tahsil olishni taklif etmoqchiman.

– Qanaqangi maktab ekan u?

– Nomi «Xogvars».

– Nima sababdan Tomning taqdiri qiziqtirib qoldi sizni?

– U aynan bizning maktabimizda tahsil ko'rishi uchun zaruriy sifatlarga ega.

– Ya'ni u stipendiya oladi, shundaymi? Biroq qanday qilib? Axir, u ariza yozmagan edi-yu?!

– Ushbu bola tug'ilishi bilan, maktabimizning bo'lajak

¹ **Yod** (yunoncha: iodes – binafshta rangli) – Mendeleev davriy sistemasining VII guruhiga mansub kimyoviy element, asosan dengiz o'simliklaridan olinadigan to'q kulrang kristall modda va uning tibbiyotda qo'llanadigan, spirtidagi jigarrang eritmasi.

o'quvchilari ro'yxatiga kiritib qo'yilgan.

– Kim kiritgan? Ota-onasimi?

Missis Koul juda o'rinsiz aqlli va sinchkov ayol bo'lib chiqdi. Yosh Damblдор ham aftidan, shunday xayolga borgan ko'rinadi, duxoba kostyumining kissasidan sehrli tayoqchasini asta chiqarib, boshqa qo'li bilan stol ustidagi toza qog'oz varaq-laridan birini oldi.

– Marhamat, -- dedi Damblдор, tayoqchasini qog'oz va-rag'iga asta tekkizib, mudiraga uzatar ekan. – O'ylashimcha, ushbu hujjat masalaga oydinlik kiritadi.

Missis Koulning ko'zi bir necha soniya g'alati ko'rinib, yana o'z holatiga qaytdi. Shundan so'ng birorta ham harf yozil-magan oppoq qog'ozni diqqat bilan o'qib chiqdi.

– Ha, hujjat benuqson rasmiylashtirilgan, – xulosa chi-qardi, javobdan qanoatlangan ayol qog'ozni qaytarar ekan.

Stol ustida ikki soniya oldin bo'lmagan araq shisha bilan ikkita qadahni ko'rgan ayol oqsuyaklarga xos ohangda taklif qildi:

– E-m-m-m... Sizga bir ho'plam araq uzatishga jur'at etaman.

– Minnatdorman, – yashnab ketdi yosh Damblдор.

Ko'p o'tmay, bunday ichimlikni iste'mol qilish masala-sida missis Koul yetarlicha tajribaga ega ekani ayon bo'ldi. Mehmon ikkalasiga to'ldirib quygach, qadahni bir ko'tarishda bo'shatib, labini ochiqchasiga yalab oldi-da, ilk bor yosh Damblдorga kulib boqdi. Mehmon ham qo'lga kirgan bunday omaddan samarali foydalanib qoldi.

– Fikrimcha, Tomning qismatidan yaxshi xabardorsiz va, bilishimcha, bola aynan shu dargohda tug'ilgan, shunday emasmi?

– Ha, – tasdiqladi o'z qadahini yana to'ldirgan mudira. – O'sha yili endigina ishga kirgan edim va shu bois bo'lib o'tgan hodisani hozirgiday eslayman. Yangi yil arafasidagi oqshom. Qor, sovuq, qisqasi, unday kunlarda hukm suradigan ob-havo-ning avzoini o'zingiz yaxshi tasavvur qilasiz. Yoshi mendan sal kattaroq juvon. Bechora, ostonamizga bazo'r yetib kelibdi. Bun-

day holatlar tez-tez bo'lib turadi, albatta... Ichkariga kiritdik. Bir soat o'tar-o'tmas ko'z yordi va yana bir soatdan so'ng omonatini topshirdi.

Missis Koul boshini ma'noli irg'ib qo'ydi-da, qadahidan tuzukkina simirib oldi.

– O'limidan oldin biron nima dedimi? – so'radi yosh Damblдор. – Bolaning otasi haqida gapirdimi?

– Tasavvur qiling, gapirdi! – xitob qildi missis Koul.

Ixtiyorida araq, huzurida barno mehmon o'tirgan ayol, ushbu xushvaqt damdan zavq olayotgani ko'rinib turibdi.

– «Quyib qo'yganday, otasiga o'xshabdi», dedi qiz, chaqalog'iga qarab. To'g'risini aytganda, uni sohibjamol deb bo'lmas edi. Shuning uchun bolasi otasiga o'xshashiga umid qilishi tabiiy, albatta. Chaqaloqqa otasining sharafiga Tom, bobosining sharafiga Mervolon, deb ism berishni tayinladi... Chiroyli ism, a? Qiz sirkda ishlagan bo'lsa kerak, degan xayolga bordik... Bolaning familiyasi Reddl ekanini aytishga ham ulgurdi. Shundan so'ng jim bo'lib qolib, ko'p o'tmay joni uzildi. Biz bolaga onasi vasiyat qilgan ism berdik. Sho'rpushana ayolga bu juda muhimday ko'rindi. Faqat na Tom, na Mervolon va na Reddl deganlari bolani qidirib keldi. Bola shu yerda qolib, shu yerda o'sdi.

Araqdan kattagina ho'plab olgan missis Koulning ikkala lunji pushti tus oldi.

– G'alati bola, – dedi u.

– Ha, – bosh irg'idi yosh Damblдор, – o'zim ham shunday deb o'ylagan edim.

– Go'dakligidan g'alati u. Deyarli yig'lamas edi, agar bilmoqchi bo'lsangiz. Sal kattaroq bo'lgach, haligiday bo'lib qoldi...

– Haligiday? Qaysi ma'noda? – asta qiziqdi yosh Damblдор.

– U...

Missis Koul jim bo'lib, qadah uzra Damblдорga diqqat bilan razm soldi. Nigohidan kayfi oshganga o'xshamaydi.

– Maktabingizda unga o'rin topilishi aniqmi?

– Mutlaqo, – ishontirdi Damblдор.
– U haqda aytib beradigan gapimdan qat'i nazar, hech narsa o'zgarmaydimi?
– O'zgarmaydi, – tasdiqladi Damblдор.
– Nima bo'lganda ham siz uni olib ketasiz?
– Har qanday holatda, – jiddiy va'da qildi yosh Damblдор.

Mudira ko'zini qisgancha, ishonib bo'lish-bo'lmasligini o'ylab ko'rib, ijobiy qaror qabul qilgan ko'rinadi, dadil gapira ketdi:

– U boshqa bolalarni qo'rqitib yuradi.
– Sho'xligini nazarda tutyapsizmi?
– Ma'lum ma'noda shunday desa ham bo'ladi, – qosh chimirdi missis Koul. – Lekin qo'lidan tutib olish juda qiyin. Turli-tuman noxush hodisalar bo'lib turadi.

Yosh Damblдор tafsilotlar bilan qiziqmadi, ammo, Garrining nazarida, tezroq bilishni istaganday bo'ldi. Araqdan yana bir ho'plagan missis Koulning yuzi endi qizarib ketdi.

– Misol uchun, Billi Stabbsning quyonchasini olaylik... Tom ont ichdi, albatta, o'sha ishni qilmaganiga ishontirib. To'g'risini aytсам, o'zim ham tasavvur qila olmayman, qanday uddasidan chiqishi mumkinligiga, lekin quyon o'zini o'zi to'singa osib, o'z joniga qasd qilishi mumkin emas-u, shunday emasmi?

– Albatta, – dedi yosh Damblдор, past ovozda.
– O'sha to'singa chiqish yo'lini bilsam chaqmoq urib o'lay agar. Shuni bilamanki, bir kun oldin Billi ikkalasi janjallashib qolgan edi. Yozgi saylda-chi...

Missis Koul ho'playotgan arag'ini iyagiga to'kib yubordi.

– ... yilda bir marta bolalarni qishloqqa yoki dengiz sohiliga sayrga olib chiqamiz... Qisqasi, Emmi Benson ham Dennis Bishop ham haligacha tuzuk-quruq o'ziga kela olgani yo'q! Bir narsani aniqlay oldik, xolos, u ham bo'lsa, ikkalasi Tom Reddl bilan allaqanday g'orga kirgan. Tomning ishontirib aytishicha, uchalasi ichkarida nima borligiga qiziqishgan, lekin aniq bila-

manki, ichkarida nimadir ro'y bergan. Yana ko'pdan ko'p birbiridan g'alati hodisalar bo'lib o'tgan....

Mudira yosh Dambldorga yana bir bor diqqat bilan razm soldi. Yuzi qizarib ketgan bo'lsa ham nigohi hali ravshan.

– Agar birov uni olib ketsa, hech kim achinmasa kerak.

– Uni doimo o'zimizda olib qola olmasligimizni tushunasiz degan umiddaman? – so'radi yosh Dambldor. – U yozgi ta'tilni o'tkazgani har yili bu yerga qaytib turadi.

– Kishi yuziga zang qoplagan eski otashkurak yeganidan ko'ra, shunisi ma'qul, – dedi hiqillab qo'ygan missis Koul. – Bilishimcha, siz uni ko'rmoqchisiz, shundaymi?

– Shunday, – tasdiqladi oyoqqa turgan yosh Dambldor.

Shishaning uchdan birini o'zi bo'shatganiga qaramay, ayol oyog'iga dadil tura olganini ko'rgan Garri qoyil qoldi.

Ikkovlon xonani tark etib, tosh zina bo'ylab yuqoriga ko'tarildi. Missis Koul yurgan yo'lida o'z yordamchilariga nimalarnidir buyurib, tarbiyalanuvchilarga tanbeh berib bordi. Yetimlarning bari yengsiz uzun kulrang ko'ylak kiygan bo'lib, yaxshi parvarish qilinayotgani ko'rinib turibdi. Shunday bo'lsa-da, bu yerda o'sib ulg'ayadigan hayot quvonchli kechmasligini Garri aniq idrok etdi.

Ular ikkinchi qavatga chiqib, uzun yo'lak tomon burildi.

– Keldik, – e'lon qildi missis Koul.

Mudira birinchi eshik oldida to'xtab, ikki marta taqillatdi-da, ichkariga kirdi.

– Tom? Seni ko'rgani mehmon keldi, mister Dampeldon... ma'zur tuting, Dambldur. U senga... qisqasi, hozir o'zi aytib beradi.

Garri bilan ikkala Dambldor ichkariga kirishdi. Missis Koul esa yo'lakka chiqib, eshikni yopib ketdi.

Xona kichkina va deyarli bo'sh bo'lib, eski kiyim javoni va kulrang adyol tashlangan karavot bilan jihozlangan. Bola karavotda oyog'ini uzatib olgancha, kitob o'qib o'tiribdi.

Tom Reddl o'z qarindoshlari Monsterlarga mutlaqo o'xshamaydi. Meropaning so'nggi tilagi vojib bo'libdi: bo'yi o'n bir yoshi uchun haddan ortiq baland, qora sochli rangpar bola barno

otasining kichraytirilgan nusxasiga o'xshabdi. U ko'zini qisib, g'alati mehmonga diqqat bilan razm soldi. Ikkalasi ma'lum vaqt sukut saqlab turdi.

– Salom, Tom, – dedi yaqinroq borgan yosh Damblдор qo'l uzatib.

Bolakay biroz o'ylanib turgach, mehmonning qo'lini siqdi. Damblдор og'ir yog'och kursini karavot yaqiniga surib o'tirgach, biri kasalxonadagi bemor, ikkinchisi esa bemorni ko'rgani kelgan kishiga o'xshab qoldi.

– Men, professor Damblдorman.

– Professor? – gezardi Reddl. – Doktor deganimi bu? Nega keldingiz? Anavi chaqirdimi sizni? – so'radi u, hozirgina missis Koul yopib ketgan eshik tomon imo qilib.

– Yo'q, yo'q, kulib boqdi yosh Damblдор.

– Ishonmayman, – dedi Reddl. – Meni shifokorga ko'rsatishga ahd qilibdi-da, a? To'g'risini ayting!

So'nggi so'zni u, chindan ham, lol qoldiradigan kuch-la talaffuz etdiki, amr etishga huquqi bor kishining buyrug'iday eshitildi. Bola ko'zini katta ochib, javob bermay, kulib o'tirgan Damblдorga teshib yuborguday qarab turdi. Bir necha soniya o'tgach esa ko'zini olib qochib, yana sergak tortdi.

– Kimsiz?!

– Hozirgina aytdim senga professor Damblдorman, deb. «Xogvars» deya ataladigan ta'lim muassasasida o'qituvchi bo'lib ishlayman. Agar rozi bo'lsang sen ham tahsil ko'rishing mumkin maktabimizda. Shuni taklif qilgani keldim.

Bunday taklifga Tom Reddlning munosabati juda g'alati kechdi. Karavotidan darg'azab irg'ib turib, Damblдорdan nari chekindi.

– Alday olmaysiz meni! Jinnixonaga olib ketmoqchisiz! Professor emish! Qisqasi, men hech qayerga bormayman. Iushu-narlimi? Yaxshisi, anavi qari mushukning o'zini olib keting u yoqqa.! Men Emmi Benson bilan Dennis Bishopga hech nima qilganim yo'q. O'zingiz so'rab bilishingiz mumkin, ikkalasi bor gapni aytib beradi.

– Men jinnixonadan kelganim yo'q, – sabr-la tusi-antirdi

yosh Damblodor. – Men o'qituvchiman. Biror daqiqa tek o'tira olsang, «Xogvars» haqida gapirib beraman. U yerda tahsil ko'rishni istamas ekansan, seni hech kim majbur qilmaydi...

– Urinib ham ko'rishsin-chi, majbur qilishga, -- murdor irjaydi Reddl.

-- «Xogvars», – davom etdi Damblodor, bolaning so'nggi gapiga e'tibor qilmay, – g'ayrioddiy bolalar tahsil ko'radigan maskan...

– Men jinni emasman!

– Jinni emasligingni yaxshi bilaman. «Xogvars» jinnilar maktabi emas. U sehrgarlik va afsungarlik san'ati maktabi.

O'rta sukunat cho'kdi. Yuzi biron-bir qiyofa kasb etmagan Reddl turgan joyida qotib qoldi. Lekin nigohi Damblodorning bir ko'zidan ikkinchisiga yolg'on qidirayotganday yugurib o'tmoqda.

– Sehrgarlik maktabi? – pichirlab so'radi u.

– Xuddi shunday, – tasdiqladi yosh Damblodor.

– Men bajara oladigan ishlar... sehrgarlikmi?

– Xo'sh, nima keladi qo'lingdan?

– O'zim istagan ishni bajara olaman, – hayajon-la nafas chiqardi Reddl.

Uning bo'yida ko'ringan qizg'ish rang botiq yuzigacha borib yetdi. Bola vasvosga tushib qolganday gap boshladi.

– Buyumni qo'l tekkizmay, joyidan qo'zg'ata olaman. Qo'lga o'rgatilmagan hayvonni o'zimga bo'ysundirib, kerakli ishni bajarishga majbur qilaman. Jahlimni chiqarganlarning adabini beraman. Istasam, ularning jonini og'ritishim mumkin.

Reddlning oyog'i titray boshladi. Gandiraklab orqaga tisarildi-da, yana karavotiga o'tirib, ibodat qilayotganday boshini xam qilgancha, qo'liga termilib qoldi.

– Boshqacha ekanimni bilar edim, – pichirladi bola, titrayotgan barmoqlariga qarab. – Boshqacha. Nima bilandir boshqalardan farq qilayotganimni bilar edim.

– Va sen haq bo'lgansan, – dedi Damblodor. – Chunki sen sehrgarsan.

Yosh Damblodor endi kulayotgani yo'q, lekin Reddlni

diqqat-la kuzatib o'tiribdi.

Bola boshini ko'tardi. Yuzini misli yo'q baxtiyorlik yoritgan, lekin ushbu tuyg'u bola yuziga dilkashlik emas, aksincha, allaqanday hayvoniy hirs qiyofasini kasb etgan.

– Siz ham sehgarmisiz?

– Ha.

– Isbotlang! – amr etdi Reddl, «To'g'risini ayting!» ohangida.

Dambldorning qoshi ko'tarilib ketdi.

– Agar to'g'ri tushungan bo'lsam, «Xogvars»da tahsil ko'rish taklifini qabul qilding, shundaymi?

– Albatta!

– Unday bo'lsa, menga «professor» yoki «ser», deya murojaat qilishing kerak bo'ladi.

Reddlning yuzi bir necha soniya yanada qat'iy qiyofa kasb edi-yu, so'ng tanib bo'lmas muloyim ohangda murojaat qildi:

– Ma'zur tuting, ser. Sizdan iltimos, ser... Marhamat qilib...

«Xogvars»da sehrgarlik mahoratini namoyish etish uchun bir olam vaqt bo'lishi, mag'llar hududida esa ehtiyot bo'lish afzal ekani sabab qilingan holda, ushbu iltimos rad etilishiga Garrining ishonchi komil edi. Lekin yosh Dambldor pidjagining ichki kissasidan sehrli tayoqchasini chiqarib, burchakda turgan javonga o'qtagancha, Garrini lol qoldirib, asta siltab qo'ydi.

Javon o't oldi.

Dahshat va g'azabdan ingrab yuborgan Reddl o'rnidan iring'ib turdi. Buyumlari ushbu javonda saqlanar ekan, buning ajablanarli joyi yo'q, albatta. Bola Dambldor tomon darg'azab o'girilishi bilan olov o'chdi. Javon esa o'z holidan qoldi.

Reddl dastlab javon, so'ng Dambldorga qarab qo'ygach, sehrli tayoqchaga ochko'zlik-la imo qilib so'radi:

– Qayerdan topsa bo'ladi?

– Vaqti kelib, hammasini bilib olasan, – javob berdi Dambldor, – Nazarimda, javoningdan nimadir otilib chiqmoqchi.

Chindan ham, javon ichida nimadir taqillayapti. Reddl

ilk bor cho'chib ketdi.

– Tavaqasini och, – buyurdi Damblodor.

Biroz serrayib turgan Reddl javon oldiga borib, eshigini lang ochdi. Eskirgan kiyim osilgan metall o'zak ustidagi tokchada asta titrab, ichidan xuddi bir gala sichqon otilib chiqishga urinayotgan kabi tiqir-tiqir tovush chiqarayotgan karton quti ko'rindi.

– Bu yoqqa ol, uni, – yana buyurdi Damblodor.

Reddl chirillayotgan qutini qo'rqa-pisa qo'liga oldi.

– Ichida senga tegishli bo'lmagan buyumlar bormi? – so'radi Damblodor.

Reddl nimanidir hisob-kitobini chiqarayotganday Damblodorga ravshan nigoh-la, uzoq qarab turdi.

– Ha, ser, – nihoyat javob berdi u, biron-bir ifodasiz ohangda.

– Och, – buyurdi Damblodor.

Reddl professorga qaramay, quti qopqog'ini ochib, ichidagilarni karavot ustiga ag'dardi. Garri qutidan qandaydir g'ayrioddiy narsalar chiqishini kutdi, lekin ip vositasida boshqariladigan shayton, kumush angishvona, lab garmoni kabi oddiy narsalarni ko'rib taajjublandi. Ozodlikka chiqqan buyumlar shu zahoti titrashni bas qilib, adyol ustiga jonsiz tushdi.

– Bularning barini qonuniy egalariga topshirib, ulardan kechirim so'raysan, – vazmin ohangda topshiriq berdi Damblodor, sehrli tayoqchasini kissaga joylab. Amrim bajarilgan-bajarilmaganini men, hech shubhasiz, bilib olaman. Ogohlantirib qo'yishim joizki, «Xogvars»da o'g'irlik qattiq qoralanadi.

Reddl zig'irday bo'lsin, uyat hissini sezdimadi. O'zining sovuq nigohi ila haligacha Damblodorga baho berayotganday qarab, ifodasiz ohangda javob berdi:

Xo'p bo'ladi, ser.

«Xogvars»da o'quvchilarga nafaqat sehr-jodu bilan shug'ullanish, balki, o'z qobiliyatini boshqarish ham o'rgatiladi, – davom etdi Damblodor. – Iшонchim komilki, sen o'z qobiliyatingdan g'ayriqonuniy ishga qasddan foydalanmagansan. Maktabimizda bunday holatlarga yo'q qo'yilmaydi. Iblis amriga

bo'ysunganlar orasida sen birinchi ham emassan, oxirgisi ham bo'lmaysan, albatta. Biroq shuni yodda tutishing kerakki, ayb ishing uchun «Xogvars» o'quvchilari ro'yxatidan chetlash-tirilishing, Sehrgarlik vazirligi esa ha, ha, bor shunday vazirlik, qonunbuzar shaxslarni yanada qat'iy javobgarlikka tortishi mumkin. Har bir yosh sehrgar shuni teran idrok etib olishi lozimki, elatimiz dunyosiga kirib kelar ekan, jamiyatimiz qonunlariga amal qilishi shart bo'ladi.

– Xo'p bo'ladi, ser, – takrorladi Reddl.

Ichidagini uqish juda qiyin. Yuzini toshday qotirib olgan Reddl buyumlarni qutiga joylagach, Damblдор tomon o'girilib, surbetlarcha ma'lum qildi:

– Mening bir tiyin pulim yo'q.

– Bunday holatga tuzatish kiritsa bo'ladi, – javob berdi Damblдор, kissasidan yo'g'on hamyon chiqarib. – «Xogvars» tasarrufida maktab kiyimi va darslik xarid qilish masalasida moddiy yordamga muhtojlar uchun maxsus jamg'arma mavjud. Afsunlar kitobi va shunga o'xshash narsalarni muqaddam tutilgan mollar do'konidan xarid qilgan ma'quldir, balkim, lekin...

– Afsunlar kitobi qayerda sotiladi? – gapni bo'ldi, og'ir hamyonni minnatdorlik bildirmay olib, qalin oltin gallconni o'rganib chiqishga kirishgan Reddl.

– Diagon xiyobonida, – dedi Damblдор. – Zaruriy narsalar ro'yxatini o'zim bilan olib kelganman. Ularni xarid qilish masalasida shaxsan yordam berishim mumkin...

Men bilan borasizmi? – boshini ko'tardi Reddl.

– Albatta, agar sen...

– Yo'q, menga kerak emassiz. O'z ishimni o'zim bajarishga, Londonda o'zim yurishga odatlanganman. O'sha xiyoboningizga qanday boriladi? – so'radi Reddl. – Ser, – qo'shimcha qildi u Damblдорning nigohiga ro'baru kelib.

Hamroh bo'lish shartligini aytsa kerak, degan xayolga borgan Garri, yosh Damblдорning tutgan ishidan yana taajjublandi. U ro'yxat solingan xatjildni Reddlga uzatar ekan, yetimxonadan «Teshik qozon»ga qanday borish kerakligini batafsil tushuntirib berdi.

– Garchi, atrofdagi magllar, ya’ni tabiatan sehrgar bo’lmagan odamlar ko’rmasa-da, sen ko’rasan o’sha joyni. Yetib borgach, sotuvchini so’raysan. Uning ismini eslab qolish oson, sening adashing, Tom bo’ladi.

Reddl xuddi pashsha quvganday, yelka siltab qo’ydi.

Tushunishimcha, senga Tom ismi yoqmaydi, shundaymi?

– Bemaza qovunning urug’i ko’p, – g’udulladi bola va so’rashni istamasa ham o’zini tiya olmadi, shekilli, savol berdi: – otam ham sehrgar bo’lganmi? Aytishlaricha, uning ismi ham Tom Reddl bo’lgan.

– Bundan xabarim yo’q, – past ovozda javob berdi Damblдор.

– Onam esa afsungar bo’lmagani aniq. Aks holda o’lmagan bo’lar edi, – dedi Reddl, o’ziga o’zi. – Demak, sehrgar otam bo’lgan... Kerakli narsalarni xarid qilgach, «Xogvars»ga qanday boraman?

– Xatjild ichidagi ikkinchi pergament varag’ida hamma-si batafsil bayon etilgan. U yerga birinchi sentabr kuni Kingskross temir yo’l vokzalidan yo’lga chiqasan. Chipta ham xatjild ichida.

Reddl bosh irg’idi. Yosh Damblдор o’rnidan turib, yana qo’l uzatdi. Professorning qo’lini siqar ekan, Reddl qo’shimcha qildi:

– Men ilonlar bilan gaplasha olaman! Qishloqqa sayrga chiqqanimizda bilib qoldim buni. Ilonlarning o’zlari meni topib, pichirlab gaplashadi. Sehrgarlar uchun bu odatiy holmi?

– Yo’q, odatiy emas, – javob berdi Damblдор va biroz o’ylanib turgach, qo’shimcha qildi: – g’ayriodatiy hol ham emas.

Ohangi vazmin bo’lsa ham Damblдор Reddlning yuziga diqqat-la razin soldi. Ikkalasi bir-birining ko’ziga tik qarab, ma’lum vaqt sukut saqlab turishdi. Shundan so’ng yosh Damblдор qo’lini tortib, chiqish eshigi tomon odimladi.

– «Xogvars»da uchrashguncha xayr, Tom.

– Fikrimcha, bugunga yetarli, – dedi Garrining yonida turgan oppoq soqolli kekxa Damblдор.

Ikkovlon vaznsiz zulmat ichra uchib, direktorning xonasiga qo'ndi.

– O'tir, – dedi Dambldor, Garrining yonida paydo bo'lib. Taassurotidan chalg'iy olmagan Garri itoat qilib o'tirdi.

– Menga nisbatan tezroq ishondi... sehrgar ekanini aytganingizda, – dedi Garri. – Men Xagridning gapiga ishonmagan edim.

– Ha, Reddl, o'zining ta'biri ila aytganda, boshqacha ekanidan voqif bo'lishga tayyor bo'lgan, – javob berdi Dambldor.

– Siz o'shanda... bilmaganmidingiz? – so'radi Garri.

– Barcha davrlarning eng yovuz sehrgarini uchratganimni? – savolni aniqroq ifodaladi Dambldor. – Yo'q. Kim bo'lib ulg'ayishini tasavvur ham qilmaganman. Lekin u diqqatimni o'ziga torta bildi. Uni «Xogvars»ga kuzatib borish kerakligini bilib qaytgan edim. Har qanday holatda ham uni kuzatib borgan bo'lar edim. Ta'kidlab o'tish joizki, ushbu kuzatish nafaqat uning manfaati, balki, atrofidagi odamlarning xavfsizligi uchun zarur ekanini tushunib yetdim. Yoshiga to'g'ri kelmaydigan hayratli qobiliyatga ega ekanini idrok etib, eng qizig'i, ushbu qobiliyatni idora eta bilib, ongli ravishda qo'llab yurganiga o'zing shohid bo'lding. Oddiy bola kabi beixtiyor emas, maqsadli ravishda, boshqalarga qarshi, ularni qo'rqitish, jazo-lash, bo'ysundirish uchun qo'llagan. Osib o'ldirilgan quyon, g'orga aldab kiritilgan bolalar bilan bog'liq hodisalarni bunga misol tariqasida keltirish mumkin. «Istasam, ularning jonini og'ritishim mumkin», degan gapini esla.

– Buning ustiga u ilonzabon bo'lgan, – qo'shimcha qildi Garri.

– Ha, chindan ham. Bu – nihoyatda noyob, yovuz sehr-garlarga xos bo'lgan qobiliyat, o'zingga ma'lumki, yaxshi odamlar orasida ham ilonzabonlar topiladi. Umuman olganda, Reddlning ilonzabonligi emas, tabiatan fe'li torligi, shafqat-sizlikka moyilligi va hukmdorlikka tashnaligi ko'proq tashvishga solgan edi meni.

Dambldor derazaga qarab, qorong'i tunga imo qildi.

– Vaqt biz bilan yana hazillashdi. Xayrlashishdan oldin, ikkalamiz shohid bo‘lgan hodisaning ayrim tafsilotlariga e‘tiboringni qaratib o‘tmoqchiman. Chunki ular kelasi mashg‘ulotimiz mavzusiga bevosita daxldordir. Birinchidan, Reddl, boshqa birovning ismi ham Tom bo‘lishiga bildirgan munosabatiga e‘tibor qilding, degan umiddaman.

Garri bosh irg‘idi.

– Uni boshqa odamlar bilan bog‘lab, el qatori oddiy kishi sifatida ko‘rsatadigan har qanday holatga salbiy qaragan. O‘sha davrdan buyon u, chindan ham, boshqacha, boshqalardan keskin farq qiladigan mashhur kishi bo‘lishni orzu qilgan. O‘sha suhbatdan so‘ng atigi bir necha yil o‘tgach, o‘z ismidan voz kechib, Lord Voldemort niqobini taqib olgani o‘zingga ma‘lum. O‘ylaymanki, Tom Reddl bolalik yillaridan ma‘nan o‘ziga to‘q, damduz bo‘lib, birorta do‘sti bo‘lmaganiga e‘tibor qilding. U yordam qo‘lini rad etib, Diagon xiyoboniga birga boradigan hamrohga ehtiyoj sezmagani, yakka o‘zi ish tutishni afzal bilgan. Yoshi ulg‘aygan Voldemort tabiatan o‘zgarmas qolgan. Aksariyat O‘limdan zavqlanuvchilar o‘zlarini uning ishonch qozongan vakili, faqat o‘zigina unga yaqin, uni yaxshi tushunadigan kishi deb bilishadi. Aslida esa bu yanglish fikr. Lord Voldemortning do‘sti yo‘q va hech qachon bo‘lmagan. Chunki unga do‘st kerak bo‘lmagan. Va nihoyat, yosh Tom Reddl o‘ljaga o‘ch bo‘lganini payqamagan darajada uyqing kelmaganiga umid qilaman. Quti o‘g‘irlangan buyumlarga to‘la ekanini o‘zing ko‘rding. O‘sha buyumlar jasoratdan xotira sifatida jabrlanganlardan musodara qilingan. Boshqacha qilib aytganda, o‘sha buyumlar yovuz faoliyat o‘ljalari sanaladi. Voldemortning tabiati shunday xususiyatlardan iborat ekanini yodingdan chiqarma, Garri. Kelgusida bu biz uchun juda jiddiy ahamiyatga ega bo‘ladi... Xo‘sh... Endi, chindan ham, ko‘rpangga kirib yotadigan vaqt bo‘ldi.

Garri o‘rnidan turib, chiqish eshigi tomon yo‘l oldi. To‘satdan, uning nigohi o‘tgan safar Mervolon Monsterning uzugi yotgan kichik stolga tushdi. Uzuk yo‘q.

– Ha, Garri? – so‘radi Damldor, bolaning to‘xtab qolganini ko‘rib.

– Uzun yo‘q, – dedi Garri, atrofga alanglab. – Xayolimga bu yerda anavi lab garmoni¹ yoki shu kabi boshqa biron narsa bo‘lishi kerak, degan fikr kelgan edi.

Yashnab ketgan Damblodor yarim oy shaklidagi ko‘zoy-nagi uzra Garriga diqqat-la razm soldi.

– Barakalla, Garri, – maqtadi u. – Biroq lab garmoni hamisha shunchaki lab garmoni bo‘lgancha qolgan.

Ushbu sirli so‘zlar ila Damblodor qo‘l siltab qo‘ydi. Qabul nihoyasiga yetganini anglagan Garri xonani tark etdi.

XIV BOB

SUYUQ OMAD

Ertasi kuni birinchi mashg‘ulot gerbologiya bo‘ldi. Boshqalar eshitib qolishidan xavfsiragan Garri Damblodor bilan o‘tgan mashg‘ulot haqida Ron bilan Germionaga nonushta vaqtida gapirishni istamadi. Issiq xonalar tomon ekinzor orqali bori-shar ekan, kecha ko‘rganlarini do‘stlariga qisqacha aytib berdi. Dam olish kunlari to‘xtamay, badanni teshib o‘tar darajada esgan shamol nihoyat tinib, atrofni g‘alati tuman qopladi va shu bois issiq xonagacha bosib o‘tilgan yo‘l odatdagidan biroz cho‘zildi.

Oltinchi sinf o‘quvchilari ushbu semestrda badjahl to‘nkalar bilan muomala qilish amaliyotini o‘zlashtirishlari lozim. Garri, Ron va Germiona serbutoq to‘nkalaridan birini tanladi.

– Tasavvur etishning o‘zi jirkanchli: «O‘zingiz-Bilasiz-Kim»ning yoshligi, – pichirlagancha xulosa qildi Ron. – Hech anglab yetmayapman, nima uchun Damblodor bularning barini senga ko‘rsatyapti? To‘g‘ri, o‘larcha qiziq, albatta, va hokazo, lekin sababi nima?

– Kim biladi deysan, – javob berdi Garri, tish saqlash niqobini taqib. – Aytishicha, bularning bari muhim bo‘lib, kelgu-

¹ **Garmon** (*yunoncha*: harmonikos – hamohang; teng o‘lchovli, mutanosib) ikki yoni buklama, klaviaturali musiqa asbobi.

sida omon qolishimga yordam berar ekan.

– Menimcha, zoʻr ish boʻlyapti, – dedi Germiona jiddiy ohangda. – Sen, chindan ham, Voldemort toʻgʻrisida koʻp narsalarni aniqlab, zaif tomonlarini bilib olishing kerak.

– Aytganday, Divangard bilan kechki ovqat qalay oʻtdi? – qiziqdi Garri, himoya qalqoni orqali bazoʻr gapirib.

– Toʻgʻrisini aytganda, yomon boʻlmadi, – javob berdi koʻzoynak taqayotgan Germiona. – Oʻzining dongdor oʻquvchilari haqida ezmalanib, gʻayrioddiy tanishlarga ega Maklaggen oldida yaltoqlandi, albatta. Lekin dasturxonga mazali ovqat tortib, Gvenog Jons bilan tanishtirdi.

– Gvenog Jons bilan? – baqrayib qoldi koʻzoynak taqqan Ron. – «Graalxedlik garpiyalar» kvidish jamoasining sardori bilanmi?

– Xuddi oʻsha bilan, – bosh iringʻidi Germiona. – Fikrimcha, u oʻziga haddan ortiq bino qoʻyib yuborgan, lekin...

– Vaysashni bas qiling! – baland ovozda tanbeh berib oʻtdi oʻquvchilar orasida tez odimlab yurgan professor Sarsabil xonim. – Uchalangiz ortda qolyapsiz. Hamma ishga kirishga ulgurib, Nevill allaqachon birinchi qoʻzoqni chiqarishga muvaffaq ham boʻldi.

Uchovlon Nevill tomon oʻgirildi. Labi qonab, lunji timdalanib ketgan Nevill, chindan ham, qoʻliga kattaligi greypfrutday¹ kladigan, xunuk tepayotgan yashil meva ushlab olgan.

– Ishga kirishyapmiz, professor, – dedi Ron va Sarsabil xonim teskari qarashi bilan Garriga pichirladi: – Maffliato afsunini qoʻllash kerak edi.

– Yoʻq, kerak emas! – eʼtiroz bildirdi Germiona. – Boʻldi... boshladik.

Zoti past Shahzoda va uning afsunlariga doir gaplarga Germiona hamisha nihoyata salbiy munosabat bildiradi.

¹ Greypfrut - subtropik doimiy yashil daraxt va uning mevasi, diametri 10-15 santimetrga yetadi. Bu daraxt haqida birinchi boʻlib 1750-yilda uclshik ruhoniyl Grifflits Xyudjes xabar bergan. Shuning uchun uning nomiga qoʻyilgan.

U bolalarga mahkum qilinganday qaradi. Uchovlon og'ir xo'rsingancha, butoqli to'nkaga baravar hamla qildi.

To'nka shu zahoti jonlanib, sirtidan o'tilib chiqqan tikanli, maymunjon shoxiga o'xshash uzun novdalar shiddat-la havo qamchilay ketdi. Ulardan biri Germionaning sochiga ilash-di, ammo Ron uni gulqaychi vositasida qahramonlarcha quvib soldi. Garri chapdastlik bilan novdalarning bir juftini tutib olib, bir-biriga bog'lab qo'ydi. Paypaslagichlar kabi to'lg'anayotgan novdalar orasida tuynuk hosil bo'ldi. Germiona o'sha teshikka qo'lini tirsagigacha shartta suqqan ediki, tuynukning og'zi yopilib, qo'li tuzoqqa tushdi. Novdalarni sindirgancha, to'nka-niing «jag'i»ni yirgan Garri bilan Ron qizning qo'lini xalos qilishdi. Germiona panjasiga Nevill tutgan qo'zoqdan kichik bo'lmagan mevani mahkam siqib olgan. Tikanli novdalar bir zumda ichkariga kirib ketib, shu zahoti jonsiz, zohiriy ko'ri-nishidan birovga ozor bermaydigan daraxt to'nkasiga aylanib qoldi.

– Agar vaqti kelib, o'zimning bog'im bo'lsa, bunday jirkanch daraxt ekmayman, – dedi terga botgan Ron, ko'zoy-nagini peshanasiga shartta ko'tarib.

– Zarang¹ kosani uzating, – dedi Germiona.

Panjasini o'zidan imkon qadar nari tutishga uringan qiz, Garri uzatgan kosaga tepib turgan mevani tashladi.

– Burningizni jiyirmay, siqing uni, siqing! Yangiligida yaxshi ular! – baqirdi professor Sarsabil xonim.

Qisqasi, – dedi pinagi buzilmagan Germiona, to'nkaga qarshi qonli kurash bo'lib o'tmaganday, uzilgan suhbatni davom etib. – Divangard Rojdestvo kechasini uyushtirmoqchi va sen. Garri, bu safar endi qochib qutula olmayсан. Chunki u mendan ishtirok etishing uchun qaysi kuni bo'sh bo'lishingni aniqlab berishni iltimos qildi.

Garri ingrab qo'ydi. Qo'zoqni² ikkala qo'li bilan siqib,

¹ Zarang (*forscha*) – 1) kungurador, yapaloq bargli, yog'ochi qattiq daraxt; 2) zarang daraxt yog'ochidan yasalgan idish (*asarda shu ma'noda kelgan*), hasa, o'q-yoy, egar; 3) zichlanib ketgan, qattiq, berch.

² Qo'zoq – dukkakli o'simliklarning doni turadigan po'sti.

ikki bo'lib yuborishga uringan Ron, qaddini rostladi-da, kuchi boricha bosib, domangir ohangda g'o'ng'illab qo'ydi:

– O'sha kecha ham faqat saralanganlar uchun uyushtiriladimi?

– Ha, divan-klub a'zolari uchun, – tasdiqladi Germiona.

Qo'zoq Ronning barmoqlari orasidan otilib chiqib, issiq xona oynasiga borib urildi, undan sapchib, professor Sarsabil xonimning boshidagi eskirib ketgan seryamoq shlyapani urib tushirdi.

Qo'zoqni olib qaytgan Garri Germionaning gapini eshitib qoldi:

– ... eshitdingmi gapimni? Divan-klub nomini men berganim yo'q...

– Divan-klub emish, – basharasini Drako Malfoy kabi burishtirdi Ron. – Sharmandalik, andishasizlikdan o'zga narsa emas. Mayli, vaqtni quvnoq o'tkazishingizni tilayman. Maklaggenni ilintirib olsang, balkim, ikkalangizni Divangard klub qiroli va qirolichasi etib tayinlar...

– Bizga o'zimiz bilan mehmon olib kelishga ijozat berilgan edi, dedi Germiona, negadir kuchli qizarib. – Seni taklif qilmoqchi edim. Modomiki, sening fikringcha, bularning bari g'irt ahmoqlik ekan, fikrimdan qaytganim bo'lsin!

Bunday noqulay holatlarda Ron bilan Germionaning yonida bo'lishni istamaydigan Garri, qo'zoq uzoqroq uchib ketmaganiga achindi. Ikkalasi Garriga e'tibor qilgani ham yo'q. U kosani qo'lga olib, imkon qadar balandroq shovqin solishga uringancha, qo'zoq bilan kurasha ketdi. Lekin, baribir, do'stlarining har bir so'zi qulog'iga eshitilmoqda.

– Meni taklif qilmoqchi eding? – so'radi Ron, endi boshqacha ohangda.

– Ha, – darg'azab javob berdi Germiona. – Modomiki, sen Maklaggenni ilintirib olishimni istar ekansan...

Oraga sukunat cho'kdi. Garri kurakcha bilan tanasi pishiq qo'zoqni bor kuchi ila urmoqda.

– Hech ham istamayman, – yanada past ovozda g'udulladi Ron.

Garri xato urib, kosani sindirib qo'ydi.

– Reparo, dedi u, sehrli tayoqchasini kosa parchalariga tartibsiz o'qtab.

Kosa o'z holatiga qaytdi. Nihoyat Ron bilan Germiona xayolini yig'ib olishdi. Taraddudga tushib qolgan Germiona «Jahonning etxo'r o'simliklari» kitobini varaqlab, badjahl to'nka qo'zog'ining shirasini siqib olish tartibini qidira ketdi. Ron jim bo'lgani bilan, kibr-la shishib olgan.

– Qani, menga uzat-chi uni, – ish ko'zini biladigan kishiday amr etdi Germiona. – Uchli narsa bilan tanasini teshish kerak ekan.

Kosani uzatib, Germionani qo'zoq bilan band qilgan Garri, ko'zoynakni taqib, Ron ikkalasi yana to'nkaga hamla qilishdi.

Bo'g'ishga urinayotgan novdaga qarshilik ko'rsatar ekan, Garri u qadar taajjublanmagani haqida o'ylanib qoldi. Ertami-kechmi ushbu kun kelishini bilar, ammo ushbu holatga qanday munosabatda bo'lishi kerakligini bilmas edi... Chunki ikkalasi nafaqat suhbatlashish, balki, bir-biriga qiyo boqishga ham uyalishmoqda! Agar Ron bilan Germiona uchrasha boshlashsa-yu, keyinchalik... ajralib ketishsa nima bo'ladi? Bunday holat ularning do'stligiga putur yetkazishi mumkinmi? Uchinchi sinfda do'stlari arazlashib qolib, bir-biri bilan gaplashmay qo'y-gani, ular orasida bog'lovchi ko'prik vazifasini o'tab, o'zini juda noqulay his etganini Garri yaxshi eslaydi... Xo'p, agar ajrashib ketishmasa-chi? Bill va Flyorga o'xshab qolishsa-chi? Unda nima bo'ladi? Uchinchi odam ortiqcha bo'lib, o'zini yana noqulay his etib yuraveradimi?

– Qo'lga tushding-ku, ablah! – qichqirdi Ron, ikkinchi qo'zoqni to'nka qa'ridan chiqarib.

Germiona ushbu fursatda birinchi qo'zoqni yorishga muvaffaq bo'lib, kosada chuvalchangni eslatadigan och yashil urug' qaynadi.

Mashg'ulot nihoyasiga yetguncha, Divangardning tadbiri haqida qayta og'iz ochilmadi.

Keyingi bir necha kun davomida Garri ikkala do'stini

diqqat-la kuzatib bordi. Ularning xulq-atvori odatdagiday kechmoqda, agar munosabatlari biroz boadab bo'lib qolgani hisobga olinmasa, albatta. Garri Divangardning nimqorong'ilikda, huzur-lazzat ichimligining ta'siri ostida o'tadigan oqshomini kutib, nima bo'lishini ko'rishga ahd qildi. Hozircha esa nisbatan muhimroq muammolar yechimi ustida ishlashi kerak.

Ketti Bell haligacha davolanayotgan bo'lib, kasalxonadan qachon chiqishi noma'lum. Griffindorchilarning sentabr oyidan buyon mashq qilib kelayotgan umidli jamoasida endi bir nafar «Ovchi» yetishmayapti. Garri bugungi kungacha Kettining qaytib kelishini kutib, «Ovchi» qidirish masalasini kechga qoldirib kelgan edi. Lekin kvidish o'yinlari mavsumi ochilib, slizerinchilar jamoasiga qarshi o'tadigan birinchi o'yinda Ketti ishtirok eta olmasligi ayon.

Yangitdan o'tkaziladigan saralash sinovlari haqida o'ylasa, Garrining yuragi orqaga tortib ketadi. Binobarin, bir narsani boshqa narsaga aylantirish darsidan so'ng kvidishga daxli bo'lmagan noxush hissiyot-la, Din Tomasning yoniga borishga majbur bo'ldi. Xonada deyarli hech kim qolmagan. Germiona tomonidan yaratilgan sariq qushchalargina shift ostida chirqirab uchishmoqda. Qolgan o'quvchilar esa, loqal, bir dona pat bo'lsin, yarata olishmadi.

– «Ovchi» sifatida o'ynash fikridan qaytganing yo'qmi hali? – so'radi Garri.

– Nima?... Ha, albatta... Yo'q, qaytganim yo'q! – haya-jon-la xitob qildi Din.

Uning orqasida turgan Finnigan qovoq solib olgancha, kitoblarini yuk xaltasiga joylamoqda. Simusning xafa bo'lishini Garri bilar va shu bois Dinni jamoa tarkibiga qabul qilmaslikni afzal ko'rgan bo'lar edi. Iloj qancha, jamoa manfaati ustun ko'rilishi lozim. Saralash sinovida Din Simusga nisbatan sal yaxshiroq o'ynadi, har qalay.

– Juda soz. Unday bo'lsa, qabul qilinding, – dedi Garri.
– Mashq bugun soat o'n to'qqizda.

– Tushundim, Garri! – quvonch-la bosh irg'idi Din. – Ura! Tez borib, Jinnadan suyunchi olay!

U xonadan o'qday uchib chiqdi. Garri Simus bilan yolg'iz qoldi va Germionaning kanareykalaridan biri Simusning boshiga najas tomizib, shundoq ham noqulay vaziyatni besh battar qildi.

Kettining o'rniga tayinlangan o'yinchi faqat Simusningina ranjitgani yo'q. Umumiy mehmonxonada yig'ilganlar jamoa tarkibiga endi Garrining bir emas ikki nafar sinfdoshi qabul qilingani haqida vaysashmoqda. Maktabdagi hayoti davomida Garri turli g'iybatlarga ko'nikib, deyarli e'tibor qilmay qo'ygan, lekin bo'lajak o'yinda jamoa g'olib chiqishi shart ekanini butun vujudi ila idrok etmoqda. Agar «Griffindor» g'olib chiqsa, tanqid shu zahoti tinadi va ko'pchilik jamoa tarkibi bag'oyat zo'r saralab olinganini hamisha ta'kidlab kelganini alohida ta'kidlay yuradi... Xudo ko'rsatmasin, o'yin yutqazilsa bormi!...

«G'iybatlarga ko'nikib qolganman», – xayoldan o'tkazdi Garri.

Kechqurungi mashqda Dinning parvozi-yu, Jinna va Demelza bilan hamjihat o'ynayotganini ko'rgan Garri o'z qaroridan zig'irday bo'lsin, achinmadi. «Urib qaytaruvchi»lar Piks bilan Proustak ham kundan kunga yaxshi o'yin ko'rsatib kelishmoqda. Faqat halqa «Qo'riqchi»si Garrini tashvishga solmoqda. Ron juda asabiylashadigan, beqaror, o'z kuchiga ishonmaydigan o'yinchi ekanini Garri biladi.

Yaqinlashib kelayotgan o'yin mavsumi baxtga qarshi, uning xavotirini yanada chuqurlashtirmoqda. Bugun Ron singlisi Jinna tomonidan uloqtirilgan o'n ikkita to'pning barini o'tkazib yubordi. Qo'pol o'ynab, yaqin kelib qolgan Demelza Robinsning labiga qattiq zarba berdi. Bechora qiz atrofga qon sachratib, zigzag shaklidagi yo'nalish hosil qilgancha, yerga bazo'r qo'nib olishga muvaffaq bo'ldi.

– Tasodifan shunday bo'lib qoldi, Demelza. Kechir meni! – qichqirdi Ron, qiz ortidan. – Men shunchaki...

– O'larcha qo'rqib ketdim, – Ronning fikrini oxiriga yetkazdi Demelzaning yoniga qo'ngan Jinna va qizning shishib ketgan labini ko'zdan kechirib chiqqach, baqirdi: – Ron, ahmoq! Qara, nima qilib qo'yganingni.

– Nari tur, o‘zim tuzatib qo‘yaman, – dedi qizlarning yoniga qo‘ngan Garri, shrli tayoqchasini Demelzaning labiga o‘qtab. – Episkey. Jinna, Ronni ahmoq dema. Jamoa sardori sen emassan, har qalay.

– Uni ahmoq deyishga vaqting yo‘qligini ko‘rib, senga yordamlashib yubordim, – javob qaytardi Jinna.

Garri xandon otib yuborishdan o‘zini bazo‘r tiyib oldi.

– Bo‘ldi, bolalar, yuqoriga ko‘tarilamiz, – dedi u

Umuman aytganda, bugungi mashq semestr davomida o‘tkazib kelingan mashqlar orasida eng yomoni bo‘ldi, lekin... o‘yinga oz vaqt qolgani uchun Garri, to‘g‘riso‘zlikni bugungi kunda oqil siyosat sifatida ko‘rmadi.

– Hammaga rahmat, yaxshi ishladik. «Slizerin»ning abjag‘ini chiqarishimiz muqarrar, – tasalli berganday yakun yasadi u.

«Ovchi»lar bilan «Urrib qaytaruvchi»lar kiyinish xonasidan mamnun chiqib ketishdi.

– Ajdarning bir qop najasiday uchdi bu kun, – ifodasiz ohangda iqrar bo‘ldi Ron, Jinnaning ortidan eshik yopilishi bilan.

– Unday emas, – qat‘iy e‘tiroz bildirdi Garri. – Mening sinovimdan o‘tgan eng zo‘r qo‘riqchi sen bo‘lgansan, Ron. Buni hamma ko‘rdi. Gap asabiylashib qolishingda.

Qasrga yetib borguncha Garri Ronga tasalli berdi. Ikkinchi qavatga ko‘tarilguncha Ronning kayfiyati biroz ko‘tarildi. «Griffindor» minorasiga odatdagiday, qisqa yo‘l bilan borishga ahd qilgan Garri gobelenning chetini tortib, Din bilan Jinnaga ro‘baru keldi. Ikkalasi mahkam quchoqlashib, shu qadar berilib o‘pishmoqdaki, og‘zi bilan bir-biriga yopishib qolganday ko‘rinmoqda.

Ichida shu zahoti paydo bo‘lgan allaqanday yirik maxluq o‘tkir tirnog‘i ila Garrining yuragini timdalab, yula boshladi. Miyasiga qaynoq qon quyilib, Dinga nisbatan suqi qo‘llash, uni shilimshiq qurtga aylantirish istagidan tashqari, qolgan har qanday fikrini yo‘q qildi. Kutilmagan holatda yuzaga kelgan bunday vasvasani bazo‘r idora qilib olgan Garrining qulog‘iga yonida turgan Ronning qichqirig‘i uzoqdan eshitildi:

– Ey!

Bir-biridan ajragan Din bilan Jinna bolalar tomon o'girilib qarashdi.

– Nima kerak senga? – so'radi Jinna.

– Singlim ommaviy joyda o'pishib turishini istamayman! – bayonot qildi Ron.

– Sen suqilib kelguncha bu yer juda xilvat joy edi! – javob berdi Jinna.

Dinning uyalib ketgani ko'rinib turibdi. U og'zini qiyshaytirib, Garriga kulib boqqan bo'ldi-yu, lekin o'xshash javob olmadi. Garrining ichida paydo bo'lgan maxluq o'kirib, Dinni jamoa tarkibidan hoziroq haydab yuborishni talab etmoqda.

– E-m-m-m... Yur, Jinna, mehmonxonaga qaytamiz – dedi Din.

Sen boraver! – dedi Jinna. – Akajonimga aytadigan bir-ikki og'iz shirin so'zim bor.

Qiyofasidan tezroq gum bo'lishni afzal ko'rgan Din shu zahoti ko'zdan g'oyib bo'ldi.


– Demak, gap bunday, – dedi malla sochini yuzidan orqaga tashlagan Jinna, Ronga darg'azab qarab. – Kel, yaxshisi, shu yerda bir umrga kelishib olaylik. Men kim bilan uchrashishim va nima ish qilishim senga daxl qilmasligi kerak.

– Nega endi daxl qilmasligi kerak ekan?! – darg'azab ohangda e'tiroz bildirdi Ron. – Singlim o'ziga nomunosib nom orttirib olishini istamayman.

– Qanaqangi nom? – ovoz ko'tardi Jinna, sehrli tayoqchasini qo'lga olib. – Xo'sh, ayt-chi, qani, qanaqangi nom ekan u?

U yomon narsani nazarda tutgani yo'q, Jinna, o'zi kutmagan holda gapga aralashdi Garri, garchi ichida o'kirayotgan maxluq Ronning fikrini to'la-to'kis ma'qullagan bo'lsa-da.

– Nazarda tutgan! – baqirdi Jinna, Garriga yeb qo'yguday o'qrayib. – O'zi hali hech kim bilan hayotda o'pishmagan, agar Myuriyel xolamizni hisobga olmasak.



– O‘chir ovozingni! – o‘kirdi, rangi qizarib ketgan Ron.
– O‘chirmayman! – qichqirdi g‘azabi qaynagan Jinna. –
Xlorkaning oldida dong qotib qolishing, lunjingdan o‘pib qo‘yi-
shini kutishingni ko‘rmagan deb o‘ylaysanmi? Uyalmaysanmi?
Bor, birov bilan o‘pishishni o‘rganib ol, shunda ehtimol:
«Hamma o‘pishishni biladi-yu, men bilmayman», – deya ezilib
yurishni bas qilarsan!

Endi Ron ham sehrli tayoqchasini qo‘liga oldi. Garri shu
zahoti ikkalasining o‘rtasiga tashlanib, qo‘lini ikki tomon
uzatgancha, Jinnani to‘siq oldi.

– O‘zing tushunyapsanmi, nima deb aljirayotganingni
tentak?! – baqirdi Ron, singlisini sehlash uchun Garrini aylanib
o‘tishga urinib. – Agar men bu ishni odamlar oldida qilmayotgan
bo‘lsam...

Garrini turtib yuborishga uringan Jinna xandon otdi.

– A-a, Cho‘chrinstel bilan o‘pishib turasanmi? Yoki
yostig‘ing ostida Myuriyel xolaning rasmini olib yotasanmi?

– Hozir senga ko‘rsatib qo‘yaman...

Garrining chap qo‘li ostidan to‘q sariq yashin uchib
o‘tib, Jinnaga tegishiga bir baxya qoldi.

– Ahmoqlik qilma, Ron... – dedi Garri Ronni yoqasidan
ushlab, devorga tirab olar ekan.

– Garri Chu Cheng bilan o‘pishgan! – qichqirdi Jinna
yig‘lamsirab. – Germiona esa Viktor Krum bilan! Faqat sen, Ron,
bu ish o‘ta jirkanch ishday tutmoqdasan o‘zingni! Sababi hayotiy
tajribang ikki yoshli bola tajribasidan oshmasligida!

Ichidagini to‘kib sochgan Jinna yig‘lagancha, nari qoch-
di. Garri yuzi murda qiyofasini kasb etgan Ronni qo‘yib yubordi.
Ikkovlon Filchning mushugi missis Norris paydo bo‘lguncha,
shu ahvolda og‘ir nafas olib tek turib qoldi.

Ketdik, -- dedi Garri, Filchning qadamini eshitib.

Ikkovlon zinadan tez ko‘tarilib, yettinchi qavat yo‘lagiga
yetib oldi.

– Qoch yo‘ldan, – o‘shqirdi Ron.

Qo‘rqib ketgan mitti qizaloq chetga sakrab o‘tib, qo‘li-
dagi qurbaqa uvuldirig‘ini to‘kib yubordi. Hech narsani tushun-

may, boshi aylanayotgan Garri shisha sinib jaranglaganini deyarli eshitgani yo'q. Chaqmoq urgan odam o'zini shunday his etsa kerak.

«U Ronning singlisi... Faqat shuning uchungina Din bilan o'pishgani menga yoqmadi. U Ronning singlisi... Faqat shuning uchungina...» – o'ziga o'zi takror va takror ta'kidlab bordi Garri.

Biroq kutilmaganda ko'z o'ngiga so'ralmagan ajoyib manzara paydo bo'ldi: o'sha kimsasiz yo'lak... ammo Jinna bilan endi Din emas, o'zi o'pishmoqda... Ichidagi anavi maxluq esa mamnun hirlinglab qo'ydi... Kutilmaganda gobelen ochilib, sehrli tayoqchasini o'qtagan Ron ovozi boricha qichqirdi: sen xoin... yana menga do'st emish...

– Nima deb o'ylaysan, Germiona, chindan ham, Krum bilan o'pishganmikan? – kutilmaganda so'rab qoldi Ron, «Semiz Xola»ning portreti oldida.

Garri seskanib ketdi. Yo'q, u Jinna bilan tanho qolmagan, Ron ham gilam ortidan otilib chiqmagan... U o'zini yo'lak haqida o'ylamaslikka majbur qildi.

– Nima? – tushunmadi u. – A-a... e-m-m-m...

«Ha» desa, rost aytgan bo'ladi, ammo hozir rost gapirishni istamadi. Umuman aytganda, uning yuzida yozilgan javobni Ron shundoq ham uqib olishga ulgurdi.

– Simplokarpus, – g'udulladi Ron, «Semiz Xola»ga ma'yus qarab.

Ikkovlon portret ochgan tuynuk orqali umumiy mehmonxonaga, u yerdan yotoqxonaga kirib, Jinna bilan Germiona haqida boshqa gap ochmay, har biri o'z xayoli ila ko'rparasiga yotdi.

Garri ancha vaqtgacha yuqoriga, karavotining pardasiga qaragancha, Jinnaga bo'lgan munosabati og'alarcha ekaniga o'zini o'zi ishontirib yotdi. Ular yoz bo'yi yonma-yon, aka-singilday birga yashadi, kvidish o'ynashdi, Ronni masxara qilishdi, Bill bilan Xlorkaning ustidan kulib yurishdi... U Jinnani ko'pdan buyon taniydi, tabiiyki, uni hamisha himoya qilib yurishni... otaliqqa olishni... istaydi. Jinna bilan o'pishgani uchun

esa Dinning oyoq-qo'lini uzib olishni... Yo'q, to'xta, akalikning bunday shijoatini idora qilish kerak.

Ron qattiq xurрак torta boshladi.

«U Ronning singlisi, – yana ta'kidladi Garri o'ziga o'zi. – Qadam bosish man etilgan hudud, desa ham bo'ladi. Do'stlik tuyg'usi bilan tavakkalchilik qilib bo'lmaydi».

Garri yostig'ini mushtlab, Jinna haqidagi xayollarni quvgancha, uyqusi kelishini kutib yotdi.

Qo'liga kvidish tayog'ini ushlagancha quvib yurgan Ron haqidagi cheksiz tushlardan so'ng Garri boshi og'ir uyg'ondi, lekin kun yarmiga kelib, hayotdagi Rondan tushdagi Ronni afzal ko'rdi. Hayotdagi Ron nafaqat Din bilan Jinnadan oshkora nafratlanib yurdi, balki, sovuq loqaydligi ila Germionani shafqatsiz qiynay boshladi. O'tgan tunda Ron yo'lida uchragan har kim va har narsani yo'q qilishga tayyor turgan portlovchi draklga aylanib qolgan ko'rinadi. Ron bilan Germiona o'rtasida tinchlik saqlanib qolishiga Garri rosa urindi-yu, uddasidan chiqa olmadi: kechqurun Germiona o'z xonasiga nihoyatda xafa bo'lib kirib ketdi, Ron esa sho'rlik birinchi sinf o'quvchilarini, unga qarab o'tirishgani uchungina qattiq so'kib berdi.

Ronning bunday tajovuzkor tabiati vaqt o'tib bosilmagani Garrini nihoyatda taajjublantirmoqda. O'yini tobora yomonlashib borayotgan Ronning g'azabi battar qaynab, shanba kuni o'tadigan o'yindan oldingi mashqda birorta to'p to'sa olmadi, hammaga baqirib, Demelza Robinsni yana yig'latdi.

– Uningni o'chirib, qizni o'z holiga qo'y! – tahdid qildi, bo'yi Ronning uchdan ikki qismiday keladigan, lekin qo'liga nihoyatda vazmin tayoq ushlagan Piks.

– BO'LDI, BAS! – o'kirdi toqati toq bo'lgan Garri.

U Jinnaning Ronga qaratilgan darg'azab nigohini ko'rgach, sochib yuborish afsuni ijrosining havosini olgan usta ekanini eslab, vaziyat nazorat ostidan chiqib ketmasidan oldin aralashishga ahd qildi.

– Piks, sen borib «Tajovuzkor» to'plarni yig'. Demelza, tinchlan, sen bugun juda yaxshi o'ynading... Ron, – dedi u, hamma tarqalishini kutib. – Sen qadrdon do'stimsan, lekin shu

tarzda davom etadigan bo'lsang, jamoadan quvib solaman seni.

Garrining nazarida, Ron qo'l ko'tarmoqchi bo'lganday ko'rindi, biroq xayol o'tmay yanada battar holat yuz berdi: supurgisi ustida so'ljayib qolgan Ronning tajovuzkor tabiati bir zumda barham topdi.

– Men hech narsaga yaramaydigan foydasiz odamman, o'zim tark etaman jamoani.

– Yaraysan va hech qayerga ketmaysan! – so'kib berdi Garri, Ronning yoqasidan tutib. – Kayfiyating yaxshi bo'lsa, senga yetadigan «Qo'riqchi» yo'q, har qanday murakkab to'pni to'sa olasan. Muammong ruhiyating bilan bog'liq.

– Ya'ni men jinniman, shundaymi?

– Ha!

Ikkovlon bir-biriga o'qrayib turgach, Ron boshini horg'in chayqadi.

– Yangi «Qo'riqchi» qidirgani vaqting yo'qligini bilaman. Qisqasi, gap bunday: ertaga o'ynayman, lekin yutqazib qo'ysak – yutqazishimiz esa muqarrar – men jamoani tark etaman.

Biron-bir gap Ronga kor qilmadi. Kechki ovqat mahali-da Garri unga dalda berishga ko'p urindi, lekin Germionaga zarda qilish bilan band bo'lgan Ronning qulog'iga Garrining gapi kirmadi. Bilganini qo'ymagan Garri kechqurun, umumiy mehmonxonada, agar jamoani tashlab ketadigan bo'lsa, jamoaning jamiki a'zolari g'am-anduhdan o'lib qolishi mumkinligiga Ronni ishontirmoqchi ham bo'ldi. Biroq baxtga qarshi, mehmonxonaning narigi burchagiga yig'ilib olgan jamoa a'zolari Ronga o'qraygancha pichirlab o'tirganlari va ularning yuzlari kasb etgan qiyofa Garrining gapiga zid keldi. Jahli chiqqan Garri oxiri, do'stining jangovar ruhi mustahkamlanishiga umid qilib, baqirib ham berdi. Ammo bu ham kor bermadi. Jangovar ruhidan zig'irday bo'lsin, alomat ko'rinmagan Ron ayanchli, baxtsiz qiyofa ila yotoqxonaga kirib ketdi.

Uyqusi kelmagan Garri qorong'ida uzoq o'ylanib o'tirdi. Jamoa sardori sifatida chiqadigan birinchi o'yinini yutqazib qo'yishni aslo istamaydi. Bundan tashqari u shubhasi o'z isbotini

topmagan bo'lsa-da, Malfoyning adabini berib qo'yishga qat'iy ahd qilgan. Lekin Ron bugungi mashqdagiday o'ynaydigan bo'lsa, ertaga g'olib chiqish imkoni – odob-la aytiladigan bo'lsa -- deyarli yo'q.

Agar uni bor imkonini ishga solish... xayolini yig'ib olish... ertangi kunini omadli o'tkazishga majbur qilish... imkoni bo'lsa edi...

Fikr to'satdan ravshanlashib ketganday, javob kutilmaganda, o'zidan o'zi kelib qoldi.

Ertalab Katta Zalda, odatdagiday, o'yin oldidan omma-viy hayajon qaror topgan. Vishillab o'tirgan slizerinchilar ostona-da ko'ringan «Griffindor» jamoasini «bu-u-u»lagancha qarshi oldi. Shiftga qaragan Garri moviy tusli tiniq osmonni yaxshi alomat sifatida ko'rdi.

Griffindorchilarning qizil-tilla tusli stoli Garri bilan Ronni ko'rib, quvonch-la hayqirdi. Garri kulib, hammaga qo'l siltadi. Labini biroz qiyshaytira olgan Ron esa bosh chayqab qo'ydi.

– Boshingni mag'rur tut, Ron! -- qichqirdi Lavanda. -- Sen hammadan zo'rsan!

Lekin Ron Lavandaga qiyo boqib ham qo'ymadi.

– Choy, qahva, qovoq sharbati? Nima ichasan, Ron? -- so'radi Garri.

– Farqi yo'q, – fojiali ohangda javob berdi Ron, tostdan tishlab qo'yib.

Oradan ikki daqiqa o'tar-o'tmas, ularning ortidan o'tayotgan Germiona taqqa to'xtab qoldi.

– Ishlar qalay? -- past ovozda so'radi u, Ronning ensasiga murojaat qilib.

– Zo'r! -- javob berdi Garri, qovoq sharbatini Ronga uzatar ekan. -- Ma, Ron, mana buni ichib ol.

Ron stakanni og'ziga keltirishi bilan Germiona kutilmaganda ovoz ko'tardi:

– Ichma!

Bolalar Germiona tomon o'girilib qarashdi.

– Nega endi ichmas ekanman?! -- g'udulladi Ron.

Germiona ishonqiramay Garriga qaradi.

– Sen sharbatga nimadir qo‘shding!

– Bu nima deganing? – sovuq ohangda e‘tiroz bildirdi Garri.

– Nima demoqchi bo‘lganimni juda yaxshi tushunding. Ko‘rdim. Ronning sharbatiga nimadir quyding. Qo‘lingda shishacha.

– Nima deyotganingni tushunmayapman, – dedi Garri, qo‘lidagi shishachani ichki kissasiga yashirib.

– Ron, ichma dedim senga! – xavotir-la takrorladi Germiona.

Sharbatni qo‘liga olgan Ron Germionaning ko‘ziga lo‘q qarab turgancha, o‘chakishganday, stakanni bir ko‘tarishda quritdi.

– Meni boshqarishga urinma hech qachon, Germiona!

G‘azabi qaynagan qiz Garrining ustiga engashib, vishilladi:

– Ushbu qilmishing uchun seni maktabdan quvib solish kerak. Bunday qabihlikka qodir ekaninga, birov aytganda, ishonmagan bo‘lar edim.

– Bu haqda kim gapirsa ham, sen gapirma, – javoban pichirladi Garri. – Birovni gangitmay qo‘yganingga ancha bo‘ldimi?

Germiona zarda qilgancha stolning narigi boshi tomon shiddat-la odimlab ketdi. Garri zig‘irday bo‘lsin achinmay, qiz ketidan qarab qo‘ydi.

«Kvidishning jiddiy jihatlarini Germiona hech qachon tushunib yetmagan», – xayoldan o‘tkazdi u.

Shundan so‘ng labini yalab o‘tirgan Ron tomon o‘girilib, dadil ovozda e‘lon qildi:

– Vaqt yetdi!

Ular o‘yingoh tomon yo‘l olishdi. Qirov qoplab qotgan maysa oyoq ostida g‘archillamoqda.

– Omadimiz kelib, ob-havo ham yaxshi bo‘ldi, a? – dedi Garri, Ronga kulib boqib.

– Ha, – bo‘sh javob berdi, yuzidan qon qochib, kasal

bo'lib qolganday ko'rinayotgan Ron.

Kiyinish xonasida kvidish kiyimini kiyib olishga uringan Jinna bilan Demelza o'tiribdi.

– O'yin o'tadigan sharoitga gap yo'q, – ma'lum qildi Jinna, Ronning ahvoliga e'tibor qilmay. – Yangilikdan xabaringiz bormi? Kechagi mashg'ulot davomida to'p slizerin-chilarning «Ovchi»si Veyzining boshiga tegib, safdan chiqibdi.

– To'pmi, Veyzimi? – hazillashdi Garri.

– Veyzi, albatta. Shu bois u bugungi o'yinda ishtirok etmas ekan. Lekin bundan ham yaxshi yangilik bor: Malfoy ham kasal bo'lib qolibdi.

– Nima? – keskin o'girildi Garri. – Kasal bo'lib qolibdi? Nima qilibdi unga?

– Tasavvur qila olmayman. Lekin bu biz uchun haqiqiy omad ekanini yaxshi bilaman, – quvonch-la javob berdi Jinna. – O'rniga Xarper o'yingga kiritilibdi. Bizning tengqurimiz – tug'ma ahmoq.

Garri mubham kulib qo'ydi-yu, lekin sport kiyimini kiyar ekan, xayolidan kvidishga daxli bo'lmagan fikr o'tdi. Bir vaqtlar Malfoy jarohati tufayli o'yindan voz kechgan-u, biroq o'yin «Slizerin» uchun qulay vaqtga qoldirilishini talab qilgan edi. Endi esa o'rniga boshqa birov o'ynashiga osonlikcha rozilik beribdi. Sabab? Chindan ham, kasalmi yoki o'zini shu ko'yga solib olganmi?

– Malfoyning o'yinda ishtirok etmasligi shubhali holatday ko'rinmayaptimi senga? – pichirladi u Ronga.

– Omadimiz yurishgan holat, degan bo'lar edim, – biroz jonlandi Ron. – Ularning eng zo'r hujumchisi Veyzi ham yo'q. Unga qarshi o'yingda omadim hech kulib boqmagan... Ey!

Ron qo'lqopini oxirigacha taqmay, Garriga baqrayib qoldi.

– Yana nima? – so'radi Garri.

– Men... sen... – ovozini pasaytirdi cho'chib ketgan, lekin ko'zi chaqnayotgan Ron. – Qovoq sharbatim... mabodo sen?...

– O'yin boshlanishiga besh daqiqa qoldi, yaxshisi,

botinkangni kiy, – dedi Garri.

Jamoa maydonga chiqdi. Namoyishgohlarda quloqni qomatga keltiradigan olqishlar-u masxaraomuz qiyqiriqlar yangradi. O'yingohning bir tomoni qizg'ish-tilla tusli, ikkinchi tomoni sabza-kumush tusli ummondek ko'rinmoqda. Xufflpufchilar bilan ravenklochilar orasidagi muxlislar ham ikki tomon bo'lingan. Hayqiriq va qarsaklar orasida Garrining qulog'iga Luna Lavgud kiyib chiqadigan mashhur sher-shlyapaning o'kirigi eshitildi.

Garri o'yin hakami, to'plarni savatdan chiqarib yuborishga tayyor turgan Rolanda Tryuk xonimning yoniga bordi.

– Jamoa sardorlari, qo'l siqishing, – amr etdi hakam.

Garrining barmoqlari shu zahoti slizerinchilarning yangi sardori Urkuxart kaftida qarsilladi.

– Supurgilar egarlansin! Hushtak chalishim bilan boshlaymiz!... Uch... ikki... bir...

Hushtak yangradi. Garri va uning jamoasi muzlagan yerdan kuch-la itarilib, havoga ko'tarildi.

«Tilla chaqqon»ni qidirishga kirishgan Garri maydon uzra aylanar ekan, pastida zigzag iz hosil qilgancha, oyog'i kuygan tovuqday o'zini u yoq bu yoq urayotgan Xarperning xatti-harakatlarini kuzatib bordi. O'yingohda yangi sharhlovchining g'ayrioddiy ovozi yangradi.

– Shunday qilib, ular havoda! Balkim, ko'pchilik Potter boshchiligidagi jamoaning yangi tarkibidan xuddi men kabi ajablanayotgan bo'lsa kerak. O'tgan yili namoyon etgan shubhali o'yin inobatga olinadigan bo'lsa, Ronald Uesli jamoa tarkibidan chiqarib yuborilishiga aksariyat muxlislarning ishonchi komil edi. Biroq sardor bilan yo'lga qo'yilgan chambarchas munosabat ushbu masalada o'z ahamiyatiga ega bo'lgan ko'rinadi... Bu «tabiiy», albatta.

Namoyishgohning slizerinchilar egallagan yarmi masxaraomuz qahqaha-yu gulduros qarsaklardan portladi. Garri boshini yon tomon egib, supurgi ostidan sharhlash maydoniga qaradi. U yerda bir vaqtlar Li Jordanga tegishli bo'lgan sehrli megafonni qo'lga ushlagan novcha bo'yli, xufflpufchilarning ozg'in, burni

qanqaygan juda noxush o'yinchisi Zakkerayes Smitni ko'rdi.

– Mana, marhamat. Gol uriladigan birinchi holat. Urkuxart burgut kabi shiddat-la pastlab kelmoqda va...

Garrining qorni uvushib qolganday bo'ldi.

– ... Uesli to'pni qaytara oldi. Nima ham der edim, hammamizga ham ba'zan omad kulib turadi.

– To'g'ri fikr yurityapsan, Zakkerayes, - o'ziga o'zi g'udulladi Garri miyig'ida kulib qo'yib.

U tilla tusli shu'la qidirgancha, pastga, ovchilar orasiga sho'ng'idi.

Yarim soat o'tdi. Hisob oltmish-u nol, «Griffindor» jamoasi yetakchilik qilmoqda. Ron bir nechta nihoyatda murakkab zarbalarni bartaraf etishga muvaffaq bo'ldi. Ba'zan yo'llangan to'plarni barmoq uchi bilan to'sib qoldi. Griffindorchilar yo'llagan oltita to'pdan to'rttasini raqib halqalariga Jinna kiritdi. Shundan so'ng Zakkerayesning ikki nafar Uesli jamoa tarkibiga Garrining xohish-istagi tufayligina qabul qilinganiga doir baqiriqlari tindi. Biroq endi u Piks bilan Proustakka «yopishib» oldi.

– Proustak «Urrib qaytaruvchi» uchun joriy etilgan me'yoriy talablarga jismonan javob bera olmaydi, albatta, – kibr-la, cho'ziq ovozda sharhladi Zakkerayes. – Odatda, «Urrib qaytaruvchi»larning mushaklari nisbatan yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim.

– Basharasiga «Tajovuzkor» bilan qo'yib yubor, – qichqirdi Garri, yonidan uchib o'tayotgan Proustakka.

Ammo keng kulib qo'ygan Proustak to'pni Garri tomon uchib kelayotgan Xarperga qarata yo'lladi. «Tajovuzkor» nishonga tekkanini anglatadigan bo'g'iq zarbani eshitgan Garri quvonib ketdi.

Aftidan, ushbu o'yinda «Griffindor» jamoasi g'olib chiqishga mahkum qilingan ko'rinadi. Gol ketidan gol urayotgan jamoa a'zolari raqibga ko'z ochirmay yana, yana va yana gol urib bormoqda. Maydonning narigi tomonida esa raqib tomonidan yo'llangan to'plarni osonlikcha to'sayotgan Ronning og'zi qulog'ida. Buning ustiga, raqib muxlislari o'zining ma'nan eskirgan

«Uesli qirolimiz!» qo'shig'ini ijro etishga kirishar ekan, Ronning o'zi yuqorida xorga dirijyorlik¹ qilib turdi.

– O'zini qahramon deb biladi, chog'i, a? – eshitildi murdor ovoz.

Kuchi boricha kelib, Garriga urilgan Xarper Garrini supurgidan yiqita olmadi.

– Anavi do'sting g'irt sotqin... – vishilladi Xarper.

«Ovchi»larga orqa o'girib turgan Rolanda Tryuk xonim griffindor muxlislarining e'tirozli hayqirig'iga e'tibor berib, orqasiga o'girildi. Biroq bu paytga kelib Xarper Garridan nari qochishga ulgurdi. Yelkasi qattiq og'rigan Garri qasd olish uchun raqib ketidan quva ketdi.

– Aftidan, «Slizerin» jamoasining «Ovchi»si Xarper «Tilla chaqqon»ni ilg'agan ko'rinadi, – megafonga² qichqirdi Zakkerayes Smit. – Ha, shunday! Ilg'agan! So'qir Potter esa ko'rmayapti!

«Smit ikkalamizning to'qnashib ketganimizni ko'rma-dimi deyman, anavi mol», – xayoldan o'tkazdi Garri, lekin keyingi fursatda uning yuragi o'z joyidan uzilib, qayoqqadir pastga tushib ketganday bo'ldi. Smit haq! Xarper shunchaki o'zi ko'tarilayotgani yo'q yuqoriga. U Garri ilg'amagan narsani, mo-viy osmon tusida yarqirayotgan tezuchar «Tilla chaqqon»ni ko'rib qolibdi.

Garri tezlikni oshirdi. Qulog'iga eshitalayotgan shamol hushtagi Smitning sharhini-yu xaloyiqning qichqirig'ini bosib yubordi. Xarper hamon oldinda. «Griffindor» esa atigi yuz ballga peshqadamlik qilmoqda. Agar Xarper chapdastlik qilsa, «Griffindor» yutqazadi... raqib qo'lini «Tilla chaqqon»ga uzatdi...

– Hoy, Xarper! – umidsiz qichqirdi Garri. – Malfoy qancha to'ladi senga, o'rniga o'ynab berishing uchun?

Bunday savol berishiga nima sabab bo'lganini bilmaydi-

¹ **Dirijyor** (*fransuzcha*: diriger – yo'naltirish, boshqarish, rahbarlik qilish) – musiqa ijrochiligi san'atining murakkab nuri; musiqa asarini ijroga tayyorlash jarayonida hamda bevosita tinglovchi tomoshabinlar oldida ijrochilarga (orkestr, xor, ansambl, opera, balet jamoalari va boshqalarga) rahbarlik qiluvchi shaxs.

² **Megafon** – ovozni kuchaytiradigan karnay.

yu, lekin «Tilla chaqqon»ni deyarli tutib olgan Xarper gangib, koptokchani qo'ldan chiqarib yubordi. Fursatdan foydalangan Garri shartta oldinga tashlanib, «Tilla chaqqon»ni mahkam ushlab oldi.

– HA! – qichqirdi u va yer tomon burilib, koptokchani boshi uzra baland ko'targancha, pastlay boshladi.

Ma'lum fursat o'tgach, tomoshabinlar yuqorida nima bo'lganini idrok etib, o'yingohda final hushtagining ovozi bo'sib yuborgan hayqiriq portladi.

– Jinna, qayoqqa? – qichqirdi Garri.

Jamoa a'zolarining bari Garrini quchgani otilgan bo'lsa, Jinna uning yonidan o'qday uchib o'tib, o'yin sharhlash maydonchasiga borib urildi. Tomoshabinlar xandon otib, rosa chiriladi. «Griffindor» o'yinchilari yog'och bo'laklari ostida bazo'r qimirlab yotgan Zakkerayes Smitning yoniga qo'nishdi.

– Ma'zur tuting professor, tormoz bosishga ulgurmay qoldim, – dedi quvnoq ohangda Jinna, norozi holda qarab turgan professor Makgonagallga.

O'zini kulgidan tiya olmagan Garri jamoa a'zolari orasidan otilib chiqib, Jinnaning yelkasidan quchib oldi-yu, qizning nigohiga ro'baru kelmaslik uchun shu zahoti qo'lini tortib, quvonchdan sakrayotgan Ronning beliga urib qo'ydi. Griffindorch o'yinchilar mashqlar davomida o'tgan noxushliklarni bir zumda unutib, bir-birini qo'lidan ushlagancha, o'yin maydonini tark etishdi. Ular musht tugilgan qo'llarini muzaffariyat-la siltab, muxlislarni olqishlab borishdi.

Kiyinish xonasida bayramona kayfiyat hukm surmoqda.

– Simusning aytishicha, hozir umumiy mehmonxonada bazm qilamiz ekan! – qichqirdi Din. – Yuring tezroq, Jinna, Demelza.

Kiyinish xonasida Ron bilan Garri qoldi. Ular ham endigina yo'lga chiqmoqchi bo'lib turishgan mahalda ostonada Germiona kirib qoldi. Qo'lida griffindorchilarning sharfini aylantirayotgan qizning kayfiyati buzuq, yuzi qat'iy qiyofa kasb etgan.

– Garri, sen bilan ochiqchasiga gaplashib olmoqchiman,

dedi Germiona, chuqur nafas olib. – Sen bunday qilmasliging kerak edi. Divangardning gapi esingda-ku: bu g'ayriqonuniy.

Xo'sh, nima qilmoqchisan endi, borib sotasanmi bizni? – g'azablana boshladi Ron.

– Nimani nazarda tutyapsiz, ikkalangiz? – teskari o'girildi kulgisini yashirgan Garri, kiyimini osayotgan bo'lib.

– Juda yaxshi bilasan, nima nazarda tutilayotganini! – bor kuchi-la baqirdi Germiona. – Nonushta vaqtida Ronning sharbatiga suyuq omad damlamasini quyib berding!

– Men hech kimga hech narsa quyganim yo'q, – dedi Garri, bolalar tomon o'girilib.

– Quygansan! Shuning uchun o'yin yaxshi o'tdi, slizerinchi o'yinchilar kasal bo'lib qoldi, Ron esa birorta bo'lsin, gol o'tkazmadi.

– Men hech kimga hech narsa quyib berganim yo'q, – takrorladi Garri, endi ochiqchasiga kulib qarab.

U qo'lini nimchasining kissasiga solib, Germiona bugun ertalab ko'rib qolgan shishachani chiqarib ko'rsatdi. Shishacha tilla tusli suyuqlikka oxirigacha to'la bo'lib, tiqini sirtidagi zich bosilgan muhr buzilmagan.

– U suyuq omad ichganiga ishonch hosil qilishini istadim va shu bois sening oldingda sharbatga damlama quygan kishiday tutdim o'zimni, – dedi Garri Germionaga va Ron tomon burilib, ma'lum qildi: – Ron sen omad kulib boqishiga komil ishonch bildirganing uchun ham barcha to'plarni to'sa olding. Bugungi natijaga esa aslida o'z kuching bilan erishding.

Garri damlamani yana o'sha kissasiga solib qo'ydi.

– Demak, sharbat tarkibida hech narsa bo'lmagan? – taajjublandi Ron.

Bo'lmagan.

Biroq ob-havoning qulayligi... Veyzi o'yinga chiqmagani... Rostdan ham, menga hech narsa ichirib qo'ymadingmi?

Garri bosh chayqadi.

Ron lol qolgancha baqrayib turdi-da, Germiona tomon keskin burilib, mazaxladi:

– Nonushta vaqtida Ronning sharbatiga suyuq omad qu-

yib qo'yding, shuning uchun Ron birorta bo'lsin gol o'tkazmadi!
Bu yog'i necha pulga tushdi endi, Germiona? Men birovning yordamisiz ham to'p to'sa olaman!

– To'sa olmaysan deganim yo'q men, Ron. O'zing ham hozirgina, damlama ichganingga ishonib turgan eding-ku!

Ron supurgisini yelkaga tashladi-da, Germionaning yonidan o'tib, chiqish eshigi tomon yo'l oldi.

Daf'atan oraga sukunat cho'kdi

E-m-m-m... – g'udulladi, ish bunday g'alati tus olishini kutmagan Garri. – Xo'sh, ketdikmi qasrga, g'alabani nishonlashga?

– Boraveringlar! – ovoz ko'tardi, o'pkasi to'lgan Germiona ko'z yoshini to'xtatish uchun ko'zini pirpiratib. – Rondan juda charchadim. Nima aybim bor, hech tushunmayapman.

Qiz yugurgancha, kiyinish xonasidan chiqib ketdi.

Garri muxlislar orasida yurib, qasr tomon asta yo'l oldi. Ko'pchilik qichqirib, uni tabrikladi. U esa o'zini aldangan kishiday his etmoqda. Ron g'olib chiqib, Germiona ikkalasi yarashib olishiga umid bog'lagan edi-yu, axir, u! Qanday qilib Germionaga, oradan ancha vaqt o'tgan bo'lsa-da, Viktor Krum bilan o'pishgani uchungina aybdor ekanini tushuntirib bera oladi? Garri buni tasavvur ham qila olmayapti.

G'alaba sharofatiga uyushtirilgan bayramda, o'zi kech kelgan bo'lsa ham Garri Germionani ko'rmadi. U quvonchli hayqiriq va gulduros qarsaklar bilan qarshi olindi. Odamlar uni o'rab olib, olqishlashdi. O'yinning har bir daqiqasi haqida hisobot tinglashni istagan aka-uka Krivilar, kiprik qoqib, har bir aytgan so'zidan kulayotgan qizlardan ancha vaqtgacha qutula olmagan bo'lsa Ronni qidirib topa olmadi. Divangard tomonidan uyushtirilgan Rojdestvo oqshomiga taklif qilishni shama qilgan Romilda Veyndan bir iloj qilib xalos bo'lgach, ichimliklar terilgan stol yonida Jinnani uchratdi. Qizning yelkasida Arnold laqabli pigmey sharcha, oyog'i ostida esa umid-la xurullayotgan Maymoqoyoq o'tiribdi.

– Ronni qidirypsanmi? – istehzo-la kulib boqdi Jinna. – Ana u jirkanch riyokor.

Garri Jinna imo qilgan burchak tomon o'girildi. Ron hammaning ko'z o'ngida Lavanda Braunni shunday qattiq quchoqlab olganki, kimning qo'li qayerda ekanini ilg'ab olish qiyin.

– Sho'rlik qizning labini yeb qo'yguday qapishib olganini qara, – dedi Jinna. – Hechqisi yo'q, vaqt o'tib o'rganib oladi... Zo'r o'ynadik, Garri.

Huzur-lazzat ichimligini olgan qiz Garrining qo'liga urib qo'yib, nari ketdi. Ko'zini Arnoldan uzmagani Maymoqoyoq, Jinnaning ortidan ergashdi. Garrining ichidagi borki narsa uzilib tushganday bo'ldi. Aftidan, odamlar orasiga yaqin orada qaytishni rejalashtirmagan Ronga teskari o'girilib, portret to'sgan tuynukdan chiqib ketayotgan paxmoq jigarrang soch tutamini ko'rib qoldi. Romilda Veynga yana bir bor chap bergan Garri chiqish tomon odimlab, portretni turti. Yo'lakda hech kim yo'q.

– Germiona? – chaqirdi u.

Qiz eshigi qulflanmagan xonalardan biriga kirib olgan. U o'qituvchining stolida, boshi uzra chiqirib aylanayotgan sariq qushchalarni hisobga olmaganida, yolg'iz o'zi o'tiribdi. Shunday og'ir damda ham bunday ajoyib mo'jiza yarata olishidan Garri hayratlanmay qolmadi.

– A, Garri, salom, – dedi Germiona, ma'yus ohangda. – Mana, ko'rib turganingdek, mashq qilib o'tirishga ahd qildim.

– Ha... e-m-m-m... Zo'r chiqibdi, – g'udulladi Garri.

Germiona shovqin-surondan nari bo'lish uchun umumiy mehmonxonadan Ronni ko'rmay chiqib ketganiga umid bog'lagan Garri biron nima degani so'z topa olmadi.

– Ron rosa bayram qilayotgan ko'rinadi, – dedi qiz, o'ziga xos bo'lmagan ingichka ovozda.

– Rostdanmi? – soxta taajjublandi Garri.

– Ko'rmagan ko'yga solma, o'zingni, – dedi Germiona. – Garchi u o'z qilig'ini hech kimdan bekitishga urinmagan bo'lsa-da.

Eshik lang ochilib, Lavandaning qo'lidan mahkam ushlagancha, ichkariga tortayotgan Ron kirib keldi. Garri bilan Germionani ko'rgan yigitcha, to'xtagan joyida qoqilgan qoziq-

day qotib qoldi.

– Voy!

Lavanda hiringlab, eshikni qattiq yopib, chiqib ketdi.

Og‘ir sukunat cho‘kdi. Germiona Ronning ko‘ziga tik qaradi. Boshini ko‘tara olmagan Ron esa nihoyat bahona topgan bo‘ldi:

– Garri, seni qidirib yurgan edim.

Tilla tusli qushchalar stoldan sakrab tushgan Germiona-ning boshi uzra gir aylanib, Quyosh tizimining jonli modelini hosil qilgan.

– Lavandani kuttirib qo‘yma, – dedi qiz, past ovoza. – Xavotir oladi-ya.

Germiona chiqish eshigi tomon asta odimladi. Garri biron-bir yomon ish bo‘lmaganidan suyunib, Ronga qarab qoldi.

– Oppuno! – yangradi kutilmaganda eshik tomondan ovoz.

Garri ortga o‘girilib, yuzi aqldan ozib qolgan kishining qiyofasini eslatadigan Germionaning sehrli tayyoqchasini Ronga o‘qtaganini ko‘rdi. Beozor uchayotgan qushchalar galasi kutilmaganda, misoli oltin o‘qlardan hosil qilingan do‘l kabi Ronga yopirilib, to‘g‘ri kelgan joyini cho‘qib, panjalari bilan timdalay ketdi. Yuzini qo‘li bilan to‘sib olgan Ron dod solib, janggari qushchalarga bor ovozi ila baqirdi:

– TEK QO‘YLARING MENI! YO‘QOLLARING!

Ronga qasosli g‘azab-la, so‘nggi bor qaragan Germiona tashqariga chiqdi-da, eshikni qarsillatib yopdi. Ammo eshik qarsillashidan oldin, Germionaning ho‘ngrab yuborgani eshitildi.

XV BOB

BUZILMAS QASAM

Oynasi yaxlagan deraza ortida qor aylanib yog'gancha, Rojdestvo yaqinlashmoqda. Xagrid Katta Zalga, odatdagiday, o'n ikkita archa keltirib, o'rnatishga ulgurdi. Zina suyanchiqlari zar ip va nayzabarg novdalaridan tayyorlangan marjonlar bilan bezatildi, ritsarlarning aslahalari ustidagi dubulg'alar ichida o'chmas shamlar yorishmoqda, qasr yo'laklarining devoriga esa o'rtada teng masofa qoldirilgan tarzda yirik omela¹ bargaklari osib chiqilgan. Qizlar galasi yo'lakda tirbandlik hosil qilgancha, deyarli har bir bunday bargak ostida yig'ilib, Garrining yo'lini poylab turadi. Tez-tez yuz berib turadigan tungi sayrlari sabab, qasrning yashirin yo'llarini yaxshi bilib olgan Garri qizlar galasini chetlab o'tib, har qanday xonaga aylanma yo'l topa oladi.

Ilgari Ron bunday holatni ko'rsa, hasaddan ichi yemirilgan bo'lar edi, hozir esa yumalab kulmoqda. Qovog'idan qor yog'ilib, tabiatan tajovuzkor bo'lib qoladigan Rondan, quvnoq Ron afzal, albatta. Biroq bu Garriga qimmatga tushmoqda: birinchidan, Ron bilan o'pishmay o'tkazilgan vaqtni zoye ketgan vaqt, deb biladigan Lavanda Braunning hamisha birga yurishiga toqat qilish, ikkinchidan esa bir-biriga ashaddiy dushman bo'lib qolgan ikki kishiga do'st bo'lishga to'g'ri kelmoqda.

Ronning qo'lidagi Germionaning qushchalari yetkazgan jarohatlar hali bitmagan. Xafa bo'lgan Ron o'zini jabrlangan deb biladi.

– Uning shikoyat qilishga hech qanday asosi yo'q, ma'lum qildi kunlardan bir kun Ron. – Anavi Krum deganlari bilan men emas, o'zi o'pishgan. Kutilmagan holatni qarangki, men bilan ham o'pishadigan qiz topilib qoldi! Vaholanki, yurtimiz bu masalada ozod yurtdir. Men hech qanday ayb ish qila-

¹ Omela (qorag'at) daraxtlarga yopishib o'sadigan yashil buta. Qon tomirlarni mikroblardan tozalashda hamda terini husunbuzar toshmalardan tozalashga yordam beradi. Yevropada bu o'simlikdan gulchambarlar tayyorlashda ham foydalaniladi.

yotganim yo'q.

Garri indamadi. U o'zini ertaga o'tadigan afsun o'qish fani mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rib, «Kvintessensiya: qidiruv» kitobining yod olinishi talab etilgan sahifasini o'qib o'tirgan ko'yga solib oldi. Garri Ron bilan ham, Germiona bilan ham ilgarigidek, do'stona munosabatlarni saqlab qolishga qat'iy ahd qilgan, lekin doimo xuddi hozirgiday, og'iz ochmay o'tirishga majbur bo'lmoqda.

– Men unga hech narsa va'da qilganim yo'q, – g'udul-lashni davom etdi Ron. – Divangardning oqshomiga u bilan birga bormoqchi edim, albatta... churq etmadi-yu... shunchaki, do'stona... men erkin kishiman...

Garri «Kvintessensiya»ning keyingi sahifasini ochib, gapi kaminda yonayotgan gulxanning qattiq qarsillashi orasida bazo'r eshitilayotgan po'ng'illashga aylanib borayotgan Ronning qarab turganini his etdi. Umuman aytganda, Garri, ushbu g'udul-lashlar davomida talaffuz etilgan «Krum», «o'zi aybdor» kabi so'zlarni ilg'ab olganday bo'ldi.

Germionaning mashg'ulotlar jadvali nihoyatda zich bo'lgani bois Garri u bilan faqat kechqurun, Ron Lavandaga yo-pishib qolib, Garriga e'tibor qilmay qo'ygan vaqtdagina bafurja gaplashib o'tirish mumkin. Germiona umumiy mehmonxonada Ron bilan bir vaqtda bo'lishni mutlaqo istamaydi. Binobarin, Garri Germionaning yoniga, odatda, kutubxonaga boradi.

– U o'zi istagan kishi bilan o'pishib yurishga to'la-to'kis haqli, albatta, – ma'lum qildi Germiona. – Bu masala menga, zig'irday bo'lsin, daxl qilmaydi.

Qiz o'zi yozib o'tirgan ishi uzra patqalamini ko'tarib, chunonam nuqta qo'ydi, pergament varag'i teshilib ketdi.

Kutubxonachi Ships xonim orqadagi kitob tokchasi ortida, birovga sezdirmay yuribdi.

Kerak bo'lmay qolgani bois ovozini yo'qotib qo'yishdan jiddiy xavfsiray boshlagan Garri yana indamay, o'zining «Oliy damlamachilik» kitobi ustiga past engashib, umrbod ta'sir etadigan eliksirlar tayyorlashga oid yo'riqnomalarni ko'chirib, kitob muallifi Vozliyanus Sennning matniga darslikning oldingi sohibi

zoti past Shahzoda tomonidan berilgan sharhlarni o'qib chiqish uchun ba'zan to'xtab bordi.

– Ha, aytganday, – dedi Germiona, birozdan so'ng, ogoh bo'lib yur.

So'nggi bor aytyapman, – dedi qirq besh daqiqali gunglikdan so'ng ovozi xirillab eshitilgan Garri, men darsligimni hech kimga bermayman! Snegg bilan Divangard bergan saboqlardan ko'ra, zoti past Shahzodaning saboqlaridan ko'p narsa bilib olishim...

O'sha qallob zoti past Shahzodangni nazarda tutayotganim yo'q, – dedi Germiona, mash'um darslikka, xuddi ushbu kitob uni haqorat qilganday, o'qrayib. – Boshqa gapni aytib qo'ymoqchiman. Bu yerga kelishdan oldin, qizlar xonasiga kirib chiqqan edim. Xonaga taxminan olti nafarcha qiz to'planib olgan ekan. Ular orasida Romilda Veyn ham bor edi. Qizlar senga sevgi damlamasini yashirinchalik ichirib qo'yish yo'llarini muhokama qilishdi. Hammasi Divangardning oqshomiga kirish orzusida yurishibdi. Binobarin, Fred bilan Jorjning do'konidan rom qilish qaytarmasining katta zaxirasini xarid qilishibdi. O'ylashimcha, o'sha damlama...

– Sen, axir, sinfboshisan-u nima uchun musodara qilmaysan, o'sha zaxirani? – taajjublandi Garri.

Germionaning amaldagi qonun-qoidalarga rioya etish borasida, ba'zan vasvasa darajasiga yetadigan ehtirosi jiddiy fursatda barham topishini tasavvur etish qiyin.

O'zlari bilan hojatxonaga olib kirishmaydi-yu axir?! – javob berdi Germiona, xafa bo'lib. Shunchaki, qaytarma qo'llash taklikasini muhokama qilishdi, xolos. Modomiki, hatto anavi zoti past Shahzodang ham o'nlab o'xshash qaytarmalarga qarshi birodaniga qo'llaniladigan ziddi-zaharni bilmas ekan, – achchiq qildi Germiona, Garrining «Oliy damlamachilik» kitobiga yana adolat-la qarab, – sening o'ringda bo'lganimda, qolganlaridan qutulish uchun birorta qizni allaqachon taklif qilgan bo'lar edim. Bayram oqshomi ertaga. Demak, bugun-erta ular hech narsadan tap tortmaydi.

– Lekin men hech kimni taklif qilmoqchi emasman, –

g'udulladi Garri.

U haligacha Jinna haqida o'ylamaslikka urinmoqda. Ammo qiz o'jarlik-la tushiga kirib chiqmoqdaki, Ronning legalimensiyaga¹ qodir emasligi uchun Xudoga shukr qilishdan boshqa chora qolmayapti.

– Qisqasi, Romilda Veynning qarori qat'iy. Shuning uchun to'g'ri kelgan narsani ichib yurma, – fikrini yakunladi Germiona ma'yus ohangda.

U numerologiya bo'yicha bajarilayotgan ishning uzun pergamentini oldinga surib, yozishni davom etdi. Garri qizning ishini kuzatar ekan, chuqur xayol surib qoldi.

– Shoshma, – dedi u, – axir, Filch «Ueslilarning ajoyib ultrafokuslari»dan xarid qilingan mollarni man etgan-u?!

– Qachondan buyon bizda Filchning taqiqlari kuchga ega bo'lib qoldi? – yozishdan to'xtamadi Germiona.

– Pochta boyqushlarining hammasi ko'zdan kechirib boriladi, deyilgan edi-yu? O'sha qizlar sevgi damlamasini maktabga qay yo'l bilan olib kira oladi?

– Fred bilan Jorj, ushbu damlamani yo'talga qarshi dori va atir niqobi ostida yo'llashmoqda, – tushuntirish berdi Germiona. – Bu ular tomonidan havola etiladigan xizmat turlariga kiradi.

– Ekspert bo'lib qolibsən, – dedi Garri.

Germiona Garriga ham zoti past Shahzodaning «Oliy damlamachilik» darsligiga qaraganday, o'qrayib qo'ydi.

– Bularning bari ular yozda Jinna ikkalamizga ko'rsatgan shishachalardagi yorliqlarda yozilgan edi, – sovuqqina javob qildi qiz. – Birovga pinhona bir narsa berish yoki berib qo'ygan ko'yga solib olish odatim yo'q mening, agar bilmoqchi bo'lsang...

– Xo'p, mayli, o'tgan ishga salavot, – gapni bo'ldi Garri. – Muhimi, Filchni aldash yo'li topilgani, shundaymi? Damlama boshqa turdagi suyuqlik ko'rinishida maktab hududiga kiritilgan! Nega endi Malfoy anavi opal shodasini o'xshash usullardan

¹ Legalimensiya – sehrgarning boshqa odamning ongiga kirish qobiliyati.

birini qo'llab kirita olmas ekan?

– Garri... boshlama...

– Yo'q, qani, ayt, nega kirita olmaydi? – talab ohangida so'radi Garri.

– Chunki, – uf tortdi Germiona, – Filch foydalanayotgan sir sezgiri suqi, qarg'ish va yashirin qo'llanilgan afsunlarni fosh etadi. Ya'ni bunday asbob qarg'ish qo'llanilgan buyumni fosh etish maqsadida yovuz sehrga qarshi kurash olib borish uchun mo'ljallangan. O'sha shodaga qo'llanilgan qudratli suqini sir sezgiri bir zumda aniqlaydi, lekin bir shishadan boshqa shishaga quyilgan suyuqlikni... Bundan tashqari, yovuz sehrga hech qanday daxli bo'lmagan sevgi damlamasi xavfli vositalar jumlasiga kirmaydi.

– Senga aytish oson, – g'udulladi Garri, Romilda Veynning niyatini esga olib.

– ... damlamaning yo'talga qarshi dori emasligini faqat Filchgina, nazoratchi sifatida idrok etishi kerak. U esa yaxshi sehrgar emas. Shunday ekan, bir damlamani boshqasidan farqlab olishi amrimahol.

Germiona kutilmaganda jim bo'lib qoldi. Garri ham shitir-shitir tovushni eshitdi. Qorong'ilikda kimdir orqa tomondan, kitob tokchalari bo'ylab yaqinlashmoqda. Ikkovlon so'z aytmay, jim o'tirdi. Sal o'tib, tokcha ortidan Ships xonimning yirtqich bosharasi ko'rindi. Uning qo'lidagi fonus ichkari botgan lunji-yu ilgaksimon burnini xunuk yoritmoqda.

– Kutubxona yopiladi, – e'lon qildi ayol. – Marhamat qilib, olgan narsangizni joyiga... Kitobni ne ko'yga solding, hoy maxluq?

– Bu o'zimning kitobim, kutubxonaniki emas! – qichqirdi Garri, ustiga Ships xonimning yirtqich qush panjasiga o'xshash kafti yotishga ulgurgan «Oliy damlamachilik»ni changallab.

– Qanday isnod! – vishilladi ayol. – Munkirlik! Rasvolik!

– Kimdir nimadir yozibdi, xo'p, nima endi, shu ham gunohmi? – q'tiroz bildirdi Garri, kitobni yulib olishga urinib.

Ships xonimning yuragi ushlab qolgan ko'rinadi, kursiga o'tirib qoldi. Germiona narsalarini tez yig'ib, Garrining qo'lidan mahkam ushlagancha, chiqish eshigi tomon tortib ketdi.

– Bunday xulqing bilan kutubxonaga kiritmay qo'yadi endi seni. Nega olib kelding o'zi, mana shu ahmoqona kitingni?

– Bilasanmi, Germiona, agar uning tomi ketgan bo'lsa, ayb menda emas. Balkim, u Filch to'g'risida aytgan gapingni eshitib qolgandir? Ikkalasi o'rtasida nimadir borligini hami-sha gumon qilib yurgan edim-a...

– O-o! Xa-xa-xa... – miriqib kuldi Germiona.

Endi bimalol gaplasha olishlaridan quvongan Garri bilan Germiona fonus yoritgan kimsasiz yo'laklar bo'ylab yurib, Filch va Ships xonim o'rtasida kishi bilmas muhabbat bor-yo'qligini yo'l davomida atroflicha muhokama qilgancha, umumiy mehmonxonaga qaytishdi.

– Bema'ni gap, – dedi Garri, «Griffindor» minorasiga kirish uchun tayinlangan yangi, bayram paroli bilan «Semiz Xola»ga murojaat qilib.

– Aynan sizlarning gapingizni g'irt bema'nilik desa bo'ladi, – quv qiyofa ila javob berdi «Semiz Xola», bolalarni ichkariga kiritib.


– Salom, Garri, – baqirdi Romilda Veyn, tuynukdan kirib kelgan Garriga. – Ayolkola ichasanmi?

Yelka uzra o'girilib qaragan Germionaning yuzidan: «Nima degan edim senga?» ma'nosini uqib olish qiyin kechmadi.

– Yo'q, rahmat, shu zahoti rad etdi Garri. – Xush ko'rmayman uni.

– Unday bo'lsa, mana buni ol, – dedi Romilda Veyn. Garrining qo'lga quti ushlatib. – Kuydiradigan viskili, qozon shaklidagi mayda shokolad keks. Buvim yuboribdi, men esa buni xush ko'rmayman.

– A-a... xo'p, mayli... katta rahmat, – g'uduladi Garri. rad etgani bahona topa olmay. – E-m-m-m... biz birga kelayotgan edik...



U ming'irlashni bas qilib, Germionaning ketidan shoshildi.

– Aytdim-ti, senga, – vaysadi Germiona. – Tezroq hirorta qizni taklif qil, deb. Shunda quloq-miyang biroz tinchib...

Ron bilan Lavandaning bitta kresloda siqilib o'tirganini ko'rgan Germionaning yuzi bir zunda befarqlik qiyofasini kasb etdi.

– Xayrli tun, Garri.

Uzuq-yuluq gapirgan Germiona soat endigina yetti bo'lganiga qaramay, yotoqxonasiga kirib ketdi.

Garri bir kunli mashg'ulot va Divangardning oqshomini bir iloj qilib o'tkazgach, Ron ikkalasi Boshpanaga yo'l olishini o'ylab, o'zini o'zi ovutgancha, yotoqxonaga ko'tarildi. Aftidan, ta'til boshlanguncha Ron bilan Germiona yarashib olmaydigan ko'rinadi. Ehtimol, o'shanda ular o'zlarini bosib olib, xulq-atvorlari masalasida o'ylab ko'rishar.

Umuman aytganda, bunday bo'lishi amrimaholga o'xshaydi. Negaki ertasi kuni bir narsani boshqa narsaga aylantirish fani bo'yicha ikkalasi bilan o'tgan mashg'ulot Garri uchun og'ir kechdi. Nihoyatda murakkab mavzu – inson metamorfozasini o'zlashtirishga endigina kirishilgan. Ko'zguga qarab ishlayotgan bolalardan o'z qoshining rangini o'zgartirish talab etilmoqda.

Ronning birinchi urinishi omadsiz yakun topdi: u o'ziga o'zi nihoyatda uzun, uchi eshib qayrilgan mo'ylov o'stirib oldi. Buni ko'rgan Germiona zaharli xandon otdi. Ron ham javob qaytarishni kechga qo'ymadi: professor Makgonagali tomonidan berilgan har bir savolga javob berish uchun kursida o'tirgan joyida qo'l ko'tarib irdg'ishini juda aniq ko'rsata olib, Germionani mazax qildi. Lavanda bilan Parvatti uchun Ronning ushbu qiligi juda kulgil ko'rindi. Germiona ko'z yoshini bazo'r tiyib, qo'ng'iroq zarbi shidilishi bilan narsalarining yarmini qoldirgancha, sinf xonasidan chiqib ketdi.

Germiona Ronga nisbatan ko'proq e'tiborga muhtoj, deb topgan Garri qizning ki'oblarini yig'ishtirgach, ortidan shoshib, uni bir qavatpastda, qizlar xonasi yaqinida topdi. Luma Lavgud kaitini, Germionaning yelkasiga qo'yib, yupatmoqda.

-- Salom, Garri, -- ko'rishdi Luna. -- Qoshing to'q sariq tus olganidan xabaring bormi?

- Salom, Luna. Germiona, unutib qoldiribsan... -- dedi Garri.

- Ha, -- yig'lamsiradi Germiona, Garrining qo'lidagi darsliklarini olib.

Qiz tez teskari o'girilib, ko'z yoshini artayotganini yashirdi.

- Rahmat, Garri. Mayli, men boray...

Germiona shu qadar tez ketib qoldiki, Garri uni yupatgani so'z aytishga ulguradi, garchi bunday holatda nima deyish kerakligini tasavvur eta olmasa ham.

- Kayfiyati biroz buzilgan ko'rinadi, -- fikr bildirdi Luna Lavgud, -- dastlab Dilgir Mirtl yig'layotgan bo'lsa kerak deb o'yladim. Qarasam, Germiona ekan. Ron Uesli bilan bog'liq...

- Ha, ikkalasi arazlashib qolishgan, -- bosh irg'idi Garri, Luna bilan birga yo'lak bo'ylab odimlar ekan.

- U ba'zan juda kulgili hazil qiladi, -- dedi Luna. -- Lekin ba'zan qahri juda qattiq bo'lib qolishi ham mumkin ekan. O'tgan yili e'tibor qilgan edim bunga.

- Ehtimol, -- javob berdi Garri.

Luna Lavgudning noxush haqiqatni ochiq-oydin aytish odati bor. U hozir ham fe'lining ushbu jihatini namoyon etdi. Lunaday kishini Garri hali uchratgani yo'q.

- Semestr qalay o'tdi? -- qiziqdi Garri.

- Yaxshi, -- javob berdi Luna. - DAsiz o'zingni biroz yolg'iz his etdim. Jinnaga gap yo'q, juda yaxshi qiz. Yaqinda bir narsani boshqa narsaga aylantirish mashg'uloti davomida ikkita bolaga meni Psixuna, deb chaqirishni qat'iy man etib qo'ydi...

-- Divangardning oqshomiga men bilan birga borishni istaysanmi? -- so'radi Garri.

Og'zidan o'zidan o'zi chiqib ketgan ushbu so'zlar yigitchaning o'ziga, xuddi ularni boshqa birov aytganday eshitildi.

- Divangardning oqshomiga? Sen bilan? -- taajjubdan dong qotdi Luna ukki ko'zi ila Garriga baqrayib.

- Ha. Biz o'zimiz bilan mehmon olib borish huquqiga

egamiz. Senga qiziq bo'lsa kerak, degan xayolga bordim...
aytmoqchimanki... Qadrdon do'st sifatida, – anqlik kiritdi Garri.

Tushuntira oldimmi? Agar istamasang...

– Yo'q, nega endi? Do'st sifatida bajonidil! Meni hali
hech kim, hech qachon do'st sifatida bunday oqshomlarga taklif
etmagan!

Garri Lunani hali bu qadar baxtiyor holatda ko'rmagan.

– Qoshingni shu sababdan bo'yadingmi? – so'radi Luna.

– Bayram sharofatigami? Men ham bo'yab olaymi?

– Yo'q, kerak emas, – dedi Garri, qat'iy ohangda. –
Tasodifan shunday bo'lib qoldi. Germionadan iltimos qilaman,
o'z holatiga qaytarib qo'yadi... Qisqasi, bugun kechqurun soat
sakkizda vestibulda uchrashamiz.

· AHAAA!!! qichqirdi kimdir tepada.

Baravariga seskanib ketgan Garri bilan Luna qandilga
oyog'ini osmondan keltirib osilib olgancha irjayayotgan
poltergeyst¹ Dryuzg ostidan o'tayotganini sezmay qolibdi.

– Pottermon Psixunani oqshomga taklif qildi! Pottermon
Psixunani sevib qolibdi! Pottermon Psixunani sevib qolibdi!

Dryuzg xandon otib dod solgancha, nari uchib ketdi.

– Pottermon Psixunani sevib qolibdi! Pottermon
Psixunani sevib qolibdi!

– Atrofdagilar shaxsiy hayot huquqiga hurmat-la qarash-
sa, yaxshi-da, – istehzo-la ta'kidladi Garri.

Darhaqiqat, xayol o'tmay, jamiki maktab Garri Potter
Luna Lavgudni Divangardning Rojdestvo oqshomiga taklif
qilganidan voqif bo'ldi.

– Sen har qanday boshqa qizni taklif qilishing mumkin
edi! Har qanday boshqa qizni! – ishonmay xitob qildi Ron,
kechki ovqat vaqtida. – Sen esa kelib-kelib Psixunani taklif qilib
o'tiribsan-a!

Unday dema uni, Ron! – o'dag'ayladi, do'stlari tomon

¹ **Poltergeyst** – G'arbiy Yevropa afsonalarida tasvirlanishicha, shovqin-suron, idish-
tovoqlarni sindirish bilan o'zining kelganligini bildiradigan sirli arvoq. Arvoqning bu turi
odatda nohaq o'tirilgan odamning ruhi ko'rinishida bo'ladi.

ketayotib, Garrining ortida to'xtab o'tgan Jinna. – Lunani taklif qilganingdan juda xursandman, Garri. Bechora qiz baxtiyorligidan ichiga sig'may yuribdi.

Jinna sal narida o'tirgan Dinning yoniga borib o'tirdi. Garri qizning xursandligidan sevinmoqchi bo'ldi-yu, o'zini majbur qila olmadi.

Stolning narigi boshida sanchqisi bilan ovqat titayotgan Germiona mag'rur yolg'izlikda o'tiribdi. Ronning Germiona tomon sezdirmay qarab-qarab qo'yayotgani Garrining e'tibori-dan chetda qolmadi.

– Uzi so'rasang bo'lar edi, – dedi Garri, ta'na qilmay.

– Uzi so'ray? Keyin la'nati qushchalariga yana yem bo'lay, a?

– Nega uni mazax qilding?

– Mo'ylovim ustidan kulgani uchun.

– Men ham hayotda unday ahmoqona mo'ylov ko'rma-gan edim.

Biroq Ron Garrining gapini eshitmadi: Lavanda bilan Parvatti paydo bo'ldi. Lavanda shu zahoti Ron bilan Garrining orasiga suqilib kirib, mahbubining yelkasidan quchib oldi.

– Salom, Garri, – ko'rishdi Parvatti.

Uning yuzida ham do'stlarning bunday xulqidan xuddi Garri kabi uyalib, toqat qilishdan charchagani ko'rinib turibdi.

– Salom, – javob berdi Garri. – Ishlaring yaxshimi? «Xogvars»da qolibsanda? Eshitishimga qaraganda, ota-onang seni olib ketishmoqchi bo'lgan ekan?

– Fikrlaridan qaytarishga hozircha erishdik, – kulib boqdi Parvatti. – Ketti bilan bog'liq hodisadan so'ng ikkalasi aqldan ozib qolishiga sal qoldi. O'xshash hodisa takrorlanmagani bois... Voy, Germiona, salom!

Parvattining yuzidan oqko'ngillik nuri yog'ilmoqda. Qizning mashg'ulot vaqtida Germionaning ustidan kulgani uchun, noqulaylik, uyat hissidan aziyat chekayotganini fahmla-gan Garri boshini burib, garchi bunday holat haqiqatdan yiroq tuyulsa-da, Germionaning yanada yashnab o'tirganini ko'rdi.

«Qizlar ba'zan tushunarsiz, juda g'alati bo'ladi»,

xulosa chiqardi u o'ziga o'zi.

– Salom, Patil! – xushchaqchaq ohangda javob berdi Germiona. Ron bilan Lavandaga mutlaqo e'tibor qilmay. Divangardning bugungi oqshomiga borasanmi?

– Meni hech kim taklif qilgani yo'q, u yerga, qovoq solib, g'udulladi Parvatti. Afsus... Borishni juda istar edim. Zo'r kecha bo'ladi... O'zing-chi, borasanmi?

– Ha, Kormak ikkalamiz kechqurun soat sakkizda uchrashamiz... – javob berdi Germiona.

Suvga to'lgan yuvinish chig'anog'ining tiqini sug'urib chiqarilganda chiqadigan tovush kabi ovoz eshitilib, Lavanda-ning ostidan chiqqan Ron ko'rindi. Germiona bunga e'tibor qilmadi.

– ... birga Divangardning qabuliga boramiz.

– Kormak bilan? – hayron bo'ldi Parvatti. – Anavi Maklaggen Kormak bilan-a?

– Xuddi o'sha bilan, – lutfan tasdiqladi Germiona. – «Griffindor» jamoasining «Qo'riqchi»si bo'lib qolishiga sal qolgan yigit, – dedi u, so'nggi so'zlariga alohida urg'u berib.

– Ikkalangiz uchrashib turasizmi? – so'radi ko'zi katta ochilib ketgan Patil.

– A? Ha... Xabaring yo'qmidi? – o'ziga yarashmagan tarzda hirlingladi Germiona.

– Yo'g'-e, nahotki?! – xitob qildi Parvatti, bunday xabardan aqlini yo'qotganday bo'lib. – Kvidish o'yinchilariga omading ja yurishadi-da sening! Dastlab Krum, endi Maklaggen...

– Eng mohir kvidish o'yinchilariga, – anqlik kiritdi Germiona, hirlinglashini qo'ymay. – Mayli, boray... bayram oqshomiga hozirlik ko'rib, yasanib olishim kerak...

Germiona o'rnidan turib, g'urur-la odimlay ketdi. Lavanda bilan Patil shu zahoti bir-biri tomon engashib, hodisalar-ning yangicha rivojini, shuningdek, Maklaggen haqidagi gap-so'zlar va Germionaga oid fikr-mulohazalarni muhokama qila ketishdi. Ron harakatsiz, g'alati holatda, indamay o'tiribdi. Garri esa ichida taajjublangancha qoldi: darhaqiqat, bir ayolning makri

qirgʻta tuyaga yuk boʻladi!

Kechqurun soat sakkizda uchrashuv joyiga kelgan Garri vestibulda oʻta qiziquvchan xaloyiq toʻplanganini koʻrdi. Odamlarning tanqidiy nigohlarini his etib, Lunaga yaqinlashdi. Qizning egnidagi bugungi kiyimi – kumush tusli yaltiroq tangachalar taqilgan korjoma ham tomoshabinlarning nafratini qoʻzgʻatmoqda. Umuman olganda, Lunaning koʻrinishi yomon emas. Rediska-sirgʻa, arvohekkoʻrar-u huzur-lazzat tiqinlarisiz kiyinib chiqibdi-yu, har qalay.

– Salom, – koʻrishdi Garri. – Ketdikmi?

– Ha, ha, – quvonch-la, bosh iringʻidi Luna. – Qayoqqa yuramiz?

– Divangardning xizmat xonasiga, – dedi Garri va Lunani gʻiybat-u haddan ortiq qiziquvchan nigohlardan nari, marmar zina boʻylab yuqoriga yetakladi. – U yerda qonxoʻr ham boʻlishini eshitdingmi?

– Rufus Skrimjmi? – soʻradi Luna.

– Men... Nima? – gapini yoʻqotib qoʻydi Garri. – Sehrgarlik vazirini nazarda tutyapsanmi?

– Ha-da. Qonxoʻr-ku, axir, u, – jiddiy ohangda javob berdi Luna. – Skrimj endigina Fujning oʻrniga saylanganda, dadam bu haqda uzundan uzoq maqola yozgan edi. Taassufki, vazirlik chop etishga ijozat bermadi. Sababi ayon: rost gap tugʻganga yoqmaydi, yaʼni ular haqiqat qaror topishini istashmaydi.

Rufus Skrimj qonxoʻr ekaniga Garri shubha ila qaraydi, albatta... Lekin u Lunaning oʻxshash gaplariga koʻnikib qolgan boʻlib, qiz oʻz otasining juda gʻalati gʻoyalariga chin koʻngildan ishonishini biladi va shu bois ushbu masalada bahslashmadi.

Ikkovlon Divangardning kulgi, musiqa, jonli suhbatlar tobora baland eshitilayotgan xizmat xonasiga yaqin keldi.

Divangardning makoni yo oʻzining meʼmoriy xususiyati, yo allaqanday sehr-jodu taʼsiri ostida oʻqituvchining oddiy xizmat xonasiga nisbatan kattaroq koʻrinmoqda. Shift va devor yashil, qirmizi va sariq rang movut bilan qoplangan boʻlib, xona yirik chaylaga oʻxshab qolgan.

Odamlarning ko'pligidan xonaning havosi og'ir bo'lib qolgan. Shiftning qoq o'rtasidan xonani qizil shu'la bilan yoritgan qandil osilib tushgan, atrofda esa yorqin nuqtalar kabi haqiqiy yulduzlar gir aylangancha uchib yuribdi.

Narigi burchakda skripka musiqasi ostida kimdir baland ovozda qo'shiq aytmoqda. Keksa duoxonlarning bir necha nafari tamakining qalin tutuni ortiga bekinib, qizg'in suhbatlashmoqda. Mehmonlarning oyog'i ostida uy elflarining butun boshli arniyasi chiyillagancha yugurib yuribdi. Ular gazak tarqatib, vazmin kumush patnislar ostida deyarli ko'rinmay, past bo'yli kichik stollarni eslatmoqda.

– Garri, o'g'lim! – o'kirdi, egniga smoking¹, boshiga popukli duxoba shlyapa kiygan Divangard, xonaga kirib kelgan Garri bilan Lunani ko'rib. – Kir, ichkariga kir, seni ko'pchilik bilan tanishtirib qo'yaman!

U Garrini havoda birgalikda g'oyib bo'lishga hozirlanganday mahkam quchib, mehmonlar orasiga yetakladi. Garri esa Lunaning qo'lidan ushlab, ortidan tortdi.

– Tanishinglar, Garri, sobiq o'quvchim, «Qondosh og'alari: qonxo'rlar orasida o'tgan hayotim» kitobi muallifi Eldred Uorpl va uning do'sti Krovur.

Ko'zoynak taqqan past bo'yli Uorpl Garrining qo'lini zo'r g'ayrat-la siltadi. Yuzi zerikkan kishi qiyofasini kash etgan, ko'zining osti qorayib, aftidan, o'larcha toliqqan novcha bo'yli Krovur esa sezilar-sezilmas bosh iring'ib qo'ydi. Sal narida yig'ilgan qizlar galasi ushbu qonxo'rga katta qiziqish-la, tikilmoqda.

– Garri Potter! Bag'oyat xursandman! – xitob qildi uzoqni ko'ra olmaydigan Uorpl, yuzini Garrining yuziga yaqinroq keltirgancha termilib. – Professor Divangarddan yaqinda so'ragan edim: «Garri Potterni ko'pdan buyon kutilayotgan tarjimai holi» kitobini qachon yozib tugatasiz, – deb.

– E-m-m-m... – hayron bo'ldi Garri. – Ko'pdan buyon kutilayotgan?

– Ha-a, Goratsiy aytgancha bor ekan! Favqulodda kam-

¹ Smoking – qora moyutdan qilingan, qaytarma shoyi yoqali kastyum.

tariniki! Ic' qoldi Uorpi. – Agar jiddiy gaplashadigan bo'lsak, dedi u, ish-b'harmon kishi bo'lib, – o'sha kitobni o'zim bajonidil yozgan bo'lar edim. Odamlar sen haqingdagi batafsil ma'lu motlarga tashna, bolakay, nihoyatda tashna! Agar menga besh-oltita, aytaylik, har biri besh-olti soatli intervyu hadya etsang bormi, bir necha oydan so'ng butun boshli kitob tayyor bo'ladi qoladi! Ishontirib aytamanki, sendan ko'p xarajat talab etilmaydi. Istasang, mana. Krovurdan so'rab bilishing mumkin... Krovur, tek tur! – darg'azab baqirdi, kutilmaganda u, qonxo'rning qizlar tomon ochko'zlik-la odimlay ketganini ko'rib. – Yigitcha, o'sha kitob qancha daromad keltirishini tasavvur ham qila olmasang kerak...

– Bu meni mutlaqo qiziqirmaydi, – qat'iy ohangda ma'lum qildi Garri. – Ma'zur tuting, tanishimni ko'rib qoldim...

Garri Lunani yetaklagancha, xaloyiq orasiga kirib ketdi. Chindan ham, «Shayton singillari» musiqiy guruhining ikki nafar qo'shiqchisi orasida qo'ng'ir sochning qalin tutami ko'rindi.

– Germiona! Germiona! – chaqirdi u.

– Garri! Shu yerdamisan? – xitob qildi, yuzi hozirgina iblis to'ridan xalos bo'lgan kishi qiyofasini kasb etgan Germiona. – Xudoga shukur! Salom, Luna.

– Senga nima qildi? – so'radi Garri.

– Voy, bazo'r qutulib oldim... Kormakdan... omela ostida tashlab ketdim uni, – tushuntirish bergan bo'ldi Germiona, Garrining hech narsani tushunmayotgan nigohiga javoban.

– Ajab bo'lsin! O'ylab bosishing kerak edi qadamingni, – koyib berdi Garri.

– Ronning jig'iga tegmoqchi bo'ldim, – dedi Germiona, ifodasiz ohangda, Kormak yoki Zakkerayes Smitni tanlash borasida ikkilanib qoldim. Umuman aytganda...

– Smit borasida ikkilanding? – basharasini burishtirdi Garri.

– Ha. Endi esa o'shani tanlamaganimdan afsus qilmoqdaman. Hatto Gurp ham Maklaggenga nisbatan ko'proq jentelmen bo'lsa kerak. Bu yoqqa yur, ko'zga ko'rinadi u, bo'yi juda baland...

Uchalasi bir qadahdan glintasal olib, narigi devor oldiga, u yerda yolg'iz turgan professor Trelanini juda kech ko'rib qolgan holda o'tishdi. Garri oshpazlikda ishlatiladigan xeres¹ hidini yana his etdi.

– Salom, – boadab ko'rishdi Luna.

– Xayrli kech, azizam, – javob berdi professor Trelani, nigohini Lunaga bazo'r jamlab. So'nggi vaqtda darslarimda ko'rinmay qolding?...

– Bu yil Firensning darslariga qatnayapman, – javob berdi Luna.

– Ha, albatta, qirchang'i ot, – zahargina istehzo qildi professor Trelani, tilini mast kishiga xos ravishda taqillatib qo'yib. – Maktabga qaytganimdan so'ng haydab yuborsa bo'lar edi professor Dambldor, o'sha to'rt oyoqli ahmoq do'stini, to'g'rimi? Yo'q... birgalikda dars o'tadigan bo'ldik... To'g'risini aytganda, bunday holat men uchun haqoratdan o'zga narsa emas, bilasizmi?...

Professor Trelani shu darajada mast ediki, Garrini tanimadi. Firens haqorat qilinar ekan, Garri Germionaga yaqinroq borib pichirladi:

– Kel, bir narsani oydinlashtirib olaylik. Saralash sinovlarida qilgan ishingni Ronga aytib berish niyating bormi?

– Sen meni, chindan ham, bu qadar pastlikka qodir, deb o'ylaysanmi? – xafa bo'ldi, qoshi ko'tarilib ketgan Germiona.

– Modomiki, Maklaggenni taklif etishga qodir ekansan... – qizga diqqat-la nazar soldi Garri.

– Bu mutlaqo boshqa narsa, – g'urur-la ma'lum qildi Germiona. – Men Ronga «Qo'riqchi» saralash sinovlari davomida yuz bergan yoki yuz bermagan narsalarni aytib bermoqchi emasman.

– Juda to'g'ri qaror, – qizg'in ma'qulladi Garri. – Aks holda u yana bo'shashib, keyingi o'yinni boy berib qo'yamiz...

– Kvidish! – noroxi holda xitob qildi Germiona. Boshqa narsalar ham o'ylantiradimi, sizlarni? Kormak ham men

¹ Xeres – oq uzumdan tayyorlangan o'tkir ispan vinosi

haqimda deyarli hech narsa so'ramadi, lekin men, «Kormak Maklaggenning eng zo'r yuzta o'yini»ni eshitishga majbur bo'ldim... tavba...

Germiona xuddi havoda g'oyib bo'lgan kabi kutilmaganida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Hozirgina shu yerda turgan qiz xandon otib kulayotgan ikki afsungar ayol o'rtasidan o'tib, gum bo'ldi. Yana bir daqiqa o'tar-o'tmas, xaloyiq orasidan Maklaggen chiqib keldi.

– Germionani ko'rmadingizmi? – so'radi u.

– Yo'q, ko'rmadim, uzr, – dedi Garri, Luna tomon o'girilib.

Biroq u Luna kim bilan gaplashib turganini mutlaqo unutilib qo'ygan ekan.

– Garri Potter! – titroq ovoz-la xitob qildi professor Trelani, qalin shishali ko'zoynagi orqali Garrini endigina tanib.

– A-a, salom, – ifodasiz ko'rishdi Garri.

– Bolaginam! – baland ovozda pichirlay ketdi professor Trelani. – Qanchadan qancha mish-mish gaplar! G'iybatlar! Mumtoz! Men buni allaqachon bilganman, albatta... Lekin aytarli biron-bir yaxshi nishona yo'q, Garri... Nima uchun bashorat darsiga qaytmading? Mening fanim sen uchun har qanday boshqa fanga ko'ra o'ta muhim, tushun!

– Oh, Sibilla, ishonchim komilki, har birimiz: «Men o'qitayotgan fan – fanlar orasida eng muhim fandir!» – deb bilamiz, – eshitildi baland ovoz.

Professor Trelanining ortida yuzi qizarib, shlyapasi yon tomon og'ib qolgan, bir qo'lga kattagina pirog bo'lagini ushlab olgan Divangard paydo bo'ldi.

– Biroq men bunday iste'dod sohibini uchrataman deb o'ylamagan edim! Tug'ma damlamachi! – davom etdi Divangard, qizargan ko'zi ila Garriga mehr-la qarab. – Fahmi, agar bilmoqchi bo'lsangiz, onasining fahmiga o'xshaydi! Tan olishim joizki, Sibilla, bunday qobiliyat sohiblarining atigi bir nechtasini uchratganman, xolos... o'zingiz o'ylab ko'ring, hatto Severus ham...

Shu yerga kelganda, Divangard keskin harakat bajarib,

xaloyiq orasidan Sneggni tortib chiqardi.

– Bas qil, qovoq uyib, yakkamoxovga o'xshab yurishni. Davraga qo'shil, Severus! Garrining damlamachilik borasidagi ajoyib qobiliyati haqida gapirib turgan edim! – quvonch-la hiqillab qo'ydi Divangard. – Bu masalada sening xizimating, hech shubhasiz, beqiyosdir. Besh yil o'qitgansan-u, uni, har qalay!

Divangard Sneggnining yelkasini shu qadar mahkam quchib olganki, bechora qilt eta olmadi. Snegg qora ko'zini qisib, qirg'iy burni uzra Garriga diqqat-la razm soldi.

– Qiziq, befoyda o'tgan o'sha besh yil davomida u hech narsani o'rgana olmadi, degan xulosa chiqargan edim.

– Demak, unda tug'ma iste'dod bor! – ovoz ko'tardi Divangard. – Ilk darsimda namoyon etgan mahoratini ko'rganingda edi! Maktab o'quvchisi tirik qoldiradigan ajal qultumini birinchi urinishidayoq tayyorlay olishini hali ko'rmaganman! Hatto sen ham Severus...

– Shunaqa deng? dedi Snegg, Garriga teshib yuborguday tikilib.

Garri sarosimaga tushib qoldi. Nima sababdan Garri kutilmaganda damlamachilik ustasi bo'lib qolganini surishtirishi kamlik qilib turgan edi.

– O'zlashtirishni davom etish maqsadida qaysi fanlarni tanlaganingni eslatib o't-chi menga, Garri, iltimos qildi Divangard.

– Yovuz kuchdan himoya, afsun o'qish, bir narsani boshqa narsaga aylantirish, gerbologiya...

– Bir so'z bilan aytganda, bo'lajak avrorga kerak bo'ladigan fanlar, istehzo-la ta'kidlab qo'ydi Snegg.

– Ha, aynan shunday faoliyat bilan shug'ullanmoqchiman, – gap qaytarish ohangida javob berdi Garri.

– Va sen bunga erishasan! ma'qulladi Divangard.

– Menimcha esa, avror bo'lishing kerak emas, Garri, – kutilmaganda gapga aralashdi Luna, suhbatdoshlar davrasining diqqat-e'tiborini o'ziga qaratib. Avrorlar Kariyes fitnasini amalga oshiradigan ijrochilarning bir qismi sanaladi. Buni hamma biladi, deb o'ylayman. Ular yovuz sehr vositasi va milk

kasalligini tarqatish orqali vazirlikka ichkaridan putur yetkazishga urinishadi.

Garri glintasalga tiqilib qoldi. Haqiqatan ham, o'xshash mulohaza yuritish uchungina Lunani bunday oqshomlarga taklif qilsa arziydi! Korjomasiga ichimlik to'kib, ho'l qilgancha yo'talayotgan bo'lsa ham Garri kulib, qadah uzra ko'rib qolgan manzaradan yanada zavqlanib ketdi: Argus Filch Drako Malfoy-ni qulog'idan mahkam ushlab olgancha, kuch bilan tortib kelmoqda.

Qoidabuzarlikni fosh etib, aybdorni qo'lga olganidan o'zini baxtiyor his etayotgan Filchning lunji titrab, ukki ko'zi vasvosga tushib qolgan kishining ko'ziday yonmoqda.

– Professor Divangard, – xirilladi u. – Mana bu bola yuqori qavatdagi yo'laklarda izg'ib yurgan ekan. Oqshomingizga taklif etilgan bo'lib, biroz kechikib kelganini sabab tariqasida ro'kach qilmoqda. Taklifnoma yo'llagan edingizmi, unga, ser?

Malfoy qulog'ini Filchning changalidan tortib chiqarib, darg'azab ohangda o'shqirdi:

Yaxshi, yaxshi, olmaganman men o'sha taklifnomani! Taklifsiz kirmoqchi bo'ldim, endi ko'nglingiz joyiga tushdimi?

Yo'q, tushmadi! – javob qildi Filch, garchi uning gapi ko'zida yarqirayotgan quvonch oloviga mos kelmayotgan bo'lsa-da. – Qo'lga tushding, tushunarlimi? Direktor aytganmidi, maxsus ruxsatnomasiz tunda izg'ib yurish man etilgan, deb?

Haq gap aytding, Argus, haq gap, – qo'l siltadi Divangard. – Biroq bugun Rojdestvo bayrami. Bayram oqshomida ishtirok etish istagi esa jinoyat sanalmaydi. Keling, shu safar jazoga tortmay qo'ya qolaylik uni. Qolishing mumkin, Drako.

Tarvuzi qo'ltig'idan tushib, hafsalasi pir bo'lgan Filchning yuzi shu zahoti qayg'uli qiyofa kasb etdi. Uning qayg'usini tushunsa bo'ladi, albatta, lekin Malfoyning yuzi ham bunday qiyofa kasb etish sababini Garri tushunmadi. Snegg-chi, nima uchun u Malfoyga darg'azab va ayni vaqtda... bo'lishi mumkin emas... qo'rquv-la qarab turibdi?...

Filch shartta orqa o'girdi-da, nimalardir po'ng'illab,

kalovlangancha chiqish eshigi tomon ketdi. Malfoy basharasida kulgi yasab, oliyjanoblik qilgani uchun Divangardga minnatdorlik bildirdi, Sneggning yuzi esa yana ifodasiz bo'lib qoldi.

– Arzimaydi, arzimaydi, – qo'l siltadi Divangard. – Men, chindan ham, bobongni shaxsan tanir edim...

– U siz haqingizda faqat iliq fikr bildirgan edi, ser, – ta'kidlab qo'ydi Malfoy. – Sizga bas keladigan damlamachini bilmagan ekan...

Garri Malfoyga diqqat-la razm solib, uning xushomadligidan emas (chunki u hamisha Sneggning oldida laganbardorlik qilib o'rganib qolgan), holati qandaydir betob ko'rinayotganidan hayron bo'ldi. Uni anchadan buyon yaqin masofada ko'rmagan ekan. Ko'zining tagi qorayib, yuzi qandaydir kulrang tus olibdi.

– Sen bilan yolg'iz qolib gaplashmoqchiman, Drako, – gapga aralashdi Snegg.

Qo'ysang-chi, Severus, dedi hiqichog'i tutib qolgan Divangard – Rojdestvo nishonlanayotgan bo'lsa... qattiqqo'l bo'lma...

– Men Malfoy tahsil ko'rayotgan fakultet mudiri bo'lsan, – gapni kesdi Snegg. – Qattiqqo'l yoki yumshoqqo'l bo'lishni o'zim hal qilaman. Drako, ortimdan.

Ikkalasi nari ketdi. Snegg oldinda, xafa bo'lgan Malfoy esa ortda bordi. Garri biroz ikkilanib turdi-da, Lunaga yuzlanib pichirladi:

– Men hozir qaytaman, Luna. Men... qisqasi, qo'limni yuvib kelaman.

– Yashi, – quvnoq ohangda javob berdi qiz va uning mulohazasiga katta qiziqish bildirgan professor Trelani bilan Kariyes fitnasiga oid mulohazasini muhokama qilishni davom etdi.

Yo'lakka chiqqan Garri kissasidan ko'rinmas plashini olib, ustiga tashladi. Atrofda hech kim yo'q. Snegg Malfoyini o'z xizmat xonasi tomon ergashtirib ketgan bo'lishi mumkin, lekin Garri har ehtimolga qarshi, har bir eshikka quloq tutib bordi. Ikkalasini qidirib topish oson kechmadi. Nihoyat, u yo'lakdagi oxirgi sinf xonasida tanish ovozlarni eshitib, sevinganidan bir

sakrab qo'ydi.

– ... xatoga yo'l qo'yib bo'lmaydi, Drako. Axir, seni maktab o'quvchilari ro'yxatidan chetlashtirib yuborishlari...

– U ishga mening daxlim yo'q, tushunarlimi?

– Umid qilaman. G'ayritabiiy ravishda, ahmoqona ish tutilgan. Seni shundoq ham daxldorlikda gumon qilishmoqda...

– Kim? – darg'azab o'shqirdi Malfoy. – So'nggi bor aytaman, u ishga daxlim yo'q, tushunarlimi? O'sha qizning, Bellmidi, balkim, birov bilmas dushmani bordir... Menga bunday qaramang! Ichingizdagini bilaman, ahmoq emasman! Faqat qo'lingizdan kelmaydi, yo'l qo'ymayman!

Oraga sukunat cho'kdi.

– A... ko'ryapman, – dedi Snegg. – Bellatriks xolang okklumensiyani o'rgatib qo'yibdi-da? Qaysi niyatlaringni yashiryapsan sohibingdan, Drako?

– Undan hech narsa yashirganim yo'q. Siz aralashingizni istamayman!

Garri qulog'ini qulf teshigiga qattiqroq bosdi. Nima uchun hamisha ehtirom-la qarab, orqasidan laganbardorlik qilib yurgan Snegg bilan endi bunday ohangda gaplashadigan bo'lib qoldi, Malfoy?

– Gap bu yoqda, degin?! Shuning uchun semestr davomida mendan qochib yurgan ckansan-da. Aralashib qolishimdan qo'rquyapsanmi? O'zing bilasan, Drako, agar men birovni o'z xonamga chaqirgan bo'lsam-u, u kelmasa...

– Jazolang meni! Borib, ustimdan Dambldorga arz qiling! – o'shqirdi qildi Malfoy.

– Unisini ham, bunisini ham qilmasligimni yaxshi bilasan, – dedi Snegg, biroz sukut saqlagach.

– Unday bo'lsa, meni xonangizga chaqirishni bas qiling!

– Gapimga quloq sol, – dedi Snegg juda past ovozda. – Senga yordam bermoqchiman. Seni himoya qilish borasida onangga so'z berganman. Buzilmas qasam ichganman, men, Drako...

– Uni buzishingizga to'g'ri keladi. Chunki men sizning himoyangizga muhtoj emasman! Zimmamda sohib tomonidan

yuklangan vazifa bor. O'sha vazifa shaxsan menga topshirilgan va men uni bajaraman. Topshiriq ijrosiga oid o'z rejam ham bor, pand bermaydi! Faqat men o'ylagandan ko'proq vaqt talab etilmoqda, xolos!

– Qanaqangi reja ekan, u?

– Ishingiz bo'lmasin!

– Nima qilmoqchi bo'lganingni aytsang, senga yordam beraman...

– Yordamchilarim bor, rahmat, yolg'iz emasman!

– Biroq bugun yolg'iz eding va bu o'ta ketgan ahmoqlikdan o'zga narsa bo'lmadi. Qasr yo'laklarida qo'riqchilarsiz, madadsiz izg'ib yurishing! Xato yo'l tutib...

– Krabbe bilan Goylni mehnat jazosiga tortmaganingizda, ikkalasi yonimda bo'lar edi!

– Sekinroq! – ovoz ko'tardi Snegg, qichqirib yuborgan Malfoyga. – Agar do'stlaring yovuz kuchdan himoya fanidan MOSDning zaruriy saviyasiga ega bo'lish uchun imtihonni muvaffaqiyatli topshirishni niyat qilishgan bo'lishsa, ular o'z ustida ko'proq ishlashlari lozim.

– Farqi nima?! – yana qichqirdi Malfoy. – Yovuz kuchdan himoya emish... Mazax va munofiqlikdan o'zga narsa emas! Xuddi birortamizga ulardan himoyalaniş kerak bo'lganday...

– O'sha munofiqlik muvaffaqiyatga erishishimiz yo'lidagi hayotiy muhim masaladir, – javob berdi Snegg. Agar o'zimni ularning tarafdori sifatida ko'rsatib yurganimda, nima deb o'ylaysan, qayerda o'tkazgan bo'lar edim shuncha yillarni? Endi mening gapimni eshit! Oqshomda yo'lakka chiqib, buning ustiga qo'lga tushib, o'ta ehtiyotsiz ish tutding. Agar Krabbe bilan Goylga o'xshagan yordamchilarga tayanayotgan bo'lsang...

– Nafaqat. Tasarrufimda ulardan durustroq yordamchilarim ham bor.

– Shunday ekan, nega o'shalar qatori menga ham ishonch bildirmaysan? Men senga ancha...

– Bilaman, nimani niyat qilganingizni juda yaxshi bilaman! Mening shuhratimni o'g'irlab olmoqchisiz!

- Yosh boladay fikr yurityapsan, - dedi Snegg sovuq ohangda, biroz sukut saqlab turgach. - Tushunaman, otangning hibsga olingani seni...

Malfoyning qadamini eshitgan Garri ichkarida nima bo'layotganini anglab yetishga bazo'r ulgurdi. Eshik lang ochilishidan atigi bir nafas oldin o'zini chetga otdi.

Divangardning xizmat xonasini chetlab o'tgan Malfoy yo'lak bo'ylab shiddat-la odimlagancha, muyulish ortiga o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Garri deyarli nafas olmay bukilib turdi. Yuzi tushunarsiz qiyofa kasb etgan Snegg sinf xonasidan asta chiqib, bayram nishonlanayotgan xonaga kirib ketdi. Garri esa eshitgan gapini idrok etgancha, ancha vaqtgacha o'tirgan joyida qoldi.

XVI BOB

NIHOYATDA SOVUQ ROJDESTVO

Boshpana derazasi ortida qalin qor yog'moqda.

- Snegg Malfoyga o'z yordamini ochiqdan ochiq taklif qildimi? - hayron bo'ldi Ron.

- Agar yana bir marta so'raydigan bo'lsang, g'ijinib g'uldiradi Garri, - mana bu o'simlikni biron yeringga tiqib qo'yaman...

- Aniqlik kirityapman, xolos! - ovoz ko'tardi Ron.

Ikkovlon missis Uesli uchun oshxona chig'anog'i oldida sarsabil¹ tozalamoqda.

- Ha, Snegg unga o'z yordamini taklif qildi, - dedi Garri, har bir so'zini dona-dona talaffuz etib. - Onasiga bu borada va'da qilgani, allaqanday Buzilmas qasammi, shunga o'xshash qasam ichganini aytdi.

¹ *Sarsabil* (*forscha*, jannatdagi buloq nomi; so'f, jannatiy suv) - unib chiqqanlar (yer ostidagi) yosh poyasi va novdalari sabzavot sifatida ovqatga ishlatiladigan ko'p yillik o'simlik.

Buzilmas qasam? – yanada hayratlandi Ron. – Bo‘lishi mumkin emas!... Ishonching komilmi, shunday deganiga?

Ha, komil, -- dedi Garri. -- Nima edi?

-- Buzilmas qasamni buzib bo‘lmaydi!

-- Bilasanmi, balkim, kulging qistar-u, buni men shundoq ham yaxshi tushunib yetdim. Buzilsa, nima bo‘ladi: shundan gapir.

-- Til tortmay o‘ladi, -- soddagina tushuntirish berdi Ron.

-- Esimda... o‘shanda endigina besh yoshga to‘lgan edim. Fred bilan Jorj menga Buzilmas qasam ichirmoqchi bo‘lishdi... Qasam ichishimga sal qolgan edi ham... Fred ikkalamiz qo‘l ushlashib turgan edik, kutilmaganda dadam kelib qoldi. Qilayotgan ishimizni ko‘rdi-yu, oyimday quturib ketdi! -- dedi u, shirin xotiralarni eslagancha, ko‘zi aylanib. -- Dadamning unday vajo-hatini qayta ko‘rmaganman. Qisqasi, Fredning gapiga qaraganda, o‘sha kundan e‘tiboran dumbasining chap yarmi o‘ng yarmidan farq qiladigan bo‘lib qolibdi.

-- Xo‘p, yaxshi. Fredning dumbasini o‘tkazib gapir-ganda-chi?

-- Tushunmadim, qayerimni o‘tkazib yuborganda? -- eshitildi Fredning ovozi.

Oshxonaga egizaklar kirib kelishdi.

-- Jorj, mana bu ikkalasini qara, sarsabilni qo‘lda toza-lashyapti! Bechora kichkintoylar!

-- Ikki oydan sal o‘tsin, o‘n yettiga to‘laman, -- po‘ng‘il-ladi Ron. -- O‘shanda barcha ishlarni sehr-jodu vositasida baja-raman!

-- Ungacha esa, -- kursiga astoydil joylashdi Jorj oyog‘ini stol ustiga qo‘yib, -- har xil asboblardan qanday foydalanish kerakligini o‘rganib olamiz... Iye, obbo!

-- Sen aybdorsan! -- yurakdan aybladi Ron, kesib olgan bosh barmog‘ini og‘ziga solib. -- Shoshmay tur, o‘n yettiga to‘lib olay...

-- O‘shanda sen o‘z mahorating ila jamiki jahonni larzaga keltirasan, -- esnadi Fred.

-- Ha, aytganday, Ronald, birov bilmas sehrgarlik maho-

rating haqida, – istehzo qildi Jorj, – sen va allaqanday, agar olingan ma'lumotlar rost bo'lsa, go'zallikda tengi yo'q qiz Lavanda Braun haqida qandaydir mish-mish gaplar yuribdimi?

– Ishing bo'lmasin, – dedi Ron, mamnun qiyofa kasb etgancha teskari o'girilib.

– Aqlli javob, – dedi Fred. – Qanday o'ylab topasan, a, bunday javoblarni? Biz shunchaki bilib qo'ymoqchi edik... Unga nima qilgan o'zi?

– Qaysi ma'noda? – so'radi Jorj.

– Boshiga g'isht tushganmi yo?... – qiziqdi Fred.

– Nima? – tushunmadi Jorj.

– Qanday qilib, uning miyasi bunchalik og'ir jarohatlanganini bilish qiziq-da... – dedi Fred. – Hoy, hoy, o'zingni bos!

Fred tayoqchasini erinchoqlik-la siltab, Ronning egizaklar tomon uloqtirgan pichog'ini qog'oz samolyotga aylantirib qo'ydi. O'chakishganday, aynan shu fursatda oshxonaga missis Uesli kirib qoldi.

– Ron! – qichqirdi u, jahli chiqib. – Ikkinchi ko'rmay, akangga pichoq ko'targaningni!

– Yaxshi, ko'rmaysiz, – po'ng'illadi, sarsabil tomon o'girilgan Ron.

– Fred, Jorj, kechirasiz, azizlarim. Bugun kechqurun Rem kelar ekan, xonangizga Billni sig'dirishga to'g'ri keladi.

– Muammo bo'lishi mumkin emas, – dedi Jorj.

– Modomiki, Charli kelmas ekan, chordoq Garri bilan Ronning ixtiyoriga ajratiladi. Xo'p, agar Flyorni Jinning xonasiga joylashtirsak...

– ... Jinna masrur Rojdestvo bilan, chindan ham, to'la-to'kis ta'minlanadi, – gap qistirdi Fred, po'ng'illab.

– ... hammaga yaxshi va qulay bo'ladi. Har qalay, yotgani joy topiladi, – biroz horg'in ohangda yakunladi missis Uesli.

– Demak, Persi, o'zining sovuq turqini bu yil ham ko'rsatmaydi, shundaymi? – so'radi Fred.

– Yo'q. Tushunishimcha uning qo'li vazirlikdagi ishlar-dan bo'shamaydi, – teskari o'girilib javob berdi missis Uesli.

– Yoki u bu yorug' dunyodagi eng yirik mol, – dedi Fred,

missis Uesli oshxonadan chiqib ketishi bilan. – Ikkalasidan birida, ishqilib. Hm-m... Jorj, jo'neydigan vaqt bo'libdi.

– Qayoqqa? – qiziqdi Ron. – Yordam berib yuborsangiz bo'lar edi. Sehrli tayoqchangizni bir siltab qo'ysangiz bo'ldi-yu, sizdan nima ketdi? Biz ham bo'shar edik!

– Yo'q, bunga haqimiz yo'q deb o'ylayman, – jiddiy ohangda javob berdi Fred. – Sarsabilni sehr-jodu qo'llamay tozalagan kishi tabiatan toblanadi, mag'llar-u shvaxlar hayoti naqadar qiyin kechishini ich-ichdan anglab yetishiga imkoni tug'ildi...

– ... va agar sen, Ron, odamlar yordam berishini istasang, – qo'shimcha qildi Jorj, ukasiga samolyot uloqtirib. – Sening o'rningda ularga qarata pichoq uloqtirmagan bo'lar edim. Yordam tariqasida beradigan kichik maslahatim – shu. Xo'p, mayli, biz qishloqqa chiqib kelaylik. U yerdagi gazeta do'konida bir sohibjamol qiz ishlar ekan. Qarta vositasida ko'rsatadigan ko'z-bog'lovchiligim unga sehrgarlikday ko'rinar ekan.

Takalar, – dedi qor qoplagan hovlida ketayotgan egizak akalariga derazadan qarab qo'ygan Ron, ma'yus ohangda.

Atigi o'n soniya vaqt sarf etishganida, biz ham borar edik.

– Yo'q, men bormagan bo'lar edim, – e'tiroz bildirdi Garri. – Hovlidan chiqmaslik borasida Damblorga va'da berganman.


– Ha, albatta, – dedi Ron va sarsabilning yana bir-ikkita poyasini tozalagach, so'radi: – Snegg bilan Malfoy to'g'risida Damblorga ham aytib berasanmi?

– Ularning qabih ishlariga barham berishga qodir bo'lgan har qanday kishiga aytib beraman. Damblor esa bunday kishilar ro'yxatida birinchi o'rinda turadi. Dadangga ham aytib berish niyatim bor.

– Malfoy nimalar bilan band ekanini eshitmaganing chatoq bo'libdi-da.

– Qanday eshitishim mumkin? U hatto anavi Severusga aytishdan ham bosh tortdi-yu.

Biroz sukut saqlab ishlashgach, Ron qiziqish bildirib qoldi:



– Senga dadam, Dambldor va boshqalar nima deb javob berishlarini oldindan bilasan, albatta, shundaymi? Ular: Sneggning yordam berish niyati, aslida, Malfoyning ko'zlangan maqsadidan voqif bo'lishdir, deyishlari muqarrar.

– Ohangini eshitmagan-u ular, -- dedi Garri ifodasiz. -- Hech kim bunchalik rostakam o'ynay olmaydi, hatto o'sha Snegg ham.

– Men... shunchaki... o'z fikrimni aytdim-qo'ydim-da, – yelka qisdi Ron.

– Sen o'zing ishonasanmi, menga, ishqilib? – qoshini chimirib qaradi Garri.

– Ishonaman, albatta! Chin so'zim! Lekin Snegg Ordenning sodiq a'zosi ekaniga, ularning ishonchi komil. Shunisi bor.

Garri indamadi. Bunday e'tirozlar haqida ko'p o'ylagan, hatto Germionaning javobini ham oldindan ayta oladi: «Garri, Snegg o'zini yordam bermoqchi bo'lgan kishi sifatida ko'rsatmoqchi bo'lgani ayon-u. Aslida esa Malfoyning niyatini bilib olishni istagan»...

Bu faqat tasavvurgina, xolos. Garri pinhon eshitgan suhbat haqida Germionaga aytib berishga ulgurmay qoldi. Divan-gardning bayram oqshomiga qaytganida, Germiona u yerdan chiqib ketgan ekan. Har qalay, rosa xunob bo'lgan Maklaggen shunday degan edi. Umumiy mehmonxonada ham ko'rinmadi. Faqat tong saharda, Ron bilan birga Boshpana tomon yo'l olgan paytda Germionaga masrur Rojdestvo tilab, qulog'iga, ta'tildan so'ng muhim yangilik aytib berishini va'da qila oldi. Lekin Germiona uning gapini eshitgan-eshitmaganini bilmaydi. Negaki ayni vaqtda, Garrining ortida turgan Ron Lavanda bilan juda quyuuq xayrlashayotgan edi.

Nima qilgan taqdirda ham Germiona bir narsani, u ham bo'lsa, Malfoyning niyati buzqligi-yu bundan Sneggning xabari borligini inkor eta olmaydi.

Taassufki, bugungi kungacha Garrining mister Uesli bilan bafurja o'tirib suhbatlashish imkoni bo'lmadi. U har kuni ishdan yarim kechada qaytmoqda, hatto mana, Rojdestvo oqshomida ham.

Kechqurun Ueslilar oilasi va ushbu oila mehmonlari Boshpana mehmonxonasida yig'ildi. Jinna xonani shunday bezabdiki, zal go'yo qog'oz marjonlari portlashining markaziga aylanibdi. Archa uchiga farishta mahkamlangan bo'lib, Fred, Jorj, Garri va Rondan tashqari, aslida u Rojdestvo tushligi uchun sabzi yulishga chiqib, Fredning boldirini tishlab olgan bog' gnomi¹ ekanini hech kim bilmaydi. Dong qotirilgan gnomning tanasi tillarangga bo'yaldi, bo'yiga yarasha tikilgan balet kiyimi kiydirilib, beliga mitti qanot mahkamlandi. Endi mehmonxonaga yig'ilgan mehmonlarga kal kartoshka boshli, oyog'i sertuk, o'zi nihoyatda xunuk farishta baqrayib turibdi.

Missis Ueslining eng sevimli qo'shiqchisi Selestina Uorbekning bayram konserti radio orqali uzatilib, uni hamma tinglamoqda, deya hisoblanmoqda. Yog'ochdan tayyorlangan yirik o'lchamli radioqabulqilgich xirillagan kuy taratmoqda. Flyor, aftidan, Selestinani nihoyatda zerikarli qo'shiqchi deb biladi, shekilli, pisand qilmay baland ovozda gaplashmoqda. Burun kataklarini darg'azab shishirib olgan missis Uesli esa gohgohida sehrli tayoqchasini ovoz rostlaydigan murvatga o'qtab, qo'shiq ovozini yanada ko'tarib bormoqda.

«Achchiq muhabbat-u shirin sevgiga to'lgan qozonim» nomli, deyarli jaz kompozitsiyasi² boshlangan fursatda, Fred, Jorj va Jinna uchalasi poqildoq o'ynashga jur'at eta olishdi.

Ron tajriba oshirmoqchi bo'lganday Bill bilan Flyorning xatti-harakatini zimdan kuzatib bormoqda.

Egnidagi kiyimi bir ahvolga kelib, o'zi ozib-to'zib ketgan Rem Lyupin kamin yonida, Selestinaning qo'shig'iga e'tibor qilmay, olovga qarab o'tiribdi.

– O'n sakkiz yoshligimizda ushbu qo'shiqlar ostida raqs tushar edik, – xitob qildi missis Uesli, ko'z yoshini to'qima

¹ **Gnom** – G'arbiy Yevropa xalqlari afsonalariga ko'ra, yer osti xazinalarini qo'riqlovchi maxluq.

² **Kompozitsiya** (*lotincha*: compositio – tuzish; ijod qilish) – 1) adabiy asar, san'at asari qismlarining tuzilishi, joylashishi va o'zaro munosabati, ularning qo'shilib ketishi, qo'shilgan yaxlitligi; 2) tarkibiy qismlari mazmunan o'zaro bog'lanib, birlik tashkil etgan badiiy asar, musiqa yoki rassomlik asari (*bu yerda shu ma'noda kelgan*); 3) musiqa asari yaratish nazariyasi.

dastro'molcha bilan artib. - Esingdami, Artur?

-- A-a? - seskanib ketdi, mandarin tozalab o'tirgan joyida mizg'ib qolgan mister Uesli. Ha, ha, ajoyib kuy...

U belini zo'r berib to'g'rilab olgach, yonida o'tirgan Garriga qarab qo'ydi.

-- Kechirasan, - dedi u, radio tomon imo qilib, - hozir tugab qolar.

Bu paytga kelib, Selestinaga xor jo'r bo'ldi.

-- Hechqisi yo'q, - kulib boqdi Garri. - Vazirlik qalay? Ish ko'pmi, deyman?

- Juda, - javob berdi mister Uesli. - Bama'ni ish bo'lsa ham mayli edi, indamas edim, lekin... Ikki oy ichida uch kishigina hibsga olingan va, aftidan, ularning birortasi ham haqiqiy O'limdan zavqlanuvchi emas... Faqat bu haqda hech kimga ayta ko'rma, - kutilmaganda qo'shimcha qildi u, oxirigacha uyg'onib.

- Nahotki Qo'riqchi Stenni haligacha qo'yib yuborishmagan bo'lishsa? - taajjublandi Garri.

- Afsuski, yo'q, - dedi mister Uesli. - Aniq bilamanki, Dambldor ushbu masala bo'yicha Skrimjga murojaat qilgan... ya'ni aytmoqchimanki, uni so'roq qilganlarning, baribir, ovozdand, mana bu mandarin qanaqangi O'limdan zavqlanuvchi bo'lsa, Stenni ham shunday zavqlanuvchi deb topgan... Lekin oliy toifali mansabdor shaxslarga sohaga oid jo'shqin faoliyat olib borilayotgan vaziyatni yuzaga keltirish juda zarur. Uch kishining hibsga olingani esa uch kishi yanglish ravishda hibsga olinib, qo'yib yuborilganidan ko'ra afzalroq... Biroq bu ham qat'iy sir saqlanishi lozim...

- Men hech kimga aytmayman, - ishontirdi Garri.

U sukut saqlab, gapni nimadan boshlash kerakligi haqida o'ylanib qoldi. Selestina Uorbek esa bu vaqtga kelib, o'zining «Sehring-la o'g'irlading mening qalbimni» qo'shig'ini cho'zib qoldi.

- Mister Uesli, maktabga jo'nashdan oldin vokzalda aytgan gapim esingizdami?

- Tekshirib ko'rdim, Garri. - shu zahoti javob berdi mister Uesli. - Malfoylar uyini tintuv qilib chiqdim. Foydalanish

mumkin bo'lmagan na butun, na buzuq buyum chiqdi.

– Ha, bilaman, «Bashorat-u karomat gazetasi»da o'qidim... boshqa, jiddiyoq gap aytmoqchi edim...

Garri mister Uesliga pinhon eshitgan suhbat mazmunini aytib berdi. Lyupin boshini ular tomon burib, Garrining har bir so'zini diqqat bilan tingladi.

Garrining hikoyasi yakuniga yetgach, oraga sukunat cho'kdi. Faqat Selestinagina qo'shig'ini ezmoqda.

– O'zing bir o'ylab ko'r, Garri, – gap boshladi mister Uesli. – Aslida Snegging...

– ... Malfoyga yordam berish niyati bo'lmagandir. Balkim, u shunchaki, ko'zlangan maqsaddan voqif bo'lishni istagandir, – mister Ueslining fikrini o'zi oxiriga yetkazib qo'ydi Garri. – Shunday deyishingizni bilar edim. Lekin bunga komil ishonch bildirish, aniq bilish mumkinmikan?

Bilish – bizning vazifamizga kirmaydi, – gapga aralashdi, olovga orqa o'girib, Garriga yuzlanib o'tirgan Lyupin. – Bu Damblorning vazifasi. U Severusga ishonadi va shuning o'zi biz uchun yetarli bo'lishi kerak.

– Faraz qilaylik, – e'tiroz bildirdi Garri. – Besh daqiqaga faraz qilaylik... Damblor yanglishyapti, deb.

– O'xshash farazlarni ko'p eshitganman. Oxir-pirovardida, ushbu masala Damblorga ishonch bildirish-bildirmaslik masalasiga borib taqaladi. Men Damblorga ishonaman, demakki, Severusga ham ishonaman.

– Biroq Damblor ham yanglishishi mumkin-ku, axir, – qanoatlanmadi Garri. – O'zi menga shunday deydi. Senga... – Garri Lyupinning ko'ziga tik qaradi, – Snegg, chindan ham, yoqadimi?

– Men u bilan yaxshi munosabatda ham emasman, unga nisbatan adovat ham saqlamayman, – javob berdi Lyupin. – Gapim rost, – qo'shimcha qildi u, Garrining yuzidagi ishonmaslik qiyofasini ko'rib. – Snegg, Jeyms va Sirius o'rtasida bo'lib o'tgan munosabatlardan so'ng Snegg ikkalamiz qadrdon do'st bo'lib qolmaymiz, albatta. O'zaro xafagarchiliklar juda ko'p bo'lgan. Biroq «Xogvars»da o'qituvchilik qilar ekanman.

Snegg har oyda menga parpi damlamasini tayyorlab berganini unutilib bo'ladimi? To'lin oyda, odatdagiday, azob chekmasligim uchun zarur bo'lgan o'sha damlamani benazir tayyorlab borgan.

Shunga qaramay, maxluq tusiga kiradigan odam ekaningizni «bexosdan» og'zidan gullab qo'ygan va shu bois maktabni tark etishga majbur bo'lgansan! darg'azab xitob qildi Garri.

– Ertami-kechmi, bu, baribir, oshkor bo'lar edi, – yelka qisdi Lyupin. Mening lavozimimni egallash niyati borligini esa hamma bilar edi. Binobarin, damlamani biroz noto'g'ri tayyorlab, katta zarar yetkazishi ham mumkin edi menga. Snegg unday qilmadi, aksincha, sog'ligim masalasida ko'p qayg'urdi. Undan minnatdor bo'lishini kerak.

– Balkim, Dambldordan hayiqqani uchun ham damlamani noto'g'ri tayyorlashga jur'at etmagandir, – fikr bildirdi Garri.

– Vujuding nafratga to'lib-toshgan, Garri, – miyig'ida kulib qo'ydi Lyupin, – va men seni to'g'ri tushunaman. Jeyms – qadrdon otang bo'lsa, Sirius – cho'qintirgan otang. Unday nafrat senga nasldan o'tgan. Artur ikkalamizga aytib bergan narsalarni Dambldorga ham aytib berishga haqlisan, albatta. Biroq u ushbu masalada senga tarafdor bo'lishi yoki hayron bo'lib, o'ylanib qolishini kutma. Snegg Drakoni Dambldorning amri ila so'roq qilganini ham inkor etib bo'lmaydi.

Juda baland nota olgan Selestinaning qo'shig'i nihoyat yakunladi. Radioqabulqilgich karnayidan gulduros qarsaklar yangrab, missis Uesli ham ularga jo'r bo'ldi.

– Tugagani g'ostmi? – baland ovozda so'radi Flyor. – Xudoga shukr, big'am bemaza...

– Uyqudan oldin qittay-qittay urib olsak-chi? – yanada baland ovozda taklif qildi mister Uesli, o'rnidan irg'ib turib.

Mister Uesli ichimlik olib kelgani chiqib ketdi. Qolganlar esa kerishib, endi bermalol suhbatlashishga kirishdi.

– Hozir nima bilan bandsan? – so'radi Garri Lyupindan.

– Yashirin ish bilan, – javob berdi Lyupin. – Tom ma'nodan. Shu bois xat yozmay qo'ygan edim senga, Garri. Xat yo'l-

lashim bilan o'zimni o'zim fosh etib qo'ygan bo'lar edim.

- Ya'ni?

- O'z qabiladoshlarim orasida yashadim, - dedi Lyupin va Garri tushunmaganini ko'rib, aniqlik kiritdi: - Maxluq tusiga kiradigan odamlar orasida. Deyarli hammasi Voldemortga tarafdor. Dambldor ular orasiga o'z odamini singdirishga ahd qildi va... marhamat, josus qidirib, uzoqqa borishga to'g'ri kelmadi.

Uning ovozi alam ohangi eshitilmoqda. Lyupin buni, aftidan, o'zi ham sezdi, shekilli, nisbatan iliqroq kulib boqib, davom etdi:

- Noliyotganim yo'q. Bunday ish juda zarur bo'lib, mendan yaxshiroq boshqa nomzod topish qiyin. Ammo ularning ishonchini qozonish juda mushkul masala. Gap shundaki, sehrgarlar orasida yashaganim darhol ko'zga tashlanadi. Ular esa sog'lom turmush kechiradigan jamiyatdan o'zini chetga tortib, o'g'irlik va qotillik-la kun ko'rishadi.

- Voldemort nimasi bilan qiziqtirib qoldi ularni?


Ularning fikricha, agar Voldemort hokimiyat abzalini qo'lga kiritsa, hayotlari ancha yaxshilanar emish, - tushuntirish berdi Lyupin. - Bu masalada Uolk bilan bahslashib bo'lmaydi...

- Kim u, Uolk?

- Tanimaysanmi? - beixtiyor tizzasini mahkam siqib oldi Lyupin. - Fenrir Uolk - dunyodagi maxluq tusiga kiradigan odamlar orasida eng shafqatsiz hayvon bo'lsa kerak. Uning hayotiy maqsadi - maxluq tusiga kiradigan odamlar soni sehrgarlar sonidan ko'proq bo'lishi uchun imkon qadar ko'proq odam tishlab, qonini zararlashdir. Xizmati evaziga Voldemort unga ko'proq qurbon yetkazib berishni va'da qilgan. Uolkning o'zi yosh bolalarga ixtisoslashgan... Uning fikriga qaraganda, odamlarni yoshligida tishlab, ota-onasidan ajratib olgan holda, sog'lom sehrgarlarga nisbatan nosog'lom nafrat ruhida tarbiyalash kerak emish. Voldemort uni yoshlarimizga qarshi qo'llash tahdidini solmoqda va bunday tahdidlar aksariyat hollarda, o'z samarasini bermoqda.

Lyupin biroz sukut saqlab, qo'shimcha qildi.

- Meni shu ko'ygacha solgan ham o'sha bo'ladi.



– O'sha? – hayratlandi Garri. – Qachon? Bolalik yillari-dami?

– Ha. Dadam haqorat qilgan ekan uni. Boshimga tushgan kulfatda kim aybdor ekanini men uzoq vaqt bilmay yurgan edim. Bechora, o'zini idora qila olmasa kerak, deb rahmim ham kelgan edi unga. Boshqa tusga kirish naqadar azob ekanini, o'sha vaqtda yaxshi bilib olganman. Biroq Uolk undaylar toifasiga kirmas ekan. Oy to'ladigan vaqtga kelib, ko'zlangan qurbonga yaqinroq joyga borib oladi-da, deyarli xato qilmaydi. Jamiki qabih ishlarini oldindan puxta rejalashtirib oladi. Ana shunday ablahni, Voldemort, menga o'xshaganlarning sardori etib tayinladi. «Biz, ya'ni maxluq tusiga kiradigan odamlar o'z qonimizga munosib bo'lishimiz, sog'lom odamlardan qasos olishimiz kerak!» – deydi. Arzimas pand-nasihatlarim ila o'sha Uolkka bas kela oladigan ko'yga solmayman, o'zimni.

Lekin sen soppa-sog' insonsan! – chtiros-la e'tiroz bildirdi Garri. – Shunchaki, ozgina muammong bor, xolos.

Lyupin xandon otdi.

Ba'zan sen Jeymsning o'zi bo'lasan-qolasan. U ham boshqalar oldida, ushbu holatimni «tuk bosish bilan bog'liq arzimas muammo», – der edi. Atrofdagilar, gap allaqanday ahmoqona tarbiya ko'rgan quyon to'g'risida borayotgan bo'lsa kerak, degan xayolga borishgan.

U mister Ueslining qo'lidan bir stakan yecnog¹ olib, minnatdorlik bildirgach, kayfiyati ancha ko'tarildi.

Garrining vujudini esa hayajon qamradi. Otasining ismini eshitib, ancha vaqtdan buyon Lyupindan so'ramoqchi bo'lgan gapi esiga tushib ketdi.

– Zoti past Shahzoda haqida biron nima eshitgansanmi?

– Qanaqa shahzoda?

– Zoti past, – takrorladi Garri, Lyupinni diqqat bilan kuzatib.

¹ **Yecnog** – tuxum va sut aralashmasidan tayyorlangan shirin ichimlik. AQSH va Kanadada, Janubiy va Markaziy Amerika, Yevropada mashhur. Bu Rojdestvoning an'anaviy ichimligidir. Odatiy tarkibi: tuxum, shakar, sut va qaymoq.

– Sehrgarlar olamida shahzodalar bo‘lmaydi, – kulib boqdi Lyupin. – Shunday nasliy unvon olmoqchimisiz, o‘zinga? Nazarimda, Mumtozning o‘zi yetarli bo‘lsa kerak.

– Gap men haqimda emas! – jahl qildi Garri. – O‘sha zoti past Shahzoda qachonlardir «Xogvars»da o‘qigan ekan. Mening qo‘limga o‘sha kishining damlamachilik darsligi tushib qoldi. Kitob sahifalarining hoshiyalariga o‘zi ixtiro qilgan ko‘plab afsunlarni yozib chiqibdi. Misol uchun, Levitanani...

– O, men o‘qib yurgan kezlarda o‘sha afsun juda ommalashib ketgan edi, – xotiraga berildi Lyupin. – Beshinchi sinfda biron kishi oyog‘i osmondan keltirilib havoga osib qo‘yilmagan kun bo‘lmas edi.

– Dadam ham qo‘llagan, o‘sha afsunni, – dedi Garri. – Damlaxotirada ko‘rgan edim Sneggni osib qo‘rganini.

Garri imkon qadar loqayd ohangda, gapiga alohida urg‘u bermay gapirishga urindi-yu, uddalay olmagan ko‘rinadi, suhbatdoshi kulib qo‘ydi.

– To‘g‘ri, – bosh irg‘idi Lyupin. – Lekin sho‘xlik bora-sida Jeyms yolg‘iz bo‘lmagan. Hozirgina aytganimday, o‘sha afsun juda ommalashgan edi... Ba‘zan bo‘lib turadi, shunaqasi. Nimadir birdan ommalashib, jonga tekkach, unut bo‘ladi.

– Biroq Shahzodaning o‘zi ixtiro qilgan ko‘rinadi, o‘sha afsunni, maktabda o‘qib yurganida, – gapini ma‘qullab turib oldi Garri.

– Ishonish qiyin, – e‘tiroz bildirdi Lyupin. – Afsun qo‘llash modasi boshqa modalar kabi o‘zgaruvchan bo‘ladi.

Lyupin Garrining yuziga diqqat-la razm solib chiqdi.

– Jeyms asilzoda sehrgarlar toifasiga mansub bo‘lgan, – ta‘kidlab qo‘ydi u, past ovozda. – Va hech qachon o‘zini shahzoda deb atashlarini so‘ramagan.

– Sirius ham, sen ham Shahzoda bo‘lmagansizlar, shundaymi? – ochiq-oydin so‘radi Garri.

– Bo‘lmaganmiz, bu mutlaqo aniq.

– Tushunarli, – dedi Garri, olovga tikilib. – Xayolimga... O‘sha Shahzoda damlamachilik masalasida menga juda katta yordam berdi.

– Darsligingning yoshi nechada, o‘zi?
– Bilmadim, qaraganim yo‘q.
– Shahzoda «Xogvars»da qachon o‘qiganini bilib olish mumkin, – dedi Lyupin.

Flyor Selestinani mazax qilishga ahd qilgan ko‘rinadi, kutilmaganda «Achehiq muhabbat-u shirin sevgiga to‘lgan qozonim»ni cho‘zib qoldi. Qolganlar esa missis Ueslining yuzi kasb etgan qiyofani ko‘rib, yotadigan vaqt bo‘lganini tushunib yetishdi. Garri bilan Ron ikkalasi zina bo‘ylab yuqoriga, Ronning chordoqdagi, Garri uchun ham karavot o‘rnatilgan xonasiga ko‘tarildi.

Ron deyarli bir zumda uxlab qoldi. Garri esa dastlab sandig‘ini titkilab, o‘zining «Oliy damlamachilik» darsligini chiqardi. Kitobni ochib, dastlabki sahifasida chop etilgan sanani topdi. Darslikning yoshi deyarli ellikka yetibdi. U vaqtda otasi ham uning do‘stlari ham «Xogvars»da bo‘lmagan. Hafsalasi pir bo‘lgan Garri kitobni sandiqqa otdi-da, chiroqni o‘chirib, yonboshladi. Maxluq tusiga kiradigan odamlar, Snegg, Qo‘riqchi Sten va zoti past Shahzoda haqida o‘ylab yotib, og‘ir uyquga ketdi, tushida esa uni turli-tuman sharpalar va tishlab olingan bolalarning chinqiriqlari ta‘qib etdi...

Hazillashyaptimi, u?

Seskanib ketgan Garri uyg‘onib, karavotining oyoq tomonida sovg‘alar joylangan katta tugunni ko‘rgach, ko‘zoynagini taqib, atrofga qaradi. Kichik o‘lchamli derazaning tashqi tomonini qor deyarli to‘la-to‘kis to‘sib qo‘yibdi. Deraza ro‘parasida o‘tirgan Ron esa tilla tusli qalin zanjirni tomosha qilib o‘tiribdi.

– Nima u? – hayron bo‘ldi Garri.

– Lavanda yuboribdi, – dedi Ron, hazar qilib. – Nahotki u jiddiy qabul qilayotgan bo‘lsa? Men uni...

Garri Ronning qo‘lidagi zanjirga diqqat bilan qarab, xandon otdi. Zanjir halqalaridan «Mening sevgilim» so‘zlarini hosil qilgan harflar osilib tushgan.

– Chiroyli chiqibdi, – fikr bildirdi Garri. – Sen uni taqib yurishing shart. Muhimi, Fred bilan Jorjga ko‘rsatib qo‘yishing

kerak.

– Agar ularga bu haqda og‘iz ochadigan bo‘lsang, – g‘udulladi Ron, zanjirni yostig‘i ostiga bekitib. – Men seni... seni... seni men...

– Duduq qilib qo‘yasanmi? – kuldi Garri. – Qo‘ysangchi, kim deb o‘ylayapsan meni?!

– Nahotki u bunday bema‘ni narsani taqib yurishimga ishonsa? – bo‘shliqqa qaragancha, dong qotib pichirladi Ron.

– Yaxshilab eslab ko‘r, – taklif qildi Garri. – Balkim, ikkalangiz pichirlashib yurganlaringda «Mening sevgilim» so‘zlari bitilgan bo‘yinbog‘ taqib yurishni bir umr orzu qilishingni aytgandirsan, unga?

– Umuman aytganda, biz... ko‘p gaplashmaymiz, – iqror bo‘ldi Ron. – Faqat...

– O‘pishib yuramiz, xolos, – yordamlashib yubordi Garri.

– Ha, – bosh iring‘idi Ron va biroz ikkilanib turgach, so‘radi: – Nima deb o‘ylaysan, Germiona chindan ham Maklaggen bilan uchrashib yuradimi?

– Aniq bilmayman, – javob berdi Garri. – Divangardning oqshomida ular, chindan ham, birga bo‘lishdi, lekin, fikrimcha, uchrashuvlari yaxshi o‘tmadi.

Dadillashgan Ron sovg‘alar tugunini yana titkilay ketdi.

Garri missis Ueslidan tilla tusli «Tilla chaqqon»ning tasviri tushirilgan to‘qima sviter, egizaklardan «Ueslilarning ajoyib ultrafokuslari»da sotiladigan bir quti mayda-chuyda va uy elfidan «Sohibimga Taraqqosdan sovg‘a» yozuvi bitilgan bo‘lib, po‘panak hidi anqib turgan tugun oldi.

Garri tugunga hayrat-la tikildi.

– Nima deb o‘ylaysan, ochaymi yo‘qmi?

– Xavfli narsa bo‘lishi mumkin emas. Pochta jo‘natmalarimiz hanuzgacha vazirlik tomonidan tekshirib boriladi, – javob berdi Ron, garchi o‘zi ham tugunchaga shubha ila qarab turgan bo‘lsa-da.

– Men esa Taraqqosni tabriklashni unutibman! Nima, uy elflari tomonidan Rojdestvoga sovg‘a tarqatish qabul qilingan-

mi? – so‘radi Garri, barmog‘ini tugunchaga asta niqtab.

– Germionaga sovg‘a yo‘llagan bo‘lar edi, – dedi Ron. – Vijdon azobida qiynalmay, dastlab ochib, ichida nima borligini bil.

Soniya o‘tgach, Garri karavotidan qichqirgancha irg‘ib turdi-da, nari qochdi. Tugun mitaga to‘la ekan.

– Ajoyib! – xandon otdi Ron. – G‘aroyib g‘amxo‘rlik!

– Anavi zanjiringga nisbatan, o‘lsa o‘ligi ortiq! – o‘sh-qirib berdi Garri.

Ron shu zahoti jim bo‘lib qoldi.

Nonushtaga Flyordan tashqari, hamma yangi sviter kiyib tushdi. Missis Uesli, aftidan, unga vaqt sarflashni istamagan ko‘rinadi. O‘zi esa yap-yangi, brilliant sitoralar¹ sochilgan tun osmoni tusidagi ayollar shlyapasini kiyib tushibdi.

– Bolalarim Fred bilan Jorjning sovg‘asi! – maqtandi missis Uesli. – Chiroyli, a?

– Bilasizmi, oyi, o‘z paypog‘imizni o‘zimiz yuva boshlaganimizdan buyon kundan kunga qadringizga yetib bormoqdamiz, – dedi Jorj, maqtovlarning oldini olib.

– Garri, sochingga chuvalchang yopishib qolibdi, – quvnoq ohangda ma‘lum qildi Jinna, olib tashlash uchun stol uzra egilib.

Garrining bo‘yni chuvalchangdan emas, allaqanday boshqa sababdan bijirlab ketdi.

– Naqadag‘ dahshat, – namoyishkorona seskandi Flyor.

– Darhaqiqat, – ehtiros-la ma‘qulladi Ron. – Yana qayla ketadimi, Flyor?

Samimiy xizmat ko‘rsatmoqchi bo‘lgan Ron qo‘pollik qilib, qayladonni ontarib yubordi. Bill sehrli tayoqchasini asta siltab qo‘ygan ediki, qayla havoga ko‘tarilib, joyiga qaytdi.

– Noshudlik bog‘asida anavi Bomslag‘ingdan qolishmas ekansan, – aybladi Flyor, Billni minnatdorlik-la o‘pa ketib. – Hamisha nimanidig‘ ontag‘gani ontag‘gan, u.

– Go‘zal Bomsimizni ham taklif qilgan edim, – dedi

¹ Sitora – yulduz.

missis Uesli, sabzi solingan kosani stol ustiga taraqlatib qo'y-gancha, Flyorga yeb qo'ygudek o'qrayib. – Afsuski, kelishni istamadi. Uchratmadingmi, uni Rem?

– Yo'q. To'g'risini aytganda, men muloqot qilayotgan odamlar soni keskin kamayib ketgan. – Ammo Bomsning o'z oilasi, boradigan joyi bor, shunday emasmi?

– H-m-m-m... – cho'zdi missis Uesli, – balkim shundaydir. Lekin, nazarimda, bechora qiz Rojdestvoni yolg'iz o'zi nishonlashga ahd qilgan ko'rinadi.

U Lyupinga, kelin sifatida Boms emas Flyor nasib qilganiga aybdorday, norozi qarab qo'ydi.

Qo'lidagi sanchqi vositasida Billni kurka go'shti bilan boqayotgan Flyorga qarab qo'ygan Garri, ushbu o'ziga xos kurashda missis Uesli mag'lub bo'libdi, degan xulosaga bordi va ayni vaqtda, Boms borasida aniqlik kiritmoqchi bo'lgan masalani eslab, Himoyachi yaratish ustasi bo'lgan Lyupinga murojaat qildi:

Sneggning gapiga qaraganda, Bomsning Himoyachisi o'zgarib qolibdi. Shunaqasi ham bo'lishi mumkinligini bilmas ekanman. Sababi nima bo'lishi mumkin?

Lyupin javob berishga shoshilmadi. U kurka go'shtini uzoq chaynab yutgach, asta gap boshladi:

Ba'zan... qattiq ruhiy larza tufayli... og'ir his-tuyg'ular boshdan kechgani bois...

– Uning Himoyachisi yirik, to'rt oyoqli, – daf'atan esladi Garri. -- Mabodo... – pichirladi u, – bunday holat...

– ARTUR! – kutilmaganda qichqirdi missis Uesli.

Ayol kursidan irg'ib turib, kaftini yuragiga bosgancha, ko'zini oshxona derazasidan uzmay, tashqariga qarab qoldi.

– Artur... Persi kelyapti!

– Nima? – tushunmadi mister Uesli.

Hamma deraza tomon o'girildi. Jinna esa yaxshiroq ko'rish uchun o'midan turib oldi. Chindan ham, qor qoplagan hovlida muguz gardishli ko'zoynagi quyoshda yarqirayotgan Persi Uesli odimlamogda. U yolg'iz emas.

– Artur, uning yonidagi kishi... vazir janoblari-ku!

Darhaqiqat, Persi bilan izma-iz kalovlanib kelayotgan kishining fotosuratini Garri «Bashorat-u karomat gazetasi» sahifalarida ko'p ko'rgan. Uning oq oralagan qalin sochi va egnidagi qora plashini qor qoplagan. Oshxonada yig'ilganlarning birortasi so'z aytgani ulgurmadi. Mister va missis Ueslilar bir-biriga hayrat-la tikilib qolgan fursatda ostonada Persi ko'rindi.

Oraga og'ir sukunat cho'kdi.

– Masrur Rojdestvo tilayman, oyí, – dag'al ovozda gapira oldi nihoyat Persi.

– O, Persi! – chinqirdi missis Uesli, o'g'ini bag'riga bosib.

Hassaga tayanib, ta'sirli manzarani tabassum-la kuzatib turgan Rufus Skrimj ostonada to'xtab qoldi.

– Kutilmaganda bostirib kirganimiz uchun ma'zur tuting, – dedi u, yashnab ketgan missis Uesli ko'z yoshini artgan-cha, o'girilib qaragach. – Persi ikkalamiz shu yaqin atrofda edik. Xizmatchilik, o'zingiz tushunasiz. Sizni ko'rmay, o'tib ketsak, odobdan bo'lmas edi.

Persi oilaning boshqa a'zolari bilan salomlashish istagini namoyon etmadi, xoda yutganday g'o'dayib, boshqalarga boshi uzra qarab turdi. Yuzi toshday qotgan mister Uesli bilan egizak-lar esa unga yeb qo'yguday o'qrayishmoqda.

– Marhamat, ichkariga kiring, vazir janoblari! – urina boshladi missis Uesli, shlyapasini tuzatib. – Tamaddi qilib oling: purka go'shti, puding... ya'ni...

– Yo'q, yo'q, qadrli Molli, – bosh chayqadi Skrimj. – Ovora bo'lmang! Agar Persi o'z oilasi bilan ko'rishib o'tish istagi ila oshiqmaganda, sizni urintirib qo'ymagan bo'lar edim...

– O, Persi! – oyoq uchiga ko'tarilib, o'g'lining lunjidan o'pib qo'ydi missis Uesli.

– ... biz atigi besh daqiqagagina kirib o'tishga ahd qilgan edik. Shunday ekan, sizlar Persi bilan ko'rishib oling, men hovlini bir aylanib chiqay. Agar birortangiz menga hamroh bo'lib, ajoyib bog'ingizni ko'rsatsangiz, zo'r ish bo'lar edi... A, mana, mana bu yigitcha ovqatlanib bo'lgan ko'rinadi. O'ylaymanki, men bilan sayr qilishga qarshi emas u, shundaymi?

Oshxonada hukm surgan vaziyat shu zahoti sezilarli darajada o'zgardi. Hamma nigohini Skrimjdan Garriga olib o'tdi. Vazirning makrli niyati ayon bo'ldi-qoldi. Garchi Flyor, Jinna va Jorjning likoplari ham bo'sh turgan bo'lsa-da, unga aynan Garri hamroh bo'lishi lozimligi hech kimni hayron qoldirmadi.

– Xo'p, yaxshi, – dedi Garri, o'lik jimjitlikni buzib.

Bu ikkalasi xizmat yuzasidan yaqin o'rtada bo'lib, Persi kutilmaganda o'z oilasini shunchaki ko'rish niyatini bildirganiga Garri ham shubha qildi. Ushbu tashrif zamiridagi asl maqsad – vazirning Garri bilan yolg'iz qolib, yuzma-yuz gaplashish istagidan iborat ekanini hamma tushunib yetdi.

– Xavotirga o'rin yo'q, – pichirladi Garri, o'rnidan turmoqchi bo'lgan Lyupinga. – O'zim hamrohlik qilaman, tinchlantirdi Garri, endigina og'iz juftlamochi bo'lgan mister Uesliga murojaat qilib.

– Juda soz! – dedi Skrimj, Garriga yo'l bergancha, uni oldinga o'tkazib. – Bog'ni aylanib chiqishimiz bilan Persi ikkalamiz yo'limizni davom etamiz. Tortinmang, iltimos, davom eting.

Garri hovli orqali qor qoplagan ekinlar tomon yo'l oldi. Biroz kalovlanib yurgan Skrimj esa uning yonida bordi.

Qozon shlyapa kiyib yuradigan Fujdan keskin farq qilib, zohiriy ko'rinishidan jasur jangchiga o'xshaydigan ushbu vazir bir vaqtlar vazirlikning avrorlar bo'limiga rahbarlik qilganini Garri yaxshi biladi.

– Chiroyli, – dedi bog' panjarasi oldida to'xtab, qor ostida farqlab bo'lmaydigan ekinlarga qaragan Skrimj. – Juda chiroyli bog'.

Skrimjning kuzatib turganini payqagan Garri indamadi.

– Sen bilan ko'pdan buyon gaplashmoqchi edim, – dedi vazir, bir uecha soniya o'tgach. – Bundan xabaring bo'lsa kerak deb o'ylayman?

– Yo'q, xabarim yo'q, – to'g'risini aytdi Garri.

– Ha, ha, ko'pdan buyon gaplashmoqchi edim. Biroq Dambldor seni har narsadan asrab yuribdi, – davom etdi Skrimj. – Bu tabiiy hol, albatta. Qismatingga yozilgan shuncha sinovdan

keyin, ayniqsa, vazirlikda boshdan kechirgan...

Garri javob berishni lozim topmadi.

– Lavozimni qabul qilgach, – davom etdi vazir, – sen bilan uchrashish imkonini qidirdim. Damblдор esa bunga qarshilik koʻrsatdi. Sababi, hozirgina aytganimdek, tushunarli, albatta.

Ogʻiz ochmagan Garri vazirning muddaoga oʻtishini kutdi.

– Shuncha mish-mish gap! – past ovoza xitob qildi Skrinj. – Ikkalamiz ham bilamiz, albatta, bizda baʼzan pashshadan fil yasab yuborishlarini... allaqanday bashoratga oid gap-soʻzlar... sening Mumtoz ekaning haqidagi kurakda turmas gaplar...

«Mana bu boshqa gap. Maqsadga oʻtishiga oz qolgan koʻrinadi», – xayoldan oʻtkazdi Garri.

– ... taxminimcha, Damblдор ikkalangiz, ushbu masalani muhokama qilgansiz, shundaymi?

Egatdagi gnomlar qoldirgan mayda izlar va archa uchini bezash uchun gnom qidirgan Fred tepalagan qorga qarab turgan Garri yolgʻon gapirish kerakmi-yoʻqmi: oʻylanib qoldi. Nihoyat Garri gapning rostini, aniqrogʻi, haq gapning muayyan qismini aytishga qaror qildi.

– Ha, muhokama qilganmiz.

– Shunday degin, – gʻudulladi vazir. – Xoʻsh, nimalar deddi Damblдор?

Vazir koʻzini qisib olgancha qarab turganini koʻrgan Garri oʻzini yaxlab qolgan alp atirguli – rododendron¹ ostidan bosh chiqargan gnomning xatti-harakatiga oʻlarcha qiziqqan koʻyga solib oldi.

– Maʼzur tuting, bu – professor Damblдор ikkalamizning sirimiz, – javob berdi u nihoyat.

Garri imkon qadar boʻladab ohangda gapirishga urinmoqda. Skrinj ham bunga javoban, doʻstona ruhda, yengil soʻzlar bilan.

¹ Rododendron - Alp togʻlarida oʻsadigan atirgul.

– Albatta, albatta. Sirni oshkor qilishingni istamayman ham... aslo... Umuman aytganda, sen Mumtoz yoki Mumtoz emasliging u qadar jiddiy ahamiyatga ega emas-ku, shunday emasmi?

Garri vazirning ushbu gapi ustida atroflicha mulohaza yuritdi.

– Tushunmadim, vazir janoblari, bu bilan nima demoqchisiz?

– Sen uchun bu favqulodda muhim, albatta, – kulib boqdi Skrimj. – Biroq sehrgarlar jamiyati uchun... Gap his-tuyg'ularda-yu, to'g'rimi? Ya'ni odamlarning bunday cho'pchaklarga laqqa tushishida.

Garri indamadi. Vazir nima demoqchi ekanini yuzaki anglab turibdi-yu, biroq asl maqsadga o'tishiga yordam berishni istamay, chuvalchang qidirib, rododendron ildizi yaqinida yer qazishga kirishgan gnomni tomosha qilib turaverdi.

– Hamma balo shundaki, odamlar seni, chindan ham, Mumtoz ekaningga ishonadi, – davom etdi Skrimj. – Seni qahramon deb bilishadi... Mumtozmisan sen yoki yo'qmi: lekin, darhaqiqat, qahramonsan! Necha marta sen «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ga qarshi yuzma-yuz turding? Umuman aytganda, buning ham ahamiyati yo'q, – javob kutmadi vazir. – Eng muhimi, ko'pchilik uchun sen, Garri, umid ramzisan, qismatiga «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ni yo'q qilish yozilgan kishisan... Bu esa, o'z navbatida, odamlarning ma'naviy ruhini mustahkamlamay qo'ymaydi. Ishonchim komilki, buni anglab yetganingdan so'ng vazirlikka qo'shilib, jamiyatimizda ko'tarinki kayfiyat qaror toptirishni, aytaylik, o'z burching deb topasan.

Chuvalchang topgan gnom endi bor kuchini ishga solib, o'ljasini yaxlagan yerdan sug'urib chiqarishga urinmoqda. Garri uzoq vaqt indamay turgani bois Skrimj o'z nigohini Garridan gnomga olib o'tishga majbur bo'ldi.

– Juda qiziq mavjudot, a? – fikr bildirdi u. – Xo'sh, Garri, nima deysan?

– Sizni aniq tushunmadim, – asta gap boshladi Garri. – «Vazirlikka qo'shilish», deganingizni qanday tushunish kerak?

– Ishontirib aytamanki, bu ish og‘ir kechmadi, – tushuntirish berishga kirishdi Skrimj. – Vazirlikda vaqti-vaqti bilan ko‘rinish berib turishing talab darajasida samara beradi. Aytganday, u yerda Gaveyn Robardsning suhbatini olishing uchun bir olam vaqting bo‘ladi. U mendan keyin avrorlar bo‘limining rahbari etib tayinlangan. Dolores Ambrijning aytishicha, sen avror bo‘lishni orzu qilgan ekansan. Buning qiyin joyi yo‘q...

Garri bor vujudi ila ichidagi g‘azab tashqariga qaynab chiqayotganini his etmoqda: nahotki Dolores Ambrijni vazirlikda qoldirishgan bo‘lishsa?!

– Ya‘ni boshqacha qilib aytganda, – dedi u, ayrim muham qolgan narsalarga shunchaki aniqlik kiritib olish ohangida, – meni odamlarga vazirlikka ishga qabul qilingan xodim sifatida ko‘rsatmoqchisiz, shundaymi?

– Shunday qilsak, millatning jangovar ruhi keskin ko‘tariladi, Garri.

Vazirning ovozida Garri osonlikcha rozilik berganidan yengil tortish ohangi eshitildi.

– Odamlar orasida Mumtoz ham bizning tashvishimizni chekyapti kabi fikrlar yuzaga keladi... Xalqqa umid kerak, nima-dir qilinayotgani, qandaydir choralar ko‘rilayotganiga, uni ishontirish kerak...

– Biroq men vazirlikda ko‘rinish berib boradigan bo‘lsam, – dedi Garri, hali ham boadab ohangda, – odamlar siz olib borayotgan siyosatni Garri Potter ham ma‘qullamoqda, degan xulosaga borishi muqarrar-ku, shunday emasmi?

– Umuman aytganda, ha, shunday, – qoshini chimirdi Skrimj. – Binobarin, biz istaymiz-ki...

– Yo‘q, bundan biron-bir ish chiqishiga shubha qilaman, – zaharli kulib boqdi Garri. – Gap shundaki, menga sizning ayrim qarorlaringiz yoqmaydi. Xususan, Qo‘riqchi Stenning hibsga olinishi.

Skrimj zo‘riqib, jim bo‘lib qoldi.

– To‘g‘ri tushunib yetishingni, rostini aytsam, kutganim ham yo‘q, – dedi u, g‘azabini Garrichalik yashira olmay. – Og‘ir davr og‘ir qarorlar qabul qilinishini taqozo etadi. Sen endigina

o'n oltiga to'lding...

-- Dambldorning yoshi mendan sal ulug'roq, lekin u ham Stenni Azkabandan chiqarib yuborish kerak, deb hisoblaydi, -- gapni bo'ldi Garri. -- Siz Stenni aybsiz aybdor sifatida tayinladingiz, meni esa o'z tumoringizga aylantirmoqchisiz.

Ikkovlon bir-biriga uzoq va sovuq qarab qoldi.

-- Tushunarli, -- xulosa chiqardi vazir, sovuq ohangda. -- Sen o'z qahramoning Dambldor singari vazirlikdan to'la-to'kis ajralib, muxtor ravishda ish tutmoqchisan, shundaymi?

-- Mendan foydalanishlarini istamayman, -- javob berdi Garri.

-- Sening o'ringda boshqa bola bo'lganida, vazirlik manfaatlariga xizmat qilishni o'zining sharaflı burchi deb bilgan bo'lar edi.

-- Sizning o'ringizda boshqa vazir bo'lganida, Azkabanga soxta emas haqiqiy jinoyatchilarni qamashni o'z burchi deb bilgan bo'lar edi! -- bo'sh kelmadi Garri, g'azabini yashirmay. -- Barti Sgorbsdan farq qilmaysiz. Nahotki vazirlik biron-bir ishni talab darajasida bajara olmasa? Sizlarda yo tumshug'i ostida odam o'ldirilguncha o'zini barcha ishlar ajoyib kechayotgan ko'yga solib oladigan Fujga o'xshaganlar ishlaydi yo begunoh odamlarni zindonband qilib, Mumtozni o'z safdoshi qilib ko'rsatadigan boshqa turdagi vazirlar ishlaydi!

-- Demak, sen Mumtoz emassan? -- keskin bo'ldi Skrimj.

-- Mumtoz yoki Mumtoz emasligim, u qadar jiddiy ahamiyatga ega emas, dedingiz, shekilli? -- kuldi Garri. -- Har qalay, shaxsan siz uchun.

-- Bunday deyishing kerak emas edi, -- dedi Skrimj. -- Odobsizlik qilding.

-- Yo'q, men rost gapni aytdim, xolos, -- e'tiroz bildirdi Garri. -- U qadar ko'p bo'lmagan rost gaplarimdan birini. O'lib ketishim yo omon qolishim sizni mutlaqo qiziqtirmaydi. Muhimi -- jamoatchilik fikri, siz hammani go'yo Voldemortga qarshi olib borayotgan jangda ustun kelayotganingizga ishontirsangiz bo'ldi. Men hech narsani unutganim yo'q, vazir...

U o'ng mushtini ko'tardi. Sovuq kaftining orqa tomo-

nida Dolores Ambrij tomonidan zo'ravonlik-la kesib yozdirilgan so'zlardan qolgan oq chandiq ko'rindi: «Men hech qachon yolg'on gapirmasligim kerak»

– Voldemortning qaytganini isbotlashga uringanimda, meni himoya qilganingizni eslay olmayman. O'tgan yili vazirlik negadir men bilan do'st tutinishga oshiqmagan edi.

Oraga oyoq ostidagi muzday yer kabi sovuq sukunat cho'kdi. Chuvalchangni sug'urib chiqarishga muvaffaq bo'lgan gnom, endi rododendronning pastki shoxi ustida yonboshlab olgancha, o'ljasini so'rib yotibdi.

– Damblдор nima bilan band hozir? – talab ohangida so'radi Skrimj. – «Xogvars»da bo'lmagan kunlari qayoqqa boradi?

– Tasavvur ham qila olmayman.

– Bilganimda ham aytmagan bo'lar edim, – davom etdi Garrining o'rniga Skrimj. – Shundaymi?

– Xuddi shunday, – tasdiqladi Garri.

– Iloj qancha, o'zim bilib olaman.

– Urinib ko'ring, – loqayd yelka qisdi Garri. – Siz Fujga nisbatan aqlliroqsiz-ku, shunday emasmi? Maslahatim: uning xatolaridan to'g'ri xulosa chiqaring. Chunki u «Xogvars»ning ishlariga aralashishga urinib ko'rgan edi. Oqibati o'zingizga ayon: endi u vazir emas. Damblдор esa direktorligicha qoldi. Sizning o'ringizda bo'lganimda, Dambldorni o'z holiga qo'ygan bo'lar edim.

Oraga yana uzoq sukunat cho'kdi. Skrimj sim gardishli ko'zoynagi orqali Garriga qat'iy nigoh-la tikilib turdi.

– Damblдор sening ustingda uzoq mehnat qilgani ko'rinib turibdi, – dedi nihoyat u sovuq ohangda. – Suyagingning iligigacha Dambldorning odami, shundaymi, Potter?

– Ha, shunday, – javob berdi Garri. – Buni aniq fahmlab olganingizdan bag'oyat xursandman.

Bola vazirga shartta orqa o'girdi-da, uyga kirib ketdi.

XVII BOB

ATAYIN BUZILGAN XOTIRA

Yangi yil bayramidan ko'p o'tmay, Garri, Ron va Jinna «Xogvars»ga yo'l olish uchun kamin oldida saf tortishdi. O'quvchilarni maktabga tez va xavfsiz olib o'tish maqsadida vazirlik, sayohat yo'llari tarmog'ining bir marta ishga tushirilishini tashkillashtiribdi. Bolalarni missis Uesli yolg'iz o'zi kuzatmoqda. Mister Uesli, Fred, Jorj, Bill va Flyor ishga ketishgan.

Missis Ueslining ko'zidan shashqator yosh oqmoqda. To'g'risini aytganda, Persi uydan ko'zoynagiga bo'tqa sachragan holatda otilib chiqqan Rojdestvo oqshomidan buyon deyarli tinimsiz yig'lamoqda. Bunday qahramonlikni Fred, Jorj va Jinna ko'rsatishgan.

– Yig'lamang, oyi, – yupatishga urindi Jinna, yelkasiga boshini qo'yib, ho'ngrayotgan oyisining belini silab. – Hammasi joyida bo'ladi.

– Bizdan xavotir olmang, – oyisiga, yuzini ho'llab o'pishiga imkon berdi Ron. – Persini esa umuman o'ylamasangiz ham bo'laveradi. U o'zi shunaqa – bir kam yuz. Shunday ekan, jiddiy yo'qotish bo'lmagan, to'g'rini?

Missis Uesli battar yig'lab, Garrini mahkam quehib oldi.

– Ehtiyot bo'lish, har joyga suqilmaslikka va'da ber...

– Men hech qayerga suqilmayman, – dedi Garri. – Hamma biladi, men eng xushxulq, qo'y og'zidan cho'p olmaydigan, o'ta yuvosh, mo'min-qobil bolaman.

Ko'zidan yosh oqayotgan missis Uesli hiringlagancha ortga chekindi.

– Xo'p, mayli, qadrdonlarim, yanada aqlli bola bo'lib yuringlar.

Garri zumrad rang olov ichra qadam bosib, ovozi boricha qichqirdi:

– «Xogvars»!

Uning ko'z o'ngida dastlab oshxona burchagi bilan missis Ueslining ho'l yuzi ko'rindi. Olov uni butunlay qamrab

olgach esa tamasi gir aylanib, boshqa uylar kaleydoskopi¹ ko'ringdi-yu, biron nimani ilg'ab olishga urinmay, manzara yangilanib boraverdi. Biroz vaqt o'tib, aylanma harakat sekinlashdi va nihoyat keskin to'xtadi.

Garri o'zini professor Makgonagallning xizmat xonasida ko'rdi. Panjara ustidan oshib o'tar ekan, professor o'z ishidan chalg'ib, boshini ko'tardi.

– Xayrli kech, Potter. Gilamning rasvosini chiqarmaslikka urinib ko'ring.

– Albatta, professor.

Garri ko'zoynagini to'g'rilab, sochini tuzatdi. Birozdan so'ng kamin olovida gir aylanayotgan Ron ko'ringdi. Jinnani qarshi olishgach, uchovlon professor Makgonagallning xonasini tark etib, «Griffindor» minorasi tomon yo'l oldi.

Garri yo'lakdagi derazalardan tashqariga qarab, quyosh qasr devori ortiga botayotgani, hovlidagi qor gilami Boshpana bog'idagi qor qoplamasidan qalinroq ekani, olisda, kulba oldida Xagrid Otburgutni boqayotganini ko'rdi.

– Bema'ni gap. – ishonch-la talaffuz etdi Ron, «Semiz Xola»ning ro'parasiga kelib.

Rangidan qon qochgan «Semiz Xola» Ronning baqirig'idan yuzini burishtirdi.

– Yo'q, – dedi u.

– Yo'q, deganingiz nimasi? – hayron bo'ldi Ron.

– Parol almashtirilgan, – tushuntirish berdi «Semiz Xola». – O'tinaman sendan, faqat qichqirma.

– Biz yo'q edik, qayerdan bilaylik?... – e'tiroz bildirdi Ron.

– Garri! Jinna!

Bolalarning oldiga egniga rido, boshiga shlyapa kiygan bo'lib, qo'lga qo'lqop taqqan Germiona rangi qizargancha yugurib keldi.

– Ikki soatcha oldin qaytgan edim. Xagrid bilan Otbur...

¹ **Kaleydoskop** - ichiga turli rangdagi toshi va oynachalar o'rnatib, durbinga o'xshatib yasalgan asbob o'yinchoq.

ya'ni Tovuqqanotdan xabar olib keldim, – bir nafasda ma'lum qildi u. – Rojdestvo qalay, yaxshi o'tdimi?

Ha, – shu zahoti javob berdi Ron. – Yetarlicha jo'shqin o'tdi. Rufus Skr...

– Senga beradigan narsam bor, Garri, – davom etdi Germiona, Ronga, xuddi u, bu yerda yo'qday e'tibor qilmay. – Ha, aytganday, parol. O'qish va ish.

– To'g'ri, – dedi «Semiz Xola» va tebrangancha, ortidagi tuynukni ochdi.

– Unga nima qildi? – so'radi Garri.

– Bayram kunlari sal oshirib yuboribdi, – javob berdi Germiona, odamga to'lgan umumiy mehmonxona ostonasini birinchi bo'lib hatlab o'tib. – Dugonasi Violettaga qo'shilib, mast monaxlarning¹ vino zaxirasini ichib bitiribdi. Afsun o'qish fani xonasi yaqinidagi rasmni eslaysanmi?... Mayli, buning ahamiyati yo'q, hozir...

U kissasini kovlab, matni Dambldorning dastxati ila bitilgan pergament o'ramini chiqarib uzatdi.

Garri maktubni ochib, yakka tartibdagi navbatdagi mashg'ulot ertaga oqshomga tayinlanganini o'qidi.

– Juda soz, – dedi u. – Unga va senga ham albatta, aytadigan gapim juda ko'p. Yur, joy topib o'tiraylik.

Kutilmaganda, kimdir «Ana-Ana!» – deya chirillab, xuddi yer qa'ridan chiqib kelganday, Ronning bo'yniga osildi. Lavanda Braunning qilg'ini ko'rgan xaloyiq hiringlab qo'ydi. Germiona esa uzoq kulib olgach, bo'sh stollardan birini ko'rsatdi.

– Ana stol... Biz bilan o'tirasanmi, Jinna?

– Dinni topishga va'da qilgan edim, rahmat, – rad etdi Jinna.

Jinnaning ushbu ohangida ishtiyoq eshitilmagani Garri-ning e'tiboridan chetda qolmadi. Ron bilan Lavanda esa kurash-chilar singari, bir-biriga mahkam yopishib olishgan. Ikkalasini

¹ **Monax** (*yunoncha*; yakkalangan, yolg'iz) – tarki dunyo qilib, monastirda yashovchi diniy jamoa a'zosi; rahib(a).

o'z holiga qo'ygan Garri Germionani stol tomon boshlab ketdi.

– O'zing-chi, Rojdestvoni qanday nishonlading? – so'radi Garri.

– O'rtamiyona, – yelka qisdi Germiona. – Aytishga arzigulik hodisa ro'y bermadi. Ana-Ananikida nima bo'ldi?

– Hozir aytib beraman, – va'da qildi Garri. – Germiona, balki, sen?...

– Yo'q, Garri, – ifodasiz javob berdi qiz. – Iltimos ham qila ko'rma.

– Ta'til davomida, balkim... Shunday xayolga borgan edim-da, har qalay.

– Men emas, «Semiz Xola» ichgan besh yuz yil saqlangan bir sistema¹ vinoni. Gapir, nima demoqchi eding?

Germionaning yuzi shu qadar badjahl qiyofa kasb etgan-ki, Garri Ronni unutib, Malfoy bilan Snegg o'rtasida o'tgan suhbatni aytib berishni afzal ko'rdi.

Garrining hikoyasi nihoyasiga yetgach, biroz o'ylanib qolgan Germiona gap boshladi:

– O'zing o'ylab ko'r, Garri...

– ... balkim, Sneggning Malfoyga yordam berish niyati, bo'lmagan. U shunchaki, Malfoyning niyatidan voqif bo'lishni istagan, – Germionaning fikrini tez oxiriga yetkazdi Garri.

– E-m-m... ha, – bosh irg'idi Germiona.

– Mister Uesli bilan Lyupin ham shunday fikr bildirishdi, – domangir po'ng'illadi Garri. – Lekin Malfoy qandaydir jirkanch ishni amalga oshirishni ko'zlayotganini, umid qilamanki, rad etmaysan...

– Yo'q, rad etmayman, – dedi Germiona pastroq ovozda.

– Va yuqorida aytganimdek, Voldemortning amri ila ish tutyapti?!

– Hm-m-m... ushbu ism ham tilga olindimi?

– Ishonchim komil emas, – dedi Garri, qoshini chimir-

¹ **Sistema** (lotincha: cisterna - hovuz, havza; suv ombori) – suyuqliklar, suyuq gazlar, to'kiladigan mahsulotlar saqlanadigan yoki tashiladigan ko'chma yoki stansonar rezervuar, idish.

gancha, eslashga urinib. – Lekin Snegg «O‘z sohibing» deganini aniq eshitdim... sohibi Voldemort bo‘lmay, kim bo‘lishi mumkin?

– Bilmayman, – labini qimtdi Germiona. – Ehtimol, otasidir?

U uzoq-uzoqlarga qarab, xayolga shu qadar berilib ketdiki, Lavanda Ronni qitiqlab o‘tirgani ko‘ziga ko‘rinmadi.

– Lyupinning ishlari qalay ekan? – so‘radi qiz, xayolini yig‘ib olib.

– Zo‘r deb bo‘lmaydi, – dedi Garri.

U Lyupin bajarayotgan ishlar haqida qisqacha gapirib berdi.

Fenrir Uolk haqida hech eshitganmisan? – so‘radi hiko-yasini yakunlagan Garri

Eshitganman, albatta! – xitob qildi, cho‘chib ketgan Germiona. Sen ham eshitgansan, esingdami?

– Qachon? Sehrgarlik tarixi mashg‘ulotlaridami? O‘zing yaxshi bilasan, men hech qachon...

– Yo‘q, tarix darsida emas. Malfoy Borjinga o‘sha Fenrirning ismi bilan tahdid solgan edi! Uolk oilasining yaqin do‘sti bo‘lib, Borjinni kuzatib borishini aytgan!

Garri og‘zi lang ochilgancha, Germionaga baqrayib qoldi.

– Esimdan chiqibdi! Ushbu holat Malfoyning O‘limdan zavqlanuvchi ekanini isbotlovchi dalolat-ku! Aks holda u, Uolk bilan uchrasha olmaydi, unga ko‘rsatma ham bera olmaydi.

– Bularning bari juda shubhali, – chuqur uf tortdi Germiona. – Faqat, agar...

– O‘tinaman, boshlama Germiona, – dedi Garri achchiqlanib. – Bu masalada bahsga o‘rin qolmadi.

– Lekin... Malfoyning Borjinga aytgan o‘sha gapi, o‘mi yo‘q do‘q-po‘pisa ekanini ham rad etib bo‘lmaydi.

– Biror narsaga ishontirish qiyin odamsan-da, Germiona, – dedi Garri, bosh chayqab. – Mayli, ko‘ramiz hali, kim haq ekanini... Sen, Germiona va vazirlikdagilar hali eslaysiz, mening gapimni. Ha, aytganday, Rufus Skrimj bilan ham bahslashib

qolishga ulgurdim.

Oqshomning qolgan qismi yetarlicha tinch, Sehrgarlik vazirligining faoliyati tanqid qilingan holda o'tdi. Germiona ham Ron kabi o'tgan yilgi ta'qibdan so'ng vazirning Garridan yordam so'rashini o'taketgan sullohlik, deb topdi.

Yangi semestr xushxabar bilan boshlandi: ertalab umumiy mehmonxonadagi e'lonlar taxtasida yirik harflar bilan bitilgan e'lon paydo bo'libdi.

*HAVODA G'OYIB BO'LIB, PAYDO BO'LISHGA
DOIR MASHG'ULOTLAR*

Yoshi o't yettidan oshgan yoki joriy yilning 31-avgustigacha o'n yettiga to'ladigan barcha o'quvchilar Sehrgarlik vazirligining yo'riqchisi tomonidan o'tkaziladigan o'n ikki haftali, havoda g'oyib bo'lib, paydo bo'lishga doir kursda tahsil ko'rishi mumkin.

Istak bildirgan o'quvchilar o'z familiyasini quyida keltirilgan ro'yxatda qayd etishini so'raymiz.

Kursda tahsil ko'rish narxi 12 galleon.

Garri bilan Ron e'lon oldida to'plangan xaloyiq orasiga kirib, o'z familiyalarini navbat bilan ro'yxatga kiritishdi. Ron o'z familiyasini Germionaning familiyasi ostiga yozmoqchi bo'lib, patqalamini chiqargan fursatda, orqasidan pisib kelgan Lavanda qo'li bilan ko'zini to'sib, quloqni qomatga keltirar darajada chinqirdi:

– Men kimman top, Ana-Ana?

Germiona jahl-la odimlagancha nari ketdi. Ron bilan Lavandaning yonida qolishni istamagan Garri yugurgancha qizga yetib oldi. Uni taajjublantirgan narsa shu bo'ldiki, portret to'sgan tuynukdan chiqishlari bilan qiyofasi domangir, qulog'i qip-qizil Ron ham ularga tez yetib oldi. Bir og'iz so'z aytmagan Germiona qadamini tezlatib, oldinda yolg'iz ketayotgan Nevillga yetib oldi.

– Demak, havoda g'oyib bo'lish, – dedi Ron. – Bir vaqti-

chog'lik qilar ekanmiz-da, a?

Uning yuzidan ayonki, mehmonxonadagi holatini muho-kama qilish qat'iyan man etiladi.

– Bilmadim, – cho'zdi Garri, – kishi o'zi g'oyib bo'lib, paydo bo'lsa, boshqacha bo'lar-u, Dambldor bilan o'tgan bunday jarayon menga yoqmadi.

– Havoda g'oyib bo'lishga ulguraningni unutibman... Imtihonni birinchi urinishda topshirishim kerak, – dedi Ron, tashvishli ohangda. – Fred bilan Jorj topshirishgan edi.

– Charli-chi, yiqilgan emasmi?

– Ha, endi u mendan ancha katta-da, – dedi Ron, qo'l harakati ila o'zini gorillaga¹ o'xshatib. – Shu bois Fred bilan Jorj uni ko'p tanqid qilishmagan... o'zining oldida, har qalay...

– Qachon topshirish kerak, imtihonni?

– O'n yetti yoshga to'liboq. Men mart oyida to'laman, o'n yettiga.

– Lekin sen bu yerda, qasrda g'oyib bo'la olmaysan-u.

– Ahamiyati yo'q. Muhimi, o'shanda hamma biladi, agar istasam, g'oyib bo'la olishimni.

Bo'lg'usi mashg'ulotlar faqat Ronning o'zinigina haya-jonga solgani yo'q. Oltinchi sinf o'quvchilari kun bo'yi ushbu masalani muhokama qilib yurishdi. Kishining havoda g'oyib bo'lib, istagan joyda paydo bo'la olishi go'yo bebaho afzallik singari ko'rilmogda...

– Zo'r bo'ladi, agar biz osongina... – dedi Simus, bar-mog'ini tirsillatgancha, havoda g'oyib bo'lganini o'xshatib. – Ammavachcham Fergus meni hamisha shu bilan mazax qiladi. Hechqisi yo'q, hali ko'rsatib qo'yaman unga... biron daqiqa bo'lsin, tinchlik bermayman endi...

Baxtiyor tasavvurga berilgan Simus tayoqchasini haddan ortiq kuchli siltab yuborib, uchidan topshiriqda tayinlangan sof suvning kuchsiz favvorasini emas, o't o'chirish brandspoytidan²

¹ **Gorilla** (inglizcha) - G'arbiy Afrikada yashovchi yirik, kuchli, odamsimon maymun.

² **Brandspoyt** (gollandcha: brandspuit - o't o'chirish nasosi) - o't o'chirishda, bog'dorchilikda, kema va parovozlarda ishlatiladigan suyuqlik purkovchi moslama, asbob.

otilib chiqadigan qudratli suv oqimini hosil qildi. Shiftga urilib qaytgan bunday oqim professor Flitvikning ustiga tushib, qorni bilan yerga qapishtirib qo'ydi.

Xijil bo'lgan Simus, sehrli tayoqchasini sezilar-sezilmas siltab, egnini bir zumda quritib olgan professor Flitvikdan: «Men xoda siltayotgan babuin emas, sehrgarman», – so'zlarini takror va takror yozish jazosini olgach, Ron unga ma'lum qildi:

– Garri esa havoda g'oyib bo'lishga ulgurgan! Damb... e-m-m... bir kishi uni o'zi bilan olib ketgan. Parallel ravishda g'oyib bo'lib, paydo bo'lish, deyiladi bu.

– Zo'r-u! – pichirlagancha xitob qildi Simus.

Din, Simus va Nevill boshlarini Garriga, uning taassurotini eshitish uchun yaqin keltirishdi. Kun oxirigacha Garrini havoda g'oyib bo'lish jarayonida boshdan kechiriladigan hissiyotlar haqida savollarga ko'mib borishdi. Kishi o'zini noxush sezishini eshitgan bolalar dahshatga tushishsa-da, bu ularga xush yoqib, ishtiyoqlarini zig'irday bo'lsin, yo'qotishmadi. Binobarin, kechki o'n daqiqa kam sakkizgacha savol ketidan savol yog'ildi. Yakka tartibdagi mashg'ulotga o'z vaqtida yetib borishi uchun Garriga, kutubxonadan olingan kitobni zudlik bilan qaytarib berishi kerakligini bahona qilib, yolg'on gapirishga to'g'ri keldi.

Dambldorning xonasini fonuslar yoritgan. Sobiq direktorlar o'z portretlarida xotirjam mizg'ib o'tirishibdi. Damblxotira yozuv stoli ustida ishga shay holatda turibdi. Dambldorning ushbu chig'anoq ustiga qo'yilgan qo'li ko'mirdek qop-qorayib ketgan. Garri, ushbu jiddiy jarohat haqida yuzinchi bor o'ylanib qoldi-yu, sababini so'rab o'tirmadi. Bu haqda Dambldor vaqti kelib, o'zi aytib berishini va'da qilgan. Hozir Garri mutlaqo boshqa masalalarni muhokama qilishni niyat qilgan. Ammo u Snegg bilan Malfoy to'g'risida gap ochishga ulguradi.

– Eshitishimga qaraganda, ta'til kunlaridan birida sehrgarlik vaziri bilan uchrashgan emishsan? – so'rab qoldi Dambldor

– Uchrashdim, – tasdiqladi Garri. – Ammo u mendan norozi bo'lib ketdi.

– Ha, – xo'rsindi Damblдор, – mendan ham norozi u. Lekin Garri, biz ikkalamiz bunday baxtsizlikka bardosh berib, yashashni davom etishimiz kerak bo'ladi.

Garri hiringlab qo'ydi.

– Vazirlikda ishlayotganlar aslida juda zo'r kishilar ekani borasida jamoatchilikni xabardor qilib borishimni xohlar ekan, u.

Damblдор kulib boqdi.

– Bu dastlab Fujning g'oyasi bo'lgan, agar bilmoqchi bo'lsang. U o'z lavozimini qo'lda saqlab qolishga rosa urindi, qo'llab-quvvatlashiga umid bog'lab, sen bilan uchrashishga oshiqdi...

– O'tgan yili ko'rsatgan «qahramonliklari»dan so'ng-a? – jahl qildi Garri. – Ambrijdan keyin-a?

– Bunday g'oya puch bo'lib, samara bermasligini Korne-liusga ko'p aytganman. Lekin u ishdan ketgan bo'lishiga qara-may g'oya o'lmadi. Lavozimga saylanganiga endigina ikki soat bo'lgan Skrimj ham sen bilan o'tadigan uchrashuvini tashkil-lashtirishni mendan talab qilgancha turib oldi.

– Shu masala yuzasidan ixtiloflar chiqqan ekan-da, o'rta-laringda?! – xitob qildi Garri. – «Bashorat-u karomat gazeta-si»da yozishgan edi, bu haqda.

– Qanchalik g'alati eshitilmasin, tasodifan bo'lsa-da, ba'zan o'sha gazetada ham haqiqatni yozib turishadi, – dedi Damblдор. – Ha, biz aynan shu masala yuzasidan bahslashib qolganmiz. Rufus oxiri senga yetish yo'lini topa bilibdi-da, a?!

– U meni suyagining iligigacha Damblдорning odami, dedi.

– Juda qo'pol gapiribdi.

– Men esa buni o'zi uchun aniq fahmlab olganidan bag'oyat xursandligimni aytdim, unga.

Damblдор nimadir demoqchi bo'lib, og'iz juftladi-yu, fikridan qaytdi. Garrining orqa tomonidagi qo'noqda o'tirgan qaqnus Yangus past va juda muloyim musiqiy ovoz chiqarib qo'ydi. Garri Damblдорning yorqin moviy ko'zi namlanganini ko'rib, o'zini noqulay his etganidan tizzasiga qarab oldi.

– Sendan bag‘oyat minnatdorman, Garri, – dedi sal o‘tib Damblдор qat‘iy ohangda.

– Maktabda bo‘lmagan kunlaringizda qayoqqa bori-shingiz bilan ham qiziqdi, u.

Ha, bu masala unda katta qiziqish uyg‘otadi, – dedi yashnab ketgan Damblдор. Orqamdan kuzatuv tashkil-lashtiribdi. Chindan ham, juda kulgili. Ketimdan kuzatib yurishi uchun kelib-kelib Davlishni tayinlabdi. Yaxshi ish emas bu. O‘zi Davlish bir marta mening suqimni tatib ko‘rgan edi. Kamlik qilgan, shekilli, yana o‘sha ishni takrorlashga to‘g‘ri keldi.

– Qayerlarda bo‘lishingizni aniqlay olishdimi? – qiziqdi Garri, ushbu sirli masalani shu tarzda bo‘lsa ham biroz oydin-lashtirib olishga urinib.

Biroq Damblдор yarim oy shaklidagi ko‘zoynagi uzra Garriga kulib boqdi.

– Yo‘q. Senga ham erta hali. Endi mashg‘ulotga kiri-shishni taklif qilaman, agar boshqa...

– Bor, ser, – dedi Garri. – Snegg va Malfoyga tegishli masala.

– Professor Snegg, deb ayt uni, Garri.

– Xo‘p, ser. Divangardning oqshomida men bexosdan... yo‘q, aslida ularni atayin poyladim...

Damblдор Garrining hikoyasini eshitar ekan, yuzi hech qanday qiyofa kasb etmadi.

– Ma‘lumot uchun rahmat, Garri, – dedi u, biroz sukut saqlagach. – Lekin... bularning bari ahamiyatsiz bo‘lgani bois unutishing kerak.

– Ahamiyatsiz? – hayron bo‘ldi Garri. – Professor tu-shunmayapsiz, shekilli?...

– Garri, favqulodda uchraydigan aqliy qobiliyatim, gaping mazmunini to‘la-to‘kis anglab yetish imkonini berdi. – dag‘alroq ohangda javob berdi Damblдор. – Sendan biroz ko‘p-roq narsalarni tushuna olish qobiliyatimni ham inkor etib bo‘l-maydi. Takror aytaman: o‘z bilganingni men bilan o‘rtoq-lashganingdan juda xursandman, biroq ishonitirib aytaman-ki, sening hikoyangda xavotir olishga arziydigan biron-bir gap

eshitmadi.

Garri indamay, e'tirozli nigohini direktorga qadadi. O'zi nima gap? Damblдор Snegning oldiga Malfoyning niyatini fosh etib berish vazifasini qo'ygan bo'lib, Snegg orqali bor gapdan voqif bo'lib yuribdimi? Yoki o'zini xavotirga tushmagan ko'yga solmoqdami?

– Demak, ser, – ovozi xotirjam, ohangi boadab chiqqaniga umid qildi Garri. – Siz unga ilgaridek ishonasiz?

– Nazarimda, men, ushbu savolga ko'p marta bir xil mazmunda javob beraverib, yetarlicha sabr-toqat namoyon etdim, shekilli, – dedi Damblдор, endi o'sha sabr-toqat ohangisiz. – Javobim mazmunan o'zgaras qolgan.

– Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas-da, – eshitildi istehzoli ovoz.

Aftidan, Piniy Nigelliy shuncha vaqtdan buyon o'zini uxlayotgan ko'yga solib o'tirgan ko'rinadi. Damblдор unga e'tibor qilmadi.

– Garri, mashg'ulotga kirishishni talab qilaman. Ikkalamiz nisbatan muhimroq masalalarni hal etishimiz kerak.

Garrining vujudini isyon qamradi. Agar mavzuni almashtirish niyati bo'lmasa-chi, Malfoy haqidagi gaplarni davom etib, o'z fikrini qat'iy yoqlashni istasa-chi?

– Oh, Garri, Garri, – bosh chayqadi Damblдор, uning fikrini uqib olganday. – Bunday holatlar eng qadrdon do'stlar orasida ham bo'lib turishi, har biri o'z fikrini boshqalarning fikridan muhimroq deb hisoblashini bilsang edi!

– Fikringizni muhim emas deb topmayman, ser, – quruqqina javob qildi Garri.

– Haq ayting, Garri. Chunki bu fikr juda muhimdir, – dedi Damblдор yengil ohangda. – Bugun senga ikkita xotira ko'rsatishim kerak. Ikkalasi ham nihoyatda katta mashaqqat-la qo'lga kiritilgan. Ayniqsa, ikkinchi xotira. Fikrimcha, u yig'ilgan jamiki xotiralar orasida o'ta muhim ahamiyatga ega.

Ishonchi bepisand qoldirilgan Garri hamon achchiqlanmoqda. Biroq munozarani davom etadigan bo'lsa, nimaga erishishini yaxshi idrok etib, indamay qo'ya qoldi.

– Shunday qilib, – jarangdor ovozda gap boshladi Damblдор, – o‘tgan safar biz Tom Reddlni deyarli «Xogvars» ostonasida qoldirgan edik. Bugun o‘sha hikoyani davom etamiz. Reddl aslida sehrgar ekanidan katta quvonch-la xabar topgani, Diagon xiyobonida unga hamroh bo‘lishimdan bosh tortgani, «Xogvars»da o‘g‘irlik masalasiga murosasiz qaralishi haqida uni ogohlantirib o‘tganimni yaxshi eslaysan, albatta. O‘quv yili boshlandi. Usti yupun, yuvosh boladay ko‘ringan Tom Reddl maktabga kelib, el qatori saralash safiga qo‘shildi.

Damblдор, qoraygan qo‘lini ko‘tarib, boshi ustidagi tokchada yotgan qadimiy shlyapaga o‘qtadi.

– Saralovchi shlyapa boshiga kiydirilishi bilan Tom Reddl «Slizerin» fakulteti o‘quvchilarining ro‘yxatiga kiritildi, – davom etdi u. – Ushbu fakultetning mashhur asoschisi ham ilon tilida bemalol so‘zlasha bilganidan qachon voqif bo‘lganidan xabarim yo‘q. Balkim, maktabda o‘tgan birinchi kechaning o‘zida bilib olgandir. Biroq ishonchim komilki, ushbu holat Reddlni yana quvontirib, o‘z qobiliyatiga o‘zi bergan bahoni o‘zi oshirib yuborishiga sabab bo‘lgan. Tabiatidagi g‘ayrioddiy xususiyati ila sinfdoshlarini qo‘rqitish yoki lol qoldirishga uringan-urinmaganini ham bilmayman. Har qalay, o‘qituvchilarga bunday mish-mish gaplar yetib kelmagan. Shunisi aniqki, Reddl muttaham yoki tajovuzkor tabiatga ega bo‘lmagan. Noyob iste’dodli, barno va ustiga-ustak yetim o‘sgan Reddl, tabiiyki, hammaning e‘tiborini o‘ziga jalb eta bilgan va ilk kunlardan e‘tiboran jamiki o‘qituvchilarning mehrini qozona olgan. U hamisha vazmin, boadab, bilimga chanqoq va deyarli hammada ijobiy taassurot qoldirishga muvaffaq bo‘lgan.

– Yetimxonadagi birinchi uchrashuvingiz haqida hech kimga aytib bermadingizmi?

– Yo‘q, Garri. Reddl zig‘irdek bo‘lsin, tavba qilish alomatini namoyon etmadi. O‘tmishda yo‘l qo‘ygan gunohlaridan oz bo‘lsa ham uyalayotgau, hayotini yangitdan boshlashni xohlagan bo‘lishi mumkin degan xayolda, unga imkon berishga ahd qildim.

Damblдор gapini to‘xtatib, Garriga savol nazarida qara-

di. Bola gapirmoqchi bo'lib, og'iz juftladi. Mana marhamat, Dambldor, sog'lom fikrga zid ravishda, bir yaramasga shafqat qilishga ham tayyor.

– Lekin siz unga to'liq ishonmagansiz, shundaymi? – esladi Garri. – Buni menga o'zi aytgan... ya'ni o'sha kundalikdan chiqqan Reddl: «O'ylaymanki, Dambldor bor gapning fahmiga yetgan. Barcha o'qituvchilar meni juda yoqtirsa, Dambldor meni xush ko'rmas edi», – degan edi.

– Aytishim mumkinki... boshqalardan farqli o'laroq, so'qir bo'lib qolish darajasigacha xush ko'rmaganman, uni, – javob berdi Dambldor. – Esingda bo'lsa, Reddlni kuzatib borishga ahd qilganimni aytgan edim. Iqror bo'lishim joizki, uni dastlab ko'p o'rgana olmadim. Tom Reddl, aftidan, o'z tabiatining asl mohiyatidan xabar topib, menga haddan ortiq ochilib yuborganini idrok etgach, men bilan muloqotda endi ehtiyotkorona ish tuta boshladi, o'tmishiga oid boshqa biron gap aytmadi, biroq aytgan gapini ham, missis Koulning u haqda bildirgan fikr-mulohazalarini ham takrorlashiga erisha bilmadi. Qisqa aytganda, u hamkasblarimni o'ziga rom qilib olish usullarini menga nisbatan ham qo'llashga urinmadi.

Dambldor biroz o'ylanib turgach, hikoyasini davom etdi.

– O'quvchilik yillarida Reddl o'z davrasiga unga sodiq o'rtoqlar guruhini yig'di. Boshqa so'z topilmagani bois ularni shunday deb nomlashga majburman. Ilgari ta'kidlab o'tganimdek, Reddl ularning birortasiga ham iliq, do'stona munosabat bildirmagan. Ushbu shaxslar doirasi yovuz va shu bilan birga, jazb etadigan jozibaga ega, tarkibi turlicha bo'lgan. Xususan, himoyaga muhtoj zaiflar, Reddlning shon-shuhratiga sherik bo'lishga umid qilgan kibr-havoli shaxslar, yuksak mahorat-la amalga oshiriladigan shafqatsizlikka qodir bo'lib, yetakchiga ehtiyoj sezgan tabiatan tajovuzkor nusxalar, boshqacha qilib aytganda, o'zidan kam farq qiladigan bugungi navkarlari ergashdi. Darhaqiqat, «Xogvars»ni tamomlashgach, ularning aksariyati O'limdan zavqlanuvchilarning ilk guruhini tashkil etdi. Reddl ushbu ulfatlarining xatti-harakatlari ustidan qat'iy nazorat o'rnatgan bo'lib, yovuzlikni ochiqdan ochiq amalga oshirishga yo'l

qo'ymagan. Garchi Reddl yetakehilik qilgan doiraning bevosita daxldorligi hech qachon fosh etilmagan bo'lsa-da, «Xogvars»da o'tgan o'sha yetti yil ichida noxush hodisalarning ko'pdan ko'p soni qayd etilgan. Yuz bergan eng jiddiy jinoyat – Maxfiy xonaning ochilishi bo'lib, begunoh qizning o'limi ila yakun topgan. Bunda, o'zingga ma'lum, Xagrid aybdor deb topilgan.

Dambldor qovjirab qolgan qo'lini damblxotira ustiga qo'ydi.

– «Xogvars» o'quvchisi Tom Reddlga taalluqli, shu kungacha yig'ishga erishgan ma'lumotlarim soni juda kam. Ko'pchilik Reddl bilan bog'liq xotirasi bilan o'rtoqlashishdan hayiqadi. Men yig'gan xotiralar ko'pdan ko'p sa'y-harakatlar evaziga, Reddl «Xogvars»ni tamomlagandan so'ng qo'lga kiritilgan. Kimnidir ayyorlik-la ko'ndirdim, nimanidir eski xotiralar orasidan qidirib topdim, ayrim narsalarni sehrGAR va magllarni so'roq qilish natijasida bildim. Men ko'ndira olgan odamlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Reddl o'z ota-onasini surishtirib bilishga intilgan. Chunki u yetimxonada o'sgan va bunday holatga olib kelgan sababni bilishni istagan. U o'z otasi Tom Reddlning ismini maktab o'quvchilari erishgan sovrinlar saqlanadigan xonadagi yorliqlar orasida qidirib, ijobiy natijaga erishmadi. Maktab arxivida saqlanadigan sinfboshilar ro'yxatini o'rganib chiqdi va hattoki sehrGARlik tarixi darsligini boshidan oxirigacha o'rganib chiqdi, va nihoyat, otasi Tom Reddl «Xogvars» ostonasini hech qachon xatlab o'tmaganini tan olishga majbur bo'ldi. Fikrimcha, aynan o'sha yili u o'z ismidan voz kechib, Lord Voldemort nomiga almashtirdi. Shundan so'ng u ilgari hazar qilgan onasi va uning oilasini qidirishga kirishdi. Tom Reddlning fikricha, o'limdek, insonning uyat sanaladigan zaiifligiga berilib qolgan onasi afsungar bo'lishi mumkin bo'lmagan.

Dambldor to'xtab, biroz xayolga berildi.

– Yetimxonada Reddlga onasining otasi Mervolon ismli shaxs bo'lganini aytishgan, – davom etdi u. – Ushbu ma'lumotga tayanishga majbur bo'lgan Tom Reddl, qadimiy sehrGARlarning shajaralarini o'rganib chiqishga kirishdi va nihoyat Salazar Slize-

rinning avlodlari hamon tirik ekanidan xabar topdi. Hayotining o'n oltinchi yilida, har yilidek, yozgi ta'tilni o'tkazgani yetimxonaga qaytgan Reddl, ona tomoniga mansub qarindoshlari -- Monsterlar oilasini qidirib topish maqsadida muassasa hududini tark etdi. Ana endi, Garri, o'rningdan turishing mumkin...

Garri o'rnidan qo'zg'algan Dambldorning qo'lida sadaf tusli xotiraga to'lgan billur shishacha ko'rdi.

– Buni qo'lga kiritganim – omadimdir, – dedi Dambldor, yaltiroq moddani damblxotiraga quyib. -- Hozir o'zing tushunib olasan. Xo'sh, ketdikmi?

Garri marmar chig'anoq tomon qadam bosib, itoat-la egildi. Yuzi xotira sirtiga tegishi bilan odatdagiday, bo'shliqqa uchib tushib, tosh to'shalgan iflos polga qo'ndi. Atrof deyarli qop-qorong'i.

Bu yer qanaqangi joy ekanini tushunib yetish uchun Garriga bir necha soniya kerak bo'ldi. Monsterlar uyi tasavvurga sig'mas darajada qarovsiz holatga kelib qolgan. O'xshash ahvolni Garri hali umrida ko'rmagan. Shiftdan o'rgimchak uyining nihoyatda qalin to'ri osilib tushibdi. Polni qalinligi bir qarich keladigan chang qoplabdi. Sirtidagi kir baliq tangasiday qalinalashgan idish-tovoqlar stol ustida uyilib, orasida chirib, po'panak bosgan yegulik ko'rinyapti. Yagona yorug'lik manbasi sifatida, soch-soqoli o'sib, ko'zi-yu og'zini to'sib qo'ygan erkak kishining oyog'i ostidagi sham qoldig'i xizmat qilmoqda.

Uy sohibi kamin yonida, qandaydir g'alati bo'shashgan holatda yotibdi. Dastlab u Garrining ko'ziga, murdaga o'xshab ko'rindi. Eshik qattiq taqillagach, seskanib uyg'onib, o'ng qo'lidagi sehrli tayoqchasi, chap qo'lidagi pichoqni, tahdid solishga shay holatda ko'tardi.

Eshik g'ichirlab ochildi. Ostonada, Garri darhol tanigan, qo'lga qadimiy fonus ushlab olgan novcha bo'yli, yuzi rangpar, sochi qora barno yigit – Tom Reddl paydo bo'ldi.

Voldemort kulbani shoshmasdan ko'zdan kechirib chiqqach, nigohini kresloda o'tirgan kishida to'xtatdi. Ular bir-biriga biroz tikilib qoldi. Nihoyat uy sohibi oyog'i ostida to'plangan bir dunyo shishani jaranglatgancha, o'rnidan bazo'r tura oldi.

– Sen? SEN? – o‘kirdi u va tayoqcha bilan pichoqni oldinga uzatgancha, Voldemort tomon qadam tashladi.

– To‘xta.

Kutilmaganda ilon tilini eshitgan uy sohibi idish-tovoqni yerga ontarib yuborgancha, stolga tiralib, Reddlga baqrayib qoldi.

– Sen ilon tilida gapira olasanmi? – hayron bo‘ldi uy sohibi.

– Ha, gapira olaman, – javob berdi Reddl, ostona hatlab o‘tib.

Uning ortida qolgan eshik o‘zidan o‘zi yopildi. Buni ko‘rgan Garri beixtiyor tahsin o‘qidi. Voldemort hech narsadan qo‘rqmayotgani ayon. Aftidan, hafsalasi pir bo‘lgan, shekilli, hazar qilayotgani yuzidan ko‘rinib turibdi.

– Mervolon qani? – so‘radi u.

– O‘lib ketgan, – javob berdi uy sohibi. – Ancha bo‘ldi, bilmasmiding?

O‘zing kim bo‘lasan? – qoshini chimirdi Reddl.

– Men Morfin, bilmasmiding?

– Mervolonning o‘g‘limisan?

– O‘g‘liman, albatta. Yana kim bo‘lishim mumkin?

Morfin Reddlni durustroq ko‘rish uchun chirmashib ketgan iflos sochini orqaga tashladi. Garri uning o‘ng qo‘lidagi Mervolonga tegishli qora tosh ko‘zli uzugini ko‘rib qoldi.

– Seni anavi magl deb o‘ylabman, – pichirladi Morfin. – Quyib qo‘yganday o‘xshar ekansan.

– Yana qanaqa magl? – ovoz ko‘tardi Reddl.

– Singlimni boshini aylantirgan, anavi yerda, katta uyda yasnaydigan Reddl-da, yana qaysi magl bo‘lar edi? Lekin endi u qarib qolgan bo‘lsa kerak, a? Yoshli sendan ancha ulug‘roq...

Esankirab qolgan Morfin stolga suyangancha, tebrarmoqda.

– U singlimni tashlab, uyiga qaytib keldi, tushundingmi? – qo‘shimcha qildi u.

Voldemort Morfindan ko‘z uzmay, baho berayotganday qarab turibdi.

– Reddl qaytib keldi? – so‘radi u yaqinroq borib.

– Ha, singlimni qayergadir tashlab, qaytdi. Ajab bo‘lsin. Iflosga erga tegish qanday bo‘lishini tushunib oladi endi! – baqirdi Morfin, yerga tupurib. – Xonadon mulkini ham o‘g‘irlab ketdi. Qani medalyon, a? Slizerinning medalyoni qani?

Voldemort sukut saqlab, tog‘asining gapini tinglab turdi. Morfin esa tayoqchasi-yu, pichog‘ini siltab, o‘zini o‘zi vasvaslik darajasiga yetkazib bordi.

– Isnod keltirdi bizga suyuq oyoq! Sen kimsan o‘zi? Uyimga bostirib kirib, meni so‘roq qilyapsan?! Hammasi unut bo‘lgan, unut, tushundingmi, unut bo‘lgan.

Morfin tebranib, boshi beixtiyor yon tomon burildi. Shu fursatda Voldemort oldinga tashlanib, xonani g‘alati zulmat qop-ladi. Voldemortning fonusi ham Morfinning shami ham ko‘rin-may qoldi.

Damblдорning panjasi Garrining qo‘lini mahkam siqdi. Ikkovlon bo‘shliqda uchib, ko‘zni yirtib yuborguday zulmatdan so‘ng Garrining ko‘zini Damblдорning xizmat xonasidagi tilla tusli xira yorug‘lik qamashtirdi.

– Bori shumi? – so‘radi Garri. – Nima bo‘ldi o‘zi? Nima uchun xona qorong‘ilashib ketdi?

– Chunki Morfin boshqa hech narsani eslay olmadi, javob berdi Damblдор, o‘tirishga imo qilib. – Ertalab u polda yotgan holatda hushiga kelgan. Mervolonning uzugi esa yo‘qol-gan. Shu vaqtda, Reddlarning xizmatini qilib yurgan oqsoch ayol Kichik Viselton qishlog‘ining bosh ko‘chasi bo‘ylab yugur-gancha, katta uy mehmonxonasida uch kishining, xususan, Tom Reddlning otasi, buvisi va buvasining tanalari jonsiz yotgani haqida jar solgan. Magllar ma‘muriyati Redllar oilasi qay tarzda ajal topganini aniqlay olmay, ilojisiz holatga tushib qolgan, bili-shimcha, ushbu jinoyat ishi hanuzgacha yopilmagan. Chunki Avada Kedavra kishi tanasida ko‘zga ko‘rinadigan biron-bir jarohat qoldirmaydi... ayni vaqtda, ko‘z oldidagi chandiq yagona istisno ekanini hisobga olmaganda, albatta...

Damblдор Garrining peshanasidagi chandiqqa imo qildi.

– Sehrgarlik vazirligida esa qotillik sodir etilgani darhol

ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, vazirlik xodimlari soylikning narigi tomonida magllardan nafratlanadigan, o'ldirilgan oila a'zolaridan biriga bir vaqlar hamla qilgani uchun qamoqda o'tirib chiqqan sehrgar yashashini yaxshi bilishadi. Binobarin, ular shu zahoti Morfinning uyiga yetib kelishdi. Ta'kidlab o'tmoq joizki, vazirlik xodimlariga Morfinni so'roq qilish uchun istig'for keltirishga majbur qiladigan Iqror bo'lish damlamasini ichirish, legalimensiya qo'llash shart bo'lmadi. Morfin sodir etgan jinoyatini darhol bo'yniga olib, faqat qotilning o'ziga ma'lum bo'lishi mumkin bo'lgan tafsilotlarni aytib berdi. U o'z ishidan faxrlanishi, qotillik qilish uchun ko'pdan buyon qulay fursat poylab yurgani haqida ma'lum qildi. Shundan so'ng sehrli tayoqchasini vazirlik xodimlariga o'z qo'li bilan topshirdi. Qotillik quroli aynan shu tayoqcha ekani shu zahoti aniqlandi. So'roq nihoyasiga yetgach, Morfin biron-bir qarshiliksiz Azkabanga yo'l oldi. Otasidan qolgan uzugi yo'qolgani uni qattiq tashvishga soldi. «Uzukni yo'qotib qo'ydim, endi u meni o'ldiradi!» – dedi Morfin, qamoqqa olib ketayotgan xodimlarga. Ushbu so'zlar, atlitidan, hayotidagi so'nggi so'zlar bo'lgan. Umrining qolgan qismini u Mervolonning merosini yo'qotib qo'ygani uchun ko'z yosh to'kib o'tkazdi va Azkaban yaqinidagi, qamoqxonada jon berganlar qabristoniga qo'yildi.

– Demak, Voldemort, qotillik qilish maqsadida, Morfinning tayoqchasini o'g'irlagan ekan-da? – so'radi Garri, o'tirgan joyida qaddini tiklab.

– Xuddi shunday, tasdiqladi Dambldor. – Biroq buni tasdiqlaydigan xotira, taassufki, bizda yo'q. Lekin u aynan shunday ish tutganiga komil ishonch bildirish mumkin. Voldemort o'z tog'asiga nisbatan gangitish afsunini qo'llab, uning tayoqchasini olib ketgan. Soylikdagi «katta uy»ga borib, afsungar onasini tashlab ketgan maglni va u bilan birga o'z buvisi va buvasini yer tishlatgan. Shu tariqa, Voldemort Reddlarning inobatsiz zotini qirib tashlab, o'z o'g'lidan yuz o'g'irgan otasidan xun olgan. Shundan so'ng Monsterlar kulbasiga qaytib, murakkab sehr qo'llagan tarzda, tog'asining miyasiga soxta xotira joylagan, tayoqchasini hushsiz tanasi yonida qoldirib, qo'lidagi

uzukni yechib olgan-da, jinoyat joyini tark etgan.

– Morfin keyinchalik anglab yetmaganmi, qotillik qilganini?

– Yo‘q, -- bosh chayqadi Dambldor. – Boya aytganidek, u o‘z aybini to‘la-to‘kis bo‘yniga olib, qilgan ishidan faxrlanishini ma‘lum qilgan.

– Biroq unda, mana bu haqiqiy xotira bo‘lgan-u?!

– To‘g‘ri, lekin uni chiqarib olish uchun yetarlicha murakkab legalimensiya qo‘llashga to‘g‘ri keldi, – dedi Dambldor. – Modomiki, Morfin o‘z aybiga o‘zi iqrar bo‘lgan ekan, kimga kerak, uning xotirasiga chuqur singib kirish?! Hayotining so‘nggi haftalaridagina u bilan uchrashishga ruxsat oldim. O‘sha vaqtda men, Voldemortning o‘tmishiga doir ma‘lumotlar yig‘ib yurgan edim. Haqiqiy xotirani bir iloj qilib chiqarib, mazmunini o‘rganib chiqqach, Morfinni Azkabandan xalos etishga urindim. Ming afsuski, vazirlik qaror qabul qilguncha, u o‘z omonatini egasiga topshirib, boqiy dunyoga ravona bo‘ldi.

– Nima uchun vazirlik Voldemortni fosh eta olmadi? – darg‘azab ohangda xitob qildi Garri. – Axir, u balog‘at yoshiga yetmagan edi-yu! Bunday holatni ular bexato aniqlay oladi, deb o‘ylar edim!

– Mutlaqo haq aytding, aniqlay olishadi, faqat ijrochini emas, sehr-jodu qo‘llanilgan holatni. Senga vaznsizlik tilsimini qo‘llash aybi qo‘yilgani esingdami? Garchi, o‘sha tilsimni qo‘llagan haqiqiy aybdor...

– Dobbi bo‘lgan, – g‘udulladi, adolatsizlik alami hanuzgacha ichini timdalab qiynayotgan Garri. – Demak, agar kishi balog‘at yoshiga yetmagan bo‘lib, yoshi katta sehgarning uyida sehr qo‘llasa, vazirlik bundan bexabar qoladi, shundaymi?

– Vazirlik, sehr kim tomonidan qo‘llanilganini aniq ayta olmaydi, albatta, – kulib boqdi Dambldor, Garrining achchiqlanganini ko‘rib. – Vazirlik xodimlari ota-onalarga farzandlari o‘z uyida qoida buzmasligi ustidan nazorat olib borishiga uning qitishadi.

– Bema‘nilik, – gapni kesdi Garri. – Morfinga nima bo‘lganini qarang!

– To‘g‘ri, – bosh iring‘idi Damblidor. – Morfin qanchalik xulqi buzuvchi bo‘lmasin, qamoqxonada o‘lim topish jazosiga, qolaversa, qotillikda ayblanishga loyiq odam bo‘lmagan. Biroq kech bo‘lyapti. Men senga ikkinchi xotirani ko‘rsatishim kerak hali.

Damblidor ichki cho‘ntagidan yana bitta billur idish chiqardi. Ushbu xotira eng muhim xotira ekanini eslagan Garri jim bo‘ldi. Idish ichidagi xotira xuddi quyuqlashib qolganday, damblxotiraga tushishi qiyin kechyapti.

«Nahotki xotira ham aynib qolsa?!» – xayoldan o‘tkazdi Garri.

– Bu ko‘p vaqtni olmaydi, – dedi Damblidor, idishni bir amallab bo‘shatgach. – Xayol o‘tmay, ortga qaytamiz. Xo‘sh, ketdikmi?

Garri kumush tusli qorong‘ilik ichra uchib, bu safar yaxshi tanish bo‘lgan kishi – yosh Goratsiy Divangardning ro‘parasida qo‘ndi.

Divangardning boshi tozligiga Garri shunchalik ko‘nikib qolgan ekanki, somon to‘shalgan tomni eslatadigan qalin, yaltiroq sariq sochini ko‘rib, ko‘ziga ishonmadi. Shunday bo‘lsa-da, boshining qoq o‘rtasida o‘lchami bir galleondek keladigan toz joy ko‘rinmoqda. Hozirgidek qalin bo‘lmagan mo‘ylovi malla rang berib tovlanmoqda. Yosh Divangard nisbatan ozg‘in bo‘lishiga qaramay, gul solib tikilgan nimchasidagi tilla tugmalarga ma‘lum darajada yuklama berilgan.

Keng tirsakqo‘ygichli yumshoq kresloga qulay joylashib, oyog‘ini duxoba qoplangan pastak kursiga qo‘yib olgan Divangard bir qo‘liga vino quyilgan qadah ushlab olgan bo‘lsa, ikkinchi qo‘li bilan ananas qand qutisini titkilab o‘tiribdi.

Yonida Damblidor paydo bo‘lgan Garri atrofga nazar solib, Divangardning xonasiga kelib qolganini angladi. Professor Divangard bilan birga nisbatan qattiqroq katta-kichik kursilarda olti nafar o‘spirin yoshidagi bola o‘tiribdi. Garri o‘ng qo‘lini kresloning tirsakqo‘ygichiga qo‘yib olgan, qolgan bolalardan novcha bo‘yligi, barnoligi va o‘zini sipo tutishi bilan ajrab turgan Reddlni darhol tanidi. Uning barmog‘idagi qora ko‘zli tilla uzuk-

ni ko'rgan Garri seskanib ketdi. Bu vaqtga kelib, Reddl o'z otasini o'ldirishga ulguribdi.

– Ser, professor Poteskans nafaqaga chiqib ketayotgani rostmi? – so'radi Reddl.

– Oh, Tom, Tom, bilsam ham aytmas edim, – shakar yopishib, oqargan ko'rsatkich barmog'ini siltab, gina ila po'pisa qilgan bo'ldi Divangard. – Qiziq, ba'zan o'qituvchilar bilmaydigan ma'lumotlarni qayerdan bilib olasan sen, a? – ko'z qisdi u.

Reddl irjaydi, qolganlar esa xandon otib, unga ehtirom-la qarab qo'yishdi.

– Bilish kerak bo'lmagan narsalarni bilish, kerakli odamlar ko'ngliga yo'l topa olish qobiliyating tahsinga sazovor. Aytganday, ananas qand uchun rahmat, chindan ham, men nihoyatda xush ko'radigan qandlardan biri...

Bolalardan qaysidir biri hiringlab qo'ydi va shu fursatda xonani qalin oq tuman qoplab, Garrining ko'ziga Dambldorning yuzidan boshqa hech narsa ko'rinmadi. Tuman ichra esa Divangardning ovozi yangradi:

– ... gapim esingda bo'lsin, bolakay, topgan yo'ling yaxshilikka olib bormaydi!

Tuman qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shu tarzda batamom barham topdi. Xonadagilar hech narsa ro'y bermaganday o'tirishibdi. Garri hayrat-la atrofga qaradi. Yozuv stoli ustidagi mittigina tilla soat o'n bir bo'lganidan xabar berdi. O'qituvchi o'girilib soatga qaradi.

– O, Xudo, kech bo'libdi-yu! – xitob qildi Divangard. – Bo'ldi bolalar, borib yotinglar. Aks holda, hammamizning gardanimizda kaltak sinadi. Lestrang, ertaga ertalab insho kutaman. Yozib kelmas ekansan, mehnat jazosiga tortilasan. Senga ham taalluqli, Eyveri.

Oyoqqa turgan bolalar chiqish eshigi tomon talpindi. Divangard kreslosidan og'ir turib, bo'shagan qadahini yozuv stoliga qo'ydi. Reddl o'qituvchi bilan yolg'iz qolish maqsadida atayin sustkashlik qildi.

– Tezlash, Tom, – dedi o'girilib qaragan Divangard. – Bemahalda ushlab olishlarini istamaysan-ku, axir. Sinfboshi

bo'lsang...

– Ser, sizdan bir narsani so'rab bilmoqchi edim.

– Unday bo'lsa tezroq so'ra, azizim, tezroq...

– Ser, siz ruhdonlar haqida nima bilasiz?

Yana o'sha holat: qalin tuman Reddl bilan Divangardni to'sib qo'ydi. Faqat Dambldorgina Garriga xotirjam kulib boqmoqda.

– Ruhdonlar haqida hech narsa bilmayman! – Divangardning bo'g'iq ovozi eshitildi yana. – Bilganimda ham aytmay edim! Endi esa yo'qol bu yerdan! Ruhdonlar haqida ikkinchi eshitmay!

– Bo'ldi, – dedi Dambldor xotirjam. – Qaytish vaqti yetdi.

Garrining oyog'i yerdan uzilib, ikki-uch soniya o'tgach, Dambldorning yozuv stoli yonida to'shalgan gilamchaga tegdi.

– Bo'ldimi? – tushunmadi Garri.

«O'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan xotira shumi? Nimasi muhim ekan uning? – xayoldan o'tkazdi Garri. – Tuman qamragani-yu, uni hech kim payqamaganimi? G'alati holat, albatta, lekin bundan boshqa hech narsa yo'q-ku?! Reddlning savoli javobsiz qolibdi, xo'p, nima qilibdi endi, osmon uzilib, yerga tushib ketibdimi?»

– Ushbu xotiraga biroz ishlov berilganini payqagan bo'lsang kerak, – dedi Dambldor, kreslosiga o'tirib.

– Ishlov berilgan? – so'radi Garri, u ham o'z joyini egallab.

– Ha, ishlov berilgani aniq, – bosh iring'idi Dambldor. – Professor Divangard o'z xotirasini atayin buzgan.

– Sabab?

– Fikrimcha, u o'z xotirasidan o'zi uyaladi, – javob berdi Dambldor. – O'zini oppoq qilib ko'rsatish niyatida, o'z xotirasining menga ko'rsatishni istamagan qismini yo'qotgan. Xotiraga o'zing shohidi bo'lganday – juda qo'pol ishlov berilgan, lekin shunisi yaxshi bo'libdi. Demak, atayin buzilgan xotira ostida, uning asl nusxasi haligacha mavjud. Shunday ekan, Garri, senga birinchi bor uyga vazifa bermoqchiman. Divangardni o'z xotira-

sining asl nusxasini, ya'ni biz uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan nusxasini berishga ko'ndirishing kerak.

– Biroq ser... – imkon qadar ehtiromli ohangda gap boshladi Garri Damblorga baqrayib. – Bu masalada sizga yaxshi yordamchi bo'la olmasam kerak... legalimensiya qo'llashingiz... yoki iqror bo'lish damlamasi...

– Professor Divangard nihoyatda boy tajribaga ega, yuqori malakali sehrgar bo'lib, uni bunday narsalar bilan cho'chitish amrimahol, – dedi Damblor. – Okklumensiya masalasida, baxti qora Morfin Monsterga nisbatan pixini yorgan usta sanaladi. Ushbu soxta xotirani menga topshirgan kundan buyon, iqror bo'lish damlamasiga qarshi ziddi-zaharni yonidan qo'ymay olib yurishidan xabar topib, lol qolgan edim. Haqiqatni kuch vositasida tortib olishga urinish ahmoqlikning o'zginasi bo'lib, ishimizga katta putur yetkazishi mumkin. Divangard arazlab «Xogvars»ni tark etishini istamas edim. Biroq unda ham, hammamizda bo'lgani kabi zaif joyi bo'lishi muqarrar va ishonchim komilki, sen, uning mudofaasini yorib o'tishga qodir bo'lgan yagona kishisan. Takror aytaman, xotiraning asl nusxasini qo'lga kiritish biz uchun juda muhim, Garri... Qanchalik muhim ekanini, uni ko'rib chiqqachgina idrok etishimiz mumkin. Senga omad... va xayrli tun.

Kutilmagan xayrlashuvdan hang-mang bo'lgan Garri tez o'rnidan turdi.

– Xayrli tun, ser.

Chiqish eshigini yopar ekan, Garri Piniy Nigelliyning e'tirozini eshitib qoldi:

– Nega endi bola, bu ishni sendan ko'ra durustroq bajara olishini hech tushunmayapman, Damblor.

– Tushunib yetishingni kutmagan edim ham Piniy, -- javob berdi Damblor.

Yangus yana past va musiqiy ovoz chiqarib qo'ydi.

XVIII BOB

TUG'ILGAN KUN SOVG'ALARI

Germiona hanuzgacha Ronga nafrat to'la nigohi ila qarab, u bor joyda ko'p qolishni istamayapti. Binobarin, ertasi kuni Garriga, Damblдор tomonidan qo'yilgan topshiriq haqida ularning har biriga alohida-alohida aytib berishga to'g'ri keldi.

Ronning fikricha, Divangard bilan bog'liq biron-bir muammo bo'lishi mumkin emas ekan.

– U seni o'zining eng suyakli damlamachisi deb bilib, o'larcha yoqtiradi, – dedi nonushta vaqtida Ron, sanchqiga sanchib olgan tuxum qovurdog'ini Garriga o'qtab. – Sendan hech narsasini ayamaydi. Shunday ekan, darsdan keyin hamma tarqashini kutgin-da, undan: «Xotirangizni bering», - deya iltimos qil, vassalom.

Germiona esa tanaffus vaqtida qor qoplagan hovlida turib, ushbu masalaga shubha ila qaradi.

– Modomiki, Damblдорning o'zi so'rab olishga muvaffaq bo'lmagan ekan, aftidan, Divangard haqiqatni umrbod bekitishga qat'iy ahd qilgan ko'rinadi, - dedi u past ovozda. – Ruhdonlar... ruhdonlar... Hech qachon eshitmagan ekanman...

– Eshitmagan ekanman?! ishonqiramay so'radi Garri.


Ruhdon nima ekanini Germiona taxminan bo'lsa ham bilishiga umid bog'lagan Garrining hafsalasi pir bo'ldi.

– Oliy darajadagi yovuz sehr sohasiga taalluqli bo'lsa kerak, aks holda Voldemortga nimaga kerak bo'lishi mumkin ular? Ha, Garri, xotirani qo'lga kiritish oson kechmaydi senga, amalga oshiriladigan strategiyani puxta o'ylab chiqishing kerak.

– Ronning fikricha, darsdan keyin, hamma xonadan chiqib ketishini kutib, shartta so'rab olishim kerak ekan.

– Juda soz! Agar Ana-Ana shunday degan ekan, marhamat, boshla! – shu zahoti o't oldi Germiona. – Axir, u nohaq bo'lib chiqqan holat hali hech qachon bo'lmagan-ku, shundaymi?

– Germiona, nahotki sen?...



– Yo‘q! – qisqa qildi qiz, qasr tomon yugurib.

Garri tizza bo‘yi qorda turgancha, yolg‘iz qoldi.

Sehrli damlamalar tayyorlash mashg‘ulotlari oxirgi vaqtda juda og‘ir sinovga aylanib qoldi. Aniqroq aytiladigan bo‘lsa, Garri, Ron va Germionaga bitta stol atrofida o‘tirishga to‘g‘ri kelmoqda. Bugun esa o‘zining qozonini Erning qozoniga yaqinroq surib olgan Germiona, nafaqat Ron, balki, Garrini ham namoyishkorona pisand qilmayapti.

– Sen nima ayb ish qilib qo‘yding? – deyarli eshittirmay so‘radi Ron, g‘urur-la qad rostlab turgan Germionaga ko‘z qiri ila qarab qo‘yib.

Garri javob berishga ulgurmadi: sinf xonasining boshida turgan Divangard hammani jim bo‘lishga da‘vat qildi.

– O‘tiring, do‘stlarim, o‘tirib oling! Tezroq. Bugun qiladigan ishlarimiz ko‘p! Demak, Golpallotning uchinchi qonuni... Kim aytadi? Miss Grenjer, albatta.

Germiona javobni nihoyatda tez ifoda etdi:

– Golpallotning uchinchi qonuni: mazmunan, tarkibi murakkab zaharga qarshi qo‘llaniladigan ziddi-zahar, ushbu zaharning har bir tarkibiy qismiga qarshi qo‘llaniladigan ziddi-zaharlar yig‘indisidan kuchli bo‘lishidan iboratdir.

– To‘ppa-to‘g‘ri! – yashnab keti Divangard. – «Griffindor»ga o‘n ball! Xo‘p, Golpallotning uchinchi qonuni aksioma¹ sifatida ko‘riladigan bo‘lsa, endi...

Garri hech nimani tushunmadi. Divangardning keyingi tushuntirishlarini esa Germionadan tashqari, hech kim idrok eta olmagan aniq.

– ... bu esa, o‘z navbatida, siz bilan bizning oldimizda turgan birinchi navbatdagi vazifa – tarkibiy qismlarga qarshi qo‘llaniladigan ziddi-zaharlarni shunchaki yig‘ish emas, balki ularning o‘zaro mos kelmaydigan elementlarini deyarli alkimyoviy ravishda o‘zgartirishga qodir qo‘shimcha tarkibiy qismini topish kerakligini anglatadi, tabiiyki, agar biz damlamaning

¹ Aksioma (yunoncha: aksioma – asosiy qoida) – o‘z-o‘zidan aniq-ravshanligi sababli isbot talab qilmaydigan, isbotsiz qabul qilinadigan holat, fikr.

tarkibiy qismlarini Skarpenning fosh etish tilsimlari vositasida to'g'ri aniqlay olgan bo'lsak, albatta...

Garrining yonida o'tirgan Ron og'zini yarim ochib, o'zining yangigina «Oliy damlamachilik» darsligiga nimadir chizmoqda. Endi Germiona yordamga kelmasligini u doimo unutib qo'yniqda.

– ... shunday ekan, – so'zini yakunladi Divangard, – stolim ustida terilgan zahar solingan shishachalardan bittadan olib, mashg'ulotimiz oxirigacha ziddi-zahar tayyorlashingizni so'rayman. Hammangizga omad! Himoya qo'lqopini taqib olishni unutmang!

Qolganlar esini yig'ib olguncha, Germiona o'rmidan turib, Divangardning stoliga yetdi. Garri, Ron va Erni o'z joylariga qaytib kelganda Germiona allaqachon zaharni qozonga quyib, tagiga o't qalashga ulguribdi.

– Afsuski, bu safar, Garri, zoti past Shahzodang senga yordam bera olmaydi, – achchiq quvonch-la ma'lum qildi qiz, qaddini rostlab. – Ishning nazariy tamoyillarini teran idrok etish talab etiladi. Hiylang endi o'tmaydi!

Garri shisha tiqinini jahl-la sug'urib, to'q pushti suyuqlikni qozonga quydi-da, tagiga olov yoqdi. Endi nima qilish kerakligini tasavvur ham qila olmaydi. Garrining xatti-harakatini takrorlagan Ron esa telbanamo qiyofa ila qarab turibdi.

– Shahzodang, chindan ham, bu borada hech narsa yozmaganmi? – so'radi u, past ovozda.

O'zining sadoqatli «Oliy damlamachilik» darsligini qo'lga olgan Garri, «Ziddi-zaharlar» bo'limini ochib, Golpallotning uchinchi qonunini tez topdi. Germiona, ushbu qonundan so'zma-so'z iqtibos keltirgan. Biroq, ming afsuski, zoti past Shahzoda, ushbu badbaxt qonunning asl mohiyatini ochib beradigan birorta ham izoh qoldirmagan. Aftidan, u xuddi Germiona kabi qonun mazmunini hech bir qiyinchiliksiz anglab yetgan ko'rinadi.

– Hech narsa yo'q, – ma'yus ohangda ma'lum qildi u.

Germiona sehrli tayoqchasini qozoni ustida dadil aylantirmoqda. Taassuski, uning tilsimini eshitib, takrorlashning iloji

yo‘q. Qiz ichki ovoz-la afsun qo‘ilash bobida shunday mahoratga erishganki, biron og‘iz so‘z aytmaydi. Erni Makmillan «Spet-sialis revelio!» – deya po‘ng‘illamoqda. Ushbu tilsim ishonar-liroq eshitildi, chog‘i, Garri bilan Ron ham uni takrorlashga kirishdi.

O‘zining buyuk damlamachi mavqeini qo‘ldan berib qo‘yishi mumkinligini tushunib yetishi uchun Garriga besh daqiqadan kam vaqt yetarli bo‘ldi. Sinf xonasini aylana bosh-lagan Divangard Garrining qozoniga, odatdagidek, xitob qilishga hozirlanib qaradi-yu, yuzini tez teskari o‘girib, dimog‘iga urilgan palag‘da tuxum hididan nari qochgancha yo‘talib yubordi. Buni ko‘rgan Germiona esa ichqoralik-la sevinmoqdan yorishib ket-ganday bo‘ldi.

Sehrli damlama tayyorlash bobida ko‘pdan buyon ikkin-chi o‘rinda qolish joniga tekkani yaqqol ko‘rinayotgan Ger-miona, hozir o‘z damlamasini o‘nta qismga taqsimlab, shisha-chalarga quyib chiqmoqda. Bunday noxush manzarani ko‘r-maslik uchun Garri zoti past Shahzodaning darsligi ustiga enga-shib, ortiqcha kuch-la varaqlay boshladi.

Mana u! Ziddi-zaharlarning uzundan uzoq ro‘yxati usti-ga timdalab yozilgan izoh:

Bo‘g‘ziga bezoar¹ toshi tiqib qo‘yilsa bas.

Garri, jumla mazmunini tushummay, kitob sahifasiga ikki-uch soniya baqrayib turdi. Qachonlardir eshitgan edi-ya, bezoar toshi haqida. Ha, to‘g‘ri, Snegg o‘zining birinchi darsida shu toshni tilga olib o‘tgan. O‘shanda u: «Aksariyat zahar turla-rining odam o‘ldirish ta’siridan saqlab qoladigan bezoar toshi tog‘ takasining oshqozonidan chiqarib olinadi», – degan edi.

Bu bilan Golpallotning uchinchi qonuniga oid masala hal bo‘lmaydi, albatta, ‘ekin... chiqmagan jondan umid... Sneggning darsida jur‘at etmagan bo‘lar edi, biroq hozirgi vaziyat uzil-kesil chora ko‘rilishini taqozo etmoqda...

¹ *Bezoar (inglizcha)* – magneziya, oksalat kislotasi va fosfor kislotasi ohakdan tashkilot topgan tosh. Bu toshning shakllanishi organik xususiyatga ega. Ya’ni bu tosh ko‘pincha echki va boshqa mo‘ylovli hayvonlar oshqozonida shakllanadi. Bu tosh tibbiyorda zaharlanish va zahar qarshi malham sifatida foydalaniladi.

Garri javon oldiga yugurib borib, yakkashox ot shoxi, quritilgan turli-tuman alaf bog'larini har tomon surib, nihoyat, javonning orqa devoriga taqab qo'yilgan «Bezoar» yozuvli karton qutichani topib, qopqog'ini ochdi.

– Ikki daqiqa vaqt qoldi! – e'lon qildi Divangard.

Quticha ichida shakli inson buyragini eslatadigan, qurib burishib ketgan olti dona tosh yotibdi. Garri ulardan birini oldida, qutini joyiga qo'yib, qozoni tomon yelday uchdi.

– Vaqt... BO'LDI! – muloyim qichqirdi Divangard. – Qani, ko'raylik-chi, kim nimaga crishdi ekan! Xo'sh, Bleyz... nima bo'ldi?

Divangard o'quvchilar tayyorlagan ziddi-zaharlarni o'riganib borgancha, sinf bo'ylab asta odimlamoqda. Hech kim topshiriq ijrosini oxirigacha yetkazmagan, garchi Germiona o'z shishasiga tarkibiy qismlarning yana bir qismini sezdirmay quyishga uringan bo'lsa-da.

Taqdirga tan bergan Ron, sassiq bug'ni hidlamaslik uchun, qozonidan sal nari turib olgan. Garri bezoar toshini terlagan kaftida mahkam siqib olgancha, o'z navbatini kutmoqda.

Ularning stoliga eng oxirida yaqinlashgan Divangard Erning damlamasini hidlab, basharasini burishtirgancha, Ronning qozoni tomon burildi-yu, bu yerda ham biron soniya bo'lsin to'xtamay, ko'ngli aynib orqaga sapchidi.

– Sening galing, Garri, – dedi nafasini rostlab olgan Divangard. – Xo'sh, nima karomat ko'rsata olasan, bugun menga?

Garri professorning kaftiga bezoar toshini qo'ydi.

Divangard o'n soniyacha toshga baqrayib qoldi. Garri qo'rqa-pisa o'qituvchining qichqirib berishini kutdi, biroq professor boshini orqaga tashlagancha, qaitiq xandon otdi.

– Qarang-a! – xitob qildi u, bezoar toshini sinfga ko'rsatib. – Onasining o'zginasi-ya! Yo'q, Garri, qaroring noto'g'ri deya olmayman,... Bezoar toshi, chindan ham, ushbu zaharlarga qarshi qo'llaniladigan kuchli ziddi-zahar sanaladi!

Yuzidan ter oqib, burniga kul yopishgan Germiona achchig'i chiqib, turgan joyida shishib oldi. Uning ellik ikkita

tarkibiy qismdan, shu jumladan, qo'ng'ir sochi tutamidan tashkil topgan bo'lib, oxiriga yetkazilmagan ziddi-zaharlari Divangardning orqasida qatiq singari pufak chiqarmoqda. Lekin o'qituvchi Garridan boshqa hech narsaga e'tibor qilgani yo'q.

– Aqling yetibdi-da, a, Garri? – tishi orasidan vishilladi Germiona.

– Mana sizga asl damlamachining o'z ishiga did-la yondashuvi! – xitob qildi baxtiyor Divangard, Garrining javobini kutmay. – Lilining o'zginasi-ya! Kuchli rivojlangan ichki hissiyot!... Iloj qancha, buni nasl deydilar!... Ha, Garri, modomiki, bezoar bor ekan, muammo hal bo'ladi, albatta. Shunday bo'lsa-da, ushbu tosh har narsaga ham yaravermaydi va umuman aytganda, juda noyob sanaladi. Binobarin, ziddi-zaharni o'z qo'ling bilan ham tayyorlay olishing – kerakli toshning og'iri yo'q deganday gap, uqdingmi?...

Egniga mushuk qusug'iga o'xshash modda to'kib yuborgan Malfoy Germionadan ham battar darg'azab bo'ldi. Lekin Malfoy ham Germiona ham qo'ng'iroq zarbi eshitilgani bois o'z fikrini ifoda eta olmadi.

– Narsalaringizni yig'ishtiradigan vaqt bo'ldi, – e'lon qildi Divangard. – Ha, aytganday, dadillik namoyon etilgani uchun «Griffindor»ga yana o'n ball!

O'z yozuv stoli tomon odimlagan Divangard hanuzgacha kulgisini tiya olmayapti. Garri narsalarini yuk xaltasiga sustkashlik-la joyladi. Yuzlari norozi qiyofa kasb etgan Ron bilan Germiona esa unga omad tilamay, xonadan chiqib ketishdi. Nihoyat Garri, Divangard bilan yolg'iz o'zi qoldi.

– Imillama Garri, keyingi darsga kechikasan, – shoshirdi, ajdar terisidan tayyorlangan sumkasining tilla yopqichini yopayotgan Divangard.

– Ser, – dedi Garri, beixtiyor o'zini o'zi Voldemortga o'xshatib, – sizdan bir narsani so'rab bilmoqchi edim.

– Tezroq so'ra, azizim, tezroq...

– Ser, siz... ruhdonlar haqida biron nima bilasizmi?

Divangard turgan joyida dong qotib, yum-yumaloq lunji ichkari botganday bo'ldi. Nihoyat, qurigan labini qimtib namlab

olgach, tilga kirdi:

– Nima deding?

– Ruhdonlar haqida biron nima bilishingizni so'radim.

Gap shundaki...

– Seni Dambldor yuborgan oldimga, to'g'rimi? – pichirladi Divangard.

O'qituvchining batamom o'zgargan ovozida hayajon bilan qo'rquv ohangi eshitildi. Itoat qilishdan bosh tortgan bar-moqlarini ko'krak cho'ntagiga bazo'r suqib, dastro'molini chiqardi-da, ter qoplagan peshanasini arta boshladi.

– Dambldor xotiramni... ko'rsatibdi-da senga, a? Shundaymi?

– Ha, – bosh irg'idi Garri, rostini aytishni afzal bilib.

– Albatta, – past ovozda g'udulladi Divangard, bo'zday oqarib ketgan yuzini artishdan to'xtamay. – Albatta... Modomiki, Garri, xotiramni ko'rgan ekansan, o'zingga ma'lumki, ruhdonlar haqida men hech narsa bilmayman, hech nima... – zo'riqib tak-rorladi u, dastro'molini cho'ntagiga, portfelini qo'ltig'iga qistir-gancha, chiqish eshigi tomon yo'l olib.

– Ser, – umidsiz qichqirdi Garri. – Men shunchaki chala-si qolgandir, degan xayolga bordim...

– Shunaqa degin? – qichqirdi Divangard. – Demak, yanglishibsan, tushundingmi? YaNGLISHIBSAN!

Garri so'z aytishga ulgurmedi. O'qituvchi so'nggi so'zi-ni o'kirib, eshikni qarsillatib yopgancha, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Ish o'ngidan kelmaganidan xabar topgan Germiona ham, Ron ham Garriga hamdardlik bildirmadi. Ulardan birining g'a-zabi Garrining arzimagan ish ko'rsatib shuhrat qozonganidan qaynayotgan bo'lsa, ikkinchisi bezoar toshidan bitta qo'shib kelmagani uchun xafa bo'ldi.

– Aynan bir fikr ikkalamizning xayolimizga baravar kelib qolgani ahmoqona ko'rinishini tasavvur qilyapsanmi, o'zi? – jahl-la qichqirdi Garri. – Voldemort haqida surishtirib bilishim uchun, Divangardning ko'ngliga yaqinlashib borishim kerakmi. axir? O'zingni qo'lga olsang-chi, endi! – dedi u, dahshatli ismni eshitib basharasi burishib ketgan Ronga.

Omadsizlik va do'stlarining xafagarchiligidan ko'ngli cho'kkan Garri keyingi bir necha kun davomida Divangard haqida ko'p o'ylandi. Va nihoyat, ishni yangitdan boshlashdan oldin, uning hushyorligini zaiflashtirish, o'zini ruhdonlar masalasini endi butkul unutgan ko'yga solib yurish va shu tariqa «bekinib olish»ga ahd qildi.

Darhaqiqat, Garri to'g'ri qaror qabul qilgan ekan. Divangard unga yana muloyim munosabatda bo'lib, aftidan, noxush suhbatni miyasidan chiqarib yuborgan ko'rinadi. Garri Divangardning navbatdagi kechasiga taklif kutib, bu safar kvidish mashqini kechga qoldirib bo'lsa ham taklifni qabul qilishni niyat qildi. Taassufki, taklifnoma kelmadi. Garri, ushbu masala borasida Germiona va Jinnadan so'rab bildi, ular ham va olingan ma'lumotlarga qaraganda, boshqalar ham taklifnoma olishmagan. Garri beixtiyor o'ylanib qoldi: ehtimol, Divangard o'pkaginalarni tez unutadigan kishilar toifasiga kirmas, ortiqcha savol-javoblardan u ham «bekinib olgandir»?

Ustiga-ustak, «Xogvars» kutubxonasi ilk bor Germionaga pand berdi. Ushbu holat qizni shu qadar ruhiy larzaga keltirdiki, Garriga nisbatan saqlab yurgan ginasini birpasda unutib yubordi.

– Ruhdon nima uchun kerakligi haqida birorta bo'lsin, ma'lumot topa olmadim! Tasavvur qilyapsanmi, hatto o'ta dahshatli ta'sirga ega damlamalarga oid, nihoyatda qo'rqinchli kitoblarda ham biron og'iz so'z aytilmagan! Mana bu topildi, xolos... «Eng mudhish sehr-jodu» kitobining kirish qismida... quloq sol: «Sehr qo'llash g'oyalari orasida nihoyatda mudhish niyat sanaladigan ruhdonlarni tilga olmaymiz ham, ularga shama qilmaymiz ham»... Tabiiyki, savol tug'iladi: hoy inson, tilga olmas ekansan, nega yozasan? – alam-la xitob qildi qiz, qadimiy kitobni jahl-la yopib.

Kitob arvohning chinqirig'i kabi ovoz chiqardi.

– E, o'chir ovozingni! – o'shqirib berdi Germiona, uni yuk xaltasiga tiqib tashlab.

Fevral kelib, qor eridi. Ayoqli havo o'z o'rnini rutubatli kunlarga bo'shatdi. Qasr ustida kulrang binatsha tusli og'ir bulut-

lar muallaq osilib, tinimsiz yog'ayotgan muzday yomg'ir maysazorni deyarli o'pirib yubordi. Shu bois o'quvchilar o'quv rejasida ko'zda tutilgan darslarni o'tkazib yubormasligi uchun shanba kuniga tayinlangan havoda g'oyib bo'lish bo'yicha ilk mashg'ulot Katta Zalda o'tkaziladigan bo'ldi.

Germiona bilan birga kelgan Garri Katta Zaldagi stollar gum bo'lganiga e'tibor qildi. Baland deraza oynasini yomg'ir savalamoqda, sehlangan shifga xunuk bulutlar yig'ilgan.

Fakultet mudirlari professorlar Makgonagall, Snegg, Flitvik, Sarsabil xonim va aflidan, vazirlikning havoda g'oyib bo'lish bo'yicha yo'riqchisi bo'lsa kerak, past bo'yli sehrGAR qarshisida oltinchi sinf o'quvchilari bir qator bo'lib saf tortishdi. Qandaydir rangsiz, soch tutami siyrak, kiprigi shaffof ushbu yo'riqchi moddiy tusga ega emasdek, zalda biroz shabada ko'tarilguday bo'lsa, ko'zdan g'oyib bo'lib qoladigandek ko'rinmoqda.

«Balkim bu kishi, havoda g'oyib bo'laverib, shu ahvolga kelib qolgandir», – xayoldan o'tkazdi Garri, garchi gap boshqa masalada, xususan, kishi jussasining ixchamligi havoda g'oyib bo'lish uchun juda maqbul bo'lishi mumkinligida bo'lsa-da.

Hamma saf tortib, fakultet mudirlari jimjitlikka erishgach, vazirlikdan tashrif buyurgan sehrGAR gap boshladi:

– Xayrli tong. Mening ismim Uilki Harjoyda. Bugundan boshlab, keyingi o'n ikki hafta davomida men sizlarga havoda g'oyib bo'lib, paydo bo'lishni o'rgataman va umid qilamanki, oxirpirovardida imtihonga tayyorlay olaman.

– Malfoy, tek turib, quloq soling! – o'shqirib berdi professor Makgonagall.

Hamma Malfoy tomon burilib qaradi. U xira qizarib, vajohat-la bahslashgan Krabbedan darg'azab uzoqlashdi. Garri nigohini zudlik bilan Snegg tomon olib o'tdi. Uning yuzida ham norozilik qiyofasi ko'rindi. Faqat ushbu norozilik Malfoyning xulqi buzuvchisiga tanbeh berganidan ifoda topganday ko'rindi.

– ...imtihonni ko'pchilik, odatda, birinchi urinishdayoq muvaffaqiyatli topshiradi, – hech narsa bo'lmaganday davom etdi Uilki Harjoyda. – «Xogvars» hududida havoda g'oyib

bo'lish yoki bu yerda boshqa joydan paydo bo'lishning iloji yo'qligini bilasiz, albatta. Lekin siz mashq qilishingiz uchun maktab direktori Katta Zalni himoya afsunidan bir soatga xalos etdi. Shuni alohida eslatib o'tmoqchimanki, mazkur zal hududini havoda g'oyib bo'lgan tarzda tark etish mumkin emas. Chunki siz tomondan amalga oshiriladigan bunday urinish oqibati juda ayanchli yakun topishi muqarrar. Ana endi sizlardan Katta Zal bo'ylab, har biringizning oldingizda taxminan besh futcha masofa qoldirilgan tarzda tarqalishni iltimos qilaman.

Joy uchun kurashgan o'quvchilar shovqin solib, bir-biriga urilib harakat boshlashdi. Fakultet mudirlari o'quvchilar orasida yurib, yuzaga kelgan nizolarga barham berib borishdi.

– Qayoqqa, Garri? – qichqirdi Germiona.

Garri javob bermadi. U o'quvchilar orasidan allanima chiyillab, old joylarni talashayotgan ravenklochilarni safga tizayotgan professor Flitvik, xuffipuffchilarni bir chiziqqa epchillikla saf torttirayotgan Sarsabil xonimning yonidan tez yurib, Erni Makmillanni aylanib o'tgach, hammadan orqada, Malfoyning ortidagi qatordan joy egalladi. Orqasida Garri turganini ko'rmagan Malfoy umumiy to'polondan foydalanib, o'zidan besh futcha naridagi Krabbe bilan bahslashmoqda.

– Bilmayman, yana qancha cho'zilishini, tushundingini? – o'shqirdi u, tabiatan urishqoqlarga xos ohangda. – Ish men o'ylagandan ham sekin kechyapti.

Krabbe endigina og'iz juftlagan ediki, nima demoqchi bo'lganini fahmlagan Malfoy yana o'shqirdi:

– Sababi seni qiziqtirmasligi kerak! Goyl ikkalangiz buyurilgan ishni bajaring, vassalom! Poyloqchilik qilasiz, bas!

– Nima uchun poyloqchilik qilish tozimligini do'stlaringa hamisha tushuntirib boraman, – dedi Garri, Malfoygaga eshitirib.

Qo'li sehrli tayoqchaga yugurgan Malfoy turgan joyida aylandi, biroq shu fursatda mudirlarning to'rtalasi ham barobar qichqirdi:

– JIM!

Katta Zalda jimjitlik qaror topib, Malfoy yo'riqchi

tomon yuzlanishga majbur bo'ldi.

– Rahmat! – minnatdorlik bildirdi yo'riqchi Harjoyda. – Endi esa...

Yo'riqchi sehrli tayoqchasini siltab, polda, har bir o'quvchining oldida bittadan qadimiy yog'och halqa hosil qildi.

– Havoda g'oyib bo'lish uchun uchta tamoyil, xususan: yo'nalish, fikr-xayolni jamlash, shoshmaslik tamoyillarini yodda saqlash muhimdir! – e'lon qildi yo'riqchi. – Demak, birinchi amal: jamiki fikr-xayolingizni paydo bo'lish ko'zlangan joy yo'nalishiga, bizning misolimizda, oldingizda yotgan halqaning ichki qismi tomon ketgan yo'nalishga jamlang, – dedi yo'riqchi. – Marhamat, mashq qiling.

Qolganlar nima bilan band ekanini ko'rish uchun ko'pchilik o'g'rincha atrofga qaradi. Garri boshqa hech narsa haqida o'ylamaslikka urinib, yog'och hoshiya bilan cheklangan chang to'garagiga qarab turdi. Biroq buning iloji bo'lmadi. Poyloqchilar unga nimaga kerakligiga oid Malfoy haqidagi xayollarni miyasidan hech chiqara olmadi.

– Ikkinchi amal, – davom etdi Harjoyda. – Fikr-xayolni tasavvur qilingan joyda paydo bo'lish zarurligiga jamlang. O'sha joyda paydo bo'lish istagi miyangizda to'lib-toshib, jamiki vujudingizga taralsin.

Endi Garri ham atrofga qaradi. Uning chap tomonida turgan Erni Makmillan halqaga shu qadar zo'riqib qarayaptiki, yuzi qip-qizarib, ko'rgan odam uni o'lchami «Kvaffl»day tuxum tug'moqchi bo'lsa kerak, degan xayolga borishi muqarrar. Garri o'zini kulgidan bazo'r tiyib, nigohini oldidagi halqaga olib o'tdi.

– Uchinchi amal, – qichqirdi Harjoyda. – Ushbu amalni sanoq ostida bajaramiz... Turgan joyingizda aylanib, hech qayerga olib ketadigan yo'lni his eting! Demak, uchgacha sanayman... bir ..

Garri yana atrofga qaradi. Ko'pchilik, shu bugunning o'zida g'oyib bo'lib qolishdan cho'chib ketgani yaqqol ko'rinib turibdi.

– ... ikki...

Garri halqaga qaradi. Havoda g'oyib bo'lishning sanab

o'tilgan uchta tamoyilini u allaqachon unutishga ulgurgan.

UCH!

Joyida aylangan Garri muvozanatini yo'qotib, yiqilib tushishiga sal qoldi. Bunday holatga tushgan yolg'iz u emas. Nevill gupullab yerga yiqildi. Emi Makmillan bir oyog'ining uchida ahmoqona aylanma harakat bajardi-da, oldida turgan halqaga sakrab o'tib, Din Tomas uning ustidan xandon otib kula-yotganini anglab yetguncha, o'sha yerda g'oz kabi gerdaygancha turaverdi.

– Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q, – dedi, aftidan, boshqacha bo'lishini kutmagan Harjoyda. – Halqani to'g'rilab, dastlabki holatni qabul qilib oling.

Ikkinchi va uchinchi urinishlar ham birinchi urinishdan ko'p farq qilmadi. To'rtinchi urinishda esa kimdir qattiq chinqirdi. Dahshatli manzara: «Xufflpuff» o'quvchisi Syuzan Bouns halqa ichida o'ng oyog'ida bazo'r muvozanat saqlab turibdi, uning chap oyog'i esa o'zidan besh futcha narida, g'oyib bo'lgan dastlabki joyida qolib ketibdi.

Fakultet mudirlari qiz tomon yugurdi. Baland paqillash yangrab, binafsharang qalin tutun ko'tarildi. Tutun pag'asi tarqagach, oyog'i joyiga qaytgan, lekin qo'rqib ketganidan piqillab yig'layotgan Syuzan ko'rindi.

– Tananing parchalanishi yoki har qanday joyi uzilib ajralishi, deyiladi bunday holat, – tushuntirish berdi Uilki Harjoyda, pinagi buzilmay. – Fikr-xayol talab darajasida jamlanmasligi oqibatida ro'y beradi. Harakat yo'nalishini hamisha yodda tutishingiz, o'z harakatingizni shoshilmay, xotirjam bajari-shingiz lozim... mana bunday.

U bir qadam oldinga tashlab, qo'lini ikki tomon uzatgancha, turgan joyida nazokat-la aylandi. Korjomasi lip etgan yo'riqchi gum bo'lib, shu zahoti Katta Zalning orqa tomonida paydo bo'ldi.

– Yuqorida sanab o'tilgan uchta tamoyilni unutmagan holda, yana bir bor urinib ko'ring, – dedi u. – Bir... ikki... uch.

Oradan yana bir soat o'tgan bo'lsa ham Syuzanning parchalanishi, bugungi mashg'ulot davomida ro'y bergan eng qiziq

hodisa bo'lgancha qoldi. Uilki Harjoyda, ushbu holatdan aslo tashvish tortmadi. Yoqasining tomoq ostidagi tugmasini qadar ekan, xotirjam xayrlashdi.

-- Kelasi shanba kuni uchrashguncha, bolalar. Unutmang: yo'nalish, fikr-xayolni jamlash, shoshmaslik.

U sehrli tayoqchasini siltab, halqalarni daf etdi-da, professor Makgonagallning hamrohligida Katta Zalni tark etdi. O'quvchilar shovqin solgancha, shu zahoti chiqish eshigi tomon yo'l olishdi.

-- Uddasidan chiqdingmi? - so'radi Ron, Garrining yoniga yugurib kelib. -- So'nggi urinishda nimadir his etganday bo'ldim. Oyog'imda sanchish sezildi.

-- Kalishing qisgandir, Ana-Ana, - eshitildi orqada ovoz.

Germiona ikkalasining yonidan jirkanch irjaygancha, o'tib ketdi.

-- Men hech narsani his etmadim, - dedi Garri, qizning zahriga e'tibor qilmay. - Lekin hozir buning ahamiyati yo'q...

-- Iye, ahamiyati yo'q deganing nimasi? - bovar qilmadi Ron. - Havoda g'oyib bo'lish amalini o'zlashtirib olishni istamaysanmi?

- Katta orzuim emas, har qalay. Uchishni afzal ko'raman, - iqror bo'ldi Garri, atrofqa qaragancha, ko'zi bilan Malfoyni izlab.

Vestibylga chiqishgach, Garri qadamini tezlatdi.

- Yur tezroq, Ron. Men bir ish qilishim kerak.

Garri hech narsani tushunmayotgan Ron bilan birga «Griffindor» minorasi tomon deyarli yugurib ketdi. To'rtinchi qavatda Dryuzg bolalarni qisqa vaqt ushlab qoldi. Yo'lni to'sgan poltergeyst, toki o'quvchilar o'z ishtonlarini o'zlari yoqmas ekan, birortasini o'tkazmay turib oldi. Garri bilan Ron ortga burilib, yashirin qisqa yo'llardan biriga hech kimga sezdirmay kirib ketishdi. Besh daqiqa o'tar-o'tmas ikkovlon portret to'sgan tuynuk ostonasini hatlab o'tdi.

- Biron kun kelib aytasanmi-yo'qmi, nima ish qilishimiz kerakligini? - hansiradi Ron.

- Ortimdan yur, - dedi Garri, javob o'rniga.

Ikkovlon umumiy mehmonxonani kesib o'tib, yotoqxona kirib ketdi. Xayriyatki, Garri umid qilganday, yotoqxona bo'sh ekan. Garri sandig'ini ochib, bisotini titkiladi. Ron esa noiloj uning harakatini sabrsiz kuzatib turdi.

– Garri...

– Malfoy Krabbe bilan Goylni poyloqchi etib tayinlabdi. U hozirgina ushbu masala yuzasidan Krabbe bilan janjallashib qoldi. Men bir narsani aniqlab olmoqchiman... Ha, mana...

Garri qidirgan narsasini, bir qarashda go'yo ishlatilmaganday ko'ringan pergament varag'ini topdi. Garri uni yozib tekisladi-da, sehrli tayoqchasining uchi bilan urib qo'ydi.

– Biron-bir yaxshilikni niyat qilmaganligimga tantanavor qasam ichaman!... Malfoy yaxshilikni niyat qilmaganiga shubha yo'q...

Pergament varag'ida qasr qavatlarining batafsil loyihasi aks ettirilgan Kafanduzd¹ xaritasi paydo bo'lib, maktabda yashaydigan odamlarning nomlari yozilgan nuqtalar harakati ko'rindi.

– Malfoyni qidirib topishga yordamlashib yubor, – dedi Garri.

Garri bilan Ron ikkalasi karavot ustiga yozilgan xarita ustida engashib, uni diqqat bilan o'rgana boshlashdi.

– Ana u! – dedi Ron, ikki daqiqadan so'ng, – Slizerinchilar mehmonxonasida, mana, qara... Parkinson, Zabini, Krabbe, Goyl va boshqa hamtovoqlari bilan o'tiribdi.

Xaritaga baqrayib qolgan Garrining tarvuzi qo'ltig'idan tushgan bo'lsa ham darhol o'zini qo'lga oldi.

– Bugundan e'tiboran uni kuzatib boraman, – ahd qildi u. – Krabbe va Goylning poyloqchiligi ostida shubhali joyda yurganini ko'rishim bilan ko'rinmas plashni kiyaman-da, nima qilayotganini aniqlash uchun...

Garri jim bo'lib qoldi. Yotoqxona Nevill va u bilan birga kuygan lattaning achchiq hidi kirib keldi. Nevill sandig'ini

¹ **Kafanduzdlar** - urush bo'layotgan hududdagi aholini yoki jang maydonida o'lgan va yarador bo'lganlarni talovchi qaroqchilar.

ochib, aftidan, boshqa ishton qidira boshladi.

Garri Malfoyni nojo'ya ish ustida ushlab olishni o'z oldiga maqsad sifatida qo'ydi-yu, keyingi ikki hafta davomida omadi mutlaqo yurishmadi. U xaritani qo'ldan qo'ymay, ba'zan yozilib kelish bahonasida mashg'ulotlardan chiqib yurdi, lekin Malfoynning shubhali joyda izg'iganini ko'rmadi. Krabbe bilan Goyl, chindan ham, qasr bo'ylab tez-tez daydib yurishadi, ba'zan kimsasiz yo'lakda harakatsiz, tek qotib qolishadi. Biroq Malfoy bu vaqtda, ularning yonida bo'lmaydi, u xaritadan sirli ravishda g'oyib bo'lib, umuman hech qayerda ko'rinmay qoladi.

Bularning bari Garriga juda shubhali ko'rinib, Malfoy, chindan ham, maktab hududini tark etib boradi, degan xulosaga qildi. Biroq maktabda yangi, o'ta qat'iy xavfsizlik choralari joriy etilgan bir vaqtda, qanday qilib chiqa olishi mumkinligini hech tushuna olmadi. Malfoyni yuzlab boshqa nuqtalar orasida yo'qotib qo'yayotganini taxmin qilishdan boshqa chorasi qolmadi.

Ilgari Malfoy, Krabbe va Goyl umumiy kindikli uch kishiday bir-biridan biron daqiqa bo'lsin, ajralmay yurgani-yu endi har biri o'zi bilan o'zi ovora bo'lgani... Buni yosh ulg'aygan sari uchrab turadigan holat sifatida qabul qilish kerak, xulosa qildi Garri. Ana, Ron bilan Germionani bunga yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin.

Mart oyi yaqinlashmoqda. Agar yog'ingarchilikdan tashqari, kuchli shamol esayotgani hisobga olinmasa, ob-havo deyarli o'zgargani yo'q.

Umumiy mehmonxonaning e'lonlar taxtasida, Xogsmiyod sayli bekor qilingani haqida e'lon osilibdi. Tabiiyki, bu o'quvchilarning e'tirozlari yuzaga keltirdi.

– Tug'ilgan kunimda-ya! – domangir qichqirdi Ron. – Bu kunni qanchalik orziqib kutgan edim-a!

– Umuman aytganda, Ketti bilan bog'liq hodisadan keyin buning hayron bo'ladigan joyi yo'q, – fikr bildirdi Garri.

Ketti hali ham kasalxonada davolanyapti. «Bashorat-u karomat gazetasi» esa odamlar, shu jumladan, «Xogvars» o'quvchilarining qavm-qarindoshlari sirli ravishda g'oyib bo'lib bora-yotgani haqida tez-tez xabar berib bormoqda.

– Endi havoda telbanamo g'oyib bo'lish mashg'ulotlarini kutib yashashdan boshqa narsa qolmadi! – po'ng'illadi Ron. – Xursandchilik bo'lmay o'lsin...

Havoda g'oyib bo'lish bo'yicha uchta mashg'ulot o'tganiga qaramay, mavjud muammolar o'zgarmas qoldi, yana bir necha kishining tanasi parchalandi. O'quvchilar orasida yo'riqchi Uilki Harjoyda va uning uchta tamoyiliga nisbatan ishonchsizlik kayfiyati yuzaga kelib, ko'ngil sovib bordi. Uning o'ziga esa ko'plab laqablar berildi. Yo'riqchining aytsa bo'ladigan laqablardan biri – Go'ngkalla bo'ldi.

Birinchi mart kuni ertalab Garrini nonushtaga otlangan Din bilan Simusning shovqin-suroni uyg'otdi.

– Tug'ilgan kuning bilan, Ron, – dedi Garri, ikkala sinfdoshi chiqib ketgach. – Mana senga sovg'a, ushla.

Garri, qo'lidagi bo'xchani, aftidan, tunda elf tashlab ketgan sovg'alar to'plami orasiga otdi.

– Rahmat, – uyqusirab po'ng'illadi Ron, bo'xchani ochib.

Garri o'ruidan turib, yashirib qo'ygan Kafanduzd xaritasini olish uchun sandig'ini ochdi. Sandiqdagi narsalarning yarmini ag'dar-to'ntar qilib, suyuq omad saqlanayotgan paypoq ostidan xaritani chiqardi-da, oyoq tomondan o'tib ketayotgan Nevill eshitib qolmasligi uchun sehrli tayoqchasi bilan asta urib, pichirladi:

– Biron-bir yaxshilikni niyat qilmaganimga tantanavor qasam ichaman.

– Chiroyli ekan, Garri! – xitob-la qichqirdi Ron, yangi kvidish qo'lqopini siltab.

– Arzimaydi, – dedi Garri, «Slizerin» yotoqxonasini diqqat bilan ko'zdan kechirib. – O'rnida yo'qqa o'xshaydi-yu...

Ron javob bermadi. U o'z sovg'alari bilan ovora bo'lib, tez-tez xitob-la oh-voh qilib o'tirdi.

– Bu yilgi o'ljalar yomon bo'lmadi! – e'lon qildi u, chetida tushunarsiz belgilar-u mil o'rniga mitti sitoralar aylanayotgan og'irgina tilla soatni boshi uzra ko'tarib. – Ota-onamning sovg'asini ko'ryapsanmi. Kelasi yil ham balog'at yoshini tashkil-

lashtirishim kerak ekan...

– To‘g‘ri, – g‘udulladi Garri, soatga qiyo boqib, nigohini boz xaritaga olib o‘tgach. – Jin ursin, Malfoy qani?

Malfoy Katta Zaldagi nonushtada ham yolg‘iz o‘zi o‘tirgan Sneggning xonasida ham biron-bir hojatxonada ham ko‘rinmadi.

– Yeysanmi? – so‘radi kavshangan Ron, Garriga qozon shaklidagi shokolad kekslar qutisini uzatib.

– Yo‘q, rahmat, – rad etdi Garri, boshini xaritadan ko‘tarib. – Malfoy yana yo‘qolib qolibdi!

– Bo‘lishi mumkin emas, – bosh chayqadi, og‘ziga yana bitta shokolad keks solgan Ron, o‘rnidan turib, kiyinar ekan. – Tezlash, aks holda havoda och qorning bilan g‘oyib bo‘lishingga to‘g‘ri keladi... garchi... shunday qilsang... balkim, oson kechar...

Ron o‘ychan holatda shirinlik qutisiga qarab, og‘ziga uchinchi keksni soldi.

Sho‘xlik amalga oshdi, dedi Garri, sehrli tayoqchasini xaritaga urib.

Kiyimini kiyar ekan, Malfoy qayerda bo‘lishi mumkinligi borasida zo‘r bergancha mulohaza yuritishni qo‘ymadi. Uning g‘alati tarzda gum bo‘lib borishiga qandaydir tushuntirish bo‘lishi kerak, faqat qanday tushuntirish, Garri tasavvur ham qila olmayapti. Ortidan kuzatib yurgan osonroq, albatta. Biroq ko‘rinmasplash ostida bo‘lsa ham buning iloji yo‘q. Mashg‘ulotlar, mashqlar, uyga berilayotgan bir olam vazifalar, havoda g‘oyib bo‘lish mashg‘ulotlari... Bularning bari xalal beradi. Birortasini o‘tkazib yuborsa, yo‘qligi darhol bilinadi.

– Xo‘sh, tayyormisan? – so‘radi u, Rondan.

Garri chiqish eshigi tomon odimlar ekan, karavot chodirining ustuniga suyanib olib, qandaydir g‘alati nigoh-la, yomg‘ir savalayotgan derazaga qarab turgan Ron o‘rnidan qo‘zg‘almaganini angladi.

– Ron, ketdikmi, nonushtaga?

– Qornim to‘q.

Garri Ronga hayrat-la qaradi.

– Hozirgina o‘zing?...

– Xo‘p, mayli, – og‘ir xo‘rsindi Ron. – Sen bilan birga tushaman-u, o‘zim hech narsa yemayman.

– Kekslarning yarim qutisini paqqos urib olishga ulgurdingmi, deyman? – so‘radi Garri, do‘stiga shubha ila qarab.

– Gap unda emas, – boz xo‘rsindi Ron. – Sen... sen... baribir, tushunmaysan.

– Men nimani tushungan edimki, nonushta qilishni xohlamay qolganingni tushunsam? – piching qildi, hayron bo‘lgan Garri, chiqish eshigi tomon yo‘l olib.

– Garri! – kutilmaganda chaqirib qoldi Ron.

– Yana nima?

– Ortiq chiday olmayman!

– Nimani chiday olmaysan? – xavotir ola boshladi Garri, rangi oqarib ketgan Ronning hozir qayt qilib yuboradigan ahvolini ko‘rib.

– U haqda o‘ylashdan o‘zimni to‘xtata olmayapman! – xirilladi Ron.

Garri Ronga dahshat-la baqrayib qoldi. Bunaqasini kutmagan, eshitishni ham istamagan. Ikkalasi do‘st, albatta, lekin Ron Lavandaning «Ana-Anasi»ga javoban «Mana-Mana»lab qolsa, bariga chek qo‘yishga to‘g‘ri keladi.

– Bunday holat nonushta qilishga xalal bermaydi, – dedi Garri, yuz berayotgan holatga sog‘lom mazmun berishga urinib.

– U mening borligimni bilmaydi hali, – dedi Ron, qo‘lini umidsiz siltab.

– Nega endi bilmas ekan? Juda yaxshi biladi, – e‘tiroz bildirdi Garri, hayron bo‘lib. – Sendan o‘zini uzmay o‘pishib yuradi-yu, unutdingmi?

– Kimni aytyapsan? – ko‘zini pirpiratdi Ron.

– Sen-chi? O‘zing kimni nazarda tutyapsan? – so‘radi Garri, saldan ozib qolayotganini his etib.

– Romilda Veynni, – pichirladi Ron, yuzi xuddi quyosh yoritganday, yorishib.

Ikkovlon bir-biriga bir-ikki daqiqa qarab qoldi.

– Hazillashyapsanmi? – so‘radi Garri, nihoyat tilga kirib.

– Garri, men uni o‘larcha sevib qoldim, – iqrar bo‘ldi

Ron, yuragi ezilib.

– Juda yaxshi, – dedi, Ronga yaqinroq kelgan Garri, shisha tusiga kirgan ko'zi va qon qochgan yuziga diqqat-la nazar solib. – Juda soz. Qani endi, jiddiy ohangda qaytar-chi, gapingni.

Men uni sevaman, – bazo'r takrorladi Ron. – Uning shoyidek yaltiroq qop-qora sochini ko'rganingda edi, ko'zi-chi, qop-qora, yirik ko'zi! Yana...

Nihoyatda kulgili va hokazo, – gapni bo'ldi toqati toq bo'lgan Garri. – Faqat hazil haddan ortiq cho'zilib ketdi. Bas.

U eshik tomon ikki qadam tashlashga ulgurmay, o'ng qulog'iga qattiq zarba yedi. Gandiraklab o'girilgan Garri yuzi g'azabdan burishgan Ron navbatdagi zarbaga hozirlik ko'rib, quloqch yozayotganini ko'rdi. Garrining keyingi xatti-harakati g'ayriixtiyoriy ravishda kechib, sehrli tayoqcha qo'lga o'zidan o'zi ilinib qolganday, miyada tilsim baland yangraganday bo'ldi:

– Levitana!

Oyog'i osmondan kelib, havoda muallaq osilgan, korjomasining etagi boshiga tushgan Ron haqirib yubordi.

– Qaysi aybim uchun? – e'tiroz-la qichqirdi Garri.

– Sen u qizni haqorat qilding! Mening his-tuyg'umni oyoqosti qilding! – baqirdi, yuziga qon kelgan Ron.

– Yana qanaqangi bema'nilik bu?! – xitob qildi Garri. – Nima bo'ldi senga?

Shu payt Garri Ronning karavotida yotgan ochiq qutini ko'rib, boshiga troll¹ urganday bo'ldi.

– Qayerdan olding mana bu keksni?

– Tug'ilgan kunimga sovg'a bu! – qichqirdi Ron, xalos bo'lishga uringancha, havoda tebranib. – Taklif qildim, bosh torting.

– Poldan oldingmi?

¹ **Troll** (shvedcha: Troll – joziba, sehr-jodu) – skandinaviyalik afsonalarida tilga olingan, ko'p ertaklarda uchraydigan maxluq. Trollar ushbu afsona va ertaklarda, odatda, inson dushmani sifatida, toshga o'xshash tog' ruhlari ko'rinishida tasvirlanadi. Trollar afsonalari Skandinaviyada paydo bo'lgan. Afsonalarga ko'ra, ular mahalliy aholini jodugarligi va bahaybatligi bilan qo'rqitgan. Ular, odatda, qal'a va yer osti saroylarida yashagan.

– Karavotimdan tushdi, tushundingmi? Qo'yib yu'bor meni!

– Karavotingdan tushgani yo'q u, ahmoq! Xarita qidira-yotganimda sandig'imdan chiqqan quti bu. Romilda tiqishtirgan menga uni, Rojdestvo bayramiga sovg'a sifatida! Ichi to'la sevgi damlamasi-yu!

Shuncha tushuntirishdan Ron faqat bitta so'zni eshitdi.

– Romilda? – ingradi u. – Romilda dedingmi?... Sen uni taniysanmi? Meni tanishtirib qo'yasanmi unga?

Havoda muallaq osilgan Ronning yuzi misli ko'rilmagan umiddan yorishib ketdi. Garri Ronga qarab, na kulish, na kuyishni bildi. Ongining qaysidir qismi, aniqroq aytganda, vujudining og'riqdan zirillayotgan qulog'iga yaqinroq qismi Ronni pastga tushirib, damlamaning kuchi barham topguncha, kun bo'yi qay ahvolga tushishi, nimalar qilishini tomosha qilib yurishni istadi... Lekin ular do'st... Qo'l ko'targan Ron hozir o'zini idora qila olmaydigan holatda... Romilda Veynga boqiy muhabbat izhor etishga imkon yaratib bersa-yu, damlama ta'siri o'tgach, Rondan yana bir-ikkita musht yeb olishi ham chtimoldan holi emas.

– Tanishtiraman, albatta, – va'da qildi Garri, nima qilish, qanday ish tutish kerakligi borasida tez fikr yuritib. -- Hozir seni pastga tushiraman, tushundingmi?

U Ronni gursullatib polga yiqitdi. Qulog'ining ostida shavla qaynatib, shang'illatgani uchun qasdini shu tarzda oldi. Tishining oqini ko'rsatgan Ron tez oyoqqa turib oldi.

– Romilda Divangardning xizmat xonasida, – ishonch-la ma'lum qildi Garri, chiqish eshigi tomon odimlab.

– U yerda nima qiladi? -- xavotir-la so'radi Ron, Garri-ning ortidan oshiqib.

– U... sehrli damlama tayyorlash fanini yaxshi o'zlash-tira olmayotgani bois qo'shimcha dars oladi, – yurgan yo'lida to'qidi Garri.

– Balkim, unga sherik bo'lib, men ham qo'shimcha dars olarman, -- orzuga berildi Ron.

– Yaxshi fikr, -- ma'qulladi Garri.

Portret to'sgan tuynuk oldida ikkalasini kutilmagan

muammo qarshi oldi.

– Sen kechikyapsan, Ana-Ana, kechikyapsan, – labini burishtirdi Lavanda, xafa bo‘lib. – Senga sovg‘a...

– O‘zing pishirib ye, o‘sha sovg‘angni, – dag‘al javob berdi Ron. – O‘z holimga qo‘y meni. Hozir Garri meni Romilda Veyn bilan tanishtiradi.

Qizga ortiq so‘z aytmagan Ron portret to‘sgan tuynukdan shartta chiqib ketdi. Garri Lavandaga uzr so‘ragan qiyofa ila qaradi. Biroq qiz uning qiyofasini masxara ma‘nosida qabul qildi, shekilli, o‘qrayib qo‘ydi.

Ishqilib, Divangard nonushtaga chiqib ketmagan bo‘lsa bo‘ldi, tashvish tortdi Garri. Xayriyatki, eshik taqillashi bilan egniga yashil rang duxoba xalat va xalatga mos keladigan shlyapa kiygan professor eshikni ochdi.

– Garri... – ko‘zini pirpiratib po‘ng‘illadi Divangard. – Juda crta kelibsan... shanba kuni men uzoq uxlayman...

– Professor, bezovta qilganim uchun ming bor uzr, – imkon qadar past ovozda pichirladi Garri, oyoq uchida turgancha Divangardning orqasidan ichkariga qarashga urinayotgan Ronni mahkam ushlab qolishga urinib. – Biroq do‘stim Ron, o‘zi bilma-gan holda sevgi damlamasini yutib yuboribdi. Ziddi-zahar tayyorlab bering, iltimos. Uni Pomfri xonimning qabuliga olib borar edim-u, ortiqcha savol-javobdan o‘tishni hech istamaymiz... «Ueslilarning ajoyib ultrafokuslari»dan xarid qilingan mollarni saqlash man etilgan, buni o‘zingiz yaxshi bilasiz...

– Tajribali damlamachisan-ku, o‘zing tayyorlab bersang bo‘lmaydimi? – so‘radi Divangard.

– E-m-m... Gap shundaki, ser... ming‘irladi Garri. – Men hech qachon sevgi damlamasiga qarshi ziddi-zahar tayyorlamaganman... tayyorlagunimcha, Ron biron kor-hol ko‘rsatib qo‘yishi mumkin deb o‘ylayman.

Ichkariga kirishga oshiqayotgan Ron, Garrining qovurg‘asiga tirsak niqtab, gapirishga xalal bermoqda.

– Uni ko‘rmayapman, Garri... yashirib qo‘yganmi u qizni? – ingradi Ron.

– Damlamaning iste‘mol muddati o‘tmaganmi, ishqilib?

so'radi Divangard, Ronga mohirona qiziqish-la qarab. – Vaqt o'tgan sari, damlama kuchli ta'sirga ega bo'lib boradigan holatlar ham uchrab turadi.

– Bu ko'p narsalarga oydinlik kiritgan bo'lar edi, – hansiradi, Ronni kuch qo'llab tiyishga majbur bo'layotgan Garri. – Bugun esa uning tug'ilgan kuni, – o'tinch ohangida qo'shimcha qildi u.

– Mayli, kiringlar ichkariga, – taslim bo'ldi Divangard, Ronning talpinishini ko'rib. – Zaruriy tarkibiy qismlar sumkamda bor. Ziddi-zaharni tayyorlash jarayoni u qadar murakkab emas.

Ron kuchli isitilgan xizmat xonasining eshigiga otilib kirib, popuk bilan bezatilgan pastak kursiga qoqilib ketdi.

– Romilda ko'rib qolmadimi? – so'radi u, Garrining bo'ynidan mahkam ushlab olgancha, oyoqda turib qolib.

– U hali kelmabdi, – javob berdi Garri, Divangardga qarab.

Professor damlama tayyorlash to'plamining tarkibiy qismlaridan bir chimdimdan olib, shisha idishga soldi.

– Juda soz, – dedi Ron. – Ko'rinishim qalay, yaxshimi?

– Zo'r, – dedi, rangsiz suyuqlik quyilgan stakanni Ronga uzatgan Divangard, pinagi buzilmay. – Mana buni ichib ol. Asabingni mustahkamlab, kayfiyatingni ko'taradi, qiz kelguncha, ancha tinchlanib olasan... Tushungandirsan, nima demoqchi bo'lganimni.

– Yaxshi, – xursand bo'ldi Ron, stakanni bir ko'tarishda bo'shatib.

Garri bilan Divangard Ronni diqqat bilan kuzatib turishdi. Yashnab turgan Ron ham ularga qarab, ma'lum vaqt o'tgach, yuzidagi tabassum asta-sekin barham topib, oxiri qo'rquv qiyofasiga almashdi.

– Xo'sh, qalay, o'zingga kelib qoldingmi? – kulib boqdi Garri.

Divangard hiringlab qo'ydi.

– Rahmat sizga, professor, – minnatdorlik bildirdi Garri.

Arzimaydi, azizim, arzimaydi, – javob berdi

Divangard.

Bo'shashib ketgan Ron o'zini kursiga tashladi. Divangard esa ichimliklar terilgan stol tomon odimladi.

Kayfiyatini, chindan ham, biroz ko'tarish uchun unga nimadir ichirgan ma'qul. Xo'sh, menda huzur-lazzat, vino... eman bochkada saqlangan glintasalning so'nggi shishasi bor... Hm-m... uni Dambldorga Rojdestvo bayramiga sovg'a qilmoqchi edim... Ha, mayli... – yelka qisdi Divangard. – Borligini bilmaganidan keyin, sovg'a qilinmaganini ham bilmaydi-da, a? Bino-barin, xafa bo'lmaydi! Ushbu shishani mister Ueslining tug'ilgan kuni sharafiga ochib, nishonlasak arziydi. Hech bir narsa, javobsiz qolgan muhabbat azobini yaxshi tayyorlangan vinochalik yengillata olmaydi...

Divangard qurqirab kulib qo'ydi. Garri ham hirlingladi. Xotiraning asl nusxasini qo'lga kiritish borasidagi urinish muvaffaqiyatsiz yakun topgandan buyon, ikkovlon ilk bor shunday samimiy uchrashmoqda. Agar o'qituvchining yaxshi kayfiyati saqlanib qolsa... eman vinosining yetarlicha miqdori ichilsa, ehtimol...

– Marhamat, marhamat.

Divangard Ron bilan Garriga qadah uzatgach, o'zining qadahini baland ko'tardi.

– Nima ham der edim, tabriklayman, Ralf...

– Ron, – pichirladi Garri.

Tabrik so'zini eshitishga sabri chidamagan Ron, qadahni shartta ko'tardi-da, quritdi-qo'ydi.


Bir soniya o'tib-o'tmay, yurak bir bor urishga ulgurib-ulgurmay, Garri qandaydir dahshat ro'y berganini idrok etdi, Divangard esa hali hech narsani fahmlagani yo'q.

– ... doimo sog'-salomat bo'lib...

– RON?!

Qo'lidagi qadahni tushirib yuborgan Ron, o'rnidan turishga urindi-yu, yerga qulab, oyoq-qo'li tipirchilay bosiladi, og'zidan ko'pik kelib, ko'zi kosaday ochilib qoldi.

– Professor! – qichqirdi Garri. – Biron nima qilsangiz-chi!



Biroq Divangard xuddi yashin urib, falaj bo'lib qolgan-day, o'rnidan qilt eta olmadi. Yuzi ko'kara boshlagan Ronning nafasi bo'g'ilib, hamon tipirchilamoqda.

– Ammo... lekin... biroq... nima, – guvrandi Divangard.

Garri past bo'yli stol ustidan shartta sakrab o'tib, damlama tayyorlash to'plami tomon otildi-da, har xil bankalar-u qopchalarni har tomon uloqtirdi. Ron dahshatli g'uldirash tovu-shini chiqara boshladi. Nihoyat Garri kerakli narsani – Divangard undan damlama tayyorlash darsida qabul qilgan, shakli inson buyragini eslatib, qurib burishib ketgan ziddi-zaharni topdi.

U Ronning yoniga sakrab kelib og'zini kuch-la ochdi-da, bezoar toshini do'stining bo'g'ziga tiqib yubordi. Ron kuchli seskanib, uzuq-yuluq nafas chiqargach tanasi bo'shashib, harakatsiz cho'zildi.

XIX BOB

KUZATUVCHI ELFLAR

Qorong'i tushdi. Pardalari tortilib, fonuslari yoqilgan kasalxona palatasida o'lik jimjitlik hukm surmoqda. Bu yerda davolanayotgan yagona bemor Ron bo'lib, yonida Garri, Germiona va Jinna o'tirishibdi. Uchovlon butun oqshom davomida oyoqda, qasrning kasalxona joylashgan qanotidagi qo'sh eshik ortida, birov palataga kirib-chiqayotganda ichkariga mo'ralagancha, turib chiqdi. Kechki soat sakkizdagina Pomfri xonim ichkariga kirishga ijozat berdi. Yana o'n daqiqa o'tgach, Fred bilan Jorj yetib kelishdi.

– Muxtasar qilib aytganda, tug'ilgan kuni noxush bo'libdi, – xulosa qildi Fred.

– Nimasini aytasan, – dedi Jorj, ma'yus ohangda. – Sovg'ani bu tarzda topshiramiz deb o'ylamagan edik.

U qo'lidagi bo'xhani karavot oldidagi kichik stol ustiga qo'yib, Jinaning yoniga o'tirdi.

– To'g'ri, hushida bo'lishi kerak edi u tasavvurimizda,

– dedi Fred.

– Xogsmiyodda sayr qildirib, ajablantirmoqchi edik uni...

– davom etdi Jorj.

– Xogsmiyodda edingizmi? -- so‘radi Jinna, boshini ko‘tarib.

– Zonkoning har xil kulgili narsalar sotiladigan do‘konini sotib olib, do‘konimizning Xogsmiyod bo‘limini ochishni niyat qilgan edik, – g‘amgin tushuntirish berdi Fred. – Endi bundan nima naf, agar siz ahmoqlarni Xogsmiyodga chiqarishmaydigan bo‘lsa... mollarimizni kimga sotamiz... mayli, hozir gap bunda emas.

U kursisini surib, Garriga yaqinroq o‘tirib oldi-da, Ronning qon qochgan yuziga qaradi.

– Qanday ro‘y berdi deding, o‘sha hodisani?

Garri Dambldor, Makgonagall, Pomfri xonim, Germiona va Jinnaga qariyb yuz marta aytib berganini yana bayon etishga kirishdi.

– ... bezoar toshini og‘ziga solganimdan so‘nggina, nisbatan yengil nafas ola boshladi. Divangard yordam chaqirgani yugurdi. Yana birozdan so‘ng Makgonagall bilan Pomfri xonim yelib kelib, uni bu yerga olib kelishdi. Pomfri xonimning gapiga qaraganda, Ron bir haftacha hamdardlik sharbatini ichib tuzalib ketar ekan.

– Bezoar toshi miyanga kelgani – omad bizga kulib soqqani, – past ovozda xulosa qildi Jorj.

– Omadimiz kulgani – o‘sha toshning topilgani, – dedi Garri, bezoar topilmaganida ish nima bilan yakun topishini tasavvirlab qilib vujudi har galgidek titrab ketdi.

Kun davomida g‘ayrioddiy sukut saqlagan Germiona hech kimga eshittirmay hiqilladi. Ertalab yugurib kelgan qiz ranggi dokaday oqarib Garridan yuz bergan hodisa haqida hisobot talab qilgach, zaharlash borasida Garri bilan Jinna o‘rtasida kechgan qizg‘in bahsga deyarli aralashmadi, ikkalasining yonida to‘ichkariga kirishga ijozat berilguncha, tishini mahkam siqib olgancha, cho‘chib, indamay turdi.

– Oyim bilan dadamning xabari bormi? – so‘radi Fred

Jinnadan.

– Bir soatcha oldin shu yerda o'tirishgan edi... endi Damblorning xonasida, hozir kelib qolishsa kerak.

Hamma jim bo'lib, uyqusida nimadir po'ng'illagan Ronga e'tibor qildi.

– Demak, zahar vino tarkibida bo'lgan, shundaymi? – past ovozda so'radi Fred.

– Ha, – ishonch-la ta'kidladi, boshqa taxminni tasavvur qilmay, bo'lib o'tgan hodisani yana bir bor muhokama qilishga tayyor Garri. – Divangard uni uchta qadahga teng quyib uzatdi...

– Senga sezdirmay, biron nima sepib qo'ygan bo'lishi mumkin edimi, qadahga?

– Mumkin edi, – javob berdi Garri. – Faqat savol: nima maqsadda?

– Bilmayman, – qoshini chimirdi Fred. – Nazarimda, Divangard qadahlarni adashtirib yuborgan, seni zaharlamoqchi bo'lib, a, nima deb o'ylaysan?

– Garrini zaharlab nima naf ko'radi u? – hayron bo'ldi Jinna.

– Kim biladi deysan, – dedi Fred. – Umuman aytganda, hozir Garrini o'ldirish payida yurganlar kam emas. Axir, u Mumtoz va hokazo bola-yu.

– Seningcha, Divangard O'limdan zavqlanuvchilardan biri, shundaymi? – so'radi Jinna.

– Rad etib bo'lmaydi, – javob berdi Fred g'amgin ohangda.

– Bu ishni u Qaram qilish qarg'ishi ostida qilgan bo'lishi ham mumkin, fikr bildirdi Jorj.

– Aybsiz bo'lishi, shisha ilgari zaharlangan bo'lib, vino Divangardning o'zi uchun mo'ljallangan bo'lishi ham mumkin, – dedi Jinna.

– Divangardni o'ldirish kimga kerak bo'lib qoldi?

– Damblorning fikricha, Voldemort Divangardni o'z safida ko'rishni istagan, – gapga aralashdi Garri. – «Xogvars»ga ishga kirguncha Divangard bir yil yashirinib yurgan. Balkim... – atayin buzilgan xotirani esga oldi u. – Damblorga yordam ber-

masligi uchun Voldemort Divangardni yo'q qilmoqchi bo'lgandir.

– Divangard o'sha shishani Damblidorga Rojdestvo bayramiga sovg'a qilmoqchi bo'lganini o'zing aytding-ku, – eslatib o'tdi Jinna. – Demak, ko'zlangan qurbon Damblidorning o'zi bo'lishi ham mumkin.

– Demak, vino jo'natgan odam Divangardni yaxshi bilmas ekan, – dedi Germiona. – Aks holda, mazali narsani Divangard o'ziga olib qolishidan boxabar bo'lgan bo'lar edi u.

Qiz bir necha soatdan buyon endi tilga kirib, ovozi shamollab qolgan kishining ovoziday eshitildi.

– Yer-mo-na, – kutilmaganda ingradi Ron.

Hamma yana jim bo'lib, tashvishli nigohini yana Ronga qaratdi. Allanima po'ng'illagan bemor xurрак otishni davom eta ketdi.

Eshik daf'atan lang ochilib, hamma seskanib tushi. Palataga egniga hilpirayotgan ayiq po'stin, nihoyatda keng ishton kiygan, sochini yomg'ir qatralari ho'l qilgan, qo'liga arbalet¹ ushlab olgan Xagrid, har birining o'lchami yosh delfindek keladigan loy iz qoldirgancha, yopirilib kirdi.

– Kun bo'yi o'rmonda edim! Aragogning ahvoli tobora yomonlashib boryapti... unga ertak aytib o'tirdim... – hansiradi u. – Kechki ovqatga qaytib, bo'lgan ishni professor Sarsabil xonimda eshitdim!... Ron qalay?

– Yomon emas, – dedi Garri. – Tuzalib ketadi.

– Olti kishidan oshib ketmang! – baland ovozda eslatdi Pomfri xonim, xonasidan yugurib chiqib.

– Xagrid bilan olti kishimiz, – ta'kidlab qo'ydi Jorj.

– A-a... ha-ya... – g'udulladi Pomfri xonim, aftidan, benihoya katta o'lchami tufayli Xagridni birato'la bir necha kishi sifatida qabul qilib.

Ayol o'z xijolatini bekitish uchun sehrli tayoqchasini

¹ **Arbalet** (fransuzcha: arbalete; lotincha: arcus – yoy va ballista – irg'itiladigan snaryad) – o'rta asrlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ishlatilgan otish quroli; yog'och asosga (dastgohga) mahkamlangan po'lat kamondan iborat. Arbaletdan kalta o'q-yoylar bilan otilgan.

chiqarib, polni Xagridning izlaridan tozalashga kirishib ketdi.

– Ishongim kelmaydi, – xirilladi Ronga baqraygan Xagrid, paxmoq boshini siltab. – Ishonmayman, vassalom... yotishini qarang... Kimga kerak bo‘lib qoldi, uni zaharlash, a’?

– Aynan shu masalani muhokama qilib o‘tirgan edik, – dedi Garri. – Biz ham bilmaymiz.

– Balkim, kimdir «Griffindor» jamoasiga tish qayrab yurgandir? – tashvish-la taxmin qildi Xagrid. – Dastlab Ketti, endi esa Ron...

– Jamoaga? – hayratlandi Jorj. – Kimning miyasiga ketishi mumkin bunday bema’ni fikr?

– Drev slizerinchilarning barini bitta qo‘ymay bo‘g‘ib qo‘ygan bo‘lar edi, agar bunday qiliqlari jazosiz qolishini bilsa, – ta’kidlab o‘tdi Fred.

– Gap kvdishda bo‘lmasa kerak, lekin, o‘ylashimcha, ikkala suiqasd o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik bor, – past ovozda fikr bildirdi Germiona.

– Qanday bog‘liqlik? – so‘radi Fred.

– Birinchidan, ikkala suiqasd baxtli tasodif tufayligina o‘lim bilan yakun topmadi. Ikkinchidan esa zahar ham, anavi shoda ham ko‘zlangan qurbonga yetib bormadi. Bu esa, o‘z navbatida, – biroz o‘ylanib turgach, qo‘shimcha qildi Germiona, – jinoyatchi biz o‘ylagandan ham xavfli ekanini anglatadi. Aftidan, o‘z maqsadiga erishish yo‘lida nobud bo‘ladigan odamlar sonining ahamiyati yo‘qqa o‘xshaydi unga.

Ushbu dahshatli tahlil endigina yakun topgan ediki, palataning eshigi ochilib, mister va missis Ueslilar kirib keldi. Birinchi bor kirib Ronning tuzalib ketishiga ishonch hosil qilganча chiqib ketgan missis Uesli Garrini quchib, bag‘riga mahkam bosib oldi.

– Dambldor bizga bezoar to‘g‘risida aytib berdi, – yig‘lamsiradi ayol. – O, Garri, nima desam ekan senga? Dastlab Jinna... keyin Artur... mana endi Ron... ularning hayotini qutqarib qolding...

– Qo‘ysangiz-chi... men hech narsa... – bazo‘r g‘udullay oldi Garri.

– Mundoq o‘ylab qarasak, Garri, tirik qolgani uchun oilamizning yarmi sendan minnatdor bo‘lishi kerak ekan, - dedi mister Uesli, ovozi ezilib. – Ha... Bir vaqtlar «Xogvars-ekspress»da o‘g‘limiz Ron aynan sening kupengga kirib o‘tirishga ahd qilgan kun – jamiki Ueslilar uchun nihoyatda omadli kun bo‘lgan ekan.

Nima deb javob berish kerakligini bilmay o‘tirgan Garri Pomfri xonimning bemor oldida olti kishidan ortiq kishi bo‘lishi mumkin emasligiga doir eslatmasini eshitgach, xursand bo‘lib ketdi. Germiona ikkalasi shu zahoti oyoqqa turib, chiqish eshigi tomon yo‘l olishdi. Xagrid ham Ronni oila a‘zolari davrasida qoldirishga ahd qilib, o‘rnidan turdi. Uchovlon yo‘lak bo‘ylab marmar zina tomon odimladi.


– Dahshat, – gumburladi Xagrid. – Yangidan yangi muhofaza choralari ko‘rilayotganiga qaramay, bolalarga hamla qilish davom etmoqda... Damblдор juda tashvishda... indamay yuribdi... ko‘rib turibman-u...

– Biron-bir taxmini yo‘qmi, uning? – umidsiz ohangda so‘radi Germiona.

– Shunday miyasi bilan yuzlab taxmini bo‘lishi aniq, – sadoqatli talabalarga xos ohangda javob berdi Xagrid. – Faqat u ham bilmaydi, marjonni kim berib yuborganini-yu, vinoga kim zahar solganini. Bilganida ularning barini bo‘g‘zidan olgan bo‘lar edi, shunday emasmi? Men xavotir olayotgan yagona narsa – ovozini pasaytirdi u, atrofga va Dryuzg yo‘qligiga ishonch hosil qilish uchun, har ehtimolga qarshi yuqoriga alanglab bolalarga nisbatan suiqasd takrorlanadigan bo‘lsa, «Xogvars»ning faoliyati uzoqqa cho‘zilmaydi. Axir, bunday holat Maxfiy xonaning ochilishi bilan barobar-u. Yana vahima ko‘tariladi, ota-onalar o‘z farzandlarini yana olib keta boshlaydi, maktabni boshqarish marmuriyati shu zahoti yig‘iladi-da...

Xagrid betashvish suzib o‘tayotgan uzun sochli ayol arvohi ko‘zdan g‘oyib bo‘lishini kutib, jim bo‘lib qoldi. So‘ng xirillagan ovozda davom etdi:

– ... maktabni butunlay yopish yuzasidan qaror qabul qiladi.



– Nahotki? – cho‘chib ketdi Germiona.

– Masalaga ularning nuqtai nazaridan yondashib ko‘ring, – g‘amgin davom etdi Xagrid. – Bolani «Xogvars»ga jo‘natishning o‘zi qaysidir ma’noda tavakkalchilik, shunday emasmi? Shuncha yosh sehrgar berk joyga qamab qo‘yilar ekan, ko‘ngilsiz hodisalar beixtiyor ro‘y berishi tabiiy. Qotillikka qo‘l urish esa boshqa gap. Damblorning jahli bejiz chiqayotgani yo‘q Sne...

Xagrid kutilmaganda qoqilgan qoziqday qotib qoldi. Uning yuzida, har qalay, chigallashib ketgan sochi-yu, soqolmo‘ylovidan xoli qismida zominlikning tanish qiyofasi ko‘rindi.

– Nima deding? Damblorning Sneggdan jahli chiqyapti dedingmi? – so‘radi Garri.

– Men unday demadim, – sarosimaga tushib qoldi Xagrid, sir boy berib qo‘yib. – Vaqt allamahol bo‘ldi, men bora qolay...

– Xagrid, nega Damblorning Sneggdan jahli chiqyapti? – baland ovozda takrorladi Garri.

– E, jim-e, jim! – domangir pichirladi cho‘chib ketgan Xagrid. – Nega baqirasan? Meni maktabdan quvib solishlarini istaysanmi? To‘g‘ri, lekin... Senga nima farqi bor endi... darsimga kelmay qo‘ygan bo‘lsang...

– Meni izza qilishga urinma, foydasi yo‘q! o‘jarlik qilganча turib oldi Garri. Yana nima hunar ko‘rsatdi Snegg?

– Bilmayman, Garri. Buni bilish mumkin emas edi asli menga! Men... qisqasi... kunlardan bir kun o‘rmondan chiqib, qulog‘imga kimlarningdir suhbatl... aniqroq aytganda, janjalli bahsi chalinib qoldi. Meni payqab qolishlarini istamadim. Asta yurib, bo‘layotgan gap-so‘zni eshitmaslikka harakat qildim-u, lekin ular... qizishib ketishdi va men, beixtiyor...

– Xo‘sh? – qiyin-qistovini qo‘ymadi Garri.

– Sneggning gapiga qaraganda, – davom etdi shoshib qolgan Xagrid, – Damblдор haddan ortiq ko‘p hodisalar yuz berishi muqarrarligini bilar va u, ya‘ni Snegg endi bu ishdan bosh tortar emish...

– Qanaqangi ishdan?

– Bilmayman, Garri, bilmayman! Sneggning gapidan

shuni tushundimki, u ishlayverib holdan toygan, bor gap shu... Dambldor esa boshida rozilik bergach, ishni oxiriga yetkazishni talab qildi. Juda qat'iy ohangda. Snegg o'zining fakulteti – «Slizerin»da olib borayotgan surishtiruv ishlari haqida gapirganday bo'ldi. Buning ajablanarli yeri yo'q, albatta! – xitob qildi Xagrid, Garri bilan Germiona bir-biriga ma'noli qarab qo'yganini ko'rib. – Anavi shoda yuzasidan surishtiruv o'tkazish vazifasi mudirlarning bariga qo'yilgan...

– To'g'ri, lekin Dambldor qolgan mudirlar bilan janjallashmagan, ta'kidlab qo'ydi Garri.

Xagrid qo'lidagi hayajon-la aylantirayotgan arbaletni bexos sindirib ikki bo'lib qo'ydi.

– Quloq sol, Garri, dedi u. – Bilaman, Sneggni ko'rgani ko'zing, otgani o'qing yo'q, lekin sen u haqda har xayolga borishingni istamas edim.

– Jim, – pichirladi Germiona.

Uchovlon o'girilib, dastlab nazoratchi Argus Filchning devorda paydo bo'lgan soyasi, xayol o'tmay, muyulish ortidan qaddi bukilib lunji titragancha chiqib kelgan tanasini ko'rdi.

– H-a-a-a! – hushtakli ovoz chiqardi u. – Tun yarmida yotoqxona tashqarisida! Hamma jazoga tortiladi!

– Nega endi jazoga tortilar ekan, Filch? – e'tiroz bildirdi Xagrid. – Men bilan-u ular.

– Xo'sh, sen bilan bo'lsa, nima qilibdi? – haqoratomuz ohangda so'radi Filch.

– O'qituvchiman, axir, jin ursin meni, – darg'azab javob berdi Xagrid. – Tushundingmi, sen, sulloh shvax?

Nafrati qaynagan Filch shu zahoti tumsayib oldi. Jirkanch pishillash eshitilib, yer tagidan chiqqan kabi paydo bo'lgan missis Norris o'z sohibining cho'p-ustuxon boldiriga o'ralib oldi.

– Sizlar bora qolinglar, – dedi Xagrid og'zining bir cheti bilan.

Garriga ortiq iltimos qilishga to'g'ri kelmadi. Germiona ikkalasi yotoqxona tomon yo'l olishdi. Orqada esa Xagrid bilan Filchning baland ovozda so'kishayotgani eshitildi. «Griffindor»

minorasiga burilish joyida Dryuzg ko'rindi. Biroq poltergeyst bolalarga e'tibor qilmay, quvnoq hirlinglab, murdor qo'shiqchasini xirgoyi qilgancha, baqir-chaqir eshitilgan tomon oshiqdi:

*Qayda janjal, qayda kulfat!
Dryuzgga yoqar o'sha payt!*

Mizg'ib o'tirgan «Semiz Xola» bezovta qilinganidan achchiqlanib, vaysagan bo'lsa-da, tuynukni ochib, Garri bilan Germionani kishi hordiq oladigan darajada jimjitlik hukm surgan, kimsasiz umumiy mehmonxonaga kiritdi. Aftidan, hali hech kim Ron haqida eshitmagan. Bugungi savol-javoblardan to'yib ketgan Garri ushbu holatdan ancha yengil tortdi. Xayrli tun tilagan Germiona qizlar yotoqxonasi tomon yo'l oldi, Garri esa kamin oldidagi kresloga cho'kib, o'chayotgan cho'g'larga termilgancha qoldi.

Demak, Damblдор Snegg bilan janjallashgan, so'zsiz ishonch bildirishiga oid gaplariga qaramay, unga baqirib bergan... Bundan chiqdi, Damblдорning fikricha, Snegg slize-rinchilarni... balki, Malfoyning yolg'iz o'zini talab darajasida so'roq qilmagan...

Unday bo'lsa, nega Damblдор Garrining gumonlari asossiz degan ko'yg'a solib olyapti o'zini? Garri biron-bir ahmoqona ishga ketini o'ylamay qo'l urib, surishtiruv jarayoniga shaxsan o'zi aralashishidan qo'rqdimi? Darhaqiqat, shunday bo'lishi ham mumkin edi. Lekin boshqa bir sababni ham rad etib bo'lmaydi, u ham bo'lsa, Damblдор Garrining mashg'ulotlardan yoki Divangardning xotirasi bilan bog'liq «uyga berilgan vazifa» ijrosidan chalg'ishini istamagan. Balkim, o'qituvchilardan biri borasidagi gumonini Damblдор o'n olti yoshli bola bilan o'rtoqlashishni istamas...

— Shu yerda ekansan-da, Potter!

Cho'chib ketgan Garri iring'ib turib, sehrli tayoqchasini qo'lga oldi. Umumiy mehmonxonada hech kim yo'qligiga ishonchi komil bo'lib, narigi burchakdagi kreslo ustida allaqanday bahaybat sharpa paydo bo'lishini kutmagan edi. Qoron-

g'ilikka diqqat bilan nazar solib, Kormak Maklaggenni tanidi.

– Seni kutib o'tirgan edim, – dedi Maklaggen, ko'kragiga o'qtagan sehrli tayoqchani ko'rmay. – Mizg'ib qolibman. Bugun Ueslini kasalxonaga ko'tarib ketishganini ko'rib qoldim. O'yin boshlanguncha oyoqqa turishiga ko'zim yetmaydi. O'yin esa kelasi haftada.

Gap nima haqda borayotganini anglab yetish uchun Garriga bir necha soniya kerak bo'ldi.

– A... kvidish... ha, – g'udulladi u, sehrli tayoqchasini jinsi shimining kamari orasidan o'tkazar ekan, qo'lini sochi orasidan horg'in o'tkazib. – To'g'ri... oyoqqa turishi qiyin.

– O'miga kim o'ynaydi, menmi? – so'radi Maklaggen.

Rad etgani Garri sabab topa olmadi. Har qalay, Maklaggen saralash sinovlarida ikkinchi o'rinni egallagan.

– Ha, – javob berdi Garri. – O'ylashimcha, shunday bo'ladi.

Juda soz, – mamnun xitob qildi Maklaggen. – Mashq qachen?

Nima? A... ertaga kechqurun.

– Yaxshi. Quloq sol, Potter. Ikkalamiz bir narsani oldindan muhokama qilib olishimiz kerak. Strategiyamiz masalasida bir qator g'oyalarim bor, nafi tegadi, ishonaver.

– Juda yaxshi, – ishtiyoqsiz javob berdi Garri. – Faqat hozir emas, xo'pmi? Juda charchaganman... ko'rishguncha...

Ertasi kuni Ronning zaharlangani haqidagi xabar butun maktabga tarqaldi-yu, Kettiga uyushtirilgan suiqasddan farqli o'laroq, shov-shuv ko'tarilishiga sabab bo'lmadi. Modomiki, voqea sehrli damlamalar tayyorlash fani o'qituvchisining xizmat xonasida ro'y bergan ekan, bu baxtsiz hodisa bo'lishi ham mumkin, deya e'tirof etildi sodir bo'lgan o'sha hodisa. Buning ustiga, Ronga ziddi-zahar o'z vaqtida berilib, zaharlanish oqibati muvaffaqiyatli yakun topgan. Umuman olganda, hozir griffin-dorchilarni «Xufflpuff» bilan o'tadigan o'yin ko'proq qiziqtiradi. Ularning aksariyati «Xufflpuff» jamoasining «Ovchi»si Zakkerayes Smit mavsumning birinchi o'yinidagi jirkanch sharhlari uchun munosib jazo olishini ko'rishga oshiqmoqda.

Garri esa kvidishga hali bu qadar befarq bo'lmagan. Fikri-xayoli Drako Malfoyda. Qulay payt kelishi bilan Kafanduzd xaritasini qo'liga olib tekshirar, Malfoy yurgan joyga atayin borar, lekin biror marta bo'lsin, uni shubhali ish ustida ushlab olishga muvaffaq bo'lmas edi. Shunga qaramay, Malfoy, xarita sarhadidan sirli ravishda g'oyib bo'lib bormoqda...

Afsuski, ushbu sirni fosh etishga Garrining vaqti bo'lmayapti. Kvidish mashqlari, uyga berilayotgan bir olam vazifa, Maklaggen bilan Lavanda Braundan nari yurishga majbur bo'lish... bularning bari unga xalal beryapti.

Ikkalasidan qaysi biri ko'proq jonga tekkanini ham bilmaydi. Maklaggen o'zini «Qo'riqchi» sifatida Rondan a'lo ekani, agar o'yinini ko'rsa, Garrining o'zi buni tan olishini tinimsiz ta'kidlar, jamoaning qolgan a'zolarini tanqid qilar, garchi Garri jamoa sardori kim ekanini bir necha bor eslatib o'tishga majbur bo'lgan bo'lsa-da, kvidish mashqlarida nimalarga, qanday tafsilotlarga e'tibor berish kerakligini uqtirib borar edi.

Garrining oldida paydo bo'lishi bilan Ronni tinimsiz muhokama qiladigan Lavandaning vaysashi esa Maklaggenning sportga oid zerikarli ma'ruzalaridan zig'irday qolishmas edi. Avvaliga Lavanda birov uni Ron bilan baxtsiz hodisa ro'y bergani haqida xabardor qilmaganidan: «Har qalay, men uning sevgan qizi bo'laman!» – deya Garridan o'pka qilib yurdi. Keyinchalik, Garrining bunday beadabligini kechirgan Lavanda, garchi Garri qizning ushbu takallufini jon deb rad etishga tayyor bo'lsa-da, Ronning his-tuyg'ularini atroflicha muhokama qilishga juda ishtiyoqmand bo'ldi.

Lavanda tantanali marosimlarda kiyiladigan yangi korjomasi Ronga yoqqan-yoqmaganidan boshlab, Ronning unga nisbatan bo'lgan munosabati jiddiyligiga Garrining ishonchi komil yoki komil emasligigacha har xil savollari ila xiralik qilavergach, oxiri Garri so'rashga majbur bo'ldi:

-- Menga qara, Lavanda, nega bularning barini Ronning o'zidan so'rab bilmaysan?

-- So'rashga so'rar edim-u, qachon oldiga kirsam, uxlagani uxlagan-da! -- ma'yus xitob qildi Lavanda.

– Yo‘g‘-e?! – ajablandi Garri.

Ron Garrini hamisha bardam qarshi olib, Dambldor bilan Snegg haqida yangilik kutar, Maklaggenning suyagini tolmay g‘ajishga tayyor edi.

– Gerniona Grenjer-chi, Ronning holidan xabar olib turibdimi? – kutilmaganda qiziqib qoldi Lavanda.

– Menincha, shunday, – o‘zini noqulay sezdi Garri. -- Axir, ular do‘st-u.

– Do‘st emish, – istehzo qildi Lavanda. – Kulgimni qistama, Garri. Ikkalamiz uchrasha boshlaganimizda Gerniona bir necha hafta Ron bilan gaplashmay qo‘ygan edi! Endi u mana bunday kelishgan, qiziq holatga tushib qolganda, yarashib olishni orzu qilyapti...

– Nimalar deyapsan, Lavanda? Uni zaharlab o‘ldirishga urinishdi, buning nimasi qiziq ekan? – taajjublandi Garri. -- Umuman aytganda... Meni kechirasan-u, borishim kerak. Maklaggen kelyapti, u men bilan kvidish haqida suhbatlashmoqchi.

Garri bir qarashda yaxlit devorday ko‘ringan eshikdan lip etib o‘tib, qisqa yo‘l bilan sehrli damlamalar tayyorlash mashg‘ulotiga yo‘l oldi. Xayriyatki, u yerda Lavanda ham Maklaggen ham bo‘lmaydi.

Ertalab, «Xufflpuff» bilan o‘tadigan o‘yindan oldin, Garri, o‘yingoh tomon yo‘l olmay, kasalxonaga kirib o‘tdi. U yerda Ron qoni qaynab yotibdi. Holdan toyish ehtimoli borligi tufayli Pomfri xonim tomonidan o‘yingohga borish ijozati unga berilmadi.

– Maklaggen uddalay olyaptimi? – asabiy so‘radi u, aftidan, ushbu savolni ilgari ikki marta berganini unutib.

– Aytdim-u, senga, – vazmin ohangda takrorladi Garri. – Jahon miqyosidagi kvidish yulduzi bo‘lgan taqdirda ham uni jamoa tarkibida qoldirmagan bo‘lar edim, deb. U hamisha kim qanday o‘ynashi kerakligini o‘rgatib, o‘zini eng mohir o‘yinchi deb hisoblaydi. Undan qanday qutulish yo‘lini topa olmay yuribman. Ha, aytganday, birovdan qutulish masalasida. – «Chaqmoq»ni qo‘liga olgancha, o‘rnidan turdi u. – Balkim, bas qilar-san, Lavanda kelganda o‘zingni uxlab yotgan ko‘yga solishni?

Aks holda u hademay meni aqlidan ozdirib yuboradi.

– A, – xijolat bo'ldi Ron, – ha, albatta.

– Uchrashishni istamas ekansan, to'g'risini aytib qo'y unga, – nasihat qildi Garri.

– To'g'rilikka to'g'ri-yu... undan osonlikcha qutulib bo'lmaydigan ko'rinadi... – g'udulladi Ron.

Biroz sukut saqlagan Ron bexos qiziqib qolganday so'radi:

– Germiona kirib o'tadimi bu yerga, o'yindan oldin?

– Yo'q. Jinna ikkalasi allaqachon o'yingohga ketgan.

– Tushunarli, – dedi Ron, qovog'i osilib. – Yaxshi. Omad tilayman. Umid qilamanki, Maklag... yo'g'-e. Smittning adabini berib qo'yasan.

– Urinib ko'raman, – javob berdi Garri, supurgisini yelkasiga tashlab. – O'yindan keyin ko'rishguncha.

Jamiki maktab hovlida, o'yingohda yoki o'yingoh tomon yo'l olgan. Kimsasiz yo'laklar bo'ylab tez odimlagancha, shamol kuchiga baho berish uchun derazalardan ko'chaga qarab borgan Garrining qulog'iga kutilmaganda qandaydir shovqin eshitilib qoldi. Ro'paradan qovog'idan qor yog'ilayotgan ikki nafar qiz hamrohligida Malfoy chiqib qoldi.

Garrini ko'rgan Malfoy dong qotib, birozdan so'ng quvonchsiz xandon otib qo'ygancha, harakatini davom etdi.

– Qayoqqa? – beixtiyor so'radi Garri.

– Hozir oqizmay-tomizmay, bor gapni aynan senga aytib beraman, Potter, – haqoratomuz ohangda vishilladi Malfoy. – Yaxshisi, shoshil. Odamlar Mumtoz o'yinchini, dunyoda bor narsani urib tashlaydigan bolani, yana nima deyishar edi ular seni, kutishmoqda.

Garri hayron bo'lib, beixtiyor hirlinglab yuborgan qizlardan biriga qarab qo'ydi. Qiz qizarib ketdi. Malfoy Garrini tartib o'tgancha, yo'lini davom etdi. Ikkala qiz ham uning ortidan pildirab, ko'p o'tmay, uchovlon mayulish ortida g'eyib bo'ldi.

Hamma o'yingohda bo'lsa-yu, Malfoy o'z ishi bilan band bo'lsa. Nima bilan mashg'ul ekanini bilib olishning rosa qulay fursati keldi-yu, biroq... Jimjitlikda kechayotgan soniyalar

tez o'tib bormoqda, Garri esa Malfoy burilgan muyulish tomon baqraygancha tek qotib qoldi.

– Qayerga gundon bo'lding? – domangir ohangda so'radi Jinna, kiyinish xonasiga otilib kirgan Garriga o'qrayib.

Jamoa allaqachon kiyinib, maydonga chiqishga shay turibdi. «Urrib qaytaruvchi»lar Piks bilan Proustak tayoqlarini oyoqqa urgancha, asabiylashmoqda.

– Malfoyni uchratib qoldim, – past ovozda javob berdi Garri, to'q qizil kiyimini boshi orqali o'tkazgancha kiyib.

– Xo'sh?

– U va unga hamroh bo'lgan ikki nafar qiz el qatori o'yingohga kelmay, qasrda izg'ib yurishganining sababini oydinlashtirib olmoqchi bo'ldim.

– Shu paytda-ya? Shunchalik muhim edimi bu?

– Buni bilish endi amrimahol, – javob berdi «Chaqmoq»ni yelkasiga tashlagan Garri, ko'zoynagini to'g'rilab. – Bo'ldi, ketdik.

– Ob-havo ham o'chakishgandek, ichi qoralik qilyapti, – jamoaga dalda bergan bo'ldi Maklaggen. – Piks, Proustak, yaqinlashayotganingizni ko'rmasligi uchun, raqib tomon quyoshga qarab uching...

– Maklaggen, bu yerda sardor men bo'laman. Ko'rsatma berishni bas qil! – jerkib berdi Garri. – Yaxshisi, borib, halqalaringni qo'riqla!

Maklaggen qovog'idan qor yog'ilgancha nari ketdi. Piks bilan Proustak tomon yuzlangan Garri vaysab qo'ydi:

– Quyoshga qarab uchishni unutmang.

«Xufflputi» jamoasining sardori bilan qo'l siqishib qo'ygan Garri kvidish o'yini hakami Rolanda Tryuk xonimning hushtagiga binoan yerdan itarilib, o'z jamoasi uzra yuqoriga ko'tarildi-da. «Filla chaqqon»ni qidira ketdi. Qaniydi, koptokchani tezroq tutib olib, qasrga qaytsa-yu, Kafanduzd Xaritasini olib, Malfoy nima bilan band ekanini aniqlab olishga ulgursa...

– «Kvaffl» xufflpuffchi Smitning qo'lida, – aks-sadoday yangradi xayolchan ovoz o'yingoh uzra. – So'nggi o'yinga mana shu bola sharhlovchilik qilgan bo'lib, griffindorchilar haqida

juda dag'al fikrlar bildirgan edi... O'shanda Jinna Uesli to'g'ri borib Smitga urilib ketgan... va, nazarimda, u atayin qilgan... har qalay, men shunday deb o'ylayman. Mana endi Smit, griffin-dorchilarga qarshi o'ynar ekan o'z qilmishidan ich-ichdan pushaymon yeyotgani aniq... Voy ana, Kvaflni ham oldirib qo'ydi u lapashang... Jinna tortib oldi. Juda yaxshi-da, shu qiz. Menga yoqadi...

Garri taajjub-la sharh maydoniga baqrayib qoldi. Hatto shu yerda, osmon-u falakda, sharhlovchining kirchimon uzun oqsariq sochi va shisha tiqinlaridan terilgan shodasi aniq ko'rinmoqda. Nahotki aqli-hushi joyida, xotirasi durust kishilardan birortasi, boshqa odam qurib ketganday, kelib-kelib Luna Lavgudni sharhlovchi etib tayinlagan bo'lsa?! Aftidan, qarori to'g'ri ekaniga shubha ila qaray boshlagan professor Makgonagall, uning yonida xijolat tortib o'tiribdi.

– ... «Kvafl» endi anavi barzangi xufflpuffchining qo'liga o'tdi. Familiyasi nima edi-ya uning, eslay olmayapman... allaqanday Babkinsmidiyey... Xamkinsmidiyey...

– Grubbakins! – baland ovoz-la tuzatish kiritdi professor Makgonagall.

Xaloyiq xandon otdi. Garri atrofga alangladi. «Tilla chaqqon» hech qayerda ko'rinmaydi. Xayol o'tmay, Grubbakins gol urdi. O'ng qulog'idan bir dyuym narida uchib o'tgan qizil to'pni ko'rmay qolgan Maklaggen Jinnaga o'kirgancha, «Kvafl»ni oldirib qo'yganida aybladi.

– Maklaggen, balki, odamlarni o'z holiga qo'yib, halqalarni qo'riqlashga kirisharsan?! – baqirdi Garri jamoa «Qo'riqchi»siga yuzlanib.

– Sendan ibrat olyapman! – e'tiroz-la qichqirdi lavlagiday qizarib ketgan Maklaggen.

– Garri Potter o'z «Qo'riqchi»si bilan janjallashmoqda, – betashvish ohangda e'lon qildi Luna. – «Tilla chaqqon»ning topilishiga bu qanchalik yordam berishini bilmayman, balkim, buning zahirida o'ziga xos hiyla bordir...

Namoyishgohda o'tirgan xufflpuffchi va slizerinchilar shodiyona ohangda mazax qila boshladilar.

- Jin ursin, - so'kindi keskin ortga burilgan Garri, tevarak-atrofga diqqat-la nazar solib.

Tilla tusli uchar koptokchani qidirayotgan Garri, o'yin-goh uzra aylana boshladi.

Jinna bilan Demelza muxlislarni shod aylagancha, har biri bittadan gol urdi. Birozdan so'ng Grubbakins hisobni teng-lashtirdi. Biroq Luna bunga e'tibor qilgani yo'q. Golga o'xshash arziyas narsalar ayni vaqtda uni mutlaqo qiziqtirmaydi. Hozir u muxlislarning diqqat-e'tiborini g'alati shakllarni kash etgan bulutlarga qaratish bilan band. Gap orasida u «Kvaffl»ni bir daqiqadan ortiq qo'lda tuta olmayotgan Zakkerayes Smit sirli «taslimchilik dardi»ga yo'liqqani haqidagi taxminini bildirib o'tdi.

- Hisob yetmish-u qirq. «Xufflpuff» oldinda! - o'kir-gancha e'lon qildi professor Makgonagall Lunaning megafoniga.

- Yo'g'-e, allaqachon-a? - taajjublandi Luna. - Voy, qaranglar! Griffindorchilarning «Qo'riqchi»si «Urib qaytaruv-chi»ning qo'lidagi tayog'ini tortib oldi.

Garri keskin burilib qaradi. Chindan ham Maklaggen Piksning qo'lidagi chillakni qandaydir tushunarsiz maqsad-la tortib olib, «Tajovuzkor»ni o'qday uchib kelayotgan Grubba-kinsga qarata qanday qilib uloqtirishni o'rgatmoqda.

- Bitani qaytarib berib, zudlik bilan halqalarga qayt! - baqirdi Garri Maklaggen tomon uchib.

Quloch yozgan Maklaggen to'pga zarba berdi.

Ko'zdan chiqqan uchqun, ko'ngil behuzur bo'lib ketgan darajada og'riq... allaqanday yog'du... uzoq-uzoqlarda eshitilgan qichqiriqlar... tobora yaqinlashayotgan yer, oxiri ko'rinnayotgan uzundan uzoq tunnel...

Ko'zini ochgan Garri o'zini nihoyatda qulay, iliq ko'r-pada yotganini fahmladi. Shiftga osilgan fonus tilla tusli nur taratmoqda. Boshini yostiqdand bazo'r ko'targan Garri chap to-monda irjaygancha qarab turgan sepkil bosgan tanish basharani ko'rdi.

- O'yindan keyin ko'rishguncha, deganing menga yoq-qan edi, albatta, - dedi Ron.

Ko'zini pirpiratib olgan Garri atrofga alangladi. Kasalxonada yotibdi. Derazadan binafsha tusli to'q ko'k osmon ko'rinmoqda. Demak, o'yin allaqachon tugagan... endi Malfoyning iziga tushib bo'lmaydi. Boshi g'ayritabiiy og'irlashib, beixtiyor ko'tarilgan o'ng qo'li bintdan hosil bo'lgan sallani his etdi.

– Menga nima qildi?

– Bosh suyaging darz ketgan, – dedi Pomfri xonim, yugurib kelgancha, Garrini o'rniga yotqizib. -- Xavotirga o'rin yo'q, tegishli muolajalarni amalga oshirib qo'yganman, lekin sen bugun shu yerda tunab qolasan. Zo'riqmay, bir necha soat tinch yotishing shart.

– Bu yerda tunamoqchi emasman, – e'tiroz bildirdi Garri, yotgan o'rniga o'tirib olgancha, ustidagi adyolni chetga uloqtirib. – Maklaggenni topib o'ldirishim kerak.

Garrini yana ko'rpaga yotqizgan Pomfri xonim, qo'lga shirli tayoqchasini oldi.

– «Zo'riqish» deb shunga aytiladi, – tahdid qildi u. – Yo javob berilguncha shu yerda qolasan, Potter yo men hoziroq maktab direktorini chaqiraman.

Feldsher ayol shartta burildi-da, o'z xonasi tomon odimlay ketdi. Vujudini e'tiroz qamrab olgan Garri esa noiloj o'zini yostiqa tashladi.

– Qanday hisob bilan yutqazdik, bilmaysanmi? – tishi orasidan bazo'r so'radi u Rondan.

– Bilaman, – uzr ohangida javob berdi Ron. -- Yakuniy hisob uch yuz yigirma-yu oltmish bo'ldi.

– Ajoyib! – darg'azab istehzo qildi Garri. – Zo'r! Shoshmay tur, Maklaggen, qo'limga tusharsan hali...

-- Qo'ysang-chi, o'sha trollni, – ovutgan bo'ldi Ron. -- Shaxsan men, Shahzodaning tirnoq o'stirish qarg'ishini qo'llash borasida o'ylab ko'rgan bo'lar edim. Umuman aytganda esa sen bu yerdan chiqquncha jamoa a'zolarining o'zlari uni bir yoqli qilishga ulguradi. Chunki Maklaggenning qilig'idan ular xursand bo'lganiga shubha qilaman...

Ronning ovozi yomon niqoblangan xursandchilik ohangi eshitilib, atfidan, raqobatchisi Maklaggen bu qadar pand

berganidan o'zini baxtiyor his etmoqda. Darz ketgan bosh suyagi og'rimayotgan bo'lsa-da, qandaydir noxush lo'qillayotgan Garri fonus yoritayotgan shiftga tikilgancha yotibdi.

– Sharhlarni eshitib yotdim, – davom etdi Ron kulimsirab. – Umid qilamanki, endi Luna doimiy sharhlovchi bo'lib qoladi... Taslimchilik dardi... topgan gapini qarang...

Ammo Garrining jahli shu qadar qaynab yotibdiki, hozir o'sha vaziyatning hajviy mazmuniga baho berishga qodir emas. Ronning hirlingashi ham asta barham topdi.

Ila, aytganday, – esladi Ron, uzoq sukut saqlagach. – Hushsiz yotgan paytingda Jinna kelib, holingdan xabar olib ketdi.

Garrining xayoli shu zahoti uzoq-uzoqlarga, uning hushsiz yotgan tanasi ustida ho'ngrab yig'lagancha, o'z his-tuyg'ulari haqida akasi Ronga yorilib, undan oq fotiha olayotgan Jinnaga ketib qoldi.

Aytishicha, o'yin boshlanishiga bazo'r ulgurib borgan ekansan. Nega? Axir, sen bu yerdan o'z vaqtida chiqib ketgan eding-ku?!

Garrining xayolida gavdalangan sahna shu zahoti qayergadir g'oyib bo'ldi.

A-a... ha... men... – g'uldiradi Garri. – Yo'lda Malfoyni uchratib qoldim. Unga ikki nafar qiz ham hamroh bo'lib, yuzlarida mamnuniyat qiyofasini ko'rmadim. Eldan ajrab, o'yingohga bormaganini, shu bilan ikkinchi marta ko'rishim. Esingdami, oldingi o'yingga ham chiqmagan edi u? Bunday sharmandayisharmisor bo'lib yutqazgandan ko'ra, – xo'rsindi Garri. – Malfoyning izidan borib...

– Tentaklik qilma, – gapni bo'ldi Ron. – Allaqanday Malfoyni deb o'yinni o'tkazib yuborish-a! Unutma, sen jamoa sardorisan!

– Nima ish qilib yurganini bilmoqchiman, – dedi Garri. – Bularning barini to'qib chiqaryapsan, dema faqat. Ayniqsa, Malfoy bilan Snegg o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatdan so'ng...

– Men hech qachon senga to'qib chiqaryapsan demaganman, – e'tiroz bildirdi Ron, tirsagiga tayanib olib. – Yolg'iz bir

kishigina yovuz bo'lishi mumkin deyilgan qoida hech qayerda yo'q, – qovoq soldi u. – Malfoyni ta'qib qilish yo'llari haqida o'ylayverib, toming ketgan ko'rinadi, Garri. Uning izidan tushish uchun o'yinni o'tkazib yuborish emish-a...

– Xaritadan g'oyib bo'lgan paytda qayerda bo'lishini bilishni, uni jinoyat ustida qo'lga olishni xohlayman.

– Ehtimol, Xogsmyodga chiqib ketar... bilmadim, – taxmin qildi Ron.

– Yashirin yo'laklarda yurganini biron marta ko'rmadim. U yo'laklar hozir qo'riqlanayotgan bo'lsa kerak, a'?

Oraga sukunat cho'kdi. Garri shiftga, fonus hosil qilgan doiraga termilib yotgancha, o'yga toldi.

Agar hozir u Rufus Skrimj hokimiyatiga ega bo'lganida Malfoynning ketidan kuzatuv ishlarini yo'lga qo'ygan bo'lar edi. Biroq, taassufki, uning bo'ysunuvida avrorlarning butun boshli bo'linmasi yo'q. Garri DAni esga oldi-yu, bolalarning dars qoldirish muammosi yuzaga kelishi mumkinligini o'ylab, ushbu xayolni darhol miyasidan chiqarib tashladi. Shundoq ham mashg'ulotlar jadvali juda tig'iz tuzilgan...

Qo'shni karavot tomonidan bir maromli xurрак eshitila boshladi. Egniga qalin xalat kiyib olgan Pomiri xonim xonasidan chiqib palatani ko'zdan kechirib chiqdi. Yonboshlab olgancha, o'zini uxlayotgan ko'yga solgan Garri sehrli tayoqcha vositasida yopilayotgan parda harakatini eshitdi. Chiroqlarni o'chirgan feldsher o'z xonasiga kirib ketgach, eshik lo'kidoni¹ g'irchilladi. Shifokor ayol uyquga yotdi.

Kvidish jarohati tufayli Garri shu bilan uchinchi bor kasalxonaga yotqizilishi. So'nggi bor u anavi kasofat dementorlarning kasri ila supurgidan qulab tushgan bo'lsa, undan oldin qo'l suyaklari erib ketgan edi. Ovsar professor Sverkarol Charualdga «rahmat»... O'shanda qo'l rosa og'ridi. Suyaklarning tun davomida qayta paydo bo'lishi nihoyatda og'riqli

¹ **Lo'kidon** (*forscha*: yog'och qulfi) – eshikni berkitish, qalflashi uchun ishlatiladigan juda sodda yog'och qulfi, moslama.

kechgan. Uning azobi yengil tortishiga hatto tunda kutilinaganda paydo bo'lgan...

Garri yotgan o'rnidan shartta iring'ib turib, ko'rpasiga o'tirib oldi. Yuragi kuchli urib, boshidagi sallasi yon tomon og'ib qoldi. Yo'li topildi, Malfoyning iziga tushishning yo'li topildi! Nega shuncha vaqtdan buyon xayoliga kelmaganiga, nega unutib yuborganiga o'zi hayron.

Qanday chaqirish kerak uni? Buning uchun nima qilish kerak? Garri qorong'iga qaragancha, past ovozda chaqirdi:

– Taraqqos.

Qattiq qarsillagan tovush eshitildi. Xonada hukm surgan sukunatni baland chinqirish va dupur-dupur buzdi. Ron ham baqirgancha uyg'onib ketdi.

– Nim... nima bo'ldi? Tin... tinchlikmi? – so'radi u, quti uchib.

Garri zudlik bilan sehrli tayoqchasini qo'lga olib, Pomfri xonim uyg'onib ketmasligi uchun xizmat xonasi tomon o'qtaldi:

– Maffliato!

Nimalar bo'layotganini ko'rish uchun karavotining chetiga surilib olgan Garri, xona o'rtasida biri egniga yuvilaverganidan kichrayib ketgan alvon jemper, boshiga jundan to'qilgan bir nechta qalpoq kiygan, ikkinchisi esa bel va son bog'iga o'xshash eski, iflos latta o'rab olgan ikkita uy elfi polda dumbaloq oshib kurashayotganini ko'rdi. Yana bitta qarsillash tovushi eshitilib, olishayotgan elflar ustida Dryuzg paydo bo'ldi.

– Men elflar jangini tomosha qilayotgan edim, Potrox! – qat'iy e'tiroz-la o'shqirdi havoda muallaq osilib olgan poltergeyst, pastda kechayotgan mushtlashuvni ko'rsatib. – Ikkala mitti tentak bir-birini do'pposlayotganidan zavqlanayotgan edim, – baland ovozda xandon otdi u.

– Taraqqos Dobbining oldida Garri Potterni haqorat qilishga jur'at etmaydi. Aks holda Dobbi Taraqqosning murdor ovozini butunlay o'chirib qo'yadi!

– Ur! Och biqniga sol! – zavq-la qichqirdi Dryuzg, jahlini battar chiqarish uchun ikkala elfning boshiga bo'r bo'laklarini uloqtirib.

Taraqqos o'z sohibi haqida nimani istasa, shuni gapiraveradi, ha, shunday bo'ladi. Qanday sohib bitdi uning peshanasiga, a? Maglvachchalarning razil do'sti! Sho'rlik sohibam nima degan bo'lar edi?!

Taraqqosning sho'rlik sohibasi nima degan bo'lishi noma'lum bo'lgancha qoldi. Chunki Dobbi musht solib, Taraqqosning og'zidagi tishlarning deyarli yarmini to'kib tashladi.

Garri bilan Ron karavotlaridan irg'ib turib, Dryuzg tomonidan gijgijlanayotgan elflarni har tomon ajratib yuborishdi. Shunga qaramay, urishqoqlar oyoq-qo'lchalarini siltab, bir-biriga zarba berishga urinishmoqda.

– Barmog'ingni burniga suq, tilini mahkam ushlab sug'urib ol! Qulog'idan tort, boshi bilan birga qulog'idan tort!

Garri sehrli tayoqchasini Dryuzg tomon o'qtadi.

– Lenglok!

Ovozi bo'g'ilib, tomog'ini changallab olgan poltergeist tili tanglayiga yopishib qolgani bois ortiq so'z ayta olmay, uyatsiz qiliqlar qilgancha, xonadan chiqib ketdi.

– Boplading! mamnun bo'ldi Ron, Taraqqosga yeta olmasligi uchun Dobbini baland ko'tarib. Shahzodaning fokuslaridan yana bittasimi?

– Ha, – javob berdi Garri, Taraqqosning ajinli qo'lchasini asta qayirib. – Bo'ldi bas! Taraqqos, senga Dobbi bilan mushtlashish man etiladi! Dobbi bilaman, senga buyruq bera olmayman, biroq...

Dobbi erkin elf bo'lib, o'zi istagan kishiga itoat etaveradi! Garri Potter nima desa, Dobbi shuni bajaradi! dedi Dobbi dona-dona qilib.


Uning ajinli yuzidan oqqan shashqator yosh jemperini ho'l qildi.

Garri bilan Ron elflarni yerga qo'yishdi.

– Juda soz, – dedi Garri.

– Sohib meni chaqirgan edimi? dag'al ohangda so'radi Taraqqos, chuqur ta'zim qilib.

Elfning nigohida Garriga tez orada dahshatli o'tim topishini tilayotganini uqib olish qiyin kechmadi.



– Ha, chaqirdim, – javob berdi Garri, tilsim kuchi barham topmaganligiga ishonch hosil qilish uchun Pomfri xonimning xonasi tomon qarab qo'yib. – Senga ish bor.

– Sohib nimani buyursa, Taraqqos bajaradi, – labi oyog'ining uchiga yetguncha ta'zim qildi elf. – Garchi bunday sohibdan or qilsa-da, Taraqqosning boshqa iloji yo'q... ha, ha, or qilsa-da...

– Garri Potterning amri qonun! – chiyilladi Dobbi. – Garri Potterga yordam berish Dobbi uchun yuksak sharafdir!

Elfning har biri tennis koptogiday keladigan ko'zlari hamon ko'z yoshiga to'lgan.

– Umuman aytganda, ikkalangiz ham menga keraksiz, – dedi Garri. – Juda yaxshi... Ikkalangiz Drako Malfoyning ortidan kuzatib yurishingizni xohlayman.

Ronning yuzida ifodalangan hayrat va e'tirozga e'tibor qilmagan Garri davom etdi:

– Drako Malfoy qayerda bo'lishi, kim bilan uchrashib yurishi, qisqasi, bosgan har bir qadamini bilishim kerak. Uni kecha-yu kunduz kuzatib yuring.

– Xo'p bo'ladi, Garri Potter! – shu zahoti javob berdi yirik ko'zi hayajondan yarqiragan Dobbi. – Mabodo Dobbi yanglishsa, u o'zini eng baland minoradan tashlab yuboradi, Garri Potter!

– Yo'q, unday qilish shart emas, – tez man etdi Garri.

– Yosh Malfoyni kuzatib yurishimni istaydimi, sohib? – xirilladi Taraqqos. – Sobiq sohibamning asilzoda nabirasi ortidan josuslik qilib yurishimni-ya?!

– Xuddi shunday, – dedi Garri va shu zahoti katta xavfning oldini oldi. – Va senga, Taraqqos, Malfoyga bu haqda og'iz ochish, shama qilish, nima ish bilan shug'ullanayotganingni ko'rsatish, u bilan gaplashish va boshqa ko'rinishdagi munosabatlarni yo'lga solish qat'iyman etiladi.

Taraqqos hozirgina olingan buyruq mazmunida zig'irday bo'lsin, raxna topishga urinayotganini kuzatib turgan Garri biroz sukut saqladi. Ikki daqiqa o'tgach, Garrini manmun qilgan Taraqqos chuqur ta'zim aylab, domangir ohangda fikr bildirdi:

– Sohib ishning barcha tafsilotlarini koʻzda tutgan boʻlib, Taraqqosga itoat qilishdan boshqa chora qoldirmadi, garchi u, yosh Malfoyga xizmat qilishni afzal bilsa-da...

– Demak, vazifa tushunarli, – dedi Garri. – Menga muntazam hisobot berib borasizlar. Biroq huzurimda paydo boʻlishdan oldin, yonimda hech kim yoʻqligiga ishonch hosil qiling. Ron bilan Germiona bundan istisno. Nima ish qilayotganingiz haqida birovga churq etmang. Malfoyga, xuddi uning ikkita soyasi kabi yopishib qoling.

XX BOB

LORD VOLDEMORTNING ILTIMOSI

Dushanba kuni ertalab Garri bilan Ronga javob berildi. Pomfri xonimning saʼy-harakati ila ular batamom shifo topib, endi jabrlanganlar uchun belgilangan barcha imtiyozlardan monesiz foydalanishlari, hayotdan huzur koʻrishlari mumkin. Germiona Ron bilan yarashib olib, ikkalasini nonushtaga kuzatib borgani juda yaxshi boʻldi. Qiz hatto xushxabar ham olib keldi. Uning aytishicha, Jinna Din bilan janjallashib qolibdi. Garrining ichida yashayotgan maxluq bu gapni eshitib, boshini mamnun koʻtargancha, chuqur nafas olib qoʻydi.

– Sabab? – soʻradi Garri, imkon qadar loqayd ohangda.


Uchovlon, agar balet yubkasini kiyib olgan trollar tasvirlangan gobelenni tomosha qilayotgan mitti qizaloqni hisobga olmaganda, yettinchi qavatning deyarli kimsasiz yoʻlagiga burildi. Qizaloq kutilmaganda yaqin kelib qolgan oltinchi sinf oʻquvchilarini koʻrib, qoʻrqib ketganidan qoʻlidagi vazmin mis tarozini jaranglatgancha, tushirib yubordi.

– Hechqisi yoʻq! – muloyim ovozda ovuntirdi Germiona qizchaga yordamga kelib.

U sehrli tayoqchasini singan taroziga asta urib qoʻydi:

– Reparo.

Tarozi yana oʻz holatiga qaytdi.



– Ushla, – dedi Germiona tarozini qizchaga uzatib.

Yerga yopishib qolganday turgan qizaloq minnatdorlik bildirishni ham unutib, bolalar ortidan qarab qoldi.

– Yildan yilga kichrayib borishyaptimi ular? – taajjublandi Ron, ortga qarab qo‘yib.

– Parvo qilma, – javob berdi Garri sabrsiz ohangda. – Xo‘sh, Germiona, nima sababdan janjallashib qolishdi Din bilan Jinna ikkalasi?

– Maklaggen «Tajovuzkor»ni senga yo‘llab, zarba berganida Din xandon otib yuborgani tufayli, – tushuntirish berdi Germiona.

– Chindan ham, juda kulgili ko‘ringan bo‘lsa kerak, – gap qistirdi Ron.

– Yo‘q! – qat‘iy e‘tiroz bildirdi Germiona. – Nihoyatda xunuk manzara bo‘ldi! Agar Piks bilan Proustak ushlab qolishmaganida, Garri yerga tushib, chalpakka aylangan bo‘lar edi.

– To‘g‘ri, lekin bu Jinaning Din bilan janjallashib qolishiga sabab bo‘la olmaydi, – fikr bildirdi Garri, soxta loqaydligini qo‘ymay. – Ular ajrashib ketishmagandir, har qalay?

– Yo‘q, ajrab ketishmadi, – javob berdi Germiona Garri-ning yuziga sinchkovlik-la tikilib. – Nega bu masala seni qiziqtirib qoldi?

– Jamoaning hamjihatligiga putur yetishini xohlamayman. Bor gap – shu, – tez tushuntirish bergan bo‘ldi Garri.

Kimdir chaqirganini eshitgan Garri baqrayib qolgan Germionaning shubhali nigohiga teskari o‘girilishga sabab topilganidan xursand bo‘lib ketdi.

– A-a, Luna, salom, – ko‘rishdi u.

– Kasalxonaga borgan edim, – ma‘lum qildi Luna, yuk xaltasini titkilar ekan. – Ikkalangizga javob berilibdi...

Qiz Ronning qo‘liga yashil piyozga o‘xshash narsa, muxomor¹ qo‘ziqorini va mushuk najasini eslatadigan kesakni ushlatib qo‘ygach, oxiri ezilgan pergament o‘ramini xaltadan chiqarib, Garriga uzatdi.

¹ **Muxomor** – zaharli zamburug‘ turi. Suvidan pashshadori sifatida foydalaniladi.

– ... mana, senga berib qo'yishni iltimos qilishdi.

Ushbu o'ram Dambldor tomonidan yo'llangan taklifnoma bo'lib, yakka tartibda o'tkaziladigan navbatdagi mashg'ulot bo'lishini anglagan Garri, shu zahoti Ron bilan Germionaga ma'lum qildi:

– Bugun kechqurun.

– O'yinni zo'r sharhlading-da! – maqtadi Ron, yashil piyoz, muxomor va mushuk najasini Lunaga qaytarib berar ekan.

– Masxara qilyapsanmi? – mubham kulib qaradi Luna. – Hamma xuddi til biriktirib olganday, qattiq tanqid qilyapti-yu!

– Yo'q, men jiddiy aytyapman! – ishontirdi Ron. – Ko'p-dan buyon bunday huzur qilmagan edim! Mana bu nima? – qiziqdi u, piyozni yuqori ko'tarib.

– Buzuqildiz-ku, bu! – javob berdi Luna, muxomor bilan mushuk najasini xaltasiga joylab. – Istasang, ol. Menda ko'p. Semizko'zaklarni sendan nari haydaydi.

Qo'lida buzuqildiz qolgan Ron Lunaning ortidan xandon otgancha, hamrohlari bilan Katta Zal tomon odimladi.

– Sizga aytсам men do'stlar, Luna menga tobora yoqib boryapti, – dedi u. – To'g'ri, tomi sal jilgan, albatta, lekin to'g'ri tomonga...

Marmar zina boshida haybat solgancha turgan Lavanda Braunni ko'rib qolgan Ronning gapi og'zida qoldi.

– Salom, – asabiy ko'rishdi Ron.

Garri Germionaning qulog'iga asta pichirladi:

– Qochdik bu yerdan.

Ikkovlon Lavandaning yonidan g'irillagancha o'tib ketdi-yu, baribir, qizning gapini eshitib qoldi:

– Nega menga aytmadings, senga bugun javob berilishini? Nega anavi qiz sen bilan yuribdi?

Yarim soat o'tib dasturxon atrofidagi davraga kelib qo'shilgan Ronning qovog'idan qor yog'ilmoqda. Lavanda bilan yonma-yon o'tirgan bo'lsa-da, nonushta davomida qizga biror og'iz so'z aytmadi. Germiona esa o'zini, go'yo ushbu holat unga mutlaqo daxl qilmayotgan ko'yga solib olib, yuzida bir-ikki bor mamnun tabassum ko'ringanday ham bo'ldi. Uning kayfiyati

kun bo'yi ko'tarinki bo'lib, kechqurun Garrining gerbologiya bo'yicha yozgan inshosini tekshirib chiqqach, oxirigacha yozib berdi. Ilgari esa u Ronning ko'chirmachi ekanini bilib, bu ishni atayin qilmas edi.

– Katta rahmat senga Germiona, – minnatdorlik bildirdi Garri soatiga qarab. – Men bora qolay, Damblorning qabuliga kech qolmay...

Garrining inshosidagi dag'al yozilgan bir-ikki jumlani toliqqan holatda o'chirib tashlagan Germiona indamadi. Kulib qo'ygan Garri portret to'sgan tuynukdan otilib chiqdi-da, Damblorning xizmat xonasi tomon yugurdi. Shokoladli eklerlarni¹ eshitgan ajdar tusli tosh ilon chetga surildi. Zina pog'onalarini oralab hatlab borgan Garri xona ichidagi soat rosa sakkiz bo'lganini anglatib zang chalgan fursatda eshik taqillatdi.

– Kiring, – yangradi Damblorning ovozi.

Garri eshik dastasiga endigina qo'l uzatgan ediki, kimdir eshikni ichkaridan siltab ochdi.

– Ha-a-a! – qichqirdi barmog'ini Garriga g'ayritabiiy o'qtagan professor Trelani, ko'zoynagining qalin shishasi ortidagi yirik ko'zini pirpiratib. – Mana kimning sharofati ila xonadan beandishalikcha haydab chiqarilibman!

– Azizam Sibilla, – eshitildi Damblorning biroz achchiqlangan ovozi, – sizni hech kim hech qayerdan, boz ustiga beandishalikcha haydab chiqargani yo'q. Garriga huzurimga aynan shu fursatda yetib kelishini o'zim tayinlaganman. Biz ikkalamiz esa bahsimizni nihoyasiga yetkazdik. Har qalay, men shunday deb o'ylayman...

– Barakalla! – dedi xo'rliги kelgan ayol. – Demak, siz, nonimni yarimta qilgan anavi jirkanch qirchang'ini quvib solishdan bosh tortmoqdasiz! Xo'p, mayli... balki, iste'dodim boshqa maktabda munosib baholanib, qadrlanar...

Professor Trelani Garrining yonidan shiddat-la o'tib, aylana zinadan pastga tushgancha, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Afti-

¹ Ekler (fransuzcha: éclair – chaqmoq, chaqin) – pirogning bir turi. Bu shirinlik birinchi bor fransuzlar tomonidan tayyorlangan.

dan, uchi yerda sudralib borayotgan shol ro'mollaridan birini bosib olgan ko'rinadi, qoqinib ketgani eshitildi.

– Ichkariga kir, Garri, – dedi Dambldor toliqqan ohangda. – Eshikni yopgin-da, kel o'tir.

Garri iltimosni bajarib, yozuv stoli ro'parasidagi odatiy joyini egalladi. Stol ustida damblxotira va ichiga burqirayotgan xotira solingan ikkita kichkinagina billur shisha turibdi.

– Professor Trelani Firensning birga ishlashiga hech ko'nika olmayaptimi deyman? – qiziqdi Garri.

– Afsuski, shunday, – javob berdi Dambldor. – Bashorat fani menga kutilgandan ortiq tashvish keltirmoqda. Garchi menga o'sha fanni o'zlashtirish baxti nasib qilmagan bo'lsa-da, – istehzo qildi u. – Firensdan o'rmonga qaytib ketishni iltimos qilib bo'lmaydi. Chunki endi u o'z qavmi orasida raddi mardum sanaladi. Sibilla Trelanini ham maktabni tark etib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Gap oramizda qolsin-u, qasr tashqarisida uni qanday xavf-xatar kutayotganini zig'irday bo'lsin, o'zi tasavvur qila olmaydi. Sen va Voldemort haqidagi bashorat shaxsan o'ziniki ekanini Sibilla bilmaydi va bu haqda unga ma'lum qilinishi ham o'ta nomaqbul ish bo'lar edi.

Dambldor chuqur uf tortdi.

– Xizmatga oid ixtiloflaringa xayoling chalg'imasin, Garri. Sen bilan men bundan-da muhimroq masalalarni muhokama qilib chiqishimiz kerak. Birinchidan, qani, aytechi, o'tgan mashg'ulotimiz oxirida senga bergan topshirig'imni bajarishga muvaffaq bo'ldingmi?

Havoda g'oyib bo'lish kursi, kvidish mashqlari-yu, o'yinlari, bosh suyagining darz ketgani hamda Malfoy nima ish bilan band ekanini aniqlab olishga urinishi tufayli, Dambldor tomonidan uyga berilgan vazifani Garri deyarli unutib qo'ygan edi.

– Ser... – chaynaldi Garri, – sehrli damlamalar tayyorlash darsidan keyin sinfda qolib, professor Divangarddan so'ragan edim... U men bilan bu haqda gaplashishdan mutlaqo bosh tortdi.

Oraga biroz sukunat cho'kdi.

Dambldor yarim oy shaklidagi ko'zoynagi uzra Garriga shunday tikildiki, bolaning xayolida xuddi rentgen nuri vosita-

sida jamiki ichki olami o'rganib chiqilayotgandek tasavvur tug'ildi.

– Tushunarli, – dedi nihoyat Dambldor. – Demak, endi sen qo'ldan kelgancha harakat qildim, o'z qobiliyatimni misli ko'rilmagan darajada ishga soldim, jamiki makr-u hiylalarimni oxirigacha qo'lladim deb o'ylayapsan, shundaymi?

– Bilasizmi, ser, – ezilishni davom etdi Garri, so'z topa olmay.

Divangardning asl xotirasini qo'lga kiritish borasida amalga oshirgan yagona urinishi hozir o'zining ko'ziga ahamiyatsiz, arzimagan harakatday ko'rindi.

– Ron sevgi damlamasini o'zi bilmagan holda yutib yuborgach, men uni professor Divangardning huzuriga boshlab bordim. Paytdan foydalanib o'ylab qo'ygan rejamga ko'ra, agar professorning kayfiyati o'sha paytda ko'tarinki bo'lsa...

– Xo'sh?

– E-m-m... yo'q, ser, bo'lmadi. Ron zahar ichib qo'ydi.

– ... va tabiiyki, professor Divangardning xotirasi bilan ishing bo'lmay qoldi. Darhaqiqat, o'sha fursatda qo'ldon do'sting hayoti xavf ostida bo'lgan. Boshqacha yo'l tutishing mumkin ham emas edi. Mister Ueslining hayoti saqlanib, tuzalib ketishi aniq bo'lgach, topshiriq ijrosiga qaytasan, degan umidda edim. O'sha xotira biz uchun qanchalik muhim ekanini senga batafsil tushuntira olganman, buni teran idrok etishing uchun qo'ldan kelgancha harakat qilganman, deb yurgan edim. Professorning xotirasi nihoyatda muhim xotiradir, Garri. O'sha xotirasiz vaqtini behuda yo'qotganimiz qoladi, xolos.

Garrining boshidan oyog'igacha butun vujudini uyat hissi yondirdi. Dambldor ovoz ko'tarmadi, gapida g'azab ohangi eshitilmadi, lekin bundan ko'ra baqirib so'ksa ming bor yaxshi bo'lar edi. Hafsalaning bu qadar sovuq tarzda pir bo'lishidan og'irroq holatni tasavvur etish qiyin.

– Ser, bu mening harakatsizligim tufayli emas, – pushaymon ohangida gap boshladi Garri. – Shunchaki xayolim...

– Boshqa narsada bo'lgan, – bolaning fikrini yakunlab qo'ydi Dambldor. – Tushunarli

Oraga og'ir sukunat cho'kdi. Sukunat shu qadar og'irki, Damblidor bilan Garrining o'rtasida bunday noqulay munosabat hali yuzaga kelmagan. Uzoq cho'zilgan ushbu jimjitlikni portreti devorda, Damblidorning boshi ustida osig'liq turgan Armando Dippetning asta tortayotgan xurragi buzmoqda. Garrining tanasi, go'yo egnidagi sviteri kutilmaganda o'tirib qolgan kabi direktorning xonasiga kirib kelgan holatiga nisbatan keskin kichrayib ketganday bo'ldi.

- Professor Damblidor, - dedi nihoyat Garri, ortiq dosh bera olmay, - o'z qilmishimdan nihoyatda pushaymonman. Durustroq harakat qilishim, ishga vijdonan yondashishim kerak edi... Agar ushbu topshiriq o'ta jiddiy ahamiyatga ega bo'lmaganida, uning ijrosini mendan so'ramagan bo'lishingizni o'z vaqtida teran anglab yetishim kerak edi...

- Tushunganing uchun rahmat, Garri, - past ovozda javob berdi Damblidor. - Demak, umid qilamanki, shu bugundan e'tiboran mazkur topshiriq ijrosi sen uchun eng muhim ishga aylanadi, shundaymi? Divangardning xotirasisiz, mashg'ulotlarimizning bari o'z ma'nisini yo'qotadi.

- So'z beraman, ser, uni qo'lga kiritaman, - jiddiy ohangda va'da qildi Garri.

- Unday bo'lsa, bu masalani hozircha chetga surib, bugungi mashg'ulotga qaytarniz, - muloyimlashdi Damblidor. - Qayerda to'xtagan edik?

- Ha, ser. Voldemort o'z otasi, buvasi va buvisini o'ldirib, jinoyatchi sifatida tog'asi Morfinni ko'rsatib qo'ydi, - o'ylab-netib o'tirmay javob berdi Garri. - Shundan so'ng «Xogvars»ga qaytib, professor Divangarddan ruhdonlar haqida surishtira ketdi... - xijolat ohangida yakunladi u.

- Juda yaxshi, - maqtadi Damblidor. - Mavjud dalil-isbotlarning inkor etib bo'lmas zaminini tark etib, xotiralarning bilqillama botqog'i, dadil taxminlar tafsiloti sari yo'lga chiqamiz, degan edim mashg'ulotimiz boshida. Ishonchim komilki, o'sha gapim yodingdan ko'tarilmagan.

- Yodimda, ser.

- Voldemortning o'n yetti yoshga to'lguncha o'tgan

hayotiga oid xulosalarim bugungi kungacha o'zining ishonchli tasdig'ini topib keldi, shunday emasmi?

Garri bosh iring'ib qo'ydi.

– Endi esa Garri, hamma narsa ancha mujmal bo'lib boradi. O'smir Reddl haqidagi shohidliklarni topish qiyin kechgan bo'lsa, ulg'aygan Voldemort haqidagi xotiralar bilan o'rtoqlashishga tayyor bo'lgan odamlarning topilishi amrimahol bo'lib qoldi. «Xogvars»dan keyingi hayotining tafsilotlarini, o'zidan tashqari, aniq biladigan biron-bir boshqa tirik jon topilishiga shubha qilaman. Lekin ixtiyorimdagi so'nggi ikkita xotirani sen bilan birga ko'rib chiqib, muhokama qilish, ular borasidagi xulosalarim qanchalik to'g'ri ekaniga oid tanqidiy mulohazalaringni bajonidil eshitishni niyat qilganman, – dedi Dambldor stol ustidagi kichkinagina billur shishalarga imo qilib.

Dambldor shunchalik qadrlaydimi, uning fikrini? Garri Divangardning ruhdonlarga oid asl xotirasini qo'lga kiritmaganidan battar uyalib, aybdor kishidek o'tirgan o'rnida bir tipirchilab qo'ydi. Dambldor shishalardan birini olib, yorug'likka tutdi.

– Birovlarning xotirasiga sho'ng'ib yurish hali joningga tegmadi, degan umiddaman. Ushbu xotira ancha qiziq bo'lib, Podpeva ismli kekxa urg'ochi elfga mansub, – ma'lum qildi Dambldor. Biroq uni o'rganib chiqishga kirishishdan oldin, Lord Voldemortning «Xogvars»dan keyingi hayoti haqida senga qisqacha so'zlab berishim kerak.

Dambldor biroz o'ylanib o'tirib, hikoyasini boshladi:

– Tom Reddl yettinchi sinfni, fahmlagan bo'lsang, barcha fanlar bo'yicha a'lo baholar bilan tamomladi. Uning sinfdoshlari maktabni tamomlab, nima bilan shug'ullanishini allaqachon hal etib bo'lgan. Sinfboshi, eng ibratli o'quvchi, maktab oldida ko'rsatgan xizmatlari uchun maxsus sovrin sohibi Tom Redldan hamma o'ziga xos qaror kutgan. O'qituvchilarning ayrimlari, shu jumladan, professor Divangard unga Sehrgarlik vazirligiga ishga kirish, buning uchun suhbatga chaqirilishini uyushtirish, shu maqsadda kerakli odamlar bilan tanishtirib qo'yishni taklif qilishgan. Biroq niyatini hech kimga

oshkor qilmagan Reddl takliflarning barini rad etdi. Ko'p o'tmay, uning «Borjin va D'Avillo» do'koniga ishga kirgani ma'lum bo'ldi.

– «Borjin va D'Avillo» do'koniga? hayratlandi Garri.

– Ayni o'sha do'konga, – xotirjam tasdiqladi Damblodor.

– O'ylashimcha, Podpevaning xotirasini o'rganib chiqsak, o'sha joy nimasi bilan Reddlni o'ziga jalb etganini o'zing anglab yetasan. Biroq dastlab Voldemort boshqa ish bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan. Buni hech kim bilmaydi. U professor Dippetning huzuriga kirib, «Xogvars»da o'qituvchi bo'lib qolishga ruxsat so'raganini direktor faqat menga aytgan, xolos.

– O'qituvchi bo'lib qolishga?! – yanada kuchli taajjublandi Garri. – Nega, nima maqsadda?

– Fikrimcha, bunga bir nechta sabab bo'lgan-u, lekin u o'sha sabablarning birortasini ham professor Dippetga aytmagan, – dedi Damblodor. – Birinchidan va bu eng muhimi, Voldemort u yoki bu kishiga emas, aynan maktabning o'ziga o'rganib qolgan. Chunki u «Xogvars»da o'zini nihoyatda baxtiyor his etgan, ushbu qasrni u o'zining qadrdon uyiday biladigan birinchi va yagona joy bo'lgan.

«Xogvars»ni xuddi shunday qabul qiladigan Garri o'zini biroz g'alati his etdi.

– Ikkinchidan, qasrimiz uzoq o'tmishdan buyon yig'ilib kelgan qadimiy sehr-jodu qo'rg'oni sanalishi hammaga ma'lum. Shubha yo'qki, Voldemort, bunday bilim dargohida, undagi odamlarning aksariyatiga noma'lum, ko'pi hali ochilmagan behisob sir-asrorlar borligini teran idrok etib, ushbu xazinadan olinadigan bilimning cheki yo'qligini chuqur anglab yetgan. Va nihoyat uchinchidan, bordi-yu u «Xogvars» o'qituvchisi lavozimini egallasa, yosh sehrgarlar ongini o'z izmiga ola bilishiga ishongan. Anglashimcha, buni Voldemort professor Divangard bilan kechgan muloqotda tushunib yetgan. Chunki u ushbu o'qituvchi misolida ustozning kishi hayotida tutgan o'rni nihoyatda katta ekanini aniq ko'ra bilgan. Voldemort bir umr «Xogvars»da qolib ketishni niyat qilganiga ishonmayman, albatta. Aftidan, u maktabga bo'lajak qo'shinining safi to'lib boriladigan

«odam yollash manbai» sifatida qaragan.

– O'qituvchilik lavozimiga ishga olishmagan-ku, uni, ser?

– Yo'q, olishmagan. Professor Dippet unga endigina o'n sakkiz yoshga to'lib, o'qituvchilik lavozimiga hali juda yoshlik qilishini aytgan, mabodo fikridan qaytmasa, yana bir necha yildan so'ng kelishni taklif qilgan.

– Siz-chi, ser, siz qanday qaradingiz bunga? – asta so'radi Garri.

– Shubha ila, – javob berdi Dambldor. – Sababini Armando Dippetga tushuntirib o'tirmay, bunday xatolikka yo'l qo'yishdan uni to'xtata bildim. Chunki, professor Dippet ham ko'plab o'qituvchilar kabi Voldemortni ko'r-ko'rona yaxshi ko'rib, ko'zlagan asl niyati nopok bo'lishi mumkinligini tasavvuriga sig'dira olmagan. Men esa Lord Voldemort «Xogvars»ga qaytishi, boz ustiga, o'qituvchilik lavozimini egallashini xohlamaganman.

– Qaysi fandan dars bermoqchi bo'lgan u, ser? – so'radi Garri, garchi oladigan javobni o'zi fahmlab turgan bo'lsa-da.

– Yovuz kuchdan himoya fanidan. O'sha davrda «Xogvars»da sal kam ellik yil ishlagan Galateya Poteskans ismli keksa ayol ushbu fandan dars berar edi. Shunday qilib, Voldemort «Bordjin va D'Avillo» do'koniga ishga kirgani ma'lum bo'ldi va «Xogvars»ning jamiki o'qituvchilari o'ta qobiliyatli yosh sehr-gar o'z iste'dodini peshtaxta ortida uvol qilishi borasida g'am-anduhga botdi. Biroq Voldemort do'konning oddiy sotuvchisi bo'lmagan. Xushmuomala, nihoyatda barno va aqlli yigitcha ko'p o'tmay, o'z sohiblari tomonidan qo'yilgan alohida topshiriqlarni zo'r mahorat-la bajara boshlagan. Ular esa o'zingga ma'lumki, xavfli xususiyatlari kuchli g'ayrioddiy buyumlarga katta qiziqish bildirib, Voldemortni noyob xazina egalari huzuriga, yashirib yurgan qimmatbaho buyumlarini sotishga ko'ndirish maqsadida yo'llashgan. Voldemort esa, o'z navbatida, ushbu xazina sohiblarini ko'ndirish masalasini do'ndirib borgan.

– Tasavvur qilyapman, – hayajonini tiya olmadi Garri.

– Ha, – kulib boqdi Damblodor. – Endi kekxa va nihoyatda boy afsungar ayol Xepziba Smitning xizmatini qilib yurgan uy elfi Podpevaning xotirasini oʻrganib chiqish vaqti yetdi.

Damblodor sehrli tayoqchasini billur shishachaga asta tekkizib, tiqinini ochdi va ichidagi kumush tusli moddani damblxotiraga quydi.

– Marhamat, Garri.

Garri oʻmidan turib, odatga koʻra, toshchanoq ustiga engashdi-da, yuzini yelimshak moddaga tekkizdi va shu zahoti zim-ziyo zulmat ichra uchib, notanish mehmonxonada, nihoyatda semiz kampir qarshisida paydo boʻldi. Boshiga kulgili koʻrinayotgan toʻq malla rang parik tashlab olgan kekxa ayolning egnidagi pushti kiyimi, uni asta-sekin eriy boshlagan muzqaymoq tortga oʻxshatib qoʻygan. Hoshiyasi mayda brilliantlar bilan bezatilgan koʻzguga qarab oʻtirgan kampir qoʻlidagi popuk bilan shundoq ham qip-qizil yonogʻiga pardoz bermoqda. Mittigina, nihoyatda kekxa urgʻochi elf esa kuchangancha, oʻz sohibasining goʻshtdor oyogʻiga moʻjazzgina tufolini kiydirib qoʻyishga urinmoqda.

– Tezroq boʻl, Podpeva, soat ikki daqiqa kam toʻrt boʻldi. – shoshirdi Xepziba. – Rosa oʻn olti-yu nol-nolda kirib kelaman degan edi. Hali u vaʼda qilgan vaqtidan biror marta boʻlsin, kechikmagan.

Teri qoplamasining tusi pergament rangini eslatadigan, egniga ohorlangan choyshabchani toga¹ koʻrinishida oʻrab olgan, boʻyi kresloning oʻrindigʻiga bazoʻr yetayotgan Podpeva qaddini rostladi.

– Koʻrinishim yaxshimi? – soʻradi qoʻlidagi upani bir chetga surgan Xepziba, boshini aylantirgancha, koʻzgudagi aksini turli burchaklar ostida koʻzdan kechirib chiqib.

– Juda goʻzalsiz, xonim! – xitob qildi Podpeva chiyillab.

«Aftidan, uy elfining mehnat shartnomasida oʻxshash savollarga sulohlikcha yolgʻon javob berish sharti bitilgan

¹Toga – qadimgi rimliklarning ushki kiyim oʻrniga yelkaga tashlab oʻrtaib yuradigan yopinchigʻi.

ko'rinadi», xayoldan o'tkazdi Garri. Vaholanki, uning nazarida, Xepziba Smitda go'zallikdan asar yo'q.

Eshikka osilgan qo'ng'iroqchaning jiringlaganini eshitgan kekxa ayol bilan xizmatkor hayajondan baravar seskanib ketishdi.

Tezroq, Podpeva, bo'l tez! Keldi! — qichqirdi kampir.
Elf yugurgancha, chiqib ketdi.

Xona turli-tuman buyumlar bilan shu qadar zich jihozlanganki, ular orasidan turtinmay o'tishning iloji yo'q. Mis tuvakka o'tqazilgan kamyob gullar o'stirilayotgan, qimmatbaho kitoblar taxlanib, billur sharlar va yulduzli osmon globusi joylangan katta-kichik tokchalar, har xil naqshinkor qutichalar terilgan shisha eshikli javonlar bilan jihozlangan ushbu xona tuvak gullar bilan bezatilib, sehrgarlarning qadimiy buyumlari sotiladigan do'konni eslatmoqda.

Daqiqa o'tib-o'tmay, Podpeva bir ko'rkam yigitni ortidan ergashtirib, xonaga qaytib keldi. Garri egniga oddiy qora kostyum kiygan, lunji kirtayib, sochi biroz o'sgan, oldingidan ham barno ko'rinayotgan Voldemortni darhol tanidi. Aftidan, u joylashish tartibini yaxshi o'rganib olgan ko'rinadi, katta-kichik mebel orasidan ishonch-la o'tib, kampirning uzatgan do'mboq qo'liga lab tekkizdi.

— Bu sizga, dedi u, qayerdandir atirgul dastasini hiqarib.

— Bu nima qilganingiz, badkirdor! — chiyillagancha xitob q'ldi kekxa ayol, gulni olar ekan, yonidagi oldindan atayin tayyorlab qo'yilgan bo'sh vazaga solib. — Kampirni taltaytirib yubog'ani uyalmaysizmi? O'tiring, Tom, o'tiring... Podpeva qani... voh...

Uy elfi mitti pirojniylar terilgan patnisni yugurgancha olib kirib, sohibasining yoniga qo'ydi.

— Oling, yigitcha, taklif qildi Xepziba. — Pirojniylarimni xush ko'rishingizni yaxshi bilaman-u. Gapiring, ishlar-ingiz qalay? Negadir yuzingizdan qon qochgan ko'rinadi. Ko'p aytaman sizga, do'kon sohiblari sizni ayamay ishlatishadi, deb...

Voldemort soxta irjayib qo'ydi. Kiprigini pirpiratgan Xepziba esa noz-karashma ila so'radi:

– Xo'sh, qaysi shamol uchirib keldi bugun sizni?

– Mister D'Avillo goblinlar tayyorlagan aslaha borasida sizga qiziq bir taklif kiritmoqchi, – javob berdi Voldemort. – Besh yuz galleon. Uning fikricha, bu juda qiziq...

– Shoshmang, shoshmang, sekinroq. Aks holda siz huzurimga mening mayda-chuyda bezaklarim uchungina kelgan-siz, degan xayolga boraman! – labini cho'chchaytirdi Xepziba.

– Men, chindan ham. rahbariyat topshirig'iga binoan, aynan o'sha narsalar tufayligina kelganman, – asta javob berdi Voldemort. Men faqir bir sotuvchiman, xolos, xonim. Buyurilgan ishni bajarishim kerak. Mister D'Avillo sizdan...

O-o-o, qo'ysangiz-chi, o'sha mister D'Avilloni! – qo'l siltadi Xepziba. – Unga hech qachon ko'rsatmagan narsamni ko'rsataman hozir sizga, Tom! Sir saqlay bilasizmi? Mening haqiqiy xazinamni unga gullab qo'ymaysizmi, ishqilib? Aks holda u menga tinchlik bermay qo'yadi. Men esa uni sotmoqchi emasman. Biroq siz, Tom, o'sha buyumning qancha galleon turi-shi mumkinligiga emas, tarixiy ahamiyatiga baho bera olasiz...

– Miss Xepziba lozim topgan har qanday buyumni bajonidil ko'raman, – vazmin ohangda javob berdi Voldemort.


Xepziba yosh qizcha singari hirlinglab qo'ydi.

– Olib kel... Podpeva qayerdasan? Men mister Reddlga eng nodir xazinamizni ko'rsatmoqchiman... umuman aytganda, ikkalasini ham olib kelaver, modomiki, sen...

– Marhamat, xonim, – eshitildi Podpevaning chiyildoq ovozi.

Garri bir-birining ustiga taxlangan ikkita quticha o'zidan o'zi yaqin kelayotganini ko'rib, ularni stollar, yumshoq o'rin-diqlar va oyoq ostiga qo'yiladigan kursilar orasida bazo'r yurgan mitti uy elfi boshiga qo'yib olgancha, olib kelayotganini fahmla-di.

– Shunday qilib, – quvonch-la davom etdi qutilarni tizzasiga qo'yib olgan Xepziba, ustki qutini ochishga hozirlanib, – umid qilamanki, sizga yoqadi, Tom... O, agar qarindoshlarim



bilishganda edi, sizga nimani ko'rsatayotganimni... Ular ko'pdan buyon bularga ko'z olaytirib yurishibdi!

Kampir quti qopqog'ini ochdi. Garri biroz oldinga yurib, quti ichida ikkita dastasi nazokat-la bukilgan kichkinagina tilla jomchani ko'rdi.

– Qiziq, bu nima ekanini bilasizmi, Tom? – pichirladi Xepziba. – Oling, qo'lingizga olib, yaxshilab nazar soling!

Voldemort uzun barmoqli kaftini uzatib, shinamgina inchaga joylangan jomchani chiqardi. Garrining nazarida, Voldemortning charaqlab ketgan qop-qora ko'zi qizil tus olganday bo'ldi. Xepzibaning yuzida ham hirs ko'rindi, uning nigohi Voldemortning barno yuziga qadalgan.

– Bo'rsiq, – ovoz chiqardi Voldemort, jomga tasvirlangan rasmga qarab. – Axir, bu?...

– To'g'ri fahmladingiz, shaxsan Xelga Xufflpuffga tegishli bo'lgan, aqliginam! – xitob qildi beldamchasini qattiq g'ijirlatgancha, oldinga egilgan Xepziba, Voldemortning kirtaygan lunjini chimdilab. – Men Xelganing avlodiga mansubman, degan edim-ku, sizga! Ushbu buyum sulolamizda avloddan avlodga o'tib keladi. Juda fusunkor narsa, to'g'rimi? Uning jamiki sehrli xususiyatlari saqlanib qolgan, garchi o'zim durustroq tekshirib ko'rmagan bo'lsam-da. Tegishli joyda asrab kelaman, xolos.

Kampir yigitning uzun ko'rsatkich barmog'idan yechib olgan jomchani quti ichiga shu qadar berilib joylashtira boshladiki, buyumni qo'ldan chiqargan Voldemortning yuzi kasb etgan darg'azab dilsiyohlikni ko'rmadi.

– Xo'sh, – dedi Xepziba baxtiyor ohangda. – Qayerdasan, Podpeva? Ha, shu yerdamisan... ma, joyiga eltib qo'y...

Qari elf jomcha joylangan qutichani olib ketgach, Xepziba o'z e'tiborini nisbatan yassi qutiga qaratdi.

Bunisi sizga yanada ko'proq yoqadi, Tom, – hissiyotla asta-sekin pichirladi u. – Yaqinroq kelib engashing, azizim, qarang... D'Avilloning bundan xabari bor, chunki bu narsa uning do'konidan xarid qilingan, lekin mening o'limimdan keyin uni bajonidil o'ziga qaytarib olishga urinishi aniq.

Kampir zargarlik uslubida yasalgan qulfni ochib, quti qopqog'ini ko'tardi. Quti ichidagi qirmizi rang tekis baxmal ushida oltindan yasalgan og'ir medalyon ko'rindi.

Bu safar Voldemort qo'lini taklifsiz uzatib, medalyonni yorug'ga chiqardi-da, qadimiy buyumdan, undagi «S» harfidan ko'zini uzmay, past ovozda fikr bildirdi:

– Slizerin belgisi.

– Juda to'g'ri! – xitob qildi Xepziba, Voldemortning dong qotib qolganidan zavqlanib. – Buning uchun men juda ko'p pul to'ladim. Shunday qadimiy xazina mening kolleksiyamda bo'lmashigiga yo'l qo'ymadim. Nazarimda, D'Avillo uni allaqanday qashshoq ayoldan sotib olgan. Aftidan, o'sha ayol buyumni o'g'irlab, uning asl qimmatini bilmay...

Xato bo'lishi mumkin emas: ko'zi qizarib yarqiragan Voldemortning medalyon zanjirini mahkam siqib olgan barmog'i oqarib ketdi.

– D'Avillo u ayolga arzimagan pul bergani aniq, biroq... ko'rib turganingizdek.... chiroyli, a? – dedi kampir, medalyonga qo'l uzatib. – Sehrli xususiyatlari ham to'liq saqlangan, garchi men uni shunchaki asrayotgan bo'lsam-da...

«Voldemort medalyonni qaytarib bermasa kerak», xayoldan o'tkazdi Garri. Biroq barmoqlar orasidan sirpanib chiqqan oltin buyum xayol o'tmay, boz qizil baxmal ustiga joylandi.

– Ana shunaqa gaplar. Tom! Umid qilamanki, sizni zeriktirib qo'ymadim.

Yigitning yuziga e'tibor bergan kampirning ahmoqona tabassumi ilk bor so'nib qoldi.

– Azizim, o'zingizni yaxshi his etyapsizmi?

– Ha... ha, albatta, – bazo'r javob berdi Voldemort. – Juda yaxshi his etyapman...

– Nazarimda... yo'q, menga shunday tuyulgan bo'lsa kerak... – dedi Xepziba, biroz cho'chigan ohangda. – Ma, Podpeva, joyiga eltib, tegishli jodu ila qulflab qo'y...

«Xepziba Voldemortning ko'zidagi qizil chaqmoqni ko'rib qolganga o'xshaydi», – xayoldan o'tkazdi Garri.

– Vaqt bo'ldi Garri, – eshitildi Damblorning past ovozi.

Uy elfining boshidagi quticha sakrab-sakrab, nari ketdi. Dambldor Garrining qo'ltig'idan ushlab, biroz tortishi bilan ikkovlon bo'shliqqa kirib, birozdan so'ng direktorning xizmat xonasida paydo bo'ldi.

– Ushbu ajoyib uchrashuvdan ikki kun o'tgach, Xepziba Smit kutilmaganda vafot etdi, – ma'lum qildi Dambldor, o'z kreslosiga joylashar ekan, Garriga ham o'tirishga imo qilib. – Podpeva, o'z sohibasining tungi kakaosiga bexosdan zahar qo'shib qo'yganida ayblandi.

– Bo'lishi mumkin emas! – g'azab-la xitob qildi Garri.

– Ha, ushbu masalada fikrimiz bir yerdan chiqmoqda, ta'kidladi Dambldor. – Xepziba bilan Reddilar topgan o'lim o'rtasida umumiylik bor. Ikkala holatda ham qotillikda uchinchi shaxslar ayblangan. Ular esa, o'z navbatida, sodir etgan jinoyatlarini...

– Podpeva aybiga iqrar bo'ldimi?

– Sohibining kakaosiga nimadir solganini esladi va o'sha nimadir shakar emas, balki, hammaga ham ma'lum bo'lmagan kuchli zahar bo'lib chiqdi, – javob berdi Dambldor. – Sudning hukmiga ko'ra, Podpevaning qilmishi qasddan sodir etilgan jinoyat emas, keksalik tufayli yo'l qo'yilgan fojiali xato sifatida tan olindi.

– Voldemort uning xotirasini Morfinning xotirasi kabi o'zgartirib yuborgan!

– Ha, men ham shunday fikrga bordim, – bosh iring'idi Dambldor. – Sehrgarlik vazirligi Morfinga nisbatan qanday yangilish munosabat bildirgan bo'lsa, Podpevaga nisbatan ham shunday munosabat...

– ... uy elfi bo'lgani uchun, – gapni bo'ldi Garri, Germiona tomonidan asos solingan SASSIQ jamiyatiga ich-ichdan mayl qilib.

– Ha, aynan shuning uchun, dedi Dambldor. – U juda qarib qolgan bo'lib, sohibasining ichimligiga allaqanday modda solganiga iqrar bo'ldi. Tergov tadbirlarini davom etishni vazirlikning birorta bo'lsin xodimi xayoliga ham keltirmadi. Men esa kekse elfni qidirib topib, uning xotirasini oldim. Biroq bechora

elf, anavi baxti qaro Morfin kabi bir oyog'i bilan go'r yoqasiga kelib qolgan ekan. Lekin uning xotirasi jomcha bilan medalyonning mavjudligidan Voldemortning xabari bo'lganini isbot qiladi.

Dambldor biroz o'ylanib, davom etdi:

– Podpeva sudlangach, Xepzibaning qarindoshlari marhumaning ikkita eng qimmatbaho xazinasini yo'qolib qolganini, garchi ular bunday bo'lishi mumkinligiga darhol ishonishmagan bo'lishsa-da, bilib qolishdi. Chunki ular, o'z boyligini ko'z qorachig'iday asragan kampirning ko'plab maxfiy joylari bo'lganini yaxshi bilishar edi. Xepzibaning huzuriga tez-tez tashrif buyurib, kampirni o'ziga rom etgan «Bordjin va D'Avillo» do'konining yosh sotuvchisi esa ishni tashlab, qayoqqadir yo'qolib qoldi. Do'kon sohiblari ham el qatori taajjubda qolishdi. Tom Reddli haqida uzoq vaqt hech kim hech nima eshitmadi.

Biroz o'y surib qolgan Dambldor xayolini yig'ib, davom etdi:

– Endi esa agar qarshi bo'lmasang, Garri, e'tiboringni hikoyalarimizning ayrim tafsilotlariga qaratmoqchiman. Voldemort navbatdagi qotillikka qo'l urdi. Reddliardan keyingi birinchi qotillikmi, yo'qmi, aniq bilmayman. O'ylashimcha, shunday. O'zing ko'rding, bu safar u xun olish yo'lida emas, foyda ko'rish, unga maftun bo'lib qolgan baxtsiz ayol ko'rsatgan ikkita misli yo'q buyumni o'zlashtirib olish maqsadida odam o'ldirdi. Bir vaqtlar u yetimxonadagi bolalarning narsalarini o'g'irlagan edi, vaqt o'tib, Morfinning uzugini o'mardi, endi esa Xepzibaning jomchasi-yu medalyonini olib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Biroq bu... jinnilikdan o'zga narsa emas, – qoshini chimirdi Garri. – O'z ishining, qolgan barcha narsalarning bahridan kechib, allaqanday...

– Sen uchun bu jinnilikday ko'rinishi mumkin, lekin Voldemort uchun yo'q, – bosh chayqadi Dambldor. – Umid qilamanki, o'sha qimmatbaho buyumlar Voldemort uchun qanday ahamiyatga ega bo'lganini vaqt o'tib, o'zing anglab olasan. Ammo tan olishing kerakki, medalyonni o'ziniki deb bilishga muayyan huquqi bo'lgan.

-- Medalyonni o'ziniki deb bilishi mumkin, -- tan oldi Garri. -- Jomchani-chi?

-- Jomcha «Xogvars»ga asos solganlardan biriga tegishli bo'lgan, -- dedi Damblдор. -- O'ylashimcha, o'sha vaqtda maktab Voldemortni o'ziga shu qadar kuchli tortganki, «Xogvars» tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan buyumni o'zlashtirib olish vasvasasiga qarshi hech narsa qila olmagan. Lekin buning boshqa sabablari ham bo'lishi mumkin va... umid qilamanki, vaqti kelib, barini senga ko'rsata olaman... Endi so'nggi, har qalay, sen professor Divangardning xotirasini qo'lga kiritguncha eng oxirgi sanaladigan xotiraga o'tamiz... Xo'sh, Xepzibaning o'limidan keyin, oradan o'n yil o'tdi. Ushbu vaqt davomida Voldemort nimalar bilan mashg'ul bo'lgani borasida taxmin qila olishimiz mumkin, xolos...

Damblдор so'nggi shishadagi xotirani dabl xotira ichiga quydi.

-- Kimning xotirasi bu? -- so'radi Garri, o'midan turib.

-- Mening xotiram, -- javob berdi Damblдор.

Garri kumush tusli xotira ichiga Damblдорning ortidan sho'ng'ib, yana shu xonada paydo bo'ldi. Yangus o'zining tilla qo'nog'ida jimgina mudrab o'tiribdi. Yozuv stoli ortida Garri-ning yonida turgan Damblдорga juda o'xshab ketadigan, faqat yuzidagi ajinlar sal kamroq, ikkala qo'li soppa-sog' Damblдор o'tiribdi. Xizmat xonasi esa deraza ortida qor yog'ayotgani bilangina farq qilmoqda. Tungi osmondan yog'ilayotgan ko'kimtir qor uchqunlari derazaning tashqi tokchasida kichik uyum hosil qilgan.

Nisbatan yoshroq Damblдор, aftidan, nimadir kutmoqda. Chindan ham, birozdan so'ng eshik taqilladi.

-- Marhamat, kiring.

Garri beixtiyor oh urib yuborib, shu zahoti o'zini qo'lga oldi. Xonaga Voldemort kirib keldi. Uning hozirgi yuzi qariyb ikki yil muqaddam Garrining ko'z o'ngida katta tosh qozondan chiqib kelgan yuziga o'xshamaydi. Boshqacha aytganda, uning yuzi hali haqiqiy ilon tusini kasb etmagan, ko'zi ham u qadar qizarmagan, lekin ilgariги barno yigit Tom Reddildan asar ham

qolmagan. Haddan ortiq rangpar, gupchakday shishgan yuzining qandaydir g'alati burishib, za'faron ko'rinayotgan bichimi qoramtir tus olgan. Ko'zining oqini qon tomirlari qamragan bo'lsa-da, qorachig'i hali buzilmagan. Egnidagi qora plashning yelka qismida qor uchqunlari yarqiramoqda.

Aftidan, Voldemortning tashrifi Damblдор uchun kutilmagan holat bo'lmagan, shekilli, uning yuzida ajablanish alomati ko'rinmadi.

Xayrli kech, Tom, - ko'rishdi Damblдор. - O'tir.

Tashakkur, - dedi Voldemort, o'ziga ko'rsatilgan, aftidan, hozirgina Garri turib ketgan kursiga o'tirib. - Direktor lavozimiga tayinlanibsiz, - yanada sovuq, kibrli ohangda davom etdi u. - Munosib kishini tanlashibdi.

- Ma'qul deb topganingdan xursandman, - kulib boqdi Damblдор. - Ijzating bilan biron-bir ichkilik taklif qilsam.

O'midan turgan Damblдор ko'plab shishalar, hozir esa damblxotira saqlanadigan javon yoniga borib, ichimliklardan birini oldi. Voldemortga vino quyilgan qadah uzatgach, o'ziga ham quyib, joyini egalladi.

Xo'sh, xizmat, Tom?

Vino simirib o'tirgan Voldemort biroz sukut saqladi.

Men endi Tom emasman, - dedi u nihoyat. - Hozir meni...

- Seni hozir nima deb chaqirishlaridan xabarim bor, - kulib boqdi Damblдор. - Lekin men uchun sen hamisha Tom Reddl bo'lganingcha qolasan. Har qanday keksa o'qituvchining yoqimsiz sifatlaridan biri - shogirdi o'z faoliyatlarini nimadan boshlaganini unuta olmasligidan iboratdir.

Damblдор qo'lidagi qadahni, go'yo Voldemort sharafiga ko'tarishni taklif qilganday, ko'tarib qo'ydi. Mehmonning qiyofasi o'zgarmas qoldi. Shunga qaramay Garri, xonada qaror topgan muhit sezilar-sezilmas o'zgarganini payqadi. Chunki mehmonni yangi ismi bilan chaqirishni rad etgan Damblдор Voldemortga o'z hukmini o'tkazishga imkon bermadi. Mehmon buni juda yaxshi anglab yetgani ham Garrining e'tiboridan chetda qolmadi.

– Bu yerda uzoq yillardan buyon ishlab kelayotganingiz g'alati ko'rinadi menga, – gap boshladi Voldemort, biroz sukut saqlagach. – Sizday sehrgar boshqa biron yerda ishlashni xohlamasligi meni doim taajjublantirib kelgan.

– Bilasanmi, -- javob berdi Dambldor tabassumini qo'y-may, – menday sehrgar uchun qadimiy sehrgarlik ko'nikmalarini yosh avlodga o'rgatishdan muhim narsa yo'q. Agar adashmasam, o'qituvchilik faoliyati qachonlardir seni ham qiziqtirgan edi.

– Hozir ham qiziqtiradi, – dedi Voldemort. – Lekin, baribir, tushuna olmayman: nima uchun vazirlik tez-tez maslahatlashib turadigan va adashmasam, sehrgarlik vaziri lavozimini ikki marta taklif qilingan sizday odam...

– So'nggi hisoblarga qaraganda, uch marta taklif qilingan, – aniqlik kiritdi Dambldor. – Ammo vazirlikdagi katta lavozimlar hech qachon meni qiziqtirmagan. Va bu ham qaysidir ma'noda ikkalamizning umumiy qarashlarimizdir.

Voldemort jiddiy bosh iring'ib, vinodan yana biroz simirdi. Oraga sukunat cho'kdi. Hamon kulib boqayotgan Dambldor Voldemortning so'z aytishini kildi.

Bu yerga, professor Dippet kutgan vaqtdan biroz kech-roq bo'lsa ham kelishimdan maqsad, – nihoyat gap boshladi u. Ilgari meni yosh deb bilgani uchun qanoatlantirmagan iltimos bilan murojaat qilishdir. Meni o'qituvchi lavozimiga ishga olishingizni so'rayman. Maktabni tamomlagach, men o'z ustimda ko'p ishlaganim, ko'p narsalarni ko'rganimni bilasiz, degan umiddaman. Endi o'quvchilarga mendan boshqa hech kim o'rgata olmaydigan narsalarni o'rgata olaman.

Dambldor qadah uzra Voldemortga uzoq tikilib o'tirdi.

O'z ustingda ko'p ishlaganing, ko'p narsalarni ko'rganingni bilaman, albatta. Faoliyating to'g'risidagi mish-mish gaplar qadrdon maktabingga ham yetib kelgan. O'sha gaplarning, loqal, yarmi bo'lsin, rost bo'lsa, dilim qattiq ranjigan bo'lar edi.

– Kishining mahobati boshqalarning hasad qilishiga sabab bo'ladi. Hasad adovatni, adovat esa, o'z navbatida, yolg'onni

yuzaga keltiradi. Bularning bari sizga ma'lum bo'lishi kerak, Dambldor.

– Sen shug'ullangan ishlarning barini «mahobat» demoqchimisiz? – odob-la so'radi Dambldor.

– Shubhasiz, – tasdiqladi ko'zi qizg'ish tusda yarqiragan Voldemort. – Men ko'p tajriba o'tkazdim, sehr-jodu sarhadini, mengacha yashagan boshqa birovlariga qaraganda, ancha kengaytirib yubordim...

– Ayrim turdagi sehr-jodu sarhadini, – xotirjam tuzatish kiritdi Dambldor. – Faqat ayrim turdagi. Sehr-joduning qolgan turlaridan esa... meni kechirasiz-u... mutlaqo bexabarsan.

Voldemort ilk bor kulib qo'ydi. Ammo ushbu zo'raki irjayish ochiq g'azabdan ham dahshatli ko'rindi.

Hamon o'sha eski qo'shiq, – tilyog'malik-la, javob qaytardi u. – Taassufki, Dambldor, ushbu yorug' olamda men ko'rgan narsalarning birortasi sizning mashhur: «Muhabbat har qanday sehr-jodudan kuchlidir» – degan gapingizni tasdiqlamadi.

– Durustroq qaramagandirsan, – taxmin qildi Dambldor.

Demak, buni «Xogvars»da ko'ra bilishim kerak, shunday emasmi? – so'radi Voldemort. – Qaytishimga, o'z bilim va tajribalarimni o'quvchilarga o'rgatishga imkon bering. O'zim ham, iste'dodim ham to'la-to'kis sizning izmingizda bo'ladi! Buyuring!

Dambldorning qoshi ko'tarilib ketdi.

Sening izmingda yurganlar-chi, ular nima bo'ladi? Aytishlariga qaraganda, ular o'zlarini o'zlari O'limdan zavqlanuvchilar deb atashar emish, shu gap rostmi?

Izmidagi odamlar toifasi bunday deb nomlanishidan Dambldor boxabar ekanini Voldemort mutlaqo kutmaganini Garri darhol fahmladi. Sobiq Tom Reddning ko'zida qizil alanga lovullab, burnining tor kataklari kengayib ketdi.

Do'stlarimning kuni mensiz ham o'tishiga ishonchim komil, – vishilladi u, bir daqiqa sukut saqlagach.

Ularni o'zingga do'st deb bilganingdan xursandman, – dedi Dambldor. – Qarollaring bo'lsa kerak, deb yurgan edim.

– Yanglishibsiz, – qisqa qildi Voldemort.

– Demak, agar bugun kechqurun boshim aylanib, «Axta choʻchqa kallasi» qovoqxonasiga kirib qolgudek boʻlsam, u yerda sening qaytishingni kutib oʻtirgan Nott, Roze, Mulchiber, Doloxov kabilarni uchratishim mumkin ekan-da? Chindan ham, faqat haqiqiy doʻstlarga oʻqituvchilik lavozimiga ishga kirmoqchi boʻlgan oʻz oʻrtogʻiga omad tilash uchun bunday serqor tunda sayr qilishga qodirdir.

Damblorning bunday xabardorligi Voldemortni hayratga solib yuborgani ayon koʻrindi.

– Har doimgidek, siz hamma narsadan voqif yurasiz, – dedi u, oʻzini qoʻlga olib.

– Yoʻgʻ-e, oʻsha qovoqxona sohibi bilan doʻst tutinganman, xolos, – xotirjam javob berdi Damblor. – Endi, Tom...

Boʻshagan qadahini stolga qoʻygan Damblor, barmoq uchlari odatiga koʻra qovushtirib olganча, kresloda oʻtirgan joyida qaddini rosladi.

– ... ochiqchasiga gaplashib olaylik. Qanday maqsadni koʻzlab kelding bu yerga, oʻz mulozimlaring bilan? Senga qizigʻi boʻlmagan lavozimni nima maqsadda soʻrayapsan? Vaholanki, ushbu lavozim seni mutlaqo qiziq-tirmasligi ikkalamizga ham maʼlum.

– Qizigʻi boʻlmagan? – soxta boʻlsa-da, hayron boʻlgan qiyofa yasadi Voldemort. Aksincha, Damblor, juda qiziq-tiradi.

– Shubha yoʻqki, sen «Xogvars»ga qaytishni istaysan faqat oʻqituvchilik bilan mashgʻul boʻlish uchun emas. Asl maqsading nima, Tom? Ochiq-oydin aytasang nima qiladi?

– Agar menga ish berishni istamas ekansiz... – injaydi Voldemort.

– Istamayman, albatta, – dedi Damblor. – Ish berishim mumkinligiga ishonganiga ham aqlim bovar qilmaydi. Shunday boʻlsa-da, ish soʻrab kelding. Buning sababi boʻlishi kerak-ku.

Gʻazabdan vujudi qaynagan Voldemort oʻrnidan turdi. U hali Tom Reddldan bu qadar kuchli farq qilmagan edi.

– Soʻnggi soʻzingiz shuni?

-- Shu, -- bosh iring'idi Dambldor.

Enday bo'lsa, bir-birimizga aytadigan boshqa gapimiz yo'q.

Yo'q, -- tasdiqladi, yuzi ma'yus qiyofa kasb etgan Dambldor. -- Seni javonga o't qo'yib qo'rqitadigan, jinoiy qilmishingni tuzatishga majbur qila oladigan davrlar allaqachon o'tib ketdi. Afsus, Tom... ming afsus...

Voldemortning qo'li sehrli tayoqcha solingan kissasiga yugurganini ko'rgan Garri befoyda ogohlantirgancha qichqirib yuborishiga sal qoldi. Biroq Voldemort testari o'girilib, xonani tark etdi. Eshik yopildi.

Dambldor Garrining tirsagidan ushladi. Bir necha soniya o'tib, ikkovlon yana ushbu xonada paydo bo'ldi. Derazaning tashqi tokchasidagi qor uyumi g'oyib bo'lib, Dambldorning qo'li yana qop-qora, jonsiz bo'lib qoldi.

-- Nima maqsadda? -- shu zahoti so'radi Garri. -- Nima maqsadda qaytgan edi u? Bila oldingizmi?

-- Bu borada bir-ikkita mulohazam bor, -- javob berdi Dambldor. -- Faqat bu... mulohazadan ortiq narsa emas.

-- Qanday mulohaza ekan, ser?

-- Professors Divangardning xotirasini qo'lga kiritganingdan so'ng aytaman, -- va'da qildi Dambldor. -- O'shandagina, ikkalamiz uchun dushvor sanalgan ushbu masala hal bo'lishi mumkin.

Dambldor chiqish tomon odimlab, eshikni ochgan bo'lishig, qaramay, ichini qiziquvchanlik yondirayotgan Garri joyidan qo'zg'alnadi.

Yovuz kuchdan himoya fani o'qituvchisi lavozimini so'ragan-da, a, u sizdan? Aytmadimi, nima...

-- Aynan shu fandan dars bermoqchi bo'lgan u, aibatta, -- javab berdi Dambldor. -- Tashrifining oqibati ham shuni isbot qiladi. Lero Voldemortning ilimiga rad javobini bergan kabinadan xilboran, hali hech kim ushbu lavozinda bir yildan ortiq ushlanib qolmagan.

OCHILMAS XONA

Divangarddan asl xotirasini qay yo'l bilan so'rab olish borasida hafta davomida bosh qotirib, xayoliga durustroq fikr kelmagan Garri biron-bir tavsiya topish maqsadida yana o'sha, har xil hayotiy holatlar uchun davo deb sanashga odatlangan «Oliy damlamachilik» kitobini varaqlab yurdi.

– Hech narsa topa olmaysan, o'sha kitobingda, – qat'iy ohangda ma'lum qildi Germiona yakshanba kuni kechqurun.

– Boshidan boshlansa, iltimos, – norozi ohangda e'tiroz bildirdi Garri. – Shahzoda bo'lmaganda hozir Ron ham oramizda bo'lmas edi.

– Bo'lar edi, agar birinchi sinfda Sneggning gapini diqqat bilan tinglaganingda.

«Dushmanga qarshi» so'zlari ustidan kishini qiziqtirib qo'yadigan tarzda timdalab yozilgan Sektumsempra qarg'ishiga ko'zi tushgan Garri qizning gapiga e'tibor qilmadi. Ushbu qarg'ishni amalda qo'llab ko'rmoqchi bo'ldi-yu, Germionadan cho'chib, kitob sahifasini o'g'rincea bukib qo'ya qoldi.

Bolalar yaqindagina qiy-chuv hukm surgan umumiy mehmonxonada, kamin oldida o'tirishibdi. Hozir bu yerda faqat oltinchi sinf o'quvchilari qolgan. Kechki ovqatdan keyin e'lonlar taxtasida e'lon paydo bo'lib, unda havoda g'oyib bo'lish bo'yicha birinchi imtihon yigirma birinchi aprel kuni o'tkazilishi ma'lum qiliniydi. Ushbu sanaga kelib balog'at yoshiga yetadigan o'quvchilarga Xogsmiyodda, qat'iy xavfsizlik qoidalariga amal qilish sharti bilan o'tkaziladigan qo'shimcha amaliy mashg'ulotlarga yozilish taklif etilibdi.

E'lonni o'qigan Ron sarosimaga tushib qoldi. U haligacha g'oyib bo'la olgani yo'q. Ikki marta muvaffaqiyatli g'oyib bo'la olgan Germiona o'zini ishonch-la tutayotgan bo'lsa, balog'at yoshiga yetishini hali to'rt oy kutishi kerak bo'lgan Garriga bularning daxli yo'q.

– Sen-ku, g'oyib bo'la olasan, – ezildi Ron. – Iyul oyida

bemalol topshirasani!

– Men atigi bir martagina g'oyib bo'la oldim, – eslatib o'tdi Garri.

O'tgan mashg'ulotda u havoda g'oyib bo'lib, sal narida yotgan halqa ichida paydo bo'la olgan edi.

O'zining uquvsizligi haqida nolishga bir olam vaqt sarf etgan Ron, sehrli damlamalarga oid, Garri bilan Germiona allaqachon yozib bo'lgan nihoyatda murakkab inshoni qiynalib, shoshgancha yozib o'tiribdi. Garri eng past bahodan ortiq natija kutmaydi. Chunki dementorlarga qarshi kurash masalasida Snegg ikkalasining mulohazalari bir-biriga umuman to'g'ri kelmaydi. Biroq ushbu masala Garrini mutlaqo bezovta qilayotgani yo'q. Hozir unga Divangardning xotirasi muhimroqdir.

– Garri, senga yana bir bor aytyapman, o'sha ahmoq Shahzodang senga hech qanday yordam bera olmaydi! – yanada baland ovozda xitob qildi Germiona. – Insonni o'z xohishiga qarshi ish tutishiga faqat Qaram qilish qarg'ishini qo'llab erishish mumkin, xolos. Bunday qarg'ish esa man etilgan...

– Rahmat, xabarim bor, – kesatdi Garri, ko'zini darslikdan uzmay. – Shuning uchun ham boshqa narsa qidirypman. Damblorning aytishicha, Istig'for keltirishga majbur qiladigan Iqror bo'lish damlamasi to'g'ri kelmas ekan. Balki, bordir boshqa biron-bir damlamami, qarg'ishmi...

– Ishga noto'g'ri yondashyapsan, – gapni bo'ldi Germiona. – Damblorning fikricha, Divangardning xotirasini faqat sen qo'lga kirita olishing mumkin. Ya'ni sen, boshqalardan farqli o'laroq, o'ziga xos ta'sir ko'rsata olasan unga. Biroq bu har qanday tentakning qo'lidan keladigan ish – Divangardga damlama tiqishtirish degani emas...

– «Yanglish» so'zi qanday yozilar edi? – so'rab qoldi, ko'zini matndan uzmagani Ron, patqalamini siltab. – Anglis, deb yozilmaydi-yu, a, har qalay?...

– Yo'q, unday yozilmaydi, – dedi Germiona, Ronning inshosini o'ziga tortib. – «tajovuzkor» so'zi ham «tazovuskor», deb yozilmaydi. Qo'lingdagi patqalam qanaqa patqalam o'zi?

Fred bilan Jorjning do'konidan olingan, imlo xatolarini

tekshirib, tuzatib boradigan patqalam... Faqat, nazarimda, sehri barham topa boshlagan ko'rinadi...

– Ha, shunga o'xshaydi, – kesatdi Germiona, barmog'ini insho sarlavhasiga o'qtab. – Chunki «demampir»larga emas, dementorlarga qarshi kurash masalasida insho yozish talab etilgan bizdan. Keyin, ismingni «Runil Uezlib»ga qachon almash-tirganingni eslay olmayman.

– Obbo! – baqirdi Ron, pergamentga dahshat-la baqra-yib. – Qaytadan yozish kerak, dema faqat!

– Hechqisi yo'q, hozir hammasini tuzatamiz, – dedi Ger-miona, qo'liga sehrli tayoqchasini olgancha, inshoni o'ziga tortib.

– Germiona, men seni juda yaxshi ko'raman, – dedi kresloga suyanib, ko'zini ishqalagan Ron.

– Faqat bu gapingni Lavandaning oldida aytma, – dedi biroz qizarib ketgan Germiona.

– Aytmayman, – g'udulladi Ron. – Yoki yo'q, aksincha, aytaman... mayli tashlab ketsin meni...

– O'zing tashlab ketsang-chi, basharti shuni istar ekan-san?

– O'zing hech kimni tashlab ketmagansan-da, – javob berdi Ron. – Chu ikkalangiz, shunchaki...

– To'g'ri, shunchaki ajrab ketdik-qo'ydik, – tasdiqladi Garri.

– Qaniydi, men ham Lavanda bilan shunchaki ajrashib ketsam, – dedi Ron ma'yus ohangda. – Biroq bunga shama qilganim sari, Lavanda, xuddi bahaybat kalmar¹ singari battar yopishib olyapti menga.

Germiona sehrli tayoqchasini noto'g'ri yozilgan so'zlar ustiga urib-urib, indamay o'tirdi. Xato yozilgan so'zlar o'zidan o'zi tuzalib bordi.

– Ushla, – dedi Germiona, inshoni yigirma daqiqadan

¹ **Kalmar** (*lotincha*: Teuthida) – umurtqasizlar oilasiga mansub dengiz mollyuskasi. Odatda, bunday mollyuskaning uzunligi 25 santimetrdan 56 santimetrgacha bo'ladi. Ammo *Architeuthis* turiga mansub mollyuskalar 16,5 metrgacha uzunlikda bo'lishi mumkin.

so'ng Ronga uzatib.

– Katta rahmat senga, Germiona, – minnatdorlik bildirdi Ron. – Sening patqalaming bilan oxiriga yetkazib qo'ysam, maylimi?

Zoti past Shahzodaning qaydlarida biron-bir foydali tavsiya topa olmagan Garri atrofga razm soldi. Snegg va uning inshosiga minglab la'natlar o'qigan Simus yotoqxonaga kirib ketdi. Atrof jimjit. Kamindagi cho'g'ning tirsillashi va inshosini oxiriga yetkazayotgan Ronning qo'lidagi patqalamning shitirlashigina eshitilmoqda. Garri kitobni yopib endi esnagan ediki, kutilmaganda...

Gup.

– Voy! – dedi Germiona past ovozda.

Seskanib ketgan Ron esa pergamentga siyoh to'kdi.

– Taraqqos! – xitob qildi Garri.

Uy elfi chuqur ta'zim aylab, o'z oyog'iga murojaat qildi:

– Kichik Malfoy nima bilan shug'ullanib yurgani borasida muntazam bildiruv berib borishni sohib amr etgan edi. Shunday ekan, Taraqqos...

Gup.

Taraqqosning yonida boshiga kiyib olgan choynak g'ilo-fi yon tomon og'ib ketgan Dobbi paydo bo'ldi.

– Dobbi ham Garri Potterga yordam berdi! – chiyilladi u, sherigiga norozi qarab. – Taraqqos esa birga kelib bildiruv berish uchun Garri Potterni huzuriga yo'l olgani haqida Dobbi-ni ham boxabar qilishi lozim!

– Bu qanaqasi? – so'radi, elflarning kutilmagan tashrifidan hayajonlanib ketgan Germiona. – Nima gap o'zi, Garri?

Malfoyni kuzatib yurishni Taraqqos bilan Dobbiga topshirganini Germionaga hali aytmagan Garri, uy elflarining mehnatidan foydalanish masalasi Germiona uchun muammoli masala ekanini yaxshi bilgani bois ikkilangancha indamay turdi.

– Ular mening topshirig'imga binoan Malfoyni kuzatib yurishibdi, – dedi u nihoyat.

– Kecha-yu kunduz, qag'illab qo'ydi Taraqqos.

Dobbi butun hafta davomida mijja qoqqani yo'q, Garri

Potter! – gʻurur-la maʼlum qildi Dobbi, turgan joyida tebranib ketib.

- Mijja qoqqaning yoʻq? – soʻradi gʻazabi qaynagan Germiona. – Garri nahotki sen ularga shunday buyruq...

- Yoʻq, albatta, - tez ishontira ketdi Garri. – Dobbi, uxlashing mumkin, tushundingmi? Xoʻsh, biron nima aniqlashga muvaffaq boʻldingizmi? – tez soʻradi u, Germiona gapga aralashmasidan oldin.

- Janob Malfoy oʻz nasl-nasabiga munosib zot sifatida oliyjanoblik-la ish tutmoqda, - shu zahoti gʻichirladi Taraqqos. - Mazkur zot yuzining bichimi ila sohibamga oʻxshasa, oʻzining xushxulqi bilan...

- Drako Malfoy juda yomon bola! - nafrat-la chirilladi Dobbi. - Juda yomon bola! U... u...

Boshidagi gʻilofning popugidan oyogʻidagi paypoq uchigacha zir titray boshlagan Dobbi oʻzini choʻgʻga tashlash uchun boʻlsa kerak, kamin tomon yugura ketdi. Uy elflarining oʻxshash xulqini yaxshi bilgan Garri elfning tanasini koʻndalangiga ushlab, yuqoriga koʻtardi. Uning qoʻlidan chiqib ketishga uringan Dobbi tipirchilab, birozdan soʻng boʻshashgancha, shalpayib qoldi.

- Rahmat, Garri Potter, - entikib-entikib nafas chiqardi elf. - Dobbi hanuzgacha sobiq sohiblari haqida yomon gap aytishga qiynaladi...

Garri Dobbini yerga qoʻydi. Elf boshidagi choynak gʻilofini tuzatib olgach, Taraqqosga oʻshqirdi:

- Lekin Taraqqos Drako Malfoyning uy elfi uchun yomon sohib ekanini, baribir, bilib qoʻyishi lozim!

- Xuddi shunday. Malfoyni qanchalik yaxshi koʻrishing haqidagi gaping bizga qiziq emas. - dedi Garri Taraqqosga murojaat qilib. - Shu bois muhabbat izhorlarini chetga surib, hozir u nima bilan band ekaniga oʻtamiz.

Dargʻazab oʻqrayib qoʻygan Taraqqos boz taʼzim qilib, gʻudulladi:

Janob Malfoy Katta Zalda ovqatlanadi, oʻz yotoqxonasida uxlaydi, turli mashgʻulotlarda ishtirok...



– Dobbi, sen gapir, – gapni bo‘ldi Garri. – Malfoy biron-bir nojoiz joyga bordimi?

– Garri Potter, ser, – chiyillay ketdi, yirik ko‘zida kamin cho‘g‘i aks etgan Dobbi. – Yosh Malfoyning qoida buzganini Dobbi biron marta bo‘lsin, ko‘rmadi. Aftidan, u jazoga tortilishdan cho‘chisa kerak. Lekin u har xil boshqa o‘quvchilar bilan birga yettinchi qavatga muntazam qatnab yurganini ko‘rdim. O‘sha o‘quvchilar poyloqchilik qilib turadi, toki Malfoy...

– Darkor xonaga kirib-chiqquncha! – xitob qildi Garri qo‘lidagi «Oliy damlamachilik» kitobi bilan o‘zining peshanasiga qarsillatgancha tushirib.

Ron bilan Germiona hayrat-la Garriga baqrayib qolishdi.

– O‘sha yerda yo‘qolib qolar ekan-da, u! O‘z kirdikorlarini o‘sha yerda amalga oshiryapti ekan-da! Xaritada ko‘rinmay qolishining sababi ham shu ekan-da! Chindan ham, Darkor xona xaritada ko‘rinmaydi!

– Ehtimol, Kafanduzdlar bunday xona borligidan bexabar bo‘lishgandir, – taxmin qildi Ron.

– Fikrimcha, bu xonaning sehrli xususiyatlaridan biri, fikr bildirdi Germiona. – ko‘rinishi kerak bo‘lmasa, xaritada ham ko‘rinmaydi.

– Malfoy o‘sha xonada nima bilan shug‘ullanayotganini ko‘rishga muvaffaq bo‘la oldingmi, Dobbi? – kuchli qiziqish-la so‘radi Garri.

– Yo‘q, Garri Potter, buning iloji yo‘q, – javob berdi Dobbi.

– Bo‘lmagan gap, – e‘tiroz bildirdi Garri. – O‘tgan yili Malfoy bizning qarorgohimizga kira olgan. Men ham ichkariga kirib, hech bir muammosiz, poylashim mumkin uni.

– Shubha qilaman, Garri, – asta fikr bildirdi Germiona.

O‘sha xonadan nima maqsadda foydalanganimizni Malfoy bilgan. Chunki sirimizni anavi tentak Marietta og‘zidan gullab qo‘ygan. Boshqacha qilib aytganda, Darkor xona Malfoyga Dambldor armiyasining qarorgohi sifatida paydo bo‘lishi kerak bo‘lgan. Sen esa Malfoy uchun ushbu xona qanday joy sanalishini, xonadan nimani so‘rashni bilmaysan.

Deen nima o'ylab topaman. – e'tirozlarning barini rad etdi Garri. – Yasha, Dobbi!

Taraqqos ham yomon emas, – erkalar maqtadi Germiona.

Ammo Taraqqos minnatdorlik bildirish o'rniga, qon to'mirlari qamrab olgan yirik ko'zini chetga olib, shiftga qaragancha g'udulladi:

– Ailaqanday maglvachcha Taraqqosga murojaat qilyapti. Taraqqos o'zini eshitmagan ko'ygacha solib oladi...

– Daf bo'l bu yerdan, – o'kirib berdi Garri.

Taraqqos ta'zim bajo aylagancha, havoda g'oyib bo'ldi.

– Sen ham berib uxla, Dobbi, – ijizat berdi Garri.

Dobbi ham havoda g'oyib bo'lishdan oldin, baxtiyor ohangda chiyillagancha, minnatdorlik bildirdi:

– Rahmat, Garri Potter, ser.

– Xo'sh, endi nima deysiz? – g'ayrat-la so'radi Garri, Ron bilan Germionaga yuzlanib. – Malfoy qayerda bo'lishini bilamiz! Qo'lga tushdi hisob!

– Ajoyib, – peshanasini tirishtirdi Ron, deyarli nihoyasiga yetgan insho bo'lib, endi siyoh bo'tqasiga aylangan pergamentni siltab.

Germiona qog'ozni yana o'ziga tortib, sehrli tayloqchasi vositasida siyoh dog'ini bartaraf etishga kirishdi.

– Har xil boshqa o'quvchilar to'g'risida nimadir deganday bo'ldimi? – esladi Germiona. – Malfoyning nechta yordamchisi bor o'zi? Axir, u o'z sirini to'g'ri kelgan odamga fosh etavermaydi-yu...

– Ha, shunisi g'alatiroq, – qoshini chimirdi Garri. – Malfoy Krabbega: «Sababi seni qiziqalmasligi kerak! Goyl ikkalangiz buyurilgan ishni bajaring, vassalom! Poyloqchilik qilasiz, bast!» – deganini o'z qulog'im bilan eshitgan edim-u.

Garri jim bo'lgancha, kamindagi olovga qarab qoldi.

– G'irt ahmoq ekanman, – asta xitob qildi u. – Hammasi ayoq! Yerosti xonasida butun boshli qozoni bilan turibdi... dars vaqtida ozroq o'g'irlab chiqqan bo'lishi mumkin u...

– Nimaning o'g'irlab chiqishi mumkin? – so'radi Ron.

– Barcha qiyofalar damlamasini. Divangard o'zining birinchi darsida o'sha damlamani bizga ko'rsatgan edi. Malfoy, tabiiyki, o'g'irlagan... Poyloqchilikni har xil o'quvchilar emas... odatdagiday, Krabbe bilan Goyl qiladi... To'ppa-to'g'ri!

Garri o'rnidan irg'ib turib, kamin qarshisida yo yoq, bu yoq yura boshladi.

– U galvarslar Malfoy tayinlagan har qanday ishni bajaraverishadi, garchi sababi tushuntirib berilmasa ham. Malfoy esa odamlar, o'sha ikkala tentakni Darkor xona oldida ko'rib qolishlarini istamaydi, shuning uchun ham ularni o'z qiyofasini o'zgartirib borishga majbur qiladi... kvidish o'yiniga bormagan kuni menga Malfoy bilan birga ro'baru bo'lib qolgan anavi qizlar... Krabbe bilan Goyl bo'lgan, albatta!

– Aytmoqchisanki, qo'lidan tushirib yuborgan tarozisini men tuzatib bergan anavi jajji qizaloq... – ajablandi Germiona.

– Albatta! – xitob qildi Garri, ko'zini katta ochgancha, Germionaga qarab. – Albatta! Affidan, Malfoy o'sha fursatda Darkor xonada bo'lgan va qizaloq, yo'g'-e, anavi galvarslardan biri, Malfoyni xonadan chiqmasligi uchun ogohlantirish maqsadida qo'lidagi vazmin mis tarozini jaranglatgancha, tashlab yuborgan. Shisha idishni sindirib, qurbaqa uvuldirig'ini to'kib yuborgan mitti qizaloqni ham eslang. Biz doimo o'zimiz bilmagan holda ularning yonidan o'tib yurganmiz!

– Krabbe bilan Goylni qizlarga aylantirib yurar ekan-da, a?! – xandon otib qo'ydi Ron. So'nggi vaqtda ikkalasi xuddi tolei past kishilarday yurishining sababi bu yoqda ekan-da! Chidab yurishganiga hayronman...

– Malfoyning qo'lidagi Ajal belgisini ko'rishgandan keyin nima qilishsin, bechoralar, chidashadi-da, – ta'kidlab qo'ydi Garri.

– O'sha belgi borligiga to'liq ishonch hosil qilmagan bo'lsak-da, – istehzo qilib o'tdi, qurigan inshoni, yana biron baloga yo'liqmasligi uchun o'rab, Ronga uzatgan Germiona.

– O'z ko'zingiz bilan ko'rib, ishonch hosil qilishga ulgurmasiz hali. – qat'iy ohangda ma'lum qildi Garri

- Ko'ramiz, - dedi kreslodan turgan Germiona kerishib olib. - Faqat sen, Garri, bemavrid aqldan ozma. Malfoy nima ish qilayotganini bilmas ekansan, Darkor xonaga kira olmaysan. Shuni ham unutmaginki, - dedi u, yuk xaltasini yelkaga tashlar ekan, Garrining ko'ziga jiddiy boqib. - Hozir sen jamiki diqqat-e'tiboringni Divangardning xotirasini qo'lga kiritish masalasiga jamlashing lozim. Xayrli tun.

Qizlar yotoqxonasining eshigi yopilguncha Germionani domangir nigoh-la kuzatib qo'ygan Garri Ronga yuzlandi:

- Sen nima deysan?

Yaqinda Dobbi turgan joyga qaragan Ron xayolga berildi:

- Uy elfi kabi g'oyib bo'la olganimda edi, ko'p narsalarga erishgan bo'lar edim.

Tun yomon o'tdi. Garri deyarli mijja qoqmay, Darkor xona Malfoyga nimaga kerak bo'lgani, ertaga u o'sha xonaga kirishga muvaffaq bo'lsa nimani ko'rishi mumkinligi haqida o'y-lab yotdi. «Germionaning xavotiri noo'rin, - xayoldan o'tkazdi Garri. Modomiki, Malfoy DAning qarorgohiga kira olgan ekan, demak, u ham Darkor xonaga kira oladi. Biroq qayerga kirib qoladi? Xona qanaqangi joy sifatida paydo bo'lishi mumkin? Uchrashuv xonasi sifatidami? Panagoh sifatidami? Buyum saqlash xonasi bo'libmi? Ustaxona sifatidami?» Garrining miyasi g'uvullab ketdi. Uyquusi notinch kechib, uzuq-yuluq tush ko'rdi. Unda Malfoy Divangardga aylanib qoldi, Divangard esa Snegg qiyofasiga kirdi...

Yovuz kuchdan himoya fanidan oldin berilgan bo'sh vaqtni Darkor xonaga kirishga urinib ko'rishga sarf etishga ahd qilgan Garri betoqat nonushta qildi. Hozir u o'z rejasini pichirlagancha Ronga ma'lum qilmoqda. Germiona, ushbu rejaga atayin qiziqish bildirmay o'tiribdi. Qizning xohishi bo'lganda, yordam bera olishi mumkinligini bilgan Garrining jahli chiqdi.

Quloq sol, - dedi nihoyat, u Germiona bekinib olmasligi uchun. «Bashorat-u karomat gazetasi»ni kafti bilan bosib olib. Men Divangardning xotirasini unutganim yo'q, faqat hozircha, o'sha xotirani qay yo'l bilan qarmoqqa ilintirish mum-

kinligini tasavvur eta olmayapman, xolos. Biron-bir fikr miyanga yalt etib kelguncha, Malfoyni kuzatib yursam nima qilibdi?

– Aytdim-ku, senga, Divangardga nisbatan hiyla yoki sehr qo'llash emas, uni ko'ndira bilishing kerak deb, javob berdi qiz. – Mumkin bo'lganda Damblorning o'zi, bu masalada hech bir qiyinchiliksiz, har qanday yo'l tutishi mumkin edi. Shunday ekan, dedi u, gazetani tortib olib, birinchi sahifasini yozar ekan, – Darkor xona ostonasida ivirsimay, Divangardni topib, tabiatining ijobiy fazilatlarini namoyon etishiga da'vat etmog'ing lozim.

– Tanishlardan birortasi?... – so'radi Ron, sarlavhalarni ko'zdan kechira boshlagan Germionadan.

– Ha! – xitob qildi Germiona.

Garri bilan Ron tiqilib qolishiga sal qoldi.

– Yo'q-yo'q, hammasi joyida, hech kim o'lgani yo'q. Mundugnus haqida yozishibdi. Uni hibsga olib, Azkabanga qamashibdi! Aftidan, u kimnidir bisotini urib ketmoqchi va shu maqsadda infernalga o'xshab olmoqchi bo'lgan... Xo'sh, yana allaqanday Oktavius Perets degan kishi g'oyib bo'libdi. Yana, qanday dahshat, to'qqiz yoshli bolani hibsga olishibdi! Qaram qilish qarq'ishi ostida buvisi bilan buvasining joniga qasd qilishga urinibdi...

Nonushtaning qolgan qismi sukutda o'tdi. Ovqatlanib bo'lishgach, Germiona qadimiy runalar darsiga, Ron, dementorlar haqidagi kechagi inshoni oxiriga yetkazish uchun umumiy mehmonxonaga, Garri esa yettinchi qavatga, Tomsiz Barnabasning so'yil bilan do'pposlayotgan trollarga balet raqsini o'rgatayotgani tasvirlangan gobelen tomon yo'l oldi.

Kimsasiz o'tish joyiga yetgan Garri ko'rinmas plashini ustiga tashlab oldi. Uning xavotiri behuda: gobelen qarshisida hech kim yo'q. Garri Darkor xonaga qanday kirishni, xususan: Malfoy ichkarida bo'lgandami, yo aksincha, u yo'qligida kirish kerakmi, hozircha bilmaydi. Lekin u, o'n bir yoshli qizchalar qiyofasini kasb etgan Krabbe bilan Goyl oyoq ostida o'ralashib yurmaganidan xursand.

Darkor xonaning yashirin kirish eshigi oldiga kelgan Garri ko'zini chirt yumdi. Nima qilish kerakligini u yaxshi biladi. O'tgan yili yaxshigina mashq qilib olishga ulgurgan. Fikr-xayolini o'z istakiga jamlab olgan Garri ichida takrorlay ketdi: «Malfoy ichkarida nima bilan shug'ullanayotganini ko'rishim kerak... Malfoy ichkarida nima bilan shug'ullanayotganini ko'rishim kerak... Malfoy ichkarida nima bilan shug'ullanayotganini ko'rishim kerak...»

Eshik oldidan uch marta o'tgan Garri ko'zini, yuragining gumburlab urayotganini his etgancha ochib, eshikka qaradi. Devor yaxlit bo'lgancha turibdi.

U oldinga qadam tashlab, silliq devorni turtib ko'rdi. Devor toshday qattiq.

– Yaxshi, – dedi Garri. – Demak, men boshqa narsa haqida o'ylaganman...

Biroz o'ylanib turgach, yana ko'zini chirt yumdi-da, fikr-xayolini jamlab, ichida gapira boshladi: «Malfoy yashirincha bo'ladigan joyni ko'rishim kerak... Malfoy yashirincha bo'ladigan joyni ko'rishim kerak... Malfoy yashirincha bo'ladigan joyni ko'rishim kerak...»

Uch marta yurib o'tgach, umid-la ko'zini ochdi. Eshik yo'q.

– Tentaklik qilma, – dedi u devorga, norozi ohangda. – Fikrimni aniq ifoda etdim-u!... Xo'p, mayli...

Garri ikki daqiqacha o'ylanib turdi.

«Drako Malfoy uchun qanday xona sifatida paydo bo'lsang, o'sha ko'rinishda paydo bo'lishingni istayman...»

Ko'zi yumuq holatda harakatsiz qotgan Garri devorda eshik paydo bo'lishini eshitishga umid qildi. Ko'chadagi qushlarning shovqinidan boshqa hech qanday tovush eshitilmadi. Ko'zini shartta ochib, yana silliq devorni ko'rdi.

Garri ovoz chiqarib so'kingan ediki, chirillagan ovozlار eshitildi. Atrofqa qarab, muyulish ortiga qochib o'tayotgan bir gala birinchi sinf o'quvchilarini ko'rdi. Aftidan, ular Garrini tarbiyasi nihoyatda buzuk arvo'nga o'xshatishgan ko'rinadi.

Oradan yana bir soat o'tdi. Garri «Drako Malfoy ichkari- rida nima bilan shug'ullanayotganini ko'rishim kerak» mavzu- sig'a oid, xayoliga kelgan barcha taxminlarni sinab ko'rdi va nihoyat Germionaning haqligi, Darkor xona unga ochilishni istamayotganini tan olib, toliqqan va zardasi qaynagan holatda yovuz kuchdan himoya darsiga yo'l oldi. Yo'l davomida ustidagi ko'rinmas plashni yechib, yuk xaltasiga joyladi.

– Yana kech qolding, Potter, – sovuq ohangda tanbeh berdi Snegg, sham yoritgan xonaga yugurgancha kirib kelgan Garriga. – «Griffindor»dan o'n ball ayriladi.

O'qituvchiga nafrat-la o'qrayib qo'ygan Garri o'zini Ronning yonidagi kursiga tashladi. O'quvchilarning yarmi hali o'z joyini egallashga ulgurgani ham yo'q. Hamma darslik chi- qarish, narsalarini taxlash bilan ovora. Garri sal kechroq kirib keldi, xolos.

– Birinchi navbatda, dementorlarga qarshi kurash mav- zusidagi ishlaringizni yig'ib olmoqchiman, dedi Snegg, sehrli tayoqchasini kibr-la siltab.

Havoga ko'tarilgan yigirma beshta pergament o'rami uning oldiga uchib, stol ustida batartib taxlanib qoldi.

– Sizlarning manfaatingizni ko'zlagancha, umid qila- manki, ushbu insholar Qaram qilish qarg'ishiga qarshilik ko'r- satish borasida o'tgan safar yozilgan bema'nilikdan sal bo'lsa ham farq qiladi. Endi esa marhamat qilib, darslikning... Nima gap, mister Finnigan?

– Ser, – gap boshladi Simus, – infernalni arvohdan qan- day ajratib olish mumkin? «Bashorat-u karomat gazetasi»da infernal haqida yozishibdi...

– Aslo unday emas, – diqqatnamo ohangda e'tiroz bildirdi Snegg.

– Biroq, ser, aytishlariga qaraga...

– Agar gazetani diqqat bilan o'qiganingizda, mister Finnigan, gapni bo'ldi Snegg, – o'sha infernal Mundugnus Fletcher ismli yaramas o'g'ri bo'lib chiqqanini anglagan bo'lar edingiz.

– Sneggnung hamtovog'i, deb bilar edim, o'sha Mundug-

nusni, – pichirladi Garri Ron bilan Germionaga. – Qamoqqa olingan hamtovogʻiga yuragi achish...

- Aftidan, Potter bizga bir nima demoqchi koʻrinadi, – dedi Snegg, xona oxirida oʻtirgan Garriga qora koʻzini tikib. – Qani, undan soʻrab bilaylik-chi, infernalni arvohdan qanday ajratib olish mumkin ekan.

Hamma Garri tomon oʻgirildi. Garri Divangardning holidan xabar olgani borgan kuni Damblдор nima deganini tez eslay boshladi.

- E-e... m-m-m... arvohtar... odatda shaffof boʻladi... poʻngʻilladi u.

- Dohiyona fikr, – masxaraomuz ohangda hayratlandi Snegg, irjayib. – Olti yillik tahsil siz uchun bekor ketmagani darhol koʻzga tashlanadi. Arvohtar shaffof boʻladi.

Pansi Parkinson chirqirab kuldi, qolganlar ham kulib qoʻyishdi. Garri chuqur nafas olib, garchi vujudi qaynab ketgan boʻlsa-da, xotirjam ohangda davom etdi:

Ha, arvohtar shaffof boʻladi. infernallar esa murdalardir, shundaymi? Demak, ular moddiy tusga ega, qattiq boʻladi...

- Buni besh yoshli bola ham aytishi mumkin, - tishining oqini koʻrsatdi Snegg. Inferna! yovuz sehrgarning afsuni vositasida qayta tirilgan murdadir. U jonsiz maxluq boʻlib, oʻz xatti-harakatlarini qoʻgʻirchoq singari, sehrgarning amri ila bajaradi. Arvoh esa maʼlumki, vafot qilgan kishi ruhining yerda qolgan, dono Potter taʼkidlab oʻtganday, shaffof nusxasidir.

- Garri aniq maʼlumot berdi! – gapga aralashdi Ron. Ularni yana qay tarzda ajratib olish mumkin? Qorongʻi koʻchada oʻshalardan biri uchrab qolsa, qani, bilib koʻr-chi, qattiqmi-yoʻqmi? Soʻrab oʻtirmaysan-ku undan: «Maʼzur tuting, mabodo siz vafot qilgan ruhning nusxasi emasmisiz?» – deb.

Hiringlab yuborgan oʻquvchilar, Sneggning nigohi ila yana jim boʻlib qolishdi.

- «Griffindor»dan yana oʻn ball ayriladi, - dedi Snegg. – Aqlli fikr boʻldi, Ronald Uesli. Umuman aytganda, oʻta qattiq-ligidan havoda biror dyuym nariga gʻoyib boʻla olmaydigan odamdan yana nimani ham kutish mumkin.

Jahl-la og'iz juftlagan Garrining qo'lini Germiona mahkam ushlab, pichirlagancha xitob qildi:

– Bas qil! Foydasi yo'q! Jazoga tortilganing qoladi, xolos!

– Demak, darslikning ikki yuz o'n uchinchi sahifasini ochib, Qiynoqqa solish qarg'ishiga doir dastlabki ikkita xatboshini o'qib chiqamiz. – amr etdi Snegg, sezilar-sezilmas kulib.

Dili xufton bo'lgan Ron indamas bo'lib qoldi. Qo'ng'iroq zarbi eshitilgach, Lavanda Garri bilan Ronning yoniga kelib, Sneggning andishasizligi borasida e'tiroz bildirar ketdi-yu, lekin bu bilan Ronning jahlini battar qaynatdi. Germiona esa Garrining nazarida, sirli ravishda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Qizdan xalos bo'lishga ahd qilgan Ron Garrining izidan o'g'il bolalar xonasiga kirib ketdi.

– Umuman aytganda, Snegg haq, – dedi Ron, darz ketgan ko'zgu oldida ikki daqiqacha sukut saqlab turgach. – Ovora bo'lib imtihon topshirishga boraymi-yo'qmi, bilmadim. Havoda g'oyib bo'lishning mohiyatini hech anglab yeta olmayapman.

– Xogsmiyodda qo'shimcha shug'ullanib, o'zingni sinab ko'rishing mumkin, – maslahat berdi Garri. – Nima qilganda ham bema'ni halqa ichiga sakragandan ko'ra qiziqroq bo'ladi. O'shanda ham agar sen o'zingni... nima desam ekan... ishonch-la his etmasang, imtihonga bormay, men bilan yozda topshirishing mumkin... Mirtl, bu yer o'g'il bolalar hojatxonasi!

Qo'shni bo'lmadagi unitazdan uchib chiqqan yosh qiz arvohi, oq tusli qalin yumaloq ko'zoynagi orqali bolalarga razm solgancha, shift ostida suza boshladi.

A-a, sizlarmi? – vaysaqi ovozda e'tiroz bildirdi Mirtl.

– Kimni kutgan eding? – so'radi Ron, arvohga ko'zgu orqali qarab.

Hech kimni. – qoshini chimirgancha javob berdi arvoh, jag'idagi husnbuzarni siqib. – Qaytib kelishni va'da qilgan edi... sen ham shunday va'da bergan eding. – dedi u, xafa bo'lgancha, Garriga qarab. Ammo bir necha oydan buyon holimdan xabar olmading, garchi o'g'il bolaning gapiga ishonib bo'lmasligini ko'pdan buyon bilsam-da.

– Seni boshqa hojatxonada yashaydi, deb yurgan edim, dedi Garri, bir necha yildan buyon chetlab yuradigan hojatxonani nazarda tutib.

– Ha, shunday, yelkasini norozi qiyofada qisib qo'ydi Mirtl. – Biroq bu o'sha yerdan chiqmasligim kerak degani emas-u. Esingda bo'lsa, men seni bir vaqtlar hammomda ko'rgan edim.

– Esimda, – javob berdi Garri.

Unga yoqsam kerak, deb o'ylagan edim, arz qila ketdi Mirtl. – Ehtimol, sizlardan keyin u ham topilib kelar, a? Ikkalamizning umumiy jihatlarimiz ko'p... Ishonchim komilki, u ham buni fahmladi...

Mirtl umid-la, eshikka qarab qo'ydi.

– Umumiy jihatlarimiz ko'p? – so'radi, qiziqib qolgan Ron. – U ham unitaz quvurida yashaydi, demoqchimisani?

– Yo'q! o'shqirdi Mirtl. – U ham men kabi juda ta'sirchan bola, uni ham xafa qilishadi, sho'rlik o'zini yolg'iz his etadi, dardlashadigan do'sti yo'q, ho'ngrab yig'lashdan tortinmaydi!

– Kimdir yig'lab turadimi bu yerda? – qiziqish bildirdi Garri. – Kim? Yosh bolami?

Ishing bo'lmasin! – yana o'shqirdi Mirtl, yoshga to'lgan ko'zi ila ochiqdan ochiq irjayib turgan Ronga o'qrayib. Hech kimga aytmaslikka so'z berganman, uning sirini o'zim bilan...

... qabrga olib ketmassan, har qalay? pishqirdi Ron.

Suvni najasdan tozalash havzasiga, desang, boshqa gap...

Mirtl ovozi boricha baqirib, atrofga suv sachratgancha, yana unitazga sho'ng'ib ketdi. Arvohni mazax qilib, gap talashgan Ronning kayfiyati biroz ko'tarildi.

– Sen haqsan Garri, dedi u, yuk xaltasini yelkasiga tashlab, – oldin obdan mashq qilishim kerak, shundan so'nggina imtihon topshirish masalasi haqida o'ylab ko'rish mumkin.

Shunday qilib, dam olish kunlari Ron, Gerniona va imtihongacha qolgan ikki hafta ichida yoshi o'n yettiga yetadigan oltinchi sinf o'quvchilari Xogsmiyodga yo'l olishadigan bo'ldi. Qishloq saylini sog'ingan Garri o'rtloqlarining safarga hozirlik

ko'risilgan! hasad-la, kuzatdi. Lekin u bo'sh vaqtini Darkor xonaga sarf etishga ahd qilgan. Ron bilan Germionani vestibyulda ko'zlar ekan, ushbu rejasi bilan o'rtoqlashdi.

– Undan ko'ra Divangardning xonasiga borib, xotirasini so'rab oisang yaxshi bo'lar edi, – dedi Germiona.

– Harakat qilyapman! – alam-la xitob qildi Garri.

Garri yolg'on gapirmadi. Hafta davomida o'tgan sehrli damlamalar tayyorlash mashg'ulotlaridan keyin ushlanib, Divangard bilan yuzma-yuz gaplashib olishga urindi. Biroq professor sinf xonasini shu qadar tez tark etadigan odat chiqarib olganki, Garri uning yo'lini to'sishga ulgurmayapti. Xizmat xonasining eshigini ikki marta taqillatgan Garriga hech kim javob bermadi, garchi so'nggi bor taqillatganda, ichkarida shitirlayotgan grammofoonning¹ tovushi tez tinganini yaqqol eshitgan bo'lsa-da.

Men bilan gaplashishdan bosh tortyapti u! Menga nima kerakligini ko'rib, o'zini olib qochadigan bo'lib qolgan!

– Sen esa urinishingni davom etaver.

Sir sezgiri bilan hammani tekshiruvdan o'tkazayotgan Filchning qarshisida cho'zilgan odamlar navbati qisqargani bois, maktab nazoratchisi eshitib qolmasligi uchun Garri indamay qo'ya qoldi. Do'stlariga omad tilab, Darkor xona tomon yo'l oldi. Germiona nima desa desin-u, baribir, Garri Darkor xonaga bir-ikki soat sarf etadi.

Vestibyulda turganlarga ko'rinmayotganiga ishonch hosil qilgan Garri yuk xaltasidan Kafanduzd xaritasi bilan ko'rinmas plashini chiqardi. Plashni ustiga tashlagach, sehrli tayoqchasini xaritaga urib qo'ydi-da, pichirladi:

– Biron-bir yaxshilikni niyat qilmaganligimga tantanavor qasam ichaman!

Tabiiyki, yakshanba kuni ertalab hamma o'z umumiy mehmonxonasida o'tiribdi. Griffindorchilar bir minorada, ravenklochilar boshqa minorada, slizerinchilar yerosti xonasida, xufflpuffchilar oshxona yonida. Ayrimlar kutubxona yaqinida

¹ Grammofoon (yunoncha: gramma – yozuv + phone – tovush) – maxsus plastinkaga yozib olingan kuy, nutq va shu labilarni qayta eshitiradigan karnayli musiqa apparati.

yoki qasr yo'laklarida yurishibdi. Bir necha kishi hovlida sayr qilmoqda... yettinchi qavat yo'lagida esa Gregori Goyl turibdi. Darkor xona xaritada ko'rinmaydi, biroq Garri bu masalada tashvish tortgani yo'q. Modomiki, Goyl poyloqchilik qilib turgan ekan, xarita buni biladimi-yo'qmi, xona ochilgan.

Garri zina bo'ylab yuqoriga yugurdi va muyulishga yetgach, qadamini sekinlatib, ikki hafta muqaddam Germiona yordam bergan qizaloqqa, uning orqa tomonidan o'g'rincha yaqinlasha boshladi.

– Go'shting shirali, o'zing juda mazali bo'lsang kerak, a, qizaloq? – pichirladi u, qizchaning ustiga engashib.

Omonatini topshirib qo'yishiga bir baxya qolgan Goyl qo'lidagi tarozini shiftga dahshat-la uloqtirib, toki tarozi yerga tushib, chilparchin bo'lguncha qorasini o'chirdi. Kulib yuborgan Garri o'y surgancha, devorning silliq yuzasiga qarab qoldi. Shubha yo'qki, Drako Malfoy ham ichkarida dahshatdan qotib qolgan. Begonalar borligini bilib, tashqariga chiqishga jur'at eta olmaydi. O'z qudratidan g'ururlanib sevingan Garri xona eshigini ochish masalasida o'ylanib qoldi.

Afsuski, uning xursandchiligi uzoq cho'zilmadi. Yarim soat uringaniga qaramay, eshik ko'rinish bermadi. Garrining g'azabi qaynadi: Malfoy atigi ikki qadam narida bo'lsa-yu, nima bilan band ekanini hamon bila olmasa! Sabr kosasi to'lgan Garri yugurib kelib, kuchi boricha devor tepdi.

– VOY OYOG'IM!

Nahotki oyog'ining bosh barmog'ini sindirib olgan bo'lsa? Bir qo'li bilan oyog'ini changallab olgancha, turgan joyida sakray ketgan Garrining ustidagi plash sirpanib, yerga tushdi.

– Garri?

Keskin o'girilib yerga yiqilgan Garri, Bomsni ko'rib, hayron bo'ldi. Qiz xuddi bir umr shu yerda kezib yurganday, xotirjam kelmoqda.

– Sen nima qilyapsan bu yerda? – so'radi Garri, oyoqqa turib.

Ahmoqona qonuniyat – yerda cho'zilib yotgan mahalda, albatta, kimdir paydo bo'ladi.

– Dambldor bilan uchrashmoqchi edim, – javob berdi qiz.

Boms ozib, eti suyagiga yopishgani, kulrang sochi tom bo'g'otidan¹ osilib tushgan sumalakni eslatayotganini ko'rgan Garri lol qoldi.

– Uning xonasi bu yerda emas, – dedi Garri. – Qasrning narigi tomonida, ajdar tusli tosh ilon ortida...

– Bilaman, – javob berdi Boms. – Maktabda yo'q ekan. Yana qayoqqadir chiqib ketibdi.

Yo'g'-e? – dedi Garri, lat yegan oyog'ini yerga asta bosib. – Ittifoqo, qayerlarga borishini bilmaysanmi?

Xabarim yo'q, – bosh chayqadi Boms.

Unda nima ishing bor edi?

– Aytarli gap emas, – javob berdi, yengini tinimsiz tortqilayotganiga o'zi ahamiyat bermayotgan Boms. – Nima gap ekanini, balkim, bilar, degan xayolga bordim... har xil mish-mish gaplar yuribdi... baxtsiz hodisalar haqida...

– Ha, to'g'ri, gazetada yozishibdi. Allaqanday yosh bola o'z yaqinlarini...

– «Bashorat-u karomat gazetasi» yangiliklar masalasida kechikadi, – gapni bo'ldi Boms, aftidan, Garriga quloq solmay.

– Orden a'zolaridan hech kim yozmadimi, senga so'nggi vaqtda?

– Orden a'zolaridan birortasi men bilan yozishmaydi, – javob berdi Garri. – Sirius...

Qizning ko'zi yoshga to'ldi.

– Uzi, – o'zini noqulay his etdi Garri. – Aytmoqchi edimki... Uni men ham juda...

– Nima? – hech nimani tushunmaganday so'radi Boms. – Mayli... ko'rishguncha, Garri...

Qiz keskin teskari o'girilib, yo'lakning narigi boshi tomon odimlay ketdi. Garri Bomsning ortidan biroz qarab turdida, ko'rinmas plashini ustiga tashlab, Darkor xona bilan, endi avvalgi ishtiyoqsiz shug'ullanishni davom etdi. Ron bilan Ger-

¹**Bo'gat** – bo'g'ot, to'g'ot; suvni to'sish uchun bosiladigan tuproq yoki chum to'siq; yer sathiga nisbatan baland yer; tepalik.

mionaning tushlikka qaytishini bilgan Garri nihoyat zerikib, o'zini tiyish va yo'lakni, aftidan, yana bir necha soat ichkarida o'tiradigan Malfoyning ixtiyoriga qo'yib berishga ahd qildi.

Erta qaytgan Ron bilan Germiona Katta Zalda o'tirib, tushlikning yarmini bir yoqli qilishga ulgurishibdi.

– Uddaladim... deyarli! – quvonch-la ma'lum qildi Ron, Garrini ko'rishi bilan. – Pudgafut xonimning choyxonasida g'oyib bo'lib, ko'chada paydo bo'lishim kerak edi. Biroq men sal oshirib yuborib, Shkryabenshtyukning yozuv qurollari do'koni yonida paydo bo'lib qoldim. Nima qilgan taqdirda ham havoda g'oyib bo'la oldim!

– Yasha! – maqtab qo'ydi Garri. – Sen-chi, Germiona, qanday bajarding?

– Qanday bo'lar edi, benazir-da, – javob berdi Ron, Germionaga og'iz juftlagani imkon bermay. – Tayinlangan barcha amallarni zo'r bajardi! Mashg'ulotdan so'ng «Uch supurgi» qahvaxonasiga kirdik. Anavi yo'riqchi Uilki Harjoyda deganlari Germiona haqida bulbuldek sayraganini eshitganingda edi. Agar yaqin orada muhabbat izhor qilib qolsa, hech ham hayron bo'lmayman...

– O'zingning ishlaring qalay? – so'radi Germiona, Ronning gapiga e'tibor qilmay. – Darkor xonaning yonida tentiragan bo'lsang kerak, a?

– Ha, – bosh irg'idi Garri. – Nima deb o'ylaysan, kimni uchratib qoldim men u yerda?... Bomsni!

– Bomsni? – baralla hayron bo'lishdi Ron bilan Germiona.

– Ha. Damblorning qabuliga kelgan emish.

– Agar mening fikrim sizlarni qiziqтира, – ma'lum qildi, Garrining Boms bilan o'tgan suhbat haqidagi hikoyasini eshitgan Ron, – uning tomi vazirlikda bo'lib o'tgan hodisadan so'ng biroz jilib qolgan ko'rinadi.

– Nima qilganda ham sal g'alati bu, – dedi biroz tashvishga tushgan Germiona. – Boms qasr poyloqchisi etib tayinlangan. U esa o'z joyini, yo'qligini bila turib, Damblor bilan uchrashish maqsadida tashlab ketgan.

– Miyamga bir xayol keldi, – dedi Garri, biroz tortinib. Nazarimda, u Siriusni... sevgan. Bunga nima deysiz?

Germiona, odatda, bunday mavzu ustasi bo'lsa-da, hozir u hayron bo'lgancha, Garriga baqrayib qoldi.

– Qayerdan olding bu gapni?

– Bilmadim, – yelka qisdi Garri. – Siriusning ismini tilga olishim bilan yig'lab yuborishiga sal qoldi... Uning Himoyachisi ham endi to'rt oyoqli. Siriusning qiyofasiga aylanib qoldimikan, deyman-da...

– To'g'ri fikr, – dedi biroz o'ylanib qolgan Germiona. – Lekin qasrga, Dambldorning huzuriga nima uchun kirib kelgan, hayronman, agar, chindan ham, uning qabuliga kirishni ko'zlagan bo'lsa.

– To'ppa-to'g'ri, – e'lon qildi Ron, og'ziga kartoshka bo'tqasini to'ldirib. – Bechora qizning tomi jilgan. Ich-ichdan singan. Nima qilganda ham ayol-da, u! – dono qiyofa yasagancha, bosh iring'ib qo'ydi Garriga qarab. – Asab tizimi zaif bo'ladi, ularning.

– Shunday bo'lsa-da, ayol kishi, – javob berdi xayolini yig'ib olgan Germiona, – sehrGAR, tabib va mimbulyus' mimbtoniya haqidagi latifani eshitgan Rosmerta xonim kulmagani uchun yarim soat aziyat chekmaydi.

Ron xafa bo'lib, teskari o'girilib oldi.

Mimbulyus, mimbtoniya – juda kamdan-kam uchraydigan o'simlik. Habashistonda o'sadi. Tashqi ko'rinishida, kulrang kaktus bo'lib, unda igna o'rniga tanasi bo'ylab g'urra kabi narsalar joylashgan. U hayratlanarli mudolaa tizimiga ega: o'zgina xavf tug'ilganda zararli bo'lmagan, ammo juda yoqimsiz hidli, qalin sharbatni chiqaradi.

XXII BOB

DAFN MAROSIMI

Qasr minoralari ustiga yig'ilgan qora bulutlar orasida yorqin moviy osmon ko'rina boshladi. Yoz yaqinlashib kelayotganidan darak beruvchi ushbu alomat na Malfoyning iziga tusha bilgan, na Divangardni, bir necha o'n yillar davomida yashirib yurgan xotirasi bilan o'rtoqlashishi uchun e'timodli suhbatga chorlay olgan Garrini quvontirmadi.

– So'nggi bor aytyapman senga: unut o'sha Malfoyni, qat'iy talab qildi Germiona.

Uchovlon tushlikdan so'ng hovliga chiqib, quyoshda isinmoqda. Ron bilan Germionaning qo'lida vazirlik tomonidan chop etilgan «Havoda g'oyib bo'lish: keng tarqagan xatolar va ularga yo'l qo'ymaslik usullari» risolasini o'qib o'tirishibdi. Aftidan, risola asabga salbiy ta'sir o'tkazayotgan ko'rinadi. Negaki muyulish ortidan allaqanday qizcha paydo bo'lishi bilan seskanib ketgan Ron Germionaning ortiga bekinib oldi.

– Lavanda emas, dedi Germiona toliqqan ohangda.

– Xayriyat, – tinchlandi Ron.

– Garri Potter siz-u, a? – so'radi, bolalar oldiga kelgan qizaloq. – Mana buni sizga berib qo'yishni iltimos qilishdi nendan.

– Rahmat...

Yuragi orqaga tortib ketgan Garri kichkinagina pergament o'ramini qo'lga oldi.

– Divangardning xotirasini qo'lga kiritguningacha unashg'ulot bo'lmasligini aytgan edi-yu, Damblдор?! dedi u, qizaloq nari ketgach.

– Bu borada nima ish qilayotganingni bilmoqchidir, balki, – taxmin qildi Germiona.

Nomani ochgan Garri Damblдорning ingichka qiyalama dastxati o'rniga, juda kir va, aftidan, asabiy holatda bitilib, siyoh dog'i tarqab ketgan qing'ir-qiyshiq yozuvni ko'rdi.

Qadrli Garri, Ron va Germiona!

Aragog bugun tunda omonatini topshirib qo'ydi. Garri, Ron ikkalangiz uni ko'rgansiz va, tabiiyki, uning hayratomuz o'rgimchak bo'lganini bilasiz. Germiona, yanglishmasam, u senga ham yoqar edi.

Dafn marosimi kechqurun bo'ladi. Marosimga kel-sangiz, katta iltifot ko'rsatgan bo'lar edingiz. Quyosh botar vaqt-da bo'lgani ma'qul. Aragog sutkaning aynan shu vaqtini juda yoqtirar edi.

Kechqurun hovliga chiqishingiz mumkin emasligini bila-man, lekin sizlar ko'rinmas plashdan foydalanishingiz mumkin.

Iltilmos qilmagan bo'lar edim-u, biroq bunday qayg'uga yakka o'zim dosh bera olmayapman.

Xagrid.

Garri xatni Germionaga uzatdi

– Ma, o'qi.

– Meni bundan xalos etinglar, iltimos! – ingradi Ger-miona, pergament bo'lagini Ronga uzatib.

Xatni o'qib chiqqan Ronning jahli chiqib, tildan qolar darajaga kelib qoldi.

– Esini yeganmi! – baqirdi u. – O'sha iflos maxluq Garri ikkalamizni o'z qabilasiga yangi go'sht sifatida bergan edi-yu! Endi uning jirkanch tukli jasadida ho'ngrashimiz kerak ekan-mi?

– Gap faqat bunda emas, – dedi Germiona. – Xagrid qasrdan kechqurun chiqishimizni so'rayapti, garchi xavfsizlik choralari million barobar qat'iylashtirilganini o'zi yaxshi bilsa-da. Qo'lga tushib qolsak, nima bo'ladi?

– Ilgari kech bo'lsa ham kulbasiga borar edik, – e'tiroz bildirdi Garri.

– To'g'ri, lekin mana bunday bema'ni sabab bilan emas, – javoban e'tiroz bildirdi Germiona. – Xagridga, chindan ham, yordam kerak bo'lgan kezlarda biz xo'p tavakkal qilganmiz, bi-roq hozir... Aragog o'libdi. Uning hayotini saqlab qolish kerak bo'lganida, boshqa gap.

Unda men aniq bormagan bo'lar edim, - qat'iy ohangda ma'lum qildi Ron. - Germiona, sen uni ko'rmagansan. Aragog o'lib to'g'ri qilibdi, ishonaver.

Garri Ronning qo'lidagi xatni olib, bo'yalib ketgan siyoh dog'lariga qaradi. Ko'z yoshi pergamentga jilg'aday oqqani ayon...

- Garri, marosimga borishni niyat qilmagandirsan? - so'radi Germiona. - Bunday ahmoqlikni deb jazoga tortilishni istamaysan-u, to'g'rimi?

- Bilaman, - og'ir xo'rsindi Garri. - Xagrid Aragogni biz bormasak ham dafn eta oladi.

- Ha, to'g'ri, - yengil tortdi Germiona. - Gapimga quloq sol. Bugun kunduzi sehrli damlamalar tayyorlash mashg'ulotida deyarli hech kim bo'lmaydi. Hamma imtihon topshirgani ketadi... Divangardning ko'nglini topib, ko'ndirib ko'r!

- Fikringcha, ellik yettinchi bor urinishimda, omad kulib boqadimi menga? - istehzo ila kuldi Garri.

- Omad! - kutilmaganda xitob qildi Ron. - Garri, aynan o'sha omad kerak senga!

- Tushunmadim? - dedi Garri.

- Omad keltirish damlamasidan qittay urib ol! - taklif qildi Ron.

- To'ppa-to'g'ri... Ron! - hayajon-la qichqirdi Germiona. - Albatta, ichib olish kerak! O'zimning xayolimga kelmaganini qara-ya?!

- Baxt-u tole damlamasi, - baqrayib qaradi Garri. Bilmadim, men undan...

- Nima maqsadda? - so'radi Ron, hayron bo'lib.

- O'sha xotiradan hani muhimroq nima bo'lishi mumkin, Garri? - hayron bo'ldi Germiona.

Garri do'stlariga javob bermadi. O'sha kichkinagina qimmatli shisha haqidagi fikr allaqachon ongining tubidan joy olgan. Qandaydir muham noaniq orzu-havas shakllanib qolgan: Jinna Din bilan aloqani uzgan, Ron singlisi Garri bilan uchra-shayotganidan negadir quvongan... Garri esa bunday holat tushida yoki tush bilan o'ng chegarasidagina bo'layotganini tan ol-

Gapi xolos...

– Garri? Qaysi xayollarga berilib qolding? – dedi Germiona.

– Nina?... A, ha, albatta, – dedi Garri, xayolini yig'ib. – ... yaxshi. Agar Divangardni hozir ko'ndira olmasam, kechikib baxt-u tole damlamasidan biroz ichib, yana urinib ko'raman.

– Mana bu boshqa gap, – xursand bo'ldi Germiona.

Qiz o'rnidan shartta turib, xiromon aylangancha pichirladi?

– Yo'nalish... fikr-xayolni jamlash... shoshmaslik...

– Bas qil, – o'tindi Ron. – Shundoq ham ko'nglim behuzur bo'lib ketyapti... Iye, obbo, tez yashiring meni!

Hovlida paydo bo'lgan yana ikki qiz Ronni cho'chitib, Germionaning orqasiga bekinib olishga majbur qildi.

– Lavanda emas, – dedi Germiona ranjigan ohangda.

Juda soz, – dedi Ron, Germionaning yelkasi uzra qaratib. – Jin ursin, qarang, negadir ikkalasi juda g'amgin yuribdimi?

– Bular opa-singil Montgomerilar. G'amgin yurishlari ham tabiiy. Ularning ukasi haqida eshitmadingmi? – hayron bo'ldi Germiona.

– To'g'risini aytsam, kimning qarindoshiga nima bo'lganini eslab qolishga ulgurmay qolyapman, – javob berdi Ron.

– Aytishlariga qaraganda, oyisi O'limdan zavqlanuvchilarga yordam berishdan bosh tortgani uchun, ularning ukasiga afsun bilan maxluq tusiga kirgan odam hamla qilgan. Nima bo'lganda ham bola endi besh yoshga to'lgan bo'lib, hayotini asrab qola olishmagan. Muqaddas Rezgi kasalxonasida joni uzilgan.

– Joni uzilgan? – iztirob-la takrorladi Garri. – Lekin odam bundan, odatda, o'lmay, maxluq tusiga kiradigan bo'lib qoladi, xolos-u.

– O'ladigan holatlar ham ba'zan bo'lib turadi, – dedi Ron, g'ayrioddiy qat'iy ohangda. – Agar maxluq tusiga kirgan odam haddan ortiq berilib ketsa.

– Kim bo'lgan o'sha odam? – tez so'radi Garri.

– Aytishlaricha, bolani Fenrir Uolk tishlagan, javob berdi Germiona.

– O‘zim ham o‘sha bo‘lsa kerak, deb o‘ylagan edim, – dedi Garri nafratdan vujudi qaynab. – Bola ovlaydigan savdoyi! Lyupin aytib bergan edi menga u haqda.

– Garri, – dedi Germiona, g‘amgin nigoh-la qarab, – Voldemortni to‘xtatib qolish uchun Divangardning xotirasini qo‘lga kiritishing shart. Chunki ushbu mudhish hodisalarning bari o‘shaning amri ila ro‘y beryapti.

Qo‘ng‘iroq zarbi yangradi. Ron bilan Germiona seskanib ketishdi.

– Hammasi yaxshi bo‘ladi, – ishontirdi Garri ikkalasini. – Omad yor bo‘lsin!

Uchovlon bugun havoda g‘oyib bo‘lish bo‘yicha imtihon topshiradigan o‘quvchilar yig‘ilayotgan vestibylga yo‘l oldi.

– Senga ham omad tilaymiz! – ma‘noli qarab qo‘ydi Germiona, yerosti xonalari tomon burilgan Garriga.

Sehrli damlamalar tayyorlash darsiga atigi uch kishi: Garri, Erni va Drako Malfoy keldi.

– Imtihon topshirishga yoshlik qilar ekansiz-da, a? – samimiy xandon otib qo‘ydi Divangard. – O‘n yetti yoshga ham to‘lmabsiz-da hali?

Bolalar bosh iringib qo‘yishdi.

– Hechqisi yo‘q, quvnoq ohangda davom etdi Divangard. – O‘zchilik ekanmiz, keling bir sho‘xlik qilamiz bugun. Har biringiz biron-bir qiziq damlama tayyorlab bering.

– Ajoyib g‘oya, ser, – xushomad qildi Erni, qo‘lini ishqalab.

– «Qiziq damlama» deganingizni qanday tushunish kerak? – qoshini chimirdi Malfoy.

– Meni hayratga soladigan damlama-da, – yengil ohang-da javob berdi Divangard.

Labini qimtib olgan Malfoy «Oliy damlamachilik»ni varaqlay boshladi. Darkor xonada bo‘la olmaganidan afsus qilib, ushbu darsni behuda vaqt yo‘qotish deb bilayotgani basharasida aniq yozilgani ko‘rinib turibdi.

«Tushunarli», – xayoldan o'tkazdi Garri, Malfoyni darslik uzra kuzatib.

Qiziq, unga shunday ko'rinyaptimi yo, chindan ham, Malfoy Boms kabi ozib ketganmi? Yuzidan qon qochib, so'nggi vaqtda qasrdan tashqariga chiqmagani tufayli, battar rangpar bo'lib ketganiga-yu, shubha qilmasa ham bo'laveradi. Surbetligi, jo'shqinligi, dimog'dorligidan, shu jumladan, «Xogvars-ekspress»da zimmasiga Voldemort tomonidan yuklangan katta vazifa haqida sayragan odobsiz takabburligidan endi asar ham qolmagan. Malfoyning bunday achinarli holatini, u qanday topshiriq bajarayotgan bo'lmasin, ishi chatoq ckani bilangina izohlash mumkin.

Bunday xulosa Garrini jonlantirdi. U «Oliy damlamachilik» darsligini varaqlab, kayfiyatni ko'tarish sirkasini tayyorlashga oid, Shahzoda tomonidan chizib qoraytirib yuborilgan yo'riqnomani tanladi. Juda soz! Ushbu damlama nafaqat qo'yilgan topshiriq ijrosiga to'g'ri keladi, balki, Divangardni o'zidan o'zi xursand bo'lib ketadigan holatga keltiradi, agar o'qituvchini sirkadan tatib ko'rishga ko'ndira olsa. Ajab emas, xotirasini berishga ahd qilib qolsa...

Bir yarim soat o'tgach, Garrining qozonidagi sarg'ish tusli damlamaga diqqat bilan razm solgan Divangard qars urgancha, kaftlarini ko'kragi oldida qovushtirib oidi

– Ko'rinishi bag'oyat zo'r! Tushunishimcha, kayfiyatni ko'tarish sirkasi, a? M-m-m... hidining xushbo'yligini! Nima qo'shding? E-m-m... bir chimdim qalampirmunchiq, to'g'rimi? Yo'riqnomada aytilmagan bo'lsa-da, o'ziga xos fikr yuritgansan, yomon emas... Sirka iste'molidan so'ng kamdan kam hollarda yuzaga keladigan tinimsiz xirgoyi qilib yurish, burun qichishi kabi ikkilamchi ta'sirlarga qarshi ko'rilgan chora-da, bu, albatta. Bunday ijodiy ilhomni qayerdan olasan, o'g'lim, bilmay qoldim... agar bu..

Garri zoti past Shahzodaning darsligini yuk xaltasiga chuqurroq tiqib joyladi.

– ... oyingning genlari bo'lmasa!

– Ha... shunday bo'lsa kerak, – tinchlandi Garri.

Erning ko'ngli to'lmagan ko'rinadi. Aftidan, bugun u Garridan ustun kelishni niyat qilgan, shekilli, yangi damlama ixtiro qilishga bemulohaza kirishgan. Oqibatda, qozonni binafsharang bo'tqaga to'ldirgan. Malfoy yuzini burishtirib olgancha narsalarini yig'ishtirdi. Divangard uning kekirtirish damlamasi yonidan «qoniqarli» degancha o'tib ketdi.

Qo'ng'iroq zarbi yangradi. Malfoy bilan Erni shu zahoti xonani tark etishdi.

– Ser, – gap boshladi Garri.

Biroq Garrining ortida hech kim qolmaganini ko'rgan Divangard bir og'iz so'z aytmay, tez nari ketdi.

– Professor... professor, damlamamdan tatib ko'rishni?...
-- umidsiz baqirgancha qoldi Garri.

O'qituvchi chiqib ketgan eshikka qaragancha dili xufton bo'lgan Garri narsalarini yig'ishtirgach, sirkani to'kib tashladida, xonadan chiqib, umumiy mehmonxona tomon yo'l oldi.

Kechqurun Ron bilan Germiona qaytib kelishdi.

– Garri! – qichqirdi, portret to'sgan tuynukda ko'ringan Germiona. – Garri, topshirdim!

– Yasha! – maqtadi Garri. – Ron-chi?

– Ronmi... Ron, arzimagan sabab bilan yiqildi, – pichirladi Germiona. – Omadi chopmadi. Qoshining yarmi g'oyib bo'lgan joyida qolib ketibdi, imtihon qabul qilayotgan kishi esa buni sezib qoldi...

Qovog'idan qor yog'ayotgan Ron paydo bo'lib, g'amgin qiyofa ila ularning davrasiga kelib qo'shildi.

– Divangard masalasi nima bo'ldi? – so'radi Germiona.

– Aytarli gap yo'q, – javob berdi Garri. – Omading chopmabdi-da! Hechqisi yo'q, qayg'urma, yanagi safar men bilan birga topshirasan.

– Ehtimol, – g'udulladi Ron. – Qoshning yarmi-ya... Ahamiyatni qarang!

– Ha-ya, – xayrixohona bosh iring'idi Germiona. – Haddan ortiq qattiqqo'llik qilishdi...

Kechki ovqat qattiqqo'l imtihon oluvchini so'kish bilan o'tib, Ronning kayfiyati biroz ko'tarildi. Umumiy mehmonxona

tomon olingan yo'l davomida esa itoatsiz Divangard-u uning xotirasi muhokama qilindi.

– Xo'sh, Garri, baxt-u tole damlamasidan urib olasanmi endi? – talab ohangida so'radi Ron.

– Shunday qilsam, yaxshi bo'ladi, shekilli, – javob berdi Garri. – Bir shishasi o'n ikki soatga mo'ljallangan. Bir ho'plam ichsam bo'ladi, ikki-uch soatga yetadi.

– Ajoyib his-tuyg'u, – dedi Ron, orzu-xayolga berilib. – Biror-bir nojo'ya qadam bosmaysan!

Nimalar deysan? – kuldi Germiona. – Hech qachon ichib ko'rmagansan-ku, o'sha damlamani!

– Ichganday his etdim o'zimni, – dedi Ron, oddiy narsaga tushuntirish berayotganday. – Farqi nima...

Divangard Katta Zalga yaqinda kirib kelganini ko'rgan, uning shoshilmay, uzoq ovqatlanishini bilgan bolalar umumiy mehmonxonada biroz gaplashib o'tirishga ahd qilishdi. Garrini jo'natishdan oldin, o'qituvchi o'z xonasiga qaytishini kutib o'tirishni niyat qilishdi. Quyosh «Taqiqlangan o'rmon» daraxtlarining uchiga yetib botgan mahalda esa Nevill, Din va Simus umumiy mehmonxonada o'tirgan fursatdan foydalanib, o'g'il bolalar yotoqxonasiga ko'tarilishdi.

Garri sandig'i tubidagi paypoqni, paypoq ichidan esa mittigina yaltiroq shishani chiqardi.

– Boshladik, – dedi u, shishachani ko'tarib.

– Xo'sh, qalay? – pichirlab so'radi Germiona, damlama ho'plagan Garridan.

Garri indamay o'tirdi. Birozdan so'ng cheksiz quvnoq va qudrat hissi vujudini asta qamray boshladi. Hamma narsa uning izmiga o'tganini his etib, Divangardning xotirasini tortib olish arzimagan ishday ko'rindi!

O'z kuchiga komil ishonch bildirayotgan Garri irjay-gancha o'rnidan turdi.

– Zo'r! Juda zo'r! – javob berdi u, nihoyat. – Qisqasi... men Xagridning oldiga ketdim.

– Nima?! – baravar xitob qilishdi Ron bilan Germiona, Garriga dahshat-la baqrayib.

– Yo‘q, Garri, sen Divangardning xonasiga borishing kerak, esingdan chiqdimi?

– Aslo yo‘q, – ishonch-la ma‘lum qildi Garri. – Men Xagridning oldiga borishim kerak. Shunday qilsam, nazarimda, ishlarim yaxshi bo‘ladi.

– Nimasi yaxshi, bahaybat o‘rgimchakni ko‘mish ishim? – hayratlandi Ron.

– Ha, – javob berdi Garri, yuk xaltasidan ko‘rinmasplashini chiqarib. – Aynan o‘sha yerga borishim kerakligini his etyapman. Tushunyapsizmi, nimani nazarda tutayotganimni?

– Yo‘q, – baralla javob berishdi Ron bilan Germiona, battar tashvishga tushib.

– Ichganing baxt-u tole damlamasi ekani aniqmi? – so‘radi Germiona, shishachani yorug‘ga tutib. – Boshqa shishang yo‘qmidi? Ichiga quyilgan... bilmadim, nima desam ekan...

– Tom jilish damlamasi bilanmi? – taxmin qildi Ron.

Yelkasiga splash tashlab olgan Garri kulib boqdi. Ron bilan Germiona esa yanada battar tashvishga tushib qolishdi.

– Xavotirga o‘rin yo‘q, – tinchlantirdi ularni Garri, chiqish eshigi tomon odimlab. – Nima qilayotganimni o‘zim bilaman... har qalay, o‘zim bilmasam ham, baxt-u tole damlamasi aniq biladi.

U ko‘rinmasplashni boshiga tashladi-da, pastga tushib ketdi. Ron bilan Germiona uning ortidan ergashdi.

– Bu qiz bilan nima qilyapsan o‘g‘il bolalar yotoqxonasida? – chirilladi Lavanda Braun Garri orqali Ron bilan Germionaga qarab.

Ronning nafasi to‘xtab qoldi. Garri esa hech kimga bildirmay, qochib qoldi.

Umumiy mehmonxonadan chiqib ketish qiyin bo‘lmadi. Garri yaqin kelgan fursatda tuynukdan Jinna bilan Din kirib kelishdi. Garri ikkalasining orasidan o‘tar ekan, bexosdan Jinnga tegib ketdi.

– Kirish uchun yordamga ehtiyoj sezmayman, Din, – achchiqlandi Jinna. – Yosh bola emasman, o‘zim mustaqil kira olaman...

Portret biroz tebranib, yopilib qolgan bo'lsa-da, Garri Dinning Jinnaga o'shqirib berganini eshitib qolishga ulgurdi. Yanada quvonib ketgan Garri qasr bo'ylab odimlay ketdi. Uning yo'lida hech kim uchramadi, hech kimdan bekinishga hojat bo'lmadi. Garri bundan hayron bo'lmadi. Chunki bugun u «Xogvars»dagilar orasida eng omadli kishidir.

Nega endi aynan Xagridning oldiga borishi kerakligini Garri tasavvur ham qila olmaydi. Aftidan, damlama uning yo'lini oxirigacha emas, bir necha qadamini yoritadi, xolos. So'nggi manzil ko'rinmaydi, Divangard qachon paydo bo'lishi ham noma'lum, lekin uning xotirasiga ega bo'lishi aniq. Filch vestibyul eshigini yopib qo'yishni unutibdi. Suyunib ketgan Garri uni lang ochdi. Ikki daqiqa ayvonda turib, maysa hidi va oqshom salqinidan biroz rohatlandi-da, qalinlashib borayotgan qorong'ilik tomon yo'l oldi.

Zinaning so'nggi pog'onasiga yetar ekan, Xagridning oldiga ekinzor orqali borish yoqimliroq bo'lishini his etdi. Bu yo'nalish noto'g'ri ekanini bilsa-da, Garri ichki xarxashasiga itoat qilishi kerakligini biladi. Ekinzor egatlari orasidan yurar ekan, qulog'iga Divangard bilan Sarsabil xonimning suhbatini chalindi. Bunday tasodifdan hayron bo'lmagan Garri quvonib, past bo'yli tosh devor ortiga bekini-da, butun olam bilan totuvligini his etgan holda, o'qituvchilarning suhbatiga quloq tutdi.

– Bir dunyo vaqtingizni mendan qizmaganingiz uchun katta rahmat, Pomona, – sertakalluflik-la, minnatdorlik bildirdi Divangard. – Ular aynan oqshom mahal uzib olinsa, ko'proq kuchga ega bo'lishini nomi chiqqan aksariyat nufuzli odamlar ta'kidlab kelishgan.

– Juda to'g'ri aytishibdi, – qizg'in ma'qulladi Sarsabil xonim. – Shu yetadimi?

– Yetadi, yetadi, bosh irg'idi Divangard, allaqanday poyalar bog'ini qo'lga olib. – Uchinchi sinfning har bir o'quvchisiga bittadan barg beriladi va haddan ortiq bug'lab, buzib qo'ygan bola uchun ham zaxira barglar bo'ladi... Xo'p, mayli, xayrli tun, yana bir bor rahmat, sizga!

Sarsabil xonim issiqxona tomon yo'l oldi, Divangard esa

ko'rinmas Garri tomon yuzlandi.

Kutilmaganda qaynab ketgan shijoatga itoat qilgan Garri ustidagi plashni shartta yechdi.

Xayrli oqshom, professor.

- Merlin soqoli, o'takamni yorib yubording-ku, Garri, -- dedi Divangard, turgan joyida serrayib. -- Qasrdan qanday chiqding? -- so'radi u, Garriga shubha ila qarab.

- Filch eshikni yopishni unutgan ko'rinadi, -- quvnoq ohangda javob berdi Garri, Divangardning qosh chimirganidan yanada sevinib.

- Ustidan arz qilishga to'g'ri keladi, shekilli. Agar fikrim senga qiziq bo'lsa, o'sha odamni xavfsizlik choralari emas, har xil chiqindilar ko'proq qiziqtiradi... Sen nima qilib yuribsan bu yerda o'zi, Garri?

- Gap Xagridda, ser. -- javob berdi Garri, hozir haqiqatni gapirgani ma'qulligini aniq bilib. -- Uni boshiga katta musibat tushgan bo'lib, hozir juda ayanchli ahvolda... hech kimga aytib qo'ymaysizmi, professor? Gap eshitishini xohlamagan bo'lar edim...

Divangardda qiziquvchanlik uyg'ongani ko'rinib turibdi.

- Va'da qilmayman-u... -- po'ng'illadi u, -- lekin Dambldor Xagridga to'la-to'kis ishonadi va, o'ylashimcha, Xagrid yomon ishga qo'l urmaydi.

- Nima desam ekan... Xagrid ko'p yillardan buyon bahaybat o'rgimchak boqib kelgan... o'sha hasharot «Taqiqlangan o'rmon»da yashagan... odam tilida gapira bilgan va hokazo..

- O'rmonda akromantullar¹ yashashini aytishgan edi menga, -- pichirladi Divangard, o'rmon daraxtlari hosil qilgan devor tomon qiyo boqib. Demak, shu gap rost ekan-da, a'?

- Rost, -- bosh igr'idi Garri. -- Biroq ularning to'da boshlig'i Aragog kecha tunda omonatini topshirib qo'ydi. Qayg'uga botgan Xagrid dafn marosimida yonida kimdir bo'lishini iltimos qildi.

¹ Akromantul -- bahaybat yirtqich o'rgimchak

– Qarang-a, – dedi Divangard, xayoli qochgancha, māʼ-yus nigohini chirogʻi uzoqda miltillab koʻrinayotgan kulba tomon qaratib. – Ha... lekin akromantulning zahri nihoyatda qimmatli ahamiyatga ega... Modomiki, hayvonning oʻlganiga koʻp boʻlmagan ekan, demak, zahri hali qurib qolmagan... men bagʻri tosh odam emasman, albatta, va Xagrid shu qadar gʻam-anduh chekayotgan ekan... Agar oz boʻlsa ham qoʻlga kiritish imkoni boʻlsa... Nima qilganda ham akromantulning tirigidan zahar olib boʻlmaydi-yu, axir...

Hozir Divangard Garri bilan emas, oʻzi bilan oʻzi gaplashmoqda.

– ... olinmasa, kechirib boʻlmas xato boʻladi... bir pintasi yuzlab galleon turadi-ya... maoshim esa toʻgʻrisini aytganda, ja unchalik katta ham emas...

Kutilmaganda Garri, qanday ish tutish kerakligini juda aniq idrok etdi.

– Bilasizmi, – ishonchli jurʼatsizlik-la, gap boshladi u, – agar dafn marosimida siz ham ishtirok etsangiz, Xagrid nihoyatda xursand boʻladi... Aragog uchun obroʻli boʻladi-da... tushunyapsizmi?

– Ha, ha, albatta, albatta, – dedi koʻzi ishtiyoq-la yarqirab ketgan Divangard. – Quloq sol, Garri, oʻsha yerda uchrashamiz... borib, bir-ikki shisha ichimlik olay, nishonlaymiz... Yoʻgʻ-e, baxti qaro hayvonni yodga olamiz... Soʻnggi yoʻliga chiroyli qilib kuzatib qoʻyamiz... Galstugimni ham almashtirib olishim kerak, rangi dafn marosimiga toʻgʻri kelmaydi...

Divangard qasr tomon, oʻzidan oʻzi gʻururlanib ketgan Garri esa Xagridning kulbasi tomon shoshdi.

– Keldingni? – xirilladi Xagrid, ustidagi koʻrinmas plashni yechgan Garrini koʻrib.

– Keldim... Ron bilan Germiona esa kela olishmadi, uzr aytib yuborishdi.

– Hech... hechqisi yoʻq... baribir, u seskanib oʻtirgan boʻlar edi...

Koʻzi qizarib shishgan, yengiga, aftidan, etik moyi shimdirilgan matodan tayyorlangan qora bogʻ taqib olgan Xagrid

ho'ngradi. Garri bo'yi yetgancha, davangirning tirsagiga qoqib, hamdardlik bildirgan bo'ldi.

– Qayerga dafn etamiz uni? – so'radi Garri. – O'rmondami?

– Yo'g'-e! – dedi Xagrid, tinimsiz oqayotgan ko'z yoshini ko'ylagining etagiga artib. – Aragog jon berishi bilan boshqa o'rgimchaklar meni umuman yaqinlatmay qo'yishdi. Aniqlanishicha, uning buyrug'iga itoat qilishgani uchungina, meni shu vaqtgacha yeb qo'yishmagan ekan! Tasavvur qilyapsanmi, Garri?

Ron ikkalasi akromantullar bilan yuzma-yuz kelib qolgan kunni Garri juda yaxshi eslaydi. O'shanda ular, Xagrid aynan Aragog tufayligina tirik yurganini nihoyatda teran anglab yetishgan edi.

– O'rmonda men kira olmaydigan joy bo'lishi! – bovar qilmay, boshini sarak-sarak tebratdi Xagrid. – Aragogni ularning orasidan qanday olib chiqqanimni bilsang edi... Axir, ular bir-birining jasadini yeb bitirishadi-yu... Men uni... taomilga ko'ra dafn etishga ahd qilgan edim...

Bechora Xagrid yana ho'ngradi. Ichidagi damlama nima qilish kerakligini bildirayotgan Garri, Xagridning tirsagiga urib-urib qo'ydi.

– Yo'lda professor Divangardni uchratib qoldim, – dedi u.

– Muammo bo'ladimi? – tashvish tortdi Xagrid. – Bunaqa vaqtda qasrdan chiqmasliging kerak-ku! Hammasiga men aybdorman...

– Yo'q, yo'q, muammo bo'lmaydi. Bu yoqqa nima maqsadda kelishimni bilgach, o'zi ham kelishini, Aragogni so'nggi yo'lga biz bilan birga kuzatishini, qasrga kirib, tegishlicha kiyinib chiqishi, Aragogni xotirlash uchun, o'zi bilan vino olib kelishini aytdi.

– Rostdanmi? – hayajonlanib ketdi Xagrid. – Bu... bu... juda katta... katta iltifot. Seni ham sotmabdi, Goratsiy Divangard bilan ilgari ish qilmaganman... Aragogni so'nggi yo'lga kuzatgani keladi degin!... Qara-ya! Bu qariya Aragogga juda xush

kelgan bo'lar edi...

«Qariya Aragogga Divangardning sergo'sht tanasi ko'proq xush kelgan bo'lar edi», xayoldan o'tkazdi Garri, kulbaning orqa tomonidagi deraza yoniga kelib.

Nihoyatda noxush manzara: bahaybat o'rgimchak chalqancha yotgancha, chirmashib ketgan oyoqlarini o'ziga tortib, tog'day bo'lib yotibdi.

Uni shu yerga, bog'ingga dafn etamizmi?

Oshqovoq egatlari orqasida dafn etishga qaror qildim, ezilib javob berdi Xagrid. – Qabrini ham qazib qo'ydim... O'ylashimcha, ustida bir nima deyish kerak, yaxshi so'z aytish kerak... Odatga ko'ra, yaxshi kunlarini yodga olish kerak...

Uning ovozi qaltirab, jim bo'lib qoldi. Shu payt eshik taqilladi. Xagrid o'rnidan turib, xol-xol gulli matodan tikilgan dasturxondan keladigan dastro'moliga burnini qattiq qoqqancha, eshik tomon odimladi. Qora galstuk taqib, qo'liga bir dunyo shisha ushlagan Divangard tez ostona hatlab o'tdi.

– Xagrid, – dedi u, g'amgin ohangda. – Ta'ziyamni qabul aylang.

– Kelganingizdan minnatdorman, ser, – javob berdi Xagrid. – Katta rahmat. Garri jazoga tortilmagani uchun ham rahmat sizga...

Qo'ysangiz-chi! – dedi Divangard. – Qayg'uli kun, qayg'uli... qani, baxti qaro jonzodingiz?

– Tashqarida, – hiqilladi Xagrid. – Chiqamizmi?

Uchovlon orqa hovliga chiqdi. Daraxtlar ustida osilgan oy nuri kulba derazasidan tushayotgan fonus shu'lasiga qo'shilgancha, balandligi o'n futcha keladigan do'nglik hosil qilgan tuproq uyumi yaqinidagi yangi qazilgan xandaq chetida yotgan o'rgimchak o'ligini yoritmoqda.

Juda yaxshi, dedi Divangard, Aragogning jasadiga yaqinlashib.

Sutday oppoq sakkizta ko'zi osmonga qarab qolgan ulkan hasharotning ikkita qayrilma yuqori jag'ida oyning harakatsiz aksi ko'rinmoqda. Divangard engashib olgancha, Aragogning tuk bosgan katta kallasini o'rgana boshladi. Garrining qulo-

g'iga shisha idishlarning jiringlagani eshitildi.

– Akromantullarning chiroyini hamma ham tushunib yetavermaydi, – dedi, atrofini ajin qamragan ko'zining burchagidan yosh oqayotgan Xagrid, Divangardning beliga murojaat qilib. – Bunday mavjudotlarga qiziqish bildirishingizda bexabar ekanman, Goratsiy.

– Qiziqish bildirishim? Azizim Xagrid, men ularni had-dan ortiq yaxshi ko'raman! – xitob qildi Divangard, Aragogdan nari chekinib. – Dafn qilaylik endi uni, a?

Ko'zini artayotgan Xagrid ko'rmagan bo'lsa-da, yalt etgan shisha Divangardning etagi ostiga kirib ketgani Garrining e'tiboridan chetda qolmadi.

Bosh irg'ib qo'ygan Xagrid bahaybat jasad oldiga keldida, uni baland ovoz chiqargancha, qattiq kuchanib qorong'i xandaqqa ag'dardi. Chuqurlik tubidan jirkanch g'archillagan tovush eshitildi. Xagrid yana ho'ngradi.

– Sizga, ya'ni ushbu ajoyib mavjudotning yaqin kishisiga bunday judolikka bardosh berish mushkul, albatta, – ovuntirgan bo'ldi Divangard, Xagridning tirsagiga, xuddi Garrining qo'li yetgan joyiga urib-urib qo'yib. – Ijzatingiz bilan ikki og'iz so'z aytsam?

«A'lo sifatli zaharning bir dunyosini sog'ib olgan ko'rinadi», xayoldan o'tkazdi Garri, Divangardning mamnun iljayib qo'yganini ko'rib.

Go'r chetiga kelgan Divangard past, ta'sirli ovozda nutq boshladi:

– Alvido, araxnidlar¹ shohi Aragog, qadrdon va sadoqatli do'st! Shaxsan bilgan, taniganlar seni hech qachon unutmaydi! Tanang chirib bitadi, lekin ruhing, sen uchun Vatan bo'lmish «Taqiqlangan o'rmon»ning o'rgimchak ini chirmab olgan xilvat burchaklarida yashayveradi. Ko'p ko'zli avlodlaring mangu taraqqiy qilib, seni yo'qotgan odamlar, qadrdon do'stlaring buni ko'rib ovunishadi.

– Ajoyib... ajoyib nutq! – o'kirib ho'ngradi Xagrid,

¹ Araxnid – o'rgimchak turi.

go'ng aralash tuproq uyumiga belkurak sanchib.

– Shoshmang-shoshmang, – xayrixohona ohangda to'xtatdi Divangard, qo'liga sehrli tayoqchasini olib.

Tuproq uyumi havoga ko'tarilib, biroz muallaq osilib turdi-da, o'rgimchakning o'ligi ustiga gumburlab tushgach, do'nglik sirti silliq bo'lib qoldi.

– Yuringlar, uyga kirib, marhumni yodga olaylik. Qani, Garri, narigi yoniga o't-chi... ana shunday... turamiz, Xagrid, turamiz... bardam bo'ling...

Ikkovlon Xagridni bir amallab kresloga o'tqizdi. Dafn marosimi davomida kulba burchagidagi savatida bekinib yotgan So'yoqtish lo'killab kelgancha, og'ir boshini odatdagiday, Garrining tizzasiga tashladi. Divangard shishalardan birini ochdi.

– Tekshirib ko'rdim, zaharlanmagan, – ishontirdi u Garrini, vinoning asosiy qismini katta krujkaga quygancha, Xagridga uzatar ekan. – Bechora do'sting Rupertdan keyin, borki vinolarimni uy elfiga bir ho'plamdan ichirib ko'rdim.

Garri bu gapni eshitgan Germionaning qiyofasini ko'z oldiga keltirib, bu haqda unga indamaslikka qaror qildi.

– Bu Garriga, – dedi Divangard, shishaning qolganini krujkaga quyib bo'lgach, ikkinchi shishani ochib. – Bunisi esa menga... Xo'sh, – krujkasini baland ko'tardi u, – Aragog uchun.

– Aragog uchun, – baralla takrorlashdi Garri bilan Xagrid.

Divangard bilan Xagrid ikkalasi o'z vinolarini deyarli oxirigacha ichib tugatishdi. Xatti-harakatini baxt-u tole damlamasi boshqarib borgan Garri esa ichish mumkin emasligini bilib, o'zini vino ho'plagan ko'yga soldi-da, krujkani stol ustiga qo'yib qo'ydi.

– Tuxum holatidan buyon bilar edim uni, – dedi Xagrid g'amgin ohangda. – Yorib chiqqanida esa pekinesdan¹ katta bo'l-magan mana bunday edi.

– Ajoyib, – hayratlangan bo'ldi Divangard.

¹ Pekines – bundan 2000 yil oldin qadimgi Xitoyda yetishtirilgan Xitoy imperatorlarining muqaddas iti.

Uni maktabda, javon ichida saqlab boqqan edim, toki...
m-m-m...

Xagridning yuzi tund qiyofa kasb etdi. Garri buning sababini yaxshi biladi: bir vaqtlar Tom Reddning fitnasi tufayli Xagrid Maxfiy xonani ochishda ayblanib, o'quvchilar ro'yxatidan chetlashtirilgan edi. Biroq Divangardning qulog'iga, aftidan, hech narsa kirayotgani yo'q. U ikki ko'zini shiftga, mis tovalar orasidan osilib tushgan uzundan uzun, ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq, ipakdek mayin tuklarga tikib o'tiribdi.

– Yakkashox ot tukimi, anavi, nahotki?

– A-a, ha, – beparvo ohangda javob berdi Xagrid, – yurgan yo'limda terib yuraman. Jonivorlarning dumi shoxlar, tikanaklar va shunga o'xshagan boshqa narsalarga ilashib qoladi...

– Biroq do'stim, bu qanchalik qimmat ekanini bilasizmi, o'zi?

– Yaralangan jonivorlarning jarohatini bog'lash uchun ishlataman, – yelka qisib qo'ydi Xagrid. – Juda shifobaxsh narsa, nihoyatda kuchli dori, bilsangiz agar.

Vinodan simirib olgan Divangard kulbadagi narsalarni diqqat bilan o'rganishga kirishdi. Garrining nazarida, u eman bochkalarda saqlanadigan asal zaxirasi, ananas sukatlari va duxoba smokinglarga aylantirib olsa bo'ladigan boshqa xazinatlarni qidira boshladi. Krujkalarni boz to'ldirgan Divangard o'rmonda yana qaysi turdagi jonivorlar yashashini surishtirib, ularni parvarish qilayotgan Xagriddan hayratlana ketdi. Vino va maqto'v ta'siridan bo'shashib ketgan Xagrid ham, o'z navbatida, daraxt alvastisini boqib ko'paytirish borasidagi uzundan uzoq mulohazalarga berilib ketdi.

Shu fursatda baxt-u tole damlamasi Garriga biroz turtki berib, Divangard olib kelgan spirtli ichimlik tugab borayotganiga e'tibor qildi. Garri hali hech qachon Yana quyish tilsimini ichki ovoz-la qo'llamagan, lekin bugun omadsizlik haqida o'ylashning o'zi kulgili. Xagrid bilan Divangard ajdar tuxumining g'ayriqonuniy savdosi to'g'risida o'zaro fikr almashar ekan, sehrli tayoqchasini stol ostidagi bo'sh shishalarga o'qtab, chindan ham, bir zunda vinoga to'ldirib qo'yganidan o'zi mamnun bo'ldi.

Oradan yana bir soat o'tar-o'tmas Xagrid bilan Divangard har xil bema'ni: «Xogvars» uchun, Dambldor uchun kabi qadah so'zlarini ayta ketishdi.

– Garri Potter uchun! – o'kirdi Xagrid, o'n to'rtinchi krujkani ko'tarib.

Vinoning bir qismini uning soqoliga to'kildi.

– To'g'ri, juda to'g'ri qadah bo'ldi, – anglab bo'lmas ovozda qichqirdi Divangard, krujkasini bo'shatar ekan. – Garri Potter uchun! Mumtoz bola uchun, u hali... hali u... ha, ishqilib, shunaqa-da...

Shundan so'ng xagridning yig'loqiligi yana tutib qolib, yakkashox otning butun boshli dumini Divangardning qo'lga tutqazib qo'ydi.

– Do'stligimiz uchun! Saxiylik uchun! Har bir tukiga 10 galleondan olinadigan daromad uchun!

Yana biroz vaqt o'tgach, Xagrid bilan Divangard yonma-yon joylashib, bir-birini quchoqlab olishdi-da, Odo ismli sehrgar-ning o'limi haqida uzundan uzoq g'amgin qo'shiq kuylay ketishdi.

– E-eh, eng zo'r sehrgarlar yoshligidayoq halok bo'lishadi, – po'ng'illadi, ko'zi g'ilay bo'lib qolgan Xagrid, boshini qo'shiq aytayotgan Divangardning qo'lga tashlab. – Otamni olaylik... yoki sening ota-onang, Garri...

Garrining qo'lini siltayotgan Xagridning ko'zidan yirik-yirik yosh tomchilari quyilib keldi.

– ... ulardan o'tadigan sehrgarlarni bilmas edim... dahshat... dahshat...

Divangard qo'shig'ini qo'ymadi.

– ... dahshat...

So'nggi bor baland nafas chiqargan Xagrid boshini yon tomon tashlagancha, qattiq xurrak torta ketdi.

– Ma'zur sanaysiz, – dedi hiqichog'i tutgan Divangard. – Qo'shiq avjini ola bilmayapman.

– Xagrid sizning qo'shiq aytishingiz haqida emas, otamning dahshatli o'lim topgani haqida gapirayotgan edi, – past ovozda tushuntirish berdi Garri.

– O, – xitob qildi Divangard, kekirishini bazo'r bosib. – Oh oyijon... Ha, bu... chindan ham, dahshat... dahshat... dahshat...

Aftidan, yana nima deyish mumkinligini bilmagan Divangard boz krujka to'ldirishga kirishdi.

– Bilishimcha, sen... hech narsani eslay olmaysan, shundaymi, Garri? – xijolat-la qiziqdi u.

– Yo'q... men o'shanda atigi bir yoshda edim-ku, – javob berdi Garri, Xagridning xurragidan titrayotgan sham oloviga qarab. – Biroq endi men o'sha hodisa haqida juda ko'p narsalarni bilaman. Birinchi bo'lib dadam halok bo'lgan, bilarmidingiz?

– Menmi? Yo'q, – bo'g'iq ovozdagi javob berdi Divangard.

– Ha... Voldemort uni o'ldirgach, jasad ustidan hatlab o'tib, oyim tomon odimlagan, – aytib berdi Garri.

Seskanib ketgan Divangard ko'zini Garridan uza olmadi.

– Shundan so'ng u oyimdan chetga o'tib turishni talab qildi, – shafqatsiz ohangda davom etdi Garri. – Voldemortning o'zi aytgan edi menga, oyingning o'lishi shart emas edi, deb. Aslida u faqat meni o'ldirgani kelgan. Oyim meni tashlab, qochib ketishi mumkin edi.

– O, Xudo, – xo'rsindi Divangard. – O'lishi shart bo'lmagan... qanday dahshat...

– Ha, qochib ketishi mumkin edi, – deyarli pichirlab davom etdi Garri. – Oyim esa joyidan qilt etmadi. Dadam o'lib bo'lgan, lekin oyim mening o'limimni istamagan. U Voldemortga o'tindi, yolvordi... u esa xandon otgancha, turaverdi...

– Bas qil! – kutilmaganda baqirdi Divangard, qaltiroq qo'lini oldinga uzatib. – O'g'lim, bo'ldi, bas... men keksa kishi-man... bardoshim yetmaydi... eshitishni istamayman...

– Ha-ya, yodimdan ko'tarilibdi, – yolg'on gapirdi Garri, baxt-u tole damlamasi ta'siridan ruhlanib. – Oyimni yaxshi ko'rar edingiz-ku, a?

– Yaxshi ko'rar edim? – ko'ziga yosh to'lib takrorladi Divangard. – Uni birov yomon ko'rishini tasavvur ham eta olmayman... dovyurak... quvnoq... qanday dahshat...

– Siz esa uning o'g'liga yordam berishdan bosh tortyap-

siz, - o'pkalandi Garri. - U men uchun o'z hayotini fido qildi, siz esa xotirangizni qizg'anyapsiz.

Xagridning qattiq tortgan xurragi kulbani titratib yubor-guday bo'ldi. Garri Divangardning yosh to'la ko'ziga tik qarab turibdi. Divangard esa ko'zini olib qochishga jur'at eta olmadi.

- Unday dema, - pichirladi Divangard. - Buning sababi boshqa... Agar foydasi tegsa-yu, mayli edi... lekin hech narsa o'zgarmaydi...

- O'zgaradi, - aniq va lo'nda javob berdi Garri. - Dambldorga ma'lumot kerak. Menga ham kerak o'sha ma'lumot.

Garri mutlaqo xotirjam gapirdi. Chunki baxt-u tole dam-lamasining va'dasiga ko'ra, ertalab Divangard hech narsani eslay olmaydi. O'qituvchining ko'ziga tik qarayotgan Garri biroz ya-qin borib, engashdi.

- Men Mumtozman. Men uni o'ldirishim kerak. Buning uchun esa menga sizning xotirangiz kerak.

Divangardning rangi bo'zday oqarib, silliq peshanasi terlaganidan yaltirab qoldi.

- Sen Mumtozsan?

- Ha, Mumtozman, - xotirjam tasdiqladi Garri.

O'g'lim... sen mendan juda katta narsa talab qilyap-san... uni o'ldirish masalasida yordam so'rayapsan...

- Lili Evansni o'ldirgan schrgardan dunyoni xalos etishni istamaysizmi?

Istayman, Garri, albatta istayman... biroq...

- Sizning ishtirokingizdan boxabar bo'lib qolishidan cho'chiysizmi?

Qo'rqib ketgan Divangard indamay qoldi.

- Oyimdek dovyurak bo'ling, professor...

Lo'ppi qo'lini ko'tarib, tirayotgan barmoqlarini labiga bosib olgan Divangard, nihoyatda kattalashtirilgan go'dakka o'xshab qoldi.

- Men faxrlanmayman, yo'q, - barmoqlari ortidan shivirladi u. - Aksincha, xotiramni ko'rsatishdan uyalaman... o'sha kuni men mudhish...

Xotirangizni menga topshirsangiz, o'sha xatoni tuzata-

siz, – dedi Garri. – Mardligingiz, oliyjanobligingizni namoyon etgan bo'lasiz.

Uyqusida seskanib ketgan Xagrid boz xurрак torta boshladi. Divangard bilan Garri yonib bitayotgan sham uzra bir-biriga qarab qolishdi. Sukunat cho'zilib ketdi, lekin baxt-u tole damlamasi shoshilmay, kutishni amr etmoqda.

Nihoyat Divangard qo'lini asta-sekin kissasi tomon uzatib, sehrli tayoqchasini oldi, ridosining ichki cho'ntagidan bo'sh shishacha chiqarib, ko'zini Garridan uzmay, sehrli tayoqchasining uchini chakkasiga tekkizdi. Shundan so'ng xotirasining kumush tusli uzun ipini chiqardi-da, bo'sh shishacha ichiga joyladi. Xotira halqa ko'rinishida o'ralib, shisha tubiga cho'kdi va birozdan so'ng shisha bo'ylab tarqaldi. Divangard titrayotgan qo'li bilan shisha tiqinini yopib, stol uzra Garriga uzatdi.

– Katta rahmat sizga, professor.

Sen yaxshi bolasan, – dedi, ko'z yoshi semiz lunjidan qalin mo'yloviga oqayotgan professor Divangard. – Ko'zing oyingning ko'ziga o'xshaydi... xotiramni ko'rib, men haqimda yomon fikrga borma...


Divangard xuddi Xagrid kabi boshini qo'lga yiqitib, chuqur nafas chiqardi-da, uyquga ketdi.

XXIII BOB

RUHDONLAR

Baxt-u tole damlamasining ta'siri barham topayotganini his etgan Garri qasrga pisib keldi. Uning kirish eshigi hamon ochiq, lekin uchinchi qavatda Dryuzg bilan ro'baru kelib qolishiga va buning oqibati jazoga tortilish ila yakun topishiga sal qoldi. U yashirin o'tish joylaridan biriga o'z vaqtida bekinib oldi. «Semiz Xola» portreti oldida ko'rinmas plashini yechib, sovuq qarshi olinganidan hayron bo'lmadi.

– Xo'sh, seningcha, soat necha bo'ldi?



– Ma’zur sanang, iltimos... nihoyatda muhim ish bilan chiqishimga to’g’ri kelgan edi...

– Parol esa yarim tunda almashtirildi! Shunday ekan, shu yerda, yo’lakda uxlaysan endi.

– Hazillashyapsizmi? – ovoz ko’tardi Garri. – Nega endi yarim tunda almashtirilar ekan?

– Shunday qilinishi lozim, – o’shqirib berdi «Semiz Xola». – Norozilik bildirmoqchi bo’lsang, direktorning qabuliga kir. Xavfsizlik choralari kuchaytirishni o’sha buyurgan.

– Juda soz, – dedi qattiq polga qaragan Garri, alamli ohangda. – Ajoyib. Men-ku jon deb borgan bo’lar edim, Damblorning huzuriga, agar u maktabda bo’lganida. Axir, men uning xohishi bilan...

– U shu yerda, maktabda, – eshitildi Garrining ortidan kimningdir ovozi. – Professor Damblдор qariyb bir soat muqaddam maktabga qaytdi.

Garrining oldiga «Deyarli Boshsiz Nik» havoda suzib kelmoqda. Uning boshi, odatdagidek, qat-qat burma yoqa ustida omonatgina tebranmoqda.

– Buni men «Qonxo’r Baron»dan eshitdim, – ma’lum qildi Nik. – Uning gapiga qaraganda, Damblorning kayfiyati ko’tarinki, faqat biroz toliqqan emish.

– Hozir qayerda u? – so’radi, yuragi ko’krak qafasi ichida sakray boshlagan Garri.

– Qayerda bo’lar edi, astronomiya minorasida, o’zining xush ko’rgan ishi – zanjir siltab, g’uvullatish bilan band.

– Baronni emas, Damblorni so’rayapman!

– A, umi? Xizmat xonasida, – dedi Nik. – Baronning aytishicha, Damblorning yana allaqanday muhim ishi bor emish...

– Aniq-ku, bu! – xitob qildi, xotirani nihoyat qo’lga kiritilganini Damblorga ma’lum qilishini tasavvur etgan Garri, hayajondan yorilib ketishiga sal qolib.

U portretga shartta teskari o’girildi-da, «Semiz Xola»ning qichqiriqlariga e’tibor qilmay, yelday uchib ketdi.

– Shoshma, hoy tentak! Hazillashdim! Parol almash-

tirilgani yo'q. Meni uyg'otib yuborganing uchun jahlim chiqqan edi! Parol o'sha-o'sha «Yirik gavhar».

Lekin «Semiz Xola» kechikdi, qorasi o'chgan Garri bir necha daqiqa o'tar-o'tmas «Shokoladli ekler» degancha ajdar tusli tosh ilonni chetga irg'ishga majbur qilib, aylanma zinaga hatlab o'tishga ulgurdi.

– Kiring, – eshitildi ichkaridan, Garrining taqillatishiga javoban Damblдорning nihoyatda horg'in ovozi.

Garri eshikni turtib, derazasidan zim-ziyo osmon ko'ri-nayotgan, ichkarida esa hech narsa o'zgarmagan xonaga kirdi.

– Iye, Garri, – hayron bo'ldi Damblдор. – Tinchlikmi? Bemahalda nima qilib yuribsan?

– Ser... qo'lga kiritdim uni! Divangardning asl xotirasini.

Garri kissasidan kichkinagina shisha idishni chiqarib, Damblдорga uzatdi. Direktor lol bo'lgancha, bir necha soniya jim qolib, samimiy kulib boqdi.

– Ajoyib yangilik, Garri! – xitob qildi u. – Zo'r bolasan-da, sen! Uddalay olishingga zig'irday bo'lsin, shubha qilmas edim!

Vaqt bemahal bo'lganini unutgan Damblдор o'rnidan shoshgancha turib, shisha idishni sog'lom qo'lga oldi-da, damblxotira saqlanadigan javon tomon odimladi.

– Endi esa ikkalamiz, – dedi Damblдор, yozuv stoli ustiga qo'ygan tosh chanoq ichiga shishadagi xotirani quyib, – nihoyat ko'ramiz... tez bo'l, Garri...

Bola itoat qilib, damblxotira ustiga engashdi-da, oyog'i yerdan uzilganini his etdi. Zulmat qa'rida biroz uchib, ko'plab yillar o'tgan o'tmishda, Goratsiy Divangardning xizmat xonasida paydo bo'ldi.

Qalin, yaltiroq sariq sochli, mo'ylovi malla rang berib tovlanayotgan, egniga gul solib tikilgan nimcha kiygan yosh Divangard, xuddi o'tgan safar ko'ringandek keng tirsakqo'y-gichli yumshoq kresloga qulay joylashib, oyog'i ostiga duxoba qoplangan pastak kursi qo'ygan. Bir qo'lga vino quyilgan qadah ushlagan bo'lsa, ikkinchi qo'li ananas qand qutisini titkilab o'tiribdi. Professor bilan birga nisbatan qattiqroq, katta-kichik

kursilarda o'spirin yoshidagi olti nafarcha bola, shu jumladan, o'ng qo'lini kresloning tirsakqo'ygichiga qo'yib olgan, barmog'iga qora ko'zli tilla uzuk taqib olgan Tom Reddl o'tiribdi.

Reddl savol berish uchun og'iz juftlagan fursatda Garri-ning yonida Damblдор paydo bo'ldi.

– Ser, professor Poteskans nafaqaga chiqib ketayotgani rostmi? – so'radi Reddl.

– Oh, Tom, Tom, bilsam ham aytmas edim, – shakar yopishib, oqargan ko'rsatkich barmog'ini siltab, gina ila po'pisa qilgan bo'ldi Divangard. – Qiziq, ba'zan o'qituvchilar bilmaydigan ma'lumotlarni qayerdan bilib olasan sen, a? – ko'z qisdi u.

Reddl irjaydi, qolganlar esa xandon otib, unga ehtirom-la qarab qo'yishdi.

– Bilish kerak bo'lmagan narsalarni bilish, kerakli odamlar ko'ngliga yo'l topa olish qobiliyating tahsinga sazovor. Aytganday, ananas qand uchun rahmat, chindan ham, men nihoyatda xush ko'radigan qandlardan biri...

Bolalardan qaysidir biri hirlinglab qo'ydi.

– Agar yigirma yil o'tib-o'tmay sehrgarlik vaziri darajasiga borib yetsang, hech ajablanmayman. Menga ananas yuborib turishni to'xtatmasang, o'sha lavozimga o'n besh yil o'tmay o'tirasan. Vazirlikda tanishlarim ko'p.

Hamma xandon otdi. Tom Reddl esa yengil kulib qo'yish bilan cheklandi. Bolalar orasida yoshi kattasi bo'lmasa-da, o'rtoqlari uni yetakchi sifatida e'tirof etayotgani ko'zga tashlanmoqda.

– Siyosat meni qiziqtirishiga ishonchim komil emas, ser, dedi u, kulgi bosilgach. – Bundan tashqari mening nasl-nasabim ham shubha tug'diradi.

O'tirgan bolalardan ikki-uchtasi bir-biriga ma'noli kulib boqdi. Ularning doirasida o'z yo'l boshchilarining asilzoda nasl-nasabiga oid allaqanday hazil-mutoyiba qaror topgani ma'lum bo'lib qoldi. Aftidan, ular nimadandir boxabar yoki gumon qilishadi.

– Bularning bari bema'ni gap, – yengil qo'l siltadi Divangard. – Xushxulq sehrgarlar oilasidan kelib chiqqaning

hammaga kunday ravshan. Sening sehrgarlik qobiliyatingni o'zi bu haqda yaqqol dalolatdir. Yo'q, Tom, sen yuqori marralarga erishasan. Bu masalada men hech qachon yanglishmaganman, ishonaver.

Yozuv stoli ustidagi mittigina tilla soat o'n bir bo'lga-nidan xabar berdi. O'qituvchi o'girilib soatga qaradi.

– O, Xudo, kech bo'libdi-yu! – xitob qildi Divangard. – Bo'ldi bolalar, borib yotinglar. Aks holda, hammamizning garda-nimizda kaltak sinadi. Lestrang, ertaga ertalab insho kutaman. Yozib kelmas ekansan, mehnat jazosiga tortilasan. Senga ham taalluqli, Eyveri.

Oyoqqa turgan bolalar chiqish eshigi tomon talpindi. Divangard kreslosidan og'ir turib, bo'shagan qadahini yozuv stoliga qo'ydi. Reddl o'qituvchi bilan yolg'iz qolish maqsadida atayin sustkashlik qildi.

– Tezlash, Tom, – dedi o'girilib qaragan Divangard. – Bemahalda ushlab olishlarini istamaysan-ku, axir. Sinfboshi bo'lsang...

– Ser, sizdan bir narsani so'rab bilmoqchi edim.

– Unday bo'lsa tezroq so'ra, azizim, tezroq...

– Ser, siz ruhdonlar haqida nima bilasiz?

Yo'g'on barmoqlari bilan qadah tutqichini parishonlik-la silayotgan Divangard Reddlga baqrayib qoldi.

– Yovuz kuchdan himoya fanidan berilgan topshiriqmi bu?

Lekin Divangard ushbu savol maktab ta'limiga hech qanday daxli yo'qligini juda yaxshi idrok etmoqda.

– Unday deb ham bo'lmaydi, ser, – javob berdi Reddl. – Shunchaki... kitob o'qib o'tirib, shu narsaga ro'baru kelib qol-dim-u, ularning nima ekanini yaxshi tushuna olmadim.

– Ha... albatta... «Xogvars»da ruhdonlar mohiyati haqi-dagi kitob topish uchun ancha ter to'kishga to'g'ri keladi, – dedi Divangard. – Bu yovuz sehr, nihoyatda yovuz sehr-jodu sohasiga taalluqli masala, Tom.

– Lekin siz, o'sha ruhdonlar haqida hamma narsani bila-siz-ku, ser, shunday emasmi? Aytmoqchimanki, sizday yirik

sehrigar... agar aytib bera olmasangiz, mayli... lekin siz bilmasangiz, boshqa kim ham bilishi mumkin bu yerda... shu bois aynan sizdan so'rab bilay degan edim...

Yaxshi o'yin bo'ldi, beixtiyor hayratlandi Garri. Jur'atsizlik, sovuqqonlik-la bildirilgan qiziqish bilan ehtiyotkorona amalga oshirilgan tilyog'lama maqto'vni mohirona uyg'unlash-tira bilish! O'z siri bilan o'rtoqlashishni istamagan kishidan, o'sha sirni o'smoqchilab bilib olishga Garri ham ba'zan qo'l urib borishga majbur bo'ladi, lekin bu masalada Reddlga tan bermaslikning iloji yo'q. Ko'rinib turibdiki, qo'yilgan savolga javob Reddlga o'ta ketgan darajada zarur va, aftidan, u qulay fursat kelishini ko'pdan buyon kutgan.

– Xo'sh, – gap boshladi ananas qandi qutisining tasma-sini o'ynagan Divangard, Reddlga qiyo boqmay. – Umumiy dunyoqarashni kengaytirish uchun qisqacha berilgan ma'lumot ziyon yetkazmaydi, albatta. Ruhdon bu – inson o'z ruhining ma'lum qismini yashirib qo'yadigan buyumdur.

– Qanday qilib? Men to'liq tushuna olmadim, ser, – dedi Reddl.

Reddl o'z ovozi yaxshi idora qilayotgan bo'lsa-da, uning hayajonlanayotgani Garrining e'tiboridan chetda qolmadi.

– Faraz qil: sen o'z ruhingni ikki qismga bo'lib, ulardan birini tanang tashqarisidagi muayyan jismga joylaysan, – tushuntirish bera ketdi Divangard. – Kishi tanasiga jarohat yetsa yoki yo'q qilinsa ham ruhning ajratib olingan o'sha ikkinchi qismi yashashni davom etaveradi. Faqat unday shaklda yashashni... ayrim odamlargina, ozgina kishilargina istashi mumkin, Tom. Undan ko'ra o'lim afzal.

Garri Divangardning burishib ketgan basharasiga qarab, qariyb ikki yil muqaddam eshitgan gapni esladi:

«Men o'z tanam bilan aloqani yo'qotib qo'ydim, ruxdan-da, xayolotdan-da battar zaif bo'lib qoldim... Lekin o'lmadim, tirik qoldim... Kimga yoki nimaga aylanib qolganimni o'zim bilmayman...»

Biroq nigohi yarqirab ketgan Reddlning hirs qo'ygan darajadagi qiziquvchanligi endi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

– Kishi o‘z ruhini qanday qilib ikki bo‘la olishi mumkin?
– Umuman aytganda, – xijolat tortib javob berdi Divangard, – inson ruhi yaxlit va bo‘linmas qolishi lozim. Uning parchalanishi esa majburiy va g‘ayritabiiy xatti-harakatdir.

– Qanday amalga oshiriladi bunday xatti-harakat?
– Yovuz jinoyatga qo‘l urish, qotillik sodir etish vositasida. Bunday xatti-harakat kishi ruhini qismlarga parchalab yuboradi va bunday amaldan ruhdon yaratish maqsadida foydalaniladi, ya‘ni ruhning ajrab chiqqan qismi tanlangan buyumga joylanadi...

– Joylanadi? Qanday qilib?...
– Shunday afsun bor. So‘rama, bilmayman! – ovoz ko‘tardi Divangard, xuddi iskabtoparlar bezor qilib yuborgan fil kabi boshini chayqab. – Men nima, seningcha, o‘sha ishga qo‘l urib ko‘rgan qotilga o‘xshaymanmi?

– Yo‘g‘-e, ser, nimalar deyapsiz, yo‘q, albatta. – shoshgancha rad etdi Reddl. – Ma‘zur tuting... men sizni xafa qilmoqchi emasdim...

– Yo‘q, xafa bo‘lganim yo‘q. – vaysadi Divangard. – Bunday narsalar, tabiiyki, har qanday kishining qiziquvchanligini yuzaga keltiradi... Ma‘lum bir toifaga mansub sehrgarlar azaldan sehr-joduning ushbu sohasiga katta qiziqish bildirib kelgan...

– Ha, ser, – ma‘qulladi Reddl. – Faqat men bir narsani hech tushuna olmayapman... shunchaki qiziq-da... Nima nafi bor, o‘sha ruhdonning? Kishi o‘z ruhini faqat bir marta ikki bo‘la oladi, xolosmi? Uni bir necha qismlarga bo‘lib chiqqan ishonchliroq emasmi? Masalan, yetti qismga? Yeti – eng qudratli sehrli son sanaladi. Ruhni yetti qismga bo‘lish ziyon qilmas, a?...

– Merlin soqoli, Tom! – chiyilladi Divangard. – Yetti qismga?! Bir bor sodir etilgan qotillikning o‘zi kechirilmas guneh sanaladi-yu!... Ruhni bo‘lishning o‘zi jinoyatdir!... Yetti qismga emish-a...

Ushbu mavzuda suhbatlashishga rozilik berganidan afsus qilayotgan Divangard birinchi bor ko‘rayotganday Reddlga hayajon-la baqrayib qoldi

– Bahsimiz, Tom, faraziy mazmunga ega-yu, shunday emasmi? Ilmiy...

– Ha, albatta, ser, – tez javob berdi Reddl.

– Shunday bo'lsa-da, iltimos, Tom, ushbu suhbat mavzusi haqida hech kimga churq etma... ruhdonlar mavzusini muhokama qilganimiz biron-bir kishiga manzur kelishiga shubha qilaman. «Xogvars»da, ushbu mavzu man etilgan. Damblдор buni qat'iy nazoratga olgan...

– Birovga miq etmayman, ser, – so'z berdi Reddl, xonani tark etar ekan.

Garri Reddlning yuzini misli yo'q baxtiyorlik, xuddi sehrGAR ekanini birinchi bor eshitgan fursatda yoritgan kabi yoritganini, lekin bu tuyg'u uning yuziga o'shanda kasb etgan kabi dilkashlik emas, aksincha, allaqanday hayvoniy hirs qiyofasini kasb etganini ko'rdi.

– Rahmat senga, Garri, – dedi Damblдор past ovozda. – Ketdik endi...

Garri xonada paydo bo'lganida, direktor o'z kreslosiga o'tirib olishga ulgurgan edi. Garri ham o'z joyiga o'tirib, Damblдор nima deyishini kutdi.

– Ushbu shohidlikni qo'lga kiritishni ko'pdan buyon niyat qilgan edim, – gap boshladi nihoyat Damblдор. – U haq ekanligimni tasdiqlamoqda va shu bilan birga, hali ko'p ish qilishimiz kerakligini ko'rsatmoqda...

Garri sobiq direktorlarning jamiki portretlari uyg'onib, ushbu suhbatni diqqat-la eshitayotganiga e'tibor qildi. Burni qizil semiz sehrGAR esa qulog'i og'ir, shekilli, quloqqa tutadigan eshitish karnayini ushlab olibdi.

– Shunday qilib, Garri, – davom etdi Damblдор, – eshitgan suhbatimizning mazmun-mohiyatini tushunib yetding, albatta. Sening yoshingdagi Tom Reddl o'z manguGini ta'minlash maqsadida aqlga to'g'ri keladigan va aql bovar qilmaydigan har qanday ishga qo'l urishga tayyor bo'lishga ulgurgan.

– Buning uddasidan chiqdi, deb o'ylaysizmi, ser? – so'radi Garri. – Ruhdon yarata oldimi? Shuning uchun o'lmagan ekan-da, u, mening jonimga qasd qilganda? Demak, qayerdadir

ruhdonini yashirib qo'ygan va ruhining ajratib olgan bir qismi omon saqlanib qolgan, shundaymi?

– Bir... yoki ko'proq qismi, – javob berdi Dambldor. – Hozirgina o'zing eshitding, bittadan ortiq ruhdon yaratish, ajalga chap berish maqsadida ko'plab qotilliklar sodir etish, o'z ruhini bir necha qismlarga bo'lib tashlab, alohida yashirib qo'yilgan har xil ruhdonlarga joylab saqlashga tayyor bo'lgan sehrgarlar qay ahvolga tushib qolishi mumkinligiga katta qiziqish bildirganini.

Dambldor biroz o'y surib, davom etdi:

– Bundan to'rt yil muqaddam Voldemort o'z ruhini bir necha qismga bo'lib yuborganini tasdiqlaydigan ashyoviy dalilni qo'lga kiritgan edim.

– Qayerda? – hayratlandi Garri. – Qanday qilib?

– Uni menga sen taqdim etding, – javob berdi Dambldor. – O'sha dalil Reddlning, Maxfiy xona takror ochilishiga sabab bo'lgan kundaligi edi.

– Tushunmadim, ser, – dedi Garri.

– Garchi kundalik ichidan chiqib kelgan o'sha Reddlni o'z ko'zim bilan ko'rmagan bo'lsam-da, sening tavsifingni eshitib shuni tushundimki, Maxfiy xonada ilgari men uchratmagan favqulodda hodisa ro'y bergan. Oddiy xotira fikr yuritishi, o'z xatti-harakatini o'z bilgancha amalga oshirishi, kundalikni olib yurgan yosh qizaloqning hayotini o'ziga so'rib olishi mumkinmi? Yo'q, albatta. O'sha kundalikda allaqanday yovuzlik o'ziga makon topgan bo'lib, parchalangan ruhning bir qismi bo'lganiga shubha qilmaganman. Kundalik nafaqat ruh saqlash joyi, balki, qurol sifatida ham yaratilgani meni ko'proq tashvishga solgan.

– Baribir, hech narsani tushunmadim, – dedi Garri.

– Kundalik o'z xatti-harakatini ruhdonga xos ravishda amalga oshirgan. Boshqacha qilib aytganda, o'z sohibining bir parcha ruhini ishonchli saqlab, shubha yo'qki, o'lim topishiga to'sqinlik qilgan. Ayni vaqtda, shu narsa ayonki, Reddl kundalik o'qib chiqilishi, ichidagi ruhining bir parchasi boshqa odamga egalik qilishi, Slizerinning maxluqi esa ozodlikka chiqishini niyat qilgan.

– Uning ishi behuda ketmasligini istagan, – taxmin qildi Garri. Slizerinning vorisi ekanini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'lgan. O'sha vaqtda bu ishni boshqacha bajara olarmidi?

– Juda to'g'ri, – bosh irg'idi Dambldor. – Nahotki tushunmagan bo'lsang, Garri? Voldemort o'z kundaligini atayin «Xogvars»ning ma'lum bir o'quvchisiga mo'ljallagan, bu esa, o'z navbatida, ruhining o'sha daftar ichiga bekitilgan bir qismiga loqayd munosabatda bo'lganini anglatadi. Axir, professor Divangard unga aniq tushuntirib berdi-yu: ruhdon kishi ruhini xavfsiz joyda, odamlarning ko'zidan narida saqlash uchun kerak, deb. Yo'q qilib yuborilmasligi uchun, ruhdonni to'g'ri kelgan joyda tashlab ketish yaramaydi. Sening sharofating ila Garri, Voldemort o'z ruhining bir qismidan mahrum bo'ldi. Uning, ushbu ruhdonga nisbatan beparvo munosabati menga yovuz niyatday ko'rindi. Bunday munosabat esa Voldemort bir nechta ruhdon yaratishni xohlagani yoki yaratishga muvaffaq bo'lgani, ulardan bittasining yo'qotilishi Voldemort uchun halokatli emasligidan dalolat beradi. Men bunga ishonishni istamas edim-u, iloj qancha, mantiq yo'qoladi. Oradan yana ikki yil o'tgach, sen menga, Voldemort o'z tanasini tiklab olgan tunda o'z malaylariga nihoyatda dahshatli va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan gapni, xususan: *«Men, hammadan qudratli, manguikka qadam bosgan odam bo'la turib»*, – deganini aytding. Uning gapini menga aynan shunday: *«Hammadan qudratli»*, – deb yetkazding va men O'limdan zavqlanuvchilardan farqli o'laroq, ushbu gap mag'zini chaqdim. Bu bilan u ruhdonlarining ko'pligini nazarda tutgan. Ya'ni Garri, bilishimcha, Voldemortgacha yashab o'tgan biron-bir sehrgar bunday muvaffaqiyatga erisha olgani bilan maqtana olmagan. Ushbu holat esa mening nazariyam mazmuniga kirgan. Negaki yillar o'tgan sari Lord Voldemort o'zining insoniy qiyo-fasini yo'qota boshlagan. Bunday o'zgarish esa u o'z ruhini haddan ortiq, shartli ravishda aytiladigan bo'lsa, yovuzlikning belgilangan me'yoridan ortiq buzib yuborgani bilan izohlanadi.

– Ya'ni boshqalarni o'ldirib, o'zi kuchli bo'lib borgan, shundaymi? – so'radi Garri. – Modomiki, mangu hayot sari intilgan ekan, nega u falsafiy tosh yaratmadi yoki tayyorini o'g'ir-

lamadi?

-- Aynan shu ishni besh yil muqaddam qilmoqchi bo'lganini bilamiz, -- javob berdi Damblдор. -- Biroq taxminimcha, bir qator sabablar tufayli, Lord Voldemortga falsafiy toshga nisbatan ruhdonlar qiziqroq ko'ringan. Negaki obihayot, chindan ham, kishi umrini uzaytiradi, lekin uni muntazam, modomiki, gap boqiylik to'g'risida borar ekan, umrbod ichib borish talab etiladi. Bundan chiqdi. Lord Voldemortning hayoti obihayotga butunlay bog'lanib qolar va zaxirasi tugab qolsa, zaharlansa yoki falsafiy tosh o'g'irlansa, oddiy odam singari vafot etgan bo'lar edi. Yodingdan chiqmasin, u tanho yashaydigan odam. O'ylashimcha, har qanday bog'liqlikka, aytaylik, o'sha obi-hayotga bog'liq bo'lib qolishga dosh bera olmaydi. Tabiiyki, seni o'ldirishga urinib, o'zini o'zi solib qo'ygan o'ta ayanchli chala hayotdan chiqib olish maqsadida, o'z tanasini tiklab olish uchun har qanday narsani ichishga rozi bo'lgan. Shundan so'ng ishonchim komilki, u o'z ruhdonlariga katta umid bog'lagan. Buning uchun inson qiyofasiga kirib olsa bas. U umuman inson uchun mumkin darajada boqiylikka erishib bo'lgan yoki shunga yaqin qolgan edi.

Damblдор yana biroz o'ylanib o'tirgach, davom etdi:

-- Ammo endi, sening sa'y-harakating sharofati ila Garri, jiddiy ahamiyatga ega xotirani qo'lga kiritgan ekanmiz, Lord Voldemort tomonidan qo'lga kiritilgan qudrat sirini fosh etish chegarasiga, ilgarigiga nisbatan, ancha yaqin keldik. Voldemortning *«Kishi o'z ruhini faqat bir marta ikki bo'la oladi, xolosmi? Uni bir necha qismlarga bo'lib chiqqan ishonchliroq emasmi? Masalan, yetti qismga? Yetti -- eng qudratli sehrli son sanaladi. Ruhni yetti qismga bo'lish ziyon qilmas, a?»* -- deganini o'zing eshitding. Yetti -- eng qudratli sehrli son. Taxminimcha, yetti qismga parchalab tashlangan ruh haqidagi g'oya Voldemortga juda qiziq ko'ringan.

-- Yettita ruhdon yaratgan, demoqchimisiz? -- hayrat-la so'radi Garri.

Portretlarning ayrimlari dahshat va qahr-g'azabdan oh urib yuborishdi.

– Axir, ularning barini jahonning turli burchaklarida yashirishi... ko'mib tashlashi... ko'rinmas holatga keltirilishi mumkin-u....

– Oldimizda turgan vazifa naqadar jiddiy ekanini anglab yetganingdan bag'oyat mamnunman, – javob berdi Dambldor. – Ruhdonlarga kelsak, ularning soni yettita emas, oltita, Garri. Voldemort ruhining yettinchi parchasi misli ko'rilmagan darajada buzilib ketgan bo'lsa-da, o'zining tiklangan tanasida yashamoqda. Badarg'alikda kechgan hayoti davrida ruhining aynan mana shu qismi unga jon bag'ishlab turgan. Ruhining ushbu parchasi bo'lmaganda, u o'zini o'zi yo'qotib qo'ygan bo'lar edi. Bu parcha uning so'nggi tayanchi bo'lib, Lord Voldemortni o'ldirmoqchi bo'lgan kishi, aynan shu parchani nishonga olishi darkor.

– Xo'p, mayli, ruhdonlar soni oltita deylik, – dedi Garri, umidsizligi biroz so'nib. – Qayerdan izlash kerak ularni?

– Yodingdan chiqarib qo'yding, Garri. Ulardan birini sen yo'q qilding. Men esa ikkinchisini.

– Rost bilanmi? – quvonib ketdi Garri.

– Ishonaver, – javob berdi Dambldor, qoraygan qo'lini ko'tarib. – Uzuk, Garri. Mervolonning uzugi. Unga nihoyatda dahshatli qarg'ish kiritilgan ekan. Agar mening, ma'zur tutasan-u, buyuk iste'dodim bo'lmaganda va «Xogvars»ga o'ta og'ir jarohat bilan qaytgan kunim professor Snegg o'z vaqtida yordam ko'rsatmaganida, hozir men sen bilan bunday suhbatlashib o'tirmagan bo'lar edim. Shunday bo'lsa-da, qo'limning qurib qolgani, Voldemort ruhining yettinchi parchasi uchun favqulodda katta mukofot tariqasida ko'rmayman. Uzuk endi ruhdon emas.

– Uni qanday topib oldingiz?

– Voldemortning o'tmishi haqida imkon qadar ko'proq ma'lumotga ega bo'lish maqsadini ko'pdan buyon o'z oldimga qo'yganimni yaxshi bilasan. Voldemort qachonlardir borgan, bo'lgan joylarga qatnadim. Uzukni esa Monsterlar uyining xarobasidan topdim. Voldemort o'z ruhining bir parchasini uzukka joylashga muvaffaq bo'lgach, uni barmog'iga taqib yurishni istamagan. Ko'plab kuchli qarg'ishlar qo'llagancha, qachon-

lardir o'z qarindoshlari yashagan kulbaga yashirib qo'yishga ahd qilgan. Vayrona uyga borib, sehlangan pana joylarni qidirishim mumkinligini xayoliga ham keltirmagan. Lekin g'alabani ni-shonlashga hali ancha bor. Sen kundalikni yo'q qilding, men esa uzukni. Biroq ruhdonlar soni yettita bo'lishiga oid nazariyamiz to'g'ri bo'lsa, yana to'rtta ruhdon qolyapti.

– Va ular har qanday buyum bo'lishi mumkin, – aniqlik kiritdi Garri. – Eski konserva bankasi yoki bilmadim, damlama shishasi...

– Sen ruhdonlarni portshlyuslar¹ bilan adashtirib yubor-yapsan, Garri. Aynan portshlyuslarni oddiy, birovning e'tiborini o'ziga jalb etmaydigan buyumlar vositasida niqoblash qabul qilingan. Lekin Tom Reddl Lord Voldemort bo'la turib, o'zining qimmatli ruhini eski konserva bankasida saqlamaydi-yu. Men senga ko'rsatgan narsalarni unutib qo'yibsan. Voldemort o'ljalarni yoqtirib, buyuk sehrli o'tmishga ega buyumlarni qadrlagan. Uning kalondimog'ligi, hammadan ustun bo'lganiga komil ishonchi, sehrgarlik tarixida eng mashhur sehrgar nomini chiqarishga qat'iy qaror qilgani – ruhdon tanlash masalasiga tirish-qoqlik bilan yondashish kerakligiga, ehtirom va ortiq darajada hurmat-ikrom tug'diradigan buyum tanlashga undagan.

– Uning kundaligida bunday sifatlardan asar ham bo'lmagan.

– Kundalik, hozir o'zing aytganingdek, Voldemort Glizerinning vorisi ekanini isbot qiluvchi buyum sifatida xizmat qilgan va ishonchim komilki, unga katta ahamiyat qaratilgan.

Xo'p, boshqa ruhdonlar-chi, ser? – so'radi Garri. – Ular qanday buyumlar bo'lishi mumkinligini tasavvur qila olasizmi?

– Taxmin qila olishim mumkin, xolos, – javob berdi Dambldor. – Yuqorida tilga olingan sabablarga ko'ra, Lord Voldemort, shundoq ham buyuk salobatga ega buyumlarni afzal

¹ **Portshlyus** (*fransuzcha*) – G'arbiy Yevropa afsonalarida aytilishicha, sehrgarlarning kam sonli guruhini oldindan belgilangan vaqtda bir joydan boshqa joyga olib o'tadigan afsonaviy buyum. Zarurat tug'ilganida portshlyus vositasida tegishli manzilga yirik guruh tarkibida ham yetib borish mumkin.

ko'rishi lozim bo'lgan, deb taxmin qilaman. Shu bois ham men, Voldemortning o'tmishiga qaytish, san'at sohasiga oid buyumlarning yo'qolishi uning nomi bilan bog'liq holatlar mavjudligini topishga urindim.


- Slizerinning medalyoni! - baland xitob qildi Garri.
Xelga Xufflpuffning jomchasi!

- Xuddi shunday, - bosh iring'idi kulib boqqan Damblдор.
- Ikkinchi qo'lim... bilan bo'lmasa-da, uning bir juft barmog'i bilan garov bog'lashim mumkinki, o'sha buyumlar uchinchi va to'rtinchi sonli ruhdonlarga aylangan. Ruhdonlar jami oltita yaratilgan degan taxmindan kelib chiqadigan bo'lsak, qolgan ikkita ruhdon masalasi sal mushkulroq masaladir. Biroq men quyidagicha taxmin qilishga jur'at etaman: modomiki, Voldemort Xufflpuff bilan Slizeringa tegishli buyumlarni qo'lga kiritgan ekan, Griffindor bilan Ravenklodan qolgan buyumlarni ham qidirib topishni, ya'ni maktab asoschilarining har biridan qolgan bittadan yodgorlikni ruhdonlarga aylantirishni niyat qilgan. Ushbu g'oya, shubha yo'qki, Voldemort uchun jazb qiladigan g'oya bo'lgan. Ravenkloga tegishli biron-bir buyum topgan-topmagani bilmayman-u, Griffindordan qolgan yagona buyum busbutun saqlanmoqda.

Damblдор o'zining majruh qo'lini la'l bilan qadama naqshlangan qilich saqlanayotgan nafis shisha sandiqcha tomon uzatdi.

- Fikringizcha, ser, «Xogvars»ga u, aynan shu maqsad-da, ya'ni maktab asoschilariga tegishli bo'lgan biron-bir buyum topish maqsadida qaytmoqchi bo'lgan, to'g'rimi? - so'radi Garri.

-- Xuddi shunday, - tasdiqladi Damblдор. - Ammo taassufki, ushbu fikr bizni hech qayerga olib bormaydi. Chunki, iltimosi rad etilgan Voldemort maktabni tintuv qilib chiqish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. Har qalay, men shunday deb o'ylayman. Shu bois Voldemort «Xogvars» asoschilarining har biridan qolgan bittadan yodgorlikni ruhdonga aylantirishdek, o'zining shuhratparast orzusini ro'yobga chiqara olmagan. U faqat ikkita, ko'pi bilan uchta yodgorlikni qo'lga kiritgan olgan, xolos. Mana shularni ishonch-la ta'kidlash mumkin.



Ravenklo yoki Griffindorga tegishli biron-bir buyumni qo'lga kiritgan taqdirda ham, baribir, oltinchi ruhdon qolyapti, – dedi, barmoq bukib sanab o'tirgan Garri. Yoki ikkalasini ham qo'lga kiritganmikan?

– Ehtimoldan yiroq, – javob berdi Damblдор. – Oltinchi ruhdon nima ekanini, nazarimda, fahmlagandek bo'lib turibman. Uning Nagini laqabli iloniga anchadan buyon razm solib yuribman, desam, nima deysan?

– Iloniga? – hayratlandi Garri. – Hayvon ham ruhdon bo'lishi mumkinmi?

– Mumkin, garchi maqsadga muvofiq bo'lmasa-da. Kishi o'z ruhining bir parchasini mustaqil fikr yuritish va harakatlanish qobiliyatiga ega jonzodga ishonib topshirishi, juda xavfli o'yindir. Lekin agar mening hisob-kitoblarim to'g'ri bo'lsa, ota-onangning uyiga seni o'ldirgani kelgan kuni Voldemortga kam deganda bitta ruhdon yetmagan. Aftidan, u, har bir ruhdonning yaratilishini taqdir o'zgartiruvchi qotillik bilan bog'lab borishga harakat qilgan. Sening o'liming, shubha yo'qki, aynan shunday qotillik bo'lishi lozim edi. Negaki Voldemort, seni o'ldirgach, bashoratda aytilgan xavfdan qutulishi va bu bilan o'zini o'zi yengilmas qila olishiga ishongan edi. Ishonchim ko'milki, o'zining so'nggi ruhdonini sen jon bergan fursatda yaratmoqchi bo'lgan. Ma'lumki, uning ushbu rejasi barbod bo'ldi. Biroq oradan ko'p yil o'tib, qariya mag'lni Nagini yordamida o'ldirgach, uning miyasiga ilonni so'nggi ruhdonga aylantirish fikri kelib qolgan. Bu esa Slizerin bilan jigarchilik ramzi sifatida xizmat qilib, Lord Voldemort ismining tasavvufini kuchaytirib yuborgan bo'lar edi. O'ylashimcha, u ilonga juda kuchli bog'lanib qolgan bo'lib, doimo o'z yonida olib yuradi va uni, hatto ilonzabon kishiga xos bo'lmagan darajada idora qiladi.

– Demak, – dedi Garri, – kundalik ham uzuk ham yo'q qilindi. Jomcha, medalyon, ilon va sizning fikringizga qaraganda, Ravenklo yoki Griffindorga tegishli bo'lgan yana bitta buyum qolgan, shundaymi?

– Hayratli darajada qisqa va keng mazmunli xulosa, – bosh irg'idi Damblдор.

– Demak, ser... siz ularni qidirishni davom etyapsiz va maktabni tark etib borishingiz sababi ham shu ekan-da, a?

– Xuddi shunday, tasdiqladi Dambldor. – Ko'pdan buyon qidirib yuribman. Hozir esa... nazarimda, ruhdonlarning birini topgandayman. Umid qilsa bo'ladigan alomatlar bor, har qalay.

– Binobarin, mumkin bo'lsa, men ham siz bilan boraman, a? shu zahoti fikr bildirdi Garri. – Uni yo'q qilishga yordamim tegar?

Dambldor Garriga diqqat-la razm solib o'tirdi.

– Mumkin, – dedi u, nihoyat.

– Rostdanmi? – hayajonlanib ketdi Garri.

– Albatta, – kulib boqdi Dambldor. – Bunday huquqni qo'lga kiritish olding, deb o'ylayman.

Garrining ruhi keskin ko'tarilib ketdi. Ko'ngilga urmaslik uchun, odatiy tanbehlar-u pand-nasihatlar o'rniga bama'ni gap eshitgan yaxshi-da. Biroq sobiq direktorlar Dambldorning ushbu qarorini ma'qul topishmadi, ulardan qaysidir biri boshini sarak-sarak chayib qo'ydi, Piniy Nigelliy esa pishqirdi.

– Ser, Lord Voldemort biladimi, ruhdonlari yo'q qilina-yotganini his etadimi? – so'radi Garri, portretlarga e'tibor qilmay.

– Chindan ham, qiziq savol bo'ldi. O'ylashimcha, yo'q, sezmaydi. Nazarimda, o'z ruhining nihoyatda muhim tarkibiy qismlaridan tonib yuborganiga ancha bo'lgan Voldemort yovuzlikka shu qadar botib ketganki, uning his-tuyg'ulari bizning his-tuyg'ularimizdan kuchli farq qiladigan bo'lib qolgan. Lekin joni uzilayotgan fursatda ruhini yo'qotib bo'lganini idrok etishi mumkinligini rad etib bo'lmaydi... Axir, u, misoi uchun, kundaligi yo'q qilinganini, toki Lyutsius Malfoy bo'yniga olishiga erishguncha bilmagan edi-yu. Aytishlaricha, kundaligining sehri barham topib, yo'q qilinganidan xabar topgan Voldemortning g'azabi qaynab, tasavvurga sig'dirib bo'lmaydigan darajada quturib ketgan ekan.

– Kundalikning «Xogvars»ga kiritib yuborilishini Lyutsius Malfoyning tashabbusi, deb yurgan ekanman. Demak

bu Lord Voldemortning buyrug'i bo'lgan.

– Boshqa ruhdonlar yarata olishiga ishonchi komil bo'lgach, chindan ham, buyurgan. Lekin Lyutsius bu borada Voldemortdan ishora kelishini kutishi kerak edi, biroq kundalikni tashlab ketgan Yovuz Lord gum bo'ldi. Aftidan, ushbu ruhdonni Lyutsius ko'z qorachig'iday asrashi, unga ziyon yetkazishga jur'at eta olmasligiga Voldemort ishongan-u, Lyutsiusning ko'p yillarga yo'q bo'lib ketib, o'ldiga chiqargan o'z sohibi oldidagi qo'rquv hissiga haddan ortiq baho berib yuborgan. Tabiiyki, o'sha kundalik aslida nima ekanini Lyutsius bilmagan. Anglashimcha, Voldemort, kundalikka qo'llanilgan murakkab sehrjodu vositasida Maxfiy xonani yana ochish mumkinligini Lyutsiusga aytgan. Agar Lyutsius qo'lida o'z sohibining ruhini, xususan, uning bir parchasini ushlab turganini bilganda, shubha yo'qki, kundalikka katta ehtirom-la munosabat bildirgan bo'lar edi. Modomiki u bexabar ekan, eski reja bo'yicha mustaqil ravishda ish tutishga ahd qilgan. Kundalikni hech kimga bildirmay, Artur Ueslining ixtiyoriga tashlab qo'ygan Lyutsius Malfoy bir o'q bilan ikki quyonni ovlashga, jumladan, Arturni beobroq qilib, mening «Xogvars»dan quvib solinishim va xavfli buyumdan xalos bo'lishga umid bog'lagan. Baxti qora Lyutsius... Voldemort undan, ishonib topshirilgan kundalikni yo'qotgani uchun ham, o'tgan yili vazirlikda yo'l qo'ygan muvaffaqiyatsizlik uchun ham, nihoyatda darg'azab. Hozir Azkabanda tinchgina o'tirgani uchun ich-ichdan xursand bo'lsa kerak, sho'rlik.

– Demak, ruhdonlarning bari yo'q qilinsa, Voldemortni o'ldirish mumkin bo'lar ekan-da? – so'radi Garri, biroz o'ylanib o'tirgach.

– O'ylashimcha, shunday, – javob berdi Damblдор. Ruhdonlarsiz u, ruhi nihoyatda kichrayib ketgan, o'limga mahkum bo'lgan oddiy odamga aylanadi. Shunday bo'lsa-da, ruhiga haddan ortiq putur yetishiga qaramay, uning miyasi va sehrgarlik qobiliyati o'zgarmas qolishini unutish yaramaydi. Ruhdonlaridan mahrum bo'lgan bo'lsa ham Voldemortday sehrgarni o'ldirish uchun kishi favqulodda iste'dod va sehr qudrati sohibi

bo'lishi talab etiladi.

– Menda unisi ham bunisi ham yo'q, – dedi Garri, o'ylab-netib o'tirmay.

– Yo'q, bor, – qat'iy e'tiroz bildirdi Damblдор. – Senda Voldemortda hech qachon bo'lmagan qobiliyat bor. Sen...

– Bilaman! – umidsiz xitob qildi Garri. – Men yaxshi ko'rishni bilaman! – dedi u, «Shu ham qobiliyat bo'ldi-yu» deb yuborishdan o'zini bazo'r tiyib.

– Ha, sen yaxshi ko'rishni bilasan, – dedi Damblдор, Garrining fikrini o'qib olganday bo'lib. – Bu esa hayoting tarixini inobatga oladigan bo'lsak, nihoyatda hayratlidir. Sen juda yoshsan hali, Garri va shu bois naqadar g'ayrioddiy shaxs ekaningni tushuna olmaysan.

– Ya'ni bashoratda aytilgandek, mening: «*Yovuz lordga ma'lum bo'lmagan kuch*»im zamirida... atigi muhabbat nazarda tutilgan ekan-da? – so'radi Garri, o'zini aldangan boladay his etib.

– Ha, atigi muhabbat nazarda tutilgan, – tasdiqladi Damblдор. – Biroq bir narsani inobatga olishing shart: o'sha bashorat, Voldemort unga ishongani uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buni senga o'tgan yili aytgan edim. Voldemort seni eng xavfli kishi sifatida e'tirof etib, oxir-oqibat seni o'zi uchun shunday raqibga aylantirib qo'ygan!

– Farqi yo'q-ku...

– Unday emas! – yengil e'tiroz ohangida xitob qildi Damblдор, qorayib ketgan qo'lini Garri tomon uzatib. – Bashoratga sen, haddan ortiq katta ahamiyat berib yuboryapsan!

– Lekin – entikib ketdi Garri, – o'zingiz aytdingiz-ku, bashorat...

– Agar uning borligini Voldemort eshitmaganda, ro'yobga chiqar edimi o'sha bashorat? Biron-bir ma'no anglatgan bo'lar edimi? Yo'q, albatta. Bashoratlar zalida saqlanadigan bashoratlarning bari, albatta, ro'yobga chiqadi, deb o'ylaysanmi?

– Biroq siz, – hayratlandi Garri, – o'tgan yili yo Voldemort meni, yo men uni o'ldirishimiz kerak, degan edingiz...

– Negaki Voldemort professor Trelanining bashoratiga

ko'ra ish tutib nihoyatda katta xatoga yo'l qo'ydi, Garri! Agar u otangni o'ldirmaganida, sening qalbingda bu qadar kuchli qasos o'ti alanga olgan bo'lar edimi? Yo'q! Agar oying sen uchun o'z jonini fido qilmaganida Voldemort, endi o'zi buza olmayotgan sehrli himoyani bergan bo'lar edimi senga? Yo'q, albatta Garri, yo'q! Nahotki o'zing ko'rmayotgan bo'lsang buni? Voldemort, azaldan zolim hukmdorlar yo'l qo'yib kelgan kabi katta bir xatoga yo'l qo'ydi, u ham bo'lsa, o'ziga o'zi ashaddiy dushman yaratib oldi. O'sha hukmdorlar o'zlari zulm o'tkazganlardan qanchalik qo'rqishini tasavvur qila olasanmi? Ular kun o'tib bir kun ko'plab mazlumlar orasida bosh ko'tarib, javoban zarba beradigan odam topilishini idrok etishgan! Voldemort bundan istisno emas! Munosib raqib topilishidan xavfsiragan Voldemort hamisha sergak yurgan. Bashoratdan xabar topgan Voldemort zudlik bilan ishga kirishib, bemulohaza shoshma-shosharlik oqibatida o'z qotilini tanlabgina qolmay, ushbu raqibni nihoyatda xavfli, hech kimda bo'lmagan qurol bilan qurollantirib qo'ygan!

– Biroq...

-- Bir narsani tushunib yetishing nihoyatda muhim! – dedi Dambldor o'rnidan turib.

Xonaning u burchagidan bu burchagiga korjomasini xira miltillab shitirlatgancha yurgan Dambldorni kuzatib o'tirgan Garri maktab direktorining hali bunday hayajonlanganini ko'rmagan.

– Seni o'ldirishga uringan Voldemort o'ziga raqib sifatida nafaqat ro'paramda o'tirgan mashhur kishini tanlagan, balki uning qo'lga kurash vositalarini ham tutqazib qo'ygan! Uning xayoliga singib kirib, ko'zlagan ishini oldindan ko'ra bilishingda, u amr etadigan tilni tushunib, ilonzabon bo'lishingda Voldemortning o'zi aybdor! Shunisi ajablanarliki, Garri, sen har qanday O'limdan zavqlanuvchi ega bo'lish yo'lida qotillik sodir etishdan tap tortmaydigan bunday imtiyozlarga ega bo'la turib, yovuz sehr-joduga hech qachon qiziqish bildirmagansan, Voldemort safiga borib qo'shilish borasida hech qachon fikr bildirmagansan!

– Yo‘q, albatta! – e‘tiroz bildirdi Garri. – Axir, u mening ota-onamni o‘ldirgan-u!

– Bir so‘z ila aytganda, seni aynan men ta‘kidlab kelgan, ya‘ni Voldemortning qudratiga qarshilik ko‘rsatishga qodir bo‘lgan yaxshi ko‘rish qobiliyating himoya qilmoqda! – dedi Dambldor baland ovozda. – Seni to‘g‘ri yo‘ldan ozdirishi mumkin bo‘lgan har xil vasvasalar, boshingdan o‘tgan qanchadan qancha azob-uqubatlarga qaramay, o‘n bir yoshli bolaning sof yuragini saqlay bilding. «Ko‘ngildagi orzular ko‘zgusi»ga qarab nimani ko‘rganing esingdami? Ko‘rganing mangu hayot yoki bitmas-tuganmas boylik emas, faqat Voldemortni yo‘q qilishga intilish bo‘lgan. O‘xshash narsalarni o‘sha ko‘zguda ko‘rgan odamlar soni kamdan kam bo‘lganini bilasanmi, Garri? Voldemort o‘sha fursatning o‘zida anglab yetishi kerak edi, qanday raqibga ro‘baru kelib qolganini, biroq uning aqli bunga yetmadi! Endi esa unga hammasi ayon. Sen uning ongiga o‘zingga ziyon yetkazmagan holda singib kirar eding, u esa vazirlikda ma‘lum bo‘lishicha, sening ongingga, faqat misli ko‘rilmagan azob chekan holdagina singib kira olar ekan. Ishonchim komilki, Garri, ushbu holat sababini uning o‘zi tushunib yetishi amrimahol. Gap shundaki, u o‘z ruhini parchalab buzib chiqishga shu qadar oshiqdiki, insonning yaxlit, buzilmagan ruhining qiyoslab bo‘lmas qudrati haqida o‘ylab ko‘rishga ulgurmadi.

– Ammo, ser, – ohista e‘tiroz bildirdi Garri, direktor bahslashyapti degan xayolga bormasligi uchun. – Nima qilgan taqdirda ham bularning oqibati bir narsa bo‘lib chiqyapti shunday emasmi, ya‘ni men uni o‘ldirishga urinib ko‘rishim kerak yo u meni?...

– Urinib ko‘rishim kerak? – xitob qildi Dambldor. – Albatta, urinib ko‘rishim kerak! Biroq bashoratda shunday deyilgani uchun emas! Toki shu ishga qo‘l urib ko‘rmaguningacha tinchingni topa olmasliging uchungina urinib ko‘rishim kerak! Buni biz ikkalamiz bilamiz. Endi, Garri, biron bir bashorat haqida eshitmaganingni bir daqiqaga bo‘lsa ham, faraz qilib ko‘r! Ana o‘shanda Voldemortga nisbatan nimani his etgan bo‘lar eding? Yaxshilab o‘ylab ko‘r!

Garri xonaning bu burchagidan narigi burchagiga borib qaytayotgan Damblorga qarab o'tirar ekan, o'ylay boshladi: o'ldirilgan ota-onasi, Sirius, Sedrik Diggori haqida, Voldemort tomonidan amalga oshirilgan barcha yovuzliklar haqida o'yladi. Ko'krak qafasida kuchli kuydiradigan alanga yuzaga kelib, tomog'igacha yetib keldi.

– Men uning jonini o'zim, hech qanday bashorat-mashoratsiz sug'urib olishni istagan bo'lar edim, – asta javob berdi u.

– To'ppa-to'g'ri! – xitob qildi Damblor. – Bashoratda sen biron nima qilishing kerakligi aytilmagan! Biroq o'sha bashorat tufayli Voldemort o'ziga teng ko'rganidan dalolat beruvchi tang'ani aynan senga bosgan... Sen hech qanday bashorat haqida o'ylamay, o'z yo'lingdan borishing mumkin, albatta! Biroq Yovuz Lord bashoratga muvofiq ish tutadi va xavf tug'dirganing, unga noma'lum qudratga ega bo'lganing bois seni ta'qib qilib, ovlab yuradi. Bu esa, o'z navbatida...

– Birimiz, ikkinchimizning qo'lidan ajal topishini, ikkalamizdan faqat birimiz jangdan omon chiqishimizni anglatadi, – bashorat matni ila Damblorning fikrini yakunladi Garri.

Damblor nima demoqchi bo'lganini Garri nihoyat tushunib yetdi. «Kishi qonli jang maydoniga turtilib, majbur chiqarilgani boshqa, boshini mag'rur ko'targancha, o'zi kirgani boshqa. Ehtimol, kimdir bularning farqi u qadar katta emas deb aytar, – xayoldan o'tkazdi Garri. – Lekin Damblor ikkalamiz aniq bilamizki, qolaversa ota-onamning ruhlari ham bilishadiki, farqi nihoyatda katta!»

XXIV BOB

SEKTUMSEMPRA

Uyquga to'ymagan, lekin tun davomida amalga oshirgan zo'r ishidan mamnun bo'lgan Garri ertalab, afsun o'qish fanida, Ron bilan Germionaga kecha bo'lib o'tgan ishlarni oqizmaytomizmay aytib berdi. Atrofda o'tirgan odamlar uning hikoyasini eshita olmasligi uchun esa Maffliato afsunini qo'lladi. Divangardning xotirasini uddaburonlik-la qo'lga kirita olgan Garriga, tabiiyki, ikkala o'rtog'i tasanno aytib, Voldemortning ruhdonlari-yu, Dambldorning, o'sha buyumlardan birortasi topilsa, Garrini o'zi bilan olib ketish borasidagi va'dasini eshitib, hangmang bo'lib qoldi.

– Yo'g'-e, – hayratlandi, sehrli tayoqchasini shiftga o'qtagancha, tartibsiz harakatlantirayotgan Ron, Garrining maroqli hikoyasi nihoyasiga yetgach. – Demak, Dambldor seni ham olib borar ekan-da, a? Sen bilan birga yo'q qilish uchun-a!... Qara-ya!...

– Ron, hamma yoqqa qor bostirib yubording, – dedi Germiona, Ronning qo'lidan ushlagancha, uning sehrli tayoqchasini oppoq qor pag'alari yog'ayotgan shiftdan olib.

Sal narida o'tirgan Lavanda Braun yig'lab qizargan ko'zini Germionaga o'qraytirdi. Germiona shu zahoti Ronning qo'lini qo'yib yubordi.

– Iye, rostdan ham, -- o'z yelkasiga hayron bo'lib qaradi Ron. – Kechirasiz... hammaning boshi qalin kepak bosganday bo'lib qolibdi.

Ron Germionaning yelkasini qoqib sun'iy qor uchqunlaridan tozaladi. Buni ko'rgan Lavanda ho'ngradi. O'zini aybdor kishiday his etgan Ron esa qizga asta teskari o'girilib oldi.

– Biz ajrashib ketdik, – pichirlab ma'lum qildi u Garriga. -- Kecha kechqurun, sen ustingga ko'rinmas plashingni tashlab olganing bois yotoqxonadan faqat Germiona ikkalamiz chiqayotganimizni ko'rgan va, tabiiyki, tegishli xulosaga borgan.

– Sen... Ish shu tarzda yakun topganidan xursandsan-ku.

shundaymi? – fikr bildirdi Garri.

– Ha, – javob berdi Ron. – Faqat ish emas ishq. Menga rosa o'shqirib, ichini ancha bo'shatib oldi. Bir tomondan, shunisi ham yaxshi bo'ldi. Allanimatarni tushuntirib, o'zimni oqlashga majbur bo'lmadim.

– Qo'rqoq, – ta'kidlab o'tdi Germiona, mamnuniyatsiz ohangda. – Kechagi kun, nazarimda, jamiki sevishganlar uchun omadsiz kun bo'lgan ko'rinadi, Garri. Negaki Jinna bilan Din ham kecha ajrashib ketishdi.

Garriga qarab qo'ygan Germionaning purma'no nigohidan: «Nima demoqchi bo'lganimni tushungandirsan?!» – degan fikrini uqish u qadar qiyin bo'lmadi. Garrining ichidagi maxluq xursandligidan raqsga tusha ketdi. Shunday bo'lsa-da, yuziga imkon qadar beparvolik qiyofasini berishga uringan Garri, yasama loqayd ohangda so'radi:

– Tinchlikmi? Ularning orasidan qanaqangi ola mushuk o'tibdi?

– Bir tuturiqsiz sabab tufayli... – tushuntirish berdi Germiona. – Jinnaning nazarida Din hamisha uni, nogiron qiz bilan muomala qilganday portret ortidagi tuynukdan ko'tarib o'tishga urinar emish. Umuman aytganda esa bu janjal Jinnaning allaqachon to'lib qolgan sabr kosasiga yetmay turgan so'nggi tomchi bo'ldi.

Garri sinf xonasining narigi burchagida o'tirgan Dinga qarab qo'ydi. Yigitning basharasidan ko'rinib turibdiki, hozir ushbu yorug' olamda undan battar baxtsiz odam yo'q.

– Endi esa og'ir ahvolda taraddudlanib qolding, shundaymi? – so'radi Germiona.

– Ya'ni? – shoshib qoldi Garri.

– Jamoani nazarda tutyapman, – tushuntirish berdi Germiona. – Agar arazlashib qolgan Jinna bilan Din gaplashmay qolishsa...

– A! Ha, – xayolini yig'ib oldi Garri.

– Flitvik kelyapti, – ogohlantirdi Ron.

Bolalar oldiga afsum o'qish fanining pastak bo'yli o'qituvchisi Flitvik qo'yilgan vazifa ijrosini tekshirgani keldi

Osh sirkasini vinoga faqat Germionagina aylantirib, shisha kolbadagi¹ suyuqlikka to'q binafsha tus bera olgan. Garri bilan Ronning ixtiyoridagi kolbalar esa xira jigarrang bo'lgancha qolgan.

– Xo'sh, xo'sh, yigitlar, – ta'na ohangida chiyilladi Flitvik. – Kamroq gapirib, ko'proq ishlashni o'rganing. Qani, ko'rsating-chi, hunaringizni...

Sehrli tayoqchalarini ko'targan Garri bilan Ron fikr-xayolni yig'ib, har biri o'z kolbasiga yo'lladi. Garrining sirkasi muz bo'lagiga aylanib qolgan bo'lsa, Ronning kolbasi darz ketdi.

– H-a-a... shunday qilib, uyga vazifa, – vaysadi stol ostidan chiqib kelgan Flitvik, shisha parchalarini shlyapaga yig'ib. – Mashq, mashq va yana mashq.

Kamdan kam bo'lganday bo'sh vaqtlari bir vaqtga to'g'ri kelib qolgan Garri, Ron va Germiona afsun o'qish fanidan so'ng umumiy mehmonxona tomon yo'l olishdi. Lavanda bilan janjallashib, ajrashib ketgani uchun qayg'urish Ronning xayoliga ham kelgani yo'q. Germiona ham quvnoq, garchi nimadan bu qadar xursand ekani borasidagi savolga kunning yaxshi o'tayotganini bahona qilib ko'rsatgan bo'lsa-da. Garrining ichidagi maxluq bilan qanday dahanaki kurash kechayotganini yigitning o'zidan boshqa hech kim bilmaydi:

– U Ronning singlisi.

Din bilan ajrashib ketibdi-yu, axir!

Biroq u Ronning singlisi bo'lgancha qoladi.

– Nima qilibdi, men uning eng yaqin do'stiman-u!

– Bunday holat vaziyatni battar chigallashtirib yuboradi.

– Dastlab Ron bilan ochiqchasiga gaplashib ko'rsam-chi?...

– Bu haqda og'iz ochishing bilan basharangga qo'yib yuboradi.

– Menga farqi yo'q.

– Sen uning eng qadrdon do'sti eding, shekilli...

Quyosh yoritgan umumiy mehmonxonaga kirganini sez-

¹ Kolba – laboratoriyalarda ishlatiladigan shisha idish.

may qolgan Garri, yettinchi sinf o'quvchilarining bir yerda g'uj to'planib olgan gurubiga ham e'tibor qilmadi.

– Ketti! Ketti qaytibdi! Salom, qalaysan! – kutilmaganda qichqirdi Germiona.

O'quvchilar guruhi tomon qaragan Garri, chindan ham, zavq-la quvonayotgan do'stlari davrasida soppa-sog' turgan Ketti Bellni ko'rdi.

– Ha, soppa-sog'man! -- quvonch-la javob berdi qiz. – Dushanba kuni Muqaddas Rezgi kasalxonasidan chiqib, ikki kun uyda, ota-onam bilan bo'ldim. Bugun ertalab maktabga qaytdim... Lin so'nggi o'yin va Maklaggen haqida aytib berayotgan edi menga, Garri...

– Tushunarli, -- bosh iring'idi Garri. – Modomiki Ron ikkalangiz sog'-salomat qaytgan ekansizlar, kubok uchun kurashni davom etib, ravenklochilarga ko'rsatib qo'yamiz, o'yin qanaqa bo'lishini. Quloq sol, Ketti... – pichirlashga o'tdi Garri, Jinnani vaqtincha unutib. – Anavi shoda masalasida... kim berga-nini esladingmi?

– Yo'q, – boshini ma'yus chayqadi qiz, mashg'ulotga yo'l olgan dugonalari ortidan qarab qo'yib. – Hamma mendan shuni so'raydi, men esa hech narsani eslay olmayman. «Uch supurgi»dagi qizlar xonasiga kirgan fursatimni eslay olaman.

– Ichkariga kirgan edingmi? – qiziqdi Germiona.

– Bo'lma eshigini ochganim aniq esimda, – dedi Ketti. – Qaram qilish qarg'ishini qo'llagan kishi, aftidan, eshik ortida shay turgan. Undan keyin nima bo'lganini eslay olmayman... Muqaddas Rezgi kasalxonasida o'tgan so'nggi ikki haftani eslayman, xelos... Bormasam bo'lmaydi... Makgonagall bugun maktabga qaytganimning birinchi kuni ekaniga qarab o'tirmaydi... qandaydir bema'ni narsani yozishga majbur qiladi...

Yuk xaltasini changallagan Ketti sinfdoshlarining ortidan yugurib ketdi. Deraza oldidagi stol atrofiga o'tirgan Garri, Ron va Germiona esa Kettining gapini muhokama qilishga kirishishdi.

– Modomiki, o'sha hodisa qizlar xonasida ro'y bergan ekan, demak, shodani qiz bola yoki ayol kishi ushlatib qo'ygan,

– dedi Germiona.

– Yoki ayol qiyofasini kasb etib olgan erkak kishi, – ta’kidlab qo’ydi Garri. – Maktabda bir qozon Barcha qiyofalar damlamasi borligidan xabardor bo’lib, ozginasi yo’qolib qolgani ham bilamiz...

Uning xayoliy nigohi oldida turli-tuman qizlar qiyofasini kasb etayotgan Krabbe bilan Goylning uzundan uzoq navbati gijinglab o’tdi.

– Nazarimda, baxt-u toledan yana urib olib, Darkor xonaga kirishga boz urinib ko’rishim kerakka o’xshaydi.

– Damlamani uvol qilgan bo’lasan, – dedi yuk xaltasidan chiqargan «Tolkovinning sirli yozuvlari» darsligini stol ustiga qo’ygan Germiona, qat’iy bayonot ohangida. – Omad, Garri, ish bitganini anglatmaydi. Divangard masalasi boshqa gap, chunki sen unga hamisha ta’sir o’tkazib kela olgansan va shu bois taqdirni biroz qistovga olish kifoya bo’lgan. Biroq kuchli tilsimga qarshi borar ekansan, omadning o’zi kamlik qiladi. Shunday ekan, damlamani behuda sarf etma! Modomiki, .. pichirlay ketdi u, – Damlador seni o’zi bilan olib ketar ekan, omad o’sha yerda juda asqatadi...

– Yana tayyorlasa bo’lmasmikan? – so’radi Germionaga e’tibor qilmagan Ron. Zaxirasi ko’proq bo’lsa, yomon bo’lmaydi-yu. Qani... – qistadi u Garrini, – darsligingga qara-chi...

Garri «Oliy damlamachilik»ni chiqarib varaqlagancha, baxt-u tole damlamasini tayyorlash mavzusini qidirib topib, tayyorlash jarayoni-yu, talab etiladigan tarkibiy qismlar ro’yxatini o’rganib chiqdi.

– Jin ursin, – dedi u nihoyat. – Juda murakkab jarayon... kam deganda yarim yil kerak bo’lar ekan... chunki... ba’zi narsalar uzoq ivitiladi...

– O’zi shunaqa bo’ladi, – xo’rsindi Ron. – Bizga kelganda, afsuski, ariqdagi suv ham qurib qoladi...

Darslikni xaltaga solayotgan Garri kitobning bir necha hafta oldin o’zi bukib qo’ygan sahifasiga ko’zi tushib qoldi. Sahifani ochib «Dushmanga qarshi» so’zlari ustidan kishini qiziqtirib qo’yadigan tarzda timdalab yozilgan Sektumsempra

qarg'ishini ko'rdi. Qulay fursat kelganda, ushbu qarg'ishni Maklaggenda sinab ko'rmoqchi, lekin Germionadan cho'chib yuribdi.

Kvidish jamoasida Ketti Bellning o'rmini vaqtincha egalab turgan Din Tomasgina qizning sog'ayib ketganidan samimiy sevina olmas edi. O'rinni bo'shatib qo'yish borasidagi Garrining talabini mardonavor qabul qilgan Din, allanima degancha yelka qisib qo'ydi, xolos. Shunday bo'lsa-da, xonadan chiqib ketayotgan Garrining qulog'iga Din bilan Simusning domangir shivirlashgani chalindi.

Garri sardor bo'lgandan buyon jamoa bu qadar zo'r uchmagan. Jamoa a'zolari Maklaggendan nihoyat qutulgani va Kettining qaytganidan xursand bo'lib, so'nggi ikki hafta davomida bor imkonini ishga solib uchishmoqda.

Jinna Din bilan ajrashib ketganidan mutlaqo qayg'urmadi, aksincha, hammani kuldirar ekan, jamoaning kayfiyatini ko'tarib, dalda berib bordi. U dam Ronni mazax qilgancha, «Kvaffl»ni ko'rib, halqalar oldida qarmoq po'kagiday sakrab qolar, dam Garrining Maklaggenga ovozi xirillab qolguday darajada baqirib, yerga hushsiz yiqilgan holatini tasvirlar edi. Hamma bilan teng kulib, Jinnadan ko'z uza olmay quvonayotgan Garrining fikri-xayoli o'yindan chalg'igani bois tajovuzkor to'plardan bir necha marta jiddiy zarba yedi.

Uning fikr-xayolida hamon jang kechmoqda: Jinna yoki Ron? Ron Lavanda bilan bazo'r ajrasha olgach, Jinna bilan uchrashib yurishimga qattiq qarshilik ko'rsatmasa kerak, xayoldan o'tkazadi ba'zan Garri. Lekin Jinna bilan Dinning o'pishib turganini ko'rgan Ronning nigohini eslasa, Jinnaga qo'l tekkizgan zahoti, sotqin deya c'lon qilinishini tasavvur qilib ko'rdi...

Shunday bo'lsa-da, u o'zini o'zi Jinna bilan gaplashmaslik, u bilan birga kulmaslik, mashqdan keyin birga qaytmaslikka majbur qila olmaydi. Vijdon azobi qiynayotganiga qaramay, qiz bilan yolg'iz qolishni orzu qilmoqda. Qaniydi, Divangard Ron taklif qilinmaydigan oqshomini yana uyushtirsa. Ammo, afsuski, aftidan, Divangard bunday oqshomlarga nuqta qo'ygan ko'rinadi. Bu masalada Garrining miyasiga, yordam

so'rab Germionaga murojaat qilish xayoli ham keldi, lekin qizning hamma narsani darhol fahmlab oladigan nigohiga bardosh bera olmasligini o'ylab, shu zahoti fikridan qaytdi. Chunki Jinnaning hazillaridan miriqib kulayotgani, unga uzoq tikilib qolayotganini Germiona, aftidan, shundoq ham sezib yurgan ko'rinadi. Yana bir xayol Garriga tinchlik bermaydi: Jinnani uchrashuvga boshqa birov taklif qilib qolsa-chi? Jinnaning haddan ortiq mashhurligi yaxshilikka olib kelmasligi – Garri bilan Ron ikkalasining umumiy fikri bo'lib qolgan.

Baxt-u tole damlamasidan bir ho'plamgina ichib olishga qiziqish kundan kunga oshib bormoqda. Germionaning ta'biri ila aytganda: «Taqdirdi biroz qistovga olish» uchun zarur bo'lgan holat emasmi, bu? May oyining yoqimli iliq kunlari tez o'tmoqda. Jinna ko'ringan joyda esa Ron ham bor. Zamona zayli ila Ron o'z singlisi bilan qadrdon do'stining taqdirlarini birlashtirishni kutilmaganda istab qolishi va, loaqal, uch soniyaga bo'lsa ham ularni holi qoldirishi – Garrining so'nggi vaqtdagi ushalmas orzusiga aylanib qoldi. Ming afsuski, kvdish mavsumining final o'yini yaqinlashib, Ronning yagona istagi – Garri bilan o'yin taktikasini muhokama qilish bo'lib qolmoqda.

Qolaversa, buning hayron bo'ladigan yeri yo'q. Chunki butun maktab «Griffindor» bilan «Ravenklo» o'rtasida o'tadigan bo'lg'usi uchrashuv haqida qizg'in bahslashmoqda. Chunki, chempionlik masalasi hamon ochiq qolib, ushbu uchrashuv uzil-kesil hal etadigan uchrashuv bo'ladi. «Griffindor» jamoasi kam deganda uch yuz ochko bilan g'olib chiqsagina, birinchi o'rinni egallashi mumkin. Murakkab vazifa, lekin Garrining jamoasi hali bu darajada zo'r uchmagan. Agar g'alaba, bundan kam ochkolar soni bilan qo'lga kiritiladigan bo'lsa, «Griffindor» «Ravenklo»dan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Agar yuz ochko farqi bilan yutqazsa, «Griffindor» uchinchi o'rinni egallaydi, yana «Ravenklo»dan keyin yoki to'rtinchi o'ringa tushib ketadi. «Va o'shanda, «Griffindor» jamoasi so'nggi ikki yuz yil ichida ilk bor bu qadar sharmandali yutqazgan yili jamoa sardori aynan men bo'lganimni hech kim, hech qayerda va hech qachon unutmaydi va menga ham unutishga yo'l qo'ymaydi», – xayoldan o'tkazdi

Garri.

O'ta muhim o'yinga tayyorgarlik jarayoni odatdagiday kechmoqda, xususan: qasr yo'laklarida raqib-fakultet o'quvchilari bir-birining jig'iga tegmoqda; bo'lajak o'yinning ayrim ishtirokchilari sharafiga atayin to'qilgan masxaraomuz to'rtliklardan, ularning ba'zilari umumiy e'tibordan zavqlangancha, g'urur-la yursa, boshqa birlari asabiylashib, hayajondan ko'ngli behuzur bo'lib, hojatxonaga yugurmoqda.

Garri o'zining Jinna bilan munosabatini bo'lajak g'alaba yoki mag'lubiyat ila chambarchas bog'lagan. Mabodo g'alaba, uch yuz ochko ustunlik bilan qo'lga kiritilsa, ommaviy xursandchilik, zafar sharafiga uyushtirilgan sershovqin kecha, o'sha baxt-u tole damlamasining kattagina ho'plamidan kam bo'lmagan darajada ijobiy ta'sir qilishiga Garri chin yurakdan ishonadi.

Biroq ko'p tashvishlar bo'lishiga qaramay, Malfoyni kuzatib yurish ishlari Garrining yodidan bir daqiqa bo'lsin, chiqqani yo'q. U Kafanduzd xaritasini tez-tez ochib tekshirar va, modomiki, Malfoy xaritada ko'rinmay qolar ekan, demak, uning Darkor xonadagi ishi haligacha bitmagani borasida xulosaga kelar edi. Garri o'sha xonaga kirish umidini deyarli yo'qotib bo'ldi. Lekin shunday bo'lsa-da, har safar yonidan o'tar ekan, navbatdagi urinishini kanda qilmadi. Ammo uning iltimoslari mazmunan ming o'zgarmasin, Darkor xona o'z eshigini ko'rsatmadi.

«Ravenklo» bilan o'tadigan o'yinga bir necha kun qolganda, o'yin haqida o'ylab, ko'ngli yana behuzur bo'lib ketgan Ron yaqin oradagi hojatxonaga yugura ketgani, Germiona esa numerologiya bo'yicha so'nggi ishda yo'l qo'ygan xatosini muhokama qilish uchun professor Vektorning huzuriga ravona bo'lgani bois Garri kechki ovqatga yolg'iz o'zi yo'l oldi. Xohishi u qadar kuchli bo'lmasa-da, Garri, odatga ko'ra, yettinchi qavatning yo'lagi tomon burilib, yo'l-yo'lakay Kafanduzd xaritasiga qarab qo'ydi. Xaritada Malfoyni topgach, hozir u har galgiday Darkor xonaga kirib g'oyib bo'lishini kutdi. Biroq birozdan so'ng Malfoy bir qavat pastda, Krabbe va Goyl bilan emas, Dilgir Mirtl bilan birga ko'rindi.

Ushbu bir-biriga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan juftlikka hayrat-la baqrayib qolgan Garri ritsarlar aslahasiga tikka borib urilib, temir-tersak gumburlab qulaganidan so'nggina, xayolini yig'ib oldi. Hodisa joyiga Filch yetib kelmasdan oldin juftakni rostlagan Garri marmar zina bo'ylab bir qavat pastga tushdi-da, yo'lak bo'ylab jadal odimladi. Hojatxonaga yetgach, qulog'ini eshikka bosdi. Ichkaridan hech nima eshitilmagach, eshikni asta ochdi.

Qo'li bilan yuvinish chanog'ini mahkam changallab olgan Drako Malfoy oq sariq sochli boshini past engashtirib olgancha, Garriga teskari o'girilib turibdi.

– Qo'y endi, yig'lama... – eshitildi Dilgir Mirtning g'urullagan ovozi bo'lmalardan birining ichidan. – Menga ayt... yordam beraman...

– Menga hech kim yordam bera olmaydi, – javob berdi, butun tanasi titrayotgan Malfoy. – Qo'limdan kelmayapti... uddalay olmayapman... bo'lmaydigan ko'rinadi... bajarnasam, bajara olmasam... tez orada meni o'ldirishni va'da qilgan...

Malfoy yig'layapti, idrok etdi Garri, hayajoni oyog'ini yerga yopishtirib qo'ygan darajada, Malfoy rostakamiga yig'layapti!

Ko'z yoshi rangpar lunjidan oqib, iflos chanoqqa tomchilayotgan Malfoy seskangancha chuqur nafas chiqarib, boshini darz ketgan ko'zguga ko'tarishi bilan hayrat to'la nigohini qadab turgan Garrining aksini ko'rdi. Qo'lga sehrli tayoqchasini olib, keskin ortga o'girildi.

Garri ham shu zahoti sehrli tayoqcha bilan qurollandi. Malfoy yo'llagan qarg'ish yashini Garrining yonidan uchib o'tib, devorga mahkamlangan fonusni urib sindirdi. Yon tomon sakrab o'tgan Garri sehrli tayoqchasini siltagancha ichki ovoz-la «Levitana!» tilsimini qo'lladi. Garrining tilsimini qaytargan Malfoy yana qarg'ish qo'llash uchun qo'lini ko'tardi...

– Yo'q! Yo'q! Bas qiling! – ho'ngradi Mirtl. – Bo'ldi! Bas! Bas!

Uning dod-faryodi koshin¹ bilan qoplangan xonada aks-sado berib yangramoqda.

Atlanima quloqni kar qilar darajada gumburlab, ortda turgan chiqindi chelagi portlab ketdi. Garri yo'llagan kishan qarg'ishining yashini Malfoyning qulog'i yonidan uchib o'tib, devordan sapchigancha Dilgir Mirtlning ortida turgan suv idishini pachaqladi. Mirtl ovozi boricha chinqirdi, hamma yoqni suv bosib, sirpanib ketgan Garri yerga quladi. Yuzi nafratdan buri-shib ketgan Malfoy qichqirish uchun og'iz juftladi:

– Krusi...

– SEKTUMSEMPRA! – o'kirdi yerda yotgan Garri, qo'lidagi sehrli tayoqchani quturib ketganday siltab.

Malfoyning yuzi bilan ko'krigidan ko'rinmas qilich-la chopib tashlangan kabi qon sachradi. Biroz gandraklab to'xtagach, bir qadam ortga tashladi-da, poldagi ko'lmakka shaloplab quladi, sehrli tayoqchasi esa bo'shashgan qo'lidan chiqib ketdi.

– Yo'q... – past ovozda xirilladi Garri.

Bedarmon oyog'ida bazo'r turgan Garri yuzi qizarib yaltirayotgan, qonayotgan ko'kragini bo'zday oqargan qo'li jon-siz timdalayotgan raqibining oldiga yugurdi.

– Yo'q... yo'q... yo'q... Men bunday qilmoqchi emas edim...

Garri nima deytganini o'zi bilmaydi. U qon ko'lmagida tinimsiz titrayotgan Malfoyning tanasi yonida tiz cho'kib yiqildi. Dilgir Mirtl shu zahoti chirilladi:

– QOTILLIK! QOTILLIK! HOJATXONADA QOTILLIK!

Eshik qarsillab ochildi. Garri boshini ko'tarib, dahshatdan oh urib yuborguday bo'ldi: hojatxonaga g'azabdan quturib ketgan Snegg yugurgancha kirib keldi. U Garrini qo'pol turtib, Malfoyning yoniga tiz cho'kdi-da sehrli tayoqchasini chiqarib, qarg'ish yashini hosil qilgan chuqur jarohatlar ustida yurgizdi va

¹ *Koshin* (*farscha*: ko'sh, koshin) – 1) chumiga o'sxlatib islatilgan, yaltiroq, naqshli g'isht plitkasi; 2) bir-biriga zich qilib yopishtirilgan rang-barang shisha, marmar, tosh, yog'och va shu kabilardan yasalgan surat yoki naqsh.

ayni vaqtda, xuddi qo'shiq singari eshitilgan qarg'ishga qarshi qarg'ish o'qidi. Qon oqimi to'xtadi. Snegg o'z tilsimini takrorlagancha, Malfoyning yuzidagi qon qoldiqlarini bartaraf etdi. Birozdan so'ng jarohat o'rni bitdi.

Egnidagi kiyimi suv va qon-la shalabbo bo'lgan Garri o'z qilmishidan larzaga kelgancha, ikkalasiga baqrayib qoldi. Dilgir Mirtl hiqillagancha shift ostida uchib yuribdi. Snegg qarg'ishga qarshi qarg'ishni o'qib tugatgach, Malfoyga oyoqqa turishga yordam berdi.

– Zudlik bilan kasalxonaga borib, oq shumtol damlamasini ichishing kerak. Aks holda jarohat o'rnida chandiq qolishi mumkin... Yur, eltib qo'yaman seni...

Malfoyni chiqish tomon boshlab, eshikka yetgan Snegg shartta ortga o'girildi-da, muzday nafrat-la Garriga ko'rsatma berdi:

– Sen, Potter... meni shu yerda kut.

Itoatsizlik mavridi emas. Vujudi titragancha, oyoqqa turgan Garri, poldagi ko'lmakda qizil gulga o'xshab suzayotgan qon dog'larini ko'rdi. Hozir uning baland ovozda berilib ho'ng-rayotgan Mirtldan jim bo'lishni iltimos qilish uchun ham madori yo'q.

O'n daqiqa o'tar-o'tmas qaytib kelgan Snegg hojatxonaga kirib, eshikni ichkaridan yopdi.

Yo'qol. – buyurdi u, Mirtlga.

Arvoh shu zahoti bamisoli baliqday unitazga sho'ng'ib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Hojatxonada jarangdor sukunat qaror topdi.

– Unday bo'lishini xohlaganim yo'q. Umuman aytganda, o'sha qarg'ish to'g'risida hech nima bilmas edim, – dedi Garri, ovozi suv bosgan sovuq xonada aks-sado ila yangrah.

Nazarimda, Potter. – past ovozda gap boshladi Snegg, Garrining gapiga e'tibor qilmay. – Men senga munosib baho bermagan ko'rinaman. Eng yovuz sehr-jodu qarg'ishlarini bilishing xayolimga kelibdimi? Xo'sh, qayerdan bilding bunday qarg'ish borligini?

Men... qayerdadir o'qigan edim.

– Qayerda?

– Kutubxonadan olingan kitoblardan allaqaysi birida, shekilli, – tez to‘qiy boshladi Garri. – Nomi esimda yo‘q...

– Kazzob, – gapni bo‘ldi Snegg.

Tomog‘i shu zahoti qurib qolgan Garri, o‘qituvchi nima qilmoqchi bo‘lganini bilsa ham to‘sqinlik qila olmadi. Atrof xiralashdi. Garri hech narsani o‘ylamaslikka urindi-yu, biroq zoti past Shahzodaning xayoliy, xira darsligi o‘zidan o‘zi ong yuzasiga chiqib qoldi...

Yana suv bosib, vayronaga aylangan hojatxona. Garri tashvishi ortiqcha ekani, o‘qituvchi o‘sha manhus¹ darslikni ko‘rmaganiga ishongan holda, Sneggning qop-qora ko‘ziga mantiqqa xilof ravishda tik qarab turibdi, biroq...

– Yuk xaltangni olib kel, – tilyog‘lama silliq ohangda buyurdi Snegg. – Darsliklaringni ham... hammasini, bittasini ham qoldirmay. Shu yerga. Tez!

Gap talashishdan hozir ma‘ni yo‘q. Garri teskari o‘giri-lib, suv shaloplatgancha hojatxonadan chiqdi. Ostonadan hatlab chiqishi bilan Griffindor minorasi tomon yelday uchdi. Ro‘paradan kelayotgan o‘quvchilarning aksariyati boshdan oyoq ho‘l, qonga belangan Garriga hayrat-la baqrayib, ortidan savol yog‘dirib qolishdi. Hech kimga javob bermagan Garri yo‘lini davom etgancha yugurdi.

Hozir uning ichi, xuddi uyda bir umr boqib kelgan mittigina beozor hayvoni kutilmaganda dahshatli maxluqqa aylanib qolgandek ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketgan. Zoti past Shahzoda o‘sha qarg‘ishni yozayotganda nimalar haqida o‘ylagan edi? Axir, bu mas‘uliyatsizlik-ku! Snegg ko‘rib qolsa, nima deydi? Bor gapni Divangardga aytib beradimi? Garrining damlamachilik borasida qo‘lga kiritgan yutuqlari aslida sirli nayrang ekani shu tarzda fosh bo‘lsa-ya?! Garrining ichagi og‘rib ketdi: nahotki uni ko‘p narsalarga o‘rgatgan, o‘ziga xos do‘st, ustoz bo‘lib qolgan kitob endi musodara etilib, yo‘q qilinsa-ya?! Bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi!...

¹ **Manhus** (*arabcha*) – badbaxt, baxtsiz, baxtsizlik keltiruvchi; shumoyoq.

– Qayoqqa ketyapsan?... – so‘radi yotoqxona zinasining tepasiga yetgan Ron. – Nima bu?... Nega boshdan oyoq ho‘l-shalabbo... Qonmi?...

– Menga sening darsliging kerak, – hansiradi Garri. – Damlamachilik bo‘yicha.

Ron yuk xaltasidan o‘zining «Oliy damlamachilik» darsligini chiqarib, Garriga uzatdi.

– Ha... shu... tezroq ber bu yoqqa...

– Hoy, zoti past Shahzodaning...

– Keyin... Hammasini keyin aytib beraman...

Garri darslikni olib, yotoqxonadan umumiy mehmon-xonaga sho‘ng‘idi va kechki ovqatdan erta qaytganlarning hayron nigohlariga e‘tibor qilmay, yuk xaltasini changallagancha, portret to‘sgan tuynukdan otilib chiqib, yettinchi qavat yo‘lagi bo‘ylab o‘qday uchdi.

Raqsga tushayotgan trollar tasvirlangan gobelen yonidan o‘tar ekan, keskin to‘xtab, ko‘zini chirt yumdi-da, o‘zini sekin yurishga majbur qildi:

– Darsligimni yashirib qo‘yadigan joy kerak menga... Darsligimni yashirib qo‘yadigan joy kerak menga... Darsligimni yashirib qo‘yadigan joy kerak menga... – dedi u, tekis devor yonidan uch bor o‘tib.

Garri ko‘zini ochdi. Nihoyat! Eshik! Garri Darkor xonaga kirib, eshikni ichkaridan bekitdi-da, shu zahoti serrayib qoldi.

Ko‘zga ko‘ringan manzara Garrini, garchi hozir u shoshayotgan, Snegg bilan o‘tadigan suhbatdan hayiqayotgan holatda bo‘lsa ham beixtiyor dong qotirdi. Garri kattaligi bosh cherkov xonasidek keladigan xonaga kirib qolgan. Baland derazalardan tushayotgan yorug‘lik ustunlari «Xogvars» o‘quvchilari-ning ko‘pdan ko‘p avlodi tomonidan yashirib kelingan turli-tuman buyumlarning butun boshli shahrini yoritmoqda. Ushbu shaharda singan mebelning liqillab turgan piramidalari orasida hosil bo‘lgan katta-kichik ko‘chalar mavjud. Mebelyo noshud sehrgarlar, yo qasr chiroyini saqlash borasida jon kuydirayotgan uy elflari tomonidan kiritilgan ko‘rinadi. Bu yerda, aftidan, man etilgan yo chizib yuborilgan yoki o‘g‘irlangan minglab kitoblar,

ayrimlari haligacha tirik, ba'zilar uchib yurgan vishillaydigan «tuk arilar», ichidagi damlamasi qotib, sirti darz ketgan shisha idishlar, shlyapalar, bezaklar, ridolar, ajdar tuxumining po'cho-g'i, tiqini mahkam yopilgan bo'lib, ichidagi mudbish suyuqlik yaltirab ko'rinayotgan boshqa shisha idishlar, zang qoplagan shamshirlar, tig'ida qon dog'i qolgan kattagina vazmin bolta va shu kabi minglab buyumlar ko'rindi.

Garri xazinalar orasida hosil bo'lgan «shahar ko'cha-lari»dan biriga tez kirib, bahaybat toll tulum ortida o'ngga burdi-da, qisqa yo'lak bo'ylab yugurdi. O'tgan yili Fred bilan Jorj ichiga Montegyuni qamab, yo'qolib qolishiga sababchi bo'lgan g'oyib qilish javoniga yetganda chapga burilib, asfidan, qachon-lardir ustiga kislota to'kib yuborilganidan sirtida pufakchalar hosil bo'lgan katta bufet yonida to'xtadi. Garri bufetning g'ichirlaydigan eshigini ochdi. Kimdir uning ichiga allaqanday qush qamalgan qafasni kiritgan. Qush allaqachon o'lgan bo'lib, skeletida beshta panja borligi ko'rindi. Garri zoti past Shahzo-daning darsligini ushbu qafas ortiga joylab, bufet eshigini yop-gach, quturib ketganday urayotgan yuragini biroz tinchlantirish uchun shoshmay turdi. Buyumlar uyumi orasida ushbu bufetni topa olarmikan? Garri bufet yaqinida turgan savat qopqog'i ustidagi badbashara azayimxon¹ byustini² changallab olib, bufet ustiga o'rnatdi-da, ko'rinarliroq bo'lishi uchun, haykal boshiga ulama soch, uning ustidan esa xiralashib ketgan soch tojini kiy-dirib qo'ydi. Shundan so'ng chiqish eshigi tomon yugurib, yo'-lakka chiqdi. Yo'lakka chiqishi bilan Darkor xona eshigi g'oyib bo'ldi.

Garri oltinchi qavat tomon yelday uchib, yo'l-yo'lakay Ronning «Oliy damlamachilik» darsligini yuk xaltasiga tiqqan-cha, bir daqiqa o'tar-o'tmas Snegg qarshisida hozir bo'ldi.

Bir og'iz so'z aytmagan Snegg qo'lini Garrining yuk xaltasiga uzatdi. Xaltani uzatgan Garri ko'kragi og'rib hansira-

¹ **Azayimxon** — kasallarga dam solib, sehr-afsunlar o'qib «davolash» ni o'ziga kasb qilib olgan odam.

² **Byust** — odamning beldan yuqori qismining haykali.

gancha qismati nima bilan hal bo'lishini kutib turdi.

Snegg kitoblarni xaltadan bitta-bitta chiqarar ekan, har birini diqqat bilan ko'zdan kechirdi. Navbat nihoyat damlamachilik kitobiga yetdi. Snegg uni boshidan oxirigacha diqqat bilan o'rganib chiqib, oxiri tilga kirdi:

– Sening «Oliy damlamachilik» darsligingmi bu, Potter?

– Xuddi shunday, – javob berdi nafasini hamon rostlay olmagan Garri.

– Ishonching komilmi?

– Komil, – javob berdi Garri, biroz sullohlik ohangida.

– Ya'ni «Jimjimador va siyoh dog'i» kitob do'konidan xarid qilgan darsliging, shundaymi?

– Shunday, – qat'iy javob berdi Garri.

– Unday bo'lsa, nega uning birinchi sahifasiga «Runil Uezlib» deb yozilgan?

Garrining yuragi bitta zarbani o'tkazib yuborganday bo'ldi.

– Bu mening taxallusim, – dedi u.

– Taxallusing? – takrorladi Snegg.

– Ha... do'stlarim shunday deb chaqiradi meni.

– Taxallus nima ekanini yaxshi bilaman, – dedi Snegg, qop-qora ko'zining muzday nigohini Garrining ko'ziga qadab.

Garri ko'zini chetga oldi. Fikr-xayolingni himoya qil... fikr-xayolingni himoya qil... Biroq ming urinmasin, Garri shuning uddasidan hech chiqa olmadi...

– Bilasanmi, Potter, nima degan xayolga bordim men? – dedi Snegg past ovozda. – Fikrimcha, sen uchiga chiqqan kazzob bo'lib, boshing mehnat jazosidan chiqmasligi kerak. Semestr yakuniga yetguncha har shanba kuni huzurimga kelasan. Tushunarlimi, Potter?

– Men... rozi emasman, ser, – javob berdi Garri, Sneggning ko'ziga hamon qaramay.

– Birinchi jazodan keyin qanday sayrashingni ko'ramiz, – dedi Snegg. – Shanba kuni ertalab soat o'nda, mening xizmat xonamga, Potter.

– Biroq ser... – g'udulladi Garri, boshini umidsiz ko'ta-

rib. – Kvidish... shanba kuni mavsumning so'nggi o'yini...

– Shanba kuni ertalab soat o'nda, – pichirladi sariq tishi-
ni ko'rsatgancha irjaygan Snegg. – Oh, baxti qaro «Griffindor»...
Bu yil unga to'rtinchi o'rin nasib qiladigan ko'rinadi...

Ortiq so'z aytmagan o'qituvchi hojatxonani tark etdi.
Darz ketgan ko'zguga ma'yus qarab qolgan Garrining ko'ngli
shu qadar kuchli behuzur bo'lib ketdiki, bunday ahvol Ronning
tushiga ham kirmagan.

Bir soatdan so'ng Garri, garchi ehtiyoj bo'lmasa-da,
Ron, Germiona va Jinnaga bo'lib o'tgan hodisani umumiy meh-
monxonada aytib berdi. Aftidan, Dilgir Mirtl qasrning barcha
hojatxonalarini aylanib chiqib, ko'ngli to'lib g'iybatlashgan
ko'rinadi, yangilik maktab ichida nihoyatda tez tarqadi.

– «Aytgan edim-a!», demay qo'yaveray, a? – dedi
Germiona

– Tinch qo'y uni. – jahl qildi Ron.

Ishtahasi batamom bo'g'ilgan Garri kechki ovqatga
bormadi. Kasalxonada yotgan Malfoyning holidan xabar olib
kelgan Pansi Parkinson yurgan yo'lida Garrini haqorat qilmoqda.
Snegg ham barcha o'qituvchilarni hodisa tafsilotlari bilan tanish-
tirib chiqishni unutmadi. Professor Makgonagall Garrini umumiy
mehmonxonadan yo'lakka chaqirib olib, naq o'n besh noxush
daqqa davomida pand-nasihat o'qib ketdi. Mehnat jazosiga tor-
tish borasidagi Sneggning qarorini qo'llab-quvvatlashini ma'lum
qilib ketgan professor Makgonagallning aytishicha, maktabdan
haydab yuborilmagani Garrining katta yutug'i ekan.

– Aytgan edim-a, Shahzodangga ishonib bo'lmaydi,
deb! – dedi Germiona, oxiri o'zini tiya olmay. – Haq ekanimni
tan ol endi.

– Yo'q, tan olmayman, – o'jarlik-la rad etdi Garri.

Qizning gina-kuduratlarisiz ham hozir Garrining ko'ng-
liga qil sig'maydi. Shanba kungi o'yinda ishtirok eta olmasligini
ma'lum qilganida jamoa a'zolarining yuzlari kasb etgan qiyo-
falar eng yomon jazo bo'ldi. O'shanda u Jinnaning nafrat va
alamga to'la nigohiga ro'baru bo'lmaslik uchun ko'zini olib
qochgan bo'lsa-da, uning yondirib yuborguday nigohini o'z

tanasida hozirgacha his etmoqda. Ikki daqiqa oldin u Jinnaga shanba kuni maydonga «Sayyod» sifatida, Din esa «Ovchi» sifatida chiqishini tayinladi.

««Griffindor» g'olib chiqsa, o'yindan keyingi xursandchilikda Jinna bilan Din yarashib olishi muqarrar», – xayoldan o'tkazdi Garri. Ushbu fikr uning yuragini muzdan yasalgan pichoq singari teshib o'tdi...

– Garri! – xitob qildi Germiona. – O'sha darsligingni oqlashga qanday jur'at eta olyapsan, ahvol...

– Darslik haqida ming'ir-ming'ir qilishni bas qilarmiz, balki, a? – o'shqirib berdi Garri. – Shahzoda o'sha qarg'ishni qayerdandir ko'chirib olgan, xolos! Uni qo'llashni tavsiya etmagan! Ehtimol, u o'ziga qarshi qo'llanilgan qarg'ishni yozib qo'ygandir, biz qayerdan bilamiz!

– Nimalar deyapsan? Nahotki sen?... – hayron bo'ldi qiz.

– Yo'q, o'z qilmishimni oqlayotganim yo'q! – tez aniqlik kiritdi Garri. – Qilmishimdan juda afsusdaman. O'sha qarg'ish bu qadar xavfliligini bilganimda, hatto Malfoyga qarata bo'lsa ham qo'llamagan bo'lar edim va buni sen juda yaxshi bilasan. Shahzodaning ham aybi yo'q bunda. U darslikdagi yozuvlarni birovga emas, shaxsan o'zi uchun yuritib borgan, ya'ni u foydalanuvchiga: «Mana bu qarg'ishni qo'llab ko'ring, rosa zo'r chiqadi!» – deya yozmagan.

– Ya'ni aytmog'chisanki, – dedi Germiona, – darsligingni borib...

– Olib chiqaman, ha, – dedi Garri, o'zini majbur qilib. – Shahzodasiz baxt-u tole damlamasini qo'lga kiritmagan bo'lar edim, Ronni muqarrar o'lim changalidan olib qolmas edim va hech qachon...

– Eng mohir damlamachi mavqesini asossiz qo'lga kirita olmagan bo'lar eding, – jirkanch ohang-la gapni oxiriga yetkazdi Germiona.

– Germiona, ehtimol, tinch qo'yarsan uni, a? – kutilmagan gapga aralashdi Jinna. – To'g'ri tushungan bo'lsam, Malfoy oqibati mudhish qarg'ishlardan birini qo'llamoqchi bo'lgan. Garri munosib javob bera olganidan xursand bo'lsang-chi, undan

ko'ra.

Garri Jinnaga minnatdor nigoh-la qarab qo'ydi.

Garriga ziyon yetmaganidan xursandman, albatta! — javob berdi bahsda yutqizayotganini his etgani bililib qolgan Germiona. — Biroq o'sha Sektumseprada, Jinna, ulug'sifatlik-dan asar yo'q. Qara, Garrini qay ko'chaga boshlab, qay ko'yga solib qo'yganini! Agar qilmishining oqibati jamoa imkoniyatiga bu qadar salbiy ta'sir o'tkazgan bo'lsa, o'ylashimcha...


— Faqat o'zingni kvidish bilimdoni sifatida ko'rsata ko'rma, — labini burishtirdi Jinna. — Uyalib qolishdan nari bora olmaysan.

Garri bilan Ron qizlarga hayrat-la baqrayib qolishdi: munosabatlari hamisha benazir kechgan Germiona bilan Jinna hozir bir-birining ro'parasida, qo'lni ko'krakda qovushtirib, qarama-qarshi tomon o'girilib olishgancha. arazlab o'tirishibdi. Garri tomon qo'roa-pisa qarab qo'ygan Ron, yonidagi kitoblardan qo'liga kirgan birini oldi-da, yuzini bekitib oldi. Garri esa garchi o'zini bunday quvonchga munosib deb topmagan va butun oqshom davomida boshqa hech kim so'z aytmagan bo'lsa-da, ich-ichdan sevinib o'tirdi.

Afsuski, uning quvonchi uzoqqa cho'zilmadi: ertasi kuni slizerinchilarning tahqiriga va undan battari, jamoa sardori o'z ahmoqligi tufayli mavsumning final o'yinida ishtirok etish huquqidan mahrum bo'lgani tufayli g'azabi qaynayotgan griffin-dorchilarning nafratiga chidashga to'g'ri keldi. Garrining o'zi esa Germionaga nimalar deganidan qat'i nazar, shanba kuni ertalab Ron, Jinna va boshqa jamoadoshlari bilan birga bo'lish uchun dunyoda borki baxt-u tole damlamasini bergan bo'lar edi. Hamma yasanib, bayroq va sharflarini hilpiratib, ko'zni qamash-tirayotgan quyosh nuridan yuzini to'sib, o'yingoh tomon borsa-yu, o'zi na o'yin sharhi, na quvonchli hayqiriqlar va na ingrab-uvullashlar eshitiladigan yerosti xonasiga tosh zinadan tushib ketse!

Garrini noxush xonaning eshigini taqillatib, ichkariga kirdi.

— A, Potter.



Snegg bir necha qavat yuqoridagi sinf xonasida dars berayotgan bo'lsa-da, o'zining eski xizmat xonasidan voz kechmadi. Bu yer, odatdagiday, xira yoritilgan bo'lib, turli-tuman shilimshiq qabohatlar rang-barang damlamalar vositasida spirtlangan holatda devorga mahkamlangan tokchalardagi shisha idishlar ichidan Garriga qaramoqda.

Stol ustiga aftidan, Garri uchun mo'ljallangan bo'lib, o'rgimchak ini qoplagan va ko'rinishidan uzundan uzoq, kishining diqqatini oshirib yuboradigan, befoyda og'ir mehnatligi bilinib turgan eski qutilar taxlangan.

– Mana bu eskirib ketgan hujjat jildlarini kimdir tartibga solib berishini mister Filch ko'pdan buyon orzu qilar edi, – dedi Snegg tilyog'malik ohangida. – Ushbu qutilarga maktab intizomini buzib, jazoga tortilgan o'quvchilarga oid qaydnomalar jamlangan. Sendan rangi o'nggan va kemiruvchilar zarar yetkazgan qaydnomalar o'rniga yangilarini rasmiylashtirish, so'ng qaydnomalarning barini alifbo tartibida taxlab, qutilarga qaytadan batartib joylab chiqish talab etiladi. Sehr-jodu qo'llamagan tarzda, albatta.

– Tushunarli, professor, – javob berdi Garri, so'nggi so'z ohangiga imkon qadar ko'proq nafrat qo'shib.

– Ishni esa, – xun olayotgan kishi kabi irjaydi Snegg, tishi orasidan vishillab, – raqami bir ming o'n ikkinchidan tortib bir ming ellik oltinchigacha bo'lgan qutilardan boshla. U yerda tanish ismlarni topasan. Bu esa, o'z navbatida, topshiriq ijrosiga qiziqarli mazmun baxsh etadi. Mana, qara...

U qo'lini tepada turgan qutiga kiritib, qaydnomalardan birini shartta chiqardi-da, o'qidi:

– Xo'sh: «Jeyms Potter va Sirius Blek. Bertram Obriga nisbatan man etilgan suqi qo'llagani uchun qo'lga olindi. Obri-ning boshi ikki barobar shishib ketgan. Ikkala buzg'unchi mehnat jazosiga tortildi». Kishiga xush kelar ekan, – irjaydi Snegg. – O'zlari allaqachon yo'q bo'lib ketishgan bo'lsa-da, o'tmishda namoyon etgan buyuk jasorat namunalariga doir yozuvlar butunicha saqlanib qolgan...

Qoni qaynab ketgan Garri gap qaytarmaslik uchun tishi-

ni tishiga bosdi-da, qutilardan birini o'ziga tortgancha o'tirdi.

Ish, Garri faraz qilganday zerikarli va foydasiz kechdi. Ayni vaqtda, otasi bilan Siriusning qilmishlariga duch kelganda, har gal qalbi og'riq sezib o'tirdi. Aftidan, Snegg, aynan shuni ko'zlagan ko'rinadi. Odatda, otasi bilan Sirius ikkalasi, ba'zan esa Rem Lyupin yoki Piter Pettigryu ishtirokida har xil mayda bezoriliklar bilan qo'lga tushgan. Turli-tuman qilmishlar va qo'llanilgan jazolarga oid ma'lumotlarni qayta ko'chirib o'tirar ekan, ko'chada nima bo'layotgani haqidagi xayollar uni biron daqiqa bo'lsin, tark etmadi... o'yin boshlangan... Jinna «Sayyod» sifatida Chuga qarshi...

Garri devorda osiqlik katta soatga qarab-qarab qo'y-moqda. Baland chiqillayotgan ushbu soat odatdagidan ko'ra ikki barobar sekin yurayotganday go'yo. Balki, Snegg atayin sehrlab qo'ygandir uni? Bo'lishi mumkin emas, bu yerga kelganiga endi yarim soat bo'ldi... bir soat... bir yarim soat...

Soat o'n ikki yarimda Garrining qorni g'uldiradi. Topshiriq berganidan buyon biron og'iz so'z aytmagan Snegg soat birdan o'n daqiqa o'tganida boshini ko'tardi.

– Bugunga yetadi, – dedi u sovuq ohangda. – To'xtagan joyingni belgilab qo'y. Kelasi shanba kuni ertalab soat o'nda davom etasan.

– Xo'p bo'ladi, ser.

Garri bukilgan qaydnomani qutilarning to'g'ri kelgan biriga shartta suqdi-da, Sneggning fe'li aynimay turib, xonani tark etdi. Zinadan yuqoriga otilar ekan atrofga diqqat bilan quloq solib, o'yingohda nima bo'layotganini tushunib yetishga urinib bordi. Jimjitlik... demak, hammasi tamom bo'lgan...

U Katta Zal oldida biroz ivirsib turdi-yu, marmar zina bo'ylab yuqoriga yugurdi: griffindorchilar o'z g'alabasini ham, mag'lubiyatini ham umumiy mehmonxonada qarshi olishni afzal ko'rib kelishgan.

– Quid agis? – tortinib so'radi u «Semiz Xola»dan, ichkarida nima bo'layotganini fahmlashga urinib.

– O'zing ko'rasan, – javob berdi, yuzidagi qiyofa ma'nosini tushunib bo'lmaydigan «Semiz Xola» biroz oldinga

tebranib.

Portret ortidagi tuynukdan quvonchli o'kirik yangradi. Odamlar oqimi shiddat-la kelib, ichkariga tortib olar ekan, Garri oh urishga ulgurdi qoldi, xolos.

– Biz yutdik! – o'kirdi xaloyiq orasidan otilib chiqqan Ron, kumush kubokni siltab. – G'alaba qozondik! To'rt yuz ellig-u bir yuz qirq! Biz yutdik!

Kutilmaganda ko'zida olov yonayotgan Jinna yugurib kelib, ikkala qo'li bilan Garrini mahkam quchib oldi. Garri esa ikkilanmay, shubhalanmay, ellik kishi qarab turganini parvoyiga ham keltirmay qizni mahkam quchib, shartta o'pib oldi.

Uzoq cho'zilgan bir necha soniya, ehtimol, yarim soat, balkim, ikki quyoshli kun o'tgach, ikkalasi bir-biridan ajralishdi. Mehmonxonada o'lik sukunat qaror topdi. Shundan so'ng past hushtaklari-u hiring-hiring eshitildi. Garri boshini ko'tarib Jinna-ning boshi uzra qo'lidagi qadahni ezib yuborgan Din Tomasni va qo'liga kirgan narsani uloqtirishga tayyor turgan Romilda Veynni ko'rdi. Germiona yashnab ketgan, lekin... Ron ko'rinmaydi. Ha, mana u. Kubokni hamon boshi uzra baland ko'tarib olgan Ron, birov so'yil bilan uning boshiga qo'yib yuborganday gandaraklab qolgan. Bir necha soniya ikkalasi bir-biriga qarab turgach, nihoyat Ron: «Bo'lar ish bo'ldi, iloj qancha...» degan-day, sezilar-sezilmas bosh iringib qo'ydi.

Ichidagi maxluq tantana qilganday o'kirib yuborgan Garri Jinnaga kulib boqib, qo'ldan ushladi-da, so'z aytmay, portret tomon tortib ketdi. Ikkalasi bugun qasr atrofida uzoq sayr qilishi kerak. Ehtimol, bugungi o'yinni ham muhokama qilishga ulgurib qolishar, agar vaqt yetsa, albatta.

BASHORATI ESHITILGAN SOHIBKAROMAT

Garri bilan Jinnaning muhabbatiga oid mavzu ko'pchilikning, ayniqsa, qizlarning qizg'in bahsiga sabab bo'ldi. Mish-mish gaplarga e'tibor qilmay qo'yganini fahmlagan Garri o'zidan o'zi hayratlandi. Allaqanday xunuk ishlar uchun emas, aynan baxtli bo'lgani uchungina g'iybat qilishlari Garriga qaysidir ma'noda yoqimli ham ko'rindi.

Bolalar umumiy mehmonxonada yig'ilgan. «Bashorat-u karomat gazetasi»ni o'qib o'tirgan Jinna Garrining oyog'iga beli bilan suyanib olgan.

– Muhokama qilgani boshqa gap yo'qmikan, ularga? dedi u, gazeta sahifasini erinchoqlik-la ag'darib. – Bir haftaning o'zida dementorlar tomonidan sodir etilgan uchta hamla, Romilda Veynni esa faqat bir narsa qiziqtiradi, u ham bo'lsa, chindan ham, ko'kragingga gippogrif tasviri tushirilgan-tushirilmagani.

Ron bilan Germiona xandon otib yuborishdi.

– Xo'sh, nima deb javob berding, unga?

– Gippogrif emas tikanak dumli vengr ajdari tasvirlanganini aytdim, – dedi Jinna. – Xuddi haqiqiy machoning ko'kragi singari.

– Bag'oyat minnatdorman, – kulib boqdi Garri. Ronning tanasiga-chi, nima tasvirlangan ekan?

– Pigmey sharchalari, – javob berdi qiz. – Lekin qayeriga tasvirlanganini ularga aytmadim.

Germiona kulaverib qornini ushlab qoldi. Ron esa qovoq solib oldi.

– Qaranglar-da, – po'pisa qildi u, Garri bilan Jinnaga barmoq o'qtab. – Ruxsatimni qaytarib olmay tag'in...

– Ruxsatim emish, – istehzo qildi Jinna. – Qachondan buyon sening ruxsating kerak bo'lib qolibdi ekan menga? Esingda bo'lsa, Din yoki Maykldan ko'ra Garri yaxshiroq, deb o'zing aytgan eding.

– Ha, aytgan edim. – istar-istamas iqrar bo'ldi Ron, –

lekin hammaning ko'z o'ngida o'pisha boshlashingizdan oldin aytgan edim...

– Jirkanch riyokor! Lavanda ikkalang-chi? – e'tiroz bildirdi Jinna – Bir juft ilonbaliqday to'g'ri kelgan joyda birlaringga yopishib yurdilaring-ku!

Iyun oyi kirib kelib, Ronning sabr-toqatini og'ir sinovdan o'tkazish shart bo'lmadi. Garri bilan Jinna ilgarigiga nisbatan vaqtni birga ancha kam o'tkazishmoqda. MOSDning zaruriy saviyasiga ega bo'lish imtihoni yaqinlashayotgani bois Jinna yarim kechagacha dars tayyorlashga majbur. Qiz oqshomni kutubxonada o'tkazayotgan kunlardan birida Garri go'yo gerbologiya bo'yicha uyga berilgan vazifani bajarish bilan band bo'lib, aslida Jinna bilan tushlik o'rniga ko'l bo'yida baxtiyor o'tgan yana bir soatni eslab o'tirdi.

Kutilmaganda jiddiy va qat'iy qiyofa kasb etib olgan Germiona kelib Garri bilan Ronning o'rtasiga o'tirib oldi.

– Garri, sen bilan gaplashib olishim kerak, – dedi qiz.

– Nima haqda? – darhol sergak bo'lib oldi Garri.

Jinnaga imtihonga tayyorgarlik ko'rib olishiga xalal berayotgani uchun Germiona Garrini kechagina koyib bergan edi.

– Anavi zoti past Shahzodang haqida, – javob berdi Germiona.

– Obbo, yana o'sha eski qo'shiq, – ingradi Garri. – Unutsang-chi, o'shani!

– Yo'q, – dedi Germiona qat'iy ohangda. – Toki aytmoqchi bo'lgan gapimni oxirigacha eshitmas ekansan, unutmayman. Qisqasi, yovuz sehr qarg'ishlarini ixtiro qilishni o'ziga kasb etganlar kimlar bo'lishi mumkinligini oydinlashtirib chiqishga urinib ko'rdim...

Garri zoti past Shahzodaning Darkor xonada qoldirilgan darsligini olib chiqishga oshiqmayapti, sehrli damlamalar tayyorlash mashg'ulotlarida ham endi u ko'zga tashlanmay qo'ydi. Garrining nazarida, Snegg o'sha darslikni qo'lga kiritish payida yuribdi. Shuning uchun ham Garri hozircha kitobni bekitilgan joyida qoldirishga ahd qilgan. Jinnani juda yoqtiradigan bexabar Divangard hozircha: bechora kuyov bola sevgi-muhabbat dardi-

ga chalinib, es-hushini yo'qotib qo'ygan ko'rinadi, – deya hazillashmoqda, xolos.

– O'sha yigit yovuz qarg'ish ixtiro qilishni o'ziga kasb etmagan... dedi Garri.

– Yigit? Kim aytdi senga uni o'g'il bola deb? – e'tiroz bildirdi Germiona.

– Ushbu masala ham muhokama qilingan, Germiona. Zoti past Shahzoda o'g'il bola, ishonaver!

Germionaning ikki lunji qizara boshladi.

– Ha, muhokama qilingan! – ovoz ko'tardi u, kissasidan chiqargan eski gazeta bo'lagini Garrining oldiga tashlab. – Mana, qara! Rasmga qara!

Garri ezilgan bo'lakni qo'lga olib, harakatchan tasvirga qaradi. Ron ham qiziqib, Garriga yaqinroq surildi. Yillar o'tib sarg'ayib ketgan gazeta bo'lagida yoshi taxminan o'n beshga yetgan qizaloq rasmi tasvirlangan. Xunuk qizaloqning xo'mraygan rangpar yuzi cho'ziq bo'lib, qoshi juda qalin o'sgan. Fotosurat ostiga yozuv bitilgan: *«Shahzoda Eylin, «Xogvars»ning shaqildoq o'yini bo'yicha jamoasi sardori»*.

Garri, maktabda o'tkazilgan musobaqaga oid qisqagina, zerikarli maqolachani tez o'qib chiqdi.

– Xo'sh? – so'radi u.

– Eylin ismli qizning familiyasi Shahzoda bo'lgan Garri! E'tibor qildingmi, Shahzoda Eylin!

Ikkovlon bir-biriga uzoq qarab qoldi. Nihoyat Garri Germiona nima demoqchi bo'lganini fahmladi.

– Bo'lishi mumkin emas! – kulib boqdi u.

– Nega endi bo'lishi mumkin emas ekan?

– O'sha qizni zoti past Shahzoda demoqchisan? Qo'y-sang-chi, Germiona.

– Nega endi qo'yishim kerak? Sehrgarlar elatida haqiqiy shahzodalar bo'lmaydi, Garri! Demak, bu yo taxallus, yo kimdir o'zini o'zi taqdirlashga ahd qilgan to'qima nasliy nom, yo haqiqiy familiya bo'lgan, to'g'rimi? Yo'q, sen quloq sol. Aytaylik, uning otasi Shahzoda familiyali sehrgar, onasi esa mag'l ayol bo'lgan. Demak, u chalakam-chatti Shahzoda bo'lgan, shun-

daymi?

– Gap bo‘lishi mumkin emas... – dedi Garri.

– Ehtimol, o‘sha qiz, chindan ham, o‘z familiyasi bilan g‘ururlanib yurgandir! – taxmin qildi Germiona.

– Quloq sol, Germiona. Aniq bilamanki, zoti past Shahzoda qiz bola bo‘lmagan. Bilaman, vassalom.

– Va buning sababi ayon: qizlarni nazaring ilmaydi, dedi Germiona zaharli ohangda.

– Ha, albatta. Besh yil sen bilan muomala qilib, qizlar faqat tovuq miya bo‘ladi, degan fikrga kelganman, – javob berdi Garri, xafa bo‘lib. – Yo‘q, gap shundaki, u o‘g‘il bolalarga xos tarzda yozadi, men buni his etaman! Anavi Eylin esa... qayerdan topding uni o‘zi?

– Kutubxonadan. U yerda «Bashorat-u karomat gazetasini»ning eski sonlari yig‘ilgan... Yaxshi, o‘sha qiz to‘g‘risida ko‘proq narsalar bilib olishga urinib ko‘raman.

– Omad, – dedi Garri achchiqlanib.

– Rahmat, – javob berdi Germiona, pinagini buzmay. – Birinchi navbatda, – dedi u, portret to‘sgan tuynukka yetgach, – damlamachilik borasida erishilgan muvaffaqiyatlar uchun taqdirlanganlar haqidagi arxiv materiallarini o‘rganib chiqaman!

Garri qovoq solgancha qizning izidan qarab qo‘ydi-da, qorayib borayotgan osmonni tomosha qilishga kirishdi.

– Ma‘lum bir fanni o‘zlashtirish masalasida undan o‘zib ketganing uchun o‘zini o‘zi hech kechira olmayapti, – g‘udulladi Ron, yana «Mingta sehrli alaf va qo‘ziqorinlar» kitobini o‘qishga kirishib.

– Umid qilamanki, loaqal, sen, o‘z darsligimni olib chiqqim kelgani uchungina meni ahmoq, deb o‘ylaysan, shundaymi?

– Yo‘q, albatta! – xitob qildi Ron, qizishib. – Avliyo odam bo‘lgan, sening o‘sha zoti past Shahzodang... agar bezoar to‘g‘risida yozmaganida... – dedi u, kaftini tomog‘i oldidan ma‘nili o‘tkazib, – sen bilan bunday gaplashib o‘tirmagan bo‘lar edim. Aytmoqchimanki, Malfoyga qarshi qo‘llagan qarg‘ishing yaxshi qarg‘ish emas ekan...

– Men ham shuni aytaman, – tez qistirib o'tdi Garri.
– Muammosiz tuzalib qoldi-yu u, a? – so'radi Ron. --
Yangiday bo'lib?

– Ha, – bosh irg'idi Garri. Xayriyatki, Snegg kelib
qoldi... rahmat, o'shanga...

Vijdon qiynasa-da, iloj qancha, chindan ham, shunday
bo'lgan.

– Kelas shanba kuni yana mehnat jazosimi? – so'radi
Ron.

– Undan keyin keladigan barcha shanba kunlari ham, –
xo'rsindi Garri. – Yana shunga shama qilyaptiki u, agar o'quv
yili oxirigacha ulgurmasam, jazo o'tashni yettinchi sinfda davom
etaman ekan.

Jinna bilan o'tkazishi mumkin bo'lgan qimmatli vaqtini
egallagani bois ushbu mehnat jazolari Garrining achchig'ini
chiqarmoqda. Uning nazarida, Snegg buni juda yaxshi tushunib,
yoqimli havo va boshqa turdagi lazzatlarni o'tkazib yuboryapsan
kabi purma'no luqmalar tashlagancha, uzoqroq ushlab qol-
moqda.

Qo'liga pergament o'ramini ushlab kelgan Jimmi Piks
Garrini alamli mulohazalardan chalg'itdi.

– Rahmat, Jimmi... Iye, Dambldordan-u! – hayajon-la
xitob qildi Garri, nomani yozib, ko'zi satrlar bo'ylab yugurar
ekan. – Xizmat xonasiga imkon qadar tezroq yetib borishimni
so'ramoqda.

Ron ikkalasi bir-biriga baqrayib qolishdi.

– Jin ursin, – pichirladi Ron. – Nahotki u?... Nahotki
topgan bo'lsa?

– Hozir yugurib borib, bilib kelaman, – kreslodan irg'ib
turdi Garri.

U umumiy mehmonxonadan sakrab chiqib, yettinchi
qavatning yo'lagi bo'ylab tez odimlay ketdi. Yo'lda Dryuzgdan
tashqari hech kim uchramadi. Qarshi yo'nalishda uchi ketayot-
gan poltergeyst o'z odatiga ko'ra, Garrining ustiga bo'r bo'lak-
larini ulotirib, baland kulgancha, suqi yashiniga chap berdi.
Dryuzg ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan qavatda jimjitlik qaror

topdi. Uyquga yotish vaqtigacha o'n besh daqiqa qolgani bois tabiiyki, hamma o'z umumiy mehmonxonasiga kirib ketgan.

Qanday... jur'at... a-a-a-a-a!

Kutilmaganda ayyuhannos va gumburlagan tovush yangradi. Garri to'xtab, quloq tutdi. Sehrli tayogchasi qo'lga olib, ovoz eshitilgan tomon yugurdi va uyulish ortiga burilishi bilan polda yotgan professor Trelanini ko'rdi. Ayolning boshiga sholro'moli o'ralib qolgan, yonida sochilib yotgan xeres vinosining shishalaridan biri singan.

Professor...

Garri son-sanoqsiz mayda marjonlarning yaltirayotgan bir necha shodasi ko'zoynagiga ilashib qolgan o'qituvchining yoniga tez borib, oyoqqa turishga yordamlashib yubordi. Hiqichog'i tutib qolgan professor sochini tuzatgan bo'lib, Garrining uzatgan qo'lini ushlagancha, o'rnidan turdi.

– Tinchlikmi, professor? Nima bo'ldi?

– So'rashga jur'at etyapsanmi? -- quloqni teshib yuborguday chiyilladi Trelani. -- Yo'lakda tinchgina, o'zinga ayon bo'lgan yomonlik alomatlari haqida mulohaza yuritib ketayotgan...

Qayerda turganini fahmlagan Garri ayolning gapini eshitgani ham yo'q. O'ng tomonda raqsga tushayotgan trollar tasvirlangan gobelen osig'liq bo'lsa, chap tomonda sip-silliq tosh devor cho'zilgan bo'lib, uning ortida...

– Professor, siz Darkor xonaga kirmoqchi edingizmi?

... alomatlardan esa menga aniq ko'ringani... Nima? so'radi ayol, kutilmaganda ko'zi o'ynab.

– Darkor xona haqida so'rayapman. U yerga kirmoqchi edingizmi?

Men... qarang-a!... O'quvchilar ham ushbu xona borligidan boxabarligini bilmagan ekanman...

– Hammasi ham bilmaydi, -- dedi Garri. -- Nima bo'lganini gapirib bera olasizmi? Siz qichqirdingiz... kimdir sizni xafa qildimi?

Meni...

Professor Trelani xuddi o'zini o'zi himoya qilmoqchi

bo'lganday, sholro'molini zichroq o'rab, ko'zoynagining linzasi juda kattalashtirib yuborgan ko'zini Garriga ko'tardi.

– Men... Men... ayrim shaxsiy buyumlarimni yashirib qo'ymoqchi edim...

Ayol allaqanday yovuz kuchning «darg'azab bo'htonlari» haqida vaysay ketdi.

– Tushunarli, – dedi Garri, xeres shishalariga qarab. – Biroq ichkariga kira olmadingiz, shundaymi?

Bularning bari juda g'alati. Axir, xona zoti past Shahzodaning darsligini yashirish kerak bo'lganda ochilgan edi-yu.

– Kirishga-ku, kirdim, – devorga nafrat-la qaradi professor Trelani, – lekin ichkariga mendan oldin kimdir kirib olgan ekan...

– Kirib olgan ekan? Kim? – talab ohangida so'radi Garri.
– Kim bor edi ichkarida?

– Bilmayman, – dedi professor Trelani, Garrining qat'i-yatidan esankirab. – Ichkariga kirishim bilan ovoz eshitdim, garchi ko'p yillardan buyon men bu yerda... bu yerdan foydalanar ekanman... hali bunaqasi bo'lmagan...

– Ovoz eshitdim? Kim nima dedi?

– Nima dedi? U hech narsa degani yo'q... quturib ketganday hayqirdi, – javob berdi professor Trelani.

– Hayqirdi?

– Quvonchdan, anqlik kiritdi ayol.

Garri professorga baqrayib qoldi.

– Erkak kishining ovozi edimi yo ayol kishining?

– Erkak kishining ovozi edi deya taxmin qilishim mumkin, xolos.

– Demak, u nimadandir quvongan, shundaymi?

– Quturganday quvongan, – javob berdi professor jirkanib.

– Nimanidir nishonlagan kabi shundaymi?

– Aftidan, shunga o'xshaydi.

– Keyin-chi?...

– «Kim bor bu yerda?» – deya qichqirdim.

– Baqirmasdan bilib olishning iloji yo'qmidi kim

borligini?

– Mening Ichki ko‘zim, – dedi professor Trelani sholro‘moli va marjon shodalarini g‘urur-la tuzatib olar ekan. Yerdan yuz berayotgan hodisalardan ancha uzoqdagi mavzularga yo‘nalgan edi.

– Tushunarli, – bosh iring‘idi Trelanining Ichki ko‘zi to‘g‘risida ko‘p eshitgan Garri. – Xo‘sh, qichqirig‘ingizga javob berdimi? Kimligini aytdimi?

– Yo‘q! – ovoz ko‘tardi ayol. – Ko‘z oldim qorong‘ilashib, xonadan boshim bilan uchib chiqdim!

– Iye, bunday bo‘lishini oldindan, Ichki ko‘zingiz ila ko‘ra bilmadingizmi? – tilini tiya olmadi Garri.

– Yo‘q, aytdim-ku ko‘z oldim qorong‘ilashib ketdi, deb. Sohibkaromat ayol jim bo‘lib, Garriga shubhali qarab qoldi.

– Fikrimcha, bularning barini professor Damblidorga aytib berishingiz kerak, dedi Garri. – Malfoy... ya‘ni aytmoqchimanki, sizni yo‘lakka uloqtirib yuborgan kimsa nimani nishonlaganini direktor bilishi kerak.

– Direktor men bilan muloqot vaqtini qisqartirgan, – sovuq ohangda javob berdi professor Trelani Garrini hayratga solgan holda qaddini g‘oz tutib olib. – Men esa qadringa yetmaydigan odamlarga suykadiganlar toifasiga kirmayman. Modomiki, Damblidorga, qartalarning ogohlantirishiga e‘tibor qilmaslikni afzal topar ekan...

Kutilmaganda ayolning qoq suyak barmoqlari Garrining bilagiga botdi.

– Qartani qanday terma, takror va takror...

Sohibkaromat ayol sholro‘mol qatidan qarta chiqarib, pichirlay ketdi:

– ... minora, yashin urgan minora. Halokat. Baxtsizlik. Har safar muddati yaqinlashmoqda...

– Tushunarli, – yana bosh iring‘ib qo‘ydi Garri. – Umuman aytganda... Damblidorga ichkarida eshitilgan o‘sha ovoz va ko‘z oldingiz qorong‘ilashib, Darkor xonadan uloqtirib chiqarilganingiz haqida aytganingiz ma‘qul, deb o‘ylayman.

– Shunday qilaymi? – o‘ylanib qoldi professor Trelani.

U hozirgina bo‘lib o‘tgan hodisani kimgadir aytib bergisi kelayotganini Garri fahmladi.

– Men direktorning qabuliga ketyapman. Uchrashuv tayinlangan menga, – ma‘lum qildi Garri. – Balkim, birga borarmiz?

– Unday bo‘lsa, mayli, – kulib boqdi professor Trelani.

Ayol engashib, shishalarni terib oldi-da, biroz bo‘lsa ham achinmay, devor mehrobida turgan ko‘k-oq rang chiqindi savatiga tashladi.

– Darslarimda yo‘qliging juda bilinadi-da, Garri, – gap boshladi o‘qituvchi dilkash ohangda. – To‘g‘ri, sen hech qachon ma‘nili Ko‘ra bilmagansan, lekin juda ajoyib Ko‘rish obyekti bo‘lgansan...

Bir vaqtlar fojiasi cheksiz karomatlar obyekti bo‘lish joniga tekkan Garri indamay qo‘ya qoldi.

– Anavi qirchang‘i ot, – davom etdi professor Trelani, – ma‘zur tutasan, kentavr esa qarta vositasida fol ochish masalasida har qanday jonivordan mutlaqo farq qilmaydi. Yaqinlashib kelayotgan musibatni his etayotgan-etmayotganini sohibkaromat sohibkaromatdan so‘raganday so‘ragan edim undan. Ot esa ustimdan miriqib kuldi! Kuldi-ya!

Asabiy baqira borayotgan ayolning og‘zidan xeresning hidi gupullab bormoqda.

– Iste‘dodimni cnamning enasidan meros olganimni to‘rt oyoqli o‘sha ahmoq eshitgan bo‘lishi kerak. Hasadgo‘ylar, o‘g‘lim, atrof hasadgo‘ylarga to‘lib-toshgan. Bilasanmi, ularga nima deb javob qaytaraman, Garri? Agar foydali kishi ekanimni isbotlab bermaganimda, direktor menga, ushbu ajoyib maktabimizda ishlashim uchun o‘qituvchilik lavozimini bergan bo‘lar edimi? Uzoq yillar davomida menga ishonch bildirgan bo‘lar edimi?

Garri mubham g‘uldirab qo‘ydi.

– Dambldor bilan o‘tgan ilk uchrashuvimizni yaxshi eslayman, – davom etdi professor Trelani. – U mening iste‘dodimdan shunday qoyil qolgan ediki, shunday qoyil qolgan ediki...

O'shanda men «Axta cho'chqa kallasi» qovoqxonasida ijaraga xona olgan edim. Tavsiya etmayman, Garri, burgasi ko'p... lekin narxi mo'tadil... ha... Dambldor hurmatimni bajo keltirib, kam-suqum xonamga tashrif buyurdi... bir olam savol yog'dirdi... Tan olishim kerakki, dastlab menga u bashorat masalasiga sovuqqon qaraydigan kishiday bo'lib ko'rindi... kutilmaganda... o'sha kuni kamroq ovqat yeganim bois o'zimni yaxshi his etmaganim esimda... keyin...

Hikoyaning shu yeridan e'tiboran Garri diqqat bilan tinglay boshladi. Keyin nima bo'lganini Garri yaxshi biladi: Trelani Voldemort ikkalasi haqida shunday bashorat qilgan ediki, Garrining hayoti mutlaqo o'zgarib ketdi.

... beadablik qilgan Severus Snegg suhbatimizga xalal berdi!

- Nima?

- Ha. Ortida shovqin ko'tarilgan eshik lang ochilib, ostonada tarbiya ko'rmagan qovoqxona barmeni va qandaydir be-ma'ni narsalarni ro'kach qilib, zinani adashtirib yuborganini aytgan Snegg ko'rindi... Ammo gap nimada ekanini, aslida Snegg Dambldor ikkalamizning suhbatimizni pinhon eshitib olishni istaganini men yaxshi bilar edim. Gap shundaki, o'sha kunlari Sneggning o'zi ish qidirib yurgan va suhbatni yashirincha eshitib, biron-bir qimmatli ma'lumotdan boxabar bo'lishdan umid qilgan! Ishonasanmi, o'sha fursatdan keyin Dambldorning fikri birdan o'zgarib, meni ishga qabul qiladigan bo'ldi! Nazarimda, Garri, mening kamtarinligim, sezilar-sezilmas iste'dodim bilan eshik tirqishidan gap poylashdek pastkashlikdan qaytmaydigan yigitning beorligi-yu, pashshaxo'rdaligi o'rtasidagi farq shu qadar yaqqol ko'zga tashlanganki, Dambldor... Garri, o'g'lim?

Ayol alanglab, Garri yonida emasligini, undan o'n futcha nariga ketib qolganini endi idrok etdi.

- Garri? - chaqirdi professor Trelani ikkilanib.

Turgan joyida qotib qolgan Garri butun vujudi ila dahshatli ruhiy larza to'ldirgan ketma-ket berilayotgan zarbalarini his etmoqda. Undan buni uzoq, juda uzoq yashirib

kelishgan ekan...

Bashoratni pinhon eshitib olgach, sohibining huzuriga yugurib borib aytib bergan Voldemortning ablah malayi shu ekan-da! Qotilni Lili, Jeyms va ikkalasining yagona o'g'liga qarshi Snegg bilan Piter Pettigryu yo'llagan ekan-da...

Boshqa narsalarning bari o'z ma'nisini yo'qotdi.

– Garri? – takror chaqirdi professor Trelani. – Garri... professor Damblorning qabuliga ketayotgan edik, shekilli.

– Shu yerda turing, – dedi Garri, uvushib qolgan labini bazo'r harakatlantirib.

– Lekin azizim... meni xo'rlashgani borasida arz qilmoqchi edim-ku, axir, men...

– Shu yerda qilt etmay turing, – g'azab ohangida takrorladi Garri.

Qo'rqib ketgan ayol qoqilgan qoziqday turgan joyida qotib qoldi. Garri Trelanining yonidan yugurib o'tib, muyulish ortiga, ajdar tusli tosh ilon tanho o'zi qorovullik qiladigan yo'lakka burildi. Parolni qichqirgan Garri aylana zinaning uchta-dan pog'onasini sakrab o'tib, direktorning eshigini darang'latdi. Xotirjam ovoz: «Kiring» degani zahoti xonaga uchib kirdi.

Qaqnus Yangus hayron bo'lib boshini eshik tomon burdi. Qushning shafaq aks etgan yorqin qora ko'zi tilla tusda yaltiramoqda. Qo'liga qora rang safar ridosini ushlab olgan Damblor deraza oldida turgancha, ko'chani tomosha qilmoqda.

– Xo'sh, Garri, seni o'zim bilan olib ketishni va'da qilgan edim.

Garri dastlab hech nimani tushunmadi. Trelanining hikoyasi sabab, uning miyasida bo'lgan narsalarning bari uchib chiqqanday go'yo.

– O'zingiz bilan?... Men siz bilan?...

– Istasang, albatta.

– Agar men...

Shundagina u, Damblorning huzuriga nima sababdan oshiqqanini esladi.

– Topdingizmi? Ruhdonni topdingizmi?

– O'ylashimcha, shunday.

Ichida g'azab-u dilsiyohlik bilan hayajon va qiziqish orasida kuchli kurash kechayotgan Garrining tili qiyin aylanmoqda.

– Biroz cho'chigan ko'rinasan. Bu tabiiy hol, albatta, – dedi Damblдор.

– Yo'q, hech ham cho'chiganim yo'q! – ovoz ko'tardi Garri.

U to'g'risini aytdi. Hozir nimani his etayotganini o'zi aniq bilmaydi-yu, har qalay, u his qo'rquv hissi emas.

– Ruhdonlardan qaysi biri? Qayerda u?

– Qaysi biri ekanini aniq bilmayman, lekin ilon emasligi aniq, har qalay. Taxminimcha, ruhdon bu yerdan ko'plab milya uzoqda, dengiz sohilidagi, men ko'pdan buyon qidirgan, bir vaqtlar Tom Reddl yetimxonada birga o'sgan ikki nafar bolani qo'rqitgan g'orda. Har yilgi qishloq sayli esingdami?

– Esimda, – bosh iring'idi Garri. – Qanday himoya choralari qo'llanilgan ekan?

– Bilmadim. Taxminim bor-u, lekin u noto'g'ri bo'lib chiqishi ham mumkin. Garri, seni o'zim bilan olib borishga va'da qilganman va o'sha va'dam ustidan chiqaman, biroq ogohlantirib qo'yishim zarurki, sayohatimiz o'ta xavfli bo'ladi.

– Men siz bilan boraman, – dedi Garri, hali Damblдор gapini tugatmay turib.

So'nggi bir necha daqiqa ichida Severusga nisbatan nafrat hissi Garrining ich-etini tilka-pora qilib, qandaydir xavfli, tap-tortmas ish qilish istagini o'nlab barobar oshirib yubordi. Aftidan, uning ahvoli yuzida aks etgan ko'rinadi, derazadan sal uzoqlashgan Damblдор Garriga diqqat-la razm solib, qoshini chimirdi.

– Senga nima qildi?

– Hech nima, – o'ylab-netib o'tirmay yolg'on gapirdi Garri.

– Dilingni nima ranjitdi?

– Hech nima.

– O'vora bo'lma, Garri, okklumensiya masalasida deyarli hech qanday muvaffaqiyatga erishmagansan.

Damblorning shu gapi Garrining g'azabini o'tatib yuborgan uchqun bo'ldi.

– SNEGG – baland baqirdi Garri, orqasidagi Yangusni ovoz chiqarishga majbur qilib. – O'shandan boshqa kim ham ranjitishi mumkin meni! Bashoratni o'sha ablah yetkazgan Voldemortga! Eshik ortida pinhon eshitib turgan nusxa o'sha bo'lgan! Trelani aytib berdi menga.

Botayotgan quyoshning qizg'ish nuri yoritgan bo'lsa-da, Damblorning xotirjam qiyofasi o'zgarmas qolib, yuzining rangi, Garrining nazarida, biroz o'chgan bo'ldi.

– Qachon xabar topding bundan? – nihoyat so'radi Damblor, uzoq sukut saqlab turgach.

– Hozirgina!

Garri baqir-chaqir qilib yubormaslik uchun o'zini idora qilishga urindi-yu, bo'lmadi:

– VA SHUNGA QARAMAY, SIZ UNI O'QITUVCHI LAVOZIMIGA OLDINGIZ! VOLDEMORTNI OTA-ONAM-NING UYIGA YUBORGAN BO'LISHIGA QARAMAY-Ya?!

U pinagi buzilmay, xona bo'ylab u yoq bu yoq yura boshlagan Damblorga teskari o'girilib oldi. Kurashdan so'ng hansirayotganday og'ir nafas olib, ko'ziga ko'ringan narsani pacha qilishdan o'zini bazo'r tiygancha, barmoqlarini o'ynatmoqda. Hozir uning yagona istagi g'azab otiga minib olgancha, Damblorga xumoridan chiqib qichqirish-u, u bilan birga borib ruhdonni olib kelish istagi yanada kuchlilik qilmoqda. «Faqat miyasini yeb qo'ygan qari ahmoqqina shuncha yildan buyon Snegg Severusga ishonib kelishi mumkin», demoqchi bo'lib turibdi-yu, o'zini idora qilib olmaydigan bo'lsa, direktor uni o'zi bilan olib ketish fikridan qaytib qolishidan cho'chidi...

– Garri, – past ovozda gap boshladi Damblor, – iltimos, gapimga quloq sol.

Yurishdan to'xtash qichqiriqni tiyishday qiyin kechmoqda. Garri labini tishlab, to'xtadi-da, Damblorning ajin qoplagan yuziga qaradi.

– Professor Snegg juda mudhish...

– Faqat iltimos, ser. xatoga yo'l qo'ygan demang. U

atayin eshik ortida yashirincha quloq tutib turgan.

– Iltimos, gapimni oxiriga yetkazishga imkon ber, – dedi Damblдор, davom etish uchun Garrining bosh iring'ib qo'yishini kutib. – Professor Snegg juda mudhish xatoga yo'l qo'ygan. Bashoratning birinchi yarmini eshitib qolganida u hali Lord Voldemortning xizmatida bo'lgan va tabiiyki, sohibining huzuriga oshiqib, eshitganlarini oqizmay-tomizmay aytib bergan. Chunki o'sha gaplarning bari bevosita sohibiga daxl qilgan. Biroq Voldemort chaqaloqlardan qaysi biriga ov boshlashi mumkinligini professor Snegg bilmagan, aniqroq aytiladigan bo'lsa, bilish imkoni unda bo'lmagan. Berilib ketganidan go'dakning ota-onasi o'ldirilishi, u kishilar esa o'zining eski tanishlari, ya'ni sening ota-onang bo'lib chiqishini u tasavvur ham qila olmagan...

Garri istehzoli kulgisi qichqiriqday eshitildi.

– U Siriusdan qanday nafratlangan bo'lsa, mening otamdan ham shunday kuchli nafratlangan! Snegg yomon ko'rgan odamlar esa muqarrar o'lim topishiga o'zingiz e'tibor qilmadingizmi, professor?

– Lord Voldemort o'sha bashoratni qanday talqin qilganidan xabar topgan professor Sneggning tavbasi, pushaymonlari qanchalik katta bo'lganini tasavvur ham qila olmayсан, Garri. O'ylashimcha, bu uning hayotidagi eng katta gunoh bo'lib, aynan o'sha gunoh sababli safimizga qaytgan...

– Axir, u okklumensiyani yaxshi tasarruf etib olgan ediyu, shunday emasmi. ser? – xotirjam gapirishga ming harakat qilmasin, ovozi titrab so'radi Garri. – Voldemort esa Snegg haligacha unga xizmat qilishiga komil ishonch bildiradi. Professor... Snegg o'zimizning odam ekanini qayerdan bilasiz?

Damblдор, xuddi o'zi uchun o'zi nimanidir hal qilayotgan kabi biroz indamay turdi.

– Bilaman. Men Snegg Severusga to'liq ishonaman.

Bir necha bor chuqur-chuqur nafas olgan Garri o'zini idora qilmoqchi bo'ldi-yu, uddasidan chiqa olmadi.

Men esa yo'ql – ovoz ko'tardi u. – Drako Malfoy ikkalasi hozir ham nimanidir niyat qilishgan, siz esa...

– Biz buni muhokama qilganmiz, Garri, – dedi Damblдор

qat'iy ohangda. - O'shanda men o'z nuqtai nazarimni tushuntirib bergan edim.

- Mana bugun siz yana maktabda bo'lmaysiz va garov bog'lashim mumkinki, Snegg bilan Malfoy ikkalasi...

- Xo'sh? - qoshini ko'tardi Damblдор. - Aniq biron-bir narsada gumon qilyapsanmi sen ularni?

- Men... ularni... ular nimanidir rejalashtirishgan, bu aniq! - xitob qildi Garri, mushti beixtiyor tugilib. - Professor Trelani, xeres vinosini yashirib qo'yish maqsadida Darkor xonaga kirgan va nimanidir nishonlayotgan Malfoyning quvonchli qichqirig'ini eshitgan! Ikkalasi o'sha xonada qandaydir xavfli buyumni ta'mirdan chiqarishgan va nihoyat tuzatishga muvaffaq bo'lishgan. Siz esa maktabni...

- Bas, - dedi Damblдор xotirjam ohangda.

Ko'zga ko'rinmas chegaradan o'tib ketganini idrok etgan Garri shu zahoti jim bo'lib qoldi.

- Maktabni tark etgan paytingizda uni qarovsiz qoldirib ketasiz, demoqchi bo'lsang, yanglishasan. Bugun ham qo'shimcha himoya chorasi ishga tushiriladi. Sendan iltimos, maktab o'quvchilarining xavfsizligiga mas'uliyatsiz yondashishda ayblama meni.

- Yo'q, men unday... po'ng'illadi cho'chib ketgan Garri.

- Ushbu mavzuni takror muhokama qilishni istamayman, - gapni bo'ldi Damblдор.

Garri haddan oshib ketgani, Dambldorga hamroh bo'lish imkonini qo'ldan chiqarganini o'ylab, tilini tishladi.

- Xo'sh, borasanmi o'zi bugun men bilan yo yo'qmi? - kutilmaganda so'rab qoldi Damblдор.

Boraman, - javob berdi Garri, o'ylab o'tirmay.

Juda soz! Unday bo'lsa, gapimga quloq sol, - dedi Damblдор, qaddini rost tutib. - Seni bir shart bilan, u ham bo'lsa, har qanday buyrug'imga so'zsiz, muhokama qilmay bo'ysunib, ijrosiga shu zahoti kirishish sharti bilan olib ketaman

- Albatta.

- Umid qilamanki, Garri, meni to'liq tushunding va hatto

«qoch», «bekinib ol» va «ortga qayt» kabi buyruqlarga ham soʻzsiz boʻysunasan. Shunga soʻz berasanmi?

– Men... ha, albatta.

– Bekinib olishni buyursam, bekinasanmi?

– Ha.

– Qochishni buyursam, boʻysunasanmi?

– Ha.

– Agar meni tashlab, jon saqlab qolishni buyursam, aytganimni qilasanmi?

– Men...

– Garri?

Ikkovlon bir-biriga biroz qarab turdi.

– Ha, ser.

– Juda soz. Unday boʻlsa, sendan iltimos, borib koʻrinmas plashingni olgin-da, besh daqiqadan soʻng meni vestibulda kut.

Dambldor olovrang deraza tomon oʻgirildi. Quyoshdan faqat ufq uzra xira yorishayotgan laʼl-qirmizi chiziq qolgan. Miyasi dafʼatan tiniqlashib, nima qilishni endi yaxshi bilgan Garri xonani tez tark etib, aylanma zina boʻylab pastga tushdi.

Ron bilan Germiona umumiy mehmonxonada oʻtirishibdi.

– Dambldorga nima kerak ekan? – soʻroq boshladi Germiona va shu zahoti tashvish-la boshqa savol berdi: – Nima qildi senga, Garri?

– Ishlar joyida, – javob berdi harakatini toʻxtatmagan Garri.

U zinadan yotoqxonaga uchib chiqib, sandigʻining qopqogʻini ochdi-da, Kafanduzd xaritasi bilan bir juft taxlangan paypoq chiqardi. Shundan soʻng pastga sakrab tushib, hang-mang boʻlib qolgan Ron bilan Germionaning yonida keskin toʻxtadi.

– Vaqtim tigʻiz, – hansiradi Garri. – Dambldor plashga joʻnatgan edi. Quloq soling...

U Ronning ortiqcha savollari-yu, Germionaning oh-vohiga eʼtibor qilmay, qayerga va nima maqsadda yoʻl olganini

qisqacha aytib berdi. Bularning barini muhokama qilgani hali ko'p vaqt bo'ladi.

– ... qisqasi, bu nimani anglatishini yaxshi bilasiz, a? – entikib yakunladi Garri, – Damblдор kechqurun maktabda bo'lmaydi, Malfoy esa o'z qilmishini xotirjam davom etaveradi. Yo'q, quloq soling! – darg'azab vishilladi u, Ron bilan Germiona og'iz juftlaganini ko'rib. – Darkor xonada quvonchdan aynan o'sha hayqirgani aniq. Mana, qara...

Garri Germionaning qo'lga Kafanduzd xaritasini tutqazdi.

– Ikkalangiz Malfoy bilan Sneggni kuzatib borishingiz lozim. Damblдор armiyasidan kimni topsangiz, hammani jalb eting. Aloqa bog'lash galleonlari hali ishlayaptimi, Germiona? Damblдорning aytishicha, qo'shimcha himoya chorasi ishga tushiriladi. Biroq jinoyatga Snegg aralashgan ekan... u o'sha himoya chorasini chetlab o'tadi, lekin u sizlarning nazoratingiz ostida ekanini bilmaydi, to'g'rimi?

– Garri... – gap boshladi, dahshatdan ko'zi katta ochilgan Germiona.

– Bahslashishga vaqt yo'q, – gapni kesdi Garri. – Mana buni ham ol, – dedi u, Ronga bir juft paypoq uzatib.

– Rahmat, albatta, – minnatdorlik bildirdi Ron. – Lekin... e-m-m... paypoqni nima qilaman?

– Paypoq emas, ichidagi narsani beryapman: baxt-u tole damlamasi. Bo'lishib olasiz. Jinnaga ham ber, u bilan mening nomimdan xayrlashib qo'ying. Bo'ldi, boray, Damblдор kutyapti meni.

Ron tilla tusli damlamani e'zoz-la yorug'ga tutdi.

– Yo'q! – xitob qildi Germiona. – Bizga emas, ko'proq senga kerak bo'ladi u. Kim biladi, seni nimalar kutadi u yerda?

– Men Damblдор bilan bo'laman, – javob berdi Garri. – Sizlarning ishlaringiz joyida bo'lishini istayman... Menga unday qarama, Germiona, biz hali yana ko'rishamiz...

Garri portret to'sgan tuynukdan sakrab chiqib, vestibul tomon yelday uchdi.

Eman eshik oldida turgan Damblдор tosh pillapoyaga bi-

qini sanchib qolgan holatda sakrab chiqqan Garri tomon yuzlandi.

– Iltimos, plashingni kiyib ol. Ana shunday, juda soz. Xo'sh, ketdikmi endi?

Dambldor tosh pillapoyadan pastga tushdi. Yoz oqshomi shu qadar sokinki, uning ridosi qilt etmayapti. Terga botib, ustiga ko'rinmas plash tashlab olgan Garri, direktorning ortidan hamon hansirab bormoqda.

– Siz maktabni tark etib ketayotganingizni ko'rgan odamlar nima degan xayolga borishlari mumkin, professor? – so'radi u, Snegg bilan Malfoy haqidagi o'yni miyasidan chiqara olmay.

– Xogsmyodga qittay urib olish uchun chiqyapti, deb o'ylashadi, – yengil javob berdi Dambldor. – Chunki men ba'zan Rosmerta xonimnikiga tashrif buyurib boraman, ba'zan esa «Axta cho'chqa kallasi» qovoqxonasiga kirib chiqaman. Har qalay, hamma shunday deb o'ylaydi. Shubha qochirishning eng yaxshi usuli shu.

Ikkovlon shoxobcha yo'l bo'ylab odimlay ketdi. Qosh qorayib, qizigan alaf, ko'l va Xagridning kulbasida yonayotgan g'o'la hidi havoga ufurmoqda. Garrining xavf-xatarga to'lib-toshgan dahshatli safarga chiqib ketayotganiga ishonishi qiyin kechmoqda.

– Professor, havoda g'oyib bo'lamizmi? – asta so'radi Garri, darvozani ko'rib.

– Ha, – bosh iring'idi Dambldor. – Bunday amalni, o'ylashimcha, o'zlashtirib olgansan, a?

– O'zlashtirdim, – tasdiqladi Garri, – ammo menga g'oyib bo'lish huquqi hozircha berilmagan.

«To'g'risini aytgan ma'qul. Kerakli joydan yuzlab milya narida paydo bo'lsam, ishning pachavasini chiqarib qo'ymaymanmi?» – xayoldan o'tkazdi Garri.

– Hechqisi yo'q, – qo'l siltadi Dambldor, – o'zim senga yordamlashib yuboraman.

Ikkovlon maktab hududi darvozasidan Xogsmyodga olib boradigan, kech kirganda arang ko'rinadigan kimsasiz yo'lga

chiqdi. Zulmat tez qalinlashib, Daroz ko'chaga yetib borishganida qorong'i tushdi. Do'konlar ustidagi derazalarda fonuslar miltillamoqda. «Uch supurgi» qahvaxonasiga yaqin qolganda bo'g'i ovoz eshitildi:

... qadam izi qila ko'rma endi bu yerga! – zo'riqib baqirdi Rosmerta xonim, o'z muassasasidan allaqanday iflos sehgarni turtib chiqarib. – O, salom, Albus... kech chiqibsizmi, bugun?...

– Xayrli oqshom, Rosmerta, xayrli oqshom... ma'zur tutasan, «Axta cho'chqa kallasi» qovoqxonasiga kirib chiqaman... xafa bo'lmagin-u, ko'nglim negadir jimjitlikni tusab qoldi bugun...

Bir daqiqa o'tib, ikkovlon «Axta cho'chqa kallasi» qovoqxonasi tomon olib boradigan muyulish ortiga burildi. Kirish eshigi ustidagi yorliq, garchi shabada esmayotgan bo'lsa-da, g'ichirlamoqda. Ichkarida, «Uch supurgi»dan farqli o'laroq, deyarli hech kim yo'q.

– Kirish ham shart emas, – g'udulladi Dambldor, atrofga alanglab. – Modomiki, bizni hech kim ko'rmayotgan ekan... Kaftingni qo'limga qo'y, Garri. Mahkam changallashning hech ham keragi yo'q. Men seni yo'naltirib boraman, xolos. Uch hisobida: bir... ikki... uch...

Turgan joyida aylangan Garri birov tarang tortilgan rezina quvur ichida tortib ketayotganday his etdi o'zini. Tanasi har tomondan siqilib, nafas olishi to'xtab qoldi. Birozdan so'ng ortiq dosh bera olmasligi, hozir nafasi bo'g'ilib o'lishini his etgan fursatda ko'rinmas halqalar tars yorilib, Garri o'zini qorong'i joyda, muzday dengiz havosidan nafas olayotganini his etdi.

XXVI BOB

G'OR

Sochini muzday shamol to'zg'itgan Garri tuz hidini sezib, dengiz shovqinini eshitdi. Oldida oy nuridan hosil bo'lgan yo'lag-u, boshi ustida yulduzlarga to'lib-toshgan tiniq osmonni ko'rib, o'zi baland qoyada turganini idrok etdi. Pastda to'lqin toshga urilib, bilqillagan suv ko'piklanmoqda.

Garri atrofga alangladi. Ortidagi qop-qora tog' yakka o'zi dengiz qa'ridan tik ko'tarilib chiqqan. Uning atrofida sochilib yotgan ulkan xarsanglar aftidan, bir vaqtlar ushbu tog'dan, shu jumladan, Garri bilan Damblodor turgan mana shu qoyadan ham sinib ajragan ko'rinadi. Manzara juda quruq bo'lib, ko'zni quvontiradigan hech narsa yo'q: dengiz va tosh, na daraxt, na o't-o'lan va na qum bor.

– Xo'sh, fikring?

Damblorning savoli shunday bir ohangda eshitildiki, mazkur joy bog' sayri uchun to'g'ri kelish-kelmasligi borasida qiziqayotganday.

– Reddl tarbiyalangan yetimxona bolalari shu yerga olib kelingan, demoqchisiz-da, a'?

Garrining nazarida, yetimxona ma'muriyatiga qishloq sayri uchun to'g'ri keladigan boshqa joyni tasavvur etishi qiyin kechgan ko'rinadi.

– Aynan shu yerga emas, – tushuntirish berdi Damblodor.
– Sal yuqorida, tog'lar orasidagi kichik vodiya qishloq bor. Menimcha, yetim bolalar aynan o'sha yerda turib dengiz havosidan to'yib nafas olgancha, to'lqin tomosha qilishgan. Bu yerga esa Tom Reddl va uning yosh qurbonlaridan tashqari, hech kim kelmagan. Chunki ushbu qoyaga biror-bir mag'l kela olmaydi, agar u tajribali alpinist¹ bo'lmasa, albatta. Qayiq vositasida ham yaqinlashib bo'lmaydi. Juda xavfli. Nazarimda, Reddl tog'dan

¹ **Alpinist** (Alp tog'i nomidan) – turli murakkab to'siqlardan o'tib tog' cho'qqilariga ko'tarilish bilan shug'ullanadigan sportchi.

tushgan. Chunki arqondan ko'ra, seyr-jodu ancha ishonarliroq. Aftidan, ikkala bolani bu yerga, ularning qo'rquvidan zavq olish uchun olib kelgan. Buning uchun esa tog'dan ta'sirli tushishning o'zi yetarli bo'lgan. A, nima, deb o'ylaysan?

Tog'ga razm solgan Garrining badani junjikib ketdi.

– Lekin biz va Reddl uchun pirovard sanalgan nishon sal narida joylashgan. Yur, ketdik.

Dambldor Garrini jar tomon yetakladi. Qoyaning ko'p-lab chiqirlari pastga tushish zinasiday yarmi suvdan chiqib turgan xarsanglar tomon olib bormoqda. Nishablik nihoyatda tik bo'lib, qo'li majruh Dambldor juda sekin harakatlanmoqda. Bo'rtib chiqqan joyning quyi qismidagi ho'l toshlar juda sirpanchIQ. Garrining lunjiga dengizning sho'r ta'mli o'tkir qatralari urilmoqda.

Dambldor jar yaqinidagi xarsang toshga yetib, tizzasiga o'tirdi.

– Lyumos! – dedi u.

Dengizning qora yuzasida minglab tilla nuqtalar yarqirab, uning orqasidagi qora qoya ham yorishdi.

– Ko'ryapsanmi? – past ovozda so'radi Dambldor, seyrli tayoqchasini balandroq ko'tarib.

Garri qoyaning suv qorayib qaynayotgan quyi qismida yorilgan joyini ko'rdi.


– Biroz ho'l bo'lishdan qo'rqmaysanmi?

– Yo'q, – javob berdi Garri.

– Unday bo'lsa, ko'rinmas plashingni yech. Endi u kerak emas. Sho'ng'i!

Keksa kishiga xos bo'lmagan abjirlik bilan xarsang toshdan suvga sakragan, yorishgan seyrli tayoqchani tishlab olgan Dambldor yarqirab ko'ringan yoriq tomon suzdi. Plashni yechib, kissasiga joylagan Garri Dambldorning ortidan suvga kirdi.

Dengiz savi muzday. Ho'l kiyim og'irlashib, pastga tortmoqda. Tuz va suv o'tining o'tkir hididan bir maromda chuqur nafas olayotgan Garri qoya qo'riga kirib ketgancha, miltillab, kichik nuqtaga aylanayotgan yorug'lik manbai ortidan suzmoqda. Ko'p o'tmay qoya tirgishi dengiz sathi ko'tarilganida suvga



to'ladigan, eni uch futdan oshmaydigan tunnelga aylandi. Uning shilimshiq qoplagan devori sehrli tayoqchaning harakatlana-yotgan nuri ostida ho'l gudron¹ singari yaltiramoqda. Tunnel sal narida chapga burilib, qoya ichiga chuqurlashib ketgan. Garri uvushib borayotgan barmoq uchlarini toshning dag'al sirtiga urib olgancha, Damblorning ortidan astoydil suzmoqda.

Nihoyat qorong'ida suvdan chiqqan Damblorning uzun korjomasi va kumush tusli soch-soqoli yaltiradi. Garri katta g'orga olib boradigan zinani ko'rdi. Ushbu zina pog'onalariga bazo'r tirmashib chiqar ekan, egnidagi kiyimidan bir dunyo suv oqib tushdi. G'or havosi tinch, sovuq bo'lib, Garrini titroq bosdi.

G'or o'rtasida tayoqchasini baland tutgan Damblor devor va shiftni ko'zdan kechirgancha, asta aylandi.

– Ha, shu yerda, – dedi u.

– Qayerdan bilasiz? – pichirladi Garri.

– Bu yerda bir vaqtlar sehr-jodu qo'llanilgan, – tushuntirdi Damblor.

Garri sovuqdan yoki qo'llanilgan o'sha sehr ta'siridan qaltirayotganini tushunmay, Damblorning harakatini diqqat bilan kuzatdi.

Qariya o'ychan holatda, turgan joyida aylanib, Garriga mutlaqo tushunarsiz narsalarni o'rganib chiqmoqda.

– Bu hozircha ante-chamber, ya'ni vestibyl, – dedi Damblor birozdan so'ng. – Endi ichkariga kirishimiz va tabiiy emas, Lord Voldemort tomonidan yaratilgan to'siqlarni yengishimiz kerak bo'ladi.

Qoraygan qo'lining barmoqlari bilan devor silayotgan Damblor, Garri tushunmagan g'alati tilda nimadir o'qib, qo'lini tosh devorga tez-tez tekkizgancha, g'orni ikki marta aylanib chiqdi, ba'zan keskin to'xtab, muayyan joyni barmog'i bilan silab bordi. Nihoyat u kaftini devorga mahkam bosgancha, to'xtadi.

¹ **Gudron** (fransuzcha: goudron) – neftni qayta ishlash natijasida qoladigan qora, smolaga o'xshash quyqum, neft qoldig'i (yo'i qurilish material sifatida va boshqa texnologik ehtiyojlari uchun ishlatiladi).

-- Mana shu yerdan, -- ma'lum qildi kekxa sehrxar. Shu yerdan o'tamiz. Kirish joyi sehr-la, muhrlangan.

Dambldor buni qayerdan bilganini Garri so'rab ham o'tirmadi. Sehr-joduning nigoh va qo'l vositasida mana bunday qo'llanilishini hali u ko'rmagan. Umuman aytganda esa tutun chiqarish-u, shovqin ko'tarish mohir sehxarlik emas, tajriba-sizlik alomati ekanini u ko'pdan buyon fahmlab kelgan edi.

Dambldor biroz ortga chekinib, sexrli tayoqxasini devorga o'qtadi. Tosh devorda arka shakli, xuddi ichkarida birov kuchli proyektor¹ yoqqanday oq olov tusida bir zum yarqirab ko'rindi.

-- T-t-o-o-opa o-ldingiz, sh-sh-shekilli, -- dedi Garri, tishi-tishiga tegmay.

Uning gapi oxiriga yetguncha, arka ko'zdan g'oyib bo'ldi.

-- Kechir, Garri, xayolimdan ko'tarilibdi, -- dedi Dambldor, Garriga yuzlangancha, tayoqxasini siltab.

Garrining egnidagi kiyim, kamin olovi oldida tutib turilgan kabi shu zahoti qurib, issiqqina bo'lib qoldi.

-- Rahmat! -- minnatdorlik bildirdi Garri, silliq devor tomon o'girilishga ulgurgan Dambldorning beliga qarab.

Nafasini ichiga yutgan Garri, allaqanday qiziq matn o'qiyotganday sexr qo'llamay, devorga diqqat-la qarayotgan Dambldorga xalal bermay, jim turdi.

-- Bo'lishi mumkin emas, -- nihoyat tilga kirdi Dambldor, ikki daqiqa og'ir sukut saqlagach. -- Juda dag'al ish.

-- Nima, professor?

-- Ikkilanmoqdaman-u, lekin, nazarimda... -- dedi Dambldor, sog' qo'lini kissasiga solgancha, kumush pichoqcha chiqarib. -- Nazarimda, kirish uchun haq to'lashimiz kerak bo'ladi.

Bunday pichoqcha bilan Garri, odatda, sexrli damla-maning tarkibiy qismlarini archib to'g'raydi.

¹ **Proyektor** (*fransuzcha*: *projecteur* < *lotincha*: *pro-jectio* -- oldinga ing'itish, otish) yorug'lik nurini, shu'lani to'plab, ma'lum tomonga yo'naltiradigan optik qurilmali yoritish asbobi.

– Haq to'lashimiz kerak? – hayron bo'ldi Garri. – Eshikka biron nima berishimiz kerakmi?

– Xuddi shunday, – tasdiqladi Damblдор. – Qon, agar men qattiq yanglishmagan bo'lsam.

– Qon?

– Aytdim-u, juda dag'al ish, deb.

Aftidan, Voldemort hafsalasini pir etgan ko'rinadi, Damblдорning ovozida ixlosi qaytgani bilinib, nafrat ohangi eshitildi.

– Fokusdan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, dushman ichkariga o'zini kuchsizlantirmay kira olmaydi. Lord Voldemort, o'z odatiga ko'ra, jismoniy jarohatdan ham dahshatliroq narsalar borligini unutgan ko'rinadi.

Yosh bo'lishiga qaramay, og'riqlarning har xilini boshdan o'tkazgan Garri, navbatdagi jarohat olinishini istamadi.

– To'g'ri, – g'o'ldiradi u, lekin buni ham chetlab o'tishning imkoni bo'lsa...

– Afsuski, iztirobni har doim ham chetlab bo'lmaydi, majruh qo'lining yengini shimarib, pichoq tortishga hozirlandi Damblдор.

– Professor! – e'tiroz-la qichqirdi Garri, qariyaning yoniga yugurib borib. – Yaxshisi, men, har qalay...

Damblдор kulib boqdi. Garri qanday vaj keltirishni bilmay qoldi, yoshroqmi u yo baquvvatroq? Kumush tig' yarq etgach, qizil favvoracha otilib, xira yarqiragan qoramtir tomchilar devorga sachradi.

– Juda mehribonsan, Garri, – dedi Damblдор, sehrli ta-yoqchasini chuqur kesilgan jarohat uzra yuritib. – Lekin sening qoning mening qonimdan qimmatlidir...

Damblдорning qo'lidagi jarohat Snegg Malfoyning jarohatini tuzatganday, tez bitdi.

– Ana, ish bergan ko'rinadi....

Oq olov tusidagi arka shakli yana yarqirab, endi g'oyib bo'lmadi. Qon qatralari sachragan tosh esa yo'qolib, arkada zimziyo zulmatga yo'l ochgan katta teshik hosil bo'ldi.

O'zim boshlaganim ma'qul, – dedi Damblдор, arka

ostonasidan ichkariga hatlab.

Sehrli tayoqchasini yoritgan Garri, Dambldordan qolishmay yurdi.

Suvi qop-qora bepoyon ko'l. Oxiri yo'q g'or shu qadar balandki, shifti ko'rinmaydi. Ko'l markazida xira yashil tusda nimadir yarqirab, suvning silliq yuzasini yoritmoqda. Ushbu g'alati yorug'lik bilan sehrli tayoqchalar nuri baxmalday zulmatni biroz kesganday bo'ldi-yu, chuqur singib kirmadi. Bu yerdagi qorong'ilik negadir oddiy qorong'ilikka nisbatan ancha qalin.

– Ketdik, – dedi Dambldor xotirjam ohangda. – Faqat ehtiyot bo'l, suvga tegma. Menga yaqinroq yur.

Dambldor sohil bo'ylab odimlay ketdi. Garri undan qolishmadi. Ikkalasining qadami suv bilan oyoq o'rtasidagi to'siq vazifasini o'tayotgan tor tosh yo'lakdan baland aks-sado ila yangramoqda. Ular uzoq yurishiga qaramay, Garrining ko'ngliga vahima solayotgan manzara o'zgarmas qolmoqda: atrofda o'lik jimjitlik hukm surib, bir tomonda g'orning dag'al devori, ikkinchi tomonda ko'lning, o'rtasi yashil tusda yorishgan qop-qora cheksiz yuzasi.

– Professor, fikringizcha, ruhdon shu yerdami? – so'radi u nihoyat, sabri chidamay.

– Ishonchim komil! – javob berdi Dambldor. – Masala, unga yaqin bora bilishda, xolos.

– Buyum chaqirish afsunidan foydalansak-chi?... – so'radi Garri, savoli ahmoqona ekanini o'zi anglab turgan bo'lsa-da, bu yerdan tezroq chiqib ketishni istab.

– Mumkin, albatta, – javob berdi Dambldor, keskin to'xtab. – Urinib ko'rmaysanmi? – dedi u, yonboshiga taqalib qolguday to'xtagan Garriga.

– Menmi? E-e... yaxshi...

Bunday taklifni kutmagan Garri tomog'ini qirib oldi-da, sehrli tayoqchasini ko'tarib, qichqirdi:

– Assio ruhdon!

Sohildan yigirma futcha narida allaqanday ulkan, tussiz narsa portlash ovozini eslatgan tarzda qora suv ustida paydo bo'lib, Garri uni durustroq ko'rib olishga ulgurmay, suvni shapil-

latgancha, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Suv sirtida to'lqin halqalari o'tdi. Qo'rqqanidan yuragi qattiq ura boshlagan Garri ortga chekinib, devorga qapishib oldi-da, Damblidorga yuzlandi:

– Nima edi u?

– Taxminimcha, ruhdonni qo'riqlayotgan allaqanday himoyachi.

Garri suvga nazar soldi. To'lqin halqalari g'ayritabiyy tarzda tez tinchib, ko'lining qop-qora sirti yana oynaday yarqiroq, sip-silliqlik tus oldi. Garrining yuragi hamon quturganday urmoqda.

– O'xshash hodisa ro'y berishini kutgan edingizmi, ser?

– Ruhdonga yetib olishga javoban nimadir ro'y berishini kutgan edim, har qalay. Yaxshi ish bo'ldi, Garri. Bizga nima tahdid solishini oddiy usul-la aniqlab oldik.

– Lekin uning nima ekanini anglab olmadik-ku hali, – e'tiroz bildirdi Garri, suvning vahimali sokin yuzasiga qarab.

– Ularning nima ekanini, demoqchi bo'lding, chog'i, Garri, – tuzatish kiritdi Damblidor. – O'sha narsa yolg'iz ekaniga shubha qilaman. Yo'limizni davom etamizmi?

– Professor...

– Ha, Garri?

– Suvga sho'ng'ishga to'g'ri keladi, demoqchi emas-misiz, ishqilib?

– Suvga sho'ng'ishga? Omadimiz chopmasagina, Garri.

– Ruhdon ko'l tubida, deng?

– Yo'q, nazarimda, u... – ko'l o'rtasidagi yashil tusli xira yog'duga imo qildi Damblidor. – Ko'lining qoq o'rtasida.

– Demak, suzishga to'g'ri kelar ekan-da, a?

– O'ylashimcha, shunday.

Miyasini suv maxluqlari, ulkan ilonlar, iblislar va boshqa turdagi qabohatlar haqidagi xayollar butunicha qamrab olgan Garri jim bo'lib qoldi.

– Xo'sh, – dedi Damblidor.

Bu safar Garri kutilmaganda to'xtab qolgan qariyaga borib urilgancha tebranib, qora suvga tushib ketishiga bir baxya qolganida o'zini bazo'r to'xtata oldi. Damblidor sog'lom qo'li bilan Garrining tirsagidan tutib, o'ziga tortdi.

– Uzi, Garri, ogohlantirib to'xtashim kerak edi. Devor tagida kutib tur, iltimos. Aftidan, kerakli joyni topgan ko'ri-naman.

Hamrohi nima haqida gapirayotganini Garri tasavvur ham qila olmaydi. Sohilning ushbu qismi boshqa joylardan hech nimasi bilan farq qilmaydi. Lekin Dambldor bu yerda nimadir topgan ko'rinadi. Endi u qo'lini tosh devor sirtida yuritmay, zohiran ko'zga ko'rinmas allaqanday buyumni changallamoqchi bo'lganday, havoda aylantirmoqda.

– Mana! – quvonch-la xitob qildi Dambldor, bir-ikki soniya o'tib.

Garrining ko'zi ilg'amayotgan allanima ushlab olgan kekxa sehriga suvga yaqinlashdi. Garri qariyaning to'qali boshmog'i ko'lining sertosh qirg'og'ida muvozanat saqlayotganini asabiy holatda kuzatmoqda. Dambldor ikkinchi qo'lidagi sehrli tayoqchasining uchini oldinga uzatgan mushtiga tekkizdi.

Shu zahoti yashil tusli mis zanjir suvdan chiqib kekxa sehriga qo'ligacha cho'zilgancha paydo bo'ldi. Sehrli tayoqcha tekkizilgan mis zanjir Dambldorning mushti orqali ilonday sirpanib o'tib, ko'l tubidan nimanidir tortib chiqargancha, oyoq ostida halqa shaklida jaranglab o'raldi. Suv ichida zanjirday ko'karib ketgan qayiqning tumshug'ini ko'rgan Garri oh urdi. Yuzaga qalqib chiqqan qayiq suvni deyarli bezovta qilmay Garri bilan Dambldor tomon yaqinlashmoqda.


– Ko'l tubida qayiq borligini qayerdan bildingiz? – hayrat-la so'radi Garri.

– Qo'llanilgan sehr-jodu hamisha iz qoldiradi, – javob berdi Dambldor, qayiq sohilga kelib urilar ekan. – Ba'zan esa o'sha iz mazmunan tushunarli bo'ladi. Tom Reddlni o'zim o'qitgan ekanman, uning ish tarzini ham yaxshi bilaman.

– Qayiq... xavfli emasmi?

– Yo'q, menimcha, yo'q. Ruhdonidan xabar olish yoki uni boshqa joyga olib ketish uchun Lord Voldemortga suzish vositasi kerak bo'lgan.

– Demak, qayiqda suzib ketadigan bo'lsak, suv maxluqlari bizga tegmaydi, shundaymi?



– Fursati yetib, biz Lord Voldemort emasligimizni anglab yetishadi, o‘shanda... Shunday bo‘lsa-da, hozircha ish silliq kechyapti. Har qalay, ular bizga qayiqni berishdi.

– Nega? – so‘radi Garri.

Sohil uzoqlashib, ko‘rinmay qolgach suv ichidan allaqanday jirkanch paypaslagichlar chiqib kelishiga oid tasavvurni Garri fikr-xayolidan quva olmayapti.

– Qayiqni topa bilishga, boz ustiga ruhdonga yetib olishga faqat qudratli sehgargina qodirligini Voldemort bilgan, – tushuntirish berdi Damblдор. – Shu bois uning nuqtai nazaridan qaralganda, oqibati ziyonsiz tavakkalchilikka yo‘l qo‘ygan. Buning ustiga, keyingi to‘siqni faqat o‘zi yenga oladi, deb bilgan. Hozir ko‘ramiz, aslida ham shunday yoki unday emasligini.

– Juda kichkinagina ekan, – dedi Garri, oyoq ostidagi qayiqchaga qarab. – Ikkalamizni ko‘tara olarmikan? Yo og‘irlik qilamizmi?

Damblдор xandon otib qo‘ydi.

– Ishonchim komilki, Voldemort kishi vaznini emas, sehr qudratining hajmini hisobga olgan. Taxminimcha, u qayiqqa nisbatan sehr-joduni, unda faqat bir nafar sehrgar bo‘lishini nazarda tutib qo‘llagan.

– Unday bo‘lsa?...

– Seni hisobga olmasak ham bo‘laveradi, Garri. Chunki sen hali balog‘at yoshiga yetmagan, diplomsiz sehgarsan. Bu yerga o‘n olti yoshli sehrgar kirib kelishi Voldemortning xayoliga ham kelmagani aniq. Mening sehr qudratim oldida sening kushing sezilmaydi.

Garrining jangovar ruhi tetiklashtirmaganini ko‘rgan Damblдор qo‘shimcha qildi:

– Voldemort yanglishgan, Garri, yanglishgan... Katta yoshlilar o‘zi shunaqa ahmoq bo‘ladi, yoshlarning imkoniyatiga yetarlicha baho bera bilishmaydi. Endi esa, Garri, o‘zing boshlab berasan. Faqat ehtiyot bo‘l, suvga tegib ketma.

Qayiqqa dastlab Garri, so‘ng zanjirni halqa shaklida qayiq tubiga joylagan Damblдор chiqdi. Joy juda tor bo‘lib, Garri

tizzasini bortga¹ tiragancha, g'uj bo'lib oldi. Suzish vositasi qirg'oqdan ajrab, ko'l markazi tomon mustaqil ravishda, go'yo uni ko'rinmas arqon tortayotganday suza ketdi. Atrof jimjit, faqat qayiq uchi suv kesib chiqargan mayin shovqingina eshitilmoqda. Birozdan so'ng g'or devori ko'rinmay, atrofni to'liqsiz dengiz qamrab olganday bo'ldi.

Pastga qaragan Garri suvning qora yuzasida sehrli tayoqchasiidan chiqayotgan tilla tusli yorug'lik aksini ko'rdi. Qayiq uchida hosil bo'layotgan jo'yaklar suv bo'ylab qoramtir ko'zguning timdalangan joyini eslatgan tarzda tarqamoqda...

Kutilmaganda Garri ko'l qo'riqda marmarday oppoq narsani ko'rib qoldi.

– Professor! – hayajon-la qichqirdi u.

Uning ovozi sokin ko'l uzra bo'g'iq aks-sado kabi yangradi.

– Tinchlikmi, Garri?

– Qo'l! Suv ichida odam qo'lini ko'rdim!

– Bu tabiiy, – xotirjam javob berdi Damblor.

Ko'ngli behuzur bo'lib borayotgan Garri suvga baqrayib, g'oyib bo'lgan qo'lni qidira ketdi.

– Suvdan sakrab chiqqan anavi narsa?...

Damblor og'iz juftlashga ulgurmay, Garri savoliga javob topdi: uning sehrli tayoqchasi zulmat ichida, yuzi yuqoriga qaragancha suv yuzasidan bir necha dyuym pastda suzib borayotgan odam tanasini yoritdi. Jasadning ochiq ko'zini parda qoplagan bo'lib, sochi bilan kiyim bo'laklari tanasining atrofida tutun kabi chirmashib bormoqda.

– Murdalar! – g'ayritabiiy ovozda chirilladi Garri.

– To'g'ri, – betashvish ohangda tasdiqladi Damblor. – Hozircha, ulardan xavfsiramasa ham bo'laveradi.

– Hozircha? – takrorladi Garri, nigohini suvdan Damblorga olib o'tib.

– Hozir ular suv ostida beozor suzib yurishibdi, – tushun-

¹ **Bort** (nemischa: Bord yoki Borle – chiekkla, yoni) – kema, kosmik kema, yus muvohasi, samolyot va shu kabilarning yoni, yon devori.

tirish berdi Damblodor. Murda bilan zulmatdan qoʻrqish be-
maʼnilikdan oʻzga narsa emas. Unisidan ham bunisidan ham
birovga bildirmay qoʻrqadigan Lord Voidemort esa fikringa
qoʻshilmaydi, albatta. Sababi oddiy, unda aql-farosatning tanqis-
ligi. Chunki oʻlim bilan qorongʻilikda mavjud mubhamlik choʻ-
chitishi mumkin, xolos.

Bahslashishni istamagan Garri indamay qoʻya qoldi,
biroq koʻp sonli murdalar orasida suzib yurish holati uni dahshat-
ga solib, ularning beozor ekani borasida biroz ikkilanishga
majbur qildi.

– Ulardan biri suvdan sakrab chiqdi-yu, – dedi u, xotir-
jamligini saqlashga urinib. – Ruhdonni chaqirganimda koʻldan
oʻlik sakrab chiqdi.

– Toʻgʻri, – dedi Damblodor. – Ruhdonni olib ketishga
urinadigan boʻlsak, ularning xatti-harakati nisbatan jangovar tus
olishiga shubha yoʻq. Lekin ularning sovuq zulmatda makon top-
gani yaxshi boʻlibdi. Demak, ular yorugʻlik va haroratdan qoʻr-
qadi. Bu esa, oʻz navbatida, ikkalamiz, agar ehtiyoj tugʻilsa,
aynan yorugʻlik va haroratdan foydalanishimiz kerak boʻlishini
anglatadi.

Garrining yuzidagi hayratlanish qiyofasini koʻrgan
Damblodor tabassum-la tushuntirish berdi:

– Olovni nazarda tutyapman, Garri.

– Ha... albatta... – dedi Garri, boshini qayiq suzib bora-
yotgan yashil yogʻdu tomon burib.

Murdaga toʻlib-toshgan cheksiz koʻlda soxta mardlik
yasab boʻlmaydi. Professor Trelaniga duch kelib, baxt-u tole
damlamasini Ron bilan Germionaga bergan fursatdan juda koʻp
vaqt oʻtib ketganday boʻldi... Nega ular bilan durustroq xayr-
lashib olmadi... nega Jinna bilan uchrashmadi...

Deyarli yetib keldik, – quvnoq ohang-la maʼlum qildi
Damblodor.

Darhaqiqat, yashil tusli yogʻdu yaqinlashib, yana bir
necha daqiqa oʻtgach, qayiq qandaydir yumshoq narsaga urilib
toʻxtadi. Garri yorishayotgan sehrli tayoqchasini baland koʻtarib,
koʻl markazidagi yassi tosh maydon koʻrinishidagi orolchaga

yetib kelishganini ko'rdi.

– Ehtiyot bo'l, suvga tegib ketma, – eslatib o'tdi Damblidor, qayiqdan tushishga harakat qilayotgan Garriga.

Orolning umumiy maydoni Damblidorning xizmat xonasidan u qadar katta ham emas. Silliqliq qoramtir tosh ustida yashil yog'du manbasidan boshqa hech narsa yo'q. Yaqin masofada nisbatan yorug' yorishayotgan ushbu manbaga ko'zini qisib qaragan Garri dastlab uni fonus sifatida qabul qildi, so'ng aslida supa ustiga o'rnatilgan va nimasi bilandir damblxotirani eslatgan tosh jom ekanini idrok etdi.

Garri jom tomon odimlagan Damblidor ketidan ergashdi. Ikkovlon yonma-yon turgancha tosh jom ichiga qarab, flyuoresent nur taratayotgan zumradrang suyuqlikni ko'rdi.

– Nima bu? – past ovozda so'radi Garri.

– Aniq bilmayman, – javob berdi Damblidor. – Ammo qon bilan murdalarga nisbatan ancha xavfli ekani aniq.

Damblidor yana majruh qo'lining yengini shimarib, ko'mirdek qop-qora barmog'ini suyuqlikka tiqdi.

– Tegmang, ser, xavfli!

– Tega olmayman ham, -- kulib boqdi Damblidor. – Ko'ryapsanmi, bo'lmayapti. O'zing urinib ko'r.

Garri zumradrang damlamaga qarab, qo'l tekkizishga dahshat-la urinib ko'rdi-yu, bir dyuymdan yaqin borishga to's-qinlik qilayotgan ko'zga ko'rinmas g'ovga ro'baru bo'ldi. G'ovni kuchliroq, yanada kuchliroq turtib ko'rdi-yu, barmog'i niho-yatda zich, hech narsa o'tkazmas havodan boshqa narsani his etmadi.

– Qani, nari qoch-chi, Garri, – dedi, sehrli tayoqchasini qo'liga olgan Damblidor.

Keksa sehrgar deyarli ovoz chiqarmay g'udullagancha, tosh jom ustida allaqanday g'alati harakatlar bajardi. Agar damlama yanada yorqinroq yorishib ketgani hisobga olinmasa, hech nima ro'y bermadi.

-- Ruhdon shuning ichida deb o'ylaysizmi, ser? – so'radi indamay turgan Garri, Damblidor sehrli tayoqchasini tushirishi bilan.

– Ruhdon-ku shuning ichida ekani aniq, lekin uni chiqarib olish... – dedi Dambldor, yashil suyuqlikning silliq yuzasiga diqqat-la nazar solib. – Qanday uddalasa bo‘lar ekan? Damlama ichiga qo‘l tiqib bo‘lmadi, uni bug‘lantirish, chetga surilishga majbur qilish, sehrli tayoqcha ichiga singdirib yuborish, sehrini bekor qilish, shakli yoki tabiatini o‘zgartirishning iloji bo‘lmadi.

Dambldor sehrli tayoqchasini keskin aylantirib, havoda billur qadah paydo qildi.

– Taxminimcha, damlamani ichib bitirish kerak.

– Nima? – xitob qildi Garri. – Yo‘q!

– Aftidan, shunga o‘xshaydi: damlamani ichib, tosh jomni bo‘shatgach, tubida nima borligini ko‘rish mumkin.

– Ammo... agar u o‘ldirib qo‘ysa-chi, sizni?

– Lord Voldemort shu yergacha yetib kela bilgan odamni o‘ldirishiga shubha qilaman, – xotirjam e‘tiroz bildirdi Dambldor.

Garri eshitganiga bovar qila olmayapti. Nima bu? Dambldorning hamma va hamma yoqda faqat yaxshilik ko‘ra bilishga bo‘lgan aqldan tashqari intilishining navbatdagi misolimi?

– Ser, – tushuntirish ohangida gap boshladi Garri, – hozir gap Yovuz Lord to‘g‘risida boryapti...

– Ma‘zur tutasan, Garri, shu zahoti o‘ldirishiga shubha qilaman, deyishim kerak edi, – gapiga tuzatish kiritdi Dambldor. -- Qo‘yilgan to‘siqlarni qanday yengib o‘tgani-yu va eng muhimi tosh chanoqni nima maqsadda bo‘shatmoqchi bo‘lganini bilguncha, o‘ldirmagan bo‘lar edi. Shuni unutmaginki, Lord Voldemort o‘z ruhdonlari haqida o‘zidan boshqa hech kim bilmasligiga ishonchi komil.

Garri nimadir demoqchi bo‘lib og‘iz juftlagan ediki, Dambldor qo‘lini ko‘tarib, jim bo‘lishga imo qildi va qoshini biroz chimirib olgancha, qo‘lidagi billur qadahga qarab qoldi.

– Shubha yo‘qki, – dedi u, biroz sukut saqlab turgach, – damlama ta’siri ruhdonni olishimga to‘sqinlik qiladi, meni harakatsiz holatga solishi, bu yerga nima maqsadda kelganimni unutishga majbur qilishi, jonimni kuchli og‘ritib, tosh jom bilan

ishim bo'lmay qolishi yoki ko'zlangan maqsadga yetishishga boshqa bir usulda xalal berishi mumkin. Agar ahvol, haqiqatan ham, o'sha darajaga borib yetadigan bo'lsa Garri, oldingda turgan vazifa mana bu suyuqlikni oxirigacha ichib tugatishimni nazorat qilish, kerak bo'lsa, meni majbur qilishdir. Tushundiringmi?

Ikkalasining nigohi tosh jom ustida to'qnash keldi. Ularning oqargan yuzlari yashil tusda yorishmoqda. Garri sukut saqlab turibdi. Bu yerga nima uchun kelgani, zarur bo'lsa, chidab bo'lmas og'riq berishi mumkin bo'lgan mana bu suyuqlikni Damblorning og'ziga majburan quyishi kerakligini endi tushundi.

– Seni bu yerga qanday shart bilan olib kelganim esingdami?

Garri kekxa sehgarning jom yog'dusida yashil tus olgan moviy ko'ziga yana bir bor jur'atsiz qarab qo'ydi.

– Agar?... – og'iz juftladi bola.

– Amringa itoat etishga qasam ichgan edingmi? – eslatdi kekxa sehrgar.

– Ha, biroq...

– Sayohatimiz mashaqqatli kechishi haqida seni ogohlantirgan edim, shundaymi?

– Ha, ammo...

– Shunday ekan, – dedi Damblor, yengini shimgancha, bo'sh qadahni ko'tarib, – amrimni eshitding.

– Men ichsam nima qiladi shu damlamani? – umidsiz so'rdi Garri.

– Chunki mening yoshim ulug', nisbatan aqlliman va ayni vaqtda, senchalik qadrli emasman, – javob berdi Damblor.

– So'nggi bor so'rayapman sendan Garri, damlamani oxirigacha ichib tugatishim uchun qo'ldan kelgancha harakat qilishga so'z berasanmi?

– Sal boshqacha yo'l tutsak...

– So'z berasanmi? – qat'iy ohangda so'radi Damblor.

– Lekin...

– So'z ber, Garri.

– Men... yaxshi, lekin...

Garri yana e'tiroz bildirish uchun og'iz juftlashga ulgurmay turib, Damblodor billur qadahni tosh jomdagi damlamaga botirishga ulgurdi. Ushbu billur qadah ham damlamaga yeta olmasligi borasidagi Garrining so'nggi umidi puchga chiqdi. Idish damlamaga osongina to'ldi.

– Sog'liging uchun, Garri, – dedi Damblodor, damlamaga to'ldirib olgan qadahini og'ziga keltirib.

Tosh jomning qirrasini barmoqlari oqarib ketgan darajada mahkam changallab olgan Garri dahshat-la Damblodorga baqraydi.

– Professor! – tashvish-la qichqirdi u, Damblodor qadahni tushirgan zahoti. – O'zingizni yaxshi his etyapsizmi?

Ko'zini chirt yumgan Damblodor bosh siltadi. «Shu qadar qattiq og'riyaptimi?» cho'chib ketdi Garri. Damblodor qadahni jomga botirib to'ldirdi-da, yana simirdi.

So'z aytmagan keksa sehrGAR uchta qadahni o'zi ichgach, to'rtinchisining yarmiga kelganida oldinga, jomga yiqildi. U hamon ko'zini ochmay, og'ir nafas olmoqda.

– Professor Damblodor! – xavotir-la qichqirdi Garri. – Meni eshityapsizmi?

Qariya javob bermadi. U qattiq uyquga ketgan bo'lib, yuzi qo'rqinchli tush ko'rayotganday titramoqda. Damlama tutgan qo'li bo'shab, suyuqlik to'kilib ketishiga sal qoldi. Garri qo'lini uzatib, billur qadahni to'g'riladi.

– Professor meni eshityapsizmi? – baland ovozda takrorladi u.

Uning gapi g'orda aks-sado bo'lib yangradi.

Tez-tez, og'ir nafas olib, ilgari hech qachon qo'rquv alomatini bildirmagan Damblodor birozdan so'ng tilga kirdi. Garri uning ovozini tanimadi.

– Yo'q, istamayman... majbur qilma meni...

Garri Damblodorning yarim oy shaklidagi ko'zoynagiga qarab, yuzidan qon qochganini ko'rib, nima qilishni bilmay qoldi.

– Yo'q, menga yoqmayapti... xohlamayman... – ingradi

Dambldor.

– Shunday qilish kerak, professor... kerak, – dedi Garri, qat’iy ohangda. – Hammasini ichib tugatishingiz kerak, esingizdami? Majbur qilishni tayinlagan edingiz. Mana...

Garri o’zidan o’zi nafratlangancha, qadahni Dambldorning og’ziga yaqin keltirib, og’dirdi. Kexsa sehrGAR Garriga itoat qilib, damlamaning qolganini ichdi.

– Yo’q... – po’ng’illadi Dambldor, Garri qadahni qaytadan to’ldirgach. – Istamayman... xohlamayman... qo’yib yubor meni...

– Hechqisi yo’q, professor, – dedi Garri, qo’li titrab. – Hechqisi yo’q, men siz bilanman...

– To’xtasin... bularning bari tugasin... – yig’ladi Dambldor.

– Albatta... mana buni ichib olsangiz, bari to’xtaydi, – aldadi Garri, Dambldorning ochiq og’ziga damlama quyib.

– Yo’q, yo’q, yo’q, yo’q... bo’ldi... bas qil... majbur qilma meni...

Kexsa sehrGARning qichqirig’i g’or ichida, ko’lning o’lik suvi ustida aks-sado bo’lib yangradi.

– Hammasi yaxshi bo’ladi, professor, hammasi yaxshi bo’ladi! – xitob qildi Garri.

Uning qo’li kuchli titrab, qadahni oltinchi bor bazo’r to’ldira oldi. Tosh jomdagi suyuqlik yarmiga yetdi.

– Sizga hech narsa qilmaydi. Bularning bari xavfsiz, rostakamiga emas, chin so’zim... rostakamiga emas... iching, iching...

Dambldor ziddi-zahar qabul qilganday itoat-la ichdi-yu, qadah bo’shashi bilan tizzasiga o’tirib oldi.

– Meni kechiringlar, – ho’ngradi u, titray-titray. – Boshqa unday qilmayman! Iltimos, to’xtating, bularning bari to’xtasin. Men boshqa hech qachon, hech qachon...

– Mana buni ichib olsangiz, hammasi to’xtaydi, professor, – va’da qildi Garri, Dambldorning og’ziga yettinchi qadahni iztirob-la quyay ekan.

Ko’zga ko’rinmas jallodlardan bekinayotganday g’uja-

nak bo'lib olgan sho'rlik qariya qo'lini siltab, Garrining qo'lidagi navbatdagi qadahni ontarib yuborishiga sal qoldi.

– Qiynamang ularni, iltimos, jonini og'ritmang, hammasiga o'zim aybdorman! Yaxshisi, mana, meni qiynang...

– Iching, mana buni ichib oling, ancha yengil tortasiz, – o'tindi Garri.

Ko'zini ochmay boshdan oyoq qaltirayotgan Damblдор yana itoat qilib, og'zini ochdi. Shundan so'ng u yerga yiqilib, ho'nragancha yer mushtladi. Garri yana qadah to'ldirdi.

– Iltimos, iltimos, o'tinaman, iltimos... unday qilmang... men o'zim... hammasini siz aytgandek qilib beraman...

– Ichib olsangiz bo'ldi, professor...

Damblдор damlamani tashnalikdan qiynalib ketgan boladay simirib oldi-da, ichiga o't ketganday o'kirdi.

– Bo'ldi, ortiq chiday olmayman, bo'ldi...

Garri qadahni jom ichiga o'ninchi bor botirib, billur toshga tekkanini his etdi.

– Deyarli bo'ldi professor, iching, mana buni ichib oling...

Garri Damblдорni yelkasidan tutib, qadahni simirib bo'shatishga yordam berdi. Garri damlama olib kelish uchun yana turar ekan, qariya o'lim dardi ila qichqirdi.

– O'lgim kelyapti! O'lishni xohlayman! Bas qil, o'lgim kelyapti!

– Iching, professor, iching...

Damblдор itoat qildi-yu, oxirigacha ichib tugatmay yolvord:

– O'LDIR MENI!

– Mana shuni ichsangiz, o'lasiz! – ayanchli ohangda ishontirdi Garri. – Oxirigacha ichib qo'ysangiz bo'ldi... hammasi tamom bo'ladi!

Damblдор damlamani so'nggi tomchisigacha ichib tugatdi-da, uzuq-yuluq ingragancha, yuzi bilan yerga quladi.

– Yo'q! – qichqirdi, yana damlama olib kelishga turgan Garri.

U qo'lidagi qadahni tosh jom ichiga tashlab, Damblдор-

ning yoniga yugurib keldi-da, beliga bazo'r ag'dara oldi. Keksa sehrning yumuq ko'zidagi ko'zoynagi chetga og'ib, og'zi katta ochilib qolgan.

– Yo'q! qichqirdi Garri, Damblorni siltab. – O'lishingiz mumkin emas, o'zingiz aytdingiz-ku, zahar emas bu, deb. Oching, ko'zingizni oching, ser...

Garri sehrli tayoqchasini Damblorning ko'kragiga tutib qichqirdi:

– Rennerveyt!

Qizil yashin yaraqladi-yu, hech narsa ro'y bermadi.

– Rennerveyt... o'tinaman sizdan... ser...

Damblorning kiprigi titragach, Garrining yuragi umid-la sakrab ketdi.

– Ser, siz?...

– Suv, – ingradi Damblor.

– Suv, – xo'rsindi Garri ham. – Ha, hozir...

U o'rnidan sakrab turib, tosh jom ichidagi qadahni, uning tagida qolgan oltin medalyonga deyarli e'tibor qilmay chalgalladi.

– Aguamenti! – qichqirdi u, sehrli tayoqchasini qadahga o'qtab.

Qadah toza suvga to'ldi. Garri Damblorning yoniga cho'kkalab, qadahni og'ziga tutdi, biroq... qadah bo'm-bo'sh. Ingrayotgan Damblorning nafasi qayta boshladi.

– Hozirgina bor edi-yu... hozir... Aguamenti! – buyurdi Garri.

Qadah ichida suv paydo bo'ldi-yu, Damblorning og'ziga yaqin keltirilishi bilan yana yo'qoldi.

– Harakat qilyapman ser, harakat qilyapman! – umidsiz ingradi Garri.

Yonboshlab olgancha, xuddi jon talashayotgan kabi uzuq-yuluq nafas olayotgan Damblor uni eshitgani ham yo'q.

– Aguamenti... aguamenti... AGUAMYENTI!

Qadah uchinchi bor suvga to'lib, yana bo'shadi. Damblorning nafasi to'xtamoqda. Garrining shosha-pisha ishlayotgan miyasi Voldemortning rejasiga ko'ra, suv qayerdan olini-

shi kerakligini tushunib yetdi...

Garri tosh maydon chetiga yugurib, billur qadahni ko'lga botirgancha suvga to'ldirdi. Qadahdagi suv yo'qolmadi.

– Mana suv, ser! – qichqirdi Garri.

U Dambldor tomon nobop sakrab, suvni qariyaning yuziga to'kib yubordi. Garri boshqa hech nimaga ulgurmadi. Uning bo'sh qo'li sovuq narsani his etdi, lekin bu harorat ko'lning muzday suviga o'xshamadi. Kimningdir sirpanchiq oppoq qo'li Garrining bilagidan ushlagancha, ortga, ko'lga torta boshladi. Ko'l yuzasi endi oynaday silliq emas. Suv to'lqinlanib, qayoqqa qarama, hamma joydan erkak, ayol va bolalarning oyoq-qo'li ko'rina boshladi. Zulmat ichidan chiqayotgan so'qir murdalar armiyasi orolcha tomon qat'iy yaqinlashib kelmoqda.

– Petrifikus Totalus! – qichqirdi silliq nam toshni changalab olishga uringan Garri, sehrli tayoqchasini qo'lidan tutib olgan infernalga o'qtagan tarzda.

Murda changalini bo'shatib, shalpillagancha, orqaga, ko'lga ag'anadi. Garri bir amallab oyoqqa turdi. Tosh orolga qoq suyak barmoqlari bilan tirmashgancha boshqa infernallar chiqib kelmoqda. Ularning parda tortilgan bo'sh nigohlari Garriga qaratilgan, juldur kiyim uvadasidan suv oqib tushmoqda, irib buzilgan basharalar go'shsiragancha yaqinlashmoqda.

– Petrifikus Totalus! – qichqirdi ortga chekingan Garri, sehrli tayoqchasini har tomon siltab.

Besh-oltita murda yiqildi, lekin ularning o'rniga boshqalari bostirib kelmoqda.

– Impedimenta! Inkarserus!

Infernallarning ba'zilar qoqilib tushdi, bir-ikkitasini arqon bog'ladi, ammo ularning ortidan kelayotganlar oldinda yotgan jasadlarni tepalagancha, olg'a odimlab kelmoqda. Sehrli tayoqcha siltashni qo'ymagan Garri qichqirishni davom etmoqda:

– Sektumsempra! SEKTUMSEMPRA!

Ho'l uvada-yu muzday tanalarda hosil bo'lgan chuqur jarohatlardan biron tomchi qon chiqmadi. Murdalar yemirilgan qo'llarini Garri tomon uzatgancha, hech narsa bo'lmaganday ya-

qinlashmoqda. Ortga chekingan Garrini ingichka, ajalday sovuq qo'llar orqadan changallab oldi.

Garrini yerdan uzgan murdalar asta-sekin suv tomon harakat boshladi. Ularning changalidan qutula olmasligini anglagan Garri hozir suvga g'arq bo'lishi va u ham Voldemortning buzilgan ruhini qo'riqlaydigan qorovulga aylanishini idrok etdi.

Kutilmaganda, hamma yoq yorishib, zulmatni yorib o'tgan binafsha-tilla tusli olov tosh orol atrofida halqa hosil qildi. Garrini mahkam ushlab olgan infernallar seskanib, gandiraklashdi. Ularning birortasi olovli halqadan hatlab, suv tomon o'tishga jur'at eta olmadi. Yerga yiqilib, toshga qattiq urilgan Garri oyoqqa turmoqchi bo'ldi-yu, sirpanib yana yerga tushgancha, qo'lini qonatib timdalab oldi. Bir amallab oyoqqa turgach, sehrli tayoqchasini shay tutgancha, atrofga alangladi.

Rangi oqarib, anavi infernallardan ko'p farq qilmay qolgan, lekin ko'zida olov aks etayotgan Damblodor xushiga kelib, hammadan daroz turgancha, sehrli tayoqchasini xuddi mash'al kabi baland ko'tarib olgan. Tayoqchasidan otilib chiqayotgan olov favvorasi orol aylanasiqa tashlangan lassoni¹ eslatmoqda. So'qir infernallar esa yaqin kelayotgan olovdan qochib, bir-biriga urilmoqda.

Damblodor tosh chanoq ichidagi medalyonni olib, ichki kissasiga yashirdi-da, imo ila Garrini yoniga chaqirdi. Sarosimaga tushib qolgan infernallar o'ljani qo'ldan chiqarib yuborishganini payqashmadi ham. Damblodor Garrini qayiq tomon yetakladi. Olovli halqa ular bilan teng harakatlanmoqda. Serraygan infernallar ko'l chetiga yetib olishdi-da, yengil tortib qora suvga sho'ng'ishdi.

Boshdan oyoq titrayotgan Garri qayiqqa o'tib olish uchun Damblodorning kuchi yetish-etmasligi haqida tashvish tortdi. Darhaqiqat, gandiraklayotgan qariya bor kuchini olovli halqani saqlab turishga sarflamoqda. Garri Damblodorni qo'ltig'idan tutib, qayiqqa o'tib olishiga yordam berdi. Ikkovlon joylashib olgach, qayiq hamon olovli halqa ila qamrab olingan orolni

¹ Lasso – hayvonlarni tutish uchun tashlanadigan sirtmoqli arqon, kamand.

tark etdi. Suv ostida ko'ringan ko'plab infernallardan birortasi tashqarida ko'rinish berishga jur'at etmadi.

– Ser, – bemador ovoz chiqardi Garri, – ser, unutibman... olov haqida.... hamla qilib qolishdi... sarosimaga tushib qoldim...

– Hayron bo'ladigan joyi yo'q, – g'udulladi Damblдор.

Qariyaning ovozi bo'g'iqlik chiqqanini eshitgan Garri biroz cho'chidi. Qayiq qirg'oqqa yengil urildi. Sakrab tushgan Garri Damblдорga yordamlashishib yubordi. Oyog'i yerga tegishi bilan nihoyatda toliqqan Damblдор qo'lini tushirib, sehrli tayoqchasini barmoqlari orasidan chiqarib yubordi. Olovli halqa g'oyib bo'ldi, lekin infernallar qayta ko'rinish bermadi. Qayiq suvga g'arq bo'lib, zanjir ham jaranglagancha suvga kirib ketdi. Damblдор chuqur nafas chiqarib, g'or devoriga suyandi.

– Charchadim, nihoyatda charchadim... – shikoyat qildi u.

– Tashvish tortmang, ser, – dedi Damblдорning yuzi bo'zday oqarib ketganidan cho'chigan Garri. – O'zim olib chiqaman sizni... Qani, suyanib oling-chi, menga.

Damblдорning qo'ltig'iga kirgan Garri og'ir yukdan egilgancha, qariyani ko'l bo'ylab sudradi.

– Umuman aytganda, himoya juda ustomonlik-la yaratilgan ekan. – dedi Damblдор, zirillagan ovozda.

– Hozir ko'p gapirmaganingiz ma'qul, – dedi Garri, Damblдорning ovozi va yurishidan xavotirlanib. – Kuchingizni tejang ser... hademay bu yerdan chiqib ketamiz...

Arka yopiq bo'ladi... pichog'im...

– Kerak bo'lmaydi, – qat'iy ovoz-la rad etdi Garri. – Qayerga qon sachratish kerakligini ko'rsatsangiz bas.

– Mana bu yerga...

Garri qonagan qo'lini g'or devoriga surtdi. Qonli haq olgan arka shu zahoti ochildi. Ikkovlon tashqi g'ordan o'tgach, Garri qariyaga muzday suvga tushishga ko'maklashdi.

– Hammasi yaxshi bo'ladi, ser, – qayta va qayta takrorladi Garri, Damblдорning sukutidan battar tashvishga tushib. – Biz deyarli yetib keldik... havoda g'oyib bo'lib, ortga qaytishingizga o'zim yordam beraman... qo'rqmang, ser...

– Yonimda sen bor ekansan hech narsadan qo'rqmayman, Garri, – suv muzday bo'lishiga qaramay, ishonchli ovoz-la javob berdi Damblдор.

XXVII BOB

YASHIN URGAN MINORA

Yana yulduzli osmon ko'rindi. Damblorni xarsang tosh ustiga tortib chiqargan Garri, qariyaning oyoqqa turib olishiga yordam berdi. Sovuqdan tishi taqillab qaltirayotgan, egnidagi kiyimi jiqqa ho'l, Damblorning vaznidan egilib qolgan bo'lishiga qaramay, so'nggi kuchini yig'ib olgan Garri fikr-xayolini harakat yo'nalishi – Xogsmiyodga jamladi. Kiprigini zich qisib, hamrohining tirsagini mahkam ushlagan Garri har tomonlama ezadigan tanish bo'shliqqa qarab olg'a qadam tashladi.

Garri havoda g'oyib bo'lib, paydo bo'lish jarayoni muvaffaqiyatli o'tganini hali ko'zini ochmay turib, tuz hidi bilan yengil dengiz shamoli barham topganidan angladi. Damblor ikkalasi egnidan suv oqayotgan, boshdan oyoq dag'-dag' qaltirayotgan holatda qorong'i Daroz ko'chada turibdi. Tinkasi qurigan Garriga dastlab atrofda infenallar chiqib kelayotganday tuyuldi, ko'zini bir-ikki bor yumib-ochgach, ayrim do'konlarning ikkinchi qavatida yorishib turgan derazalar inobatga olinmasa, qorong'i jimjitlikda turganini idrok etdi.

– Uddaladik, professor! – pichirlab xitob qildi Garri, ko'krak sohasida qattiq sanchiq sezib. – Uddaladik! Ruhdonni qo'lga kiritdik!

Yuzi ter bosgan Damblor tebranib, oyog'ida bazo'r turibdi. Buni ko'rgan Garri, havodagi harakat jarayoni epsiz o'tib, professorning boshi aylangan bo'lsa kerak, degan xayolga bordi, lekin qariyaning yuzidan rangi qochganini ko'rib cho'chib ketdi.

– Ahvolingiz yaxshimi, professor?

– Ilgari nisbatan yaxshiroq edi, – past ovozda hazillashgan bo'ldi Damblor, kulib boqishga urinib. – Darhaqiqat, anavi damlamani darmon kiritish vositasi deb bo'lmaydi...

Madori qurigan qariya yerga o'tirib oldi.

– Ser... tashvish tortmang, hozir o'zingizni yaxshi his eta boshlaysiz, qo'rqmang, ser...

Sarosimaga tushgan Garri yordam topish ilinjida atrofga alangladi. Ko'chada hech zog' yo'q. Qanday bo'lmasin, Damblorni zudlik bilan kasalxonaga yetkazish kerak.

– Sizni maktabga, ser, Pomfri xonim qabuliga... olib borishim kerak.

– Yo'q, – e'tiroz bildirdi Damblor. – Professor Snegning qabuliga... o'zim yetib olishim...

– Ha, albatta... quloq soling ser, hozir mundoq qilamiz: dastlab men, qishloq eshiklarini bir chetdan taqillatib chiqib, siz dam olib turadigan joy topaman... o'zim esa yugurib borib, maktabning feldsher ayolini...

– Severusni, – qat'iy ohangda tayinladi Damblor. – Severusni. Tushundingmi?

– Xo'p, aytaylik, o'sha... Ammo, baribir, yolg'iz qoldirib ketishga to'g'ri keladi sizni...

Garri hali o'rnidan turmay, kimdir yugurib kelayotganini eshitdi. Sezishdi, shekilli, xursand bo'lib ketdi Garri, yuragi sapchib, yordam kerakligini fahmlashgan ko'rinadi! Atrofga alanglab, oyog'iga poshnasi baland momiqli shippak, egniga esa ajdarlar tasvirlangan shoyi xalat kiygan Rosmerta xonim shoshib kelayotganini ko'rdi.

– Xobgohimning pardasini yopmoqchi edim, kutilmaganida ikkalangiz! Xudoga hamd-sanolar bo'lsin, hamd-sanolar bo'lsin, bilganim yo'q edi... Iye, Albusga nima qildi?

Tez-tez nafas olayotgan ayol keskin to'xtab, katta ochilgan ko'zi bilan Damblorga baqrayib qoldi.

– Yaralangan, – tushuntirish berdi Garri. – Rosmerta xonim, professor Damblor «Uch supurgi»da bo'lib tursa, maylimi? Men maktabga yordam chaqirishga borib, tez qaytaman.

– Yolg'iz o'zing borishing mumkin emas u yerga, tushunmayapsanmi?... Ko'rmadingmi?

– Agar uni ko'tarishga yordam berib yuborsangiz, – davom etdi Garri, ayolning gapiga e'tibor qilmay. – Uni ichkariga...

– Tinchlikmi, Rosmerta? – so'radi Damblor. – Nima bo'ldi?

Ajal... Ajal belgisi, Albus.

Qo'li bilan «Xogvars» ustidagi osmonni ko'rsatayotgan ayolning gapi vujudida kuchli qo'rquv uyg'otib yuborgan Garri orqaga o'girilib, maktab ustida og'zidan til o'rniga ilon chiqqan kalla suyagi – O'limdan zavqlanuvchilarning yorishib turgan, odatda, qotillik sodir etilgan bino ustida qoldiriladigan belgisini ko'rdi.

Oyog'iga bazo'r turayotgan Damblorning barmoqlari Garrining yelkasiga botib, jonini og'ritdi.

– Ko'p bo'ldimi, paydo bo'lganiga? – so'radi u.

– Taxminan ikki daqiqa. Mushukni tashqariga chiqarib yuborayotganimda yo'q edi, yuqoriga ko'tarilayotganimda esa...

– Qasrga... Zudlik bilan... Rosmerta, transport kerak bo'ladi bizga... supurgi... – dedi Damblдор, tebranayotgan bo'lsa ham qat'iy ohangda.

– Peshtoq ortida bir jufti yotibdi. Yugurib borib, olib chiqaymi? – dedi cho'chigan ayol.

– Yo'q, Garrining o'zi uddalaydi.

Garri shu zahoti tayoqchasini qo'liga olib, qichqirdi:

– Assio Rosmerta xonim supurgilari!

Qahvaxona ichida nimadir gumburladi. U yerdan otilib chiqqan ikkita supurgi o'qday uchgancha, Garrining yonida, bel barobar balandlikda sezilar-sezilmas titrab to'xtadi.

– Rosmerta, sendan iltimos, vazirlikka xabar yubor, – dedi Damblдор, supurgilardan birini egarlab. – Aftidan, nima bo'lganini «Xogvars»da hali tushunib yetishgani yo'q... Garri, ko'rinmas plashingni tashlab ol.

Garri kissasidan plashini chiqarib, ustiga tashladi-da, supurgi egarladi. Rosmerta xonim baland poshnasini taqillatgancha, qahvaxona tomon yugurdi. Yerdan itarilgan Garri bilan Damblдор esa havoga ko'tarilib, qasr tomon uchishdi. Garri zarur bo'lsa ushlab qolishga ulgurish maqsadida hamrohiga qarab-qarab bormoqda. Biroq Ajal belgisining maktab ustida muallaq osilib turgan tasviri, kuchli ta'sir o'tkazgan ko'rinadi, Damblдор supurgiga yotib olgancha, ko'zini belgidan uzmay uchmoqda. Uning kumush tusli uzun soch-soqoli qora osmon tusida yaqqol ajrab hilpiramoqda. Garri ham nigohini Ajal belgisidan uzgani

yo'q, vujudiga tarqagan qo'rquv hissi erkin nafas olgani qo'y-may, boshqa noxushliklarni unutib yuborishga majbur qilgan...

Maktabni tark etishgan fursatdan qancha vaqt o'tdi? Ron, Germiona va Jinna ichgan baxt-u tole damlamasi o'z kuchini yo'qotishga ulgurmadimi? Nahotki ulardan birortasi halok bo'lgan bo'lsa? Nevill, Luna? Yoki DA a'zolaridan birortasi? Darhaqiqat, agar kimdir halok bo'lsa... axir, Garri do'stlariga xavfsiz yotoqxonani qo'yib, qasr yo'laklarida patrullik xizmatini uyushtirishni buyurib ketgan edi-ku... Nahotki, u yana o'z do'stining o'limida aybdor bo'lsa?

Pastda ilonizi yo'lak ko'rindi. Shamol qulog'iga hushtak chalayotgan bo'lsa ham Garri Damblorning g'udullagancha, yana allaqanday tushunarsiz tilsim o'qib borayotganini eshitdi. Birozdan so'ng qasr devori ustiga yetgan Garrining supurgisi kuchli titray boshladi. Shundagina u Damblor o'zi qo'ygan himoya to'siqlarini, maktab hududiga tezlikni pasaytirmagan holda kirib borish maqsadida bekor qilayotganini tushundi. Ajal belgisi maktabning eng baland minorasi sanaladigan astronomiya minorasi ustida yarqiramoqda. Qotillik aynan o'sha yerda sodir etilganini anglatishi mumkinmi bu?


Damblor minoraning dandanali to'sig'idan o'tib, supurgisidan tushdi. Garri uning yoniga qo'nib, atrofga nazar soldi. Hech kim va hech narsa ko'rinmadi. Qasrga olib boradigan aylana zinaga chiqish eshigi yopiq. Atrofda kurash alomatlari ham yaralangan yoki halok bo'lgan odamlar ham yo'q.

– Buni qanday tushunish kerak? – so'radi Garri, ilon tusli tilini chiqargancha, vahimali yarqirayotgan bosh suyak tasviriga qarab. – Ilaqiy belgimi, o'zi bu? Chindan ham kimnidir... professor?

Damblor majruh qo'li bilan Garrining ko'krigidan mahkam changalladi.

– Severusning oldiga bor, – past, lekin qat'iy ovozda buyruq berdi Damblor. – Bor gapni aytib, huzurimga olib kel. Boshqa hech qanday chora ko'rma, hech kim bilan gaplashma, plashingni yechma. Men shu yerda kutaman.

-- Biroq...



– Buyrug‘imga so‘zsiz itoat qilishga so‘z bergansan, Garri! Bor!

Garri eshik tomon oshiqib, uning halqasiga qo‘l uzatgan fursatda, kimdir zinadan tez yurib chiqayotganini eshitdi. Dambl-dor eshikdan nari qochishga imo qildi. Sehrli tayoqchasini chiqargan Garri chetga o‘tdi.

Eshik lang ochilib, kimdir qichqirgancha minora maydonchasiga sakrab chiqdi:

– Ekspelliarmus!

Garri serrayib, tanasi taxtaday qotib qoldi. Devorga xuddi haykal kabi qiya tiralib, shu ahvolda turgancha qoldi. Na qilt eta oladi, na so‘z ayta oladi. Qay tarzda bunday holatga tushib qoldi, o‘zi bilmaydi. Axir, Ekspelliarmus odamni muz bo‘lagiga aylantirish tilsimi emas-ku...

Damblorning sehrli tayoqchasi minora to‘sig‘i ortiga uchib tushayotganini ko‘rishga ulgurgan Garri gap nimada ekanini tushunib yetdi: Damblдор, o‘zini himoya qilish o‘rniga, qimmatli soniyalarni sarf etib ichki ovoz-la Garrini harakatsizlantirib qo‘ygan.

Yuzi bo‘zday oqarib ketgan bo‘lsa-da, devor oldida xotirjam turgan Damblдор qurolsizlantirgan odamga boadab salom berdi:

– Xayrli kech, Drako.

Malfoy ortga chekinib, Damblorning himoyachilarini izlagancha, atrofga alangladi.

– Yana kim bor bu yerda? – so‘radi u, ikkinchi supurgini ko‘rib.

– Xuddi shu savolni senga bermoqchi edim. Yoki sen yakka o‘zing ish tutyapsanmi?

– Yo‘q, – dedi Malfoy, Dambldorga qarab. – Madad kuchlari bor. Bugun maktabingizga menga yordam berish uchun O‘limdan zavqianuvchilar tashrif buyurgan.

– Xo‘sh, xo‘sh, – dedi Damblдор, Malfoy uyga berilgan vazifani a‘lo bahoga bajarganini ko‘rsata bilganday, – demak, sen, ularni maktabga kiritish usulini topding, shundaymi?

– Ha, burningiz ostida, – javob berdi Malfoy kuchli hansirab. – Siz esa buni sezmadingiz ham!

– Ajoyib! – zavq oldi Damblдор. – Shunday bo‘lsa-da, so‘rashga majburman, uzr. Qani, o‘zi ular, ko‘rinmaydi-yu.

– Qo‘riqlash xizmatiningiz xalal beryapti. Pastda kurash ketyapti. Uzoq davom etmaydi... men bu tomon yugurdim. Menga... men buyruqni bajarishim kerak.

– Yaxshi, o‘g‘lim. Boshla bo‘lmasa, bajar buyruqni, – dedi Damblдор muloyim ovozda.

Oraga sukunat cho‘kdi. Mutlaqo harakatsiz turgan Garri ikkala suhbatdoshni kuzatib, uzoqda kechayotgan kurash alomatini eshitish umidida qulog‘iga zo‘r berdi. Drako Malfoy esa kulib boqayotgan Albus Damblдорga baqraygancha, hech nima qilmay turibdi.

– Drako, tabiatan qotil emassan sen.

– Nega ekan? – o‘dag‘ayladi Malfoy.

E‘tirozi yosh bolaning javobiday eshutilganini aftidan, Malfoyning o‘zi ham yaxshi tushungan ko‘rinadi. Chunki, Ajal belgisining yashil tusli xira nurida Malfoyning ikkala lunji qizarib ketgani yaqqol ko‘rinmoqda.

– Nimalarga qodir ekanimni bilmaysiz, – dedi u, g‘ayratini ko‘rsatmoqchi bo‘lib. – Nima ishlarni qilib ulgurganimni ham tasavvur eta olmaysiz!

– Nega endi, bilaman, – yumshoq ohangda e‘tiroz bildirdi Damblдор. – Ketti Bell bilan Ronald Ueslini halok qilishga sal qoldi. Yil davomida meni yer tishlatishga rosa urinding. Meni kechirasan-u, Drako, urinishlarining zaif, ishonchsiz bo‘lib, chindan ham, meni o‘ldirishga ahd qilganing, shu ish senga kerakligiga shubha ila qaray boshladim...

– Kerak! Juda kerak! – jazavasi tutib qichqirib Malfoy. -- Men yil davomida ishladim, harakat qildim va nihoyat bugun...

Qasr ichidan bo‘g‘iq taqiriq eshutilib, Malfoy yelka uzra ortga asabiy qarab qo‘ydi.

– Kimdir mardlarcha qarshilik ko‘rsatmoqda, – ta‘kidlab qo‘ydi Damblдор. – Gapingga qaraganda... Ha-ya. O‘limdan

zavqlanuvchilarni maktabga kiritding-ku, a? Tan olaman, buning iloji yo'q, deb o'ylagan edim... Qanday uddalading?

Malfoy indamadi, pastda eshitilayotgan shovqinga quloq tutib, u ham harakatsizlanib qolgan ko'rinadi.

– Ehtimol, ishni o'zing eplarsan? – taklif qildi Dambldor.

– Yordamchilaring qo'riqchilarim tomonidan qo'lga olingan bo'lsa-chi? Qaqnus ordeni a'zolari ham bugun shu yerda ekanini tushunib yetding, shekilli, a? Umuman aytganda esa yordamchi kerak emas senga... ko'rib turibsan-u, sehrli tayoqcham yo'q, o'zimni himoya qila olmayman...

Malfoy Dambldorga indamay qarab qoldi.

– Tushunarli, – xayrixoh kulib boqdi Dambldor, Malfoyning javobini kutmay. – Yolg'iz o'zing ish tutishga qo'rqasan.

– Qo'rqmayman! – yana o'shqirdi Malfoy, hanuzgacha biron chora ko'rmay. – Aksincha, siz qo'rqishingiz kerak!

– Nimadan? Meni o'ldira olishingga ishonmay qo'ygan bo'lsam, Drako. Qotillik, begunoh odamlar taxmin qilgan darajada oson ish emas... Xo'p, mayli, do'stlaringni kutar ekanmiz, ular kelguncha ayt-chi menga Drako, ularni qasrga qanday kirita olding? Ancha vaqt kerak bo'lgandir, axir, senga?

Aftidan, Malfoy baqirib yuborishdan yoki qayt qilishdan o'zini bazo'r tiymoqda. Dambldorga o'qrayib, sehrli tayoqchasini tik yuragiga o'qtar ekan, titrab so'lak yutib, bir necha bor chuqur nafas oldi-da, xohishiga zid ravishda javob berdi:

– Ko'pdan buyon birov foydalanmagan, o'tgan yili Montegyu gum qilingan g'oyib qilish javonini tuzatdim.

– A-a-a! – ingraganday eshitildi ko'zini yumgan Dambldorning ushbu javobi. – Dono fikr... Jufti ham bor-da, a, uning?

– Albatta, «Borjin va D'Avillo» do'konida, – tasdiqladi Malfoy. – Ikkalasining orasida esa yo'lakka o'xshash aloqa bor. Montegyuning gapiga qaraganda, «Xogvars»da turgan o'sha javon ichida o'tirar ekan, hushsiz bo'lishiga qaramay, ba'zan maktabdagi, ba'zan do'kondagi gap-so'zlarni, javon ular orasida harakatlanganday eshitib o'tirgan... Lekin o'zining ovozi birovga eshittirishga erisha olmagan... oxiri, guvohnomasi bo'l-

masa-da, g'oyib bo'lib, tashqarida, unitaz ichida paydo bo'la olgan. O'lib qolishiga sal qolgan. Uning hikoyasini hamma og'zini lang ochgancha eshitib o'tirdi. Faqat men fahmladim gap nimada ekanini. Borjinning o'zi ham bexabar ekan! Mana shu ikkala javon vositasida, agar buzuq jufti ta'mirdan chiqarilsa, «Xogvars»ga singib kirish mumkinligiga yolg'iz mening aqlim yetdi.

-- Ajoyib, -- po'ng'illadi Damblдор. -- Demak, O'limdan zavqlanuvchilar senga yordam berish maqsadida maktabga «Borjin va D'Avillo» do'koni orqali singib kirishgan... uddaburo... uddaburo... o'zing aytganday, burnim ostida-ya....

-- Ha, nihoyatda uddaburo! -- bosh irg'idi, Damblдорning maqtovidan ruhi aqlga zid ravishda ko'tarilgan Malfoy.

-- Biroq senga vaqti-vaqti bilan g'oyib qilish javonining maktabdagi juftini tuzatib bo'lmaydiganday tuyilgan, shundaymi? Ana o'shanda sen dag'al, puxta o'ylanmagan sa'y-harakatlarga qo'l urgansan. Masalan, menga yovuz sehr qo'llanilgan marjon shodasini, birovning qo'lga tushishi muqarrar bo'lsa ham yo'llagansan... faqat favqulodda tasodif-la ichishim mumkin bo'lgan asal ichimligini yuborgansan...

-- To'g'ri, lekin birortangiz tushunib yetmagansiz, bularning barini kim uyushtirayotganini, -- tishining oqini ko'rsatdi Malfoy.

Damblдор, aftidan, oyog'ida madori qolmagan ko'rindi, devor bo'ylab pastga sirpana boshladi. Tildan qolgan Garri oyoq-qo'lini qotirib qo'ygan tilsimga qarshi behuda kurashmoqda.


-- Bularning bari aynan sening qilmishing ekani allaqachon ma'lum bo'lgan, -- dedi Damblдор.

-- Nega unda to'xtatib qolmadingiz meni? -- tahdidli ohangda so'radi Malfoy.

-- Harakat qildim, Drako. Professor Snegg mening buyrug'imga binoan kuzatib yurgan seni...

-- Sizning buyrug'ingizga emas, oyimga bergan va'dasiga binoan kuzatib yurgan...

-- Senga shunday degan, aslida esa...



– Shu qadar miyasini yegan qari ahmoq bo‘ladimi, odam degan, a? Aslida ikki yoqqa ishlaydigan josus u! Siz mening manfaatimga ishlaydi, deb o‘ylagansiz, aslida esa unday bo‘lmagan!

– Mana shu yerga kelganda, Drako, fikrlarimiz bir-biriga zid kelib qoladi va buni tan olishingdan boshqa chorang qolmaydi. Men Severusga to‘la-to‘kis ishonaman...

– Demak, ishbilarmonlik qobiliyatingizni yo‘qotgansiz! – zaharxanda qildi Malfoy. – U doimo menga yordam qo‘lini uzatishga oshiqqan... shon-shavkatni butunicha o‘ziga olmoqchi bo‘lgan... «Bu nima qilganing? Marjon shodasi sening qil-mishingmi? G‘irt ahmoqlik bu, ishni rasvo qilgan bo‘lar eding» va hokazo... Lekin Darkor xonada nima ish qilganimni unga aytmadim... Ertaga uyg‘onib qarasaki, ish bitgan. Biroq Yovuz Lordning xush ko‘rgan do‘sti endi u emas... Mening xizmatlarim oldida uning ishi sariq chaqaga arzimay qoladi!

– Munosib mukofot, – dedi Damblдор yumshoq ohang-da. – Mehnatiga yarasha rag‘batlantirilishini hamma ham xush ko‘radi, albatta... shunday bo‘lsa-da, yordamchisiz ish tutma-gansan... va, aftidan, yordamching Xogsmiyodda yashaydi. Axir, Kettiga...

Damblдор xuddi uxlab qolayotgan kabi ko‘zini yumib, bosh irg‘idi.

– Rosmerta, albatta... Qaram qilish qarg‘ishi ta’sirida ko‘pdan buyon yuribdimi u?

-- Endi yetib bordimi? -- masxaraomuz kuldi Malfoy.

Pastda yanada baland qichqiriqlar eshitildi. Malfoy orqa-ga asabiy qarab qo‘yib, yana Dambldorga yuzlandi.

– Demak, zaharlangan marjon shodasini berib yuborish uchun bechora Rosmerta o‘z hojatxonasida «Xogvars»ning birorta o‘quvchi qizi yakka o‘zi kirishini kutib o‘tirishga majbur bo‘lgan ekan-da? Ichimlikni-chi? Rosmerta sening amring ila shishaga zahar solib, Rojdestvoga menga tuhfa qilmoqchi bo‘l-gan Divangardga yo‘llagan... ha, uddaburo ish... mister Filch esa, tabiiyki, Rosmertaning shaxsan o‘zi yuborgan vinoni tekshirib ko‘rishni hayoliga ham keltirmagan... O‘sha ayol bilan qanday

bog'langansan, shuni ayt? Mavjud yo'llarning bari nazoratimiz ostida deb hisoblagan edim.

– Sehrangan tangalar, – istar-istamas tushuntirish berdi Malfoy, sehrli tayoqcha ushlagan qo'li qaltirab. – Biri menda, ikkinchisi o'sha ayolda bo'lgan. Shu tariqa, bir-birimizga xabar yo'llab borgan edik...

– O'zini Damblдор armiyasi deb nomlagan guruh tomonidan qo'llanilgan usuldan foydalandingmi? – qiziqdi Damblдор, devorga suyangan holda yana bir dyuymga sirpanib.

– Ha, aloqa bog'lash g'oyasini o'shalardan, musallasni zaharlash g'oyasini esa maglvachcha Grenjerdan olganman, – irjaydi Malfoy. – Filch bir suyuqlikni ikkinchisidan farqlay olmasligi haqida aytgan fikrini kutubxonada pinhon eshitib qolgan edim.

– Mening oldimda unday haqoratli so'zlarni aytishdan o'zingni tiyib tur, iltimos.

Malfoy asabiy xandon otdi.

– Men uni o'ldirmoqchi bo'lib tursam-u, bu ahmoq haqoratli so'z aytishdan o'zimni tiyishni iltimos qilsa.

– To'g'ri, iltimos qilyapman, – dedi Damblдор qat'iy ohangda.


Garri Damblдорning muvozanatni saqlab qolish uchun oyog'ini yerga bazo'r tirab turganini ko'rib turdi.

– Qotillik masalasiga kelsak, Drako, vaqting yetarlidan ortiq edi. Ikkalamiz yolg'iz turibmiz. Men mutlaqo himoyasiz. Bunday holatda bo'lishimni xayolingga ham keltirmaganing aniq...

Malfoy basharasini achchiq bir narsa chaynab olganday burishtirdi.

– Bugungi oqshom masalasida, – davom etdi Damblдор. – Maktabdan chiqib ketganimni qayerdan bilding? Ha, aytganday, javob berdi u, o'z savoliga. – Meni Rosmerta ko'rib qolgan edi-yu, o'sha xabar bergan-da, a, anavi tangalarning vositasida?...

– Xuddi shunday, – tasdiqladi Malfoy. – Faqat u qittay urib olish uchun boshqa qahvaxonaga ketganingizni, tez orada qaytishingizni aytgan edi...



– To‘g‘ri, bugun men rosa to‘yib ichdim... lekin qanday holatda bo‘lmay... qaytdim, – g‘udulladi Damblдор. – Menga tuzoq tayyorlash g‘oyasi o‘zingga tegishlimi?

– Kim o‘ldirilganini bilish uchun tez qaytishingizni uyushtirish maqsadida minora ustiga Ajal belgisini osib qo‘yishga ahd qildik. Ko‘rib turganingizday, g‘oya pand bermadi!

– Bu sal bahsli masala, – dedi Damblдор. – Lekin gaping ma‘nosiga qaraganda, qotillik sodir etilmagan, shundaymi?

– Qo‘riqchilaringizdan kimdir o‘ldi, – dedi Malfoy ovozini butun bir parda ko‘tarib. – Qorong‘i edi, kimligini aniq bilmayman... jasad ustidan hatlab o‘tdim... menga yuqoriga chiqib, sizni kutish buyurilgan... anavi Ordenlik qaqnuslaringiz esa oyoq tagida o‘ralashib yurishdi...

– Ha, ularga xos fazilat bu, – javob berdi Damblдор.

Pastdagi gumbur-gumbur va qichqiriqlar yanada baland eshitildi. Aftidan, kurash yaqin orada, aylanma zinaning o‘zida kechmoqda. Kimdir halok bo‘lgan... Garrining yuragi ko‘rinmas ko‘krak qafasida qarsillab urmoqda... Malfoy jasad ustidan hatlab o‘tgan. Kimning?...

– Nima qilgan taqdirda ham vaqting tig‘iz, Drako, – dedi Damblдор. – Shunday ekan, kelgusi harakating variantlarini ko‘rib chiqaylik.

– Kelgusi harakatim variantlari? – xitob qildi Malfoy. – Qo‘limda sehrli tayoqcha... mening variantim sizni o‘ldirish...

– O‘g‘lim, soxtakorlikni chetga yig‘ishtirish vaqti yetdi. Niyating meni o‘ldirish bo‘lganida, gap sotib o‘tirmay, meni qurolsizlantirganing zahoti o‘ldirgan bo‘lar eding.

– Boshqa variantim yo‘q! – baqirdi Malfoy, rangi xuddi Damblдор kabi oqarib. – Men shu ishni qilishim kerak, aks holda u meni, butun oilamni o‘ldiradi!

– Ahvoling nihoyatda murakkab ekanini ko‘rib turibman, – bosh iring‘idi Damblдор. – Nima deb o‘ylaysan, nima sababdan sening qilmishlaringga boshida barham bermadim? Chunki men bir narsani aniq bilar edim: agar Lord Voldemort mening shubhalarimni fahmlab qolsa, seni o‘ldirishi muqarrar edi.

Dahshatli ismni eshitgan Malfoy seskanib ketdi.

– Zimmangga yuklangan yuksak vazifadan xabarim bor, – davom etdi Dambldor. – Biroq Lord Voldemort legalimensiyadan foydalanishi mumkinligidan xavfsirab, senga bu haqda og'iz ochishga jur'at etmadim. Mana nihoyat, endi ochiq-oydin gaplashishimiz mumkin... Shu kungacha, Drako, sen birorta jinoiy ishga qo'l urmading, hech kimga ziyon yetkazmading, tasodifiy qurbonlaring omon qolib, omading chopdi... va men senga yordam berishim mumkin.

– Yo'q, yordam bera olmaysiz, – dedi Malfoy, sehrli tayoqchasini har tomon siltab. – Hech kim yordam bera olmaydi menga. Bu ish ijrosi yolg'iz o'zimning zimmamga yuklagan, bajarmasam meni o'ldiradi u. Boshqa yo'lim yo'q.

– Biz tomonga o't, Drako. Biz seni shunday yashirib qo'yamizki, hech kim topa olmaydi. Boz ustiga, men hoziroq Orden a'zolarini onangning huzuriga jo'nataman, uni ham ishonchli joyga yashirib qo'yishadi. Otang hozir xavfsiz joyda, Azkabanda... fursati kelganda uni ham himoya qila olamiz... Biz tomonga o't, Drako... sen qotil emassan...

Malfoy ko'zini katta ochgancha, Dambldorga baqrayib qoldi.

– Men haddan ortiq chuqurlashib bo'ldim, – asta gap boshladi u. – Ko'pchilik ushbu vazifa ijrosi yo'lida o'lib ketishimni kutgan, men esa tirikman... siz mening ixtiyorimdasiz... tayoqcha faqat menda bor... mening shafqatimga umid qilishingiz mumkin, xolos...

– Yo'q, Drako, – past ovozda e'tiroz bildirdi Dambldor. – Hozir gap sening emas, mening shafqat qilishim to'g'risida ketyapti.

Garri indamay qolgan Malfoyni og'zi lang ochilgan, qo'lidagi, aftidan, biroz pastga tushirilgan sehrli tayoqchasi tinimsiz titrayotgan holatda ko'rmoqda.

Zinada birovning shaxdam qadami eshitildi. Bir necha soniya ichida eshikdan minora maydonchasiga qora korjoma kiyib olgan to'rt kishi otilib kirib, Malfoyni chetga surib yuborishdi. Ko'rinmas plash ostida harakatsiz holatga keltirilgan

Garri O'limdan zavqlanuvchilarga dahshat-la qarab turibdi: ular g'alaba qozongan, shekilli.

Beso'naqay katta gavdali sehtgar hansiragancha, g'alati qiyshiq og'zi bilan hirlingladi.

– Dambldorcha turibdi devorchaga tiralgancha! Dambldorchada yo'q sehrli tayoqcha, turibdi o'zi, yolg'iz qol-gancha! -- ming'irladi u, opasi bo'lsa kerak, tishining oqini ko'rsatib turgan pakana ayolga qarab. – Yasha, Drako, yasha!

– Xayrli kech, Amikus, -- xotirjam salomlashdi Dambldor, xuddi bir piyola choy ichib ketgani kelgan mehmonni qarshi olganday. – Alekto ham kelibdi-da... juda soz...

– O'liming oldidan ahmoqona hazillaring yordam bera-di, deb o'ylaysanmi? – dedi ayol jahldor ohangda kulib.

Dambldor koyib berdi:

– Ahmoqona hazillar? Nimalar deyapsiz, axir, bu oddiy xushmuomalalik-ku...

Dambldorning gapini Garriga yaqin turgan novcha bo'y-li, mo'ylovli, suv ko'rmagan kulrang paxmoq sochi har tomon osilib tushgan, loy. ter va qon hidi anqiyotgan ozg'in tanasiga egnidagi qora korjomasi torlik qilayotgan, qo'li nihoyatda kir, sariq tirnog'i haddan ortiq o'sgan qotma kishi qandaydir g'alati, Garri ilgari eshitmagan, xirillagan akillashni eslatadigan ovozda bo'ldi:

– Bo'linglar, cho'zmanglar.

– Senmisan, Fenrir? – so'radi Dambldor.

– Ha, men, – xirilladi Fenrir. – Meni ko'rganingdan xursandmisan, Dambldor?

– To'g'risini aytsam, yo'q...

Fenrir Uolk o'tkir tishining oqini ko'rsatib kulgan bo'l-di-da, jag'idan oqib tushayotgan qonni shoshilmay yalab oldi.

– Yosh bolalarni yoqtirishimni bilasan-u.

– Nahotki endi sen odamlarga Oy to'lmagan kechalarda ham hamla qilayotgan bo'lsang? G'ayrioddiy hol... odam g'ajish havosini shu qadar olgansanki, bir oyda bitta hamla endi kamlik qilyaptimi?

– Ha, Dambldor, shunday. Seni hayratga solib, qoʻrqitib yubordim, shekilli, a?

– Sendan jirkanayotganimni yashirishga hojat boʻlmasa kerak, – javob berdi Dambldor. – Darhaqiqat, meni hayratga solgan yeri, Drako seni oʻz doʻstlari yashaydigan maktabga taklif qilgani boʻldi... Nahotki boshqa odam qurib ketganday...

– Taklif qilganim yoʻq uni. U ham qoʻshilib kelishini bilganim yoʻq... – eʼtiroz bildirdi, ovozi bazoʻr cshirilgan, Uolkdan qoʻrqib, unga qarashga ham yuragi betlamayotgan Malfoy.

– Qaysi ahmoq «Xogvars»ga tashrif buyurishdan bosh tortadi, – akilladi Uolk. – Qanchadan qancha muloyim, mazali boʻgʻizchalar, u-u-m... maza...

U tishini yalangʻochlatib kulgan boʻldi-da, sariq tirnogʻi bilan tish orasini tozaladi.

– Seni esa Dambldor, gazak sifatida yeganim boʻlsin...

– Yoʻq, – keskin eʼtiroz bildirdi yuz qiyofasi jiddiy toʻrtinchi Oʻlimdan zavqlanuvchi. – Buyruq bor. Uni Drako bajarishi kerak. Boʻl, Drako, ishga kirish.

Biroq Malfoyda jurʼat degan narsaning oʻzi qolmagan. U devorga suyangancha pastlab ketgan Dambldorning oppoq yuziga qoʻrquv-la qarab qolgan.

– Koʻrmayapsizlarmi, shundoq ham joni chiqadigan holatda yotibdi! – xitob qildi ogʻzi qiyshiq sehrigar, opasining hirlinglashiga joʻr boʻlib. – Ahvoliga qarang buni... Hoy, Dambi, nima qildi senga oʻzi?

– Qoʻrqinchli joyi yoʻq, Amikus, inson organizmida qarshilik koʻrsatish qobiliyatining pasaygan darajasi, sekinlashgan taʼsirchanlikning namoyon boʻlishi, bir soʻz bilan aytganda, qarilik, – javob berdi Dambldor. – Sen ham vaqti kelib shu holatga tushasan, omading chopsa, albatta...

– Nimalar deyapsan, nimalar deb aljirayapsan? – kutilmaganda achchiqlandi Oʻlimdan zavqlanuvchi. – Har doimgidek, safsata-yu, vati-kuti. Biron bir foydali natija yoʻq. Yovuz Lordga ortiqcha kuch sarflab, ovora boʻlib seni oʻldirish nimaga kerak boʻlib qoldi, bilmayman, shundoq ham narom oʻlib ketadigan holatda yotibsan. Boʻl, Drako, sugʻur jonini tezroq.

Pastda yana yugur-yugur boshlanib, kimningdir qichqirig'i eshitildi:

– Ular zinani to'sishdi... Redukto! RYeDUKTO!

Garrining yuragi quvonchdan sakray boshladi: demak ko'rsatilgan qarshilikni mana bu to'rtalasi to'la-to'kis yenga bilgani yo'q, yo'lga to'siq o'rnatib minora maydoniga yorib o'ta olishgan, xolos...

Bo'l tez, Drako! – achchiqlandi yuz qiyofasi jiddiy kishi.

Biroq Malfoyning qo'li shu qadar kuchli qaltiramoqdaki, nishonga olishi qiyin kechyapti.

Menga qo'yib beringlar uni, – irilladi tishini yalang'ochlatgan Uolk, ikkala qo'lini uzatgancha, Damblдор tomon odimlab.

– Yo'q dedim! – qichqirdi yuz qiyofasi jiddiy kishi, sehrli tayoqchasini qo'lga olib.

Yashin chaqnadi. Maxluq tusiga kiradigan odam chetga uchib, devorga urildi, joni og'rib tebrandi, ko'zi yarqirab, turgan joyida tek qoldi. Garrining yuragi qattiq urmoqda: nega atrofdagilar buni eshitmayapti, uning shu yerda ekanini payqamayapti? Qani endi, u qilt eta olsa, ko'rinmas plashi ostidan qarg'ish ketidan qarg'ish yo'llasa...

Drako, bo'l tez, yo bizga qo'yib ber uni... chinqirdi ayol.

Eshik aynan shu fursatda lang ochilib, ostonada qo'lga sehrli tayoqcha tutgan Snegg kutilmaganda paydo bo'lib, atrofni tez ko'zdan kechirib chiqdi. Devor ostida bemador yotgan Dambldorni, uch nafar O'limdan zavqlanuvchini, maxluq tusiga kiradigan darg'azab odam va Malfoyni ko'rgan Snegg, minorada yuzaga kelgan vaziyatni to'liq idrok etdi.

– Noxush ahvoldamiz, Snegg, – dedi solqi yuzli Amikus, ko'zini sehrli tayoqcha bilan Dambldordan uza olmay. – Bolakay, qo'rqqulik qilyapti...

Shu payt yana kimdir Sneggni juda past ovozda ismi bilan chaqirdi:

– Severus...

Bugungi oqshom davomida Garri hali bu qadar qattiq qo'rqmagan edi. U umrida birinchi marta Damblorning o'tinayotganini ko'rdi.

Chaqiriqqa javob bermagan, yuzida nafrat va jirkanish qiyofasi kasb etgan Snegg Malfoyni beandisha itarib yubor-gancha olg'a odimladi. Uchala O'limdan zavqlanuvchi indamay ortga chekindi, hatto maxluq tusiga kiradigan odam ham tinchlanib qoldi.

Snegg shafqatsiz nigohini Damblorga qaratdi.

– Severus... iltimos...

Snegg sehrli tayoqchasini ko'tardi-da, Damblorga o'qtadi.

– Avada Kedavra!

Yashil olov Damblorning ko'kragiga urildi.

Tildan ayrilgan, ko'zini ro'y berayotgan ushbu dahshatli hodisadan uza olmagan Garri bor kuchi ila unsiz qichqirmoqda.

Tanasi havoga sapchigan Damblor minora ustida yarqirayotgan bosh suyak tasviri ostida biroz muallaq osilib turdi-da, lattadan qilingan qo'g'irchoq singari ag'anab, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

XXVIII BOB

SHAHZODANING QOCHISHI

Garrining nazarida, u ham allaqanday bo'shliqqa tushib ketdi... Yo'q, bularning bari yolg'on.... bular hayotda bo'lma-gan....

– Ketdik bu yerdan, tez, – buyurdi Snegg.

U Malfoyning yoqasidan changalladi-da, eshikka itardi. Uolk va chorpahil uka bilan zavq-la pishillagan opa Snegning ortidan ergashdi. Qotillar eshik ortida g'oyib bo'lishi bilan Garri o'zining harakatsiz holati barham topgani, hozirgina ko'rgan dahshatdan dong qotgani bois hanuzgacha noqulay holatda turganini idrok etdi. Yuz qiyofasi jiddiy kishi eshik oldiga yetishi

bilan, xayolini yig'ib olgan Garri ustidagi ko'rinmas plashni yechib, qichqirdi:

– Petrifikus totalus!

Beliga qattiq zarba yegan O'limdan zavqlanuvchi orqaga engashib, mumdan tayyorlangan qo'g'irchoqday yerga quladi. Garri shu zahoti uning ustidan hatlab, qorong'i zina bo'ylab pastga yugurdi.

Vujudini dahshat qamrab olgan Garrining xayolida hozir yagona xayol: Sneggni tutib Damblorning yoniga olib borish... Negadir bu bir-biriga bog'liq... agar ularni bir yerga jamlasa, bo'lib o'tgan ishlarni tuzatsa bo'ladi... Damblor o'lishi mumkin emas...

Aylana zinaning so'nggi o'nta pog'onasidan sakrab tushgan Garri sehrli tayoqchasini oldinga o'qtagancha, tek qotdi. Qasrning xira yoritilgan yo'lagida qaqshatqich jang kechmoqda, shiftning yarmi ko'chib tushgan bo'lib, yo'lakni chang qoplagan. Kim kim bilan jang qilyapti, tushunib bo'lmaydi.

– Ish bitdi, chekinamiz! – eshitildi Sneggnining manfur ovozi.

Jang maydonidan monesiz o'tib, yo'lakning narigi tomonida ko'ringan Snegg bilan Malfoy ikkalasi muyulish ortida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Garri ikkalasining ortidan yugurdi. Olishayotgan olomon ichidan kimdir kutilmaganda ajrab chiqib, unga otildi: maxluq tusiga kiradigan Uolk. Garri hatto tayoqchasini ko'tarishga ulgurmay, Uolk uni tagiga bosib oldi. Garrining yuziga iflos soch tutamlari tushib, og'iz-burni qon va ter hidiga, bo'g'zi esa qaynoq nafasga to'ldi...

– Petrifikus totalus!

Vazni og'ir Uolk Garrining ustida qotib qoldi. Uning tanasini bir amallab ag'dargancha, ostidan bazo'r chiqib olgan Garri irg'ib turdi-da, yashil yashinga chap berib, o'zini jang o'rtasiga urdi. Ammo kimningdir tanasiga qoqilib, yiqilishiga bir baxya qoldi. Yerda ikki kishi yuzi pastga qarab qon ko'lmagida yotibdi. Ularning kimligini aniqlashga hozir vaqt yo'q. Garrining qarshisida olov tusli malla soch tutami o'ynoqladi. Jinna solqi yuzli, qarg'ish ketidan qarg'ish yo'llayotgan Amikus bilan jang

qilmoqda. Qiz qarg'ish yashinlariga chaqqonlik-la chap bermoqda, girdig'um O'limdan zavqlanuvchi esa bunday qiziq musobaqadan zavqlangancha, hiringlamoqda.

– Krusio... krusio... bir umr raqsga tusha olmay-san-k, go'zal qiz...

– Impedimenta! – qichqirdi Garri.

Garri yo'llagan qarg'ish yashini Amikusning ko'kragiga borib urildi. Cho'chqaday chinqirgan Amikus havoga ko'tarilib, narigi tomondagi devorga borib urilgancha, har biri o'zi tanlagan O'limdan zavqlanuvchi bilan jang qilayotgan Ron, professor Makgonagall va Lyupin ortida g'oyib bo'ldi. Ulardan sal narida Boms har tomon qarg'ish yo'llayotgan, devorni yorib, deraza oynasini chilparchin qilgan oq sariq sochli ulkan raqib bilan jang qilmoqda.

– Qayerdan kelib qolding, Garri? qichqirdi Jinna.

Savol-javobga vaqt yo'q. Egilishga ulgurgan Garri ustida portlab, hammaning boshiga tosh parchalarini yog'dirgan qarg'ishga chap bergancha, oldinga tashlandi. Sneggni qochirib yuborish mumkin emas, uni qo'lga olish shart...

– Mana senga, yaramas! – eshitildi professor Makgonagallning qichqirig'i.

Garri ko'zining qiri bilan boshini ushlab olgancha, yo'lak bo'ylab qochayotgan Alektoni va opadan qolib ketmaslikka uringan ukani ko'rdi. Ularning ketidan yugurgan Garrining poyafzali nimagadir qisilib, fursat o'tmay, kimningdir oyog'i ustiga ko'ndalang tushdi. Boshini burgan Garri Nevillning polga yopishib qolgan kulcha yuzini ko'rdi.

– Nevill, ahvoling?...

– Yaxshi, – g'udulladi qornini ushlab olgan Nevill. – Garri, ular... Malfoy bilan Snegg ikkalasi... anavi tomon...

– Bilaman, ularni ta'qib qilib ketyapman, – javob berdi Garri.

U yerda yotgancha, dushmanlar orasidagi sira tinchimas va xavfli oq sariq sochli ulkan raqibga qarata qarg'ish yo'lladi. Qarg'ish yashini yuziga tekkan O'limdan zavqlanuvchi og'riqdan dod solib, keskin burildi-da, pakana bo'yli opa-uka ortidan

yugurdi.

Garri bir amallab o'ldirgan turdi-da, orqasida eshitilgan gumbur-gumburga ham, ortga qaytish chaqiriqlariga ham, qismati noma'lum, harakatsiz qolgan tanalarning unsiz chaqirig'iga ham e'tibor qilmay, yo'lak bo'ylab yugurdi....

Muyulish ortiga shiddat-la o'tgan Garrining poyafzali qonda sirpanib ketdi. Snegg katta imkoniyatga ega bo'ldi. Nahotki u Darkor xonaga kirgan bo'lsa? Yo Orden xonani yopib qo'yishga ulgurib, O'limdan zavqlanuvchilarning ushbu chekinish yo'lini to'sdimikan? Garri o'z qadami va yuragining gumburlab urishidan tashqari, boshqa hech narsa eshitmadi. Polda qon izlari. Demak, O'limdan zavqlanuvchilardan kam deganda bir nafari asosiy chiqish eshigi tomon yo'l olgan... aftidan, Darkor xona, chindan ham, to'sib qo'yilgan...

Tezligini pasaytirmagan Garri navbatdagi muyulish ortiga o'tdi. Unga qarshi qo'llanilgan qarg'ish yashinlariga tez chap berib, ritsarlar aslahasi ortiga bekindi. Marmar zina bo'ylab yugurib tushayotgan Amikus bilan Alektoni abjag'i chiqqan aslaha ortidan ko'rgan Garri, ikkalasiga qarata qarg'ish yo'lladi-yu, zina maydoni devorida osig'liq turgan portretidagi yasama sochli afsungar ayollarni cho'chitib, chiyillatgancha qo'shni rasmlarga qochirib yuborgani qoldi, xolos. Aslaha parchalari ustidan sakrab o'tgan Garrining qulog'iga hayajonli qichqiriqlar eshitildi. Aftidan, qasr aholisi uyg'ona boshlagan ko'rinadi...

Hovliga chiqishga ulgurgan Snegg bilan Malfoyga opa-ukadan oldin yetib olishni niyat qilgan Garri qisqa yo'ldan yugurar ekan, yashirin zina o'rtasidagi yo'qolib qoladigan pog'onadan sakrab o'tishni unutmadi, ushbu zina yaqinidagi gobelen orqali o'tib, yo'lakka uchib chiqdi. U yerda hech narsadan xabari yo'q, egnidagi pijamasi bilan chiqqan xufflpuffchilarga duch keldi.

– Garri! Biz shovqin eshitib chiqdik, – gap boshladi Erni Makmillan. – Aytishlaricha, hovlida Ajal belgisi...

– Yo'limdan qoching! – o'kirdi Garri.

Ikki nafar yosh bolani chetga turtgan Garri, zina maydoniga sakrab o'tdi-da, marmar zinadan vestibyl tomon

yugurdi.

Eman eshik lang ochiq. Tosh yotqizilgan polda qon izi ko'rindi. Qattiq qo'rqib ketgan bir nechta o'quvchi devorga qapishib olgan bo'lib, ulardan ayrimlari yuzini hamon bekitib turibdi. «Griffindor»ning katta qum soati sinib, yoqutlari taqillagancha, polga to'kilmoqda...

Vestibyuldan o'qday uchib o'tgan Garri zim-ziyo hovliga sakrab chiqib, maysazor bo'ylab darvoza tomon uch kishi yo'l olganini ko'rdi. Ular maktab hududidan chiqsa, havoda g'oyib bo'ladi. Ulardan biri oq sariq sochli gavdasi yirik O'limdan zavqlanuvchi bo'lsa, sal oldinda Snegg bilan Malfoy...

Tunning sovuq havosi o'pkasini og'ritganiga qaramay Garri, turgan joyidan tezlik olgancha yugurdi. Uzoqda nimadir yorishib, ta'qib qilinayotganlarni bir muddat yoritdi. Nima bo'lganini Garri bilmaydi, u yugurmoqda, yugurmoqda-yu, durustroq nishonga olib, qarg'ish qo'llash masofasiga hech yaqinlasha olmayapti.

Yana nimadir yorishdi, baqiriq eshilib, javoban qo'llanilgan olov yarqiradi. Garri gap nimada ekanini, xususan, kulbasidan sakrab chiqqan Xagrid O'limdan zavqlanuvchilarni qo'lga olmoqchi bo'layotganini angladi. Har bir olgan nafasi o'pkasini yorib yuborguday og'ritib, ko'kraging o'rtasiga olovli qoziq qoqilganday bo'lsa-da, yugurishni davom etdi. Miyasida noxush ovoz yangradi: nahotki Xagrid ham... nahotki Xagrid...

Beliga nimadir urilgan Garri yuzi bilan yerga quladi. Burnidan qon kelib, sehrli tayoqchasini shay tutgancha, joyini o'zgartirish uchun nari yumaladi. Yashirin yo'l bilan quvib o'tilgan opa-uka Garrining orqasidan yetib keldi. Garri, yana bir ag'anab, maysaga qapishib oldi-da, qichqirdi:

Impedimenta!

Qarg'ish opa-ukaning qaysidir biriga tegib, gandraklangancha, sherigini o'zi bilan tortib, yerga qulatdi. Sakrab turgan Garri yana Snegg ketidan quva ketdi.

Bulutlar orasidan paydo bo'lganday, kutilmaganda Xagridning ulkan qiyofasi yarim oy yorug'ligida o'sib chiqdi. Oq sariq sochli O'limdan zavqlanuvchi Xagridga qarata qarg'ish

ketidan qarg'ish yo'llamoqda, ammo Xagridning favqulodda kuchi va davangir onasidan meros olgan dag'al teri qoplamasi uni qarg'ish ta'siridan asramoqda. Snegg bilan Malfoy esa bu paytda qo'ldan chiqib ketmoqda. Ikkalasi darvozadan tashqariga chiqib olsa bo'ldi, havoda g'oyib bo'ladi...

Xagrid bilan uning raqibi yonidan tez yugurib o'tgan Garri Sneggning orqasini nishonga olib, qichqirdi:

– Stupefay!

Xato ketdi. Qizil yashin Sneggning boshi yaqinidan uchib o'tdi.

– Qoch, Drako! – qichqirdi Snegg, Garri tomon o'girilib.

Ikkalasining orasida taxminan yigirma fut masofa bor. Ikkalasi bir-biriga o'qrayib, sehrli tayoqchasini bir vaqtda o'qtadi.

– Krus...

Zarbaning oldini olgan Snegg, qarg'ishni oxirigacha talaffuz etishiga yo'l qo'ymay, Garrini yerga qulatdi. Beli bilan yiqilgan Garri bir ag'anab, yana oyoqqa turdi. Uning orqasida qolgan oq sariq sochli ulkan kishi bu paytda baqirdi:

-- Insendio!

Qattiq portlash yangrab, atrof miltirayotgan to'q sariq tusda yorishib ketdi. Xagridning kulbasiga o't ketdi.

– So'yoqtish kulbada qolgan-ku, hoy sen, darg'azab hayvon! – o'kirdi Xagrid.

Garri yong'in yorug'ida ko'rinayotgan Sneggni yana nishonga olib, baqirdi

– Krus...

Snegg Garri yo'llagan yashinni osonlikcha qaytardi.

– Oqibati mudhish qarg'ishlar ijrosi senga emas, Potter! – jirkanib baqirdi u, yong'in na'rasi, Xagridning o'kirishi va kulbaga qamalgan So'yoqtishning angillashidan ham baland ovozda. – Bunday qarg'ishlar uchun senda na jur'at, na mahorat yetadi...

– Inkars ...

Snegg sehrli tayoqchasini erinchoqlik-la siltab, qarg'ish yashinini yana qaytardi.

Jang qil men bilan! - baqirdi Garri. - Jang qil, qo'rqoq...

- Meni qo'rqoq dedingmi, Potter? - javob berdi Snegg.
-- Otang men bilan yakkama-yakka jang qilishga jur'at etmay, to'rt kishilashib chiqar edi... Qiziq, uni nima deb atagan bo'lar eding, a?

- Stupe...

- Toki tilingni tiyib, fikringni ichingda saqlab yurishni o'rganib olmas ekansan, seni to'xtatib boraveraman, Potter! - tishining oqini ko'rsatdi Snegg, navbatdagi qarg'ish yashinini qaytarar ekan. - Ketamiz! - qichqirdi u, yirik kishiga. - Vazirlik xodimlari yetib kelishadi hozir...

- Impedi...

Vujudini dahshatli og'riq qamrab, maysaga qulagan Garrining gapi og'zida qoldi. Kimdir dod solyapti. Tushunarli, endi u o'ladi, Snegg uni joni chiqquncha yo aqldan ozguncha qiynab tashlaydi...

- Yo'q! - eshitildi Sneggning qichqirig'i.

Og'riq qanday boshlangan bo'lsa, shunday to'xtadi. Garri maysa ustida g'ujanak bo'lib, sehrli tayoqchasini mahkam ushlab olgancha, hansirab yotibdi. Yuqorida Sneggning qichqirig'i eshitildi:

- Esingizdan chiqdimi? Potterning hayoti Yovuz Lordga tegishli. Uni shu yerda tashlab ketishimiz kerak! Bo'ldi bas, ketdik! Ketdik!

Garri lunji bilan yerning zirillaganini his etdi. Amikus, Alekto va anavi yirik kishi itoat etib, darvoza tomon yugurishdi. Garri g'azabdan ingradi. Hozir unga na hayotning, na mamotning farqi yo'q. U bazo'r oyoqqa turib, gandiraklab tebrangancha. Voldemorddan qanday nafratlansa, shu darajada nafratlanadigan Snegg tomon odimladi...

- Sektum ...

Snegg tayoqchasini siltab, qarg'ish yashinini qaytardi. Garri endi unga shu qadar yaqinki, yuzini aniq ko'rmoqda. Zaharxanda endi yo'q, yong'in nafratdan burishib, quturib ketar darajaga kelgan qiyotani yoritmoqda. Jamiki irodasini bir yerga

jamlagan Garri ichki ovoz-la:

– Levi...

– Yo‘q, Potter! – baqirdi Snegg.

Nimadir gumburladi. Garri orqaga tisarilib uchgancha, beli bilan yerga qattiq tushib, sehrli tayoqchasi qo‘lidan chiqib ketdi. U xuddi yaqinda minora maydonida yotgan Damblorga o‘xshab, himoyasiz yotibdi. Qulog‘ida Xagrid bilan So‘yloqtishning hayqirig‘i-yu, uvullashi yangramoqda. Birozdan so‘ng ustida Sneggning issiq yong‘in yog‘dusida nafratdan lovullayotgan rangpar basharasi paydo bo‘ldi.

– Mening qarg‘ishlarimni o‘zimga qarshi qo‘llashga jur‘at etyapsanmi Potter? Ularni o‘zim ixtiro qilganman, eshit-yapsanmi, men, zoti past Shahzoda! Jirkanch otang kabi mening ixtirolarimni o‘zimga qarshi qo‘llamoqchimisan? Yo‘q... qo‘lingdan kelmaydi!

Garri sehrli tayoqcha tomon otildi. Snegg qo‘llagan tilsim tayoqchani uzoqqa uloqtirib yubordi.

– Endi o‘ldir meni, – xirilladi nafratlanib, jirkanib ketgan Garri, qo‘rquv hissini yo‘qotib. – Uni o‘ldirgan kabi o‘ldir meni iflos qo‘rqoq...

– BAS QIL, – kutilmaganda aqldan ozgan kishiday chinqirdi, yuzi olov qamragan kulbada ingrayotgan itday qattiq qiynalayotgan qiyofa kasb etgan Snegg. – MENI QO‘RQOQ DEYISHGA JUR‘AT ETMA!

U sehrli tayoqchasini qattiq siltadi. Garri yuziga kuchli qizigan qamchi zarbasini yeganday ag‘anab, yana beli bilan yerga urildi, ko‘zidan o‘t, o‘pkasidan borki havo chiqib ketdi.

Kutilmaganda, yirik qanot shovqini eshitilib, allaqanday bahaybat narsa osmondagi yulduzlarni to‘sib qo‘ydi: Otburgut Sneggni ta‘qib qilib, hamla qilmoqda. Snegg tig‘ misoli o‘tkir panjalaridan nari qochmoqda.

Yotgan o‘rniga bazo‘r o‘tira olgan, ko‘ziga hamma narsa suzib ko‘rinayotgan Garri Sneggning dahshatli qichqirayotgan gippogrifdan qochayotganini ko‘rdi. U bazo‘r oyoqqa turib, xira nigohi ila atrofga, sehrli tayoqchasini topish va ta‘qibni davom etish maqsadida alangladi. Qo‘li bilan maysani paypaslab, alla-

qanday shoxlarni chetga uloqtirar ekan, ko'p vaqt yo'qotdi. Darhaqiqat, sehrli tayoqchasini topib, Snegg qochgan tomon o'girilganda darvoza ustida gir aylanib uchayotgan Otburgutni ko'rdi: Snegg havoda g'oyib bo'lishga ulgurgan.

Xagrid, – chaqirdi, qulog'i bitgan Garri, boshini siltab.
– XAGRID!

Garri gandaraklagancha, yonayotgan kulba tomon odimladi. Yong'in orasidan So'yloqtishni yelkasiga tashlab olgan ulkan tana chiqib keldi. Boshdan oyoq dag'-dag' titrayotgan, butun vujudi qaqshab, uzuq-yuluq nafasi ko'krak qafasini og'ri-tayotgan Garri ularni ko'rgach, biroz yengil tortib baqirgancha tizzasiga cho'kkaladi.

– Ahvoling qalay, Garri? Garri? Biron nima desang-chi...

Paxmoq sochli ulkan tana osmonni to'sgancha, Garrining ustida suzib yuribdi. Havо kuygan teri va yongan yog'och hidiga to'lgan. Qo'lini uzatgan Garri So'yloqtishning umid bag'ishlovchi ilik tanasini his etdi.

– Yaxshiman, – chuqur nafas chiqardi Garri. – O'zing-chi?

– Jonim omon, albatta. Meni o'ldirish uchun unday bema'nilik kamlik qiladi.

Xagrid kaftini Garrining qo'ltig'iga solib sal siltadi. Garri yuqoriga ko'tarilib, oyog'i yerdan uzildi. Oyoqqa turgach, Xagridning shishib borayotgan ko'zi ostidagi chuqur jarohatlangan lunjidan qon oqayotganini ko'rdi.

– Uyingni o'chirish kerak, – dedi Garri. – Aguamenti tilsimi...

– Shunga o'xshash nimadir esimda bor edi-ya, – dedi Xagrid, tutayotgan pushti soyabonini ko'tarib. – Aguamenti! – qichqirdi u.

Soyabon uchidan suv otilib chiqdi. Garri ham nazarida qo'rg'oshin kabi og'irlashib ketgan sehrli tayoqchasini ko'tarib, bazo'r shivirladi:

– Aguamenti!

Xagrid ikkalasi yong'inning so'nggi cho'g'igacha o'chirdi.

– Ishlar u qadar vahimali emas, – quvonch-la xulosa chiqardi Xagrid, tutayotgan vayronani aylanib chiqqach, – Damblдор bularning barini o‘z holiga shu qadar tez qaytaradiki, ikkigacha sanashga ulgurmayсан.

Buni eshitgan Garri qorni qattiq og‘irganidan seskanib ketdi. Hozir, atrofda mutlaq jimjitlik qaror topganda boshiga qanday og‘ir musibat tushganini mana endi his etdi.

– Xagrid...

– Faraz qilyapsanmi, daraxt alvastisining oyog‘ini davolab, bog‘lab o‘tirar ekanman, anavilarning yugurib kelishayotganini eshitib qoldim.

Xagrid boshini ma‘yus siltab, yonib ketgan kulba tomon imo qildi:

– Bitta qolmay kuyib ketishgan bo‘lsa kerak, bechoralar...

– Xagrid...

– Qasrda nima bo‘ldi o‘zi, Garri? It quvgan soqovday qochib chiqishganini ko‘rdim. Nima uchun Snegg ham chiqib ketdi, ularga qo‘shilib? Qayoqqa ketdi u o‘zi?... Anavilarni tutib kelishgami?

Garrining tomog‘i tutun va dahshatdan qurib qolgan.

– U... – tomoq qirdi Garri. – Xagrid, u o‘ldirdi...

– O‘ldirdi? – baland ovozda so‘radi Xagrid pastga, Garriga qarab. – Snegg o‘ldirdimi? Kimni? Nimalar deyapsan o‘zi?

– Dambldorni, – gapini tugata oldi Garri. – Snegg... Dambldorni o‘ldirdi.

Xagridning ko‘zi jovdirab, yuzining tuk bosmagan qismi anglamaslik qiyofasini kasb etdi.

– Dambldorning nimasini o‘ldirdi? A, Garri?

– Dambldor o‘ldi, Xagrid. Snegg uni o‘ldirib qochdi.

– Unday dema, – gapni bo‘ldi Xagrid qo‘pol ohangda. – Snegg Dambldorni o‘ldirdi emish-a!.. Bo‘lmag‘ur gapni yig‘ishtir, Garri. Nimaga kerak bunday gaplar?

– Ko‘z o‘ngimda sodir bo‘ldi.

Xagrid bovar qilmay, boshini siltadi. Aftidan, u Garri

qarg'ish ta'siridan yoki boshiga yegan zarbadan o'zini biroz yomon his etyapti, degan xayolga borgan ko'rinadi.

– Hodisa, nazarimda, mundoq bo'lgan, – taxmin qildi Xagrid. – Dambldor unga O'limdan zavqlanuvchilar bilan birga ketishni buyurgan. Buni hamma ko'rishi uchun, tushunyapsanmi, Garri? Menimcha, aynan shunday bo'lgan, ha. Qani, yur, yaxshisi, seni qasrga eltib qo'yay. Yur ketdik, ha, yur, ketdik...

Garri mubohasa qilishga urinmadi ham. Uning vujudi hamon titramoqda. Xagrid ko'p o'tmay, bor gapni o'zi bilib oladi.

Ikkovlon qasr tomon yo'l oldi. Aksariyat derazalarda chiroq yongan. Ichkarida hozir ko'pchilik xonama xona yugurib, bir-biriga O'limdan zavqlanuvchilar, Ajal belgisi, kimdir o'ldirilgani haqida aytib berayotganini Garri aniq tasavvur qildi.

Katta ochilgan eman eshik qasrga olib keladigan yo'lak va maysazorga yorug'lik tushirgan. Pijama va xalat kiygan odamlar asta sekin soyabonli pillapoyaga chiqishmoqda. Ular pillapoyadan tushib, zulmat qa'riga kirib ketgan O'limdan zavqlanuvchilarni ko'rish maqsadida bo'lsa kerak, asta mo'ralashmoqda. Lekin Garrining nigohi eng baland minora bo'sag'a-siga yo'nalgan. Uning ko'ziga dastlab, garchi ushbu masofadan aniq ko'rish mumkin bo'lmasa-da, kichik qora do'nglik ko'rindi. Taxminicha, Dambldorning jasadi yotishi kerak bo'lgan joyga qarab borar ekan, minora yaqinida odam to'plana boshladi.

– Qayoqqa mo'ralashyapti ular? – so'radi Xagrid, ikkalasi qasrga yaqin kelganda. – Maysada nima yotibdi? – ovoz ko'tardi u, xaloyiqdan ko'zini uzmay. – Ko'rdingmi, Garri? Devor tagiga qara? Belgi ostida... jin ursin... birortasini itarib yuborishdimi a?...

Xagrid, aftidan, miyasiga kelgan dahshatli mulohazasini aytib yuborishdan cho'chidi, shekilli, jim bo'lib qoldi. Yuzi va so'nggi yarim soat ichida son mingta yashin tekkan oyog'i kuchli lovullayotgan Garri, uning yonida bormoqda. Ongini qandaydir g'alati befarqlik qamrab olgan Garri tanasi bor-yo'qligini sezmayapti. Ko'krak qafasini yorib yuborayotgan og'riqdangina xalos bo'la olmayapti.

Xagrid ikkalasi tushda bo'layotganday past ovozda g'udullayotgan xaloyiq orasidan o'tib, o'quvchi va o'qituvchilar kesib o'tishga jur'at etmayotgan chegaraga kelishdi.

Xagrid qayg'u va larzadan ingrab to'xtadi. Garri to'xtamadi, u asta olg'a odimlab, Damblorning yoniga keldi-da, yerga o'tirib oldi.

Umid yo'qligini Damblдор tomonidan qo'llanilgan, kishi vujudini suyakday qotiradigan To'liq Tana-bint tilsimi o'z ta'sirini yo'qotganda tushunib yetgan edi. Chunki bunday holat, ushbu Petrifikus Totalus tilsimini qo'llagan kishi halok bo'lgandagina ro'y berishi mumkin. Shunday bo'lsa ham Garri, bunday dahshatli manzaraga tayyor emas edi: o'z davrining buyuk sehgari... jonsiz tana, har tomon uzatilgan qo'l-oyoq.

Agar oyoq-qo'li g'alati egilgan bo'lmaganida, ko'zi yumuq Damblдор uxlayapti degan xayolga borish mumkin. Garri qo'lini uzatib, yarim oy shaklidagi ko'zoynagini tuzatdi, og'iz burchagidan oqib chiqqan qonni yengi bilan artdi va qariyaning dono chehrasiga diqqat-la qarab, bo'lishi mumkin bo'lmagan dahshatli haqiqatni idrok etishga urindi. Damblдор endi hech qachon Garri bilan gaplashmaydi, hech qachon yordam qo'lini uzatmaydi.

Orqasida past ovozda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir eshitgan Garri-ga tizzasi allaqanday qattiq narsaga qadalayotganini sezib, pastga qarashi uchun ancha vaqt kerak bo'ldi.

Ikkalasi bugun qo'lga kiritgan medalyon Damblorning cho'ntagidan tushib, aftidan, zarba kuchidan bo'lsa kerak, qop-qog'i ochilibdi. Garchi Garri hozir har qanday his-hayajon chega asidan o'tib ketgan holatda bo'lsa ham bunda nimadir noto'g'ri ekani haqida o'ylanib qoldi.

Garri qimmatbaho buyumni qo'lida aylantirib ko'rdi. Medalyon xotiradagi medalyondan kichik bo'lib, unda na naqsh va na Slizerinning belgisini anglatgan ohanjamador «S» harfi bor. Ichida ham portret o'miga solib qo'yilgan pergament bo'lagidan tashqari, hech narsa yo'q.

O'z harakatini idora qilmagan Garri qog'oz bo'lagini chiqardi-da, orqasidagi ko'plab tayoqchalar taratayotgan yorug'-

likka tutib o'qidi:

Yovuz Lordga

Ushbu xatimni o'qiydigan kunning kelguncha ajalim yetishini yaxshi bilaman, lekin sen ham bir narsani bilib qo'yishingni istayman: sening siringni ochgan men bo'laman.

Haqiqiy ruhdonni o'g'irladim. Qo'limdan kelgan kuni uni yo'q qilishni niyat qilganman. Qudrati bo'yicha senga bas kela oladigan raqibingni uchratib, yana o'limga mahkum bo'lib qolgan oddiy insonga aylanishingga umid bog'laganча, o'z ajalimni qarshi olmoqdaman.

R. A. B.

Nima bu? Nima ekanini Garri tushunmadi, tushunishni ham istamadi. Muhimi, bu ruhdon emas. Dambldor dahshatli damlamani ichib, o'z kuchini behuda yo'qotibdi. Pergament bo'lagini g'ijimlagan Garri qaynoq ko'z yosh to'kdi. So'yloqtish ham unga jo'r bo'lib, uvulladi.

XXIX BOB

QAQNUS FIG'ONI

– Yur, Garri.

– Yo'q.

– Umrbod qola olmaysan bu yerda... tur, ketdik.

– Yo'q.

Yelkasida Xagridning qo'li qaltirayotgan Garri Dambldorning jasadidan nari ketishni, umuman qilt etishni xohlamayapti.

– Tur, Garri, ketdik, – eshitildi boshqa ovoz.

Kimningdir kichkinagina, iliq kafti Garrining qo'lini siqib yuqoriga tortdi. Beixtiyor itoat etgan Garri xaloyiq orasidan so'qirday o'tdi. Birozdan so'nggina u, Jinnani xushbo'y gul hididan tanib, qasrga kirayotganini anglab yetdi. Atrofda kimlardir

ho'ngrab, hiqillab, gapirib yig'lamoqda, tun tinchini baland ovozlar buzmoqda... lekin Garrining qulog'iga hozir hech nima chalingani yo'q. Jinna bilan birga indamay odimlagancha dastlab qasr pillapoyasiga ko'tarildi, u yerdan vestibulga kirdi. Uning ko'ziga hamma narsa xira ko'rinib, suzmoqda, odamlarning hayron nigohlari-yu, hayajonli pichir-pichirlarini deyarli sezmayapti. Jinna uni marmar zina tomon yetakladi. Polda sochilib yotgan «Griffindor» yoqutlari, qon dog'iday yaltiramoqda.

– Kasalxonaga boramiz, – dedi Jinna.

– Yaralanganim yo'q, – e'tiroz bildirdi Garri.

– Makgonagallning buyrug'i bu, – tushuntirish berdi

Jinna. – Hozir hamma: Ron, Germiona, Lyupin o'sha yerda.

Garri seskanib ketdi: polda harakatsiz yotgan tanalar yodidan ko'tarilibdi.

– Jinna, yana kim halok bo'ldi?

– Tashvish tortma, bizga qarashlilardan hech kim.

– Biroq Ajal belgisi... Malfoy kimningdir tanasi ustidan hatlab o'tganini aytgan edi.

– Billning ustidan. U tirik.

– Rostdanmi? – so'radi Garri, qizning ohangidan biroz xavotirlanib.

– Rost. To'g'ri, Uolk uni biroz jarohatlagan... Pomfri xonimning aytishicha, zohiriy ko'rinishi o'zgarib, endi ilgari-giday bo'lmaydi, – javob berdi Jinna, ovozi biroz titrab. – Oqibati nima bilan yakunlashi hali noma'lum. Aytmoqchimanki, o'sha Uolk maxluq tusiga kiradigan odam, albatta, lekin hozir Oy to'lgan emas.

– Boshqalar-chi. Jang vaqtida yana kimdir yerda yotgan edi, shekilli.

– Nevill. Lekin Pomfri xonimning aytishicha, batamom tuzalib ketishiga ishonchi komil ekan. Professor Flitvik hushini yo'qotgan edi. Hozir u o'ziga kelib, biroz lanj bo'lishiga qaramay, ravenklochilarni nazorat qilmoqda. O'limdan zavqlanuvchilardan biri o'ldirish qarg'ishini o'ng-u so'lga qo'llagan anavi oq sariq sochli tentak sherigining dastidan o'ldi. Agar baxt-u tole damlamasini tashlab ketmaganingda, Garri, hammamiz

halok bo'lar edik. O'sha qarg'ish yashinlari bizga tegmay, yonimizdan uchib o'taverdi.

Ikkovlon kasalxonaga yetdi. Kiraverishdagi karavotda Nevill uxlayapti. Narigi burchakdagi karavot atrofida Ron, Germiona, Luna, Boms va Lyupin to'plangan. Xonaga kimdir kirganini eshitib, hammasi o'girilib qarashdi. Germiona Garri tomon tashlanib, uni quchib oldi. Lyupin ham olg'a qadam tashladi.

– Ahvoling qalay, Garri? – tashvish-la so'radi u.

– Yaxshiman... Bill qalay?

Hech kim javob bermadi. Garri Germionaning yelkasi uzra burchakka qaradi. Karavotda tanib bo'lmaydigan darajada jarohatlangan kishi yotibdi. Yuzining teri qoplamasi shu qadar yirtilganki, bo'rttirib tasvirlangan niqobni eslatadi. Pomfri xonim barmoq do'mboqchilari bilan jarohatga o'tkir hidli yashil malham surtmoqda.

– Biron-bir tilsim vositasida tuzatib bo'lmaydimi? – so'radi Garri feldsher ayoldan, Malfoyning jarohatini Snegg osonlikcha tuzatganini eslab.

– Bunday jarohatga tilsim yo'q, – javob berdi ayol. – Juda ko'p narsalarni sinab ko'rganman, lekin... maxluq tusiga kiradigan odam yetkazgan jarohatga dori yo'q.

– Uni oydin kechada tishlamadi-yu, – dedi Ron, akasiga, nigohi ila tuzatib yuborguday darajada termilib. – Uolk maxluq tusiga kirmadi, demak Bill ham haqiqiy bo'lib qolmaydi, shundaymi?

Ron umid-la, Lyupinga qaradi.

– Haqiqiy maxluqqa aylanmaydi, albatta, – javob berdi Lyupin. – Biroq zahar qonga singib kirgan. La'nat o'qilgan jarohat bu, Ron. To'la-to'kis bitib ketishi qiyin. Billning tabiatida bo'rining tabiatiga xos sifatlar paydo bo'lishini ham inkor etib bo'lmaydi.

– Hechqisi yo'q. Damblдор biron nima o'ylab topadi, – dedi Ron. – Qani o'zi u? Bill aynan Damblдорning buyrug'iga binoan jang qildi anavi ifloslarga qarshi. Shunday ekan, unga yordam berishga majbur. Shu holatda tashlab qo'ymaydi-yu, axir...

– Ron... Dambldor halok bo'ldi, -- asta ma'lum qildi Jinna.

– Yo'q! – xitob qildi Lyupin.

U nigohini Jinnadan Garriga olib o'tib, aflidan, qizning xabari rad etilishiga umid qildi. Rad javobini eshitmagan Lyupin o'zini karavot yonidagi kursiga tashlab, qo'lini yuziga bosdi. Lyupinni bunday ochiq hissiyot namoyon etishini hali hech ko'rmagan Garri o'zini, birovning shaxsiy hayotiga bexosdan aralashgan kishiday his etib teskari o'girildi va Ronning nigohiga ro'baru kelib, xabar rost ekanini nigohi ila tasdiqladi.

– Qanday halok bo'ldi, u? – pichirlab so'radi Boms. – Nima bo'ldi?

– Uni Snegg o'ldirdi. Mening ko'z oldimda, -- dedi Garri.

– Dambldor ikkalamiz Belgi osilgan minoraga kelib qo'ndik... Uning ahvoli juda yomon, nihoyatda zaif edi, lekin Belgi tuzoq ekanini darhol fahmladi... Zina bo'ylab kimdir yugurib chiqayotganini eshitib, ustimga ko'rinmas plash tashlangan holatimda harakatsizlantirib qo'ydi... hech narsa qila olmadim... minora maydoniga Malfoy chiqib, meni harakatsiz holatga keltirayotgan Dambldorni qurolsizlantirdi...

Germiona og'zini kafti bilan yopdi, Ron ingradi, Lunaning labi titradi.

– ... O'limdan zavqlanuvchilar to'plandi... so'ng Snegg kelib... Avada Kedavrani qo'lladi.

Pomfri xonim ho'ngradi. Jinnadan tashqari, hech kim uning yig'isiga e'tibor qilmadi.

– Jim! Eshityapsizmi?

Yig'isini ichiga yutgan feldsher ayol barmog'ini labiga mahkam bosib, ko'zini katta ochgancha, tek qotdi. Uzoqda qaqnus sayrayapti. Garri bunday xonishni hali hech qachon eshitmagan – dard-alam ifoda etilgan tengi yo'q chiroyli kuy. Har doim bo'lgandek, mo'jizali qush tovushini eshitgan Garriga, ushbu kuy uning ichidan chiqayotgan, chekkan azoblari sirli ravishda qo'shiqqa aylanib, qasr uzra uchayotgan, derazalarga kirib borayotganday tuyuldi.

Qaqnus ovozi eshitib qancha vaqt turishganini Garri

bilmaydi, bunday chiroyli qayg'uli tovush nima uchun ichki og'riqni biroz yengillashtirishini ham bilmaydi.

Eshik ochilib, kasalxonaga professor Makgonagall kirib keldi. Yuzining timdalangani va egnidagi kiyimining yirtilganidan, yaqinda, boshqalar bilan birgalikda jang qilgani ko'rib turibdi.

– Molli bilan Artur hozir yetib kelishadi, -- ma'lum qildi u.

Schrli kuy tindi, hamma xayolini yig'ishtirib olib, ko'z yoshini artgancha, yana Bill tomon burildi.

– Garri, minorada nima bo'ldi? -- so'radi professor Makgonagall. – Xagridning aytishicha, hodisa joyida bo'lgan ekansan va professor Damblдор... uni... bu ishda professor Snegg aralashgan...

Snegg Damblдорni o'ldirdi, qisqa qildi Garri.

Professor Makgonagall qattiq tebranib ketishdan oldin Garriga ma'lum vaqt baqrayib qoldi. O'zini qo'lga olgan Pomfri xonim professor tomon tashlanib, havoda kursi yaratgancha, Makgonagallni o'tqizdi.

– Snegg, -- kursiga quladi Makgonagall. – Snegg... Hammamiz taajjublanar edik... Damblдор esa unga ishonar edi... hamisha... Snegg-a... bovar qila olmaysan kishi...

– Snegg okklumensiyaning havosini olgan, -- ta'kidladi Lyupin, o'ziga xos bo'lmagan keskin ohangda. – Buni hammamiz juda yaxshi bilar edik.

– Biroq Damblдор Snegg biz tomonda deya ont ichgan! -- pichirladi Boms. – Damblдор Snegg haqida biz bilmaydigan narsani biladi, deb yurar edim.

– Sadoqatini isbot qiladigan metindek mustahkam dalillari borligini aytgan, -- po'ng'illadi Makgonagall, katak gulli dastro'moli bilan ko'zini artib. – Sneggning tarjimai holi inobatga olinadigan bo'lsa, hayratlanishga hojat ham yo'q edi... ammo Snegg haqida biron-bir yomon gap eshitishni istamagan Damblдор, uning tavbasi samimiy bo'lganini qat'iy ta'kidlar edi!...

– Nima bilan Damblдорning boshini aylantirib qo'ygan ekan, a, u maraz?! -- vishilladi Boms.

– Men bilaman nima bilan aylantirganini! – xitob qildi Garri, hammani o'ziga qaratib. – Snegg ayrim ma'lumotlarni Voldemortga yetkazgan. Natijada, Voldemort ota-onamni ta'qib qilgan. Bunday bo'lishini kutmagan Snegg Damblдорning huzuriga kelib, pushaymon yegani, ularning o'limidan achinayotganini aytgan.

– Va Damblдор laqqa tushgan, degin? – ko'zi kosasidan chiqib ketar darajada baqraydi Lyupin. – Snegg achinibdi? Jeymsga-ya? O'larcha nafratlanish bilan bir vaqtda-ya?!...

Onamdan ham nafratlangan u, – qo'shimcha qildi Garri. – Magllar oilasida dunyoga kelgani uchun maglvachcha der edi...

Garri buni qayerdan bilishini hech kim so'ramadi. Dahshatli hodisadan hamma kuchli ruhiy larzada.

– Hamma ayb menda, – dedi kutilmaganda professor Makgonagall, qo'lidagi dastro'molini g'amgin g'ijimlab. – Madadga yetib kelishi uchun Sneggning xonasiga Filiusni men yuborgan edim! Agar O'limdan zavqlanuvchilar haqida bexabar qolganda, ularga qo'shilib ketmagan bo'lar edi. Qasrga singib kirishganini Filius aytmaganda, bilmas edi ham... ularning rejasi-dan boxabar bo'lganiga ishonmayman.

– Sen aybdor emassan, Minerva, – dedi Lyupin qat'iy ishonch-la. – Bizga, chindan ham, yordam kerak edi. Snegg yetib kelishidan quvongan edik.

– U yetib kelishi bilan O'limdan zavqlanuvchilar tomon o'tib ketdimi? – so'radi Garri.

Sneggdan yanada kuchli nafratlanib, qasos olish uchun, uning ikkiyuzlamachiligi, ablahligiga oid yangidan yangi tafsi-lotlar, isbot, dalil va shohidliklarga Garri hozir tashna bo'lib turibdi!

– O'sha holat qanday ro'y berganini hozir aniq eslay olmayman, – dedi parishonxotir professor Makgonagall. – Mi-yamda hammasi aralashib ketdi... Damblдор maktabni bir necha soatga tark etishini aytib, menga, har ehtimolga qarshi, qasr yo'laklarida patrullik xizmatini uyushtirishni tayinlab ketdi... Rem, Bill va Nimfadora yetib kelishdi... Qasr yo'laklarida biroz

yurdik. Hamma yoq jim. Yashirin yo'llar yopiq, eshiklar kuchli tilsim vositasida qulflangan. Ichkariga hech kim uchib kira olmaydi. O'limdan zavqlanuvchilar qasr ichiga qanday kirishganini haligacha tasavvur qila olmayman...

– Men bilaman, qanday kirishganini, – dedi Garri.

U Malfoy haqida va g'oyib qilish javonlarining jufti-yu, ular orasidagi yo'l to'g'risida qisqacha so'zlab berdi.

– Xullas, O'limdan zavqlanuvchilar qasr ichiga bir juft g'oyib qilish javoni vositasida Darkor xona orqali kirishgan, – ma'lum qildi Garri Ron bilan Germiona tomon beixtiyor qarab.

Ikkalasi yer yorilsa-yu, kirib ketsa holatiga kelib qolgan.

– Lapashanglik qilib qo'ydim, Garri, – ma'yus ohangda iqrar bo'ldi Ron. – Sen aytgandek ish tutdik: Kafanduzd xaritasini tekshirib, Malfoyni topa olmadik. Shundan so'ng Darkor xonaning eshigini poylagani men, Jinna va Nevill... shunga qaramay, Malfoy yonimizdan o'tib ketishga muvaffaq bo'ldi.

– Taxminan bir soatcha turdik, o'sha yerda, – dedi Jinna. – So'ng topilib chiqdi u, o'zining anavi dahshatli qo'lini ushlab...

– Nurafshon qo'l, – dedi Ron. Faqat ushlab turgan odamgagina yo'l yoritadi, esingdami?

– Ehtimol, o'sha bo'lsa kerak, ha, – davom etdi Jinna. – O'limdan zavqlanuvchilarni chiqarish mumkin yoki mumkin emasligini tekshirdi, bizni ko'rib, havoga allaqanday qabohat sepdi, yo'lak qop-qorong'i bo'lib qoldi...

– Peruning bir onda zulmat qoplash kukuni, – alam-la xo'rsindi Ron. – Fred bilan Jorjning do'konidan. U ikkalasi kimga nima sotayotganini biladimi, o'zi?

– Biz Lyumosni ham, Insendioni ham qo'llab ko'rdik, kor bermadi! – arz qildi Jinna. – Devor paypaslab yurishga to'g'ri keldi. Yonimizdan esa kimlardir yugurib o'tdi. Ehtimol, Malfoy o'sha qo'l nurida yo'l ko'rib, jinoiy sheriklarini boshlab borgan-dir, lekin biz bir-birimizga zarar yetkazmaslik uchun qarg'ish qo'llamadik. Yorug'ga chiqqanimizda esa ularning birortasi ko'rinmadi.

– Xayriyatki, Ron, Jinna va Nevill bizga ro'baru kelib qolib, bor gapni aytib berishdi, – dedi Lyupin xirillagan ovozda.

– Biz ularni bir necha daqiqa ichida, astronomiya minorasi yaqinida quvib yetdik. Aftidan, Malfoy patrul xizmatiga ro‘baru kelib qolishni xayoliga ham keltirmagan. Shu bois zulmat qoplash kukunining yetarli zaxirasini olmagan. Jang boshlanib, ular har tomon qochishdi. Biz raqibni taqib qildik. Ularning orasida odamsimon maymunga o‘xshagan, ismi jismiga mos keladigan Gibbon laqabligi bor edi. U qolganlardan ajrab, minoraga olib chiqadigan zina tomon yugurdi...

– Minora ustida Ajal belgisini paydo qilish uchunmi? – so‘radi Garri.

– Shunday bo‘lsa kerak, – javob berdi Lyupin. – Nazarimda, ular bu haqda Darkor xonada kelishib olishgan, lekin Dambldorni yolg‘iz o‘zi kutib olishga Gibbonning yuragi betlamagan, shekilli, tez ortga qaytib, sheriklariga yordam bermoqchi bo‘ldi-yu, shu zahoti menga tegishiga sal qolgan O‘ldirish qarag‘ishining yashiniga ro‘baru bo‘ldi.

– Demak, Ron, Jinna, Nevill darkor xona eshigini poylagan, sen-chi Germiona?... – so‘radi Garri.

– Luna bilan birga Snegg kirib o‘tirgan xona eshigini poyladim, – pichirladi Germiona, ko‘zidan yosh kelib. – Kim bilsin, qancha o‘ralashib yurdik o‘sha yerda... behuda. Kafanduzd xaritasi Ronda, yuqori qavatda nima bo‘layotganidan xabarimiz yo‘q.... Tun yarmida qasrga kirib olgan O‘limdan zavqlanuvchilar haqida baqir-chaqir qilgancha professor Flitvik yugurib keldi. Luna ikkalamizni sezmedi ham shekilli, xonaga uchib kirib, Sneggni yordamga chaqirgani, birozdan so‘ng esa nimadir gumburlaganini eshitdik. Snegg xonasidan yugurib chiqib bizni ko‘rdi...

– Xo‘sh? – betoqat bo‘ldi Garri.

– Ahmoq ekanman, Garri! – hayajon-la pichirladi Germiona. – Professor Flitvik hushdan ketib qolganini ma‘lum qilgan Snegg, kirib unga yordam berishni buyurdi, o‘zi esa maktabga O‘limdan zavqlanuvchilar kirib olishgani bois yordamga yugurishi kerakligini aytdi.

Qiz qo‘lini yuziga bosib, barmoq orasidan bo‘g‘iq ovozda gapira ketdi:

– Biz xonaga kirib professor Flitvik, chindan ham, polda hushsiz yotganini ko‘rdik... endi hammasi tushunarli: Snegg professorga qarata Urrib yiqitish qarg‘ishini qo‘llagan, biz esa hech narsani tushunmadik, Garri, oqibatda Sneggni qo‘ldan chiqardik!

– Sizlarda ayb yo‘q, Germiona, – dedi Lyupin qat‘iy ohangda. – Agar sizlar Sneggning aytganini qilmay, yo‘ldan qochmaganingizda, ikkalangizni ham o‘ldirgan bo‘lar edi.

Garri xayolan qora korjomasi hilpiragan Sneggning ortidan borib, marmar zinadan ko‘tarilganini tasavvur qildi.

– Demak u, yuqoriga ko‘tarilib, sizlarni uchratgan, shundaymi?... so‘radi u.

– Vaziyat yomon bo‘lib, biz yutqazayotgan edik, – gap boshladi Boms. – Gibbon o‘ldi, lekin qolgan O‘limdan zavqlanuvchilar oxirigacha kurashishga ahd qilishgan ko‘rinadi. Nevill jarohatlandi, Billni Uolk g‘ajib tashladi... Yo‘lak qorong‘i, atrofdagi qarg‘ish yashinlari uchib o‘tmoqda... Malfoy qayoqqadir yo‘qoldi, aftidan, pisibgina minoraga chiqib olgan... O‘limdan zavqlanuvchilar uning ortidan yugurdi... ulardan biri zinaga chiqish joyini sehr vositasida to‘siq qo‘ydi... O‘limdan zavqlanuvchilarning ortidan yugurgan Nevill ortga uchib quladi...

– Biz olg‘a odimlay olmadik, – davom etdi Ron. – Anavi yirik O‘limdan zavqlanuvchi qarg‘ish yashinlarini har tomon uloqtirdi, xayriyatki, yashinlar bizga tegmay devordan sapchidi...

– Aynan mana shu fursatda Snegg paydo bo‘ldi-yu, tez orada yana yo‘qolib qoldi... – esladi Boms.

Men ham uni biz tomon yugurib kelayotganini ko‘rdim-u, yashinga chap berib chalg‘idim, – dedi Jinna.

– Zinaning sehrli to‘siq‘i orqali oson o‘tib ketganini ko‘rib, ortidan ergashdim, – qo‘shimcha qildi Lyupin. – Biroq men ham Nevillday ortga uchib tushdim.

– Aftidan, qarg‘ishga qarshi qarg‘ishdan xabardor bo‘lgan, – pichirladi Makgonagall. – Har qalay, u yovuz kuchdan himoya fani o‘qituvchisi-yu... men uni minorani zabt etishga muvaffaq bo‘lgan O‘limdan zavqlanuvchilar ortidan chiqqan, degan xayolga boribman-a.

– Shunday bo‘ldi ham, – dedi darg‘azab bo‘lgan Garri. – Faqat ularga qarshi jang qilish uchun emas, aksincha, amaliy yordam berish maqsadida chiqdi. Boshimni kundaga qo‘yib ont ichamanki, o‘sha to‘siqdan o‘tish uchun qo‘lida Ajal belgisining tasviri bo‘lishi kerak... Minoradan tushgach nima qildi?

– Yirik tanali O‘limdan zavqlanuvchi o‘z qarg‘ishi bilan shiftning yarmini o‘pirib, zinani to‘sgan sehnri bartaraf etib yubordi, – javob berdi Lyupin. – Biz, ya‘ni hali oyoqda turganlar yuqoriga otildik. Kutilmaganda, chang orasida Snegg bilan Malfoy ko‘rindi. Tabiiyki, biz ularga tegmadik.

– O‘limdan zavqlanuvchilardan qochishyapti, degan xayolga borib, ularni o‘tkazib yubordik, – dedi Boms og‘ir xo‘rsinib. – Chindan ham, to‘rtalasi, ularning ortidan Uolk bilan birga tushib keldi. Biz yana jangga kirishdik. Snegg nimadir deb baqirdi-yu, men anglamadim.

– U o‘zining asosiy vazifasini bajarganini sheriklariga ma‘lum qilib: «Ish bitdi, chekinamiz!» – dedi, – esladi Garri.

Hamma jim bo‘lib qoldi. Derazadan yana Yangusning xonishi eshitilib, Garri dahshatli narsalar haqida o‘yladi: Dambldorni yotgan joyidan olib ketishdimi? Endi uni nima qilishadi? Qayerga dafn etishadi?

Cho‘ntagidagi qo‘lini musht qilib tukkan Garri sovuq buyumni, xususan, kichkinagina soxta ruhdonni his etdi. Eshik kutilmaganda lang ochilib, hamma seskanib ketdi. Xonaga mister va missis Ueslilar yopirilib kirishdi. Ikkalasining ortidan yuzi dahshatdan burishgan Flyor shoshib kirdi.

Professor Makgonagall kursidan sapchib turib, Ueslilarni qarshi oldi:

– Molli... Artur... Ming afsus...

– Bill, – pichirladi Makgonagallga e‘tibor qilmagan missis Uesli, o‘g‘lining dabdalasi chiqqan yuziga qarab. – Bill, o‘g‘lim!

Lyupin bilan Boms karavot oldidan tez nari ketib, mister va missis Ueslilarga joy bo‘shatishdi. Miss Uesli engashib, labini o‘g‘lining qonli peshanasiga bosdi.

– Uolk jarohat yetkazdi dedingizmi? – so‘radi boshqa

narsa haqida o'ylayotgan, fikri tarqoq mister Uesli professor Makgonagalldan. – Oy to'lmagan mahalda... Nima degani bu? Billga nima qiladi endi?

– Hozircha bilmaymiz. dedi Makgonagall, Lyupinga nochor qarab.

– Artur, fikrimcha, uning qoni biroz zaharlangan, – dedi Lyupin. – Bugungi holat g'ayrioddiy, yagona bo'lib... xushiga kelgan Billning xulqi qanday kechishi hozircha noma'lum.

Missis Uesli Pomfri xonimning qo'lidan sassiq malhamdorini olib, Billning jarohatlariga o'zi surta boshladi.

– Dambldor-chi... – dedi mister Uesli. – Eshitganimiz rostmi, Minerva? U, chindan ham?...

Professor Makgonagall bosh iring'idi.

Garri yonidagi Jinnaga e'tibor qildi. Biroz qo'zg'alib qo'ygan qiz, ko'zini qisib olgancha, Billga baqrayib qolgan Flyorni diqqat bilan kuzatmoqda.

– Bizga farqi yo'q, muhim emas... zohiriy ko'rinishi qanday bo'lishi... vassalom... – yig'ladi missis Uesli. – O'g'lim biram barno, chiroyli... uylanmoqchi edi-ya!...

– Nima?! – kutilmaganda baqirdi Flyor. – «Edi», deganingiz nimasi?

Ko'z yoshi duv-duv oqayotgan missis Uesli cho'chib, Flyorga qaradi.

– Men... shunchaki...

– Fikg'ingizcha, Bill menga uylanishdan bosh tog'tadi, shundaymi? – so'radi Flyor darg'azab ohangda. – Yuzidagi allaqanday tish izlag'i dastidan endi meni sevmay qo'yadi-da, a?

– Yo'q, men... unday demoqchi...

– Uylanmay qayoqqa bog'adi! – o'shqirdi Flyor, qaddini rostlagancha, ki mush tusli chiroyli sochini beliga tashlab. – Big'yag'amas, fles, ag'limas maxluq tusiga kiradigan u' bizi ayig'a olmaydi!

– Ha, ha, albatta, – o'zini yo'qotdi missis Uesli. – Menga... men... yuzaga kelgan vaziyat... o'ylabmanki... endi u...

Balkim, siz men haqida shunday fikrga bog'landig'siz, a?! Yo shunga umid bog'lagansiz, shundaymi? – battar

jahl qildi Flyor, burun kataklari shishib. – Menga nima fag'qi bog', uning qiyofasi qanday bo'lishi? Mening husnim eg'im ikkalamizga bemalol yetib og'tadi! Chandiqli esa eg'kak ziynatidig'! Eg'imning chandiqlari uning haqiqiy qahg'amonligini ko'g'satadi! Va... Bu yoqqa beg'ing-e, o'zim!

Flyor missis Ueslining qo'lidagi malham dorini tortib olib, o'zini sal nari turti. Eriga borib urilgan missis Uesli Billga dori surtayotgan Flyorga parishonlik-la qarab qoldi.

Ayolning yuzi nihoyatda g'ayrioddiy qiyofa kasb etganidan hamma jim bo'ldi. Qilt etishga jur'at eta olmagan Garri ham boshqalar kabi missis Ueslining g'azabdan portlashini kutdi.

– Xolamiz Myurielda sochga taqiladigan juda chiroyli soch toji bor, nihoyat tilga kirdi missis Uesli uzoq sukut saqlagach. – Goblinlar tayyorlagan juda noyob zargarlik buyumi! O'ylaymanki, to'yga taqib chiqish uchun vaqtincha berib tursa kerak... U Billni hammadan ortiq ko'radi... ishonchim komilki, o'sha toj senga juda yarashadi.

– Minnatdog'man, – quruqqina javob berdi Flyor. Chig'oyli ko'g'inishiga shubha qilmayman.

Qanday ro'y berganini Garri ilg'ab olishga ulgurmaydiyu, lekin soniya o'tar-o'tmas, ikkala ayol bir-birini mahkam quchoqlagancha, ho'ngradi.

Jamiki jahon esini yeb qo'ymaganiga ishonch hosil qilish uchun Garri Ronga qaradi. Ron ham qattiq taajjubda. Jinna bilan Germiona bir-biriga hayrat-la qarab turibdi.

– Ana ko'rdingmi! kutilmaganda xitob qildi Boms, Lyupinga darg'azab qarab. Qizga farqi yo'q! Yigiti g'ajib tashlangan bo'lishiga qaramay, unga erga tegmoqchi!

– Bu boshqa holat, – javob berdi kuchli zo'rriqqan Lyupin, qimtib olgan labini sekin qimirlatib. Bill haqiqiy maxluqqa aylanmaydi. Holat mutlaqo boshqacha...

– Menga farqi yo'q! – ezildi Boms, Lyupinning yoqasini mahkam ushlagancha siltab. – Buni senga million marta aytganman.

«Mana endi tushunarli, – xayoldan o'tkazdi Garri – Qizning yangi Himoyachisi, sochining kulrangi, Uolk kimni g'ajiga-

nini bilish uchun Damblorning huzuriga yugurib kelgani... Boms Siriusni emas Lyupinni sevib qolgan ekan-u!»

Men esa senga million marta takrorlaganman, – dedi nigohini olib qochgan Lyupin polga qarab. – Sen uchun keksalik qilaman... kambag'al odam va... nihoyatda xavfliman...

– Men esa ushbu bahonalaring jiddiy emas, kulgili deb charchadim, Rem, – dedi Flyorning yelkasini qoqib o'tirgan missis Uesli.

– Hech ham kulgili emas, – e'tiroz bildirdi Lyupin. – Boms nisbatan yosh, sog'lom yigitga turmushga chiqishi kerak.

– Lekin unga aynan sen keraksan, miyig'ida kulib qo'ydi mister Uesli. – Yoshlik, salomatlik esa Rem, barham topadigan sifatlardan biridir, – dedi u, boshi bilan karavotda yotgan o'g'li tomon ma'yus imo qilib.

– Ushbu mavzuni muhokama qilish mavridi emas hozir, – po'ng'illadi atrofga alanglagan, lekin hech kimga qaramagan Lyupin. – Damblor halok bo'lgan...

– Dunyoda sevgi-muhabbat zig'irday bo'lsin, ko'payganidan Damblor xursand bo'lar edi, xolos, – hikmat qildi professor Makgonagall uzuq-yuluq chiqqan ovozda.

Eshik ochilib, yuzining soch-soqoldan holi qismi shishib, ko'z yoshdan yiltillayotgan Xagrid kirib keldi. Ho'ngrab siltanayotgan davangir no'xat gulli, o'ta katta dastro'molini g'ijimlamogda.

– Men... hammasini bajardim, professor, – bildiruv berdi davangir, gapi bo'g'ziga tiqilib. – Ol... olib o'tdim uni. Professor Sarsabil xonim bolalarni o'z yotoqxonalariga tarqatdi. Professor Flitvik tez tuzalishni va'da qilgancha yotibdi, professor Divangard esa vazirlikka xabar bergani haqida aytib qo'yishni iltimos qildi.

– Rahmat, Xagrid, – minnatdorlik bildirdi professor Makgonagall, o'midan turgancha, Billning karavoti atrofida to'planganlarga qarab. – Men vazirlik vakillari bilan uchrashishim kerak. Xagrid, fakultet mudirlariga, ularni o'z xonamda kutayotganim haqida xabar ber, Divangardga ayt, u «Slizerin» nomidan chiqishi mumkin. O'zing ham kel.

Xagrid bosh irg'ib ortga burildi-da, oyog'ini bazo'r sudrab, chiqish eshigi tomon odimladi.

– Ular bilan uchrashishdan oldin, Garri, sen bilan gaplashib olmoqchi edim, – dedi professor Makgonagall Garriga yuzlanib. – Iltimos, yur men bilan.

Garri, o'rnidan turar ekan, Ron, Germiona va Jinnaga qarab pichirladi:

– Ko'rishguncha.

Qasrning bo'm-bo'sh yo'laklarida sukunat qaror topgan. Professor Makgonagall bilan birga ketayotgan Garri qaqnusning sayrayotganini eshitdi. Uning professor Makgonagallning xonasi emas, Damblorning xizmat xonasi tomon yo'l olganini Garri endi fahmladi. Modomiki, professor Makgonagall direktor o'rinbosari bo'lgan ekan, xulosa qildi Garri, demak, endi u... yangi direktor... ajdar tusli tosh ilon himoyasidagi xona endi professor Makgonagallga tegishli.

Ikkovlon harakatchan aylana zina bo'ylab yuqoriga ko'tarilib, dumaloq xonaga kirdi. Bu yerda endi nimani ko'rishi mumkinligini, xususan: xona aza tutilgan holatga keltirilib, qora mato bilan qoplanganinimi yo Damblorning jasadinimi, Garri tasavvur ham qila olmadi. Ichkariga kirgach, Damblor ikkalasi bir necha soat oldin qanday tark etishgan bo'lsa, xona o'sha holatda qolganini ko'rdi. Ingichka oyoqli stolchalar ustida bug' chiqarayotgan kumush asboblari aylanmoqda, oy nuri aks etayotgan shisha javonda Griffindor shamshiri yarqiramoqda, yozuv stoli ortidagi tokchada saralovchi Shlyapa turibdi. Yangusning tilla qo'nog'i bo'sh, xolos. Qaqnus qasr atrofida sayrab xonish qilmoqda. «Xogvars»ning sobiq direktorlari qatorida esa yangi portret paydo bo'libdi... Damblor o'zining oltin hoshiyali portretida xotirjam mizg'ib o'tiribdi, yarim oy shaklidagi ko'zoynagi ilmoqsimon burnida tekis turibdi.

Professor Makgonagall ushbu portretga qarab, ruhan tetik bo'lib olish uchun bo'lsa kerak, g'alati silkinib oldi-da, yozuv stolini aylanib o'tib, Garriga yuzlandi. Ayolning yuzi qat'iy-lashib, ajinlari keskin ifodalandi.

– Garri, – gap boshladi u, – Damblor ikkalangiz bugun

qayerga borib, nima ish qilganingizni bilmoqchiman.

– Buni ayta olmayman, professor, – javob berdi Garri.

Bunday savol berilishini kutgan Garri, javobni ham oldindan tayyorlab qo‘ygan. Chunki Dambldor yakka tartibdagi mashg‘ulotlar haqida Ron bilan Germionadan tashqari hech kim bilmasligi kerakligini aynan shu yerda, ushbu xonada tayinlagan.

– Garri, bu juda muhim masala bo‘lishi mumkin.

– Bu o‘ta muhim masala, professor, – ma‘qulladi Garri.

Lekin Dambldor bu haqda hech kimga og‘iz ochmaslikni tayinlagan.

Professor Makgonagall domangir nigoh-la baqraydi.

– Potter, professor Dambldor halok bo‘lgach, vaziyat keskin o‘zgarganini...

– Men esa vaziyat o‘zgarmas qolgan, deb bilaman, – yelka qisdi Garri. – Professor Dambldor, halok bo‘lsa, uning har qanday buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotishini menga hech qachon aytmagan.

– Biroq...

– Lekin vazirlik xodimlari yetib kelguncha bir narsani bilib qo‘yishingiz kerak. Rosmerta xonim Qaram qilish qarg‘i-shining ta’siri ostida yuribdi. Malfoy bilan O‘limdan zavqlanuvchilarga o‘sha ayol yordam bergan. Zaharlangan marjon shodasi bilan asal musallasi...

– Rosmerta-ya? – bovar qilmay so‘radi professor Makgonagall.

Ayol ortiq so‘z ayta olmadi. Eshik taqillab, xonaga ma‘yus yuzli Sarsabil xonim, Flitvik, Divangard va butun tanasi silkinib, tasalli topmay ho‘ngrayotgan Xagrid kirib keldi.

– Snegg! – dedi rangi o‘chgan Divangard darg‘azab ohangda. – Uni o‘zim o‘qitganman-a! Tabiatini yaxshi bilaman deb yurgan ekanman-a!

Hech kim javob qaytarishga ulguradi. Kimsasiz portret matosida qora sochi qisqa olingan sehrGAR tasviri paydo bo‘lib, keskin ovozda ma‘lum qildi:

Minerva, vazir bir necha soniyadan so‘ng yetib keladi. U hozirgina vazirlikda havoda g‘oyib bo‘ldi.

— Minnatdorman, Everard, — bosh iringi idi Makgonagall. — Vazir yetib kelguncha, — shoshilinch gap boshladi u, xonada turganlarga murojaat qilib, — sizlar bilan «Xogvars» qismatini muhokama qilmoqchiman. Yanagi o'quv yilida maktab o'z faoliyatini davom etishiga ishonchim komil emas. Direktor o'z qo'l ostidagi hamkasbining qo'lidan o'lim topishi isnodimizga tushirilgan misli yo'q dog'dir. Dahshat.

— Maktab yopilishini Damblдор istamagan bo'lar edi, — ma'lum qildi Sarsabil xonim komil ishonch ohangida. — Bir nafar o'quvchi qolgan taqdirda ham maktab to'laqonli ishlashi shart.

— Bir nafar bo'lsa ham bo'larmikan o'sha o'quvchi, shuncha ishdan keyin? — dedi Divangard, yaltiroq peshanasini shoyi dastro'moli bilan artib. — Ota-onalar o'z farzandlarini o'zidan uzoqlashtirmay qo'yadi va men ularni to'g'ri tushunaman. Shaxsan mening, fikrimcha «Xogvars» har qanday boshqa joyga nisbatan xavfli emas, biroq har qanday ona ushbu fikrimni ma'qullamaydi. Bola uyda, ota-ona bag'rida bo'lgani xavfsizroq degan xayolga borishadi ular va bu tabiiy, albatta.

— To'g'ri, — xo'rsindi professor Makgonagall. — Damblдор bunday vaziyat yuzaga kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilmagan deb ham bo'lmaydi. Maxfiy xona yana ochilganda maktabni yopish masalasi haqida jiddiy o'ylanib qolgan edi. Direktorning o'ldirilishi esa qasr yerto'lasida yashaydigan allaqanday maxluq muammosidan ancha jiddiyroq masaladir.

— Ushbu masalani vasiylar kengashi hukmiga qo'yish berish lozim, — dedi professor Flitvik ovozi g'ijirlab. — O'ylamay-netmay qaror chiqarish emas, belgilangan tartibga amal qilish darkor.

Uning peshanasida katta ko'kariq yaltirayotgani inobatga olinmasa, hushdan ketgan boshqa alomatlari ko'rinmaydi.

— Xagrid, sen nega indamayapsan? — so'radi professor Makgonagall. — Nima deb o'ylaysan, «Xogvars»ni yopish kerakmi-yo'qmi?

Yirik dastro'moliga ko'z yoshini unsiz to'kib o'tirgan Xagrid, shishib ketgan ko'zini ko'tarib, hiqilladi:

— Bilmadim, professor... Bu fakultet mudirlari va yangi

direktorning vakolatiga kiradigan masala...

– Professor Dambldor sening fikringni hamisha qadrlab kelgan, – dedi professor Makgonagall muloyim ovozda. – Men ham qadrlayman.

– Shaxsan o‘zimga shu yerda qolaman, albatta, – javob berdi ko‘z yoshi soqoli orasiga oqib kirayotgan Xagrid. Bu yer o‘n uch yoshimdan buyon uyim bo‘lib qolgan. Agar darsimni olish ixtiyorini bildirgan bolachalar topilsa, bajonidil. Faqat «Xogvars» Dambldorsiz... qanaqangi «Xogvars» bo‘lar ekan, bilmadim...

Ho‘ngrab yuborgan Xagrid yuziga dastro‘molini mahkam bosib oldi. Oraga jimlik cho‘kdi.

– Yaxshi, – dedi professor Makgonagall derazaga qarab, – unday bo‘lsa, Filiusning taklifini ma‘qullashga majburman. Vasiylar kengashiga murojaat qilamiz. Yakuniy qarorni kengash qabul qilsin. Endi bolalarni uy-uyiga jo‘natish masalasiga kel-sak... fikrimcha, ushbu ishni tezroq amalga oshirgan ma‘qul. «Xogvars-ekspress»ni erta tongga chaqirtirishimiz ham mumkin.

– Dafn marosimi nima bo‘ladi? – gapga aralashdi Garri.

– Dafn marosimi... – bo‘shashdi professor Makgonagall.

– Men... Dambldor shu yerda, «Xogvars»da yotishni orzu qilganini bilaman, xolos...

– Demak, aynan shunday bo‘ladi ham, to‘g‘rimi? – talab ohangida so‘radi Garri.

– Agar vazirlik lozim topsa, – javob berdi Makgonagall.

– Sobiq direktorlardan birortasi hali...

– Sobiq direktorlardan birortasi o‘z hayotini maktabimizga Dambldorchalik fido etmagan, – fikr bildirdi Garri, dag‘dag‘ali ohangda.

– Dambldorning so‘nggi makoni «Xogvars» bo‘lishi lozim, – dedi Flitvik.

– To‘g‘ri, – ma‘qulladi Sarsabil xonim.

– Unday bo‘lsa, o‘quvchilarni dafn marosimi o‘tmay, uyga jo‘natib bo‘lmaydi, – davom etdi Garri, bo‘g‘ziga nimadir tiqilib. – Ular professor Dambldor bilan vid...

– Vidolashishni istashadi, – Garrining fikrini yakunladi

Sarsabil xonim.

– Juda to'g'ri! – chiyilladi Flitvik. – O'quvchilar vido-
lashib olishlari kerak, to'g'ri! Shundan so'ng biz ularni uy-uyiga
tarqatamiz.

– Ma'qul, – qisqa qildi Sarsabil xonim.

– Shunday qilish kerak, – hayajonlandi Divangard.

Xagrid ham bo'g'i ovoz chiqarib, rozilik bildirdi.

– Kelyapti, – kutilmaganda ma'lum qildi professor Mak-
gonagall, pastga, maktab hovlisiga qarab. – Vazir va unga
ergashgan vakillar galasi...

Garri Rufus Skrimj bilan uchrashish, uning savollariga
javob berishni istamadi.

– Ketsam, maylimi, professor?

– Mayli, – ijozat berdi professor Makgonagall, – va im-
kon qadar tezroq, – qo'shimcha qildi u.

Professor shiddat-la odimlab, chiqish eshigini ochdi.
Garri aylanma zinadan tez tushib, nari ketdi. Ko'rinmas plash-
ning astronomiya minorasi maydonida qolgani ahamiyatsiz ekan.
Chunki yo'laklarda hech zog' yo'q. Na Filch, o'zining mushugi
missis Norris bilan, na Dryuzg ko'rindi. Hech kimni uchrat-
magan Garri yettinchi qavatga, «Griffindor»ning umumiy meh-
monxonasiga olib boradigan yo'lakka burildi.

– Shu gap rostmi? Dambldorning o'lgani rostmi? –
pichirladi «Semiz Xola».

– Rost, – dedi Garri.

Oh urgan portret parol aytilishini kutmay, oldinga teb-
rangancha, Garrini ichkariga o'tkazib yubordi. Garri taxmin qil-
ganday, umumiy mehmonxona odamga to'la. U kirib kelishi
bilan jimjitlik qaror topdi. Din bilan Simus ham shu yerda
o'tirishibdi. Demak, yotoqxonada hech kim yo'q, yo deyarli hech
kim yo'q. Biron og'iz so'z aytmagan Garri hech kimga qiyo boq-
may, xonadan o'tib, yotoqxonaga kirib, eshikni ichkaridan yopib
qo'ydi.

Bilganday, Ron yechinmay, uni kutib o'tiribdi. Garri
karavotiga o'tirdi. Ikki o'n ma'lum vaqt sukut saqlagancha, bir-
biriga qarab qoldi.

– Maktabni yopishmoqchi, – ma'lum qildi Garri.

– Lyupin taxmin qilgan edi, shunday bo'lishini.

Yana jim bo'lishdi.

– Xo'sh? – nihoyatda past ovozda so'radi Ron, xuddi karavotlar eshitib qoladiganday. -- Topdingizmi? Olib kelishga muvaffaq bo'ldingizmi? Anavi... ruhdonni-chi?

Garri bosh siltadi. Qora ko'lda bo'lib o'tgan hodisa hozir unga unutilgan dahshatday ko'rindi. Nahotki bo'lib o'tdi?!

– Yo'q? – hafsalasi pir bo'ldi Ron. – Yo'q ekanmi u yerda?

– Boshqa odam olib ketibdi. O'rniga soxtasini qoldiribdi, - tushuntirdi Garri.

– Olib ketibdi?...

Garri kissasidan soxta medalyonni indamay chiqarib ochdi-da, Ronga uzatdi. Tafsilotlar hozir muhim emas, keyin aytib bersa ham bo'laveradi... ko'lga behuda borib-qaytish yakunidan, Damblorning hayoti poyoniga yetganidan tashqari, hozir hech narsa muhim emas...

R.A.B., – dedi Ron past ovozda. – Kim u?

– Tasavvur ham qila olmayman.

Garri o'zini karavotga tashlab, shiftga tikildi. Uni hech qanday R.A.B. qiziqirmaydi hozir. Biror narsa qiziq bo'lishi ham dargumon. Tashqari jimjit bo'lib qoldi, Yangus kuyini bas qildi.

Nima uchun va qandayligini bilmaydi-yu, Damblor bu dunyoni tark etganday... Garrini tashlab ketganday, qaqnus ham «Xogvars»ni umrbod tark etganini anglab yetdi.

XXX BOB

OQ MAQBARA

Barcha mashg'ulotlar bekor qilindi, imtihon kechga qoldirildi. Damblдор halok bo'lgan kunning ertasiga ertalab ba'zi o'quvchilarni, masalan egizak opa-singil Parvattilarni ota-onasi olib ketdi. Zakkerayes Smitning kalondimog' otasi ham o'g'lini maktabda qoldirmadi. Simus Finnigan esa onasiga qo'shilib ketishdan bosh tortdi. Ikkalasi vestibulda bir-biriga baqirgancha uzoq bahslashib, nihoyat dafn marosimi o'tguncha shu yerda qolishga kelishib olishdi. Simusning gapiga qaraganda, tunagani bazo'r joy topa olibdi. Xogsmiyodda Damblдор bilan vidolashish istagini bildirgan sehrgarlar erkaklar-u afsungar ayollar to'lib-toshib ketibdi.

Dafn marosimi arafasida «Taqiqlangan o'rmon» chetiga asta qo'ngan xira moviy rang, o'lchami uyday keladigan, o'ta yirik o'n ikkita uchar otga qo'shilgan ot arava boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida katta shov-shuv ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Derazadan qarab o'tirgan Garri eshik ochilib, narvonchadan nihoyatda yirik, tanasining rangi och jigarrang, qora sochli go'zal ayol tushib, Xagridning quchog'iga otilganini ko'rdi. Sehrgarlik vaziri va uning vakillari qasrga joylashtirildi. Damblдор so'nggi bor qayoqqa borganiga doir savol-javoblardan qochgan Garri ularni chetlab yurdi.

Garri, Ron, Germiona va Jinna hamisha birga bo'lishdi. Havo ajoyib. Garri beixtiyor agar Damblдор o'lmaganida nima bo'lishini tasavvur qilib ko'rdi: ta'tildan oldingi so'nggi kunlar, havo yaxshi, uyga berilgan biron-bir vazifa yo'q. Jinnaning imtihoni tugagan.

Kuniga ikki mahal kasalxonaga qatnashdi. Nevillga javob berildi, lekin Bill hali Pomfri xonimning kuzatuv ostida yotibdi. Tashqi qiyofasi ila endi u O'ynoqko'z Xmuriga o'xshab qolgani va kutilmaganda chala pishgan bifshteksni xush ko'rib qolgani hisobga olmaganda, hech o'zgargani yo'q.

– Menga uylanib to'g'g'i qilyapti, – baxtiyor chug'urladi

Flyor, Billning yostig'ini o'tgan oqshom qoqib qappaytirar ekan.
– Siz inglizlag' go'shtni haddan og'tiq qizag'tirib deyag'li kuydig'ib qovug'asiz ekan deb kelgan edim doim.

Hozir Garri, Jinna, Ron va Germiona umumiy mehmonxonada, deraza yonida o'tirib, qorong'i tushishini tomosha qilishmoqda.

– Ularning to'yi muqarrar ekanini tan olmay iloj yo'q, shekilli, – xo'rsindi Jinna.

– Flyor yomon qizga o'xshamaydi, – dedi Garri va Jinning qoshi ko'tarilib ketganini ko'rib, tez aniqlik kiritdi: – Sal xunukroq, lekin.

– Oyim ularga toqat qilar ekan, men ham dosh beraman, – dedi Jinna beixtiyor hirlinglab.

– Tanishlar orasidan hech kim o'lmabdimi? – so'radi Ron, «Bashorat-u karomat gazetasi»ni varaqlab o'tirgan Germionadan.

Ronning yasama bag'ri toshligidan yuzini burishtirgan Germiona gazetani taxlab, gina ila javob berdi:

– Yo'q, o'lmabdi. Sneggni qidirishyapti, faqat natijasiz...

– Albatta, – gap qistirdi Garri, ushbu mavzu ochilishi bilan har safargiday qizishib. – Voldemortni topishsagina, Sneggni topa olishlari mumkin, ular esa shuncha vaqtdan buyon...

– Borib yotay, – esnadi Jinna. – Anavi kuni yotoqxonadan chiqqandan buyon... m-m-m... uxlab olsak, yomon bo'lmaydi.

Jinna Garrini o'pib qo'ydi-da, qolganlarga qo'l siltab, yotoqxonasiga kirib ketdi. Shu zahoti yuzi haqiqiy germionacha qiyofa kasb Germiona Garriga engashdi:

– Ertalab kutubxonaga kirib, bir narsa topdim...

– R.A.B. haqidami? – so'radi Garri.

Uning tabiatiga xos bo'lgan qiziquvchanlik, sinchkovlik, muayyan sirni fosh etib, tagiga yetish kabi sifatlaridan hozir asar ham qolmagan. Medalyon haqidagi haqiqatni bilishi kerakligini tushunib turibdi, xolos. Shundagina u, Damblдор ikkalasi kirgan, endi yolg'iz o'zi yurishi lozim bo'lgan zulmat ichidagi ilonizi yo'ldan biroz bo'lsa ham olg'a yura oladi. Voldemortni o'ldirish-

ga oz bo'lsa ham imkon paydo bo'lishi uchun, aftidan, to'rtta ruhdonni topib, yo'q qilishga to'g'ri keladi. Garrining xayolida ertadan kechgacha: «medalyon... jomcha... ilon... Griffindor yoki Ravenkloning biron nimasi... medalyon... jomcha... ilon... Griffindor yoki Ravenkloning biron nimasi...» so'zlari aylanadi. Go'yo bu bilan u, o'sha ruhdonlarni o'ziga yaqinlashtira olishga umid qilganday.

Ushbu misra Garrining miyasida butun oqshom aylanib, tushida uni medalyonlar, jomchalar, allaqanday boshqa sirli, yetishishning imkoni bo'lmagan buyumlar ta'qib qildi. Dambldor yordam tariqasida tushirgan arqon narvon esa Garri oyog'ini qo'yishi bilan ilonlarga aylandi...

Dambldor halok bo'lgan kunning ertasiga ertalab Garri Germiona medalyondan topilgan xatni ko'rsatgan edi. Taas-sufki, xat muallifi qoldirgan sirli ism-sharifning bosh harflarida Germiona muqaddam o'qigan kitoblarida uchragan biron-bir qadimiy sehrgarni tanimadi, lekin o'sha fursatdan boshlab kutubxonaga, uy vazifalaridan xoli odam uchun g'ayrioddiy sur'atdan tez tarzda qatnab qoldi.

– Yo'q, – ma'yus bosh siltadi Germiona. – Qidirayman Garri, ammo hozircha hech narsa uchramayapti. To'g'ri, bosh harflari shunday boshlangan Rozalinda Antigona Bretel, Rupert «Alebarda» Brukstenton ismli sehrgar bo'lgan ekan-u, lekin ular mutlaqo to'g'ri kelishmaydi. Xat mazmuniga qaraganda, ruhdonni o'g'irlagan shaxs Voldemort bilan shaxsan tanish bo'lgan. Bretel va Alebarda esa Voldemort bilan osh-qatiq bo'lishmagan. Har qalay, buning aksini tasdiqlaydigan ma'lumotlarga duch kelmadim hali... umuman men, e-e.. Snegg haqida aytmoqchi edim.

Ushbu ismni talaffuz etgan qiz shu zahoti asabiylasha boshladi.

– Xo'sh? – qoshini chimirdi Garri, o'zini kreslo suyanchig'iga tashlab.

Zoti past Shahzoda masalasida haq ekanimni aytmoqchiman, asta g'udulladi Germiona.

– Va sen endi bir umr peshanamga taqillatib yurasan, a? – ta'na qildi Garri. – O'zimning ko'nglim behuzur bo'lib keta-

yotgani haqida hech o'ylab ko'rmadingmi?

– Yo'q... yo'q... Garri, men boshqa narsa haqida aytmoqchiman! – ovoz ko'tardi Germiona, birov eshitmaganiga ishonch hosil qilish uchun atrofga alanglab. – Darslik, chindan ham, bir vaqtlar Shahzoda Eylinga, ya'ni Sneggning onasiga tegishli bo'lgan ekan.

– Uning basharasi bilan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas, – gap qistirib o'tdi Ron.

– «Bashorat-u karomat gazetasi»ning ko'p yillardan buyon yig'ilgan to'plamini varaqlab chiqdim, – dedi Germiona, Ronning gapiga e'tibor qilmay, – va kichik bir e'lonni topishga muvaffaq bo'ldim. Unda Shahzoda Eylin allaqanday Tobias Snegg ismli kishiga turmushga chiqqani va ko'zi yorib...

– Qotil tug'gani haqida yozilgan, – dedi Garri, darg'azab ohangda.

– Ha, shunday, – bosh irg'idi Germiona. – Bir so'z bilan aytganda men haq bo'lib chiqdim. Snegg, chindan ham, zoti past Shahzoda bo'lganidan g'ururlanib yurgan. Negaki e'lon mazmuniga qaraganda, Tobias Snegg magl bo'lgan.

– Bari to'g'ri kelyapti, – xulosa chiqardi Garri. – Snegg Lyutsius Malfoy va shunga o'xshash har xil qabohatlar oldidagina o'zini asilzot qilib ko'rsatishga uringan. Aslida esa Voldemortdan farq qilmaydi: onasi asilzot afsungar ayol, otasi g'irt magl... ikkalasi ham o'z nasl-nasabi, kelib chiqishidan or qilgan va shu bois hammani dahshatga solish maqsadida yovuz sehrjoduga mukkasidan ketgan, o'ziga o'zi jarangdor nom qo'yishgan: Lord Voldemort va zoti past Shahzoda. Nega buni Dambldor tushunib yetmaganiga hayronman?...

Garri derazaga qarar ekan, Dambldorning kechirilmas ishonuvchanligi haqida vijdoni qiynalib o'y surdi... Qolaversa, bu masalada o'zi ham qolishmasligini hozirgina Germiona beixtiyor ta'kidlab o'tdi. Darslikning bo'sh joylarida bitilgan o'sha tilsim-u qarg'ishlar tobora jirkanch ko'rinib. Garrining o'zi o'sha tilsim va qarg'ishlarni ixtiro qilgan yosh bola haqida yomon xayolga borishdan bosh tortmoqda... axir, u bola juda aqlli bo'lib, Garriga hazilakam yordami tegdimi.

Yordami tegdi.... hozir, bunday fikrga dosh berish juda qiyin kechyapti.

– Bir narsani tushunmayapman, -- dedi Ron. – Nega u darslik bilan bog‘liq siringni fosh etib tashlamadi? Nimani qayerdan olayotganingni fahmlagan bo‘lsa kerak, axir.

– Albatta, fahmlagan! – alam-la xitob qildi Garri. Sektumsempradan bilib bo‘lgan. Hatto legalimensiya ham kerak bo‘lmadi. Ehtimol, sal ilgariroq fahmlagandir, Divangard mening daf‘atan namoyon bo‘lgan iste‘dodimni ko‘kka ko‘targanda... nima maqsadda qoldirdi ekan javonda, o‘sha eski darsligini...

– Har qalay, nega Snegg darslik bilan bog‘liq siringni fosh etmadi?

– Kitob uniki ekanini tan olishni istamagan, – taxmin qildi Germiona. – Damldorga yoqmagan bo‘lar edi bu. Snegg darslikdan yuz o‘giran taqdirda ham Divangard dastxatdan tanib olar edi. Boz ustiga, kitob Snegning eski xonasidan topilgan, Damldor esa onasining familiyasi Shahzoda bo‘lganini yaxshi bilgan.

– Darslikni Damldorga ko‘rsatishim kerak edi, – dedi Garri. – Voldemortning maktabda bosgan har bir qadami yovuzlik sari yo‘nalganini ko‘rsatib kelgan edi u, menga hamisha. Men esa Snegg ham Voldemortdan qolishmasligini isbotlagan bo‘lar edim.

– «Yovuzlik», deyilsa haddan ortiq bo‘lar edi, – asta ta‘kidlab qo‘ydi Germiona.

– O‘zing quloq-miyamni yeb bitirding-ku, o‘sha kitobdan xalos bo‘lishimni talab qilaverib!

– O‘zingni o‘zing haddan ortiq koyib yuboryapsan, demoqchiman. O‘sha zoti past Shahzodang hazil masalasida g‘alati odam bo‘lganini, chindan ham, ko‘p aytganman, lekin qotillikka qodir deb bilmagan edim.

– Snegg bunday ish qilishini hech kim xayoliga ham keltirmagan, – po‘ng‘illadi Ron.

Uchalasi jim bo‘lib, har biri o‘z xayoliga berildi. Do‘stlari xuddi o‘zi kabi ertangi kun, Damldorni dafn qilish marosimi

haqida o'ylashayotganini Garri biladi. Garri hali hech qachon dafn marosimida bo'lmagan. Sirius o'lganida dafn etiladigan jasadning o'zi bo'lmagan. Nima bo'lishi mumkinligini tasavvur eta olmay, o'z his-hayajonidan hayiqmoqda. Qiziq, marosim o'tganidan keyin, Dambldorning halok bo'lganiga nihoyat bovar qilarmikan? Garri ba'zan bo'lib o'tgan hodisani to'liq idrok etib, vujudini dahshat qamrab oladi, qolgan vaqtda esa g'alati serryayib yuradi va garchi qasrda hamma faqat bir mavzuni muhokama qilayotgan bo'lsa-da, Dambldor endi yo'qligiga hech bovar qilgisi kelmaydi. Sirius o'lganda, uning qaytib kelishiga komil ishonch bildirgan kabi Dambldorning qaytishiga ishonmaydi, albatta... Garri kissasidagi soxta ruhdonning sovuq zanjirini his etdi. Ushbu buyumni u doimo yonida, tumor sifatida emas-u, nimaning evaziga qo'lga kiritilgani, oldinda qanday sinovlar kutayotganini yoddan chiqarmaslik maqsadida olib yuradigan bo'lib qoldi.

Ertalab Garri ertaroq turib, narsalarini taxladi. «Xogvars-ekspress» dafn marosimidan bir soat o'tgach, harakat boshlaydi. Katta Zalda jimjitlik hukm surmoqda. Hamma parad korjomasida tamaddi qilib o'tiribdi. Professor Makgonagall «Mo'tabar Stol» o'rtasidagi taxtni eslatadigan nufuzli kreslo bo'sh qolishini buyurdi. Xagridning o'rni ham bo'sh. Snegning o'rnida Rufus Skrinj o'tirib, sarg'ish ko'zi bilan Katta Zalni kuzatib o'tiribdi. Vazirning ko'ziga ko'rinmaslik uchun Garri nigohini undan yashirmoqda. Vazirning hamrohlari orasida malla sochli, muguz hoshiyali ko'zoynak taqqan Persi Uesli alohida ajrab turibdi. O'zini akasi Persini ko'rmagan ko'yga solib olgan Ron sanchqisini likopdagi baliqqa g'azab-la sanchmoqda.

Slizerinchilar dasturxonni ortida o'tirgan Krabbe bilan Goyl pichirlashib o'tirishibdi. Ikkalasi ming salobatli bo'lmasin, rangpar yuzli yetakchisiz nima qilarini bilmay yurgan, ilojsiz qolgan g'alati sargardonlarga o'xshab qolgan. Jamiki nafratini Snegg egallab olgani bois Garri Malfoyni kamdan kam esga olmoqda. Biroq Malfoyning ovozdagi qo'rquv ohangi, O'limdan zavqlanuvchilar yetib kelishidan bir necha soniya oldin

Dambldorga o'qalgan sehrli tayoqchasini deyarli tushirganini yodidan chiqargani yo'q. Malfoyning qotillikka qo'l ura olishiga ishonmagan Garri, yovuz sehrga talpingani bois nafratlanishi bilan bir qatorda, oz bo'lsa ham unga nisbatan shafqat his etadi. Qiziq, qayerda ekan hozir o'sha baxti qora? Ota-onasining hayoti ila tovlayotgan Voldemort nima ishlar qilishga majbur qilyapti ekan uni?

Jinna Garrining biqiniga tirsagi bilan turtib, fikrini bo'ldi. Professor Makgonagall o'rnidan turgach, Katta Zalda eshitilgan ma'yus g'o'ng'ir-g'o'ng'ir shu zahoti tindi.

– Vaqt bo'ldi, – e'lon qildi u. – Marhamat qilib, o'zi mudiringiz ortidan boring. Griffindorchilar ortimdan.

Hamma sukut saqlagancha, kursilar yonida saf tortib, chiqish eshigi tomon yo'l oldi. Slizerinchilar safini egniga kumush bilan bezatilgan zumradrang chiroyli rido kiygan Divangard, xufflpuffchilar safini bugun boshiga birorta bo'lsin yamoq solinmagan shlyapa, egniga batartib kiyim kiygan Sarsabil xonim boshqarib ketishmoqda. Vestibyulda tizzasigacha tushgan qora to'r tashlagan Ships xonim bilan naftalin¹ hidi anqib turgan qora kostyum kiyib, galstuk taqqan Filch yonma yon turishibdi.

Pillapoyaga chiqqach, quyoshning iliq nuri yuzini silagan Garri, ko'l tomon yo'l olish kerakligini angladi. El qatori u ham professor Makgonagallning ortidan indamay odimlamoqda. Ko'l sohilida son sanoqsiz kursilar terilgan bo'lib, o'rtada oq marmar stol tomon olib boradigan yo'lak qoldirilgan. Kun ajoyib, chindan ham, yoz havosi.

Joylarning yarmi yosh-u qari, boy-yu kambag'al odamlar tomonidan allaqachon egallangan. Garri bu yerdagi odamlarning juda ozchiligini taniydi, xolos. Misol uchun. Qaqnus ordenidan Kinsli Kandaler, O'ynoqko'z Xmuri, sochi yana yorqin pushti tus olgan Boms, Rem Lyupin (ikkalasi qo'l ushlashib turibdi, shekilli), mister va missis Uesli, Bill va uni suyab turgan Flyor, ajdar terisidan tayyorlangan qora kostyum kiyib kelishgan

¹Naftalin (yunoncha: naphtha – neft) – aromatik uglevodorod. Rangsiz, o'ziga xos hidli plastinkasimon kristall.

Fred bilan Jorjni ko'rdi. Shuningdek, bu yerda deyarli uchta kursini egallagan Belstek sehr-jodu akademiyasining direktori Maksim xonim, Londonning Charingkross-roudidagi «Teshik qozon» mayxonasining sohibi Tom, Dursllarning qo'shnisi shvax ayol missis Arabella Dorin Figg, «Shaytonning singillari» musiqa guruhining bas-gitarachisi, «Tungi ritsar» avtobusining haydovchisi Erni Halokatfel, Diagon xiyobonidagi «Xonim Malkin – hayotiy holatlar uchun kiyim!» do'koni sotuvchisi Malkin xonim, «Axta cho'chqa kallasi» qovoqxonasining barmeni, «Xogvars-ekspress»da yegulik tashuvchi ayol ko'rindi. Yorqin quyosh nurida ko'z ilg'amaydigan, harakatlangandagina jilvalanib ko'rinadigan shaffof arvoqlar ham shu yerda.

Garri, Ron, Germiona va Jinna bevosita ko'l sohilidagi kursilarga joylashdi. Odamlar qurigan maysa uzra yengil esgan shabadaday past ovozda shivirlashmoqda. Qushlar esa xumori-dan chiqayotgan kabi rosa sayrashmoqda. Odamlarning kelishi tingani yo'q. Garri Lunaning mehribonlik-la Nevillni o'tqazib qo'yayotganiga iliq e'tibor qildi. Dambldor halok bo'lgan tunda jamiki DA tarkibidan faqat shu ikkalasi Germionaning chaqiruviga labbay deya javob berishgan ekan. Buning sababini Garri yaxshi biladi. Aynan shu ikkalasi guruh mashg'ulotlarini sog'in-nishgan va yangitdan yig'ilishga umid qilgan tarzda o'z galleon tangalarini vaqti-vaqti bilan tekshirib borishgan.

Garrining yonidan o'zining sarg'ish yashil qozon shlyapasini qo'lida odatdagiday aylantirayotgan baxti qora sobiq vazir Kornelius Fuj, uning ketidan Rita Vriter o'tdi. Garri ayolning qo'lidagi patqalamga jirkanib qaradi, Dolores Ambrijni ko'rib, nafasi qaytishiga oz qoldi. Po'lat tusidagi gajaklari ustidan qora duxoba bant taqib olgan ushbu ayol baqa basharasida soxta anduh yasab olgan. Sohilda harakatsiz soqchiday turgan kentavr Firensni ko'rgan Ambrij seskanib, imkon qadar undan uzoqqa borib o'tirdi.

Marosimga hozir bo'lganlar nihoyat o'z joyini egalladi. Garri professor Makgonagallning yonida mag'rur o'tirgan Skrimjga qarab, vazir va boshqa odamlar chindan ham Dambldorning vafoti munosabati bilan qayg'uryaptimikan, de-

gan xayolga bordi. Sirli, qandaydir samoviy musiqa yangrab, Garri, ushbu noxush odamlar haqidagi fikridan chalg'idi. Musiqa qayerdan yangrayotganini tushunmay, atrofga alangladi. Musiqa manbasini topa olmay, lol ahvolga tushgan yolg'iz u emas.

-- Ho' anavi yerda, -- pichirladi Jinna Garrining qulog'iga.

Quyosh nuri singib qirgan, yashil tusli shaffof suv ostiga ko'zi tushgan Garri infernallarni eslab, qo'rquvdan seskanib ketdi. Suv parilarining xori tushunarsiz tilda kuylamoqda. Murdadek oppoq, suv yuzasiga yaqin chuqurlikda qalqib ko'rinyotgan basharalar yaqinida nafarmonrang soch turmaklari bilanglamoqda. Ularning g'alati eshitilayotgan ovozi Garrining ensasidagi sochini qo'zg'atdi. Nima qilgan taqdirda ham suv parilari Damblorning o'limi munosabati bilan samimiy ta'ziya tutgan. Jinna Garrining biqiniga yana turtib qo'ydi.

Garri Jinna imo qilgan tomon o'girilib, kursilar orasida qoldirilgan yo'lak bo'ylab yuzi ko'z yoshdan yaltirayotgan Xagridni ko'rdi. Unsiz ho'ng'rayotgan Xagrid zarhal yulduzlar tikilgan binafsharang baxmalga o'ralgan nimadir ko'tarib kelmoqda. Bu Damblor ekanini anglagan Garrining bo'g'ziga nimadir kelib tiqildi. Yozning jazirama issiq kunida kutilmaganida sovg'otdi. Ronning yuzidan qon qochdi. Jinna bilan Germanonaning ko'zlaridan yirik yosh tomchilari tomdi.

Oldinda nima bo'layotganini bolalar durust ko'rishmadi. Xagrid Damblorning tanasini marmar stol ustiga asta qo'yib, o'tirganlardan ayrimlarni, shu jumladan, Dolores Ambrijni qattiq burun qoqishi ila cho'chitgan tarzda ortga qaytdi. Xagridning ushbu qilg'idan Damblor xafa bo'lmasligi, aksincha, iloji bo'lsa ortidan qo'l siltab qo'yishini Garri yaxshi biladi. U faqat Xagrid bu qadar kuchli shishib ketgan ko'zi qanday ko'rayotganiga hayron bo'ldi, xolos. Garri ortga burilib, Xagrid qayoqqa ketayotganini darhol tushundi. Orqa qatorda egniga kostyum kiygan, o'lchami xarsang toshday keladigan boshini xam qilib olgan, deyarli inson qiyofasini kasb etgan Gurp o'tiribdi. Xagrid yoniga o'tirgach, Gurp o'gay akasini yupatgan bo'lib, yelkasiga yengil urib qo'ydi. Mehr namoyon etilgan ushbu zarbadan Xag-

rid o'tirgan kursilar to'rtala oyog'i yarmigacha yerga kirib ketdi. Manzara Garriga ham kulgili ko'rindi. Shu paytda suv parilarining qo'shig'i tinib, Garri yana marmar stol tomon yuzlandi.

Dambldorning tanasi yoniga past bo'yli, egniga qora rang oddiy korjoma kiygan, sochi to'p-to'p kishi chiqdi. U nima deyotganini Garri eshitayotgani yo'q, qulog'iga: «ko'ngil pokligi», «ma'naviy hissa», «ulug'vor qalb» kabi ayrim so'zlar chalinmoqda, xolos. Bularning bari Garri tanigan Dambldorga ahamiyatsiz bo'lib, deyarli daxl qilmas edi. Kutilmaganda uning esiga Dambldorning nutqi tushib qoldi:

«Xush kelibsiz! – xitob qildi o'shanda Dambldor. – «Xogvars»ning yangi o'quv yiliga kelganingiz bilan barchangizni qutlayman! Ziyofat boshlashdan oldin bir og'iz so'z aytmoqchiman sizga. Nitwit! Blubber! Oddment! Tweak! Rahmat!»

Garri o'zini kulgidan bazo'r tiya oldi.

Chap tomonda suvning asta shaloplangani eshitildi: suv parilari nutq eshitish uchun boshlarini suvdan chiqarib olishdi. Ikki yil muqaddam Dambldor ayni mana shu yerda ko'l ustida engashib olgancha, suv parilarining qabila boshlig'i bilan, ularning tilida suhbatlashgan. Qiziq, qayerda o'zlashtirib olgan ekan u, suv parilarining tilini? Garri javobsiz qolgan bir olam savoli borligi, o'zi ham keksa do'stiga ko'p narsalarni aytib bermagani haqida o'ylanib, yuragi qattiq ezildi.

Kutilmaganda, Garrining vujudini dahshatli haqiqat qamradi: Dambldor endi yo'q, u o'ldi... Garrining ko'zi qaynoq yoshga to'ldi. Kissasidagi medalyonni shu qadar kuchli ezdiki, qo'li og'ridi. Shunday bo'lsa-da, o'zini tiya olmadi, Jinnaga, qolganlarga teskari o'girilib oldi. Qora kiyim kiygan kishining gapi hech tugamadi, gapirgani gapirgan. Uzoqqa, ko'lga, o'rmonga qarab o'tirgan Garri kutilmaganda daraxtlar orasida qandaydir harakat sezdi: o'rmonda borki kentavr Dambldor bilan xayrlashgani chiqibdi. Ular o'rmondan tashqariga chiqmay, sehrgarlarni diqqat bilan kuzatgancha, kamonlarini pastga tushirib turibdi. Garri «Taqiqlangan o'rmon»ga ilk bor kirgani, o'sha davrda Voldemort kasb etgan qo'rqinchli maxluq bilan yuzma yuz kelganini, shundan so'ng Dambldor ikkalasi mag'lu-

biyat kurashni bas qilishga sabab bo'la olmasligini uzoq muhokama qilishganini esladi. Eng muhimi Dambldor doimo kurashishga da'vat etgan, faqat kurash bilangina yovuzlikni, batamom yo'q qilib yuborishning iloji bo'lmagan taqdirda ham to'xtatish mumkinligini ta'kidlagan.

Ko'l sohilida, oftobning kuydirayotgan nuri ostida o'tirar ekan, Garrining ko'z oldida, uni yaxshi ko'rgan, navbat bilan himoya qilish uchun kelishgan odamlar: onasi, otasi, cho'qintirgan otasi, Dambldor paydo bo'lishdi. Bunga chek qo'yish kerakligini, endi u, o'zi bilan Voldemort o'rtasiga birov turishiga yo'l qo'ymasligini, ota-onasi har narsaga, har qanday ofatdan qutqarib qolishga qodir emasligini allaqachon idrok etishi kerakligini, uyqudan uyg'onib, ularning bari dahshatli tush bo'lib chiqishiga, hamma narsa yaxshi-yu yomoni tushda qolganiga umid bog'lash mumkin emasligini to'liq tushunib yetdi. Garrining so'nggi, buyuk va qudratli himoyachisi o'ldi, endi u yolg'iz o'zi qoldi.

So'zga chiqqan kishi nihoyat gapini tugatib, joyiga qaytdi. Garri yana kimdir o'rnidan turishi, ehtimol, sehirgarlik vaziri so'zga chiqishini kutdi. Lekin hech kim o'rnidan qo'zg'almadi, hamma jim o'tirdi.

Kutilmaganda qo'rquv aralash sadolar eshitildi. Oppoq yorqin olov jasad va u yotgan oq marmar stolni qamrab oldi. Ko'p o'tmay, olov tili orasida Dambldor ko'rinmay qoldi. Oq tutun spiral shaklida havoga ko'tarilib, g'alati shakllar kasb etdi. Allaqanday fursat ichida yuragi to'xtab qolganday bo'lgan Garrining ko'ziga moviy osmonga quvonch-la ko'tarilgan qaqnus ko'ringanday bo'ldi-yu, olov shu zahoti o'chdi. Odamlarning ko'z o'ngida Dambldorning tanasi yotgan oq marmar stolni o'rab olgan oq maqbara paydo bo'ldi.

Yana qo'rquv aralash sadolar eshitildi. Havoga yuzlab kamon o'qlari ko'tarilib, odamlar o'tirgan joyga yetmay, yerga tushib sanchildi. Kentavrlar teskari o'girilib, o'rmon qa'riga kirib ketganini ko'rgan Garri bu ularning so'nggi salyuti bo'lganini tushundi. Suv parilari ham asta suvga sho'ng'ib, ko'zdan g'oyib bo'lishdi.



Garri do'stlariga qaradi. Ron ko'zi quyosh nuridan qamashganday, ko'zini qisib olgan. Germionaning yuzi ko'z yoshidan yarqiramoqda, lekin Jinna yig'lamay qo'yibdi. U Garrining nigohini kvidish o'yinida g'alaba qozonib, bir-birini mahkam quchoqlab olgan oqshomda qaraganday qat'iy qarshi oldi. Bir-birining fikrini o'qib olishayotganini Garri his etdi, rejasini aytsa: «qo'y, kerak emas» yoki «ehtiyot bo'lginda» kabi javob eshitmasligini, Jinna uning rejasini to'g'ri qabul qilishini tushundi. Shundan so'ng u, aslida Dambldor halok bo'lgan kechada aytishi kerak bo'lgan gapni aytishga jur'at etdi.

– Quloq sol, Jinna... – past ovozda gap boshladi u. – Endi sen bilan ortiq uchrasha olmayman. Bas qilishimiz kerak. Ikkalamiz birga bo'lmasligimiz lozim.

Odamlar o'rnidan turib, asta suhbat qura boshlashdi.

– Qanaqangi ahmoqona oliyjanob sabab ekan, u? – so'radi Jinna zaharli kulib.

– Sen bilan o'tgan so'nggi bir necha hafta... boshqa, nihoyatda chiroyli hayotda o'tganday kechdi... – dedi Garri. – Biroq men endi... biz endi... u yog'iga yolg'iz o'zim ketishim kerak.

Jinna ko'ziga yosh olmadi, shunchaki, Garriga qarab turibdi.

– Voldemort o'z raqiblariga qadrli bo'lgan odamlardan foydalanadi. Bir vaqtlar u sendan, qadrdon do'stimning singlisi ekaningni bilib, qopqonga qo'yilgan xo'rak sifatida foydalandi. Agar uchrashishni davom etadigan bo'lsak, oldinda seni qanday xavf-xatarlar kutishini tasavvur qilib ko'r. Uchrashib yurganimizni esa u, albatta, bilib oladi va sen orqali menga yetishga urinadi.

– Menga farqi bo'lmasa-chi? – jahl qildi Jinna.

– Menga farqi bor, – javob berdi Garri. – Nima deb o'ylaysan, men o'zimni qanday his etgan bo'lar edim, agar bugun Dambldorning emas sening dafn marosiming bo'lsa... va sen, aynan mening aybim bilan halok bo'lgan bo'lsang?

Jinna ko'zini olib qochib, ko'lga qaradi.

– Sen haqingdagi orzularimdan men hech qachon rosta-

kamiga voz kechmaganman, dedi qiz. - Hamisha umid qilib yurganman. O'z hayoting bilan yashashing, erkinroq bo'lish uchun boshqalar bilan uchrashishing kerak, degan edi menga Germiona. Sen bor joyda unimni ham chiqara olmas edim, esingdami? Germionaning fikriga qaraganda esa agar men o'zimni sal erkinroq tutsam, menga e'tibor berasan ekan...

- Germiona ja aqlli qiz-da, - kulib boqishga urindi Garri.

- Kech e'tibor beribman. Ko'proq birga bo'lar edik.

- Yo'q, sen juda band eding. Hamisha sehrarlar olamini qutqarib yurding, - ma'yus xandon otib qo'ydi Jinna. - Qisqasi, meni lol qoldirding deya olmayman. Kun o'tib bir kun shunday bo'lishini, toki Voldemortni o'ldirmas ekansan, baxtli bo'la olmasligingni bilar edim. Ehtimol, shuning uchun ham yoqarsan menga.

Garri ortiq dosh bera olmadi. Jinnaning yonidan turib ketmasa, qat'iyatiga putur yetishidan cho'chidi. Garri Ron tomon qarab qo'ydi. Do'sti tinmay yig'layotgan, uzun burnining uchidan ko'z yoshi tomayotgan Germionaning qo'lini ushlab, sochini silab o'tiribdi. Shartta o'rnidan turgan Garri qo'l siltab, Jinna bilan Damblorning qabriga teskari o'girildi-da, ko'l bo'y-lab nari ketdi. Odimlar ekan, harakatdan oz bo'lsa ham qandaydir yengil tortdi. Ishni kechiktirmay ruhdonlarni qidirishga tezroq kirishgani, Voldemort bilan o'tadigan hayot-mamot jangini izzatqa cho'zmagani ma'qul...

- Garri!

Rufus Skrimj hassasiga tayangancha tez kalovlanib kelmoqda.

- Sen bilan suhbatlashishga umid qilgan edim... biroz birga sayr qilsak degan edim, e'tirozing yo'qmi?

- Yo'q.

Yelkasini befarq qisib qo'ygan Garri yo'lini davom etdi.

- Dahshatli fojia, Garri. - samimiy ohangda gap boshladi Skrimj. - Shaxsan menga naqadar qattiq ta'sir o'tkazganini ifodalab bera olmayman. Damblor davrimizning buyuk sehgari edi. Oramizda, o'zingga ma'lum, ayrim ixtiloflar bo'lgan, albatta... lekin menday yaxshi biladigan odam yo'q...

– Mendan nima istaysiz? – vazmin ohangda soʻradi Garri.

Skrimjning yuzida koʻringan jahl qiyofasi tez hamdard tushunish qiyofasiga almashdi.

– Boshingga tushgan musibat seni ado qilgan, albatta, – dedi u. – Damblдор ikkalangiz juda yaqin odam boʻlgansiz. Sen uning eng xush koʻrgan oʻquvchisi boʻlgansan. Sizlarni birlashtirgan narsa...

– Mendan nima istaysiz? – takror soʻradi Garri, keskin toʻxtab.

Skrimj ham toʻxtab, hassaga tayangancha, Garriga diqqat bilan ochiqdan ochiq nazar solib tikildi.

– Aytishlaricha, oʻlayotganida yonida boʻlgan ekansan?

– Kimning aytishicha? – qiziqdi Garri.

– Damblдорning joni chiqqach, kimdir Oʻlimdan zavqlanuvchini Urib yiqitish qargʻishi bilan yiqitgan. Minora maydonida esa ikkita supurgi topilgan. Vazirlik ikkiga ikkini qoʻshishga qodir, Garri.

– Mana shu gapingizni eshitganimdan nihoyatda xursandman, – javob qildi Garri. – Faqat Damblдор ikkalamiz qayerda, nima maqsadda boʻlganimiz, mening ishim. Buni birov bilishini u hech qachon xohlamagan.

– Bunday sadoqat, tabiiyki, senga obroʻ keltiradi, – dedi jahlini bazoʻr tiyib turgan Skrimj. – Biroq Damblдор oʻldi, Garri, endi u yoʻq.

– Damblдор ushbu maktabni, unga sodiq odamlarning birortasi ham qolmaganidagina tark etadi, – beixtiyor kulib boqdi Garri.

– Bolakay, hatto Damblдор ham qaytib kela olmaydi...

– Men uni qaytadi deyotganim yoʻq... ha, mayli, siz bunday narsalarni tushunmaysiz. Qisqasi, sizga aytadigan ortiq gapim yoʻq.

Biroz ikkilanib turgan Skrimj, aftidan, oʻzining nuqtai nazariga koʻra, xushmuomala ohangda gap boshladi:

– Garri, vazirlik seni misli koʻrilmagan muhofaza bilan taʼminlaydi. Ixtiyoringga ikki-uch nafar avrorni havola etaman...

– Mening payimga shaxsan Voldemortning o‘zi tushgan.
– kuldi Garri. – Hech qanday avroringiz uni to‘xtatib qola bil-
maydi. Taklif uchun rahmat, albatta, lekin javobim -- yo‘q.

– Boshqacha qilib aytganda, – dedi Skrimj, ohangi o‘z-
garib. Rojdestvo kuni kiritgan taklifim...

– Qaysi? A, ha-ya... sizlar zo‘r va Voldemortga qarshi
olib borayotgan jangda ustun kelayotganingizga hammani va har
bir kishini alohida ishontirish. Natijada...

– Jamiyatda xotirjamlik hukm suradi! – irilladi Skrimj.

Garri biroz sukut saqlab, vazirga qarab turdi.

– Qo‘riqchi Stenni ozod etdingizmi? – so‘radi u,
kutilmaganda.

Skrimj qizarib, Vernon amakiga o‘xshab qoldi.

– Sen... sen...

– Suyaginging iligigacha Damldorning odami, – gapni
bo‘ldi Garri. – Ha, shunday.

Vazir darg‘azab o‘qrayib turdi-da, ortiq so‘z aytmay,
shartta teskari o‘girilib, nari kalovlanib ketdi. Persi va uning
boshqa hamrohlari, haligacha o‘rnidan qo‘zg‘almay, ho‘ngrab
o‘tirgan Xagrid bilan Gurpga asabiy qarab-qarab turishibdi.
Skrimj ularning yonidan indamay o‘tdi. Garri ham teskari
o‘girilib, yo‘lini davom etdi. Do‘stlari uni nisbatan baxtli kunlar
o‘tgan qora qayin ostida quvib yetishdi.

– Skrimjga nima kerak ekan? – pichirlab so‘radi Ger-
miona.

– Rojdestvoda kerak bo‘lgan narsa, – yelka qisdi Garri.

– Damldorning sirini bilib olib, meni plakatlarda ko‘rsatila-
digan bolaga aylantirmoqchi.

O‘zi bilan o‘zi ichki kurash olib borayotgan Ron nihoyat
Germionaga yorildi:

– Maylimi, men yugurib borib, anavi Persining po‘sta-
gini qoqib kelsam?

– Yo‘q, – jiddiy ohangda man etdi Germiona. Ronning
qo‘lidan mahkam ushlab olib.

– Afsus, sal yengil tortgan bo‘lar edim, deyman-da!

Garri kulib boqdi. Hatto Germiona ham biroz kulimsira-

gan bo'ldi-yu, qasrga qarab, jiddiy qiyofa kasb etdi.

– Bu yerga qaytib kelmasligimizni hech tasavvur eta olmayman, – dedi u, deyarli pichirlab. – Nahotki «Xogvars»ni yopib qo'yishsa?

– Balki, yopishmas, – javob berdi Ron. – Bu yer uyga nisbatan xavfli emas. Endi hamma joy bir xil xavfli. «Xogvars» esa boshqa joylarga nisbatan xavfsizroq, degan bo'lar edim men. Har qalay, sehrgarlar ko'proq bu yerda. Sen nima deb o'ylaysan, Garri?

– Har qanday holatda ham men bu yerga endi qaytmayman, – javob berdi Garri.

Ronning ko'zi katta ochilib ketdi. Germiona esa ma'yus xo'rsinib qo'ydi.

– O'zim ham shunday deb o'ylagan edim. Nima qilmoqchisan? – so'radi qiz.

– Dastlab Dursllarning uyiga qaytaman. Dambldor shuni istagan edi. Ko'p bo'lmayman u yerda. So'ng ularni umrbod tark etaman.

– Xo'p, maktabga kelmas ekansan, qayoqqa borasan?

Garri Dambldor o'lgan kechada miyasiga kelgan fikrni esladi.

– Godrik jarligiga, – po'ng'illadi u. – Sarguzashtlarim aynan o'sha yerdan boshlangan. Negadir o'sha yerda bo'lishim kerakligini bilaman. Ota-onamning mozarini ziyorat qilishni ko'pdan buyon niyat qilib kelgan edim.

– Xo'p, keyin-chi? – so'radi Ron.

– Keyin ruhdon qidirishga kirishaman, – dedi Garri. ko'lining narigi tomonida qolgan oq maqbaraning suvdagi aksiga qarab. – U shuni istagan va shu bois menga bu haqida aytib bergan. Agar Dambldor haq bo'lib chiqsa, uning haqligiga men zig'irday bo'lsin, shubha qilmayman, yana to'rtta ruhdon qolgan. Men ularni topib, yo'q qilishim kerak va shundan so'nggina. Voldemort ruhining, tanasida yashayotgan yettinchi qismi bilan shug'ullanaman. Chunki aynan men o'ldirishim kerak uni. Yo'l yo'lakay Severus Snegg ro'baru kelib qolsa. – qo'shimcha qildi Garri. Menga yaxshi-yu, unga yomon bo'ladi.

Uchovlon jim bo'lib qoldi. Xaloyiq deyarli tarqadi. Ushlanib qolganlar haligacha ho'ngrashi ko'l uzra yangrayotgan Xagridni quchib o'tirgan Gurpdan ancha nari yurib, aylanib o'tishmoqda.

– Biz sen bilan bo'lamiz, Garri, – dedi Ron.

– Tushunmadim, nima deding? – so'radi Garri.

– Xolang bilan amakingning uyiga birga boramiz, – tushuntirish berdi Ron. – Keyin ham qayerga borishni istasang, o'sha yerga birga boramiz.

– Yo'q, – shu zahoti rad etdi Garri.

Bunday bo'lishini u kutmagan va ushbu xavfli safarga yolg'iz o'zi chiqishi kerakligini do'stlari to'g'ri tushunishini istagan.

– Esingdami, bir vaqtlar: «Qaytishni istasangiz, qaroringizni aybga buyurmayman», – degan eding, – eslatdi Germiona past ovozda. – O'sha kuni biz qaytmadik, to'g'rimi?

– Nima bo'lmasin, biz hamisha sen bilan birga bo'lamiz, – ishontirdi Ron. Biroq qadrdon do'stim, har qanaqangi Godrik jarligidan oldin bizning uyimizga kalla tiqib chiqishingga to'g'ri keladi.

– Sabab?

– Bill bilan Flyorning to'yiga, unutdingmi?

Garri hayrat-la do'stiga baqrayib qoldi. Dunyoda bunday oddiy, to'y kabi odamiy narsalar borligi ham aqlga sig'maydi, ham hayotga go'zallik bag'ishlaydi.

– Ha, to'yni qoldirib bo'lmaydi, – dedi u, nihoyat.

U qo'lidagi soxta ruhdonni odatdagiday, mahkam siqdi. Oldinda uni qorong'i, ilonizi yo'l, Voldemort bilan bir oydan keyinmi, bir yoki o'n yil o'tibmi, muqarrar o'tadigan so'nggi uchrashuv kutmoqda. Shunday bo'lsa-da, Ron va Germiona bilan birga o'tkazadigan zo'r kun borligidan ancha yengil tortdi.

MUNDARIJA

I bob.	Yangi vazir	5
II bob.	Boshi berk To'quvchilar ko'chasi	23
III bob.	Vasiyat va meros	41
IV bob.	Goratsiy Divangard	58
V bob.	Keragidan ortiq Xlorka	81
VI bob.	Drakoning siri	104
VII bob.	Divan-klub	126
VIII bob.	Sneggnig xursandchiligi	149
IX bob.	Zoti past Shahzoda	165
X bob.	Mister Monster	187
XI bob.	Germionaning yordami	207
XII bob.	Kumush va opallar	225
XIII bob.	Noma'lum Reddl	244
XIV bob.	Suyuq omad	263
XV bob.	Buzilmas qasam	287
XVI bob.	Nihoyatda sovuq Rojdestvo	308
XVII bob.	Atayin buzilgan xotira	331
XVIII bob.	Tug'ilgan kun sovg'alari	354
XIX bob.	Kuzatuvchi elflar	377
XX bob.	Lord Voldemortning iltimosi	399
XXI bob.	Ochilmas xona	422
XXII bob.	Dafn marosimi	442
XXIII bob.	Ruhdonlar	462
XXIV bob.	Sektumsempra	483
XXV bob.	Bashorati eshitilgan sohibkaromat	504
XXVI bob.	G'or	523
XXVII bob.	Yashin urgan minora	544
XXVIII bob.	Shahzodaning qochishi	559
XXIX bob.	Qaqnus fig'oni	571
XXX bob.	Oq maqbara	590

JAHON ADABIYOTINING JAVOHIRLARI

Joanna Ketlin ROULING

GARRI POTTER

(ruschadan Dolimov Shokir tarjimasi)

GARRI POTTER VA ZOTI PAST SHAHZODA

(«Garri Potter» romanlar turkumining VI qismi)

Nashrga tayyorlovchi:

Ergashboy MATYOQUBOV

Iqtiboslar va izohlarni tayyorlovchi:

Ergashboy MATYOQUBOV

Bosh muharrir:

Lolaxon QO'ZIBOYEVA

Badiiy muharrir:

Asaloy ESHONQULOVA

Kompyuterda sahifalovchi:

Ergashboy MATYOQUBOV

Dizayner:

Feruzbek VOXIDOV

Litsenziya raqami AI № 274. 15.07.2015 yilda berilgan.

Bosishga 2020 yil 02.07 da ruxsat etildi.

Bichimi 84/108 1/32.

Bosma tobog'i 38 Shartli bosma tobog'i 41

Garnitura "Times New Roman" offset qog'oz.

Adadi 3 000 nusxa. Buyurtma № 7

Bahosi kelishilgan narxda.

"BOOK MEDIA PLUS" xususiy korxonasida tayyorlandi.

Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Cho'pon ota ko'chasi, 6-uy.

"ADAD-PLUS" MC'hJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent, "Bunyodkor" shoh ko'chasi 28-uy. 100097

DIQQAT!!! «Garri Potter» romanlar turkumining o'zbek tili-
dagi ushbu tarjimasini yoki uning bir qismini nashrga tayyorlovchining
maxsus (yozma) ruxsatisiz kitob holida yoki gazeta va jurnallarda chop
etish, elektron ko'rinishida tarqatish, internetga joylashtirish, shuning-
dek, asarda keltirilgan izoh va iqtiboslardan ijodiy foydalanish qat'iy
taqiqlanadi.

